



“OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASHNING DOLZARB MASALALARI: FAROVON HAYOT, TA’LIM VA BARQAROR KELAJAK”

*MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
MATERIALLARI TO‘PLAMI*

(15-may, 2024-yil)



UO‘K:

KBK:

T

“Oila institutini mustahkamlashning dolzarb masalalari: farovon hayot, ta’lim va barqaror kelajak” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami / “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti. – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2024. – 326 b.

Mas’ul muharrir:

N. Egamberdiyeva,

pedagogika fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:

O.Musurmanova, X.Abduramanov, S.Alimov,

B.Mavlonov, M.Bo‘riyeva

Ushbu to‘plamdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-200 qarori 9-bandi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi 16-son buyrug‘ining ijrosini ta’minlash hamda “**Xalqaro oila kunining 30 yilligi**” bilan 2024-yil 15-may kuni “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot institutida “Oila institutini mustahkamlashning dolzarb masalalari: farovon hayot, ta’lim va barqaror kelajak” mavzusida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning maqolalari o‘rin olgan.


Mazkur to‘plam materiallaridan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan holda konferensiya to‘plamiga havola berilishi shart.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondoshuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.

ISBN 978-9943-9654-2-0

© “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti, 2024

© “Mahalla va oila” nashriyoti, 2024





KIRISH SO‘ZLARI



EGAMBERDIYEVA NODIRA MELIBAYEVNA

*“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti direktori,
pedagogika fanlari doktori, professor*

Assalomu alaykum, hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Avvalo, barchangizga bugungi konferensiyadagi tashrifingiz uchun tashakkur aytamiz. Bugun butun dunyodagi eng keng nishonlanadigan bayramlardan biri – Xalqaro oila kuni munosabati bilan Siz bilan uchrashib turibmiz. Ma’lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1993-yil 20-sentyabrdagi yalpi yig’ilishida 1994-yildan boshlab 15-may kunini Xalqaro oila kuni deb belgilangan. Shu kundan boshlab butun dunyoda **15 may — Xalqaro oila kuni** sifatida keng nishonlanadi. Bundan asosiy maqsad jahon hamjamiyati diqqatini oilaviy qadriyatlarga va oila instituti bilan bog’liq muammolarga qaratishdir.

2024-yilda **Xalqaro oila kunining 30 yilligi** butun dunyo bo’yicha keng nishonlanmoqda. Joriy yilda Xalqaro oila kuniga oid tadbirlarni o’tkazishda **iqlim o’zgarishlarning oilalarga ta’siri** haqida xabardorlikni oshirish, oilalarning iqlim o’zgarishlarida qanday rol o’ynashi mumkinligiga e’tibor qaratishga yo’naltirilgan. Bu orqali oilalarning farovonligi va atrof-muhit muammolarining o’zaro aloqadorligini ko’rsatib berish maqsad qilingan. Shuningdek, oilalarga ta’sir ko’rsatuvchi **texnologiyalar taraqqiyoti, demografik o’zgarishlar, migratsiya** kabi tendensiyalarning oilalarga ta’siri ham Xalqaro oila yilining 30 yilligida asosiy mavzular sifatida e’tirof etildi.

Bir necha yildan buyon mazkur sana mamlakatimizda katta bir xursandchilik bilan o’tkazilmoqda. 15-may – O’zbekiston uchun nafaqat oila kuni sifatida ramziy mazmundagi sana, balki eng muhim qadriyat, aksariyat o’zbekistonliklar uchun hayotining mazmunini tashkil etuvchi oila institutning birdamligi kuni, yagona oila sifatida butun dunyoga bo’y cho’zayotgan O’zbekistonning asosiy bayramlaridan biri sifatida qabul qilinmoqda.

Oila o’zbek xalqi uchun oliy qadriyat, uning mustahkamligi, barqarorligi jamiyatning rivojiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlariga bo’yicha 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko’ra, O’zbekiston Respublikasida jami **10 053 895 ta** oilalar mavjud. Har bir oilaning o’ziga xos xususiyatlarining mavjudligini inobatga olgan holda aytish mumkinki, respublikamizda oilalarning xilma-xilligi va o’zaro hamjihatligi barcha oilalarning yagona jamiyat, yagona xalq, yagona katta oilaga birlashuvida asosiy o’rin tutadi.

Mamlakatimizda oila institutini rivojlantirishda **yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, yuqori ma’naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalash, ularning huquqiy savodxonligini oshirish, mustahkam, totuv va baxtli oila yaratishga ko’maklashish, ularga an’anaviy oilaviy qadriyatlarni singdirish**, shuningdek, **oilaning zamonaviy modelini shakllantirishga** qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, oila institutini mustahkamlash bo‘yicha, eng avvalo, **“Sog‘lom oila — sog‘lom jamiyat”** g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini olib borish, **notinch va muammoli oilalarga manzilli ko‘maklashishni** tashkil etish maqsadida hududlardagi mahalla va oilalarda **ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi holatlarning oldini olish** bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligi o‘rganilmoqda.

Oilalarning mustahkamligini ilmiy jihatdan tadqiq etish masalasi ham bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo‘nalishda **“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti** tomonidan ham ko‘plab ilmiy va amaliy ahamiyatga molik ishlar olib borilmoqda. Xususan, 2023-yilning o‘zida oilalarni mustahkamlash, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini qo‘llab-quvvatlash, gender tengligini ta‘minlash, sog‘lom oilaviy munosabatlarni qaror topshirishning ilmiy-nazariy asoslarini mustahkamlashga yo‘naltirilgan **19 ta** uslubiy qo‘llanma, **7 ta** ilmiy-metodik, amaliy va o‘quv qo‘llanma, **5 ta** monografiya, **16 ta** risola, jami **60 ga yaqin** nomdagi materiallar **194 700 nusxada** nashr qilindi va hududlarga tarqatildi. **Oilalarning baxtlilik darajasini aniqlashning milliy indikatorlari ishlab chiqildi. “Oila demografiyasi” ilmiy-o‘quv laboratoriyasi, “Demografiya” milliy portali yaratildi.** Oilada bolalarning kreativlik qobiliyatini rivojlantirishni **diagnostika qilish metodikasi** va kreativlik qobiliyatni rivojlantiruvchi **psixologik trening dasturi** yaratildi. Erta turmush va erta tug‘ruq holatlarini **elektron tarzda kuzatuv xaritasi yaratildi.** Bularning barcha Respublikamizda oila ilmini mustahkamlash, oilalardagi ma‘naviy muhitni barqarorlashtirish maqsadida amalga oshirilmoqda.

Biroq, bu sohada olib borilayotgan davlat siyosati, imkoniyat va yaratilgan sharoitlar, amalga oshirilgan amaliy ishlar bilan bir qatorda oila institutining jamiyat rivojidadagi o‘rni va ahamiyatini oshirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilgan farovon oilalar shakllanishining zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish, sohaga malakali, boy hayotiy tajribaga ega va fidoyi kadrlarni jalb etish borasida qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar hali ham talaygina.

So‘zim yakunida, bugungi **“Xalqaro oila kuni”**ga bag‘ishlangan **“Oila institutini mustahkamlash: farovon hayot va barqaror kelajak”** mavzusidagi konferensiyaning barcha ishtirokchilariga muvaffaqiyat tilayman! Mamlakatimizdagi har bir oilaning farovon va baxtli yashashi uchun qilayotgan ishlaringiz davomli bo‘lishini tilab qolaman!

E’tiboringiz uchun tashakkur!



BIRINCHI SHO‘BA

OILALARNING FAROVONLIGINI TA’MINLASH – BARQAROR KELAJAK OMILI (MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA)



Allanazarov Murot Mirzayevich,

*O'zbekiston Respublikasi IIV Surxondaryo akademik litseyi
“Huquqshunoslik va ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi mudiri,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

SHARQ MUTAFAKKIRLARI HAMDA TURKISTON JADIDLARINING OILAVIY TARBIIYA MASALALARIDAGI ILMIY-NAZARIY QARASHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sharq mutafakkirlari hamda Turkiston jadidlarining oila tarbiyasi haqidagi qarashlari, jadidchilik mafkurasi, milliy qadriyatlarga munosabat, umuminsoniy taraqqiyot yutuqlarini tushuntirish, oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari: insonni yaratish, bolani tarbiyalash, fuqarolarni jismoniy va ma'naviy jihatdan kamol toptirish masalalari to'g'risida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar. *Sharq mutafakkirlari, Turkiston jadidlari, ma'rifatparvarlik, oila, tarbiya, odob-axloq, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat.*

Abstract. *This article examines the views of eastern thinkers and contemporaries of Turkestan on family education, the ideology of modernism, attitudes towards national values, an explanation of the achievements of universal development, the most important social tasks of the family: the creation of personality, raising a child, the physical and spiritual health of citizens are discussed in this article.*

Keywords. *Eastern thinkers, contemporaries of Turkestan, enlightenment, family, upbringing, morals, Abu Raikhan Beruni, Abu Ali ibn Sina, Abu Nasr Farabi, Alisher Navoi, Abdullah Avloni, Abdurauf Fitrat*

Oila muqaddas dargoh. Biz ana shu oilada kamol topamiz, ulg'ayamiz va mustaqqil hayotga qadam qo'yamiz. Har bir millat o'z istiqbolini kamolga etayotgan yoshlari timsolida ko'radi. Shuning uchun ham jamiyatning tayanchi - oila sanaladi.

O'zbek xalqi qadim zamonlardan oilani muqaddas bilgan. Oiladagi tarbiya oilaviy hayotni kuzatish, o'rnatish va yaxshi o'g'itlar eshitish orqali shakllanadi.

Davlatchiligimizning eng qadimgi davrlaridanoq oila masalasiga alohida e'tibor bilan qaralgan. Sababi oila bu umr davomiyligi, inson taqdiri, kelajak hayotidagi yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizligi, kasb tashlash, hottoki ruhiyati ham insonning oilaviy muhiti bilan bog'liq. Chunki oila jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy bug'ini, kichik bir vakili bo'lib aynan oila sharoitida xalqimizning bugungi kuni va kelajagi bunyod etiladi. Ayni oilaviy tarbiyada tartib intizomga e'tibor bo'lsa, uning a'zolari shi xislatlarida uni qo'llaydilar. Oila bu odobu axloq, xushmuomlalik, mehnatsevarlik asosida qurilgan bo'lishi, insonlar o'rtasidagi munosabat va muloqotlarda o'ta muhim va shaxsning fe'l-atvori, yurish-turishida alohida ahamiyat kasb etadi. Agar oilada ota-ona o'z farzandini Vataniga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalasa bu his tuyg'u unga butun umri davomida hamroh bo'ladi. O'tgan davrda xalqimiz o'z ma'naviyati, milliy qadriyatlari demakki oilaviy qadriyatlarni ham tiklash va yosh avlodga o'rgatish

imkoniyatiga ega bo’ldi. Ana shu qadriyatlarda oilada ta’lim va tarbiya masalalariga alohida urg’u berilgan.

O‘zbek xalqida azal-azaldan oila, ota-ona va farzand, er va xotin munosabatlari o‘zgach qadrlanib kelgan. Bu borada buyuk mutafakkirlarimiz ham o‘z asarlarida qimmatli fikrlarini bildirib o‘tganlar.

Jumladan, Abu Rayhon Beruniy ta’lim va tarbiyaning maqsadi, vazifalari va mavqeyi, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma’noda insonparvarlik va insonshunoslik zahirida yaratilgan. Bilim va tarbiyaning tabiatga uyg‘unlik tamoyillarini mutafakkirning barcha asarlarida kuzatish mumkin. U insonni tabiatning bir qismi deb ta’kidlaydi.

Abu Ali ibn Sinoning oilaviy munosabatlar haqida aytgan fikrlari bag‘oyat qimmatlidir. Olim “Tadbir-ul-manzil” asarida oilada er va xotinning yaxshi sifatlarini sanab o‘tadi. Ularning shaxsiy namunalari bola uchun o‘rnak bo‘lib uning kelajak taqdirini belgilashda muhimligini alohida ta’kidlaydi. Ibn Sinoning fikricha, tarbiyachi faqat so‘zdagina nasihatgo‘ylik bilan tarbiyalamasdan, balki amalda ham bolalarga o‘z xulqi bilan ta’sir qilishi kerak. U ota-onaning bolalar bilan olib boriladigan suhbatining sharti to‘g‘risida mulohaza yuritib: “Siz gaplashish, fikr olishda xayrixohlik talablariga rioya qilgan holda ish ko‘rsangiz, yo‘ldan adashmaysiz va to‘siqlarga duch kelmaysiz”. “Bolada yaxshi xarakter va xulq-atvor tarbiyalash uchun uning shaxsini hurmat qilish kerak, uni sevish va e‘zozlash lozim. Uning oldida yomon gapirmaslik, ortiqcha harakatlar qilmaslik kerak, lekin tarbiyada talabchanlik bo‘lishi lozim”, degan g‘oyani ilgari suradi¹.

Abu Nasr Forobiy mavjudotni bilishda ilm-fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi, uningcha inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug‘ilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma’naviyligi, ruhi, intellektual va axloqiy xislatlari, xarakteri, dini, urf-odatlarini, ma’lumoti tashqi muhit, boshqa insonlar va shu kabilar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o‘z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning aqli, fikri, ruhiy yuksalishining eng etuk mahsuli bo‘ladi, deb ta’kidlaydi².

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida ayolning oila turmushdagi hissasiga va shaxsiy namunasiga quyidagicha to‘xtaladi: “Yaxshi rafiq – oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo‘lsa – ko‘ngul yozig‘i, xushmuomala bo‘lsa – jon ozig‘idir. Oqila bo‘lsa, ro‘zg‘orda tartib-intizom bo‘ladi, asbob-anjomlar pokiza va saranjom turadi³.”

Yuqorida bildirilgan fikrlardan ma’lumki, ayol oila turmushida erning haqiqiy sodiq yo‘ldoshi, bola tarbiyasida yaxshi va yomon sifatlarining tarbiyaviy ta’siri beqiyosligi o‘ziga xos tarzda ifodalangan. Ayniqsa qizlar tarbiyasidan onalar yaxshi sifatlarining namunasi va yomon sifatning natijalari oilaga musibat keltirishi pedagogik asoslangan. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida “... Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? Degan savol keladur. Bu savolga, birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Bir kishi deyurki, qaysi onalarni aytursuz, bilimsiz boshi paqmoq, qo‘li to‘qmoq onalarnimi? O‘zlarida yo‘q tarbiyani qaydan olib berurlar”

der. Mana bu so'z kishini yuragini ezar, bag'rini yondurar. Otasiga nima dersiz, desak, “Qaysi ota? To'ychi, uloqchi, bazmchi, do'mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko'zlarini qiymagan, zamondan xabarsiz otalarni aytursizmi? Avval o'zlarini o'qitmoq, tarbiya qilmoq lozimdur”, - der. Mana bu so'zni eshitgach umid qo'llari qo'ltiqqa urilur⁴.

Hozirgidek murakkab sharoitda milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan xurujlar, ularning ongi hamda qalbini egallashga qaratilgan g'arazli intilishlar tobora kuchayib borayotgani har birimizdan yanada hushyor va ogoh bo'lishni talab etmoqda. Oq-qorani ajrata olmagan g'o'r yoshlarni bunday oqimlar domiga tushib qolishdan asrash ta'lim-tarbiya ishiga mas'ul bo'lgan ota-onaga yuksak mas'uliyat yuklaydi. Ulug' ma'rifatparvar Abdulla Avloniy aytganlaridek, “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”, deganda tarbiyaning nafaqat shaxs, balki, jamiyat ravnaqida ham naqadar kata rol o'ynashini ta'kidlagan edi.

Tarbiya – inson shaxsiyati, uning ma'naviy mohiyati va qiyofasini shakllantirishga qaratilgan jarayon bo'lib u ta'lim bilan o'zaro bog'liqdir. A.Avloniy ta'lim va tarbiya mushtarakligi haqida shunday deydi: “Dars ila tarbiya orasida biroz farq bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydigan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir. Chunki dars oluvchi – tarbiya oluvchi, amal qiluvchi demakdir”. Ya'ni, tarbiya – ta'lim jarayonining ma'rifiy majmuasini ham o'z ichiga oladi. Ammo har qanday ilmiy intellektual jihatdan etuk ta'lim faqat insonparvar tarbiya bilangina yuksak ma'naviyatga asos bo'lishi mumkin.

Abdurauf Fitrat aytganidek, avlodni tarbiyalash insoniyatning xizmatidir. Qachonki biz yaxshi axloq egasi bo'lgan farzandlarni tarbiyalasak, shundagina bo'ynimizdagi bu xizmat majburiyati soqit bo'ladi. Kimki, badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan bo'ladi. Jamiyat ularning farzandlaridan bezor bo'ladi. Xush va yaxshi axloqqa ega bo'lgan farzand, xushaxloq iymon sohibi bo'lgan ota-onalardan bo'ladi, agarda ota-ona axloqsiz bo'lsalar, ularning tarbiyalari soyasida o'sgan farzand ham badaxloq bo'ladi”, – deya bola tarbiyasida ota-onalarning namuna bo'lishi haqida qimmatli fikrni ilgari surgan⁵.

Shuningdek, A.Fitratning fikricha, farzadni to'laqonli kamol toptirib o'stirish uchun unga jismoniy, aqliy va ana'naviy tarbiyadan iborat ko'p tarkibli tarbiya berish muhimdir. Fitrat bolaning ruhiyati ota-ona va bolaning ruhiyatining nisbati va o'zaro bog'lanish masalasiga katta ahamiyat berib, bizning bugungi tushunchamizdagi iste'dodli ruhshunos-pedagog sifatida ham ko'rinadi. Bolalarni o'ziga ishongan, kuchli topqir, chaqqon va aqlli qilib tarbiyalash uchun o'z qadr qimmatini, sha'nini hirmat qilish ruhini tarbiya qilmoqlikni, shuning bilan birga yon atrofdagi odamlar bilan hisoblashishni o'rgatmoq kerak. Bolalarni shunday tarbiya etish lozimki, baxtga bo'lgan intilishlari hech qachon hazon bo'lmasin. Ota va ona bolaga mamnunlik bilan xursandchilik qilishni man etmasliklari, balki ahloqqa zid bo'lmagan ishlar bilan mamnun va xursand bo'lishini qo'llab-quvatlashi kerak deb yozadi. Ayniqsa Fitrat

mehnatsevarlik va bilim olish tarbiyasiga alohida e’tibor bilan yondashadi va ota-onalari, bu ishda bolalarga chidam g’ayrat va jur’at etilishini, ertaga baxtga erishganidan keyin bu baxt kechagi zahmat natijasida yuzaga kelganligini tushuntirishlari lozim, shunda bolalar baxt siridan xabardor bo’ladilar deb ishontiradilar. Haqiqatdan ham oiladagi tarbiyaga ko’p narsa bog’liq, bu avvalo farzandning kelajakda qanday shaxs bo’lib voyaga etishlari, ularga avvalo onalari, nima bera olganliklariga bog’liq bo’ladi. Fitratning bunday nazariy qarashlari hozirgi kunimiz uchun ham juda muhimdir.

Fitrat oilaviy tarbiyada aql va haqiqat mezonini, jismoniy, fikriy va ahloqiy ahvol etarli bo’lishligini ta’kidlaydi. Ota va ona o’z farzandiga tarbiya berish borasida o’z martaba va darajasida avval ilmga tayanishi va iqtidorini, bor g’ayratini ishga solmog’i lozimligini o’qtirib o’tadi. Fitratning fikricha, farzandni jisman, aqlan va ahloqan kamolga etishtirib, hayot maydoniga kuchli, aqlli va yaxshi ahloq bilan chiqarish mumkin. Shuni e’tiborga olib Fitrat farzand tarbiyasini uch qismdan iborat deb biladi: badan tarbiyasi, aqliy tarbiya va ahloqiy tarbiya. Uning fikricha tarbiyaning bu jihatlari bir-biri bilan bog’liq tushunchalardir. Fitratning ta’kidlashicha ya’ni kimki o’z avlodining tarbiyasi ustida o’ylayotgan bo’lsa, farzandlarini jismi, aqli va ahloqini bir darajada tarbiyalaydi, intizom va tarbiyaga amal qiladi. Tarbiyaning har bir qismi ota va onadan katta mas’uliyat va sa’y harakat talab qiladi. Shunday ekan, bugungi ota va onalar, oila qurish ostonasidagi balog’at yoshiga etganlar, keksa nuroniylar barchamiz oiladagi tarbiya va ta’lim masalalariga katta e’tibor va mas’uliyat bilan va eng muhimi, nihoyatda noziklik bilan munosabatda bo’lishimiz darkor ekan. Zeroki, oila jamiyatning kamolatidagi ilk maskan yoki aksi bo’lishi mumkinligini hayot haqiqati ko’rsatib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. *Abu Ali ibn Sino. Tadbir ul-manzil. Muhammad Najmiy Zinjoni tarjimasi. – Tehron: Eron Milliy kutubxonasi, 1902. – 111 b.*
2. *Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 2004. - 160 b.*
3. *Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. T.: “Yoshlar nashriyot uyi” 2018. - 172 b.*
4. *Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 2004. - 96 b.*
5. *Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. T.: “Cho‘lpon” 2013. - 144 b.*

Mirashirova Nargiza Anvarovna,

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
Harbiy psixologiya va pedagogika kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

NIKOH VA OILA MUNOSABATLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oila va nikoh munosabatlari, ularning shakllanishi va ijtimoiylashuvi hamda oila farovonligi va mustahkamligiga ta'sir etuvchi omillar ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahliliga psixologik jihatdan yondashilgan.*

Kalit so'zlar: *oila, nikoh, xotin-qizlar, ijtimoiylashuv, etuklik omili, ma'naviy omil, oilaviy psixoprofilaktika.*

Abstract: *This article psychologically examines the analysis of the socio-psychological characteristics of family and marital relations, their formation and socialization, as well as factors influencing the well-being and strength of the family.*

Key words: *family, marriage, women, socialization, maturity factor, spiritual factor, family psychoprophylaxis.*

“Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat
va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi”.

Abdurauf Fitrat

Oila - jamiyatning ajralmas bo'lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo'lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila - bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o'z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog'laydi, ya'ni o'z uyi, oilasida baxtli bo'lgan insongina o'zini to'laqonli baxtiyor xis etadi.

Oila va nikoh hamma vaqt ham gumanitar fanlarni qiziqtirib kelgan soha. Ayniqsa, bu sohaning ijtimoiy psixologiya uchun o'ziga xosligi bor. Chunki, ijtimoiy psixologiya oilani o'ziga xos ijtimoiy guruh sifatida tekshirib, unda sodir bo'ladigan barcha ruhiy jarayonlarni o'rganadi. Respublikamizda oila va nikoh masalalariga e'tiborning kattaligini hisobga olib, ko'pchilik tadqiqotchilar o'z ilmiy izlanishlarini ana shu muammolarga bag'ishlaganlar (M.Mirxosilov, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, M.Rasuleva, S.Sog'inov, U.Mahkamov va boshqalar). Oilaga bo'lgan ilmiy qiziqishning sabablari avvalo bu ob'ektning “naqdligi» bo'lsa, ikkinchi tomondan, oxirgi yillarda, hattoki bizning respublikamizda ham ajralishlarning ko'payganligi, tug'ilishning shahar va qishloqlarda bir tekisda emasligi, “muammoli» oilalarning ko'payib borayotganligi, oila institutiga yoshlar munosabatlarining o'zgarib borayotganligi va boshqalardir.

Umuman olganda, bizning xududimizda ham oila-nikoh munosabatlari yil sayin o‘zgarib bormoqda. Bu borada o‘zgarishlarga: 1) oilaning jamiyat oldidagi funksiyalarining o‘zgarib borishi; 2) oila a’zolari sonining va tug‘ilishning kamayishi, murakkab ko‘p oilali tipdan, alohida mavjud bo‘lgan alohida oilalar tipiga aylanib borayotganligi; 3) oilaviy munosabatlar tizimida er va xotin funksiyalarining o‘zgarib, oilaviy rollar haqidagi ijtimoiy tasavvurlarning o‘zgarib borayotganligi; 4) iqtisodiy inqirozlarning oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarga ta’siri; 5) ayollardagi reproduktiv ustanovkalarining o‘zgarib borayotganligi kabilarni kiritish mumkin. Bu aytib o‘tilgan sohalar O‘zbekiston sharoitida shu yaqin kunlarda ishlanishi kerak bo‘lgan muammolar bo‘lib, ularning echimiga ko‘ra oilani rejalashtirish, oilada bolalar tarbiyasi, ayol va erkaklar mehnatiga munosabat kabilar bo‘yicha olimlar o‘z fikrlarini aytishlari kerak.

Oila va nikoh borasida o‘tkaziladigan tadqiqotlarda jahon va hamdo‘stlik davlatlarida o‘tkazilgan izlanishlar, ulardan olingan natijalar va metodikalardan foydalanish mumkin. Ayniqsa, Sankt-Peterburg, Boltiqbo‘yi respublikalarida oila masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar ko‘plab o‘tkazilgan bo‘lib, ularning tajribasidan biz ham keng foydalanishimiz mumkin. Chunki bu xududlarda ro‘y berayotgan ko‘plab ijtimoiy jarayonlar, xususan, oilaviy munosabatlar borasidagi muammolar bizning jumhuriyatimizga ham taalluqlidir. Masalan, ayollarning ijtimoiy mehnatda bandligi tufayli ularda oila, unda xotin kishining o‘rni, roli haqidagi tasavvurlarning o‘zgarishining o‘zi butun psixologiyani qayta qurilishiga sabab bo‘lmoqda. Lekin, ikkinchi tomondan, demokratiya va erkinlik sharoitida yillar davomida taqiqlanib kelgan eski kadriyatlarimiz, birinchi navbatda, dinning hayotga kirib kelishi, umuman oilaviy munosabatlarga shunday ta’sir ko‘rsatmoqdaki, ko‘pchilikda ‘‘endi ayol kishi an’anaviy o‘z o‘rnini egallarmikin?’’ degan tasavvurlar ham paydo bo‘lmoqda. Ammo, hozirgi rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar sharoitida moddiy ishlab chiqarishni xotin-qizlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham ilmiy tadqiqotlar odamlar ongidagi ana shunday qarama-qarshiliklarning psixologik echimini topgan holda oila va nikoh tizimiga psixologik yordam ko‘rsatishi zarur. Shaharlarda va yirik aholi punktlarida ‘‘oila xizmati’’ shohobchalarini tashkil etish zarurki, ular bir tomondan, oila va nikoq borasidagi ilmiy muammolarni tadqiq qilib, ularni hayotga tadbiq qilsa, ikkinchi tomondan, yoshlarga, oilasiz odamlarga, ziddiyatli oilalarga bevosita psixologik xizmatlar ko‘rsatishi kerak.

Oilaviy ijtimoiylashuvning qadri va ahamiyati shundaki, uning ta’sirida birinchidan, shaxs katta, mustaqil hayotga, jumladan, oilaviy hayotga tayyorlanadi, o‘ziga yarasha sifat va fazilatlarni shakllantirib boradi, ikkinchidan, har tomonlama etuk, barkamol, aqlli, sog‘lom shaxs bo‘lib etishish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ya’ni oila va uning sog‘lom ma’naviy muhiti bolani jamiyatda yashashga, o‘ziga o‘xshash shaxslar bilan murosa qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, kasb-hunarli bo‘lish, muomalada axloq-odob normalariga bo‘ysunishga o‘rgatadi hamda psixologik jihatdan tayyorlaydi.

Rus sotsiolog olimi A. Antonovning ta’kidlashicha, oila ijtimoiy-psixologik yaxlitlik sifatida shaxsga shunday normativ va axborot ta’sirlarini ko’rsatadiki, oqibatda bola eng avvalo, jamiyatdagi qonuniy normalar, xulq andozalarini egallaydi.

Oilaviy munosabatlar sohasidagi alohida tadbqiqiy tarmoq bu yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdir. Bu ish bizning o’lkamizda ham alohida ahamiyatga ega bo’lib, yangilik bilan eskilik qarama-qarshi kelayotgan sharoitlarda ayniqsa muhimdir. O’smirlik va o’spirinlik yillarida shakllanadigan attraksiya hodisasi, ya’ni shaxslarning bir-birlariga emotsional bog’lanishlari — do’stlik, sevgi hislarini tarbiyalash, ana shunday tarbiyaga shart-sharoitlar yaratish bizning o’rta Osiyo sharoitlarimizda yangi va kelajagi porlok sohalardandir. Bu ishlarni amalga oshirishda maktab psixologlari, pedagoglar, ijtimoiy psixologlar hamkorlikda ishlasalar, olingan xulosa va natijalarni hayotga tadbqiq etsa bo’ladi.

Qadimgi Xitoyda nikoh ajrimiga olib keladigan sabablarga erning ota-onasi ra’yiga qaramaslik, ularga kelinning gap qaytarishi, betga choparlik, bepustlik, mahmadonalik, bedavo xastalik, rashk kabilar kirgan. Lekin yuqoridagi holatlar bo’lsa-yu, ayol erining ota-onasiga aza tutayotgan bo’lsa yoki u chin etim bo’lsa, eri uni baribir uydan haydab yubora olmagan. Qadimgi Hindistonda esa nikoh oddiygina fuqarolar ittifoqi emas, ilohiy ittifoq sifatida qaralib, nikoh rishtalarining buzilishi nihoyatda g’ayritabiiy holat deb baholangan.

Oila farovonligi va mustahkamligini ta’minlashda avvalo har bir insonning ijobiy shaxsiy xususiyatlari bilan birga ma’lum omillar o’z ta’sirini ko’rsatadi.

Oila qurishda etuklik omili:

oila quruvchilarning to’liq bilim, kasb-hunar egallashi, keyinchalik mehnat qilish imkoniyatlarini cheklashga olib kelishi;

psixo-emotsional jihatdan turmush qurishga tayyor emasligi (yosh kelinlarning yangi oila muhitiga ko’nikishida qiynalishiva yosh kelin-kuyov orasida o’zaro tushunmovchiliklarning kelib chiqishi);

erta homiladorlik natijasida turli psixologik o’zgarishlarning kelib chiqishi (tug’ruq oldi va tug’ruqdan keyingi depressiya), homiladorlik va tug’ruq asoratlari ayolni nogironlikka yoki nobud bo’lishiga olib kelishi;

onalar va go’daklar o’limi holatlarining oshishi (o’smir yoshidagi onalar o’limi holatlari 20-30 yoshlilarga nisbatan 5 barobarga va go’daklar o’limi ko’rsatkichlarining 2 barobarga ko’payishi aniqlangan);

erta homiladorlik tug’ma nuqsonlar bilan tug’ilgan farzand, tug’ruqlarning asoratli o’tishi (bolaning chala, nimjon, kasalmand bo’lib tug’ilishi);

ruhan, jismonan, tibbiy, pedagogik va psixologik bilimlar kamligi.

Oila qurishda ma’naviy omil: Sog’lom inson deganda, faqat jismoniy sihat-salomatlikni emas, balki o’zbek xalqiga xos sharqona odob-axloq, milliy g’oya va bag’rikenglik, insonparvarlik kabi ezgu his-tuyg’ular ruhida kamol topgan manan etuk insonni tushunishimiz mumkin. Manaviy sog’lom insonlar avvalo yurt tinchligi, xalq farovonligi va xalqning ertangi kuni uchun qayg’ura oladilar. Bevosita oiladagi sog’lom muhit manaviy sog’lom insonning tayanch manbaidir.

Yuqoridagi omillarning oilaviy munosabatlarga salbiy ta’sirini oldini olish maqsadida oilaviy psixoprofilaktikani amalga oshirish muhimdir. **Oilaviy psixoprofilaktika** o‘zaro munosabatlarni tashkil etish, bolalarni tarbiyalash va o‘qitish, oila a’zolarining tibbiy, ijtimoiy va huquqiy muammolarini mustaqil ravishda bartaraf eta olmaydigan oilaga tibbiy, psixologik, pedagogik, ijtimoiy va huquqiy yordam masalalarini o‘z ichiga oladi. Psixoprofilaktik tadbirlar oilada umumiy psixologik madaniyatni shakllantirishga, shaxsni shakllantirishda huquqbuzarliklarning rivojlanishiga va o‘z vaqtida oldini olishga sharoit yaratishga qaratilgan.

Oilaviy psixoprofilaktika oilaviy munosabatlarda o‘zaro oila a’zolarining psixologik jihatdan ruhiy buzilishlar va o‘zaro ziddiyatlarni o‘rganib borish, aniqlangan holatlar bo‘yicha tegishli sohaga oid mutahassislarni jalb etgan holda zaruriy choralar ko‘rish;

muntazam ravishda oilalarga tibbiy, psixologik, pedagogik, ijtimoiy va huquqiy yordam ko‘rsatishni amalga oshirish;

keng ma’noda bolalar va kattalar uchun ruhiy salomatlik va farovonlikni mustahkamlovchi, oilaviy barqarorlikni yaxshilaydigan va saqlaydigan psixologik tadbirlarni o‘tkazish;

nevrotik buzilishlarning oldini olish, hissiy tushkunliklar, stress ta’siriga qarshi kurashi, shaxsiy, xulq-atvor va ekzistensial darajadagi muammolarini hal qilish;

yoshlarni bo‘ljak oila sharoitlariga moslashtirish hamda moslashish davrida yordam berish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

turli sinf, guruh, jamoa, oilalarda qulay psixologik muhit yaratish;

oilaviy munosabatlar jarayonida o‘zaro ruhiy tushkunliklar, zo‘riqishlar va nizolar natijasida yakuniy hodisa ya’ni oilaviy ajriy yoki suitsid holatlarini kelib chiqishiga qarshi kurashish, oldini olish va profilaktik sog‘lomlashtirish ishlarini tashkillashtirish kabi vazifalarni amalga oshiradi.

Psixoprofilaktik ishlar oldinga qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqib, alohida bolalar yoki bolalar guruhlari bilan, sinflar, oiladagi barcha a’zolar bilan shuningdek ularga ta’sir ko‘rsatuvchi o‘qituvchilar, ota-onalar, soha bo‘yicha mutaxassislar bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

Oilaviy psixoprofilaktika usullari:

Oilaviy munozara. Ushbu usul oilaviy munosabatlarning turli jihatlarini haqidagi noto‘g‘ri tushunchalarni tuzatishga, oila a’zolariga xolislik va samarali munozarani olib borish qobiliyatini o‘rgatishga imkon beradi.

Shartli aloqa. Bunga odatdagi oilaviy munosabatlarga yangi element (notalar almashinuvi, hissiyotlarni aniqlash uchun ranglardan foydalanish, muayyan sharoitlarda kuchga kiradigan ba’zi qoidalarni kiritish va h.k.) kiritilganligi sababli turli xil psixoterapiya usullari kiradi. Bu oila a’zolariga bu boradagi qoidabuzarliklarni tuzatishga imkon beradi.

Malaka va ko‘nikmalarni shakllantiruvchi usullar. Bunday usullardan foydalanishning maqsadi oilaviy hayot haqida to‘g‘ri tasavvurni shakllantirish, oila a’zolari o‘rtasida to‘g‘ri aloqani shakllantirish, samarali rol munosabatlari va

boshqalar. Bunday usullarga versiyalangan fikrlashni shakllantirish, oilaviy rollarni o'ynash, rollarni almashish, masalani qanday hal qilish bo'yicha misollarni muhokama qilish va boshqalar kiradi.

Psixoprofilaktikaning uchta darajasi mavjud, bular:

I daraja birlamchi psixoprofilaktika - ruhiy kasalliklarning oldini olish ruhiy kasallikning o'ziga ham, miyaning organik patologiyasi, shaxsiyat patologiyasi va psixogeniya bilan bog'liq kasalliklarga ham tegishli.

II daraja ikkilamchi psixoprofilaktika - bu ma'lum bir sharoitda kasallikning kuchayishiga yoki qaytalanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan, shu jumladan bemorning o'zi yoki atrofdagilarning sog'ligi yoki hayoti uchun xavfli bo'lgan buzilishlar paydo bo'lishiga olib keladigan aniq xavf omillarini yo'q qilish, kasallikning surunkali holatini oldini olish sifatida.

III daraja psixoprofilaktika - salbiy ruhiy buzilishlar va surunkali ruhiy kasalliklarda nogironlik shakllanishining oldini olish, to'liq yashash qobiliyatini yo'qotgan bemorlarni reabilitatsiya qilish va qayta ijtimoiylashtirish.

Shunday qilib, Oila har bir millatning qadriyatlari shakllanib rivoj topadigan, kamolotga erishadigan muqaddas manzil bo'lib, milliy qadriyatlarning dastlabki navnihollari ana shu muqaddas maskanda yuzaga keladi, o'sadi va kelgusida o'z mevasini beradi. Shunday ekan, nikoh va oilaviy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish va ularni mustahkamlashda psixologik bilimlarga tayanish va oilaviy psixoprofilaktika usullarini qo'llash muhim ahamiyatga ega kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. *Buyanov M.I. Bolalar va o'spirinlar uchun psixoterapiya asoslari. Kiyev., 1990. B.269.*
2. *V.M.Karimova. Oila psixologiyasi: Darslik. T.: "Fan va texnologiya", 2008. - 170 b.*
3. *Дендеберя Н.Г. Проблема одаренности и способностей в психолого-педагогических исследованиях //Пед.образование и наука.-2010.-№10.-С.82-85.*
4. *N.A.Mirashirova Umumiy psixologiya / T.: 2016. B.130.*
5. *Turaeva O. «Oilaviy munosabatlar psixologiyasi». T., 1990. B.158.*

Инобатхон Марксовна Хакимова,
“Тараққиёт стратегияси” маркази
бош мутахассиси
inobatk Hakimova@gmail.com

ХОТИН-ҚИЗЛАРНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ТИЗИМИНИНГ ЯНГИ БОСҚИЧИ

Аннотация. Мазкур мақолада «Ўзбекистон – 2030» стратегиясини «Ёшлар ва бизнесни қўллаб-қувватлаш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти фармони ҳамда амалий тадбирлар режасига кўра, хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш тизими ҳақида сўз боради. Шунингдек, ушбу чора-тадбирлардан кўзланган асосий мақсад ва уларни амалга ошириш учун белгиланган вазифаларга апрофлича тўхталиб ўтилган.

Калим сўзлар: «Ўзбекистон – 2030», Стратегия, «Ёшлар ва бизнесни қўллаб-қувватлаш йили», Давлат дастури, фармон, Ўзбекистон Республикаси, Президент, хотин-қизлар, гендер тенглик, тадбиркорлик, кичик бизнес, имтиёзли кредит, оила, бюджет, тазйиқ зўравонлик, миграция, “Қизлар академияси”, кластерлар, бошпана (шелтер), реабилитация.

Abstract. This article discusses the support system for women in accordance with the decree of the President of the Republic of Uzbekistan on the implementation of the “Uzbekistan-2030” strategy in the “Year of support for youth and business.” Additionally, the main goals and objectives of these measures, practical actions that contribute to their implementation are disclosed in detail.

Keywords: “Uzbekistan - 2030”, strategy, “The Year of support for youth and business”, State program, decree, Republic of Uzbekistan, President, women, gender equality, entrepreneurship, small business, preferential credit, family, budget, oppression, violence, migration, “Girl’s Academy”, clusters, shelter, rehabilitation.

Кейинги йилларда давлатимизда хотин-қизларнинг ҳуқуқ-манфаатларини қонуний ҳимоя қилиш, гендер тенгликни таъминлаш, улар учун янги иш ўринлари яратиш, касб-ҳунарга ўргатиш, хотин-қизлар тадбиркорлигини ривожлантириш, турмуш шароитларини яхшилаш давлат сиёсатининг устувор йўналишига айланди.

Жорий йилнинг феврал ойида «Ўзбекистон – 2030» стратегиясини «Ёшлар ва бизнесни қўллаб-қувватлаш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти фармони имзоланди.

Бу йилги фармон ҳамда амалий тадбирлар режасига кўра, хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш тизимини янада кучайтириш мақсадида 2024 йил март ойидан бошлаб хотин-қизлар бандлигини таъминлашга кўмаклашиш, улар ўртасида тадбиркорликни ривожлантириш, касб-ҳунарга ўқитиш ва ўзини ўзи банд қилиш вазифалари белгиланди.¹ Ушбу вазифаларни амалга ошириш учун қуйидаги амалий чора-тадбирлар кўзда тутилган:

¹ <https://lex.uz/docs/6811936>

Биринчидан, хотин-қизлар бандлик дастурини тасдиқлаш ҳамда дастур доирасида хотин-қизларнинг кичик бизнес лойиҳаларига имтиёзли кредитлар ажратиш белгиланган. Бунда хотин-қизлар бандлигини таъминлашнинг замонавий ташкилий-ҳуқуқий механизмларини етарлича жорий қилиш, ишсиз хотин-қизларни касбга тайёрлаш ва уларнинг касб малакасини ошириш хотин-қизларнинг ишсизлик даражасини пасайишига олиб келувчи чора-тадбирларни белгилаб берадиган бандлик дастурини тасдиқлаш назарда тутилган. Ушбу бандлик дастурдан асосий мақсад хотин-қизларнинг кичик бизнес лойиҳаларига имтиёзли кредитлар ажратиш орқали уларнинг тадбиркорлигини ривожлантириш кўзланган.

Бу орқали хотин-қизларнинг турмуш тарзини яхшилаш ва уларни иқтисодий мустақилликка эришишларига, ўзини ўзи банд қилишларига эътибор қаратилган. Шу билан бирга, оила бюджети даромадларини ошириш, уй меҳнатидан фойдаланган ҳолда ишлаб чиқаришни янада кенгайтириш орқали ҳозирги кундаги долзарб муаммолардан бири бўлган ишсизликни камайтириш кўзланган.

Иккинчидан, ҳар бир ҳудудда хотин-қизлар ҳунармандчилик марказлари ва кластерларини ташкил қилиш кўрсатилган. Бунда хотин-қизлар ўзларининг яшаш шароити, муҳити ҳамда яшаётган ҳудудининг ўзига хослигидан келиб чиққан ҳолда ҳунармандчиликни ўрганишади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 05.03.2021 йилдаги ПҚ-5020-сон “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг жамият ҳаётидаги фаол иштирокини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорида² 2021 йил мобайнида ҳар бир ҳудудда асосан хотин-қизлар фаолият юритадиган ҳунармандчилик турларига ихтисослашган кластерлар фаолияти тажриба сифатида жорий этилган эди. Ушбу кластерлар қатор ҳудудларда тажриба сифатида фаолият юритгани ҳамда самарали натижалар берганини кўришимиз мумкин. Уларнинг афзал жиҳати шундаки, кластерлар ҳунарманд аёлларни хомашё билан таъминлайди ҳамда уларнинг қўл меҳнати билан яратган маҳсулотларини бозор нархида сотиб олади.

Ҳозирги кунда қўл меҳнати асосида ишлаб чиқарилган маҳсулотларнинг нафақат ички бозорда, балки ташқи бозорда ҳам талабгорлигини эътиборга оладиган бўлсак, ҳунармандчилик орқали хотин-қизлар уйдан чиқмаган ҳолда, ортиқча сарсонгарчиликларсиз барқарор даромадга эга бўлишларини алоҳида таъкидлаш лозим. Шу билан бир қаторда, аёлларимиз фарзандлари тарбияси билан шуғуллана оладилар ҳамда уларни ҳам ушбу фаолиятга жалб қилиб бўш вақтларини самарали ўтказишларига ёрдам беради.

Учинчидан, хорижий мамлакатларда оғир вазиятга тушиб қолаётган ўзбекистонлик аёлларга ҳар томонлама кўмак кўрсатиш, хорижий дипломатик ташкилотлар билан ҳамкорликда ишлаш ва сайёр қабуллар ташкил этиш ҳамда

² <https://lex.uz/docs/5320582>

муаммоларни бартараф этиш³ вазифаси назарда тутилган. Бу вазифани амалга ошириш учун чет элда юрган хотин-қизлар меҳнат муҳожирлари географияси ва рўйхатларини аниқлаш, аёллар билан онлайн давра суҳбатларини ўтказиб, муаммоларини аниқлаш, уларга хорижда ишлашнинг қонуний асослари ҳамда одам савдосига қарши курашишнинг мазмун-моҳиятини тушунтириш каби амалий чора тадбирлар кўрсатилган.

Бу билан ҳозирги пайтда долзарб муаммолардан бири бўлган аёллар ноқонуний меҳнат миграцияси натижасида келиб чиқаётган оғир оқибатларни олдини олиш ҳамда бартараф этиш имконияти вужудга келади. Хотин-қизларимизнинг ҳуқуқий онг ҳамда ҳуқуқий маданиятини ривожлантириш, уларни ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини хорижда ҳам қўллаб-қувватлаш ҳамда давлат муҳофазасига олиш ушбу вазифанинг асосий мақсадларидан бири ҳисобланади.

Тўртинчидан, аёлларни тазйиқ ҳамда зўравонликнинг турли шаклларида ҳимоялаш вазифаси ҳам кўзланган. Ушбу вазифани амалга оширишга доир чора-тадбирларда зўравонликка учраган хотин-қизларга тегишли вазирлик ва идоралар билан биргаликда профессионал ёрдам кўрсатишнинг ягона тизимини ташкил қилиш регламентини тасдиқлаш ҳамда зўравонликдан азият чеккан аёлларни қўллаб-қувватлаш, шу жумладан бошпана (шелтер) ва реабилитация марказлари фаолиятини такомиллаштириш юзасидан чора-тадбирлар дастурини ишлаб чиқиш белгиланган.

Бу орқали зўравонликка учраб қийин аҳволга тушиб қолган аёлларга дастлабки тиббий, психологик, юридик, ижтимоий ёрдам бериш мақсад қилинган. Зўравонлик оқибатида бошпанасиз қолган аёлларни реабилитация марказларига жойлаштириб, юзага келиши мумкин бўлган оғир оқибатларни олдини олиш кўзда тутилган. Шунингдек, ушбу аёлларни кейинчалик жамиятга қўшилиб, меҳнат фаолиятини олиб боришлари ҳамда осойишта турмуш тарзи кечириб, фарзандлари тарбиясида фаол иштирок этишларига замин яратишга эътибор қаратилган.

Бешинчидан, хотин-қизларни меҳнат бозорида рақобатбардош касб-ҳунарларга ўқитиш орқали бандлигини таъминлашга кўмаклашиш ҳамда улар ўртасида тадбиркорликни ривожлантириш вазифаси назарда тутилган. Ушбу вазифага эришиш учун 85 минг нафар хотин-қизларни касбга тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳамда 90 минг нафар хотин-қизларни тадбиркорликка ўқитишга доир амалий чора-тадбирлар белгиланган.⁴

Бугунги ривожланаётган даврда хотин-қизларни рақобатбардош касб-ҳунарларга ўқитиш малакали ва етук аёл кадрларни кўпайтириш имконини беради. Шунини ҳам таъкидлаш лозимки, хотин-қизлар салоҳиятидан янада кўпроқ фойдаланиш, истеъдодларини намоён этишига кўмаклашиш, касбий

³ <https://lex.uz/docs/6811936>

⁴ <https://lex.uz/docs/6811936>

маҳоратларини ошириш давлатимиз ривожланишига, оилалар фаровонлигига хизмат қилади.

Олтинчидан, ёш хотин-қизларни тадбиркорлик, маркетинг, график-дизайн каби замонавий касбларга ўргатиш учун “Қизлар академияси” платформаси ишга тушириш ва бу орқали ёш хотин-қизлар учун турли танлов, лойиҳалар, ўқув оромгоҳлари, стажировкалар ташкил этиш⁵ белгиланган. Ҳозирги ахборот технологиялари ривожланётган даврда ёш хотин-қизларимизни ҳам замонавий касбларга жалб қилиш давр талаби бўлмоқда. Ушбу платформа хотин-қизлар илм-фан, инновацион фаолиятнинг барча соҳаларида ўз билимларини ошириш, дунёқарашларини кенгайтиришлари, тажриба алмашишлари учун кенг имконият яратади.

Бугунги кунда билимларни янгилаб, касбий маҳоратларини ошириш, тажриба алмашиш ҳар бир соҳа мутахассислари учун энг долзарб вазифалардан бири бўлиб қолмоқда. Айнан шундай платформаларнинг ташкил этилиши ёш хотин-қизларимиз учун янги билимларни олишлари, шунингдек соҳаларига доир турли танловларда иштирок этиб, қобилиятларини рўёбга чиқаришларига, нуфузли ташкилотларда стажировка ўташлари ва кейинчалик ишга жойлашишларига имкон беради.

Хулоса ўрнида шуни айтиш керакки, аёллар нафақат оила равнақи ҳамда фарзандлар тарбияси билан машғул она ва уй бекаси бўлиши, балки жамият ҳаётида ҳам ўз ўрнига эга бўлишлари, турли соҳаларда юксак муваффақиятларга эришишлари мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. <https://lex.uz/docs/6811936>
2. <https://lex.uz/docs/5320582>

⁵ <https://lex.uz/docs/6811936>

3.

Karimov Farxod Toshtemirovich,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent

davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi

TURLI TURMUSH STAJIGA EGA BO'LGAN OILALARDAGI AJRIMLARING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK SABABLARI

Annotasiya. Ushbu tezisdagi turli turmush stajiga ega bo'lgan oilalardagi ajrimlarning ijtimoiy-psixologik sabablari atroficha ilmiy-nazariy tahlil qilinadi. Shuningdek, mavzuga doir ko'plab xorij va mahaliy olimlarning ilmiy izlanishlari atroficha tahlil qilinib, mavjud muammo yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Oila psixologiyasi, ajrimlarning sabablari, psixologik kategoriyalar.

Abstract. In this thesis, the socio-psychological reasons of divorces in families with different life stages are thoroughly analyzed scientifically and theoretically. In addition, the scientific researches of many foreign and local scientists on the topic are thoroughly analyzed and appropriate suggestions and recommendations are given regarding the existing problem.

Keywords: Family psychology, reasons for divorce, psychological categories.

“**Kun.uz**” saytining bergan ma'lumotlariga ko'ra bugungi kunda O'zbekistonda 9 milliondan ortiq oila bor. Yiliga o'rtacha 250–300 ming yangi oila qurilmoqda. Ammo, shu bilan birga, har yili o'rtacha 45–49 ming ajralishlar ham kuzatilmoqda⁶. Bu ko'rsatkich MDH davlatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarga nisbatan past darajada. “**Stat.uz**” saytida e'lon qilingan davriy materiallar tahliliga ko'ra nikohdan ajrashayotganlarning 4–5 foizini bir yilgacha, 40 foizini esa besh yilgacha bir oila bo'lib yashaganlar tashkil etmoqda⁷. Ushbu statistika ma'lumotlari bilan solishtirilgan bo'lsak 2022-yil holatiga ko'ra ajrimlar soni 2024-yilga kelib dinamik tushish hodisasi kuzatiladi. Yuqoridagi muammolarni oldini olish yuzasidan xorijlik va mahalliy tadqiqotchi olimlar turli xil taklif va tavsiyalar ishlab chiqmoqda. Xususan, ajrimlarning oldini olish, turli stajga ega bo'lgan oilalarni saqlab qolish yuzasidan tadqiqotchilar *N. Golovko, Sagatova G.* o'zining “**Психологические аспекты развода в семье: причины и последствия**” (*Oilada ajrashlarning psixologik jihatlari: sabab va oqibatlari*) maqolasida “oilada ajralishlar er-xotin o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir etuvchi ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy omillarning yig'indisi natijasi sifatida yuzaga kelishi mumkin”⁸- deya ta'kidlaydi. *D.M. Chulanov* “**Причины и социальные последствия разводов**” (*Ajralishning sabablari va ijtimoiy oqibatlari*) maqolasida


⁶ O'zbekistonda ajrashishlar ko'rsatkichi MDH bo'yicha eng pastligi ma'lum qilindi. <https://kun.uz/news/2024/02/25/ozbekistonda-ajrimlar-korsatkichi-mdh-boyicha-eng-pastligi-malum-qildi>

⁷ Oilalarning ajrim holati. <https://stat.uz/uz/>

⁸ Сагатова Г.С., Головкин Н.В. Психологические аспекты развода в семье: причины и последствия // Universum: психология и образование : электрон. научн. журн. 2023. 12(114). URL: <https://7universum.com/ru/psy/archive/item/16379>.



“Ajralishga olib keladigan ko‘plab sabablar mavjud. Ularning asosiylaridan biri – er-xotin o‘rtasidagi tushunmovchilik, umumiy manfaatlar va hissiy yaqinlikning yo‘qligi, natijada nizolar salbiy oqibatlariga olib keladi. Boshqacha aytganda, er-xotin o‘rtasidagi muloqotning yo‘qligi, ya’ni er-xotin o‘rtasidagi muloqot va tushunishni istamaslik ham ajrashishning asosiy sababiga aylanishi mumkin, ya’ni insonlar o‘z his-tuyg‘ularini va ehtiyojlarini ochiq ifoda eta olmasalar, bu oxir-oqibatda tushunmovchilik va ajrimga olib keladi”⁹- deb, ajrimlarning oilada kelib chiqishi uning dastlabki, oqibatlariga to‘xtalaib o‘tadi. O‘zbek tadqiqotchilaridan *K.Azamova, A.Abduxalilov* **“Oilalarda ajralish va uning oqibatlari”** maqolasida “Italiya, Niderlandiyada yaqin-yaqin zamonlargacha ajralish huquqiy jihatdan nihoyatda murakkab jarayon edi. Biroq bu usul ham oila mustahkamligini ta’minlashda kutilgan natijalarni bermaydi. Balki ajralishni ta’qiqlash, ajralish erkinligini bermaslik, o‘z navbatida nikoh yoshining o‘sishini, oila qurmaslik, nikohgacha va nikohdan tashqaridagi jinsiy aloqa, psixologik nosog‘lom oilalar miqdorining ortishi, nikoh-oila munosabatlari zamirida yuzaga keladigan jinoyatlar, qotillik, xiyonat kabilarning ortishiga olib keladi”¹⁰-deya bugungi kunda oilalarning ajrimlarini cheklashdagi turli xil tartibsiz me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tartibga solish masalasini atroflicha muhokama qiladi. Yuqoridagi tadqiqot natijalaridan kelib chiqib oilaviy ajrimlar kelib chiqishining eng ko‘p uchraydigan 3 ta sababini quyidagi jadvalda aks ettiramiz.



1-rasm. Turli turmush stajiga ega bo‘lgan oilalardagi ajrimlarning eng ko‘p uchraydigan ijtimoiy-psixologik¹¹ 3 ta sabablari

⁹ Чуланов Д.М. Причины и социальные последствия разводов. Вестник науки и образования, № 13 (91). Часть 2. 2020. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/prichiny-i-sotsialnye-posledstviya-razvodov/viewer> (дата обращения 27.11.2023).

¹⁰ Azamova K., Abduxalilov A., Oilalarda ajralish va uning oqibatlari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2021. <https://cyberleninka.ru/article/n/oilalarda-ajralish-va-uning-oqibatlari>

¹¹ Ajrimlarning asosiy sabablari haqida ma’lumot berildi. <https://kun.uz/news/2018/07/04/azrimlarning-asosij-sabablari-akida-malumot-berildi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2018%2F07%2F04%2Fazrimlarning-asosij-sabablari-akida-malumot-berildi>



Ta’kidlash joizki o‘zbek oilalarida ajralishlar miqdori boshqa millatlar, masalan rus oilalarinikiga qaraganda ikki marta kam. Lekin har bir ajralishgan oilaga to‘g‘ri keladigan **“tirik etim”** bolalar soni o‘zbek oilalarida **2-2,5** martaga ko‘p. Shu bilan birga, **“ajralish madaniyati”** ning quyi saviyada ekanligi va o‘ziga xos milliy xususiyatlari bilan ifodalanishi o‘zbek oilalarida ko‘proq salbiy oqibatlarga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda oilalar ajrimlarining oldini olishda dastlab maktabgacha ta’lim muassasalarida **“oila qadriyatlarini”** chuqurroq o‘rgatish maqsadida hadis ilmiga asoslangan bolalarni fikrlashga undaydigan darslik yaratish lozim. Agarda ushbu masalani OTM talabalariga tushuntirish lozim bo‘lganda **“Oila psixologiyasi”** fani yuzasidan smart darsliklar yaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekistonda ajrashishlar ko‘rsatkichi MDH bo‘yicha eng pastligi ma’lum qilindi. <https://kun.uz/news/2024/02/25/ozbekistonda-ajrimlar-korsatkichi-mdh-boyicha-eng-pastligi-malum-qildi>
2. Oilalarning ajrim holati. <https://stat.uz/uz/>
3. Сагамова Г.С., Головкин Н.В. Психологические аспекты развода в семье: причины и последствия // *Universum: психология и образование* : электрон. научн. журн. 2023. 12(114). URL: <https://7universum.com/ru/psy/archive/item/16379>.
4. Чуланов Д.М. Причины и социальные последствия разводов. *Вестник науки и образования*, № 13 (91). Часть 2. 2020. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/prichiny-i-sotsialnye-posledstviya-razvodov/viewer> (дата обращения 27.11.2023).
5. Azamova K., Abduxalilov A., Oilalarda ajralish va uning oqibatlari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2021*. <https://cyberleninka.ru/article/n/oilalarda-ajralish-va-uning-oqibatlar>
6. Ajrimlarning asosiy sabablari haqida ma’lumot berildi. <https://kun.uz/news/2018/07/04/azrimlarning-asosij-sabablari-akida-malumot-berildi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2018%2F07%2F04%2Fazrimlarning-asosij-sabablari-akida-malumot-berildi>

Saidvaliyeva Madina,

*Toshkent amaliy fanlar universiteti
“Psixologiya” kafedrasida o'qituvchisi*

OILADAGI NIZOLARNING PSIXOLOGIK PREVENSIYASI BARQARORLIK OMILI SIFATIDA

Annotatsiya: Jamiyatdagi nikoh va oilaviy munosabatlar alohida shaxslar uchun ham, umuman davlat uchun ham mavjudlikning juda muhim sohasidir. Yosh oiladagi nizo muammosi alohida ahamiyatga ega. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda ko'proq ajralishlar 3 yildan kamroq vaqt davomida birga yashagan oilalarda sodir bo'lmoqda. Bu tadqiqotchilarni yosh oilalarga alohida e'tibor qaratishiga sabab bo'lmoqda. Oiladagi nizolarni o'rganish orqali nizo oldi omillarini bartaraf etish oila barqarorligi sharti bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: nizo, yosh oilalar, o'zaro tushunish, adekvat munosabatlar, nikoh, oila, ijtimoiy rol, ijtimoiy status.

Abstract: Marriage and family relations in society is a very important sphere of existence for both individuals and the state as a whole. The problem of conflict in a young family is of particular importance. According to statistics, today more divorces occur in families that have lived together for less than 3 years. This causes researchers to pay special attention to young families. By studying conflicts in the family, eliminating the factors that lead to conflict can be a condition for family stability.

Keywords: conflict, young families, mutual understanding, adequate relationship, marriage, family, social role, social status.

Kirish. Oila shaxsni ijtimoiylashtirish, madaniy, etnik va axloqiy qadriyatlarini tarixiy ravishda uzatishning eng muhim vositalaridan biridir. Oilaviy hayot inson uchun muhim ahamiyatga ega va oilaviy hayotning farovonligi uning qanday rivojlanishiga, unda qanday rol o'ynashiga va har bir turmush o'rtog'i uchun ular qanday hal qilinishiga bog'liq. Oilaviy hayot dinamikasining qanday kechishi insonning o'ziga, har bir turmush o'rtog'ining o'zini boshqarish, taslim bo'lish va murosaga kelish qobiliyatiga bog'liq. Bular tug'ma qobiliyatlar emas, ular insonning o'z ustida mehnati va ta'lim olishi natijasida erishiladi [1].

Metodlar. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayniqsa, yosh oilalar uchun nizosiz oilalar deyarli yo'q. Inson hatto o'zi bilan ham doimiy ziddiyatda. Turli oilalarda nizolar tabiati va chastotasi, eng muhimi, turmush o'rtoqlarning ularni hal qilish qobiliyati, ziddiyatli vaziyatda o'zini tutish madaniyatida sezilarli darajada farqlanadi. Nikohga moslashish davrida turmush o'rtoqlarning nikoh va oila haqidagi umumiy g'oyalari shakllanadi. Yosh oiladagi nizo aynan yosh turmush o'rtoqlarning bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan oilaviy hayot haqidagi g'oyalari tufayli yuzaga keladi. L.B.Shnaydarning so'zlariga ko'ra, keng ma'noda turmush o'rtoqlar o'rtasidagi nizoli munosabatlar muayyan mavzu yoki vaziyatga nisbatan maqsadlar, qarashlar, ideallar, g'oyalar va boshqalardagi qarama-qarshilikdan kelib chiqadi [2].

Oilaviy nizo - bu o'zaro ta'sirning turli darajalarini qamrab oluvchi murakkab hodisa. Uning kelib chiqishi va yo'nalishi er-xotinlar o'rtasidagi munosabatlar darajasida, ularning xatti-harakatlarida ma'lum vaqt davomida amalga oshirilmagan sodir bo'lishi mumkin. Juftliklar o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashishi konflikt ularning muloqot doirasiga kirib borishiga va nizoning og'zaki va og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlarining turli shakllarida namoyon bo'lishiga yordam beradi. Konfliktning xulq-atvor darajasiga o'tishi uning kuchayishi va yashirin bosqichdan ochiq bosqichga rivojlanishini ko'rsatadi. Oilada nizolarning ma'lum signallari yoki belgilari mavjud: inqirozli vaziyatlar (shartlar), keskinlik, tushunmovchiliklar, hodisalar, noqulaylik kabi [3].

Oiladagi nizolarning eng keng tarqalgan sabablaridan biri er-xotinlardan birining yoki ikkalasining egoistligidir. Egoist birinchi navbatda o'z ehtiyojlari haqida o'ylaydi, o'zi haqida qayg'uradi va yaqinlarining ehtiyojlari va manfaatlarini hisobga olmaydi. Oiladagi egoizm baxtli nikohning asosiy dushmanidir. Umuman olganda, egoistlikdan ko'ra dahshatli illat yo'q, u afzalliklarni kamchiliklarga aylantiradi. Hatto egoistning qobiliyatlari va ongi ham bitta maqsadga bo'ysunadi - karrerizm, o'zini o'zi hayratga solish va xatolarini oqlash. Turmush o'rtoqlardan birining egoistligi ikkalasini ham baxtsiz qiladi [4].

Natijalar. Oila a'zolari o'rtasidagi nizolar har doim ham amalga oshirilmaydi. Oilaviy o'zaro munosabatlar ishtirokchilarining nizolardan xabardorligi quyidagi turlarga bo'linadi: adekvat (kelishmovchiliklarning haqiqiy idrokiga mos); adekvat emas (sheriklar ziddiyatli vaziyatni buzilgan deb bilishadi); noto'g'ri (mojarolarning o'zaro ta'siri o'zini va oiladagi sherigini noto'g'ri baholash asosida yuzaga keladi). Oilalardagi odatiy va eng muhim nikoh nizosi an'anaviy erkaklar hukmronligi va uning haqiqiy asoslari o'rtasidagi ziddiyat, oilada hokimiyat uchun kurashdir. Bu omil turmush o'rtoqlar o'rtasidagi kelishmovchilik omillari orasida muhim o'rin tutadi. Harbiy oilalari o'rtasida o'tkazilgan bir qator tadqiqotlarga ko'ra, erkak turmush o'rtoqlarning 52% dan ortig'i ongsiz gender identifikatoriga ega, bu esa nizoning rivojlanishi uchun haqiqiy zamin yaratadi [6].

Turmush o'rtoqlar, ayniqsa yoshlar, odatda, har qanday bahsli vaziyatni dramatiklashtiradi va bunday vaziyatdan chiqishning yagona yo'li ajralishdir, deb hisoblaydi. Ko'p hollarda ajralish yaxshilikdan ko'ra yomonroqdir. Aksariyat hollarda ajralish yoshlarning oilaviy hayotning murakkab muammolarini hal qila olmasligi sababli keladi. Boshqa barcha sabablar, garchi ular ba'zan birinchi o'ringa qo'yilgan bo'lsa-da, ular bilan birga keladi: kvartiraning yo'qligi, moliyaviy qiyinchiliklar, uzoq muddatli majburiy ajralish, uchinchi shaxslarning (birinchi navbatda, yosh turmush o'rtoqlarning ota-onalari) salbiy ta'siri va hokazo. Garchi, aslida, asosiy sabablarning ta'siri to'liq namoyon bo'lsa, hamroh bo'lgan holatlar harakat qila boshlaydi. Hozirgi vaqtda yosh turmush o'rtoqlar har qanday nizolarni, shu jumladan dastlab engib o'tilishi mumkin bo'lgan nizolarni hal qilishning bir usuli sifatida ko'pincha keraksiz ravishda ajralishga murojaat qilishadi. Oilaning buzilishiga bunday “oson” munosabat

ajralish allaqachon odatiy holga aylanganligi bilan bog‘liq. Nikoh paytida, agar turmush o‘rtoqlardan kamida bittasi birgalikdagi hayotidan qoniqmasa, ajralish niyati aniqlashadi. Bunday munosabat ajralishga undashi bilan tavsiflanadi.

Muhokama. Yosh oiladagi nizolar yosh turmush o‘rtoqlarning bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan oilaviy hayot haqidagi g‘oyalari tufayli yuzaga keladi. Nikohning roli oilaning shakllanishi davrida, er-xotinlar endigina bir-biriga moslasha boshlaganlarida juda muhimdir. Oiladagi barcha murosasiz va engib bo‘lmaydigan nizolar xuddi shunday - ajralish bilan tugaydi. Barcha nizolarni sinchkovlik bilan tahlil qilgan yoshlar, ularning aksariyatini qarama-qarshilikka olib kelmasdan oldini olish yoki oqilona hal qilish mumkinligini osongina bilib oladi. Oilaviy nizolar keng tarqalishi nikoh munosabatlarida nomutanosiblik mavjudligini ko‘rsatadi. Bugungi kunda nizolarning mohiyati, shakllari va sabablarini aniqlash muammosi fan uchun ayniqsa dolzarbdir, chunki jamiyatning o‘zgarishi davrida, ayniqsa, yosh oilalar o‘rtasida ajralishlar soni ko‘paydi.

Ma’lumki, oila hali to‘liq rivojlanmaganligi sababli nikohning bu davri eng qiyin bo‘lishi mumkin. Ushbu davrda ko‘plab oilalar buziladi. Bunday muammolarning eng yaxshi echimini topish uchun nizolar qanday rivojlanishini bilish kerak. Bunday ziddiyatli vaziyatlarda xatti-harakatlarning to‘g‘ri yo‘nalishini rivojlantirish uchun nikoh nizolari nima ekanligini va odamlar qanday kelishuvga erishishlarini bilish lozim.

Oilaviy nizolar - bu qarama-qarshi motivlar va qarashlarning to‘qnashuvi asosida oila a‘zolari o‘rtasidagi qarama-qarshilik hisoblanadi. M.Mishina oilaviy nizolarni oila guruhidagi shaxslararo munosabatlarning keskinlashishi, tomonlarning pozitsiyalari, maqsadlari va munosabatlari bir-biriga mos kelmaydigan, bir-birini istisno qiladigan hodisa, deb ta’riflaydi. Ikkinchi holda, kelishmovchilik subyektivdir, obyektiv nomuvofiqlik yo‘q va shuning uchun oila rivojlanishining turli bosqichlarida oilaviy muvozanat tiklanishi mumkin. Nizoning eng muhim ahamiyati oilaning shakllanishi davrida, er-xotinlar endigina bir-biriga moslasha boshlaganlarida sodir bo‘lishidir. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ushbu bosqichda ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish usullari va vositalarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Oila rivojlanishining dastlabki bosqichida oila mikromadaniyatining shakllanishi sodir bo‘ladi, bu muhim rol o‘ynaydi. Oilada bolalar tug‘ilishi bilan hal qilinishi kerak bo‘lgan yangi qiyinchiliklar paydo bo‘ladi, moliyaviy va ta’lim funksiyalari alohida ahamiyatga ega. Oilada farzandlar va turmush o‘rtoqlarning ulg‘ayish bosqichida kelishmovchiliklar turli asoslarga ega. Mazkur sabablar psixologiya nizolarning asosiy turlarini belgilaydi.

Nizolar turmush o‘rtoqlarning o‘z roli funksiyalarini bajara olmasligi yoki undan qochish bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Baxtli hayot uchun har bir turmush o‘rtog‘i o‘z foydalarining bir qismini qurbon qilishi va vaqtining muhim qismini oilaviy o‘choqni shakllantirish va saqlashga sarflashi kerak. Oilaviy hayotning dastlabki davrida umumiy ehtiyojlar, qiziqishlar, odatlar, didlar va qarashlarning shakllanishi uchun qiyin davr boshlanadi. Har bir er-xotin kundalik oilaviy hayot sinoviga dosh

bera olmaydi. Nikohning mustahkamligi ko'p jihatdan yosh turmush o'rtoqlar o'zlarining ijtimoiy birligini shakllantirish jarayonida qanday qilib moslasha olishlari, yangi rollarni o'zlashtira olishlari, o'zaro tushunish va hurmat muhitini yaratishlariga bog'liq. Qarama-qarshiliklarning ba'zilar turmush o'rtoqlarning o'zgaruvchan turmush sharoitlariga moslasha olmasligi yoki xohlamasligi bilan, ba'zilar esa bunday moslashish uchun obyektiv imkoniyatlarning yo'qligi bilan bog'liq.

Xulosa. Xushmuomalalik va vazminlikni, o'z nuqtayi nazarini ishonchli va oqilona taqdim etish qobiliyatini o'rganish juda muhimdir. Agar turmush o'rtoqni ishontira olmasa, janjalni to'xtatgan ma'qul. Eng muhimi, oilaviy kelishmovchiliklarni janjalga, munozaralarni janjalga aylantirmaslik. Turmush o'rtoqlar ota-onalar va qarindoshlar bilan muloqot qilishni, eng muhimi, bir-birlarini hurmat qilishni o'rganishlari kerak. Oiladagi uyg'unlik asta-sekin o'zaro tushunish va shaxsiy o'zini o'zi takomillashtirishga asoslanadi. Agar turmush o'rtoqlardan biri ikkinchisining odatlari, ehtiyojlari va munosabatlaridan qoniqmasa, ikkinchisi buni tushunishi va o'zgarish zarurligini tushunishi kerak. Ikkala turmush o'rtog'i ham xohlasa, vaziyatni tuzatish mumkin. Janjallar, ultimatumlar, haqorat, hatto jismoniy zo'ravonlik ham yaxshi xulq-atvorga undamaydi, yordam bermaydi, balki faqat aybdorning xatolarini tuzatishga yoki kamchiliklardan xalos bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Kundalik hayot madaniyatini, munosabatlar madaniyatini oshirish - bu turmush o'rtog'ining o'ziga nisbatan talablarini oshirishni ham anglatadi [5].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Авдонина И.Е. *Этика и психология семейных отношений (психологопедагогические аспекты): учебное пособие* /И.Е. Авдонина, М.В. Носкова. - Екатеринбург: Ажур, 2010.- 246 с.
2. Алешина Ю.Е., Гозман Л.Я., Дубовская Е.М. *Социально-психологические методы исследования супружеских отношений.* – М.: Изд-во МГУ, 2006. – 120 с.
3. Дружинин В.Н. *Психология семьи.* - М.:КСП, 3-е изд. 2008. - 276 с.
4. Зунг Н.Т. *Роль социально-психологических факторов в стабилизации молодой семьи // Психологический журнал.* - 2007. Т.13. - №6. - 90- 92 с.
5. Левкович В.П., Зуськова О.Э. *Социально-психологический подход к изучению супружеских конфликтов // Психологический журнал.* - 2006. Т.6. -№3. - 126-137 с.
6. Мильшин А.О. *Семья и семейные отношения. Цивилизационный взгляд* /А.О. Мильшин. - Брянск: Ладомир, 2009. - 128 с.
7. Обозов Н.Н., Обозова А.Н. *Диагностика супружеских затруднений // Психологический журнал.* - 2008. Т.3, № 2, С.147-151.

Sotiboldiyeva Shoxista Jaloliddin qizi,

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi”

kafedrasida o‘qituvchisi

Alimova Dilorom Xudoyqulovna,

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi”

kafedrasida katta o‘qituvchisi

OILADA TA’LIM VA TARBIYANING MUAMMOLARI, VAZIFALARI VA ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oiladagi tarbiya, oilada ota-ona va bola o‘rtasidagi munosabatlar hamda muammolar va ularni hal qilish yo‘llari to‘g‘risida fikrlar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Oila, ota-ona va bola munosabatlari, me‘yor, tarbiya, kelajak*

Abstract: *In this article, thoughts on education in the family, relations between parents and children in the family, as well as problems and ways to solve them are covered.*

Keywords: *Family, parent-child relations, norms, education, future.*

Kirish: Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi yangi bosqichi oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlardan foydalanishning zamonaviy mezonlarini o‘rtaga tashlamoqda. Oiladagi ma‘naviy muhit axloqiy tarbiya o‘chog‘i sifatida milliy axloq va tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatini shakllantiradi. Oila muhiti bilan aloqaga kirishish jarayonida xulq-atvor me‘yorlari, ma‘naviy-ijtimoiy va madaniy tushuncha hamda tasavvurlar, yangi-yangi qiziqish va ehtiyojlar egallanib ijtimoiy muhitda rivojlanib boradi. Shaxsning ma‘naviy shakllanishiga ta‘sir etuvchi omillar to‘g‘risida gapirilganda, birinchi navbatda, shaxsning o‘zi, ikkinchidan, mikro muhit, uchinchidan mezo muhit va to‘rtinchi navbatda, jamiyat va undagi siyosiy, ideologik, madaniy-ma‘rifiy, iqtisodiy sohalarining umumiy holatini namoyon bo‘ladi. Mamlakatimizda yoshlarning ma‘naviy qiyofasini mustaqillik mafkurasi, uning insoniy tamoyillari asosida shakllantirishga bosh vazifa sifatida qaralayotgani bejiz emas. Eng quvonarlisi shundaki, davlatimiz rahbari yoshlarning ma‘naviy tarbiyasiga, ularning bilim va kasb mahoratini oshirish masalalariga alohida e‘tibor berib kelmoqdalar. Chunki mustaqilligimizning uch tayanchi – mustaqil siyosat, iqtisodiy qudrat va xalq ma‘naviyati bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘un rivoji ta‘minlansagina O‘zbekiston buyuk yurt sifatida jahon hamjamiyatida o‘z munosib o‘rnini egallay oladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek, “...yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. “Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi, tarbiya

mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi”.

Asosiy qism

Inson va boshqa tirik jonotlar har birining hayot muhiti uning o'y fazosidan boshlab ijtimoiy muhit va yashaydigan muhitigacha bo'lgan sharoit hisoblanadi. Muhit – bu odamlarga ta'sir ko'rsatadigan tashqi voqealarning yig'indisi sifatida insonni o'rab turgan, uning dunyoqarashi, kayfiyati, ruhiyati, orzu-umidlari va xulq-atvoriga bevosita ta'sir etadigan tashqi olam. Muayyan muhit turli ko'rinish va shakllarda namoyon bo'ladi. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa, o'sha jamiyat hayotida mavjud bo'lgan va bo'layotgan qonun qoidalarga asosan kamol topadi.

Oila - oziga xos ijtimoiy birlik. Uning asosida er-xotin ittifoqi, qarindoshlik munosabatlari, maishiy hayot birligi, axloqiy va huquqiy ma'suliyat hamda eng asosiysi ota-onalarning bolalarini tarbiyalash majburiyatlari turadi.

Oila deganda ko'z oldimizga birinchi navbatda ota-ona va bolalar keladi.

Oila jamiyatning bir bo'laki hisoblanadi. Shu bilanbirga oilada yurtning kelajagi ya'ni barkamol farzandlar o'sib ulg'ayadi, kamolga etadi. Biz oilani bir bog' deb tasavvur qiladigan bo'lsak oiladagi farzandlar – mevali daraxt, ota-onalar esa bog'bonlardir. Mana shu bog' ichidagi mevali daraxtlar doim bog'bonga muhtoj. Farzand ham xuddi shunday, ota-ona parvarishiga, ota-ona ko'magiga muhtoj. Aynan oila muhiti eng avvalo, shaxsning xulq-atvorini shakllanishida jamiyatning eng kichik bo'g'ini sifatida muhim rol o'ynaydi. Vaholanki, oilada ma'naviy-axloqiy muhit shaxs axloqiy ongi, xulq-atvori va faoliyatida tamal toshi, hal qiluvchi omil hisoblanadi. Dastlab aynan, oiladagi ma'naviy-axloqiy muhit shaxs imkoniyatlarini shakllantiradi, uning ijtimoiy borliq bilan munosabatlarini va muloqotini yuzaga keltiradi. Shu bois ham oilani shaxsning g'oyaviy, siyosiy, iqtisodiy qarashlarini shakllantiruvchi, tevarak-atrofga, dunyoga munosabatlari tizimini, ya'ni dunyoqarashi, e'tiqodi, ehtiyojlari, qiziqishlari, ideallari, motivlari, hayotiy maqsadi yo'nalishini belgilovchi mikromuhit sifatida tadqiq etiladi. Shu bois ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga etishi bilan bog'liq. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir” deb qayd etar ekanlar yoshlar axloqi ularning ma'naviy kamoloti masalasi nafaqat bugungi kun, balki ertangi porloq kelajak garovi ekanligiga urg'u beradi. Yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq mahalliy va global muammolar echimi esa, aynan oila muhiti va undagi ma'naviy-ma'rifiy daraja bilan bevosita va bilvosita bog'liq masala hisoblanadi.

Aslida tabiatdagi barcha jonot bolasi uchun jon kuydiradi. Odamzod esa nasli davomchisi bo'lgan dilbandi uchun ulardanda ziyod qayg'uradi. Chunki ota-ona farzandi ulg'ayib, el-yurt koriga yaraydigan, yaxshi joyda ishlab, farovon hayot kechiradigan, hurmatga sazovor inson bo'lishini xoxlaydi. Bu ezgu orzular amalga

oshishi uchun albatta ota-ona farzandiga to‘g‘ri tarbiya berolishi kerak. To‘g‘ri tarbiya berish uchun ham ota-ona qaysidir ma’noda ota-lik va onalik roliga tayyor bo‘lishi lozim. Chunki bola dunyoga kelgan payti hamma narsani bilib tug‘ilmaydi. U xuddi “top-toza qog‘oz”. Bu qog‘ozga sekin-asta ota-ona bergan tarbiya, muhit tarbiyasi va hayot qonuniyatlari yozilib borilaveradi. Qachonki ota-ona farzandini avaylab, e‘zozlab kattaqilsa u shunchalik mehr-oqibatli bo‘ladi.

Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas vatan sanalgan. Agar oilalar muhiti sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Shu ma’noda, oila ma’naviy-axloqiy muhitini o‘rganishda fikr yangiligi va ma’naviy etuklik paradigmasi asosli bo‘lib, o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Ma’naviy etuklikka intilish bu jamiyat hayoti va inson faoliyatida shaxsning o‘z insoniy pozitsiyasiga mustahkam ega bo‘lishi bo‘lib, u ijtimoiy-axloqiy mezonlar asosida xulq-atvorga muvofiq yashashidir. Inson ma’naviyatini shakllantirishning eng maqbul maskani oiladir. Oila qaysi millatga mansub bo‘lsa, o‘sha xalqning ma’naviyatini o‘zida mujassamlashtirib, bir necha asrlik tarixga ega bo‘lgan an‘analarni, ma’naviyatni avloddan-avlodga etkazadi. Zero, shaxs ma’naviyati, uning dunyoqarashi, e‘tiqodi, hayotiy tamoyillari, ideallari, qadriyatlari, ko‘nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma’noda, oila ma’naviyat qo‘rg‘oni hisoblanib, oila qaysi millatga taalluqli bo‘lsa, o‘sha millatning ma’naviyatini o‘zida aks ettiradi. Demak, o‘zbek oilasining o‘ziga xos milliy xarakteri, oiladagi shaxslararo munosabatlarda namoyon bo‘lishi, turli oilaviy marosimlar, urf-odatlar, an‘analar, milliy-ma’naviy qadriyatlarimiz oila orqali namoyon bo‘ladi. O‘zbek oilalaridagi o‘zaro hurmat, ehtirom, ota-onaga e‘zoz, farzandlarga mehr-shafqat va kichiklarga izzat-ikrom bu kishini barkamol inson, mukammal shaxs sifatida shakllantiradigan, axloqiy va ma’naviy jihatdan go‘zal hamda etuk qiladigan, insoniy fazilatlarni rivojlantiradigan qadriyatlar bo‘lib hisoblanadi. Va bu qadriyatlarning mazmun-mohiyati farzandlar ongiga dastlab oila muhitida tarbiya orqali singdiriladi. Bunda insonning axloqiy ongi, xulq-atvori va faoliyati aksiologik asoslarda yo‘naltirilib boriladi.

Ota-ona o‘z farzandiga qanchalik e‘tiborsiz bo‘lsa bola ruhan eziladi, o‘zini baxtli va kerakli inson deb his qilmaydi. Hayotda har bir bola baxtli yashashga haqli. Chunki ular dunyodagi eng begunoh insonlardir. Shu o‘rinda psixolog olim V.I.Selivanov fikrlarini keltirib o‘tsak - “baxtli bolalik bu oiladagi quvonchni, hamjihatlikni hamda ota-onalarning bolalariga g‘amxo‘rligining samarasidir”. Biz bilamizki, inson xató qilish xususiyatiga ega. Oilada ota-ona ham farzand tarbiyasida bir qancha xatoliklarga yo‘l qo‘yadi. Quyida ota-ona yo‘l qo‘yadigan xatolarni keltirib o‘tsak.

Bola tug‘ilganidan boshlab ota-onasining bag‘rida voyaga etadi. Bola ulg‘aygan sari taqlid qilishni, ota-onasining harakatlarini bajarishni boshlaydi. Ya’ni bola ko‘radi, bola qaytaradi. Oilada ota-ona nima harakat qilsa bola o‘shani bajaradi. Agar oilada ota-ona bir-birini hurmat qilsa, to‘g‘riso‘z, xushmuomala, mehribon bo‘lsa, bola ham xuddi shunday bo‘ladi. Aksincha, oilada o‘zaro hurmatsizlik, turli xil kelishmovchiliklar, ziddiyatlar bo‘lsa, bu bolaga ta’sir qiladi. U ham ulg‘ayganda turli xil zo‘ravonliklarni

amalga oshirishi mumkin. Agar bunday oilada ota-ona farzandiga to’g’ri yo’lda yurishni maslahat bersa, bu hol ularning o’zida mavjudligini aytib, ota-onasining gapiga quloq solmasligi mumkin. Unutmang farzandingiz maslahatlaringizdan ko’ra amallaringizni ko’proq bajaradi. Shuning uchun oilada farzandingizga o’rnak bo’lish uchun avvalo o’zingiz tarbiyalangan bo’lishingiz kerak.

Har bir oila muhitida saxovat, yaxshilik, karamlilik, halimlik shakllantirilsa, bu istiqbolda jamiyat muhiti mo’tadilligini, istiqbolini ta’minlaydi. Bilamizki, karamli inson nafaqat yaxshi xulqlar bilan bezanadi, balki el manfaatini o’z manfaatidan ustun qo’ya oladi. Oila muhitida shakllantirilgan halimlik asosida shaxs-xulq atvorida afv (kechirimlilik); murosa (kelishuvchanlik); muloyimlik (mo’tadillik) kabi hulqiy sifatlar shakllantiriladi. Demak, o’zligida halimlik fazilati bo’lgan kishi ruhan kuchli inson hisoblanadi. Halimlik shaxs-xulq atvoridagi nodonlikka qarshi xushxulqlikdir va ushbu fazilat kishini tinchliksevar inson sifatida voyaga etkazadi. Or-nomus va andisha insonning xulq-atvorida, e’tiqod-iymonida, yurish-turishida, fikr-mulohazasida namoyon bo’ladi. Or-nomusli va andishali kishi qat’iy intizom egasi bo’ladi. Jamiyat taraqqiy etgan sari axloqiy munosabatlarga e’tiborni kuchaytirish ehtiyoji tug’ilishi aniq. Rivojlanish, o’sish, taraqqiy etish uchun tarbiyaviy jarayon, tarbiyaviy faoliyat, fidoyilik va vatanparvarlik kerak. Tarbiya, tarbiyaviy faoliyat esa axloqiy fazilatlarni singdirishdan, ma’naviy qadriyatlarni o’zlashtirish va shakllantirishdan boshlanadi. Inson ma’lum maqsadga qaratilgan amaliy faoliyat ko’rsatish yo’li bilan jamiyatni o’zgarturuvchi kuchga aylanadi va sog’lom ma’naviy-axloqiy muhitni yaratadi. Inson faqat tarixiy sharoit va uning mahsuligina bo’lib qolmay, balki shunday sharoitlarning yaratuvchisi hamdir. Ijtimoiy hayot har bir shaxsning o’z burchini ko’r-ko’rona bajarish emas, balki unga ongli munosabatda axloqiy tamoyillar asosida yondoshishni talab qiladi. Mamlakatimizda yoshlarning ma’naviy qiyofasini mustaqillik mafkurasi, uning insoniy tamoyillari asosida shakllantirishga bosh vazifa sifatida qaralayotgani bejiz emas. Eng quvonarlisi shundaki, davlatimiz rahbari yoshlarning ma’naviy tarbiyasiga, ularning bilim va kasb mahoratini oshirish masalalariga alohida e’tibor berib kelmoqdalar. Chunki mustaqilligimizning uch tayanchi – mustaqil siyosat, iqtisodiy qudrat va xalq ma’naviyati bir-biri bilan chambarchas bog’liq bo’lib, ularning uyg’un rivoji ta’minlansagina O’zbekiston buyuk yurt sifatida jahon hamjamiyatida o’z munosibo’rnini egallay oladi. Oila - o’ziga xos ijtimoiy birlik. Uning asosida er-xotin ittifoqi, qarindoshlik munosabatlari, maishiy hayot birligi, axloqiy va huquqiy ma’suliyat hamda eng asosiysi ota-onalarning bolalarini tarbiyalash majburiyatlari turadi. Oila deganda ko’z oldimizga birinchi navbatda ota-ona va bolalar keladi. Oila jamiyatning bir bo’lagi hisoblanadi. Shu bilan birga oilada yurtning kelajagi ya’ni barkamol farzandlar o’sib ulg’ayadi, kamolga etadi. Biz oilani bir bog’ deb tasavvur qiladigan bo’lsak oiladagi farzandlar – mevali daraxt, ota-onalar esa bog’bonlardir. Mana shu bog’ ichidagi mevali daraxtlar doim bog’bonga muhtoj. Farzand ham xuddi shunday, ota-ona parvarishiga, ota-ona ko’magiga muhtoj. Bog’bon qachonki mevali daraxtini o’z vaqtida parvarishlasa undan mo’l hosil oladi. Ota-ona ham qachonki

farzandini to'g'ri tarbiyalasa, kelajakda u ham albatta o'z mevasini beradi. Agar aksincha bo'lsa-chi? Oilada ota-ona farzandga e'tibor bermasa, farzandi u uchun ahamiyatga ega bo'lmasa, xuddi bog'dagi mevali daraxt meva bermaganidek, ota-ona bag'ridagi farzand ham o'z yutuqlarini bermaydi. [1]

Xulosa: Agar oilada farzandga to'g'ri tarbiya berilmasa, farzand bilan to'g'ri munosabat qilinmasa, u bola kelajakda barkamol shaxs bo'lib kamolga etolmaydi. Farzand tarbiyasida ota-ona yo'l qo'yadigan eng katta xatolardan biri bu-bolani urish. Oilada bolaga turli xil tazyiqlar o'tkazilsa, ular ham atrofdagilarga tazyiq, ziyon etkazishi mumkin. Bunday hollarda bolalar muammoni kuch bilan hal qilish mumkin degan fikrda bo'ladi. Ular turli xil tazyiqlar orasida o'sganligi sababli, ulg'ayib o'z oilasini qurganda ham xuddi shunday zo'ravonliklarni amalga oshiradi. Bu kabi xatoliklar avloddan-avlodga o'tiborsa, butun bir kelajak yovuzlik to'riga tushib qoladi. Shu sababli butun jamiyat aziyat chekmasligi uchun oilada turli xil munosabatlarni, muammolarni murosa yo'li bilan hal qiling. Shu bilan birga farzandiningiz oldida boshqalar bilan urish qilmang, boshqa insonlar to'g'risida yomonlab gapirmang. U bu kabi holatlarni ko'rsa dunyoda yomon odamlar ko'p ekan degan xulosaga kelib qoladi. [4] Farzand tarbiyasida barcha narsa o'z me'yorida bo'lishi kerak. Bolani haddan tashqari qo'rqitish, haddan ziyod erkalash ham kerak emas. Tarbiya jarayonida bolaning o'z fikrlarini ham inobatga olish kerak. Turli xil muammolarga duch kelganda uning fikrini to'liq eshita olish lozim. Unga muammoning tayyor echimini o'zingiz bermasligingiz kerak. Agar muammolarni o'zingiz hal qilsangiz, u bunga o'rganib qoladi. O'z muammolarini o'zi hal qilishga urinmaydi, o'zining shaxsiy fikriga ham ega bo'lmaydi. Agar farzandingiz mustaqil inson bo'lishini xoxlasangiz va barkamol inson bo'lib ulg'ayishini istasangiz, o'z xatolaringiz ustida ishlang. Axir farzandingiz sizning xatolaringiz evaziga badal to'lashi kerak emas. [5]

Biz yuqorida ota-ona farzand tarbiyasida yo'l qo'yadigan xatoliklar, kamchiliklar, muammolar to'g'risida gaplashdik. Lekin bugungi kunda barcha ota-onalar farzand tarbiyasiga e'tibor beryaptimi? Ularga etarlicha vaqt ajrata olyaptimi? Bu kabi savollarni oilada farzand tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan har bir ota-ona o'ziga bersin va bergan javoblari o'zlari uchun yaxshi natija bera olsun.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. Toshkent, «Adolat», 1998, 46-bet*
2. *Yo'ldoshev J.G'. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish (qo'llanma)-T.2000. 54-bet*
3. *Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования: Учебное пособие. М.: Гардарики 2005. - 320 с.*
4. *Uzoqov H, G'oziyev E, Tojiyev A. Oila etikasi va psixologiyasi. T: O'qituvchi 1992. 128 b.*
5. *Xo'jayev N. Tarbiya nazariyasi. – T. 2003. 75-bet*

Ashurmatov Muzaffar Komilovich,

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi

katta ilmiy xodimi (doktorant)

OILA FAROVONLIGINI TA'MINLASHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada buyuk sharq mutafakkirlarining oilaviy masalalar borasidagi falsafiy-axloqiy, sotsiologik va psixologik qarashlari hamda oila farovonligini ta'minlashda bildirgan qimmatli fikrlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: oila, nikoh, komil inson, halollik, poklik, mardlik, mehribonlik.

Abstract. This article analyzes the philosophical, ethical, sociological and psychological views of the great thinkers of the East on family issues, as well as their valuable opinions on issues of ensuring family well-being.

Keywords: family, marriage, perfect person, honesty, purity, courage, kindness.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, jamiyat hayotining barcha sohalarida ma'naviy omillar ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan. Mohiyat-mazmunini milliy istiqloq g'oyasining maqsad-manfaatlari tashkil etgan bu jarayonda ijtimoiy munosabatlarning demokratik qadriyatlar asosida qaror topishi, erkin fuqarolik jamiyati asoslarining mustahkamlanishiga alohida ahamiyat berilishi natijasida: bir tomondan, jamiyat taraqqiyotiga xos ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma'naviy paradigmalari shakllanmoqda, boshqa tomondan, jamiyatda ijtimoiy qatlamlar o'rtasida yangi munosabatlar uyg'unligi qaror topmoqda. Bu esa, oila, oilaviy munosabatlarni milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar negizida rivojlantirishni taqozo qilmoqda. Tarixan oila va nikoh masalalarining qanday bo'lganligi, ushbu qadriyatlarga olimlar va allomalarning bildirgan munosabatlari o'ta muhim va amaliy ahamiyatli hisoblangan.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy-madaniy merosini o'rganar ekanmiz, ularda bayon qilingan oilaviy turmush qoidalari, undagi shaxslararo munosabatlar madaniyati, farzand kamoloti, erkak bilan ayol munosabati, insoniy fazilatlarining shakllanishi haqidagi qimmatli fikrlar sharq xalqlari, xususan, o'zbek xalqining og'zaki ijodi, eposining (o'zbek xalq maqollari, ertaklari, dostonlari, afsonalari, rivoyatlari) uzviyligi asosida tarkib topgan ilmiy-madaniy meros ekanligini ko'ramiz.

Oila va oilaviy munosabatlar masalalari, shu jumladan, oilaning maqsadi, vazifasi, vujudga kelishi, uning tasniflanishi, huquq va majburiyatlar, oilada huquqiy madaniyatini shakllantirish va yanada oshirish masalalari bir necha asrlardan buyon buyuk mutafakkirlar va davlat boshqaruvi masalalari bilan shug'ullanuvchi olimlar diqqat e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Buyuk mutafakkirlarimizning mazkur masalalarda qarashlari Abu Nasr Forobiyning “Aql haqidagi risola”, Abu Rayxon Beruniyning “Hindiston”, Abu Ali Ibn Sinoning “Qush risolasi” va “Axloq haqida risolasi”, Yusuf Xos Xojibning “Qutadg'u bilig”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Alisher Navoiyning “Mahbub-ul-qulub” kabi asarlarida o'z aksini topgan.



Abu Nasr Forobiy (873-950) jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini va inson kamoloti bosqichlarini, insonlar yashash jarayonida baxt-saodatga erishuv yo'llarini o'zining mashhur «Fozil odamlar shahri» asarida bayon etadi. Forobiy oqil insonlar haqida gapirib, «Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, yomon ishlardan o'zlarini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydi» degan edi. Alloma oqillar bor joyda hech qachon muammolar va kelishmovchiliklar bo'lmasligiga ishora qiladi. Uning g'oyalarida oilaning to'liqligi, unda qaror topgan sog'lom ma'naviy muhitning ahamiyatini aks ettiradigan fikrlar ham mavjud. «Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi. U bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi» yoki «odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir. Haqiqiy baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar (bizningcha, oila) fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi (bizningcha, oila jamoasi) fazilatli jamoadir».

Forobiy keraksiz urf-odatlardan (hozir ham oilaviy hayotda, er-xotin munosabatlarida uchraydi) voz kechish, baxt saodatga erishish yo'llari haqida gapirib shunday deydi: Rahbarlar (er yoki xotin) «yomon odatlarni o'zida ifodalovchi o'tmishni ham o'zgartirmog'i kerak. Aks holda o'tmishni talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday engillik, o'zgarish va o'sish ham bo'lmaydi». Yoki «Baxt saodatga erishuv yo'lida nimaiki (bilim, axloq, kasb-hunar) yordam bersa, uni saqlamoq, mustahkamlamoq nimaiki zararli bo'lsa, uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilmoq zarur».

O'rta asrlarning buyuk olim-ensiklopedisti Abu Rayhon Beruniy (973—1048) Forobiy qarashlari ta'sirida qator fanlar bobida o'z izini qoldirgan donishmanddir. Uning ko'pgina asarlarida inson odobi va axloqi xususidagi noyob fikrlar o'z ifodasini topgan, Mutaffakkir o'zining «Minerologiya», «Geodeziya», «Hindiston», «O'tgan avlodlar obidalari» nomli asarlarida inson shaxsi, uning kamoloti, aql-idroki, halovat va lazzati, sabr-toqat va kamtarlik, go'zallik va did, poklik va xudbinlik kabi tushunchalarga inson ruhiyatining bilimdoni sifatida ta'rif bergan. U bunday yozadi: «Inson jamiyatda o'z qarindosh-urug'lari bilan birlashib olishga majburdir, bundan maqsad bir-birini qo'llab-quvvatlash hamda har bir kishining ham o'zini, ham boshqalarini ta'minlash uchun ishlarni baja rishdir».

Abu Rayhon Beruniy o'z ijtimoiy qarashlarini aks ettirgan yaxlit ijtimoiy ta'limot yaratmagan bo'lsa-da, lekin u ijtimoiy masalalar bo'yicha o'zining nuqtai nazarini ko'pgina qomusiy asarlarida izhor etishga yoki ular yuzasidan tanqidiy fikrlar aytishga harakat qilgan. Abu Rayhon Beruniyning muayyan qarashlari oilaviy turmush, oila va nikoh, oilaviy qadriyatlar va uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlariga xosdir. Bunday ishoralarni Beruniy hikmatlarida ham uchratamiz. «Yaxshi xulq yaxshilik alomatidir.»Buzuq niyatli va yomon axloqli kishilar o'rtaga kirib olishi bilan ish



to’g’ri bo’lmaydi». «Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldanchi ehtiroslar, g’am-g’ussa bo’lmaydi oilaviy munosabatlarda ana shunday hikmatlarga amal qilishimiz maqsadga muvofiqdir. Beruniy o’rta Osiyo, Qadimgi Yunon va Hind xalqlari hayotini yaxshi bilgani uchun ular amal qiladigan urf-odatlar, qadriyatlar va milliy madaniyatlarining o’ziga xos tomonlarini taqqoslab tahlil qiladi. Ushbu tahlillar oila-nikoh, oiladagi o’zaro munosabatlarga ham xosdir.

Beruniy qarashlarida oilaviy munosabatlar barqarorligining etakchi omillari oqillik va mehnatsevarlikning ahamiyati haqida ham qimmatli fikrlar mavjud. Abu Rayhon Beruniy ustozlari izidan borib, o’zining gumanistik qarashlari bilan oila psixologiyasiga munosib hissasini qo’shdi. U insonlar o’rtasida o’zaro bir-birlarini tushunish, tenglik va boshqaruvda adolatni himoya qilib chiqdiki, bu qarashlar bizning davrimizda ham o’z ahamiyatini yo’qotgani yo’q.

Oilaviy munosabatlar va bu soxaga oid qarashlar tizimida Sharq mutaffakkirlaridan biri, butun Yevropa xalqlari ham uning qomusiy bilimdonligini tan olgan alloma Abu Ali Ibn Sinodir (980-1037). Buyuk olim sifatida u barcha hodisalarning ilmiy mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Ibn Sinoning pedagogik va psixologik qarashlari ijtimoiy asosda qurilgan bo’lib, u oilada bola tarbiyasida umuminsoniy tamoyilning qo’llanilishini yoqlab chiqqan va tarbiyachi ota-onalarga bolani qattiq tana jazosidan ko’ra, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash ma’qulligini uqtirgan. Mutafakkirning qalamiga mansub bo’lgan “Donishnoma”, “Risolai ishq”, “Tib qonunlari”, “Uy xo’jaligi” kabi qator asarlari O’rta Osiyo xalqlari axloq-odobi, psixologiyasi va tabobat olamida alohida o’rin tutgan yirik ilmiy tadqiqotlar hisoblanadi. Oila va oilaviy munosabatlar masalasi uning “Tadbiri manzil” asarida o’ziga xos tarzda bayon etilgan. Uning fikricha, tarbiyachi, ya’ni ota-ona, yollangan shaxs “nafaqat so’z bilan, balki amalda ham bola ruhiga ta’sir ko’rsatmog’i lozim”.

Shunday qilib, Ibn Sinoning tabobat, inson tarbiyasi, oilaviy munosabatlar xususidagi fikrlari juda qimmatli bo’lib, ularni hozirgi zamon yoshlari ongiga etkazish esa katta ilmiy-pedagogik va ijtimoiy-psixologik ahamiyatga egadir.

XI asrning buyuk mutafakkiri va shoiri Yusuf Xos Xojib o’zining “Qutadg’u bilig” ya’ni “Saodatga boshlovchi bilim” - kitobida va undan keyingi qator asarlarida o’zining oila etikasi va hayotga oid qarashlarini bayon etadi. Alloma inson faqat jamiyatdagina kamolotga etishi mumkin, muloqot va ijtimoiy-foydali mehnat uni rivojlanishi va yashashining mezonidir, deb hisoblaydi.

Yusuf Xos Xojib oilaviy tarbiyani, bola axloqiy taraqqiyotining asosi, deb hisoblagan: “Agap bolaning xulqi yomon bo’lsa, bunda bolaning aybi yo’q, hamma ayb – otasida”. Shuning uchun ham ota-ona, ayniqsa, ota bunga katta e’tibor bermog’i lozim, U sevgini oilaviy baxt va ijtimoiy muvaffaqiyatlarning garovi, deb hisoblagan. “Yigit uylanmasdan avval kelinning kimligini, uning kelib chiqishi, характери va xulq-atvorini bilishi kerak”, - deydi u. Uning axloqiy didaktikasi O’rta Osiyodagi ilg’or fikrlarning taraqqiyotiga katta hissa qo’shgan, shuning uchun ham uning qarashlari musulmon xalqlari o’rtasida keng tarqalgan

Kaykovus “Qobusnoma” asarida o‘zining bola tarbiyasi, oilaviy hayot, shaxs kamoloti masalalarini bayon etdi. Kitobdagi asosiy g‘oya - yoshlarni ota-onani hurmat qilishga, e‘zozlashga chaqirishidir. Uning bu boradagi fikrlari pandnomaning “Ota-ona xaqqini bilmoq zikrida” bobida bayon etilgan: “Gar bir farzandki, oqil va dono bo‘lsa, ota-ona, mehr-muhabbatini ado etmakdin bosh tortmagay”. U bu borada “Nima eksang, shuni urasan” degan maqolni ishlatib, u oilada bola tarbiyasining qo‘yilishi ana shu muhim maqol asosida qurilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb hisoblaydi

Turmush madaniyati, odob-axloq, sevgi-muhabbat borasida o‘ziga xos qaytarilmas fikrlar sohibi buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning “Mahbub-ul-qulub” yoki “Qalblarning sevgisi” deb nom qo‘yilishi bejiz emas. Chunki bu asarda Navoiy insonlarga qalbidagi eng kerakli o‘gitlarini bayon etib, ularni turmushdagi, oilaviy hayotdagi turli hodisalar va vaziyatlardan chiqishga imkon beruvchi yahshi fazilatlar, ularni tarbiyalash masalalariga diqqatni qaratadi. Risolaning “Uylanish va xotinlar to‘g‘risida” bobida u uylanish va uning foydasi, oilaviy munosabatlar haqida durdona fikrlarni bayon etadi.

Sharqda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qadimdan jiddiy ahamiyat berilgan. Ular “Nasihatnoma”, “Pandnoma”, “Hikmatnoma” tarzida bizgacha etib kelgan. Bu manbalarda oilada uning barcha a‘zolarining majburiyatlari, ayniqsa farzand tarbiyasi borasida o‘zlarining tavsiya va maslahatlarini berib kelishgan.

Islom dinining muqaddas manbaalaridan bo‘lmish Qur‘on va Hadislarda ham odob-axloq, er-xotinning turmushdagi o‘rni va vazifalari, er va xotin o‘rtasidagi munosabatlar, bolalar tarbiyasi, oila yuritish, nikoh va muhabbat masalalariga keng o‘rin berilgan.

Shunday qilib, Sharq mutafakkirlarining barchasini g‘oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shu bo‘lganki, ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo‘yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o‘rni, ota-ona va yaqin kishilarning yo‘naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e‘tibor berganlar. Ular faqat oiladagina rivojlanishi mumkin bo‘lgan sifatlar - halollik, poklik, mardlik, mehribonlik, haqgo‘ylik kabi qator fazilatlarini barcha sifatlardan yuqori qo‘yishlari bilan birga insoniy munosabatlarda namoyon bo‘ladigan yuksak fazilatlar, avvalo, ota-onadan bolaga o‘tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta‘siri kabi qimmatli fikrlar va bu boradagi amaliy ko‘rsatmalarni o‘z falsafiy-axloqiy, sotsiologik va psixologik qarashlarida ifodalab berganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *Abu Nasr Forobiy Fozil odamlar shahri. T.: 2004. B.160.*
2. *Beruniy. Minerologiya, T.: 1966 B.10*
3. *V.M.Karimova. Oila psixologiyasi: Darslik. T.: “Fan va texnologiya”, 2008. - 170 b.*
4. *Ibn Sino. Tadbir manzili, B-44*
5. *Kaykovus Qobusnoma. T.: 2018 B.244*
6. *Shoumarov G‘. B., Shoumarov Sh.B. Muhabbat va oila. – T.: Ibn Sino, 1994.*
7. *Yusuf Xos Xojib. “Qutadg‘u bilig‘”, B-529*

Sapayeva Barno Sultannazirovna,
O‘zDXA Urganch filiali o‘quv yordamchi xodimi

FAROVON OILA-JAMIYAT TAYANCHI

Annotatsiya: ushbu maqolada oila va uning muqaddasligi, oiladagi go‘zal fazilatlar, farzandlar tarbiyasi, oila xaqida mutafakkirlarning fikrlari, oila tinch-totuvligi, oiladagi ma’naviy muxit, ota onani e‘zozlash, farzandlarni hunarli qilish, farovon oila barqaror kelajak omili ekanligi bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: Oila, jamiyat, tarbiya, sog‘lom turmush, burch, mutafakkir, farzand, mehnatsevarlik, hunar, axillik, mehr-oqibat, insoniylik, mas’uliyat.

Abstract: in this article, the family and its sanctity, beautiful qualities in the family, raising children, the thoughts of thinkers about the family, family peace, spiritual atmosphere in the family, honoring parents, making children skilled, that a prosperous family is a factor of a stable future is stated.

Keywords: Family, society, education, healthy life, duty, thinker, child, hard work, craft, kindness, kindness, humanity, responsibility.

Oila nima? Oila kichik bir jamiyat hisoblanadi, ya’ni jamiyatning bir bo‘lagi.

Insoniyatga xos tabiiy biologik, iqtisodiy mulkiy, xuquqiy va ma’naviy jihatdan birikishiga ijtimoiy birlik, ya’ni oila deyiladi. Ijtimoiy birlik deganda ikki jinsdagi yoshni bir jamoa-oila bo‘lib birlashuvi, tinch-totuv turmush kechirishi tushuniladi. Oila mehr-muhabbat, vafo-sadoqat bilan qurilishi oilaning tinch-totuv yashashiga asos bo‘ladi.

Oilaning tinch-totuvligini ta’minlash oila farovonligi, farzandlar tarbiyasi va kelajak uchun qayg‘urish ota va onaning asosiy burchi hisoblanadi. Ayniqsa, Sharq oilalariga xos fazilatlardan hisoblangan avlodan-avlodga o‘tib kelayotgan oilada o‘zaro hurmat, oiladagi qonun qoidalar, milliy urf-odatlar va qadriyatlarni e‘zozlash har bir ota-onaning insoniylik burchidir.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti I.A.Karimov oilaga shunday ta’rif beradi: “Oila jamiyatning negizi”. 1998-yil “Oila yili” deb e’lon qilinishi, 2012-yilni “Mustahkam oila yili” deb qabul qilinishi jamiyatda oilalarga bo‘lgan e’tiborning yorqin ko‘rinishidan dalolat beradi. Birinchi chaqiriq Oliy majlis IX sessiyada qabul qilingan “Oila kodeksi”, ularning mustahkamligini ta’minlashda, huquqiy manfaatlarini muhofaza etishda huquqiy kafolat vazifasini o‘tamoqda.

O‘zbek oilalariga xos va mos bo‘lgan go‘zal fazilatlardan biri oila a’zolari keksa otaxon va onaxonlarni hurmatini joyiga qo‘yish, ularning pand-nasihatlariga quloq qo‘yish, oilada tejamkorlik va orasta bo‘lish, farzandlarni yaxshi xulq va odob bilan tarbiyalash, ularni ilm olish, hunar o‘rganishlariga sharoit yaratib berishdan iboratdir. Farzandlarimiz oilada o‘shib tarbiya topadilar. Bolaning jismonan sog‘lom o‘shishi, aqlli va ma’naviyatli bo‘lishi, hunar o‘rganishi uchun oiladagilar mas’ul hisoblanadilar.

Oilada farzand tarbiyasi juda murakkab jarayondir. Shuning uchun ham mutafakkirlar farzand tarbiyasini davlatni boshqarishdan ham mushkuldir deb baholaydilar.

Oila va oilaviy tarbiyaga oid fikrlar Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri”, Abu Rayhon Beruniyning “Hikmatlar”, Abu Ali Ibn Sinoning “Oila xo'jaligi” asarlarida o'z ifodasini topgan. Abdurauf Fitratning “Oila” asarida “Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog'liqdir... Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamalakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi”, deya yozadi. Ma'rifatparvar olim o'z fikrini davom ettirib, “Agar bir mamlakat aholisi axloqsizlik va joxillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsava intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi”, deb ta'kidlaydi. Biz g'arb dunyosida yuz berayotgan ijtimoiy o'zgarishlarni o'z holicha sharq olamiga, xususan, O'zbekiston turmush tarziga aynan ko'chirib talqin etish to'g'ri emas.

G'arb mamlakatlari bizning oilalarimizdagi turmush tarzimiz farzandlarimiz tarbiyasidagi urf-odatlarimiz va bizning mamlakatimizdagi insonlarning bir-biriga mehr-oqibatligiga va sahovatpeshaligiga havas bilan qaraydilar. Aslida oila millat sharafini yuqori martabaga ko'taradigan madaniyat o'chog'i hisoblanadi.

Farzandlarimizga oilada ota-onaning o'rni va hurmati va ayniqsa, otaning o'rni katta ekanini tushuntirish balki, “Ota ro'zg'or boshi, oila tayanchi” deb uqtirishimiz lozimdir. Oilada tarbiya borasida bobo, buvilarimizning xizmatlari nihoyatda kattadir. Ular nafaqat nabiralarini erkalatadilar, balki ularga go'zal tarbiyani vazminlik bilan mehrlil so'zlar orqali qalblariga joylaydilar. Mening o'zim ham buvimning erkalashlarini, “Jon qizim, osmondagi yulduzim” deb she'r aytishlarini hamon-hamon sog'inaman. Farzandlar tarbiyasi, oila totuvligi, mehr-muhabbat haqidagi kitoblarni o'qib mutolaa qilar ekanman, Amir Temur o'z nabiralarining tarbiyasini oqila va tadbirkor Saroymulxonim zimmasiga yuklatilganligi haqida ko'pgina tarixiy –ilmiy ma'lumotlarni o'qiganman. Demak, farzand tarbiyasida onaning, ayolning o'rni nihoyatda katta ekanligini his qilish kerak.

Ayol mo'jiza, ayol mehr-muhabbat, sadoqat va vafo timsoli. Ayol hayot davomchilarini yaratuvchi ulug' zot, muqaddas insondir. Nozik vujudida farzandini to'qqiz oy ko'tarib, kerak bo'lsa jonini garovga qo'ygan kabi uni dunyoga keltirib, qancha uyqusiz tunlarni boshdan o'tkazib, farzandingi voyaga etkazadi. Bunday inson oldida faqat-faqat ta'zim bajo keltirishimiz va uni e'zozlashimiz zarurdir.

Chunki, ayol oila charog'boni, oila farishtasi, mehr va muhabbatning tirik timsoli. Oilaning tinch-totuv farovonligida ayolning o'rni nihoyatda yuksakdir. Oilani saranjom va sarishta qilishda farzandini oq yuvib, oq tarab, uni voyaga etkazishda oila a'zolarini hurmatini joyiga qo'yishida unga teng keladigan zot bormikan? Oilaning mustahkamligi ayolga bog'liq, lekin oila boshi erkaklarimiz ham farzand tarbiyasida hamma mas'uliyatni ayolga ag'darib qo'yishi ham albatta, insofdan emas. Ko'pincha erkaklar “Pul topib keldimku” zayilida ish ko'rib, farzand tarbiyasiga befarqroq

qaraydilar. Lekin otalarimiz farzandlar tarbiyasiga jiddiy qarasalar, ayolini ayasalar, oiladagi totuvlik, farovonlik yanada kuchayar edi.

Oilada amalga oshiriladigan ishlar (iqtisodiy, ma’naviy, tarbiyaviy) albatta oila a’zolarining rejalari va maslahatlashuvi asosida bajarilsa, oila iqtisodi va totuvligi uchun ham koni foyda bo’ladi. Chunki, bugungi kunda ayrim oilalarning ajrashib ketishiga sabab, iqtisodiy etishmovchiliklar va er-xotinning bemaslahat ish qilishlari, oilada bir-birovga bo’lgan hurmatning yo’qolib borishidir. Bunday oilalarda asosiy jabr ko’ruvchilar-bu farzanddir. Farzand bu Ollohning buyuk ne’mati. Farzandlarimizni tirbiyalashda o’sib-ulg’ayishlarida ham ota-ona sabrli, shukrli, xushmuomalali, ma’rifatli va mehnatkash bo’lmog’i kerak. Oilada ana shu holat yaxshi yo’lga qo’yilsa, albatta oila degan maskan go’zal va fayzli bo’ladi.

Oila jamiyatning asosiy bo’g’ini bo’lib, uning mustahkamligi va farovonligidan jamiyat bevosita manfaatdor hisoblanadi. Donolarimiz ta’biri bilan aytganda, “Oila –jamiyatning duru gavharidir”. Ushbu duru gavhar musaffoligini, uning atrof-muhitga estetik ta’sirchanligini, odamlar muhabbatiga doimiy sazovorligini ta’minlash oilaning har bir a’zosidan juda katta mas’uliyat talab etadi.

Oiladagi ma’naviy tarbiyani shakllagishida avvalom bor ona ko’proq mas’uldir. Chunki farzandning ham jismonan, aqlan ma’nan kamol topishida, uning qanday inson bo’lib etishishida, jamiyatga qanday o’rin tutishida ayolning mehnatini ko’rishimiz mumkin.

Oilalarning tinch-totuvligi, farovon yashashlari oiladagi muhitga juda bog’liq. Buning uchun oilada mehnatsevarlik, kasb-hunarli bo’lish, halol rizq topish, farzandlarimizni mehnatsevarlikka o’rgatishimiz, yaxshi tarbiya berishimiz farzandlarimiz kelajagini belgilab beradi. Albatta, bunday oilalardan nafaqat oila-a’zolari balki, jamiyat ham manfaatdor bo’ladi. Xalqimizda “Mehnat, mehnatning tagi rohat” degan ibratli so’zlar bejizga aytilmagan. Yalqov farzandlar esa na ota-onaga, na farzanlariga na bir jamiyatga nafi tegadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda farzandlarimizni ilmi, ziyoli, hunarli bo’lishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Maktab va oliy o’quv yurtlarida zamonaviy texnikalar, amaliy ishlar uchun laboratoriya jihozlari, til o’rganish uchun shart-sharoitlar, bularning barchasi farzandlarimiz kelajagi uchun yaratilgan omillardan hisoblanadi. Yoshlarimizning ko’pchiligi xorijiy mamlakatlarda ta’lim olishlari, malaka oshirishlari, xorijiy mamlakatlarda chet ellarda ilmiy ishlarini ingliz tillarida himoya qilayotganliklarining o’zi jamiyatimizda farzandlarimiz kelajagi, oilalarning farovonligi hamda iqtisodiy tomonlama yuksalishlari uchun qilinayotgan ezgu istoqbolli ishlarning asl namunasidir. Mamlakatimizda yosh oilalarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilayotgan sarmoyalar, ularni uy-joy bilan ta’minlanayotganliklari, oliy o’quv yurtlarining soni oshirilayotganligi bularning barchasi oilalarning mustahkamligi, totuvligi va kelajagi uchun yaratilgan shart-sharoitlarning asl namunasidir. Demak, oilalarimiz farovonligi o’zimizga ko’p jihatdan bog’liq ekan. Nafaqat doimo hukumat

ko'mak bersin deb o'tirmasdan oilamiz, jamiyatimiz ravnaqi uchun harakat qilib farzandlarimiz kelajagi uchun qayg'urmog'imiz kerak.

O'z xonadoni, yurtini obodligi, el-yurt farovonligi uchun sa'y-harakat etmagan kishi halovat ham, izzat ham topmas. Bu haqda Abdulla Avloniy kuyinib bunday demishlar: “G'ayrat vujudimizga quvvati mas'ud va baxtiyor bo'lishimiz sababdur. Shuning uchun har birimiz sa'y qilib o'z kuchimiz ila maishatimizga kerak bo'lgan narsalarni topub, boshqalarga muhtoj bo'lmay rohat-rohat yashamoq lozimdir. Sihatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, qanoatimiz, sabrimiz, fazilatimiz alhosil, butun hayotimiz harakatimizga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Milliy istiqlol g'oyasi. 9-sinf darsligi.*
2. *Abu Rayhon Beruniy “Hikmatlar asari”.*
3. *Abdurauf Fitrat “Oila” asari Toshkent “Ma'naviyat” 2000.*
4. *Rizouddin Ibn Faxriddin “Nasihah”. Toshkent, “Cho'lpon” 1993-yil.*
5. *Mansur Bekmurodov sotsiologiya fanlari do'ktori, professor. “Oila va ijtimoiy tarbiya” maqolasi. Ma'rifat gazetasi. 2012-yil 12-may.*

Hojiyev Rasulbek Boynazar o'g'li

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti
kichik ilmiy xodimi,

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

MAMLAKATIMIZDA OILANI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida oila huquqi sohasining alohida huquq sohasi sifatida shakllanishi, oilaning davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rni, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli huquqiy islohotlar natijasida qabul qilingan yangi tahrirda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila qonunchiligining takomillashtirilishining o'ziga xos jihatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Oila, oila huquqi, oilaviy qadriyatlar, davlat, nikoh, milliy o'zbek oilasi.

Abstract. In this article, the formation of the field of family law in the Republic of Uzbekistan as a separate field of law, the role of the family in the life of the state and society, the improvement of family legislation in the Constitution of the Republic of Uzbekistan in the new version adopted as a result of large-scale legal reforms carried out in our country specific aspects are discussed.

Keywords: Family, family law, family values, state, marriage, national Uzbek family.

Oila - kichik Vatan. Oila tinch bo'lsa,
baxtli bo'lsa, Vatan tinch bo'ladi”.

Shavkat Mirziyoyev

Insoniyat yaralibdiki oila degan muqaddas tushuncha ham u bilan birga paydo bo'lib, bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmasdan kelayotgan qadriyatlardan biri hisoblanadi. Oila har doim jamiyatning negizini tashkil qilgan asosiy bo'g'in sifatida qarab kelingan. Jumladan, davlat va huquqni paydo bo'lishiga oid nazariyalarni ichida davlatni kattalashib ketgan oiladan davlat vujudga kelgan degan Aristotel tomonidan asos solingan “Patriarxal nazariya”¹² da hamda ushbu nazariyaning yana bir namoyondasi Xitoy faylasufi Konfutsiy tomonidan davlatni katta oilaga imperatorni esa oila boshlig'iga qiyoslagani ham bejizga emas, albatta. Konfutsiyning o'z oilasini boshqara olmagan kishining davlatni boshqarishi amrimahol ekanligi haqidagi qarashlari ham oilaning nechog'lik muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, Avesto kitobida “nmana-vis-varzana-zantu-dahyu”¹³ ko'rinishida ya'ni davlatning oiladan qabilalar ittifoqiga qarab yuksalib borishida ham uchratishimiz mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1994-yil xalqaro miqyosda oila yili deya e'lon qilindi va shu yildan boshlab 15-may dunyo miqyosida “Xalqaro oila kuni”

¹² X.Odilqoriyev Davlat va huquq nazariyasi. –T. 2022. B. 48.

¹³ Sh.Nurullayeva Avestoda oil va nikoh masalalari // Universum №6 (24)

sifatida nishonlab kelinmoqda. Mamlakatimizda ham oila muqaddas qadriyat ekanligi inobatga olingan holda bugungi kunga kelib huquqning alohida mustaqil sohasi sifatida shakllanib ulgurgan. 1998-yil mamlakatimizda “Oila yili” deb e’lon qilindi hamda 30-aprel kuni “Oila kodeksi” qabul qilindi. Ushbu kodeks oila huquqining asosiy normativ-huquqiy hujjati hisoblanadi. Barcha normativ-huquqiy hujjatlar uchun asos va dasturilamal bo‘lib xizmat qiluvchi Bosh Qomusimizning ham XIV bobi ham oila masalalariga bag‘ishlanadi. Yangilangan Konstitutsiyamizning XIV bobi “Oila, bolalar va yoshlar” deb nomlanib bir qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Jumladan Konstitutsiyamizning 76-moddasiga ko‘ra: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidir. Nikoh O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi”¹⁴. Ushbu moddaga yangi norma ya’ni nikoh O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanishi kiritildi. Oila an’anaviy qadriyatga tayanadigan bo‘lsa u qanday bo‘ladi degan savol tug‘ilishi tabiiy.

O‘zbek jamiyatida oilaviy munosabatlar o‘ziga xos hususiyatlarga ega bo‘lib, unda an’anaviy, o‘zbek madaniyatini o‘zida aks ettirgan, jamoaviylik prinsiplarini saqlab kelayotgan milliy o‘zbek oilasining qiyofasi:

qayinota va qayinona;

er va xotin;

farzandlar;

ovsinlar;

qayinopa, qayinsingil;

qayinaka va qayinukalar;

amma, xola;

tog‘a xamda amakilardan tashkil topgan jamoa ko‘rinishida ifodalanadi.

O‘zbek jamiyati uchun bunday ko‘rinishdagi axil va farovon jamoaviy oila qiyofasi doimo rag‘batlantirilib, obro‘-e’tibor qozonib kelgan.

Milliy o‘zbek oilasini juda kam holatlarda faqat er va xotin ko‘rinishida uchraydi. Mana shu hususiyatlarning mavjudligi bizni o‘zbek oilasidagi hurmat va mehr oqibat, hayo, insof va diyonat hislatlarini uzviy davomiyligini saqlashga undaydi. Qarindosh-urug‘chilik munosabatlarini kengaytirib, o‘ziga xos ijtimoiylashuv ko‘rinishlarini namoyon qiladi¹⁵.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 1-moddasida O‘zbekistonda qonunchilik oila quyidagi oilaviy qadriyatlar asosida qurilishini va davlat tomonidan himoya qilinishini e’tirof etadi. Xususan:

oilani mustahkamlash;

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T. O‘zbekiston. 2023. B. 43.

¹⁵ X.Saydivaliyeva Oilaviy nizolarni tartibga solishda oilaviy-huquqiy shartnomalarning ahamiyati va roli // “Oila institutini rivojlantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarining o‘rni mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari to`plami. –T. 2023.

oilaviy munosabatlarni o‘zaro muhabbat;
ishonch va hurmat;
hamjihatlik;
bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a’zolarining mas’ulligi hissi asosida qurish;
biron-bir shaxsning oila masalalariga o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘ymaslik;
oilaviy huquqlarning himoya qilinishini ta’minlash¹⁶.

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasida oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligiga asoslanadi. Bunda:

erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi;
er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi;
ichki oilaviy masalalarning o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilinishi;
oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilish;

voyaga etmagan va mehnatga layoqatsiz oila a’zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Shuni alohida e’tirof etish kerakki Oila kodeksining 8-moddasiga binoan agar qonunchilikda oilaviy munosabatlarni tartibga solishga oid tegishli normalar bo‘lmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi tamoyillariga zid bo‘lmagan mahalliy urf-odat va an’analar qo‘llaniladi.

Xulosa qilib aytganda oila, uning mustahkamligini asrash, globallashuv sharoitida oilaviy qadriyatlarni yo‘q qilishga nisbatan bo‘layotgan tahdidlardan oilani milliy qadriyatlar va an’analar asosida himoya qilish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T. O‘zbekiston. 2023. B. 43.*
2. *O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son*
3. *X.Odilqoriyev Davlat va huquq nazariyasi. –T. 2022. B. 48.*
4. *X.Saydivaliyeva Oilaviy nizolarni tartibga solishda oilaviy-huquqiy shartnomalarning ahamiyati va roli // “Oila institutini rivojlantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarining o‘rni mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari to’plami. –T. 2023.*
5. *Sh.Nurullayeva Avestoda oila va nikoh masalalari // Universum №6. (24) B. 4.*

¹⁶ <https://lex.uz/docs/-104720>



IKKINCHI SHO‘BA

OILALARDA GENDER TENGLIK VA DEMOGRAFIK BARQARORLIK MASALALARINING MILLIY VA UMUMINSONIY JIHATLARI



Xolmatova Zulfiya Tillavoldiyevna,

*Farg‘ona davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

O‘ZBEKISTONDA GENDER TARBIYA – OILA MUSTAHKAMLIGI ME’ZONI

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yigirmanchi yalpi majlisida Prezident o‘ta muhim va dolzarb vazifalarni amalga oshirish uchun Senatda yangi tuzilma – Ayollar va gender tenglik qo‘mitasini tuzishni taklif qildi. “Oliy Majlis Senati Kengashining” O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining «ayollarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va gender tengligini ta‘minlash sohasidagi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida» qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, Oliy Majlis Senatining Ayollar va gender tengligi bo‘yicha qo‘mitasi tuzildi”, deyiladi bayonotda.

Kalit so‘zlar: gender, tushuncha, ta‘lim, o‘qitish, tarbiya, maktab va OTM, strategiya, erkak va ayol.

Abstract: As the press service of the upper house of parliament reminds, at the twentieth plenary session of the Senate of the Oliy Majlis of Uzbekistan, the President proposed to create a new structure in the Senate – the Committee on Women and Gender Equality to implement extremely important and urgent tasks. “The resolution of the Kengash of the Senate of the Oliy Majlis” On improving the activities of the Senate of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan in the field of comprehensive support for women and ensuring gender equality “was adopted. According to the resolution, the Committee of the Senate of the Oliy Majlis on Women and Gender Equality has been formed” the message says.

Keywords: gender, concepts, education, training, upbringing, school and university, strategy, woman and man.

O‘zbekistonda jamiyatning barcha sohalarida ayol va erkaklar teng huquqligini ta‘minlashni maqsad qiluvchi 2020–2030 yillarda Gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilinadi. Strategiyadan ko‘zlangan asosiy maqsad – barcha ayollar va qizlar, erkaklar va bolalar uchun ularning irqi, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotdagi fundamental inson huquqlarining ta‘minlanishiga erishish hisoblanadi.

“Mamlakatda barcha sohalarida ayol va erkak- larning teng huquq va imkoniyatlaridan foydalanishiga harakat qilinmoqda. Yaqinda bo‘lib o‘tgan saylovlar misolida ham buni ko‘rish mumkin. Hozirda O‘zbekiston sog‘liqni saqlash va ta‘lim sohasida gender tengligiga erishdi. Boshqa yo‘nalishlarda ham shu natijaga erishish uchun mazkur strategiya yordam beradi”.

Strategiyada 9 ta maqsad qamrab olingan:

- ijtimoiy-siyosiy hayotda erkak va ayollarning ishtirok etishida teng imkoniyat va huquqlarni yaratish;
- ayol va erkaklarning iqtisodiyot, bandlik va mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilishda gender tengligini ta‘minlash;

- butun hayot davomida barcha uchun adolatli va sifatli ta'limni ta'minlash;
- barcha xotin-qizlar uchun gender tengligini ta'minlash, zo'ravonlikdan himoyalash, odam savdosiga chek qo'yish;
- barcha erkak va ayollar uchun ijtimoiy himoya, sog'lom turmush tarzini ta'minlash;
- milliy gender statistikasini rivojlantirish;
- rejalashtirish va byudjetlashtirishda gender masalasini inobatga olish;
- OAVda gender muammolarining keng yoritilishini ta'minlash;
- barcha uchun xavfsiz ekologik muhitni ta'minlash masalalariga xotin-qizlarni jalb qilish.

Gender tenglikka erishish strategiyasi BMTning 2030 yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari, 2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, “Xotin- qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi qonunga asoslangan [1-3].

Hozirda hujjat bo'yicha tegishli idora va tashkilotlarning fikrlari o'rganilib, muhokama jarayoni olib borilmoqda. Strategiya shu yilning fevral oyida tasdiqlanishi kutilyapti. Strategiyada qayd etilgan maqsadlarga 2030 yilgacha erishish rejalashtirilgan [3].

Respublikamizda qaror topgan zamonaviy shart-sharoitlarda ta'limiy, tarbiyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy funksiyalarni bajarmoqda. Hozirgi kunda jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning jadal amalga oshirilishi, ta'lim tizimining bosqichma-bosqich isloh qilib borilishi – murakkab ijtimoiy hodisa sifatida umume'tibofli va ma'naviy qiziqishiga molik jarayonga aylandi. Ta'lim tizimining umumiy maqsadi teng huquqli va demo- kratik davlat talabiga javob beruvchi jamiyat a'zolarini tarbiyalab berishdan iboratdir. Demak, kasbiy faoliyatga pedagogik faollashuv yordamida inson hayotiga, shaxs tarbiyasiga, ijtimoiy munosabatlarrivojlanishiga ma'lum ta'sir ko'rsatish mumkin. Faol o'qituvchi shaxsini shakllantiish ijtimoiy uyg'unlashuvi esa ta'limni taraqqiy ettirishning muhim omili hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatning obro'-e'tiborini va ijtimoiy maqomini oshirish yuzasidan davlat siyosati ro'yobga chiqariladi. Ta'lim oluvchilarning va pedagoglarning o'qishi, sog'liga va dam olishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

Ta'lim muassasalari va sog'liqni saqlash organlari bolalar hamda o'quvchi yoshlarning sog'ligini saqlash va mustahkamlash uchun zarur choralarni ko'radilar. O'quv-tarbiya jarayonining sog'lomlashtirishga qaratilgan yo'nalishini ro'yobga chiqarish, sog'lom turmush tarzi normalarni joriy etish uchun sharoitlar ta'minlanadi. Ta'lim oluvchilarning tibbiy-gigiena madaniyatini oshirish, ularning jismoniy tarbiya va sport bobidagi faolligini kuchaytirish hamda jismoniy kamolot darajasini oshirish uchun tashkiliy-uslubiy yondashuvlar takomillashtiriladi. Sog'liq va rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun munosib muhit yaratiladi.

Hozirgi zamon maktabining qadriyatli orientatsiyalari, maqsadlari va normalari jamiyatda ma’lum va umuqabul qilingan sifatlar bilan bir qatorda “ayollik”, “erkaklik” kabi sifatlar ham kiritilsa, bu biror ma’noda yangi genderli asosda ko‘rilgan maktab bo‘lishi anglandi va ko‘rsatildi. Bu qadriyatlar, maqsadlar va normalarni ta’lim muassasasi faoliyatining “oxirgi natijasiga” kiritilganida bu tushuncha ma’nosining kengayishi, o‘quvchining yangi “xos xarakteristikalari” kiritilishi va shuningdek, ta’lim jarayonining korrektsiyalanishi to‘g‘risida gapirish mumkin.

SHuni ham aytib o‘tamizki, har bir individ o‘zida maskulinlik va feminlik xislatlariga u yoki bu darajada ega bo‘lishi mumkin. SHuning uchun tabiat tomonidan ikki jins belgilanishiga qaramasdan, madaniyat, tarixiy davr, jamiyatdagi o‘zgarishlarga bog‘liq ravishda gender tiplari variantlari, genderli xilma-xillik ko‘proq kuzatiladi. Gender tushunchasining turli fanlardagi talqi- nini ko‘rib chiqaylik.

Bu erda muammoli va munozarali o‘rinlar ancha ko‘p. O‘tkazilgan tadqiqot muhokama qilinayotgan muammoning mufassal to‘liq tavsifiga da’vogarlik qilmaydi. SHunga qaramasdan, hozirgi zamon maktabi sharoitlarida ta’limda genderli yondoshuv jamiyatda gender madaniyatini shakllantirish uchun, genderli ta’lim kontsepsiyasini ishlab chiqish uchun foydali bo‘aldi. Bunda tadqiqot davomida gender tadqiqotlari sohasida qilingan tahlil faqat pedagogikadagina emas, balki sotsiologiya, psixologiya, falsafada ham foydali bo‘ladi deb o‘ylaymiz. “Gender” tushunchasi aniq psixologo-pedagogik xarakteristikalarga ega bo‘lmaganligi va pedagogikada etarli darajada ishlab chiqilmaganligi aniqlandi. Bu esa bizga “gender” tushunchasi mohiyatini ta’lim sohasi doirasida aniqlashtirish imkonini berdi. Bunday faraz, taxmin qo‘yildi: “genderni” erkak va ayol jinsidagi shaxslar xulq-atvorining shaxsning psixologik ustanovkalari, jamiyat va davlat talablariga muvofiqlashgan xos xarakteristikalari majmui sifatida qarash mumkin.

Psixologiyada “gender” “ijtimoiy-biologik” xarakteristika sifatida qaraladi va uning yordamida “erkak” va “ayol”ga ta’rif beriladi [5]. Falsafada “gender” kategoriyasi “kompleks mexanizm-texnologiya bo‘lib, u sub’ektni normativlik jarayonida ham erkak va ham ayol sifatida ta’riflaydi va odam ekspektatsiyalarga muvofiq ravishda kim bo‘lishini rostdashni belgilaydi [9].

Sotsiologiyada “gender” atamasi ta’limda, kasbiy faoliyatda, hokimiyatga erishishda, oilaviy rolda reproduktiv xulq-atvorda individual imkoniyatlarni aniqlaydigan ijtimoiy status sifatida talqin qilinadi [5].

Xalqaro feministik hamjamiyat tomonidan gender tushunchasi “odamlarga jamiyat tomonidan ularning biologik jinsiga bog‘liq ravishda beriladigan barcha ijtimoiy va madaniy normalar, qoidalar va rollarni belgilash uchun foydalaniladigan” tushuncha sifatida tan olingan [34].

Muammoning nazariy tahlili va eksperiment ishining boshlang‘ich tajribasi genderli yondashuv asosidagi maktab modelining quyidagi tamoyillarini ta’riflash imkonini berdi:

- jismoniy, psixologik, ijtimoiy, ma’naviy salomatlikni saqlash tamoyili;



– tabiatga muvofiqlik tamoyili – u erkak va ayol individualligini qaror toptirish, jinslarning o‘zaro munosabat madaniyatini, erkaklik va ayollikni tarbiyalashga yo‘naltirilgan ta‘lim mazmunida amalga oshiriladi;

– majmuaviylik tamoyili u vositalar majmui va integrativ dasturlardan foydalanishda namoyon bo‘ladi. Integratsiya jarayonlari xilma-xil shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin: tanlov bo‘yicha o‘quv fanlari majmuasini yaratish; jins faktorini hisobga olib, ta‘lim shakllari va metodlarini yaratish; yangi ta‘lim fezosini yaratish;

– ijtimoiylik tamoyili – u maktab bitiruvchilarida odimlar bilan o‘zaro munosabatlarni qurish uquvlarini shakllantirish, o‘z hulq-atvor strategiyasini ishlab chiqish konkret hayotiy muammolarni hal qilish uquvlarini shakllan- tirishga qaratilgan.

Bu ta‘riflangan tamoyillar bir jinsli sinflarda ta‘lim oluvchi qizlar va o‘smirlar uchun xos umumiy xislatlarni aniqlash imkonini beradi. Bular jumlasiga quyidagilar xosdir.

- o‘qishda psixologik to‘siqlarning yo‘qligi;
- jismoniy va ma‘naviy takomillashuvga ehtiyoj;
- erkak va ayol individualligini qabul qilish, uning betakrorligi va noyobligi;
- jinslar orasida do‘stona munosabat yaratish va o‘qitish;
- o‘z kuchlariga ishonch, o‘z-o‘zi bo‘lish qobiliyati.

Odatdagi maktabda bunday ta‘lim bo‘lishi mumkinmi degan savol beixtiyor tug‘iladi. Bo‘lishi mumkin, lekin samarasi eng kam bo‘ladi. Bu odatdagi maktabda ta‘lim vektori bolalarni bilimlarni o‘rgatishga yo‘naltirilganligi, shu bilan birga qancha erta bo‘lsa, shuncha yaxshiligi bilan bog‘liqdir. Bunda boshlang‘ich maktabda sinchkov, zehni o‘tkir o‘quvchidan kelgusida kuchsiz irodali o‘rtacha o‘quvchi o‘sib etilishi mumkin. Maktabdagi a‘lochi hayotda unchalik muvaffaqiyatli bo‘lmasligi ham mumkin. Buning ustiga qiz bolalar va o‘g‘il bolalarning psixologik xususiyatlarining hisobga olinmasligi jinsning ichki qobiliyatlarini ochmasligi ham mumkin.

Yuqorida bayon qilingan tamoyillarga batafsilroq to‘xtalish. Ularning har birining ma‘nosini ochayotib, qadriyatlar tizimida jismoniy va axloqiy sog‘lomlik birinchi o‘rinda turishini ko‘rsatib o‘tamiz. “Sog‘liq – bu faqat kasalliklar va jismoniy kamchiliklar yo‘qligigina emas, balki to‘la jismoniy, intellektual va ruhiy bardamliligidir” (Halqaro sog‘liqni saqlash tashkiloti matnidan).

O‘quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlariga bog‘liq ravishda umumiy rivojlanish qonuniyatlari to‘g‘risida bilimsiz sog‘liqni mustahkamlaydi, shaxsni faol, shodmon, negativ ta‘sirlarga qarshi turishga qodir bo‘ladi. Boshqa odamlar, qarma-qarshi jins bilan to‘g‘ri, sog‘lom munosabatlar ichki rivojlanishning bepoyon sharti, o‘g‘il-qiz bola ichki salohiyatining ochilish shartidir

Sog‘liqni asrash, “ayollik”, “erkaklik”ni tarbiyalash uchun pedagogik jamoa jinsning individual rivojlanishi xususiyatlarini bilishi lozim. Bu haqdagi umumlashma axborot jadvalda taqdim qilingan [3].



XULOSA

Psixologiya va pedagogik tadqiqotlarning o‘tkazilgan tahlili mazkur muammoning etarlicha ishlab chiqilmaganligini ko‘rsatdi. Bu ta’lim va tarbiyaning jinsiy oidlikni hisbga oladigan kontseptual asoslarining yo‘qligi, erkakli va ayollik sifatleri orasidagi chegaralarning yo‘qolishi, “erkaklik” va “ayollik” ideallarining transformatsiyalashuvi bilan bog‘liqdir.

Ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar yuksak axloqiy sifat hamda fuqarolik madaniyatiga ega shaxsning ijtimoiy faolligini rivojlantirish jarayonida etarli imkoniyatlarga ega. Muxim axloqiy tushunchalar – mas’uliyatni xis etish, o‘z or-nomusi, qadr-qimmatini himoya qilish, tashabbuskorlik, o‘z nuqtai nazariga ega bilish shaxs faolligining asosiy qirralari hisoblanadi. Ayollar faollii – ular tomonidan oiladagi burchni anglash, ijtimoiy hayotdagi munosib ishtiroki, mehnat ko‘nikmalari, insonlarga munosabat va hamkorlii, shaxsiy namuna ko‘rsatishi, ishbilarmonlii, tashabbuskorlii, ijodkorlii, yuksak kasbiy mahorati bilan belgilanadi. Bu xislatlar xotin-qizlarda, birinchidan, shaxsiy talablar, qarashlar, maqsadlar asosida ularga mos holda mavjud ijtimoiy munosabat hamda voqeliklarning mazmunini o‘zgartirish qobiliyatiga egalikni ifodalaydi. Ikkinchidan, shaxsning o‘ziga xos xususiyati sifatida faollik uning mehnati, o‘qishi, ijtimoiy hayot, ijodkorlikning turli ko‘rinishlarida ishtiroki bilan namoyon bo‘ladi. Uning yo‘nalishlariga insonning o‘z faoliyatida e’tibor beradigan rag‘bat, g‘oyaviy yunalganlik, maqsadga intilish kabilar kiradi. Ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar yuksak axloqiy sifat hamda fuqarolik madaniyatiga ega shaxsning ijtimoiy faolligini rivojlantirish jarayonida etarli imkoniyatlarga ega. Muhim axloqiy tushunchalar – mas’uliyatni his etish, o‘z or-nomusi, qadr- qimmatini himoya qilish, tashabbuskorlik, o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lish shaxs faolligining asosiy qirralari hisoblanadi. Ayollar faollii – ular tomonidan oiladagi burchni anglash, ijtimoiy hayotdagi munosib ishtiroki, mehnat ko‘nikmalari, insonlarga munosabat va g‘amxo‘rlii, shaxsiy namuna ko‘rsatishi, ishbilarmonlii, tashabbuskorlii, ijodkorlii, yuksak kasbiy mahorati bilan belgilanadi. Bu xislatlar xotin-qizlarda, **birinchidan**, shaxsiy talablar, qarashlar, maqsadlar asosida ularga mos holda mavjud ijtimoiy munosabat hamda voqeliklarning mazmunini o‘zgartirish qobiliyatiga egalikni ifodalaydi. **Ikkinchidan**, shaxsning o‘ziga xos xususiyati sifatida faollik uning mehnati, o‘qishi, ijtimoiy hayot, ijodkorlikning turli ko‘rinishlarida ishtiroki bilan namoyon bo‘ladi. Uning yunalishlariga insonning o‘z faoliyatida e’tibor beradigan rag‘bat, g‘oyaviy yo‘nalganlik, maqsadga intilish kabilar kiradi.

SHunday qilib, biz tomonimizdan, genderli yondashuv asosida ko‘rilgan maktab ta’lim jarayoni modelining asosiy xarakteristikallari taqdim etildi va tavsiflandi. Mazkur model ma’lum sa’y-harakatlar to’plami, uning rivojlanish sharoitlarini ifodalovchi biror tizimni nazarda tutadi. Bu yaratilgan model, ish quroli bo‘lgani holda, o‘g‘il bolalar va qiz bolalar salohiyatli imkoniyatlarini ochish va rivojlantirishga ta’sir etuvchi faktorlarni tahlil qilish va rivojlantirishga imkon berish bilan birga, balki

tizimning o‘ziga, uning amal qilish sharoitlariga tuzatishlar kiritishga ham imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil. – B. 488.
2. 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF–4947-sonli Farmoni.
3. Postanovlenie Kengasha Senata Oliy Majlisa «O sovershenstvovanii deyatelnosti Senata Oliy Majlisa Respubliki Uzbekistan v sfere vnestoronney podderjki jenuin i obespecheniya gendernogo ravenstva» 2019.
4. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. Mas‘ul muharrir O‘zbekiston Respublikasi FA haqiqiy a‘zosi M.M. Xayrullaev. Toshkent, “Fan” nashriyoti, 1975. – B. 71–72.
5. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. I-jild. Toshkent, 1968. – B. 151.
6. Avloniy A. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. 2-jild. – T., Ma‘naviyat, 1998. – B. 304.
7. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. – T.: “O‘qituvchi”. 1992. – B. 160.
8. Alisher Navoiy. Arbain hadis (“Qirq hadis”). – T., “Yozuvchi”, 1991. – B. 57.
9. Vigotskiy L.S. Voobrajenie i tvorchestvo v shkol’nom vozroste. – Moskva. “Nauka”.1980. – S. 237.
10. Gaynutdinov R.Z. Psixologiya lichnosti uchitelya v uzbekskoynatsional’noy shkol’i i eyo formirovanie v sisteme nepreryvnoy obrazovaniya / Diss dokt. psix. nauk. – Sankt-Peterburg, 1992. – S. 354.
11. Kon, I.S. Mujskie issledovaniya: menyayuyuesya mujchini v izmenyayuyemsiya mire / I.S. Kon // Vvedenie v tendernye issledovaniya: Uchebnoe posobie. CH. I / Pod red. I, A, Jersbkinoy. -SPb., 2001,-S. 562-605.
12. Nachala fiziologii / Otv. red. A.D.Nozdachev. - SPb., 2001. -315
13. Postanovlenie Prezidenta Respubliki Uzbekistana o «Zdorovoy materi i rebenka» ot 9 fevralya 2016 goda // Narodnoe slovo – 2016. – 10 fevralya.
14. Semeynyy Kodeks Respubliki Uzbekistan – T.: Uzbekistan. 1994. – 338 s.
15. Inomxujayeva S.M. GENDERNAYA KULTURA V UZBEKISTANE // Molodejnyy nauchnyy forum: Obuyestvennyye i ekonomicheskie nauki: elektr. sb. st. po mat. XXXIV mejdunar. stud. nauch.-prakt. konf. № 5(34).
16. Kholmatova, Z. T., & Kholikova, D. M. (2022). MODEL OF DEVELOPING AND DEVELOPING INNOVATIVE THINKING SKILLS IN STUDENTS. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(4), 190-195.
17. Dilobarkhon, K. (2019). The importance of modern innovation in education. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
18. Kholikova, D. (2020). INTELLECTUAL ACTIVITY OF CREATIVE THINKING VERBAL TEST “UNUSUAL USE”. *PEDAGOGICAL SCIENCES*, 22
19. Maxsitovna, K. D. (2022). Pedagogical Problems of Child Raising in the Uzbek Family. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 5, 542-546.
20. Xolmatova, Z. T., & Xolikova, D. M. (2022). TALABALARDA INNOVASION FIKRLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MODELI. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(4), 139-144.
21. Xolikova, D. (2021). Vozmojnosti diagnostiki effektivnosti kompensatsionnogo podxoda v obuchenii. *Obuyestvo i innovatsii*, 2(9/S), 239-252.

22. Kholikova, D. M. (2021). *THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF INCREASING INNOVATIVE THINKING IN STUDENTS. Theoretical & Applied Science, (5), 422-424. ISSN: 2776-1010 Volume 4, Issue 5, May 2023*
23. Kholikova, D. M. (2021). *DEVELOPMENT OF INNOVATIVE THINKING SKILLS IN HIGHER EDUCATION STUDENTS. Theoretical & Applied Science, (6), 549-552.*
24. Kholmatova, Z. T. (2022). *PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF GENDER ASPECTS OF EDUCATION. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(10), 60-65.*
25. Kholmatova, Z. T., & Kholikova, D. M. (2022). *MODEL OF DEVELOPING AND DEVELOPING INNOVATIVE THINKING SKILLS IN STUDENTS. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(4), 190-195.*
26. Xolmatova, Z. T., & Xolikova, D. M. (2022). *TALABALARDA INNOVASION FIKRLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MODELI. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(4), 139-144.*
27. Kholmatova, Z., & Axmadaliyeva, M. (2022). *Healthy lifestyle (HLS)-The basis of valeology in kindergarten. Asian Journal Of Multidimensional Research, 11(9), 136-139.*
28. Kholmatova, Z., & Olamnazarova, F. (2022). *Problems of the communicational approach of language teaching in the primary class. Asian Journal Of Multidimensional Research, 11(9), 140-144.*
29. Tillavoldievna, K. Z. (2022). *Problems of Family Education in People’s Pedagogy. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 5, 535-541.*
30. Xolmatova, Z. T. (2022). *TA’LIM JARAYONIDA GENDERLI YONDASHUV DAVR TALABI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(3), 134-140. ISSN: 2776-1010 Volume 4, Issue 5, May 2023*
31. Tillavoldievna, K. Z. (2022). *Problems of Family Education in People’s Pedagogy. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 5, 535-541.*

Alimov Sardor Komil o‘g‘li,

*“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim*

MIGRATSIYA FENOMENINING OILAVIY AXLOQIY QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASIGA TA’SIRI

Annotatsiya. *Aholi migratsiyasi globallasuv davrining o‘ziga xos fenomenlaridan biri bo‘lib, bugungi kunda uning salbiy ta‘sirini oilaviy munosabatlar tizimi, oilaning axloqiy mohiyatining o‘zgarishida kuzatishimiz mumkin. Maqolada migratsiyaning oiladagi ijtimoiy-axloqiy muhit, axloqiy qadriyatlar tizimiga salbiy ta‘siri yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *oila, aholi migratsiyasi, migrant, oiladagi axloqiy muhit, farzand tarbiyasi, oilaviy qadriyatlar*

Abstract. *Human migration is one of the specific phenomena of the era of globalization, and today we can observe its negative impact on the changes in the system of family relations, the moral essence of the family. The article highlights the negative impact of migration on the socio-ethical environment of the family, the system of moral values.*

Keywords: *family, human migration, migrant, moral environment of family, upbringing of children, family values*

Axloqiy qadriyatlar inson va jamiyatning axloqiy mohiyatini o‘zida aks ettirib, ularning barqarorligi hamda umuminsoniy axloq tamoyillariga asoslanganligi axloqiy muhitning taraqqiyoti uchun zarur hisoblanadi. Odatda, axloqiy qadriyatlar deyilganda, har bir kishi, millat, elat, xalqning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma’naviy-madaniy, kundalik maishiy turmush faoliyatida nisbatan turg‘un, barqarorlik kasb etib, o‘zligini bildirib, namoyon etib, nihoyatda qadrlanadigan, ardoqlanadigan yuksak darajada shakllangan axloqiy sifat va fazilatlar (insonparvarlik, adolat, qonuniylik, vatanparvarlik, xushmuomalalik, halollik kabi) nazarda tutiladi. Boshqacha qilib aytganda, axloqning asosiy tushunchalari, axloqiy tamoyillar va axloqiy me’yorlar birgalikda axloqiy qadriyatlar tizimini tashkil etadi. Ushbu tizimning barqarorligi, bir vaqtning o‘zida umuminsoniylik va milliylikni birlashtira olganligi jamiyat ma’naviy taraqqiyoti va milliy yuksalishiga ijobiy ta‘sir etadi.

Axloqiy qadriyatlar tizimining oila institutiga daxldor bo‘lgan qismi oilaviy axloqiy qadriyatlarni tashkil etib, unda har bir oila tomonidan qadrlanadigan, ham umuminsoniy, ham milliy axloq mezonlariga mos keladigan ijtimoiy-axloqiy ideallar, g‘oyalar, tamoyillar, normalar o‘z aksini topadi. Oilaviy qadriyatlar tizimi butun jamiyatning axloqiy muhiti barqarorligiga ta‘sir etadi. Oilada bolaga salomlashishdan tortib to‘g‘ri oqatlanish, kiyinish, kattalar va tengdoshlar bilan o‘zaro muloqot, jamoatchilik ichida o‘zini tutish singari ma’naviy-ma’rifiy, yurish-turish bilan bog‘liq qadriyatlar singdirib boriladi. Bola o‘zini anglash sari qadam qo‘yganidan tevarak-atrofni, yaqinlarini, unga g‘amxo‘rlik qilayotgan ota-onalarini tanishni va ularning xatti-harakatlariga taqlid

qilish va o'zlashtirishni boshlaydi. O'zbek oilalariga xos bo'lgan mehnatsevarlik, sadoqat, samimiyat, ishonch, vatanni sevmoqlik, adolat, poklik, to'g'rilik singari fazilatlar shaxsiy namuna sifatida ota-onadan farzandga bevosita singdiriladi. Urfodat va an'analarimiz, madaniyatimizdan bahramand bo'lgan o'g'il-qizlarimizning hayot tarziga yoshliklaridan ota-onalariga ko'mak berish, so'ngra o'z oilalari uchun qayg'urish hissi singib boradi.

Oila jamiyatdagi axloqiy muhit barqarorligi kafolati sifatida globallashuv davrida turli shakl va mazmundagi mafkuraviy, g'oyaviy, axloqiy tahdidlarga uchramoqda. Oila institutining barqaror axloqiy muhitiga salbiy ta'sir etuvchi omillardan biri – aholi migratsiyasi fenomeni hisoblanadi.

O'zbekistonda aholi migratsiyasining ijtimoiy axloqiy muhit, axloqiy qadriyatlar tizimidagi transformatsion jarayonlarga ta'sir ko'rsatayotganligini jamiyatimiz hayotida turli ko'rinishdagi g'ayriaxloqiy, zararli tahdidlarning paydo bo'layotganligi, “ommaviy madaniyat”ning milliy axloqiy qadriyatlarimizga zid bo'lgan turli ko'rinishlarining kirib kelayotganligi, oilaviy munosabatlar tizimidagi o'zgarishlar, oilaning milliy axloqiy qiyofasi va mohiyati, uning muqaddasligiga munosabat o'zgarayotganligi, to'ylar, oilaviy marosimlarni o'tkazishda jamiyatimiz uchun yangi qadriyatlarning kirib kelayotganligi kabi jarayonlarda kuzatishimiz mumkin.

Mamlakatimizdagi axloqiy qadriyatlar tizimiga migratsiya va qaytish migratsiyasi (ya'ni migrantlarning immigrant davlatdan o'z vatanlariga qaytishlari) jarayonlarining bevosita ta'siri va buning natijasida axloqiy muhitda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni ikki qismga bo'lishimiz mumkin:

1) migratsiya tufayli jamiyatimiz axloqiy muhitida sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar, xususan, umuminsoniy axloqiy qadriyatlar, millatlararo totuvlik, dinlararo tolerantlik, ijtimoiy munosabatlarning barcha darajalarida bag'rikenglik axloqining qaror topib borayotganligi, migrantlar va ularning oilasiga nisbatan jamiyatda axloqiy mas'uliyatning shakllanayotganligi;

2) migratsiyaning jamiyatimiz etosferasi barqarorligiga salbiy ta'siri, xususan, migratsiya sababli terrorism, ekstremizm va shu kabi buzg'unchi mafkuralarning tahdidi ortganligi, “ommaviy madaniyat”ning turli ko'rinishlari, axloqsizliklarning targ'ib qilayotganligi, milliy axloqiy qadriyatlarimizning qadrsizlanishi, oila institutining axloqiy mohiyati hamda qiyofasi transformatsiyaga, deformatsiyaga uchrayotganligi, to'liqsiz oilalar, ajrimlarning ortayotganligi va boshqalar.

Mamlakatimiz ijtimoiy-axloqiy muhitiga aholi migratsiyasining ijobiy ta'siridan ko'ra salbiy oqibatlari ko'proq seziladi. Buning asosiy sabablaridan biri migrantlar hamda yaqindagina vatanlariga qaytgan muhojirlar resipient mamlakatda davlat va jamiyatning turli tahdidlar, axloqsiz shakllaridan himoya qiluvchi oila, mahalla, ta'lim muassasalari kabi ijtimoiy nazorat institutlar ta'siridan tashqarida bo'lishadi. Bu esa migrant sifatida chet elda yurgan yoshlarning turli zararli illatlar, destruktiv tashkilotlar ta'siriga tushib qolishiga olib kelishi mumkin. Turli ko'rinishda individual axloqiy qadriyatlari deformatsiyaga uchragan muhojirlarning doimiy ravishda mamlakatimizda

qolgan yaqinlari, oila a’zolari, tengdoshlari bilan muloqot qilishlari yoki O‘zbekistonga qaytishlari axloqiy muhitning barqarorligiga salbiy ta’sir etmay qolmaydi.

Aholi migratsiyasining mamlakatimizdagi etosferaga sezilarli salbiy ta’sirlaridan biri jamiyatimizda oila institutining axloqiy qiyofasi transformatsiyasi, oilaviy munosabatlar tizimidagi o‘zgarishlar, ajrimlar sonining ortishi, to‘liqsiz oilalarning paydo bo‘lishi, farzand tarbiyasidagi axloqiy muammolar hisoblanadi. Xorijdagi vatandoshlarimiz, ayniqsa mehnat migrantlari O‘zbekistonga qaytganlaridan so‘ng duch keladigan asosiy muammolardan biri oilaviy hayotda er va xotin, qarindoshlar orasida munosabatlarning yomonlashishi, bolalarga yetarlicha e’tibor bermaslik bilan bog‘liq oilaviy axloqiy muhitning inqirozida namoyon bo‘ladi. Buning asosiy sabablaridan biri boshqa axloqiy muhitning mezonlariga moslashgan sobiq migrantlar oilaviy axloqiy mezonlarni qayta qabul qilishga qiynaladi, oila a’zolari bilan hayotga qarashlari farq qila boshlaydi. Uzoq vaqt birgalikda yashamagan insonlarning hayotiy ideallari bir-biridan uzoqlashadi. O‘zaro munosabatdagi bu muammolar oilaviy janjallarga, hattoki ajrimga, farzandlarning tirik yetim bo‘lib qolishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Bu esa oilaviy axloqiy muhitning barqarorligiga, va shu orqali butun jamiyatdagi axloqiy muhitning barqarorligiga salbiy ta’sir etadi.

Aholi migratsiyasining oila axloqiga yana bir salbiy ta’siri farzandlar tarbiyasida namoyon bo‘ladi. Odatda, migrantlarning aksariyatini 20-40 yosh oralig‘idagi insonlar tashkil etib, ularning ko‘pchiligi (uchdan ikki qismi) oilali hamda ularning balog‘atga yetmagan farzandlari bor. Migrantlar aksariyat holatlarda o‘z oilalarini, farzandlarini xorijga olib ketishmaydi. Oilada ota yoki ona, yoxud ularning har ikkisi farzandlardan uzoqda bo‘lishi oiladagi axloqiy qadriyatlar tizimining o‘zgarishiga olib keladi. Ayniqsa, otaning oilada farzand tarbiyasidagi roli beqiyos. Migrant-erkaklar xorijda bo‘lgan vaqtida uning oilasi vaqtincha to‘liqsiz oilaga aylanadi, bu esa otalari uzoqda bo‘lgan bolalarning tarbiyasida muammolarni keltirib chiqarishi, hatto migrantlarning farzandlari axloqiy tushkunlikka tushib qolishlari ham mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining bolalar jang‘armasi bo‘lgan YUNISEF tashkiloti tomonidan o‘tkazilgan ijtimoiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizdan tadqiqotda ishtirok etgan, ota-onalari xorijda bo‘lgan bolalarning taxminan 33 foizi o‘zini baxtsiz his qiladi, 21 foizi esa doimiy xavotirda yashaydi. Bu esa bolalarning ruhiy, axloqiy rivojlanishiga salbiy ta’sir etib, ularda deviant xulq-atvor, turli axloqiy illatlar paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Bunday bolalarning 8 foizi jamiyatda o‘rnatilgan tartibga, axloqiy qoidalarga amal qilmaydi, 6 foizi mushtlashadi, 18 foizi kattalarga nisbatan qo‘pol bo‘lsa, 37 foizi tengdoshlariga nisbatan shunday munosabatda bo‘ladi. Ba’zi holatlarda migrantlarning farzandlari ruhiy va jismoniy tazyiqqa uchrashadi. Bu esa bolalarning ruhiyatiga ta’sir etib, stress, tushkunlik keltirib chiqarishi mumkin, ba’zida esa bu holat bolalar qasddan o‘zlariga zarar yetkazishlariga ham sabab bo‘lishi mumkin.

Ba’zida mehnat muhojirlari o‘z farzandlarini ham o‘zlari bilan xorijga olib ketishi mumkin. Bunday holatda migrantlarning chet eldagi farzandlari “ommaviy

madaniyat”ningi turli shakllari, milliy mentalitetimizga zid bo‘lgan g‘oyalar, mafkuralar domiga tushib qolishi, ularda destruktiv xulq-atvor shakllanishi holatlari uchrab turadi. Migrantlarning farzandlari ortlariga qaytganlaridan keyin ham kichik yoshidan boshqa xalq va millat madaniyatiga xos odat, an‘analari, qadriyatlarining shakllanganligi sababli, milliy qadriyatlar, urf-odatlarini qabul qilishda, uzoq yillar muomala qilmagan yoki ko‘rmagan qarindoshlari bilan munosabat o‘rnatishda muammolarga, tengdoshlari davrasida o‘z o‘rnini tiklashga va o‘z obro‘sinini topish bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch kelishi, o‘zining kelajagi bilan bog‘liq istiqbollarni o‘zi yashagan o‘zga yurt bilan bog‘lashi mumkin. Bu esa bolalarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishini qiyinlashtirib, axloqiy, ruhiy tushkunlik holatini keltirib chiqaradi.

Migratsiya tufayli yuqoridagi muammolarga uchragan bolalarning barkamol, yuksak axloqli shaxs bo‘lib yetishishlarida qiyinchiliklar yuzaga keladi. Jumladan, oilada shakllanishi lozim bo‘lgan shaxsning eng yuksak axloqiy fazilatlarini: kamtarlik, mardlik, mehribonlik, intizomlilik, tejamkorlik, muloyimlik, saxiylik, saxovatlilik, to‘g‘rilik, hayolilik, himmatlilik, vafodorlik kabi fazilatlar hisoblanib, ular migrantlarning farzandlari voyaga yetganlarida ham to‘liq shakllanmasligi mumkin. Bularning barchasi aholi migratsiyasi fenomenining oiladagi axloqiy muhitga nisbatan yuzaga kelgan salbiy oqibati hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bizda azal-azaldan oila qadriyat sifatida jamiyatimiz axloqiy qadriyatlar tizimining markaziy bo‘g‘inini tashkil etadi. Unga nisbatan munosabat o‘zgarishi, oilaning mental axloqiy mazmunining transformatsiyasi hamda oldingidek qadrlanmay qolishi butun jamiyatimiz uchun axloqiy qadriyatlar tizimining o‘zgarishiga, hatto tanazzuliga olib kelishi mumkin. Jamiyatda migrantlarning soni ortib borgan sari an’anaviy oiladagi ota-ona va farzand o‘rtasidagi an’anaviy axloqiy munosabatlardan, oilaviy qadriyatlardan uzoqlashgan avlod shakllanadi. Oilaning eng asosiy ijtimoiy vazifalaridan biri jamiyatning yuksak ma’naviyatli avlodini tarbiyalash hisoblanar ekan, migratsiya sababli parokanda bo‘lgan oila o‘zining bu vazifasini bajarishi mushkullashib boradi. Bu esa bizning jamiyatimiz axloqiy muhiti, axloqiy qadriyatlar tizimining barqarorligiga salbiy ta’sir etadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda axloqiy muhitning barqarorligi, umuminsoniy va milliy axloqiy qadriyatlarining ijtimoiy hayotdagi ustuvorligi jamiyat ma’naviyatining umumiy taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi. Aholi migratsiya fenomeni tufayli ijtimoiy-axloqiy muhit hamda axloqiy qadriyatlar tizimining transformatsiyaga uchrashi, evrilishi afsuski, asosan salbiy oqibatlarni namoyon etmoqda. Bunday salbiy oqibatlar sirasiga oila axloqining inqirozi, farzandlar tarbiyasidagi qiyinchiliklar, xavfsizligimiz, osoyishtaligimizga qarshi tahdidlar xavfining ortishi, “ommaviy madaniyat” niqobi ostida ko‘plab axloqsizliklarning o‘zbek oilalari hayotiga kirib kelishini ko‘rsatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *Nazarov Q., Fayzixodjaeva D. va boshq. Falsafa asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. – 310 b.*
2. *Raximova I. Oila – qadriyatlar beshigi. (<https://urganchhokimiyat.uz/site/view?code=OILA--KADRIATLAR-BESIGI>)*
3. *Qaytish migratsiyasi: xalqaro yondashuvlar va Markaziy Osiyoning mintaqaviy o‘ziga xos xususiyatlari. Nur-Sulton: IOM UN MIGRATION. 2020. 115-149 betlar. (<https://publications.iom.int/system/files/pdf/return-migration-in-ca-uz.pdf>)*
4. *O‘zbekistonda migratsiyaning bolalarga ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha qisqa hisobot. UNICEF. 2019. 7-8 b. (<https://www.unicef.org/uzbekistan/media/2946/file/Effects-of-migration-on-children-of-Uzbekistan-Uzbek.pdf>)*
5. *Wen M., Lin D. Child development in rural China: Children left behind by their migrant parents and children of nonmigrant families //Child development. – 2012. – T. 83. – №. 1. – S. 120-136.*
6. *Madjidova D., Xusanova D. va boshqalar. Mehnat migrantlari oilalarida shaxslararo munosabatlarning pedagogik-psixologik omillari. – T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot matbaa uyi», 2021. 50 bet.*
7. *Najmiddinova K.U. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o‘rni. T.: “Adolat”. - 2016. 59 bet.*

Юнусходжаев Зоир Шокирович,
Старший преподаватель,
Академия труда и социальных отношений

К ВОПРОСУ О ГЕНДЕРНЫХ РОЛЯХ В УЗБЕКСКОЙ СЕМЬЕ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы гендерных ролей в узбекской семье. Представлены результаты опроса по методу А.Н. Волковой. В рамках исследования выявлено, что современные тенденции и традиционные установки взаимодействуют, создавая уникальную динамику внутри семейных отношений в узбекском обществе, но несмотря на стремление к гендерному равенству, особенно в городских районах, в сельской местности сохраняются более традиционные взгляды на роли в семье.

Ключевые слова: гендерные роли, семья, общество, ролевые ожидания.

Abstract. On the article, considered questions about gender roles in Uzbek families. As a result of interrogation by methods of A N Volkova was introduced In the investigation's a boundaries was showed that modern tendencies and traditional guidelines is interacted, making unique dynamics into families relationships in Uzbek society However, despite of pursuing to gender equality, especially in urban areas, in rural regions keep more traditional norms of family roles.

Keywords: gender roles, family, society, role expectations.

Вопросы семейного благополучия и гендерного равенства имеют приоритетное значение в развитии Нового Узбекистана. Ярким примером может служить принятие множества законодательных документов, направленных на обеспечение прав и свобод женщин, детей, гендерного равенства и защиту от насилия. В частности, 2 сентября 2019 года был принят закон «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин» [1].

Современные динамичные процессы урбанизации в Узбекистане привели к изменениям в образе жизни и семейных отношениях. В городской среде семьи часто сталкиваются с необходимостью адаптации к новым социальным условиям, что может привести к ослаблению традиционных семейных уз и соответствующему изменению ролей. Городская среда предоставляет больше возможностей для женщин работать вне дома, что способствует их экономической независимости и изменению восприятия традиционных гендерных установок.

Следует отметить, что проблемы распределения ролей в узбекской семье нашли отражение в работах социологов, психологов и специалистов других направлений. В частности, в работе Р.А.Убайдуллаевой рассматриваются традиции и современные тенденции в узбекской семье [2], некоторые аспекты обеспечения гендерного равенства в современной узбекской семье рассмотрены Г.Б.Уразалиевой [3].

Для достижения указанной выше цели проведено исследование для выявления тенденций распределения ролей между супругами в узбекской семье на момент написания данной работы. Репрезентативная выборка составила 46 супружеских

пар Узбекистана, т.е. 92 человека. Причем 50% (23) пар (46 человек), проживают в городах (Ташкенте и Чирчик), вторая половина (23) (46 человек) являются жителями сельских районов (Паркентского и Юкоричирчикского районов Ташкентской области). Из них 49 человек с высшим образованием (38 – жители городов, 11 – сельские жители), оставшиеся имеют среднее и среднее специальное образование (соответственно 43 человек, из которых 8 – городские жители, 35 – жители сельских районов).

В ходе исследования применялись опросник «Рольевые ожидания и притязания в браке» (РОП) А.Н. Волковой [4]. Исследование на основе этой методики проводилось в течение 2023 года.

Для эффективного использования метода диагностики распределения гендерных ролей в семье некоторые пункты не использовались вовсе или были адаптированы с учетом языковых, религиозных, социальных и культурных аспектов. Так, из опросника убраны вопросы, касающиеся интимной сферы жизни, которые еще остаются табу, тем более их некорректно обсуждать с незнакомыми людьми в узбекском обществе.

Результаты по опроснику «Рольевые ожидания и притязания в браке» А.Н.Волковой:




Рис 1. Рольевые ожидания и притязания в узбекской семье (в городской среде)

Здесь и далее мы будем брать за основу средние показатели результатов.

Анализ полученных результатов среди супружеских пар Ташкента и Чирчика показал, что по шкале *Личная идентификация* мужчины и женщины имеют примерно схожие взгляды (показатели 6,5 и 6,8 соответственно). Разница здесь небольшая.

По шкале *Хозяйственно-бытовая* ценность средние значения у мужчин – 6,8 и у женщин – 5,7 свидетельствуют о том, что в городских условиях поддержание уюта являются у обоих супругов значимым фактором семейного благополучия.

По шкале *Родительско-воспитательная* ценность средние значения у мужчин – 6,7 и у женщин – 7,1 показывают, что женщины придают большее значение родительским обязанностям.

По шкале *Социально-активная* ценность значения следующие: у мужчин – 7,3 и у женщин – 6,2. Это свидетельствует о высоком приоритете реализации в профессиональной сфере мужчин. В тоже время следует отметить, что соответствующие показатели разнятся в зависимости от социального статуса супруги. Среди представительниц городского населения эти значения выше, чем среди женщин, проживающих в сельской местности.

По шкале *Эмоционально-терапевтическая* ценность получены схожие результаты, а именно 6,6 – среди мужчин, 6,9 – среди женщин, что, в свою очередь отражает все возрастающее стремление найти в семье эмоциональную поддержку в рамках новых тенденций.

И, наконец, в соответствии с результатами опросами *Внешняя привлекательность* является важной в семейных отношениях у мужчин - 6,9, у женщин – 5,8. Эти значение показывают, что для мужчин внешняя привлекательность партнера имеет определенную значимость, но не преобладает абсолютно над другими ценностями в семье.



Рис. 2. Ролевые ожидания и притязания в узбекской семье (в сельской местности)

Анализ полученных результатов среди супружеских пар, проживающих в сельской местности, в частности, в Паркентском и Юкоричирчикском районах Ташкентской области показал, что имеются некоторые различия в подходах к семейным ценностям между представителями урбанистических и руральных (сельских) районов Узбекистана.

Личная идентификация мужчины и женщины среди жителей сел Узбекистана имеет значения 5,5 и 6,5 соответственно. Значение данного показателя у мужчин сельских районов ниже, чем у городских мужчин. Следовательно, это показывает их определенное стремление к автономии.

Хозяйственно-бытовая ценность семьи в сознании сельских мужчин – 6,9 и у женщин – 6,8. Что также показывает особую значимость вопросов хозяйствования в сельской семье, в особенности среди женщин.

По шкале *Родительско-воспитательная* ценность средние значения у мужчин – 6,5 и у женщин – 6,8 показывают. По этому параметру есть определенная корреляция с результатами опроса жителей городов Узбекистана.

По шкале *Социально-активная* ценность значения следующие: у мужчин – 7,1 и у женщин – 5,3. Это свидетельствует о высоком приоритете реализации в профессиональной сфере мужчин. В тоже время следует отметить, что соответствующие показатели разнятся в зависимости от социального статуса супруги. Среди представительниц городского населения эти значения выше, чем среди женщин, проживающих в сельской местности.

По шкале *Эмоционально-терапевтическая* ценность семьи получены схожие результаты, а именно 6,3 – среди мужчин, 6,5 – среди женщин. Эти значения близки к результатам, полученным в ходе опроса жителей городов.

Ценность *Внешней привлекательности* в семье имеет следующие значения: у мужчин – 6,2, у женщин – 5,9. Здесь также имеется сходства с результатами опроса супружеских пар городов.

Таким образом, исследование о распределении ролей в узбекской семье выявило, что современные тенденции и традиционные установки взаимодействуют, создавая уникальную динамику внутри семейных отношений. Глобализация, урбанизация, и повышение уровня образования, особенно среди женщин, вносят изменения в традиционное распределение ролей, способствуя экономической независимости женщин и изменению восприятия гендерных ролей. Однако, несмотря на стремление к гендерному равенству, особенно в городских районах, в сельской местности сохраняются более традиционные взгляды на роли в семье. Это указывает на сложность и многоуровневость процесса трансформации семейных и гендерных ролей в Узбекистане.

Список литературы

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» Национальная база данных законодательства, 29.01.2022 г., № 06/22/60/0082, 18.03.2022 г.
2. Убайдуллаева Р.А. Семья в Узбекистане: традиции и современные тенденции // Мониторинг. 2005. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/semya-v-uzbekistane-traditsii-i-sovremennye-tendentsii> (дата обращения: 29.01.2024).
3. Уразалиева Г.Б. Некоторые аспекты обеспечения гендерного равенства в современной узбекской семье // Academic research in educational sciences. 2023. №Periodical Collection 7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nekotorye-aspekty-obespecheniya-gendernogo-ravenstva-v-sovremennoy-uzbekskoy-semie> (дата обращения: 29.01.2024).
4. Волкова А. Н. Социально-психологические факторы супружеской совместимости: Автореф. канд. дис. — Л., 1979. — 17 с.

Atenov Jandarbek Dayrabay o'g'li,

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti
“Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi”
kafedrasida o'qituvchisi*

Esirgapov Jamshid Arziqul o'g'li,

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti
“Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi”
kafedrasida o'qituvchisi*

JAMIYATDA GENDER TENGLIGI STRATEGIYASIDA GENDER BYUDJETI KONSEPSIYASINING MOHIYATI

Annotatsiya: *Butun dunyo hukumatlari gender tengligi va hayotning turli sohalarida ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha milliy va xalqaro majburiyatlarni oldi. Bir qancha xalqaro konventsiyalar va platformalar, jumladan Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konventsiya (CEDAW) va BMTning Pekin harakat platformasi hukumatlarning ayollar huquqlarini ro'yobga chiqarish va gender tengligiga erishishga sodiqligini namoyish etad.*

Kalit so'zlar: *Oliy Majlis, BMT Taraqqiyot dasturi, Oila kodeksi, Mehnat kodeksi*

Abstract: *Governments around the world have made national and international commitments to gender equality and women's empowerment in various spheres of life. Several international conventions and platforms, including the Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination Against Women (CEDAW) and the UN Beijing Platform for Action, demonstrate the commitment of governments to realizing women's rights and achieving gender equality*

Keywords: *Oliy Majlis, UN Development Program, Family Code, Labor Code*

KIRISH. So'nggi to'rt yilda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi.

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etildi. (Muqaddimaning uchinchi xatboshi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 28-dekabrda SQ-682-IV-sonli qarori tahririda) O'zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga etib, parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga etdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi. Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi

27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta’limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga etdi.

Xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo’llab-quvvatlash, ular bilan manzilli ishlash maqsadida “Ayollar daftari” tizimi joriy etilib, Davlat budjetidan har yili 300 mlrd so‘m mablag‘ ajratib borish yo‘lga qo‘yildi.

Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo‘q yolg‘iz ayollarning o‘qish to‘lovlarini qoplab berish tizimi joriy etilib, oliy o‘quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar soni ikki baravarga ortdi.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida 224 mingdan ortiq xotin-qizga jami 6,9 trln so‘m miqdorida imtiyozli kredit ajratildi. Sohada olib borilayotgan islohotlar xalqaro reytinglardagi mamlakatimiz o‘rniga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, Jahon bankining ayollar, biznes va qonun indeksida O‘zbekiston 2020-yilda xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik bo‘yicha ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirgan 27 ta davlat qatoriga kiritildi va 5 pog‘onaga yuqorilab, 190 ta davlat orasida 134-o‘rinni egalladi.

O‘zbekiston BMT Nizomining maqsad va prinsiplariga hamda xalqaro huquqning boshqa umume’tirof etilgan normalariga sodiq ekanliklarini doimo ko‘rsatib kelgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Jamiyat hayoti, ish, tadbirkorlik va ta’lim sohasidagi imkoniyatlar va natijalarda hali ham gender tafovutlari mavjud. Hukumatlar tenglikni oshirish uchun byudjetlashtirish jarayonidan foydalanishlari mumkin. Buni gender byudjetini amalga oshirish orqali amalga oshirish mumkin. *Ayollar va bolalarni rivojlantirish vazirligi* davlat idoralari, milliy va davlat o‘quv muassasalari va tashkilotlarga turli manfaatdor tomonlarning salohiyatini oshirish uchun o‘quv va seminarlar o‘tkazish uchun moliyaviy yordam berish uchun gender byudjetlashtirish dasturini amalga oshirmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Bugungi kunga kelib, gender byudjeti tushunchasi uning aniq tushunchasida hali ham mavjud emas. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligida mazkur atamaning yaqin kelajakda samarali qo‘llanilishi uchun konstruktiv asos yaratildi. O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq xotin-qizlarning mavqeini oshirishga qaratilgan milliy dastur va chora-tadbirlar qo‘llab-quvvatlanib kelinmoqda. O‘zbekiston ayollarni har qanday kamsitish va ta’qiblardan huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy himoya qilishni nazarda tutuvchi barcha asosiy xalqaro shartnomalarga qo‘shilgan. Genderga yo‘naltirilgan “Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”, “Ayollarni zulm va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”, “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish to‘g‘risida”, “15-moddaga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonunlar. Oila kodeksi”, “O‘zbekiston Respublikasi mehnat kodeksiga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi – ayollarning ilgari taqiqlangan mehnat turlarini tanlashi bilan bog‘liq cheklavlarni va mehnat qonunchiligining boshqa gender-assimetrik qoidalarini olib tashlash to‘g‘risida. Ularni ishlab chiqishda BMT taraqqiyot dasturi, aholi jamg‘armasi, bolalar jamg‘armasi, inson huquqlari bo‘yicha oliy komissar boshqarmasi, narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha idora, xalqaro migratsiya tashkiloti, xalqaro mehnat tashkiloti kabi BMT agentliklari ekspertlari ishtirok etdilar.

Shuningdek, Prezidentning 20 dan ortiq farmon va farmoyishlari, hukumat qarorlari qabul qilindi. Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik va oiladagi zo‘ravonlikning oldini olish, eskirgan urf-odatlariga qarshi kurashish borasidagi ishlarni kuchaytirishga qaratilgan qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Normativ-huquqiy hujjatlar qoidalarining gender tengligi tamoyillariga nomuvofiqligini bartaraf etish, ularni qo‘llash jarayonida kamsitish xarakteridagi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarni aniqlashga qaratilgan qonun hujjatlarini majburiy gender-huquqiy ekspertizadan o‘tkazish joriy etildi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida ayollar va erkaklarning barcha sohalarda, jamiyat hayotida teng huquq va imkoniyatlarini ta’minlashga qaratilgan 2030-yilgacha O‘zbekistonda gender tengligiga erishish strategiyasi ishlab chiqilmoqda. O‘zbekistonda bu boradagi qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda parlamentning rolini oshirish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

– birinchidan, Oliy Majlis Senati raisi rahbarligida gender tengligini ta’minlash komissiyasi tuzildi;

– ikkinchidan, parlament yuqori palatasida xotin-qizlar va gender tengligi masalalari qo‘mitasi tuzilib, uning asosiy vazifasi gender tengligini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirish, qonunchilikni takomillashtirish va bu boradagi parlament nazoratini amalga oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Qo‘mita mazkur sohaga oid qonun hujjatlari ijrosini nazorat qiladi. uchinchidan, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalar ijrosini monitoring qilish bo‘yicha Parlament komissiyasining tizimli ishi tashkil etildi, bunda beshinchi maqsad gender tengligiga erishish vazifalariga bag‘ishlandi. Uning asosiy vazifalari qatoriga qonun hujjatlari ijrosini monitoring qilish, Barqaror rivojlanish milliy maqsadlariga kiritilgan sohalar rivojlanishini tanqidiy tahlil qilish, barqaror rivojlanish maqsadlari amalga oshirilishi ustidan parlament va parlament, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, bu boradagi ishlar yuzasidan takliflar tayyorlash kiradi.

– uchinchidan, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

– to‘rtinchidan, Oliy Majlis Senati raisi boshchiligida Respublika xotin-qizlar jamoat kengashi tuzilib, uning asosiy vazifalaridan biri xotin-qizlar va qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi qoidalari ijrosini muvofiqlashtirishdan iborat. BMTning ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konventsiyasi va Pekin harakat platformasi va milliy harakat rejasini amalga oshirish. Jamoatchilik kengashi tarkibiga hayotiy tajribaga ega, yurtdoshlar muammolarini yaxshi biladigan faol va tashabbuskor ayollar kiritilib, joylardagi xotin-qizlar kengashlari faoliyatiga hokimlarning xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahatchilari rahbarlik qiladi. Ularga ayollarni qo‘llab-quvvatlash uchun Respublika va viloyat jamg‘armalari ajratiladi;

– beshinchidan, xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lgan mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, shuningdek, xotin-qizlarni va ularning mehnat bozorida talab katta bo‘lgan kasblar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etildi;

– oltinchidan, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi hamda mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi hamkorligida barcha hududlarda xotin-qizlarning hayotiy muammolarini o‘rganish va aniqlash, qashshoqlikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish bo‘yicha ishlarni tashkil etish bo‘yicha maxsus Respublika ishchi guruhi tuzildi.

Ularni hal etish bo‘yicha maqsadli ishlarni amalga oshirish uchun mutlaqo yangi tizim – “Ayollar daftarchasi” joriy etildi. Bu kimlar haqiqatan ham yordamga muhtojligini aniqroq aniqlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari bilan manzilli ishlarni tashkil etish, 30 dan ortiq turdagi ijtimoiy xizmatlarni elektron shaklda ko‘rsatish imkonini bermoqda. Oilaviy zo‘ravonlik qurbonlarini himoya qilish maqsadida vazirlar mahkamasining 2020-yil 4-yanvardagi “Xotin-qizlarni zulm va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. “Tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollarni himoya qilish buyrug‘i berish, ularning ijrosini ta‘minlash, nazorat qilish tartibi to‘g‘risida”gi nizomlar hamda “Bosish va zo‘ravonlik sodir etgan yoki qilishga moyil bo‘lgan shaxslarga nisbatan huquqbuzarliklarni bartaraf etish dasturlari xulq-atvori” tasdiqlandi. Tuzatish dasturining asosiy vazifalari orasida:

- ayollarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarining oldini olish;
- bunga yordam beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish;
- zo‘ravonlikning yashirin (yashirin) shakllarini aniqlash va tuzatish;
- zo‘ravonlik sodir etgan shaxslar bilan individual (yoki guruhlar shaklida)

tushuntirish ishlarini olib borish va boshqalar. O‘zbekiston BMT konvensiya organlari bilan ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya, shuningdek, Pekin deklaratsiyasi va harakatlar platformasiga muvofiq xotin-qizlarning mavqeini oshirish va ularning imkoniyatlarini kengaytirish sohasida hamkorlikni rivojlantirmoqda.

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, 2030 yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to‘liq va samarali ishtirokini va etakchilik qilish uchun teng imkoniyatlar ta‘minlanishi zarur. Yuqori va quyi tizimdagi davlat organlarining rahbarlik lavozimlariga xotin-qizlarni tayinlash amaliyoti kengaytirish, siyosiy partiyalarni rag‘batlantirish orqali xotin-qizlarni saylov jarayonlariga keng jalb qilish, aholi bandligi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun kafolatlangan teng huquq hamda imkoniyatlar, shuningdek, ular uchun munosib ish o‘rinlarini yaratish, ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta‘minlangan, ayniqsa qishloq joylardagi oilalarni ish bilan ta‘minlash, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarning samaradorligi oshirish shuningdek davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o‘z ichiga olishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Mahalliy darajada byudjetlashtirishning gender jihatlari. Amaliy qo'llanma Ukraina 2012.*
2. *Gender byudjeti bo'yicha qo'llanma. Gender byudjeti va boshqaruvi xalqaro markazi. BMT Ayollar 2013 yil.*
3. *Gender responsive budgetting at local administration. UN Women.*
4. *www.researchgate.net*
5. *Gender budgeting: practical implementation Handbook prepared by Sheila Quinn.*
6. *Promoting gender- responsive policiees and budgets: lessons from South East Europe experience in the period 2011-2013 UN Women, Austrian Development Cooperation.*

Xusanov Samariddin Maxmadaminovich,
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti

MEHNAT MOTIVATSIYASINING GENDER TENGLIK VA DEMOGRAFIK BARQARORLIK MASALALARIGA TA'SIR XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada mehnat motivatsiyasida gender tenglik ko'rsatgichlari yoritilgan, xususan, respublikamizda xotin-qizlarga berilayotgan imkoniyatlar va ularning natijalari ko'rib chiqilgan.

Tayanch so'zlar: motivatsiya, mehnat motivatsiyasi, rag'bat, maqsad, Intilish darajasi, natija, harakat, o'z imkoniyatlarini baholash, iroda kuchi, ichki va tashqi motiv.

Abstract. In this article, indicators of gender equality in labor motivation are highlighted, in particular, the opportunities given to women in our republic and their results are considered.

Keywords: motivation, work motivation, incentive, goal, Aspiration level, result, action, assessment of one's capabilities, willpower, internal and external motivation.

So'nggi yillardagi statistik ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak respublikamizda iqtisodiy faol aholining 9.6 foiz yani 1441 856 nafari ishsiz hisoblanadi¹⁷. Bu ko'rsatkichga yurtimizda mehnat qobiliyatiga ega lekin ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotganlar, tug'ruq ta'tilidagi yoki 2 yoshgacha bolalarini parvarishlayotgan ayollar va ishlashni xohlamaydigan yoki darhol ishga joylashishga imkoniyati yo'q aholini o'z ichiga oladi. Ammo hozirgi kunda hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan ishsizlikni tugatish bo'yicha olib borilayotgan keng chora-tadbirlarga qarmasdan ishsizlik ko'rsatkichlariga mehnat motivatsiyasi yetishmayotgan mehnat layoqatiga ega shaxslar ham yuqoridagi ko'rsatkichning sezilarni qismini tashkil qilishi ijobiy ko'rsatkichlardan hisoblanmaydi. Bundan kelib chiqadiki mehnat motivatsiyasi muhim hayotiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shuni inobatga olib insonlardagi mehnat motivatsiyasi bo'yicha o'rganilgan ishlarni tahlil qilish va yangi ilmiy ishlarni o'tkazish zamon talabi hisoblanadi. Bundan tashqari bugungi kunda mamlakatimizda ayollar huquqini himoya qilish, ularga keng imtiyozlar yaratib berish eng dolzarb va ustuvor sohalardan biriga aylangan desak, adashmagan bo'lamiz. Birgina “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”¹⁸gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi ham bu sohaga bo'lgan e'tiborning yanada kuchayganidan dalolat beradi. Mazkur qonunda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. [Mehnat bozori vaziyatiga oid ma'lumotlar \(mehnat resurslari balansi\)](https://data.egov.uz/data/61025aa22a2e256d868e82ef) https://data.egov.uz/data/61025aa22a2e256d868e82ef

¹⁸ “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.12.2022 yildagi O'RQ-809-son. <https://lex.uz/docs/-6314589>

asosiy prinsiplari, jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash kafolatlari, jins bo‘yicha bevosita yoki bilvosita kamsitish faktlari ustidan shikoyat qilish huquqining mavjudligi hamda xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik masalalari yoritib berilgan.

So‘nggi yillarda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida O‘zbekiston Respublikasida jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta‘minlash, xotinqizlarni tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilish masalalari bo‘yicha mustahkam huquqiy asoslar yaratildi. Bugungi kunga kelib, davlat va jamoat

tashkilotlarida, umuman barcha sohalarida ayollarning salmog‘i ortib borayotganligini kuzatishimiz mumkin.

Biz ayol va erkaklardagi mehnat motivatsiyasining farqli va o‘xshash xususiyatlarini aniqlash maqsadida V.Garbachevskiyning “Intilish darajasini aniqlash metodikasi” metodikasining sinaluvchilarning oilaviy ahvoli bo‘yicha tahlilini amalga oshirganimizda kognitiv motiv shkalasida ($H=2,104;p>0,05$), qochish motivi shkalasida ($H=3,251;p>0,05$), raqobat motivi ($H=5,530;p>0,05$), faoliyatni o‘zgartirish uchun sabab ($H=1,862;p>0,05$), natijalarning ahamiyati ($H=1,445;p>0,05$), vazifaning murakkabligi shkalasida ($H=1,280;p>0,05$), iroda kuchi ($H=,259;p>0,05$), natijalarga erishilganlik darajasini baholash shkalasi ($H=2,778;p>0,05$), o‘z imkoniyatlarini baholash ($H=3,933;p>0,05$), quvvatni safarbar eta olganlik darajasi ($H=2,422;p>0,05$), natijalar namunasi ($H=,214;p>0,05$), tashabbuskorlik ($H=1,961;p>0,05$) ishonchli farqlar kuzatilmadi.

V.Garbachevskiyning “Intilish darajasini aniqlash metodikasi” metodikasining sinaluvchilar jinsiga ko‘ra tahlili (Mann-Uittni – U mezon)

№	Shkalalar	O‘rtacha rang		Statistik qiymat	
		Erkaklar (n=126)	Ayollar (n=188)	U	p
1	ichki motiv	159,87	155,91	11546,000	0,704
2	kognitiv motiv	155,32	158,96	11569,500	0,727
3	qochish motivi	140,87	168,64	9749,000	0,008
4	raqobat motivi	150,79	162,00	10998,500	0,280
5	faoliyatni o‘zgartirish uchun sabab	141,98	167,90	9889,000	0,013
6	o‘z-o‘zini hurmat qilish motivi	148,41	163,59	10698,500	0,145
7	natijalarning ahamiyati	150,24	162,36	10929,500	0,244
8	vazifaning murakkabligi	156,73	158,02	11746,500	0,901
9	iroda kuchi	155,77	158,66	11626,500	0,782
10	natijalarga erishilganlik darajasini baholash	155,61	158,77	11606,000	0,761
11	o‘z imkoniyatlarini baholash	157,89	157,24	11794,500	0,950
12	quvvatni safarbar eta olganlik darajasi	154,26	159,67	11435,500	0,603
13	kutilayotgan natijalar darajasi	169,76	149,28	10299,500	0,048
14	natijalar namunasi	162,62	154,07	11198,500	0,411
15	tashabbuskorlik	140,12	169,15	9654,000	0,005

* statistik tafovutlar mavjud

Bunga sabab esa yuqorida biz takidlab o‘tkanimiz respublikamizda xotin-qizlar va erkaklar huquqlarini tenglashtirish amaliyotlarining o‘z samaralarini berayotgani deb aytsak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki ichki motiv ko‘rsatkichi hozirgi kunda ayol va erkaklarda oilaviy budjetni tashkil etishda teng tendensiylar oraliq‘ida ketayotganini ko‘rsatayotgan bo‘lsa, kognitiv motiv jarayonida esa so‘ngi yillarda xotin –qizlarga ta’lim olish ayniqsa oliy ta’lim olishda berilayotgan imkoniyatlar va imtiyozlar samarasi ekanligi bilan asoslashimiz mumkin.

Raqobat motivi, o‘z-o‘zini hurmat qilish motivi, natijalarning ahamiyati, vazifaning murakkabligi motivi, iroda kuchi, natijalarga erishilganlik darajasini baholash, o‘z imkoniyatlarini baholash, quvvatni safarbar eta olganlik darajasi, natijalar namunasi motiv ko‘rsatgichlarida ham erkaklar va ayollarning natijalari bir-biridan katta farqli natijalarni qayd etilmaganini ko‘rishimiz mumkin. Biz bu natijalarni haqqoniy ekanligini isbotlash uchun birgina misolni keltirib o‘tishni joiz deb topdik: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga 2019-yilda bo‘lib o‘tgan saylovlarda ro‘yxatdan o‘tgan 21 435 000 nafar saylovchining qariyb 50 foizi yoki 10 825 641 nafari xotin-qizlardir. Ushbu saylovlarda ko‘rsatilgan nomzodlarning 41 foizi xotin-qizlar bo‘lib,ularning soni


O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksida belgilangan 30 foizlik kvotadan ortdi¹⁹.

Ko‘rishimiz mumkinki:qochish motivi shkalasida erkaklarda o‘rtacha rang qiymati 140,87 ni, ayollarda 168,64 ni tashkil etdi ($U=9749,000$; $p<0,05$). Ayollarda tanlagan kasbining past-balandini bilgani holda muammoli vaziyatdan qochish orqali mehnat motivatsiyasini to‘g‘ri yo‘nalganligini saqlab qolish darajasi ustunlik qilar ekan. Erkaklarda esa aksincha ularning tabiiy jihatdan tavakkalchiligi sababli ushbu shkalada past natijalar qayd etilganini ko‘rishimiz mumkin. Faoliyatni o‘zgartirish uchun sabab shkalasida erkaklarda o‘rtacha rang qiymati 141,98 ni, ayollarda 167,90ni tashkil etdi.

($U=9889,000$; $p<0,05$). Bu shkala bo‘yicha ayollarda chiqqan yuqori ball ularning mehnat faoliyatini tez-tez o‘zgaritirishlari bilan tafsiflanadi. Chunki ular turmush qurushi, farzandli bo‘lishi sababli ular mehnat faoliyatini o‘zgartirish motivi sodir bo‘ladi. Erkaklarda bu jarayon bir muncha boshqacha tarzda namoyon bo‘ladi. Sababi ular o‘zlari qulay deb topgan ish muhutini o‘zgartirishga tashqi ta’sirlar ko‘p bo‘lmaganligi sababli deyarli faoliyatlarini o‘zgartirmaydilar.

Kutilayotgan natijalar darajasi shkalasida erkaklarda o‘rtacha rang qiymati 169,76 ni, ayollarda 149,28 ni tashkil etdi ($U=10299,500$; $p<0,05$). Erkaklarda kutilayotgan natijalar darajasi asosan ularning yetuklik davrida sodir bo‘lib, ularning ish faoliyatidagi karyeraga erishishi xoxishi ustunligi bilan tavsiflanadi.

¹⁹ Oila, mehnat va tadbirkorlik sohasida ayollarga berilgan imtiyozlar. <https://paxtakor29.uz/?p=2963>



Tashabbuskorlik shkalasida erkaklarda o'rtacha rang qiymati 140,12 ni, ayollarda 169,15 ni tashkil etdi ($U=9654,000$; $p<0,01$). Ayollarda bugungi kundagi ijtimoiy faolligi nuqtayi nazaridan tashabbuskorlik sifatlarida ustunlik qayd etildi. Buni biz ko'pincha ulardagi xoxish istaklarini ochiq yuzaga chiqarishga bo'lgan motivatsiyasining balandligi bilan izohlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. [Mehnat bozori vaziyatiga oid ma'lumotlar \(mehnat resurslari balansi\)](https://data.egov.uz/data/61025aa22a2e256d868e82ef)<https://data.egov.uz/data/61025aa22a2e256d868e82ef>
2. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston respublikasi qonuniga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.12.2022 yildagi O'RQ-809-son. <https://lex.uz/docs/-6314589>
3. Oila, mehnat va tadbirkorlik sohasida ayollarga berilgan imtiyozlar. <https://paxtakor29.uz/?p=2963>
4. Д. Я. Райгородский. [Психодиагностика персонала](#). М.: Бахрах-М, 2007
5. [Оценка уровня притязаний](https://psyttests.org/result?v=gerACFbnFEv4-8F1Uzqge). <https://psyttests.org/result?v=gerACFbnFEv4-8F1Uzqge>

Алламуратова Улгузи Джумаевна,
*Тошкент Тиббиёт Академияси Термиз филиали
“Акушерлик гинекология ва оилавий
шифокорликда гинекология” кафедраси ассистенти*

ОИЛАДА ҲОМИЛАДОР АЁЛЛАР ВА ТУҒИШ ЁШИДАГИ АЁЛЛАР САЛОМАТЛИГИНИ САҚЛАШ БОШҚАРУВИДАГИ КЕЙС- МЕНЕЖМЕНТ

Аннотация. Мақолада ҳомиладорлар ва туғиш ёшидаги аёллар саломатлигини сақлаш ва уни бошқариш орқали соғлиқни сақлаш тизими ва бошиқа ижтимоий соҳа вакилларининг ёрдамида оналар ва гўдаклар ўлимини камайтириш чоралари ҳамда уларнинг олдини олиш масалалари ёритилган.

Калим сўзлар: кейс-менежмент, антенатал парвариш, контрацепция воситалари (КВ), регионализация, ижтимоий хизмат тақдим этувчилар.

Abstract. The article covers measures to decrease maternal and infant mortality and their prevention through the maintaining and managing of the health of pregnant women and women of childbearing age with the help of the health care system and representatives of other social spheres.

Keywords: case management, antenatal care, contraception, regionalization, oppression and violence, social service.

Муаммонинг долзарблиги. Ёшлар ўртасидаги никоҳланувчилар, оилада ҳомиладорлар, туғруқлар ва туғилишлар ошиши туғиш ёшидаги аёллар ўртасида исталмаган ҳомиладорлик ҳолатлари оналар ва гўдаклар ўртасида ногиронлик ва ўлими кўрсаткичларининг ошишига билвосита сабаб бўлиши мумкин. Ёш оилалар сони йилдан йил ортиши малакали тиббий ходимларга эҳтиёжни оширади.

ЖССТ маълумотларига кўра бутун дунё бўйлаб ҳар йили 500 000 дан ортиқ оналар вафот этади, ҳар йили 8 000 000 аёл ҳомиладорлик билан боғлиқ асоратлардан азият чекади. Миллионлаб аёллар ҳомиладорлик билан боғлиқ асоратлар натижасида ногиронликдан азият чекадилар. Барча оналар ўлимининг 80% тўртта акушерлик сабаби (гипертензия, қон кетиши, септик асоратлар ва экстрагенитал касалликлар) билан боғлиқ. Аммо уларни оддий, самарали ва арзон чоралар билан олдини олиш мумкин.

Оилада ҳомиладор аёлларга тиббий ёрдамнинг асосий мақсади келажакда унга яқин ота-оналарни қўллаб қувватлаш ва хабардор қилиш, ҳомиладорлик пайтида юзага келадиган муаммоларни ҳал қилишдан иборат. Ёрдам хавфга эмас, балки юзага келган муайян муаммони бартараф қилишга қаратилган бўлиши керак. Муҳим масала ўз самарасини берган ва оилада аёлларнинг ғамхўрликдан қониқиши мумкин бўлган тиббий хизмат ва уни бошқаришдир. (*№1 адабиёт. 3-5 бетлар.*)

Лекин асоратланган ҳомиладорлик ривожланишида нафақат тиббий ходимлар, балки бошқа соҳа вакиллари кўмагига ҳам алоҳида эҳтиёж сезилади. (№1 ва №2 адабиёт материаллари)

Тадқиқот учун материаллар. Сурхондарё вилояти перинатал марказида шаҳар ва туманлардаги 2018-2023 йилларда содир бўлган оналар ўлимини тиббий таҳлиллари материал сифатида олинган. Таҳлилда шу оилаларда турли хил ижтимоий муаммолар келиб чиққани, уларнинг ечими топилмагани ва беморларда касаллигининг оғир асоратлари кучайиб, ўлимига олиб келган.

Ижтимоий муаммоларнинг билвосита мавжуд сабабларини ўрганиб, уларнинг олдини олиш ҳамда аёллар ва гўдакларга кўрсатилаётган тиббий хизматлар ва уларнинг назоратини амалга ошириш мақсадга мувофиқ.

Оилалардаги ҳомиладор аёлларга индивидуал тарзда антенатал кузатувини олиб бориш жараёнида мақсадли патронаж хизмати ва профилактик кўриклар билан қамраш белгиланган. Барча ҳомиладор аёлларни сифатли антенатал парваришlash ва туғруқдан кейинги даврда ҳам мақсадли патронажини олиб бориш шарт. Оилада ҳомиладорнинг туғиш вақти тахминий ҳисоблаб чиқилиб, унинг қайси хавф гуруҳига кириши дастлабки ташрифида ёки антенатал кузатувлар жараёнида аниқланади. Ҳомиладор аёлни кузатувларда қайси туғруқхонада туғиш маршрути кўриб чиқилади. Регионализация тамойилларига асосланиб, (Ўз.Рес.ССВ 28.06.2021 йил №151-буйруғи) туғруққа ёрдам кўрсатувчи муассасасига кўра ҳомиладор аёлни туман туғруқ бўлимига, перинатал марказларига ёки у ердан ўз вақтида Республика ихтисослаштирилган илмий амалий марказ ёки унинг вилоятдаги мавжуд филиалларга йўлланма (ёки имтиёзли ордер) берилади. Аҳолига кўрсатиладиган ихтисослаштирилган ёрдам кўрсатиш ПФ-5199-сонли Президент Фармони мезонларига кўра амалга оширилади.

Ҳар ойнинг охириги саналарида туғиш ёшидаги аёллар инвентаризация ҳисоботлари яъни статистикаси олиб борилади. Аёллар маслаҳатхонасида ҳар бир оиладаги туғиш ёшдаги аёллар кўрсаткичлари ойма-ой юритилади.

Аёллар маслаҳатхонаси дояси, патронаж ҳамшираси, участка акушер-гинекологи ёки УАШ врачлари ишлайди. Ойида бир марта катта ҳамшира, ОП/ОШП, КТМП мудирлари томонидан кўрсаткичлари тўғрилиги текширилади. Масъул ходим ОП/ОШП, КТМП мудирига маълумот беради. Бош мутахасислар томонидан ҳудуд бўйича якуний ойига бир марта шаҳар ёки туманлардаги умумий ҳисоботи олинади.

Кузатувдаги ҳомиладорлар сонини ой охирида саналиб, туғруқдан сўнг уларни контрацепция қамровига олиниши керак бўлганлар ҳисобига киритилади.

Оилалар ва маҳаллалардаги туғиш ёшидаги аёллар, хотин-қизлар умумий сонидан контрацепция қамровидагилар: бачадон ичи воситалари (БИС), орал контрацепция воситаларидан (ОК), инъекцион контрацепция воситаларидан фойдаланувчилар (ИК) контрацепция воситалари бўйича “Диспансер” кузатувида

турганлар ва ҳар ой мобайнида бирламчи контрацептив воситалари (КВ)лари қўлланилган аёллар сони кўшилади. “Диспансер” назоратидаги аёлларга ихтиёрий жарроҳлик контрацепцияси (ИЖК), бачадон гистерэктомияси ва ой давомида ИЖК, жарроҳлиги ўтказилган аёллар сони ҳам кўрсатилади.

Контрацепция воситалари бўйича “Диспансер” кузатувида турганларнинг йилига 2 марта назорати (кейс ҳолати) ўтказилади. Контрацепция воситаларининг ойма ой реализацияси, “Диспансер” назоратдан чиқарилгани, қолдиқлари ҳам акс эттирилиб, КВ логистика тизими билан сон жиҳатдан бир хилда олиб борилади. Бу гуруҳдаги контингентлар асосан тиббий кузатувни талаб этади.

Контрацепция қамровига вақтинча муҳтож бўлмаган аёллар: Бу гуруҳга оилалардаги умумий қизлар (ўсмир ёшдаги+турмушга чиқмаганлар), бирламчи ва иккиламчи бепуштлиқ, ёлғиз она (бевалар), ҳомиладор, ёш келинлар ва туғишни режалаштирганлар, климакс (менопауза) ёшидагилар, ўзи ва/ёки турмуш ўртоғи вақтинча чет элга кетган аёллар сони киритилади. Чет элга кетган аёллар худуд ички ишлар бошқармаси (ИИБ) паспорт столи рўйхатида турганлигини бошқа яқин қариндошларидан сўраб, аниқлик киритилади. Бундай аёллар ҳомиладор бўлса туғиши, туғруқдан сўнг контрацепцияга муҳтож ёки қизлар турмушга чиқиши, климакс ёшидаги фертил ёшидаги аёллар умумий ҳисобидан чиқарилади ва ҳ.з.

Бу аёллар оилада тиббий ёрдам ва психологик кўмакка муҳтож бўлади. Мисол учун ўсмир қизларга балоғат ёшидаги, бепушт аёллар турмуш ўртоғи-қайнона-қайнотасига ёки оилага 3-шахс аралашувини олдини олишга алоҳида эътибор берилиши, ёлғиз оналарга ижтимоий кўмак кўрсатиш каби ва ҳ.з.

Бошқа тоифадаги аёллар:КВдан бош тортганлар, болалиқдан ногирон ва кўчиб келганлар, кўчиб кетганлар, бошқа (табиий, резина маҳсулотлари) усуллардан фойдаланувчилар, вақтинча яшовчи ёки ижарадаги ҳамда вафот этган аёллар киритилади. Кўчиб келган, кўчиб кетган аёллар ИИБ паспорт столи рўйхатига киритилиши ёки рўйхатдан чиқарилиши керак.

Хотин-қизлар ўртасида яшаш жойининг нотурғун вазиятлари, оиладаги келишмовчиликлар келин, ҳомиладор аёл ва ёш болали аёллар ота-онасиникида яшашга ёки оилавий ажралишларга мажбур бўладилар. Бунда патронаж ҳамшира томонидан оиладаги ҳомиладор аёлни кузатув жараёнидаги узвийлик, патронажлар сони камайиб, туғадиган аёл ҳаётига хавф солувчи ҳар хил акушерлик патологиялар ривожланади. Ҳомиладорнинг критик ҳолатларда туғруқхоналарга олиб келиниб, ўз вақтида тиббий ёрдам кўрсатилиши кечиктирилиб, оналар ўлимига сабаб бўладиган омилдир. Уларнинг қайси хавф гуруҳига кириши аниқланиб, кўрсатма ёки эҳтиёжга кўра тиббий хизмат кўрсатилади. Уларга кўмак бериш учун ўз вақтида тиббий ходим тегишлилигига кўра бошқа ижтимоий ходимларига мурожаат этиши керак.

Контрацепция қамровига олиниши керак бўлган аёллар: ҳомиладорликдан сўнг туққан ва эмизиб юрган, экстрагенитал касаллиги топилган ҳамда туғишга

мутлоқ ёки нисбий монёлиги мавжуд аёллар алоҳида рўйхати шакллантирилади. Туғишга мутлоқ монёлиги бўлган аёллар ташҳиси, фарзандлари сони кўрсатилган бўлиб, КВ қамровига олиниши шарт. “Ҳомиладорликни сунъий тўхтатиш стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги №312-сонли буйруғидаги ҳомиладорликни сунъий тўхтатиш мезонларига асосланиб, туғишга мутлоқ монёлиги бўлган ҳомиладор аёлларда ҳомиладорлиги тўхтатилади. Турмушга чиқмаган, лекин экстрагенитал (ЭГК, мисол: олигофрения, чуқур дебиллик билан, рухий ва шу каби) касаллиги бўлган қизлар бундан мустасно. Сабаби уларни КВ билан қамраш алоҳида ёндашув касаллик тури юзасидан мутахассис ёрдамини талаб этади. Тор мутахассислар ёки бошқа ижтимоий ходимлар, психолог/психиатр ёки хотин-қизлар бўйича маҳалла мутахассиси, диний ишлар бўйича вакил, Ёшлар иттифоқи, ҳуқуқ-тартибот органлар мутахассислари билан биргаликда масала ечим топади. Оилаларда КВ шарт бўлган аёллар гуруҳи бу- 4 ва ундан ортиқ болали, 35 ёшдан ошган аёллар сони ҳам киритилади. Бу аёллар рўйхати шакллантирилиб, ойма-ой уларни КВ билан бепул таъминланиб, “Диспансер” назоратига олинади. (Форма №30). Бу рўйхат тиббий ходимнинг иш столида сақланиб, ҳар куни КВ реализацияси ишлари режалаштирилади. (Буйруқ №168, 2-илоvasи)

Аёлларда КВ қўлланмаса, исталмаган ҳомиладорликка сабаб бўлади. Аёлларга ҳафтанинг айнан кунлари ажратилиб, оммавий тарзда плакат, стенд, видеороликлардан фойдаланиб, маҳаллаларда ўқув машғулотлари ўтказилиши керак. Маҳалладаги “Саломатлик мактаби” фаоллари билан сешанба куни ҳомиладорлар куни, чоршанба куни болалар ва ўсмирлар куни, жума куни аёллар ва қизлар куни амалга оширилади. Туққан аёлга КВга розилик берилмаса, оиладаги шу масалага норозилик билдираётган шахсга психологик кўмак бериш мақсадга мувофиқдир.

Фертил ёшдаги хотин-қизлар умумий сони. Барча туғиш ёшидаги хотин-қизларнинг сонини умумийлаштирилади. Бу сон йил бошида, ҳар ойда ўзгариши керак. Бу сонга оиладаги ўсмир қизлар сони киритилиб, менопауза (климакс) даги аёллар, кўчиб кетган, вафот этганлар сони чиқариб ташланади. Оилада контрацепция қамровига олиниши шарт бўлган хавфли гуруҳга кирувчи аёл, эътиборсиз қоладиган ижарада яшайдиган ёки ижтимоий нотинч ва низоли, кам таъминланган оиладаги ёш ҳомиладор келин, вақтинча тиббий хизмат кўрсатилмай онасиникига бориб, назоратсиз қолиб кетадиган ҳомиладорлар кўзда тутилган. Оиладаги зўравонлик сабабли шундай гуруҳдаги ҳомиладор аёлларда тиббий хизматни ва унинг назоратини олиб бориш ишлари сусаяди. Ўз вақтида профилактикаси олиб борилмаган, шиш, камқонлик, буйрак касалликлари, қон босимининг кўтарилиши кабилар туғруқ жараёнида асоратланиб, ҳомиладор ва янги туғилган гўдаклар ногиронлиги, оғир аҳволда она ва гўдаклар ўлимига замин яратади.

Айрим ажратилган ҳудудлар йиғилиб, ягона бир тизимли статистик кўрсаткични ўзида жамлайди. Туғишга нисбий ва мутлоқ монелиги бўлган аёллар тиббий кўрикларда аниқланган экстрагенитал касалликлар ичидан олиниб, алоҳида рўйхати шакллантирилади. Бош терапевт бу кўрсаткичларга масъул ва репродуктологдан маълумотларни олиб, тиббий кўрикларда аниқланган оиладаги носоғлом аёлларни соғломлаштиради ва ҳисобини юритади.

Аёллар маслаҳатхонаси дояси, катта ҳамшираси томонидан КВ ҳисоботи юритилиб, шаҳар/туман репродуктолог томонидан жамланиб, бош акушер-гинекологка 1 нусхаси тақдим этилади. Репродуктолог томонидан туман провизори ички дорихонаси заҳирасидаги КВни ҳисобга олиб, КВ билан таъминлайди. Туман бош мутахассислари шу орқали ҳомиладорликдан сақланиш воситаларига эҳтиёж ва таъминот логистикасининг назоратини олиб боради. Аёллар маслаҳатхонасидаги ўсмир қизлар гинеколог томонидан ҳам репродуктолог мутахассисга ҳисобот тақдим этади.

Бепушт аёллар, ёлғиз ҳимояга муҳтож аёллардаги гинекологик касалликларни ўз вақтида аниқлаш керак. Соғлом фарзанд туғилиши мақсадида масъул ходимлардан оиладаги никоҳланувчи ёшлар ҳақида маълумотлар олиб, соғломлаштириш режаси тузилади.

Маҳаллага кўчиб келган ва кўчиб кетган хотин-қизлар ҳақида маҳалла активлари ҳамда ички ишлар ходимлари билан ҳамкорликда фаолият юритишади. Ёш келиннинг ФХДЁ томонидан никоҳини аниқлаш ва яшаш жойи маълумотлари оналар ўлими ҳолатларида тафовутларни бартараф этади. Паспорт системаси жорий этилиши бошқа ижтимоий соҳалардаги муаммоларни ҳам ўз вақтида бартараф этади.

Оилалардаги хотин-қизлар сони йил боши ва охирида ўзгариб туради, буни кузатувлар, патронаж ва тиббий кўриклар натижасида назорати олиб борилади. Йил якунида мазкур ҳисоб-китоблар натижасида оилада туғиш ёшидаги аёллар ҳақида умумий ва участка бўйича хулосалар/кўрсаткичларни беради. Шу орқали тиббий хизмат сифати ва кўламини режалаштириш мумкин. Оилалардаги назоратдан чиқиб кетган ва ёки сабабсиз назоратдан четда қолдирилган (ўз вақтида аниқланмаган, патронаж қилинмаган, соғломлаштирилмаган ёки ҳомиладорликка йўл қўйилган, юқори хавф омиллари бўлган ва ҳ.з) тиббий ва нотиббий ижтимоий кейслар бирлашади.

Бунинг натижасида ҳомиладор аёлларга сифатсиз кўрсатилган бирламчи тиббий хизмат, стационар хизматидаги кўрсатилган акушерлик ёрдамнинг хато камчиликлари туғруқ жараёнида ногиронлик, критик ҳолатлар ва энг сўнгида гўдаклар ва оналар ўлимининг юзага келтирувчи омиллари аниқ бўлиб қолади.

Оғир аҳволларда жавобгарлик тиббий ходимлар, айниқса туғруқхонадаги тунги навбатчиликлардаги шифокорлар зиммасига тўғри келади. Виложтда малакали кадрлар етишмовчилиги, тунги навбатчиликларда тиббий ходимларнинг жисмоний ва руҳий толиқишларида критик ҳолатлардаги барча

туғруқ ва реанимация постларида етарли қон ва унинг заҳираларини етказиш, қолаверса, шифохона моддий техникасидаги, наркотик, психотроп дори воситалари таъминотидаги узилишлар бўлиши ҳар томондан тиббий хизмат сифатига салбий таъсир кўрсатади.

Юқорида келтирилган барча гуруҳдаги аёлларнинг тиббий муаммолари ўз вақтида босқичма-босқич ҳал этилса, вилоят даволаш профилактика муассасаларида Соғлиқни сақлаш вазирлиги томонидан ишлаб чиқилган йўриқнома, стандарт ва протоколлардан фойдаланиб, аҳолига мақсадли ва сифатли тиббий хизматлар кўрсатилса, оилаларда оналар ва гўдаклар ўлими сон жиҳатдан камайишига эришилади.

Масалан, вояга етмаган кичик (15-17) ёшдаги фуқаролик паспортига эга бўлмаган ўсмирда исталмаган ҳомиладорлик ва туғруқ содир бўлишини олайлик. Бунда ижтимоий соҳаларга тегишли ечимини топиши керак бўлган муаммо пайдо бўлади. Соғлиқни сақлаш, адлия, ички ишлар прокуратура, таълим ва маҳалла хотин-қизлар, дин ишлари бўйича ва Ёшлар иттифоқи йўналишларида битта вазиятнинг ечими талаб этилади. Ўсмирда ҳомиладорликнинг кечиши, ёки уни тўхтатиш муаммосини ҳамда туғруқ жараёнининг асоратсиз ўтишини таъминлаш шарт. Ўсмир ва унинг оиласидаги яқин қариндошларига ижтимоий психологик ёрдам кўрсатиш ва оиладаги зўравонликка барҳам бериш керак. Акс ҳолда ўсмир ёшидаги ҳомиладор аёлда депрессия ҳолати ва суицид учун шароит юзага чиқади.

Ички ишлар томонидан фуқаролик паспортини бериш, прокуратура органлари томонидан жинсий зўравонлик уюштирилганлиги каби жиноий ишлар содир этилгани ойдинлаштирилади.

Адлия маслаҳатчиси ҳомила туғилганидан сўнг фуқаролик ҳолатларига далолатнома ёзиши билан боғлиқ масалаларни ҳал этади. Маҳалла хотин-қизлар маслаҳатчилари, таълим ва Ёшлар Иттифоқи вакиллари профилактика чораларини олиб борадилар. Шундай қилиб, битта муаммоли кейс ўзаро ижтимоий соҳалар тегишлилиги бўйича ечимини топади. Кейсинг сифатли ва натижадорлиги кафолатланади. Бирламчи тизимда хотин-қизлар сонини аниқ назорат, тиббий ёрдам кўрсатиш, ечими муаммоли кейсларда жамоавий ҳар томонлама ёндашув, ижтимоий ходимлар билан биргаликда муаммоларни тўлиқ ҳал этиш керак. Бирламчи тизим доирасида хотин-қизлар сони аниқроқ кўрсатилиши уларга мақсадга мувофиқ тиббий ёрдам кўрсатилишига, балки кам учрайдиган ечими муаммоли кейсларда тизимли равишда ва ҳар томонлама ёндашув ёки ижтимоий ходимлар билан биргаликда муаммоларни тўлиқ ҳал этишга хизмат қилади.

Тиббий хизматлар таклиф этувчи муассасаларга касалхоналар, клиникалар, оилавий шифокорлик пунктлари, шаҳар ва қишлоқ оилавий поликлиникалари, Репродуктив саломатлик маркази, перинатал марказлар, акушерлик-гинекология ва травматология, шошилиш тиббий ёрдам марказлари ва бошқа хизмат кўрсатиш

пунклари киради. Бирламчи тиббий-санитария ёрдами кўрсатувчилар таркибига тиббиёт ҳамширалари, доялар, оилавий шифокорлар ва бошқа мутахассислар киради. Юқорида кўрсатилган зўравонлик, оилавий нотинчликлар, учинчи шахс аралашуви ва ижтимоий кам таъминот, тиббий савия етишмаслиги оилада ҳомиладорлар, оналар ва гўдаклар ўлими кўрсаткичлари ошишига билвосита сабаб бўлади.

Хулосавий маълумотлари ва тавсиялари:

Оилада оналар ва болалар, туғиш ёшидаги хотин-қизларга мақсадли тиббий ёрдам кўрсатиш учун юқоридаги таклифлар тавсия этилган.

Оилада мураккаб муаммоларни ечиш усулини “ижтимоий иш” сифатида қараш лозим, уларга хизмат кўрсатувчи органлар ва ташкилот вакиллари “ижтимоий-ходим” ёки “ижтимоий вакил” деб номланади. Ижтимоий-тиббий, ижтимоий-психологик, ижтимоий таълим, ижтимоий ҳуқуқий, ижтимоий ахлоқий ва бошқа хизмат турлари мавжуд.

Маҳалла, оила, мактабгача таълим, мактаб ва бошқа ташкилотларда хотин-қизлар, ҳомиладор, ўсмир, ногиронлар орасидаги учрайдиган ҳар қандай зўравонлик юз берганда “ижтимоий ходимлар” ўртасида ҳал этиш керак.

Ижтимоий ишнинг энг актуал муаммога тегишли ижтимоий ходимини “кейс менежмент” яъни “ишни бошқарувчи ходим” сифатида қараб, бошқа ижтимоий соҳа ходимлари ёрдам кўрсатадилар.

Кейс менежментни амалга ошириш оиладан бошлаб, маҳалла, туман ва вилоят ва ундан юқори даражагача кўтариш лозим. Ҳомиладорларга тиббий ёрдам, аёллар саломатлигини сақлаш, аёлларга оилада ҳуқуқини таъминлаш, оналар ҳамда гўдаклар ўлимини олдини олиш ва камайтиришга эришишда барча ижтимоий ходимлар ёрдамидан фойдаланиш керак.

Оналар ва гўдаклар ўлими камайтириш, хотин-қизлар соғлигини сақлаш, уларнинг тиббий саломатлигини ошириш бошқа ижтимоий соҳа вакилларининг ҳам зиммасига мажбурият юклаш орқали кутилган натижага эришамиз.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати:

1. Ўз.Рес.ССВ ТошПТИ ва ТТА “Антенатал парвариши” ўқитувчилар учун ўқув услубий қўлланма. Тошкент 2023 й.
2. «Аёллар ва болалар билан ижтимоий иш амалиётида кейс-менежмент» Европа иттифоқи ва ЮНИСЕФ лойиҳаси семинар-тренинг материаллари.
3. “Кейс менежмент жараёни тартиби ва стандартлари” 2020 йил 23-26 ноябр, Термиз шаҳри.
4. Ўз.Рес.ССВ 2016 йил февралдаги №137-сонли буйруғи, 76-бет.
5. Ўз.Рес.ССВнинг 08.05.2014 йилдаги №168-сонли буйруғи
6. Ўз.Рес.ССВ “Репродуктив саломатлик, оилани режалаштириш га доир стандартлар” (2018 йил).
7. 2018 йил 02 февралдаги №ПФ-5325-сонли Қарор.
8. Ўз.Рес.ССВ 10.09.2013 йил №312-сонли буйруғи. №6 ва №7-иловалари.

9. *Сурхондарё вилояти соғлиқни сақлаш бошқармаси оналик ва болаликни муҳофаза қилиш бўлими статистик кўрсаткичлари. (2018-2023 йиллар)*
10. *“Репродуктив саломатлик” Халқаро миқъёсдаги илмий-амалий конференция материаллари. 24-25.09.2021 йил, Бухоро шаҳри*
11. *Ўз.Рес.ВМнинг 2017 йил 13 сентябрдаги 718-сонли қарори.*
12. *Ўз.Рес.ССВ нинг 2019 йил 20 декабрдаги 313 а-сонли буйруғи. 25-29 бетлар.*
13. *Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг №365-сонли Қарори.*
14. *Гендер зўравонликка жавобан тиббий хизматлар тақдим этишининг стандарт операцион иш тартиблари. UNFPA. Baktriya press.2021, 11-12-бетлар.*
15. *Гендер зўравонликка идоралараро жавоб қайтариши. UNFPA. Baktriya press.2021 33-39-бетлар*

Qobilova Nasiba Ismatjon qizi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
stajyor o'qituvchisi

Djavlanova Nodira Xamza qizi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
o'qituvchisi

O'ZBEK OILALARIDA AYOLLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIK HOLATLARINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek millatining ayollariga nisbatan oilalarda kuzatilayotgan zo'rvonlik masalalari muhokama qilinadi. Ayollarga nisbatan zo'rvonlik nima, bu zo'rvonlikning qanday ko'rinishlari va turlari mavjud ekanligi haqida so'z yuritiladi. Ayollarga zo'rvonlikka uchragan vaqtda ularda yuz beradigan psixologik o'zgarishlar haqida so'z yuritiladi. Muhim jihatlardan biri uning oqibatlarini va oldini olish masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: oilaviy zo'rvonlik, ayollar zo'rvonligi, zo'rvonlik qurboni, bolalarga nisbatan zo'rvonlik, ruhiy bosim, jismoniy va psixologik zo'rvonlik.

Abstract. This article discusses the issues of violence observed in families against women of the Uzbek nation. It talks about what violence against women is, what forms and types of this violence there are. It talks about the psychological changes that occur in women when they are subjected to violence. One of its important aspects is its consequences and issues of prevention.

Keywords: Family violence, violence against women, victim of violence, violence against children, mental pressure, physical and psychological violence.

Kirish. So'nggi yillarda mamlakatimizda oilaviy zo'rvonlik masalasiga, ayniqsa ayollarning zo'rvonlikka uchrashiga davlat miqyosida keng e'tibor qaratilyapti. Uning oldini olish va zo'rvonlik sodir etayotgan shaxslarga nisbatan qarshi chora ko'rish maqsadida 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi Qonunining qabul qilinishi ham bunga yaqqol misol sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Bugungi kunda oilaviy zo'rvonlik muammosi butun jahonning global muammosiga aylangan.

Oilaviy zo'rvonlik ayollarga nisbatan zo'rvonlik qilishning eng keng tarqalgan shakllaridan biri hisoblanadi. Oilaviy zo'rvonlik bu - biron oila a'zosiga oilaning boshqa bir a'zosining do'q-po'pisa ko'rsatishi, bosim o'tkazishi, xulq-atvor qoidalariga zid bo'lgan so'zlar bilan haqorat qilishi oqibatida vujudga keluvchi hodisa sifatida ko'riladi va oilaviy zo'rvonlik oila a'zolari o'rtasida sodir bo'ladi. Har bir inson oiladagi zo'rvonlikning qurboni yoki ijrochisiga aylanishi mumkin. Ko'plab uchratishimiz mumkinki bunday hatti-harakatlar oilada erkaklar tomonidan ayollarga nisbatan ko'rsatiladi. Oilaviy zo'rvonlik BMT tomonidan erkaklar va ayollar o'rtasidagi kuchlarning tengsizligi ifodasi sifatida belgilanadi.

Asosiy qism. Oiladagi zo‘ravonlik ayollar tamonidan doim sabr qilib yashash lozim bo‘lgan jarayon emas. Oilada zo‘ravonlik holati yuz bergan paytda odatda qayta sodir bo‘lmasligi uchun uni to‘xtatish choralari ko‘rib chiqish lozim. Oilada zo‘ravonlik holati yuz berganda nimalar qilish lozim. Biz buning uchun bir nechta qadamlarni taklif qilamiz. Oilada bolalar. O‘rta yoshlilar va qariyalar istiqomat qilishadi va ularning har birlari bu hodisalarning qurboniga aylanishi mumkin. A. Navoiy farzand tarbiyasiga va uni shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat berib, tarbiyalanuvchini “hayot chirog‘i” deb ta’riflaydi. Oilada turmush o‘rtoq o‘z ayoliga, ota-onalar farzandlariga yoki opa-ukalar bir birlariga tazyiq o‘tkazib tajovuz qilishlari mumkin.

Biz bilamizki oilalarda turli xil kelishmovchiliklar va nizolar yuz berib turishi tabiiy hol, lekin biz ularning hammasini ham zo‘ravonlik deb atamaymiz. Buni biz turli xil davrlarga bo‘lamiz.

1-davr. Oilada taranglik holatining yuzaga kelishi. Oila a‘zolari o‘rtasida munosabatlarda o‘zaro norozilik kuchayadi va bu aloqalarni buzilishiga olib keladi.

2-davr. Zo‘ravonlik holatining yuz berishi. Og‘zaki, jismoniy, jinsiy yoki psixologik zo‘ravonlik holati yuz beradi va bu jarayonlar tahdid, qo‘rqitish va ayblovlar bilan birga yuz beradi.

3-davr. Yarashish davri. Zo‘ravonlik sodir etgan shaxs kechirim so‘raydi, nimaga bunday qilganini sababini tushuntiradi, aybni yonidagi shaxsga yuklaydi, jabrlanuvchini bo‘lib o‘tgan voqeani bo‘rttirganligiga ishontiradi.

4-davr. Munosabatlarda hotirjamlik davri. Zo‘ravonlik holati unutiladi, kechiriladi, ushbu davrning yana bir nomi “asal oyi” deb atalib bunda munosabatlar samimiy holatiga qaytadi.

Odatda, so‘nggi davr ya‘ni asal oyidan keyin munosabatlar yana avvvalgi bosqichiga qaytadi va holat qaytadan takrorlanadi. Bu holat juda tez-tez takrorlanadi va qurbon o‘zini himoya qila olmaydigan holatga kelib qoladi. Bunda qurbon voqealar chuqur tus olgani sayin vaziyatni nazorat qila olmay qoladi va bu unga ko‘proq zarar etkazish imkoniyatini kuchaytiradi. Bu paytda zo‘ravonlik ko‘rsatgan shaxs qurbonning yaqinlaridan o‘lja sifatida foydalanadigan bo‘lsa qurbon bu paytda tezkor qaror qabul qilishi lozim va zo‘ravondan voz kechishi kerak.

Bu holatni boshqalar xabar topmasligi uchun harakat qilish va vaziyatdan uyat hissini tuyish odatda zo‘ravonlikning uzoq davom etishiga sabab bo‘ladi. Buning yana bir muhim jihatiga e’tibor qaratishimiz lozimki odatda bizning mentalitetda oilaviy muammolar haqida hech kimga aytmay sabr qilish kerak degan tushunchadir. Oilalarimizda ayollar shunday qiladi va hammasi o‘z-o‘zidan yaxshi bo‘lishini kuatdi. Afsuski hech bir jarayon o‘z holich hal bo‘lib qolmaydi. Oiladago zo‘ravonlikni to‘xtatishga o‘z vaqtida qaror berish bir nechta shaxslarni buni qurboniga aylanib qolishdan saqlab qoladi. BMTning statistik ma’lumotlarining xabar berishicha, dunyo ayollarining taxminan 70 foizi hayoti davomida zo‘ravonlikni boshdan kechirgan. Oilada erkaklar odatda turmush o‘rtog‘i, ota onasi, farzandlari, xonadoshlariga

nisbatan tazyiqlarini namoyish etsa, ayollarda esa asosan, ota-onalar va bolalarga nisbatan kuzatiladi.

Oiladagi zo'ravonlik turlari. Ular quyidagilar jismoniy, jinsiy, psixologik va iqtisodiy.

Jismoniy zo'ravonlik – bu zo'ravonlik qurbonlariga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ta'sir o'tkazish, jismoniy tazyiq o'tkazish maqsadida klataklash, tepish, jarohat etkazish, tarsaki, tepish kabilarni kiritishimiz mumkin bo'ladi.

Jinsiy zo'ravonlik – bu bir shaxsning qarama-qarshi jins vakili tomonidan hohishlariga qarshi chiqqan holda jinsiy aloqada bo'lishga majbur qilish, tahdid qilish yoki aldangan paytdagi zo'ravonlik harakati.

Psixologik zo'ravonlik – insonning ruhiy holatiga ziyon etkazish, haqorat qilish, qo'rqitish, tahdid qilish, shantaj qilish, nazorat qilish kabilar.

Iqtisodiy zo'ravonlik – bu insonga iqtisodiy jihatdan bosim bo'lim, o'qishni, ishlashni ta'qiqlash, moddiy ta'minotdan mahrum qilish va kishining daromadini doimiy hisob kitob qilishdan iborat jarayon hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1948 yilda tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida barcha insonlar zo'ravonliksiz yashash huquqiga ega ekanligi ta'kidlangan.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki zo'ravonlar doimiy hatti-harakatlarini boshqarib boradilar. Ular quyidagi usulda zo'ravonlik qilishni rejalashtiradilar:

– Birinchi navbatda kimga zo'ravonlik qilishni aniqlaydilar. Odatda o'zlariga yaqin insonlarga, yaxshi ko'raman deb ishontirgan insonlarga zo'ravonlik qilishadi.

– Zo'ravonlar aniq zo'ravonlik ko'rsatish lozim bo'gan joyni aniqlaydilar. Agar atrofda insonlar ko'p bo'lsa o'zlarini tutib turadilar, lekin jabrlanuvchi bilan yolg'iz qolishlari bilan tazyiq o'tkazadilar.

– Ular odatda iz qolmaydigan tarzda harakat qiladilar. Masalan jismoniy zo'ravonlik holatida zarbalarni ko'rinmaydigan ko'karmaydigan joyga beradilar.

Umumiy olganda oilaviy zo'ravonlik bu bir oila a'zosining boshqa bir oila a'zosiga jismoniy, psixologik va jinsiy harakatlari, qonuniy manfaatlarini buzish va ikkinchi shaxsga ruhiy azob berish. Demak, hayotimizdagi bu ilattni oldini olish va qarshi choralar ko'rish barchamizning vazifamiz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Pulatova Sh.A, Murodov A.Sh Zo'ravonlikdan jabrlanganlar huquqlarini himoya qilish va zo'ravonlikning oldini olish: Uslubiy qo'llanma. –T.,Baktria press, 2020. – 56 B.
2. 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikas«Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida» Qonuni
3. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // URL: <http://www.lex.uz>
4. Qobilova, N. I. (2024). O'zbekistonda ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlari va unga doir chora tadbirlar. *Innovative Development in Educational Activities*, 3(3), 14-18.
5. Djavlanova, N.X. Jamiyatda komil inson bo'lib etishishda o'qituvchi murabbiyni o'rni. *International conference on developments in education*. 2023.12.24 40-43 bet

Ганиева Мухлиса Жахонгир кизи,
главный консультант,

Народно-демократической партии Узбекистана

НАЦИОНАЛЬНЫЕ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВОПРОСОВ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В СЕМЬЯХ

Аннотация: В данной статье исследуется взаимосвязь между культурными нормами, социальными ожиданиями, и общечеловеческими факторами в формировании гендерного равенства в семейной среде. Исследование проясняет, как национальные культурные особенности и правовые рамки воздействуют на распределение ролей в семье между мужчинами и женщинами, а также какие общие факторы, независимые от культуры, оказывают влияние на эти процессы.

Ключевые слова: гендерное равенство, женщины, семья, национальные и общечеловеческие аспекты

Abstract: This article explores the interplay between cultural norms, social expectations, and universal factors in shaping gender equality within the family environment. The study elucidates how national cultural peculiarities and legal frameworks impact the distribution of roles between men and women in families, as well as which common factors, irrespective of culture, influence these processes.

Keywords: gender equality, women, family, national and universal factors

Введение. Гендерное равенство в семьях является ключевым аспектом современного общественного развития, влияющим на благополучие и устойчивость семейных отношений. В контексте этого важного общественного дискурса, особое внимание уделяется как национальным, так и общечеловеческим аспектам данной проблематики. Национальные особенности, включая культурные, социально-экономические и политические факторы, формируют контекст, в котором складываются гендерные роли и отношения в семье. Гендерное равенство в семьях — это не только вопрос культурных и национальных особенностей, но и общечеловеческих ценностей. Несмотря на разнообразие традиций и норм в различных культурах, все общества стремятся к справедливости и равенству. В семьях, где уважаются права и свободы каждого члена, создается благоприятная атмосфера для развития и самореализации. Национальные особенности могут определять роли и функции мужчин и женщин в семье, однако важно, чтобы они не препятствовали осуществлению равенства и справедливости. Образование, осознание собственных прав и уважение к правам других являются ключевыми факторами в достижении гендерного равенства в семейных отношениях. Усиление общечеловеческих ценностей, таких как уважение, терпимость и равноправие, способствует созданию более справедливых и гармоничных семей, отражающих потребности и интересы всех их членов.

Основная часть. В последние десятилетия наблюдается все более значительный процесс перехода от традиционной семейной модели к современной. Этот процесс усиливается благодаря политике гендерного равенства, которую принимают многие государства. Гендерное равенство подразумевает равенство прав и возможностей как для мужчин, так и для женщин в различных сферах социальной и семейной жизни.

Узбекистан занимает лидирующую позицию среди стран Центральной Азии в обеспечении равных прав для женщин и мужчин. В 1995 году Узбекистан ратифицировал Конвенцию о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин (CEDAW) [1]. С развитием страны Узбекистан проходит глубокое реформирование в области гендерного равенства. Президент Шавкат Мирзиёев последовательно подписывает законы о гендерном равенстве. Улучшение положения женщин признается одним из ключевых факторов устойчивого развития. С признанием ООН концепции гендерного равенства в 2000 году как одного из основных принципов человеческой деятельности, Узбекистан делает значительный прогресс вместе с мировым сообществом в этом направлении. В последние 7 лет были предприняты значительные шаги для укрепления положения женщин в социально-экономической и политической сферах. В сентябре 2019 года был принят ряд законов «О гарантиях равных прав и возможностей между женщинами и мужчинами» с целью дальнейшего усовершенствования правовой основы и защиты прав женщин. [2]

В разных культурах наблюдаются различия в подходах к гендерным вопросам в семье. Некоторые общества придерживаются традиционных ролей, где мужчина играет роль домовладельца и кормильца, а женщина — заботливой матери и хранительницы семейного очага. В других культурах семейные обязанности распределяются более равномерно между мужчинами и женщинами.

Однако вне зависимости от культурных норм, в основе гендерного равенства лежат общечеловеческие принципы уважения, равенства и справедливости. В семье, где каждый член уважается и ценится, создаются условия для развития личности и самореализации. Эгалитарная семья – тип семьи, которая организована по принципу равноправия всех ее членов: мужчин и женщин, взрослых и детей (фр. egalitarisme – равенство). Как реальная модель эгалитарная семья появилась в начале и получила распространение во второй половине XX в. в обществах, которые стали перестраивать социальные отношения с учетом равенства полов. Эгалитаризация, или демократизация, жизни как процесс присуща обществам, которые не только провозглашают права граждан, гарантируют их осуществление, но и которые реально добиваются равноправия всех членов общества. [3]

Образование играет ключевую роль в преодолении стереотипов и неравенства внутри семьи. Осознание собственных прав и уважение прав других членов семьи способствует формированию более здоровых и равноправных отношений.

Поддержка гендерного равенства в семье требует образования и осознания, как на уровне индивидов, так и на уровне общества в целом. Образование и информирование о вопросах гендерного равенства способствуют формированию толерантного и справедливого общества, где каждый член семьи может чувствовать себя уважаемым и поддержанным.

Вывод. Изучение национальных и общечеловеческих аспектов гендерного равноправия в семьях подчеркивает значение сбалансированного подхода к учету культурных особенностей и общезначимых ценностей человечества. Национальные культурные нормы могут определять роли и ожидания внутри семьи, однако общезначимые принципы уважения, равенства и справедливости должны являться основой для достижения гендерного равенства. Поддержка образования, осознания и содействия в правах всех членов семьи имеет важное значение в любом культурном контексте с целью создания более справедливых и гармоничных семейных отношений.

Список литературы:

1. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/cedaw.shtml
2. <https://lex.uz/docs/4494873>
3. https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/115320/1/sotsiologicheskaya_nauka_i_obrazovanie_p.49-50.pdf

Ishboboyeva Gulbarchin Rustam qizi,
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti

OILA STRUKTURASIDA GENDER MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya: Oila - bu nikoh yoki qarindoshlikka asoslangan odamlarning ijtimoiy birlashmasi deb tushuniladi. Bu o'zaro yordam, umumiy hayot va huquqiy va axloqiy javobgarlik bilan bog'langan odamlarning kichik guruhidir. Tadqiqot doirasida oilaviy masalalar, har bir inson hayotida jiddiy, mas'uliyatli qadam ekanligi, bu masala shaxsiy, xususiy doiradan chiqib, ijtimoiy ahamiyat kasb etishini, nikohdagi gender rollar va ularning vazifalari haqida, gender ijtimoiylashuvi sohasidagi tadqiqotlar, oilada va jamiyatda gender rollarning teng taqsimlanishi kabi o'zgarishlar va muammolarning xususiyatlari psixologik tomonlari o'rganiladi va tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Gender tushunchasi, biologik jins, nikoh, sotsiomadaniy jins, gender tenglik, er-xotin munosabatlari, oilaviy tajriba, gender paradigmasi, gender rollar.

Abstract: a family is understood as a Social Union of people based on marriage or kinship. It is a small group of people connected by mutual assistance, common life and legal and moral responsibility. Within the framework of the study, the psychological aspects of changes and problems such as family issues, a serious, responsible step in the life of each person, the fact that this issue goes beyond the personal, private circle and acquires social significance, about gender roles in marriage and their functions, research in the field of gender socialization, the equal distribution of gender roles in.

Keywords: Gender concept, biological gender, marriage, sociomadic gender, gender equality, couple relations, family experience, gender paradigm, gender roles.

Gender ijtimoiylashuvi sohasidagi tadqiqotlar natijalari asosida nikohda erkak va ayolning jinsiy rolini aniqlash xususiyatlari shaxsning jamiyatdagi mavqeyi, uning shaxsiy va kasbiy taqdirida aniq aks etishi ta'kidlanadi. Shu ma'noda ular hozirgi zamonda ro'y berayotgan jarayonlarni aks ettirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning rivojlanishdagi asosiy yo'nalishi shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotiga bo'lgan ehtiyojning tobora ortib borishi hisoblanadi.

Nikoh rollarini uchta asosiy turga ajratish mumkin: an'anaviy, do'stona o'rtoqlik va hamkorlik rollari. Asosiy rolga moslashish, albatta, oilaviy majburiyatlarning tabiati va taqsimoti haqidagi g'oyalarni muvofiqlashtirishni o'z ichiga oladi [1].

Gender (ingl. gender, lot. genus “zot, jins, kelib chiqish”) – biologik jins tushunchasidan farqli ravishda, jinsga oid ijtimoiy xususiyatlarni anglatadi. **Biologik jins** (jinsiy identifikatsiya) inson tabiatining tub jihati sifatida erkak va ayolni ajratib turadigan jinsning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini anglatadi: genetik (DNK, xromosomalar majmui – ayol 46XX, erkak 46XY); gormonal (jinsiy gormonlar, estrogen, androgen); somatik (erkak va ayol tana tuzilishi xususiyatlari); gonadal (reproduktiv faoliyat); fiziologik (erkak va ayol organizmida yuz beradigan jarayonlar). Inson tug'ilish paytidan erkak yoki ayol, deb ta'riflanadi va bu hayot davomida

ijtimoiy-huquqiy haqiqatga aylanadi. Gender erkaklar va ayollarning jamiyatdagi mavqeini belgilaydigan ijtimoiy-madaniy konstrukt, ijtimoiy rollarning jinsga bog'liq jihatlari to'plami, jamiyat tomonidan erkak yoki ayoldan kutilgan xulq-atvor modellaridir [4]. Gender tushunchasi erkaklar va ayollarning ijtimoiy hayotdagi rollari, munosabatlarning xususiyatlari, jamiyatda qabul qilingan normalarni tavsiflash uchun ishlatiladi. Gender madaniyatlar bo'yicha farq qiladi va vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin [5].

O'zbekistonda ijtimoiy hayotda gender masalalari, gender tenglik munosabatlari berilayotgan chuqur e'tiborni amalga oshirilayotgan qator loyihalarda ko'rish mumkin. Masalan, 2019-yil 2-sentabr, O'RQ-562-sonli “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi qonunning qabul qilindi, unga ko'ra, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ravishda ijtimoiy va ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish yuzasidan va hk. chora-tadbirlar olib borilmoqda. Shu qatorda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadi – Gender tenglikni amalga oshirish doirasida O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga oid to'qqizta vazifa ishlab chiqilgagini ham ta'kidlash mumkin. U 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini ta'minlash va etakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni yaratish zarurligini o'z ichiga oladi [2].

Gender tushunchasi amerikalik psixiatr, psixoanalitik, sotsiolog **Robert Stoller** tomonidan Stokgolmda o'tkazilgan psixoanalitiklar kongressida shaxs ijtimoiylashuvi, ijtimoiy jins, gender o'zini anglash, gender identifikatsiyasi kabi muammolarni o'rganishga oid ma'ruzasidan so'ng atama sifatida qo'llanila boshladi. Robert Stoller birinchi bo'lib biologik jins va sotsiomadaniy jins (gender) tushunchalarini ajratib ko'rsatdi.

Gender tengligi (erkaklar va ayollarning tengligi) – bu oilaviy va boshqa huquqiy munosabatlarda erkaklar va ayollar o'rtasidagi huquqlar tengligiga erishishni nazarda tutadigan tushuncha. Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, gender tengligi patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichidir. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun barcha ijtimoiy to'siqlarni o'rganish va bartaraf etish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat.

Gender identifikatori - Bu atama shaxsning ijtimoiy xususiyatlarini ifodalaydi, uni ma'lum bir nuqtai nazardan tavsiflaydi va uning erkaklar yoki ayollar guruhiga tegishlilikini ko'rsatadi. Bu erda eng muhimi, inson o'zini qanday baholaydi va uning ijtimoiylashuvi qanday sodir bo'ladi. Ma'lum bir madaniyat ijtimoiy, madaniy va xulq-atvor xususiyatlari bilan birgalikda psixologik jinsni tashkil qiladi. Boshqa odamlar

bilan muloqot qilishda va ularni kuzatishda inson qaysi guruhga ko‘proq mos kelishi haqida o‘z fikrlarini to‘playdi. Va o‘z xulosalariga asoslanib, u o‘ziga yaqinroq bo‘lgan guruhning xatti-harakati va sevimli mashg‘ulotlarini tanlashni boshlaydi. Gender ijtimoiy rollari shunday taqsimlanadi. Shu bilan birga, stereotiplarning namoyon bo‘lishi rivojlanishning barcha bosqichlarida sodir bo‘ladi. Hatto erta maktabgacha yoshda ham, bolalar allaqachon gender xususiyatlarini aniq ajratish idroki bilan singdirilgan. Shunday qilib, o‘g‘il bolalar va qizlar o‘rtasidagi muloqot bir jinsdagi bolalarning birgalikdagi o‘yin-kulgisidan ko‘ra ko‘proq, ular ham turli xil manfaatlarga qaratilgan bo‘ladi. Shuning uchun biz ko‘pincha gender stereotiplarining shaxs va dunyoqarashni shakllantirishdagi rolini kam baholaymiz. Yetukroq yoshda erkaklar va ayollar muloqot qilishga intilishganda, ular bir-birlarini tushunmaydilar, ularning qiziqishlari farqlanadi [3].

Zamonaviy rus oilasidagi gender munosabatlarida “ishchi ona” sovet modeli bilan bir qatorda, oilaning yangi turi shakllangani ya’ni, ikkala turmush o‘rtoqlar ishlaydigan ikki tomonlama oila bu degani, davlat sohasida professional o‘shish va o‘zini o‘zi tasdiqlash uchun da’vogar bo‘lgan ikki jins vakillari nazarda tutilib kelinmoqda. Bunday oilada erkaklar ustunligi darajasi kamroq darajada pasayadi, mavjud ayolning iqtisodiy qaramligi, vazifalarni taqsimlash masalalari va javobgarlik kelishuvlar ikki jins vakillari orasida o‘zaro hal qilinadi [1].

Oilaviy tajriba bo‘yicha:

- ❖ yangi turmush qurganlar-to‘ydan keyin eyforiya holatida bo‘lgan va muammolarga duch kelishga ishonmaydigan odamlar;
- ❖ yosh oila-bu sevgi etarli emasligini allaqachon anglagan odamlar, ularga g‘amxo‘rlik, o‘zaro tushunish va ishonch kerak;
- ❖ bola kutayotgan oila-munosabatlardagi juda jiddiy o‘zgarishlar, yangi turmush tarzini rivojlantirish;
- ❖ o‘rta yoshli oila (10 yil birga) - muntazamlilik, nizolarning paydo bo‘lishi, turmush tarzini qayta ko‘rib chiqish va unga yangi manfaatlarni qo‘shish kerak;
- ❖ katta turmush qurgan oila-umumiy manfaatlar, muzokara qilish qobiliyati birinchi o‘ringa chiqadi;
- ❖ keksa turmush qurgan oila (nabiralar paydo bo‘lishi bilan) – yangi havo nafasi, nevaralarga qiziqish paydo bo‘ladi. Va shu kabi oilaviy tajriba ortib boraveradi.

Olimlarimiz L.Gordon, E.Klopov, L.Onikovlar oila sotsiologiyasi sohasidagi, sotsiologik so‘rovda ta’kidlanishicha, uyda o‘tirgan erkaklar orasida bandlik kuniga taxminan 1 soat, bolali ayollarda kuniga 4-5 soatgacha davom etganligini ayni so‘rov natijalarida ko‘rish mumkin. Z.A.Yankova tomonidan, o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar ma’lumotlariga ko‘ra, so‘rovda qatnashgan ayollarning, 25 foizi er-xotinlar o‘rtasida vazifalarni to‘g‘ri va teng taqsimlash zarur deb, fikr bildirganlarini tadqiqot natijalari so‘ngida ko‘rishimiz mumkin [4].

Gender to‘g‘ridan-to‘g‘ri mavjud madaniyat, ijtimoiy munosabatlarga ta’sir qiladi. XXI asr ayollarning jamiyatdagi mavqei, ularning roli va missiyasini baholashda burilish yasadi, tarixan ayolning an’anaviy deb hisoblangan vazifasi – oilaning

davomchisi, oila o'chog'ining qo'riqchisi kabi nikoh va oila ijtimoiy institutlarning fundamental asoslari bilan bir qatorda jamiyat hayotining faol ishtirokchisi kabi mavqeyini mustahkamladi. Bugun xalqaro hamjamiyatning 50% ini ayollar tashkil etuvchi insoniyat jamiyatlarida, erkak va ayollarning gender tengligi tamoyilini ilgari suradi. Hokimiyatning bo'linish nazariyasi va umumiy saylov huquqi bilan bir qatorda gender pariteti zamonaviy demokratiyaning asosiy tamoyillaridan biridir. Gender paradigmasi G'arbda o'tgan asrning 60-yillarda paydo bo'ldi. U ijtimoiy uzoq rivojlanish tarixiga ega bo'lgan ayollar harakati va shakllanishining ma'lum bosqichlaridan o'tdi [8].

Androginiya muammolarini o'rganuvchi Sandra Bemning fikricha, jinsidan qat'i nazar, har qanday odam an'anaviy erkaklik va an'anaviy ayollik fazilatlarini o'zida mujassamlashtira oladi. Turli rollarni bajarish insonning psixologik farovonligiga hissa qo'shadi. Ushbu masala bo'yicha hukmlarning keng doirasini hisobga olgan holda, hozirgi vaqtda gender rollarining yagona nazariyasi mavjud emas va ehtimol, bunga ehtiyoj yo'q degan xulosaga kelish mumkin. Ammo, shu bilan birga, shuni yodda tutish kerakki, madaniyat sohasi, qoida tariqasida, gender urg'usiga ega va madaniyatlararo tadqiqotlarga ko'ra, ayollarning (Daniya, Finlyandiya, Shvetsiya, Norvegiya) oilalarida gender tengligiga e'tibor qaratildi. Yaponiya, Gretsiya, Germaniya, Italiya va AQSH oilalarida aniq erkaklar ustunligi gender rollarining qat'iy tabaqalanishiga qaratilgan. Natijada turli xil stereotiplar shakllanadi. Bunday jamiyat hayotining barcha jabhalarida gender rollarini belgilaydigani ijtimoiy model assimetrikdir: erkakning hamma narsasi muhimroq, asosiy, dominant hisoblanadi va ayollar qarashlarida esa, ijtimoiy nuqtai nazardan unchalik ahamiyatli emas, ikkinchi darajali sifatida taqdim etiladi [5].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi qonuni. 2019-yil, 2-sentabr.*
2. Гуревич Д., Рансат-Шарлье М.-Т. *Повседневная жизнь женщин в Древнем Риме.* — М., 2006. — С. 239-240.
3. Jamoldinova O.R. *Ta'lim tizimida gender yondashuvni tatbiq etishning samarali mexanizmlari. Belarus-O'zbek ILMYI-METODIK JURNALI. 2022-yil, 1-son. B. 17- 25. <https://doicodex.ru/doifile/regdoi/2022/06/doicodex-2022.055.pdf>.*
4. *Гендер// Новейший философский словарь /Грицанов А. А.—Мн.: Книжный дом, 2001.— ISBN 985-6656-06-0 isbn2=985-428-431-X.*
5. Воронина О.Гендер//Словарь гендерных терминов/ Денисова А. (ред.). — М.: Информация XXI век, 2002. Архивная копия от 17 марта 2016
6. *Гендер /Барчунова Т. В.// Восьмеричный путь — Германцы [Электронный ресурс].— 2006.— С.532.— (Большая российская энциклопедия:[в 35 т.]/ гл. ред.Ю. С. Осипов; 2004—2017, т.6).— ISBN 5-85270-335-4.*
7. Бёрн Шон. *Гендерная психология = The Social Psychology of Gender.*—СПб.: Прайм-Еврознак, 2002.— ISBN 978-5-9387-8019-4. Архивная копия от 17 февраля 2019
8. *Здравомыслова, Е. Исследования женщин и гендерные исследования на Западе и в России / Е. Здравомыслова, А. Темкина // Общественные науки и современность. - 2000. - . 6. - С. 177-185.*

Raximova Mushtariybegim Muhammadg'olib qizi,
O'zbekiston Respublikasi
Markaziy saylov komissiyasi mutaxassisi

GENDER BYUDJETI KONSEPSIYASIGA SIYOSIY VA IJTIMOIIY MUNOSABATLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada gender tushunchasing fanga kirib kelishi, gender tenglik, O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayotda gender masalalari, gender tenglik munosabatlarining siyosiy-ijtimoiy holati tahlil qilingan. Butun dunyo hukumatlari gender tengligi va hayotning turli sohalarida ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha milliy va xalqaro majburiyatlarni oldi. Bir qancha xalqaro konventsiyalar va platformalar; jumladan Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konventsiya va BMTning Pekin harakat platformasi hukumatlarning ayollar huquqlarini ro'yobga chiqarish va gender tengligiga erishishga sodiqligini namoyish etadi.

Kalit so'zlar: gender, gender tenglik, siyosiy-ijtimoiy, Mehnat kodeksi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi.

Abstract: This article analyzes the introduction of the concept of gender into science, gender equality, gender issues in social life in the Republic of Uzbekistan, and the political and social situation of gender equality relations. Governments around the world have made national and international commitments to gender equality and women's empowerment in various spheres of life. Several international conventions and platforms, including the Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women and the UN Beijing Platform for Action, demonstrate the commitment of governments to realizing women's rights and achieving gender equality.

Keywords: gender, gender equality, political and social, Labor Code, Ministry of Neighborhood and Family Support.

KIRISH. Gender lotincha genus (inglizchada gender) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek tilida jins ma'nosini beradi. Fanga genderlik tadqiqotlari tushunchasi XX asr o'rtalarida kirib kela boshladi. Gender terminini 1952-yilda Yangi Zelandiyalik ruhshunos olim Jon Mani o'z ilmiy tadqiqotlarida birinchi qo'llagan. Keyinchalik 1963-yilda Stokgolmda ruhshunoslarning xalqaro anjumanida AQShlik olim Robert Stoller jamiyatda ijtimoiy jinsning o'z-o'zini anglash tushunchalari to'g'risidagi ma'ruzasi orqali gender terminini ilm ahliga taqdim etdi hamda jinsni biologik va madaniy turlarga bo'lib o'rganishni taklif qildi. R.Stoller, biologik jinsni (inglizcha sex) biologiya va fiziologiya, madaniy jins (gender), ya'ni genderni ruhshunoslik va jamiyatshunoslik sohalarida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblagan. Shuningdek, 1972-yilda ingliz sotsiologi Enn Oukli ham "Jins, gender va jamiyat" nomli ilmiy ishida bu termini izohlab o'tgan. Gender konsepsiyasi biologik jins bilan (inglizcha – sex) ijtimoiy jins (inglizcha – gender) farqlanishiga hamda jinslar orasidagi ijtimoiy munosabatlar faqat erkaklar va xotin-qizlarning biologik o'ziga xosligi bilan belgilanmasligi, ular o'rtasidagi ijtimoiy rollar fiziologik farqlardan

sezilarli ravishda kengligini anglashga qurilgan. Jins anatomik, fiziologik tushuncha, ya’ni individning biologik jinsga oidligini belgilovchi biologik xususiyatlar birligidir. Biroq odamlar o‘rtasida yana bir muhim – biologik farqlardan tashqari ijtimoiy rollar, har xil faoliyat turlari, xatti- harakat va psixologik xarakteristika jihatidan ham bo‘linish mavjud. Jinsdan farqli o‘laroq, gender – psixologik, madaniy va ijtimoiy vositalar bilan shakllanadi. Gender terminining fanga kiritilishi shuni anglashga yordam beradiki, “jamiyatdagi erkaklar va xotin-qizlar rollari ijtimoiy jihatdan tashkil topadi va belgilanadi” Xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash, ular bilan manzilli ishlash maqsadida “Ayollar daftari” tizimi joriy etilib, Davlat budjetidan har yili 300 mlrd so‘m mablag‘ ajratib borish yo‘lga qo‘yildi.

Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo‘q yolg‘iz ayollarning o‘qish to‘lovlarini qoplab berish tizimi joriy etilib, oliy o‘quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar soni ikki baravarga ortdi.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida 224 mingdan ortiq xotin-qizga jami 6,9 trln so‘m miqdorida imtiyozli kredit ajratildi. Sohada olib borilayotgan islohotlar xalqaro reytinglardagi mamlakatimiz o‘rniga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, Jahon bankining ayollar, biznes va qonun indeksida O‘zbekiston 2020-yilda xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik bo‘yicha ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirgan 27 ta davlat qatoriga kiritildi va 5 pog‘onaga yuqorilab, 190 ta davlat orasida 134-o‘rinni egalladi. O‘zbekiston BMT Nizomining maqsad va prinsiplariga hamda xalqaro huquqning boshqa umume’tirof etilgan normalariga sodiq ekanliklarini doimo ko‘rsatib kelgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Jamiyat hayoti, ish, tadbirkorlik va ta’lim sohasidagi imkoniyatlar va natijalarda hali ham gender tafovutlari mavjud. Hukumatlar tenglikni oshirish uchun byudjetlashtirish jarayonidan foydalanishlari mumkin. Buni gender byudjetini amalga oshirish orqali amalga oshirish mumkin. Ayollar va bolalarni rivojlantirish vazirligi davlat idoralari, milliy va davlat o‘quv muassasalari va tashkilotlarga turli manfaatdor tomonlarning salohiyatini oshirish uchun o‘quv va seminarlar o‘tkazish uchun moliyaviy yordam berish uchun gender byudjetlashtirish dasturini amalga oshirmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Har bir jamiyatda bola tarbiyasi bosqichlarida, keyinchalik butun umri davomida ‘erkaklarga xoslik’ va ‘ayollarga xoslik’ deb nomlangan tushunchalarga xos me’yor va stereotiplar mustahkamlanib boradi. V.fon Humbold jinslararo farq to‘g‘risida to‘xtalib, jumladan quyidagi fikrlarni aytgan: “Erkaklik qiyofasida chiroy va jozibaga qaraganda qat’iylik ko‘proq farqlanadi; erkaklik tushunchasi juda aniq va puxta, ular orasidagi munosabat esa o‘ta oddiy; erkak xarakteri kuchli va barqaror, ammo ba’zan bir yoqlamalik va dag‘allikni ifodalaydi. Barcha erkaklikka xosliklar oydinlashtiruvchi, barcha ayolga xosliklar ko‘ngilni iyydiruvchidir. Biri hayotga nur (ro‘shnolik) olib kirs, ikkinchisi muhabbat keltiradi. Ayolning tabiati ayolni mashaqqatlarga bardosh beruvchi qiladi, (jamiyat qonunqoidalariga binoan) erkaklik kuch-quvvati bilan hamnafas ayol shiddatkorlikdan ozod bo‘ladi, shunga ko‘ra ayol o‘z vafodorligi bilan ko‘zlagan maqsadiga erishadi” (3). Demak, ijtimoiy hayotda

ham erkak va ayol birgalikda harakat qilsa, muayyan jamiyat ko‘zlagan maqsadiga tezroq erishishi mumkin. So‘ngi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ham ayollarning boshqaruv organlariga tayinlanishiga bo‘lgan e‘tiborning o‘sishi yuqorida ta’kidlangan sotsial tenglik balansini me‘yorga keltirmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunining 13-moddasida xotinqizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta‘minlash masalalari bo‘yicha tadbirkorlik subyektlarining, shuningdek, fuqarolar o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarning va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarinig vakillari ishtirokida maslahat kengashlarini tuzish mumkinligi belgilangan.

Xususan, O‘zbekistonda ijtimoiy hayotda gender masalalari, gender tenglik munosabatlari berilayotgan chuqur e‘tiborni amalga oshirilayotgan qator loyihalarda ko‘rish mumkin. Masalan, 2019-yil 2-sentabr, O‘RQ-562-sonli “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilindi, unga ko‘ra, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ravishda ijtimoiy va ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish yuzasidan va hk. chora-tadbirlar olib borilmoqda. Shu qatorda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadi – Gender tenglikni amalga oshirish doirasida O‘zbekistonda gender tenglikni ta‘minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga oid to‘qqizta vazifa ishlab chiqilgagini ham ta’kidlash mumkin. U 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to‘liq va samarali ishtirokini ta‘minlash va etakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni yaratish zarurligini o‘z ichiga oladi. Gender munosabatlarda xalqaro standartlarga haqiqiy yaqinlashuvga erishish, eng muhimi, ayollarni jamiyatning barcha jabhalarida faol ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlarni ta‘minlash bo‘yicha qator oddiy, ammo samarali chora-tadbirlar mavjudligini ta’kidlash mumkin. Mamlakatimizda, kvota tizimining ayollarga yo‘naltirilganligining ortib borayotganligini, ayniqsa, oliy ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan voqeliklar, magistraturaga qabul qilingan xotin-qizlarga kontrakt to‘lovlarni to‘liq davlat tomonidan qoplanishi haqidagi amaliy chora-tadbirlarni yaqqol misol tariqasida keltirish mumkin. Shuningdek, xotin-qizlarning mahalliy darajada va ijroiya hokimiyatida vakilligining oshib borishi, ularning parlament faoliyatidagi faol ishtirokini ham ta’kidlash zarur.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, davlatimizda gender siyosatining muhim strategik maqsadi millat oilasida xotin-qizlarning o‘rni, ularning moliyaviy ahvolini va ijtimoiy farovonligini yaxshilashga qaratilgan. Bunday strategiyani quyidagilarda ko‘rish mumkin: ko‘p bolali, yosh, kam ta‘minlangan oilalar uchun ijtimoiy kafolatlarni ta‘minlashni o‘z ichiga olayotganligi; sog‘liqni saqlash va ta‘lim sohasida yagona



ijtimoiy standartlar ishlab chiqilayotganligi; oiladagi zo‘ravonlikni bartaraf etish, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini yaratish muammolari kabilarga e’tibor qaratilmoqda. Zotan, suveren jamiyatda gender tengligi muammolari ustuvor ahamiyatga ega bo‘lishi kerak. Bizning fikrimizcha, gender tengligi sohasidagi asosiy muammolarni yanada samarali hal etish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: gender masalalarini hal etishga qaratilgan institutlarning samarali faoliyat yuritishi uchun shart-sharoit yaratish; gender siyosatini amalga oshirishni barcha darajalarda, jumladan, hududiy, milliy va sektoral muvofiqlashtirishning aniq tizimini shakllantirish; ayollarning iqtisodiy qaramligini va zaifligini yumshatish uchun oilaviy yuklarni teng taqsimlashga intilish; davlat mehnat bozorini tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada ko‘paytirishga erishish, ya’ni kam haq to‘lanadigan joylarda ayollar ulushini kamaytirish yoki ish haqini ko‘paytirish; turmush darajasini oshirishga va tengsizliklarni bartaraf etishga, shu jumladan ta’lim, sog‘liqni saqlash va kasbiy o‘shishga yordam beradigan hayotiy ko‘nikmalarni o‘rganish imkonini beruvchi amaliy ta’lim tizimini kuchaytirish, qizlarni ta’lim olishiga past nazar bilan qarovchi oilalarda tushuntirish ishlarini olib borish zarur; hududiy gender kamsitish amaliyotini keskin cheklash, ushbu sohadagi muammolarni huquqiy tizim kontekstida hal qilish imkoniyatlarini kengaytirish, sohalarda gender tengligiga erishish kabilar shular jumlasidandir

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Stoller R. J. Sex and Gender: The Development of Masculinity and Femininity. – United Kingdom: Routledge, 1994. – 400 p.*
2. *Zdravomislova Ye.A., Temkina A.A. Sotsialnoe konstruirovaniye gendera. Sb. “Vozmojnosti ispolzovaniya kachestvennoy metodologii v gendernix issledovaniyax”. – Moskva, 2001. – S. 49.*
3. *Jamoldinova O.R. Ta’lim tizimida gender yondashuvni tatbiq etishning samarali mexanizmlari. Belarus-O‘zbek ILMYI-METODIK JURNALI. 2022-yil, 1-son. B. 17- 25. <https://doicode.ru/doifile/regdoi/2022/06/doicode-2022.055.pdf>.*
4. *Бахронова Д.К. ГЕНДЕР И ЦЕЛЕВЫЕ КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ГЕНДЕРНЫЕ СТЕРЕОТИПЫ // Гендерные исследования в гуманитарных науках: сб. ст. по матер. III междунар. науч.-практ. конф. № 3. – Новосибирск: СибАК, 2015.*
5. *Gender budgeting: practical implementation Handbook prepared by Sheila Quinn*
6. *Promoting gender- responsive policiees and budgets: lessons from South East Europe experience in the period 2011-2013 UN Women, Austrian Development Cooperation*



Panjizoda Hurriyatxon Ziyod qizi Zoxiriy
“Family and gender” Research Institute
doctorant

THE ROLE OF GENDER EQUALITY IN OVERCOMING DOMESTIC VIOLENCE

Abstract. *This article deals with gender equality, specifically covering the extent to which gender equality is important in preventing domestic violence. Also shown are strategies in the implementation of gender equality, its benefits are shown.*

Keywords: *family, gender, violence, harassment, women, rights, equality, equality of power.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada gender tengligi haqida so‘z boradi, xususan, oiladagi zo‘ravonlikni oldini olishda gender tengligini ahamiyati qay darajada ekanligi yoritilgan. Shuningdek, gender tenglikni amalga oshirishdagi strategiyalar, uning foydalari ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *oila, gender, zo‘ravonlik, tazyiq, ayollar, huquq, tenglik, kuch tengligi.*

Gender equality refers to the equal rights, responsibilities, and opportunities for all individuals, regardless of their gender. It means that women and men, girls and boys, should have equal access to resources, opportunities, and decision-making power, and should not face discrimination or limitations based on their gender.

Gender equality plays a crucial role in addressing and preventing domestic violence. By challenging harmful gender norms and power imbalances, promoting women’s empowerment, and fostering respectful relationships, we can create a society where domestic violence is not tolerated.

How Gender Inequality Contributes to Domestic Violence: Patriarchal norms and power imbalances: Societies that perpetuate male dominance and female subordination create an environment where men may feel entitled to control women and use violence to maintain that control. Gender stereotypes and expectations: Rigid gender roles that confine women to domestic spheres and limit their economic opportunities can increase their vulnerability to abuse and dependence on their abusers. Normalization of violence: In societies where violence against women is normalized or minimized, victims may be less likely to seek help or report abuse.

How Gender Equality Helps Overcome Domestic Violence: Challenging harmful norms: Promoting gender equality involves questioning and dismantling harmful stereotypes and expectations that perpetuate violence against women. Empowering women: Providing women with education, economic opportunities, and access to resources increases their independence and ability to leave abusive relationships. Promoting healthy relationships: Educating individuals about healthy relationship dynamics, consent, and conflict resolution skills helps prevent violence and fosters respectful partnerships. Engaging men and boys: Involving men and boys in efforts to prevent violence against women is crucial for changing attitudes and behaviors.

Strategies for Promoting Gender Equality and Preventing Domestic Violence:
Education and awareness-raising: Implementing educational programs that challenge gender stereotypes and promote healthy relationships, starting from a young age.
Economic empowerment: Supporting women’s access to education, job training, and economic opportunities to increase their independence and reduce their vulnerability to abuse.
Legal reforms and enforcement: Strengthening laws and policies that protect women from violence and ensuring effective enforcement of these laws.
Support services: Providing comprehensive support services for survivors of domestic violence, including shelters, legal aid, counseling, and healthcare.
Community mobilization: Engaging community leaders, religious institutions, and civil society organizations in efforts to prevent violence against women and promote gender equality.

Benefits of Addressing Domestic Violence through a Gender Equality Lens:
Reduced violence and abuse: By tackling the root causes of gender-based violence, we can create a safer and more peaceful society for everyone.
Empowered women and girls: Promoting gender equality leads to improved health, education, and economic outcomes for women and girls.
Stronger families and communities: Addressing domestic violence strengthens families and communities by fostering healthy relationships and reducing conflict.
Sustainable development: Gender equality is essential for achieving sustainable development goals and building a more just and equitable world.

By working towards gender equality, we can create a world where domestic violence is no longer tolerated and all individuals can live free from fear and violence.

While cultural contexts and national policies play a significant role in shaping family dynamics, several key aspects of gender equality within the family resonate universally:

1. Human Rights Framework:

Equality and Non-Discrimination: International human rights instruments, like the Universal Declaration of Human Rights and CEDAW, establish gender equality and non-discrimination as fundamental principles. These principles apply to all spheres of life, including the family, ensuring equal rights and opportunities for all members regardless of gender.

2. Shared Challenges:

Gender-Based Violence: Domestic violence and abuse against women and girls are pervasive global issues, transcending cultural and socioeconomic boundaries.
Unpaid Care Work Burden: Women disproportionately shoulder the responsibility for unpaid care work, including childcare, housework, and eldercare. This limits their opportunities for education, employment, and personal development.
Economic Disparity: Gender pay gaps, limited access to financial resources, and discriminatory inheritance practices contribute to economic inequalities within families, often leaving women financially dependent.
Decision-Making Power: Women frequently

face limitations in decision-making within families, particularly regarding finances, reproductive health, and children’s education.

3. **Common Goals and Aspirations: Shared Responsibility and Partnership:** Promoting equitable partnerships within families where both men and women share responsibilities for household tasks, childcare, and economic well-being. **Respectful Relationships:** Fostering respectful and non-violent relationships based on mutual understanding, communication, and consent. **Women’s Empowerment:** Empowering women within families through education, economic opportunities, and access to healthcare, enabling them to make informed choices about their lives. **Children’s Well-being:** Creating nurturing and supportive family environments that prioritize the well-being and development of all children, regardless of gender.

4. **Global Advocacy and Cooperation: International Collaboration:** International organizations, NGOs, and women’s rights movements work collaboratively to advocate for gender equality, share best practices, and support national efforts to address challenges within families. **Knowledge Sharing and Capacity Building:** Sharing knowledge and experiences across borders helps identify effective strategies for promoting gender equality and addressing family-related issues. **Global Norms and Standards:** International agreements and conventions set standards and expectations for governments to uphold gender equality within families and provide a framework for accountability.

These universal aspects highlight the shared challenges and aspirations related to gender equality within families across the globe. Addressing these issues requires collaborative efforts at both national and international levels to create families where women and men, girls and boys, can thrive as equals.

LITERATURE

1. *Promoting gender equality to prevent violence against women. World Health Organization 2009.*
2. *Why do some women experience more violence by husbands than others? summary report Results of the analysis of risk factors for violence by husbands. UNFPA Representative in Viet Nam.2014*
3. *Vision-Online Journal for Sustainability Research <http://wscsd.org/ejournal/spip.php?article109>*

Pardayeva Shahnoza Ziyadullayevna,
O'zbekiston Respublikasi
Qurolli Kuchlari Akademiyasi kichik serjanti

OILA VA JAMIYAT

Annotasiya: *Tarix davomida oilaning ta'lim va jamiyatdagi o'rni beqiyos. Oila ta'lim olish imkoniyatini himoya qilishdan tortib gender me'yorlari bo'lgan davrda ham ta'lim tizimini, ham jamiyat normalarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynagan. Ushbu maqolada azal-azaldan muqaddas dargoh hisoblangan oilaning ta'lim-tarbiya jarayoni va jamiyatdagi ko'p qirrali hissasi hususida fikr yuritiladi, shuningdek, ijtimoiy institutlar uyg'unligi haqida mulohazalar bayon qilinadi.*

Kirish so'zlar: *gender me'yorlar, ta'lim va jamiyat, ijtimoiy taraqqiyot, gender tenglik, inson taraqqiyoti, ajdod-avlodlar, mahalla.*

Abstract: *Throughout history, the role of the family in education and society is incomparable. The family played a decisive role in the formation of both the educational system and societal norms in the age of gender norms, from protecting the opportunity to education. In this article, the family, which has been considered a sacred place since time immemorial, reflects on the multifaceted contribution of the family to the education process and society, as well as comments on the harmony of social institutions.*

Keywords: *gender norms, education and society, social development, gender equality, human development, ancestors, makhalla.*

Oila – muqaddas qo'rg'on. Qo'rg'oningiz butun ekan, ko'nglingiz xotirjam bo'ladi. Shu bois yurtdoshlarimiz bir-birlaridan oilangiz tinchmi, hamma salomatmi deya holahvol so'raydilar. Xalqimiz oilani asrashni muqaddas vazifalardan biri, deb biladi. Bu tuyg'u necha asrlar davomida otadan o'g'ilga o'tib kelmoqda. Kuzatgan bo'lsangiz, endigina tetapoya bo'layotgan o'g'il-qizlar ham oila a'zolarini darhol ajratib olib, ularga taqlid qila boshlaydi. Oila qanchalar muqaddas maskan ekani ularning ongiga bolaligidanoq muhrlanib boradi. Shu bois ham ayrim mamlakatlarda uchrayotgani kabi, yurtimizda qonunlar, qarorlar va farmoyishlar chiqarib, oila mustahkamligi, farzand tarbiyasi va tug'ilishni nazorat qilishga hojat yo'q. Urf-odat va an'analarimiz, madaniyatimizdan ozuqa olgan o'g'il-qizlarimizning fitratiga yoshliklaridan ot-onalariga ko'mak berish, so'ngra o'z oilalari uchun qayg'urish hissi singib boradi.

Zero, muqaddas zaminimizda qadimdan milliy urf-odat va an'analarimizni yosh avlod ongiga singdirishda, ularni jismonan barkamol, ma'nan yetuk, mehr-oqibatli insonlar qilib tarbiyalashda oila muhiti muhim o'rin egallab kelgan. Keksalarning ibratli hayot yo'li, o'g'itlari, yillar silsilasida toblangan tajribasi yoshlarimizning to'g'ri yo'lni tanlashlarida yo'l boshchi vazifasini o'tamoqda.

Oila jamiyatning o'zagi hisoblanadi, chunki u oila a'zolarining shaxsiy ta'sirini ko'rsatadigan maskandir. Bu qadriyatlarni singdirish va o'zgarishlarni yaratish uchun eng qulay va ayni muddoa joy. Har bir oila bir-birigga 'ygan maqsadiga erisha olishi va yordam berishi va bir-birlarini gullab-yashnashi va yuksak marralarni zabt etishlari

mumkinligiga ishonsa, jamiyatda ulkan ijobiy yangilanishlar amalga oshirishi mumkin. Boshqa tomondan, agar oilalar qashshoqlik va umidsizlikka tushib qolsa, jamiyat ham qashshoqlashib boradi. Birgina oila haqida so‘z borganda, oilaning jamiyatga ta’siri shu qadar sezilarli emas. Biroq, oilalar haqida umumiy gap ketganda, bu juda katta yutuq va zafarlar asosi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Har bir shaxs bir-biriga bog‘langan jamoalarda bir-biriga ta’sir qilgani sababli, barcha ijobiy o‘zgarishlarga erisha oladi. Oilaning jamiyatdagi o‘rni jamiyatimiz kelajagini belgilovchi asosiy poydevorini yaratadi.

Tarixga nazar tashlasak, ota-bobolarimiz oilaga juda katta e’tibor berganliklarining shohidi bo‘lamiz. Buyuk ajdodlarimiz Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy singari allomalarimizning asarlarida ham oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, bola tarbiyasida ota-onaning, oilaning o‘rni masalasiga alohida ahamiyat qaratilgan. Ibratli hikoyatlar, rivoyatlar, farzandlariga maktublar, hikmatli so‘zlar orqali nasihatlarini, hayotiy xulosalarini qoldirganlar. XX asr Jadid adabiyotining yirik namoyondalari Maxmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon kabi ma’rifatparvar ziyolilar barkamol avlodni tarbiyalashning yagona chorasi oila asoslarini to‘g‘ri qurish ekanini, oilani mustahkamlamasdan jamiyat taraqqiyotiga erishib bo‘lmasligini o‘zlarining noyob asalarida ko‘rsatib o‘tganlar. Farzandlar intizom va oilaviy qadriyatlarni o‘rgatadigan mehribon oilaning bir qismi bo‘lsa, ular yaxshi va yomonni o‘rganadilar va mustahkam qadriyatlarga singib ketadilar. Bu mustahkam oilaviy qadriyatlar ularning shaxsiyatining poydevoriga aylanadi. Bu esa ularning kimligining ko‘rsatuvchi asosiy negizdir. Bizning qadriyatlarimiz bizga bir-birimizga qanday munosabatda bo‘lishni, hurmat qilishni o‘zimizdan boshlashni va asl maqsadimizga eltuvchi yo‘lni topishni o‘rgatadi.

Misol uchun, agar biz o‘z oilamizda shaxslarning tengligini va shaxslarning oldidagi mas’uliyatni nimaligini uqdirsak, o‘rgatsak bunga javoban, har bir oila a’zosi jamiyatni qo‘llab-quvvatlashga harakat qiluvchi shaxsga aylanadi. Har bir oilaning o‘zi, aslida, biz o‘zimizni qadrlashimiz va katta manfaatlar uchun qo‘llab-quvvatlashimiz mumkin bo‘lgan ijtimoiy institutdir. Er-xotinlar odatda ko‘proq moliyaviy yordam taklif qilishlari va bolalarni ijtimoiylashtirishga ko‘proq vaqt ajratishlari lozim.

Asosiy qomusimiz, Konstitusiyaning 14-bobida ham oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini ekanligi, jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lishi qat’iy belgilab qo‘yilgan. Oila kodeksi va boshqa qonunlar orqali yosh va ko‘p bolali ayollarni ishga qabul qilishda imtiyozlar belgilangan.

Yangi oila qurayotgan yoshlarning tibbiy ko‘rikdan o‘tayotgani, homilador ayollar, bolalarning bepul tibbiy xizmatdan foydalanayotgani oilada sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Erkak va ayollar nafaqat zaruriy ma’lumotlarni olish, balki xavfsiz, samarali, arzon usullar bilan tug‘ilishni boshqarish, sifatli tibbiy xizmat olish huquqiga ham egadirlar. Bu huquq ayollarga homiladorlik davrida sihat-salomatlik, er-xotinga esa



sog‘lom avlod tarbiyalash imkoniyatini beradi. Har bir inson o‘zining reproduktiv salomatligini doimiy nazorat qilishi lozim. Reproductiv salomatlik insonning faqat ma’lum kasalliklari yoki biron-bir majruhligigagina taalluqli emas, balki uning to‘liq jismoniy, aqliy va ijtimoiy ravnaqi holati hisoblanadi. Reproductiv huquq esa er-xotin va shaxslarning ongli ravishda o‘z farzandlari sonini rejalashtirishi, ularning tug‘ilish vaqtini, tug‘uruq oralig‘ini belgilashidir. Reproductiv salomatlikni muhofaza qilishda xavfsiz homiladorlik, bexatar tug‘uruq, chilla davridagi malakali yordam, abortning oldini olish, tug‘uruqlar oralig‘ini 2-3 yil saqlash, zamonaviy kontraseptiv vositalar haqida aholiga keng ma’lumot berish, OITSning oldini olish, tashhislash va davolash, bepushtlik, saraton va saraton oldi holatining oldini olish, ko‘krak suti bilan boqish targ‘iboti, onalik va bolalik muhofazasi, o‘smirlar reproduktiv salomatligi va jinsiy tarbiyasi singari 12 ta tamoyil mavjud. Qarindosh-urug‘lar o‘rtasidagi nikoh, erta homiladorlik, alkogol, narkotik moddalarni iste‘mol qilish, chekish va uning homilaga ta’siri, ekologiya va ijtimoiy holat reproduktiv salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sirasiga kiradi.

“Bir farzandga yetti mahalla ota-ona” naqli hammaga ma’lum. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari orqali kam ta‘minlangan oilalardagi yoshlarga nikohdan o‘tish va to‘y marosimlari uchun qo‘shimcha moddiy yordam ko‘rsatish an‘anasi tobora keng quloq yoyayotgani xalq maqollarining amaldagi ifodasidir. Jumladan, mahallalarda nikohi bekor bo‘lgan va boquvchisini yo‘qotgan oilalar farzandlarini ijtimoiy himoyalash borasida “Mahalla” jamg‘armasi bo‘lim va bo‘linmalari tomonidan hamda homiylar hisobidan moddiy yordamlar ko‘rsatilmoqda. Xayrli ishlarni amalga oshirish hukumatimiz, qolaversa, o‘zini o‘zi boshqarish organlari vakillarining doimiy diqqat markazida. Bu, o‘z navbatida, mahalla hamda oila o‘rtasidagi o‘zaro hamjihatlikni, bir-biriga bo‘lgan ishonch va birdamlikni yanada yuksak pog‘onaga ko‘tarishga xizmat qilamoqda.

Shuningdek, yoshlar va yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘lgan shaxslarga davlat va xususiy banklar tomonidan imtiyozli hamda iste‘mol kreditlari ajratilmoqda. Respublika miqyosida turli sohaga ixtisoslashtirilgan zamonaviy zavod va fabrikalar, qo‘shma korxonalar, sexlar, maishiy xizmat ko‘rsatish shoxobchalari hamda o‘quv muassasalarining bunyod etilishi ishsizlar sonining kamayishiga, moliyaviy ahvolning yaxshilanishiga zamin yaratmoqda.

Olib borilayotgan islohotlarning negizida ham xalq farovonligi, mamlakat tinchligi, oilalar mustahkamligi va barkamol avlodni tarbiyalashdek ezgu maqsadlar yotadi. Ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida olib borilayotgan oqilona siyosat, Inqirozga qarshi choralar dasturi va shu asosdagi sa’y-harakatlardan jahonning turli mamlakatlari andoza olish harakatida ekanligi kishining o‘z-o‘ziga, kelajakka bo‘lgan ishonchini yuksaltiradi.

Oilaga qaratiladigan e’tibor birinchi o‘rinda turishi lozim. Har bir oila jamiyat uchun muhimr, chunki ular tsivilizatsiya, ijtimoiy munosabatlar va aholi qadriyatlarining



asosi hisoblanadi. Oila jamiyatga qanday foyda keltiradi? Baxtli, sog‘lom oilalar jamiyatning o‘z hissasini qo‘sha oladigan shaxslarni tarbiyalaydi. Ular bir-birini mustahkamlashga yordam beradigan qo‘llab-quvvatlash tizimiga ega. Boshqa tomondan, nosog‘lom uy sharoitida voyaga yetgan shaxslar jamiyatning bir qismi bo‘lib qoladilar. Mustahkam, sog‘lom, baxtli oilalar jamiyat uchun zarurdir. Ular bizga jamiyatimizning bir qismi bo‘lish, o‘zimizni zamonga mos holda faoliyat yuritish va pirovardida eng yaxshi shaxs bo‘lishni o‘rgatadi. Qachonki buni uddalay olsak, kuchli jamiyat va sivilizatsiya qura olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Shayx Muhammad Sodiq, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Baxtiyor oila, “Hilol-Nashr” nashriyoti, 2023.*
2. *Fitrat Abdurauf., Oila yoki uni boshqarish tartiblari / Tarjima va izohlar muallifi Sh. Vohidov. 2-nashr. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. -112 b.*
3. *Alimov U. Oilada farzand tarbiyasi. Toshkent, 2014, - 456 b.*
4. *Safarov O., Mahmudov M. Oila ma’naviyati. Toshkent, 2009. -248 b.*

Янгибоева Дилдорахон Рахмон кизи

Базовый докторант

научно-исследовательский институт «Семья и гендер»

ОСОЗНАННАЯ МНОГОДЕТНОСТЬ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЯВЛЕНИЕ

Аннотация: Распространение последствий трансформации семьи наряду с высоким уровнем смертности населения в свою очередь способствовали возникновению неблагоприятной демографической ситуации, выражающейся в устойчивом сокращении численности населения страны. В связи с этим решение обозначенных проблем видится в распространении многодетных семей, характеризующихся сознательным рождением детей и осознанным выполнением основных социальных функций, связанных с их воспитанием и уходом.

Ключевые слова: семья, многодетность, трансформация, традиции, родительство, установки.

Abstract: The spread of the consequences of family transformation, along with the high mortality rate of the population, in turn contributed to the emergence of an unfavorable demographic situation, expressed in a steady decline in the country's population. In this regard, the solution to the identified problems is seen in the spread of large families, characterized by the conscious birth of children and the conscious performance of basic social functions related to their upbringing and care.

Keywords: family, large families, transformation, traditions, parenthood, attitudes.

Введение. Многодетность в контексте происходящей новой волны индустриализации является фактором, влияющим на устойчивое развитие общества. Тем не менее, отношение к многодетности, оценка значимости данного феномена в аспекте регулирования общественных отношений неоднозначны, что продолжает привлекать внимание исследователей из различных отраслей наук. Современное развитие института семьи, трансформация традиционных патриархальных принципов ее функционирования, а также формирование новых моделей семейного взаимодействия приводят к необходимости исследования семьи на основе методологических принципов социального проектного конструирования реальности.

Актуальность обращения к феномену многодетности объясняется негативными демографическими тенденциями последних десятилетий. Многодетность как многомерное явление является результатом влияния множества внешних (находящихся во всех сферах общественного воспроизводства) и внутренних (порожденных социально-психологической сущностью самого человека, его внутренними представлениями и установками) факторов.

Методы. В последние годы зарубежные исследователи достаточно часто обращались к теме факторов влияния на репродуктивные установки и размер

семьи. Достаточно много исследований было проведено для подтверждения гипотезы о влиянии пронаталистической политики на рождаемость. В работах В.Н.Архангельского раскрываются вопросы изменения репродуктивного поведения на различных исторических этапах перехода от много- к среднедетному и малодетному образу жизни. Альтернативный подход связан с рассмотрением в настоящее время тех или иных приоритетных стратегий жизни и выбора структуры ценностных ориентаций у супругов в системе этнодемографической и социально-экономической детерминации поведения личности и существующих в макрорегионе исторических форм демографического перехода и понимания на обыденном уровне задач «планирования семьи».

Проблеме изучения феномена родительства в отечественной и зарубежной науке посвящено достаточно много работ. К числу наиболее значимых среди них необходимо отнести исследования А.И.Антонова, А.Бертина, В.А.Борисова, Н.А.Гительсона, И.В.Добрякова, В.Н.Дружинина, М.О.Ермихиной, Н.П.Коваленко, И.С.Кона, Р.В.Овчаровой, П.А.Сорокина, Г.Г.Филипповой. Однако, хотя проблемы, связанные с феноменом родительства, относительно неплохо изучены, его сущность до сих пор полностью не раскрыта [1].

Родительство определяется как сложное социальное явление, выступающее обязательным условием обеспечения воспроизводства будущего поколения, а также значимым компонентом личностной сферы человека. Также данное понятие рассматривается и как социокультурный феномен, отражающий ход развития человеческой культуры и накопленного социального опыта и являющийся своеобразным индикатором состояния общества.

В понимании Р.В.Овчаровой родительство представляет собой сложное социальное образование, выступающее компонентом структуры общества, который выполняет специфические функции в тесном взаимодействии с остальными структурными компонентами общественной системы. Кроме этого, структура родительства, как подчеркивает исследователь, включает совокупность субъектов, разные по характеру отношения, события, процессы и социальную практику, формирующуюся и поддерживающуюся обществом, а также возобновляющуюся в процессе жизнедеятельности индивидов, интегрирующихся в общество [2].

Результаты. Родительство играет важную роль в жизни детей, на протяжении жизни которых родители продолжают оставаться значимыми фигурами. При этом феномен родительства включает материнство и отцовство, каждое из которых обладает своими специфическими функциями и социальным, экономическим и правовым статусами. В свою очередь материнство выступает своеобразным гарантом стабильности и репродукции общества, находящимся между природой и культурой, что определяет его уникальность и ценность. Суть исторически возникшего в моногамной семье отцовства, одного из основных

проявлений мужской идентичности, состоит «в готовности мужчины взять на себя ответственность за содержание и воспитание своих детей» [3].

Анализ конструирования семейной реальности в методологическом контексте предполагает рассмотрение проблем семьи с точки зрения внешнего формирования практик, разработки и реализации социальных проектов, планов и социальной политики в целом, направленной на регулирование и развитие семейных отношений в трансформируемом обществе. В рамках концепции социального конструирования повседневной жизни семья – это качественно саморазвивающаяся минисистема, представляющая собой социальную реальность, которая, с одной стороны, может интерпретироваться и оцениваться людьми, с другой – имеет для человека субъективную ценность и значимость в форме качественно цельного конструкта [4].

В работах Т.Аренделла при исследовании феномена современного родительства выделяются два основных тренда, в рамках которых родительство рассматривается как место родителя в современном обществе и как практика воспитания детей, в том числе включающий опыт воспитания и переживание собственной успешности как родителя — родительскую самоэффективность [5]. Формирование осознанного родительства, по представлению Е.И.Захаровой, осуществляется задолго до начала реализации роли родителей. В частности, это формирование происходит в процессе наблюдения за родителями и старшим поколением, что позволяет подготовиться к реализации собственных родительских ролей [6].

Не менее значимым фактором, детерминирующим многодетность, является ценность здоровья, занимающая в сознании будущих родителей одно из лидирующих мест в системе других ценностей. Необходимо отметить, что рассматриваемый фактор определяется как ключевой, так как состояние здоровья оказывает непосредственное влияние на трудоспособность и связанное с ней материальное положение индивидов, а значит и на возможность и способность воспитывать и растить детей.

Дискуссия. Исследования А.Синельникова свидетельствуют о влиянии религиозных установок на формирование мотивов рождения детей и репродуктивное поведение индивидов. Однако, как отмечает автор, данное влияние в большей степени характерно для формирования мотивов рождения первого и второго ребенка в семье, в то время как многодетность по-прежнему остается в меньшинстве.

Преобладающим компонентом «в родительской мотивации является репродуктивный мотив, содержание которого определяется ценностно-смысловыми установками самих родителей». В содержании репродуктивной мотивации многодетных родителей исследователями выделяются следующие параметры:

- любовь к детям, отражающая индивидуальную направленность личности на рождение и воспитание детей — чадолюбие (В.В.Бойко);
- сильная потребность в наличии собственных детей (А.И.Антонов);
- реализация мотива поддержания социального статуса взрослого, выражающегося в достижении социальной идентичности личности, в том числе продлении своего рода;
- обеспечение условий, при которых дети могли бы общаться и гармонично развиваться;
- «низкая выраженность мотивов ограничения числа детей [7].

Многодетность, с точки зрения Г.А.Баннхих и его соавторов, определяется как сложный социокультурный и экономический феномен, основу которого составляет запланированное репродуктивное поведение, в том числе потребности индивидов, исходящие из культурно-нравственных, национальных и религиозных стереотипов и норм. Следовательно, осознанную многодетность следует рассматривать как запланированную многодетность [8].

Сложность усиливается еще и тем, что в известных теориях не встречается попыток исследования внутрисемейных проблем через призму анализавнешних механизмов конструирования семейных отношений. На практикепроявляются факты несоответствия аспектов внешнего социального конструирования семейных отношений, направленного на динамичное развитиечеловеческого капитала, и процесса обострения социально-экономическихпротиворечий функционирования семьи. Однако в целом всегда можно выявить факторы торможения, наметить пути обновления внешнего механизма конструирования социальных семейных отношений и процесса разрешения проблем внутрисемейного функционирования.

Заключение. При этом с увеличением количества детей в семье увеличивается и родительский опыт, являющийся неотъемлемой составляющей общей структуры родительства и складывающийся из совокупности опыта отца и матери. В соответствии с этим можно сделать вывод, что в семьях с тремя и более детьми факторы формирования установок на многодетность определяют родительскую опытность и повышение стремления стимулировать развитие детей. Следует отметить, что современный институт родительства претерпевает существенные изменения.

Список литературы:

1. Ананьева Н.Н. Субкультура многодетной семьи в современном обществе // Вестник славянских культур. № 3 (37). С. 99–104.
2. Баннхих Г.А. и др. Феномен многодетности в России: социологический анализ изменений / Г.А.Баннхих, Е.В.Зайцева, С.Н.Костина, А.И.Кузьмин [Электронный ресурс] // Вопросы управления. № 1. С. 22–36. URL:

3. Бодров А.В., Боярова Е.А. Образ многодетной семьи в зеркале общественного мнения // Вестник Саратовского государственного социально-экономического университета. № 5 (64). С. 84–89.
4. Борисов В. А., Антонов А.И. Кризис семьи и пути его преодоления: науч. докл. Ин-т социологии АН СССР. Сектор социал. пробл. семьи. М. : ИС. 36 с.
5. Дружинин В.Н. Психология семьи. М. : КСП. 156, 211 с.
6. Заливухина Е.В. Малодетность и бездетность в контексте современного родительства // Вестник Санкт-Петербургского университета. Серия 12: Психология. Социология. Педагогика. Вып. 4. С. 375–381.
7. Захарова Е.И. Представление о характере социальной роли, как средство ориентировки в ее исполнении // Культурно-историческая психология. № 4. С. 38–41.
8. Луценко Э.М., Некрасов С.И. К вопросу о понятии «родительство» и его сущности // Ученые записки Орловского государственного университета. № 2 (58). С. 124–127.

Турғунбоева Дилшода Азамжон қизи
Андижон давлат университети
магистранти

ДЕМОГРАФИК ЖАРАЁНЛАРДА ОИЛАНИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ

Аннотация: Ушбу мақолада демографик жараёнларда жамиятнинг, оиланинг ташкил топиши, демограф олимларнинг никоҳ, фарзанд, ва оиланинг вужудга келиши борасидаги тадқиқотларининг вужудга келиши оилада гендер тенглиги ва фарзандлар сонининг кўплиги оилаларда мигратсиянинг оқибатлари ҳақида ёритилган.

Калим сўзлар: Муҳожир, мигрант, қишлоқ, аҳоли пунктлари, гендер тадқиқотлари, иммигрантсия, ноқонуний мигратсия, мигратсия оқимлари.

Abstract: In this article, the formation of the society, family formation, demographers' studies on marriage, children, and the formation of the family, gender equality in the family and the consequences of migration in families with a large number of children are highlighted in this article.

Key words: Immigrant, migrant, village, settlements, gender studies, immigration, illegal migration, migration flows.

Демографик жараёнлар аҳоли сони, таркиби ўзгаришида асосий омил бўлиб, бугунги глобаллашув даврида мамлакатлар иқтисодий ривожланишида инсон омили, унинг такрор барпо бўлишига катта аҳамият берилмоқда.

Ўзбекистон жадал иқтисодий ижтимоий ривожланаётган бугунги кунда мамлакатдаги аҳоли сони, жойлашуви, унинг ёш ва жинсий таркиби ва сифат ўзгаришлари эътибор марказида бўлиши керак. Ўзбекистонда демографик жараёнлардаги ўзгаришларнинг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти йил сайин ортиб бормоқда.

Демография аҳолининг такрор барпо бўлиш қонуниятларини ижтимоий тарихий шароитларга боғлиқ ҳолда ўрганувчи фандир. «Демография» - юнонча «демос» - халқ, аҳоли ва «графо» - ёзаман сўзларидан олинган [97; 5-б.]. Демографиянинг ўрганиш объектига кўплаб фикрлар ва қарашлар мавжуд бўлиб, уларнинг замирида аҳолининг такрор барпо бўлиши жараёни туради. Профессор Б.Ц.Урланис “Демография – бу ижтимоий, иқтисодий, географик ва биологик омиллар асосида аҳоли жойлашуви, динамикаси жараёнлари қонуниятларини ўрганади ва шу асосда аҳоли назарияларини ривожлантирадиган фан” деб ёзади [33; 42-б.]. Бунда асосий эътибор аҳоли жойлашуви омиллари ва динамикасига қаратилади.

Рус олимлари Д.И.Валентей, А.Я.Квашалар “Демография-аҳоли кўпайишининг ижтимоий-иқтисодий қонуниятларини ўрганувчи” фан сифатида таъриф беришган [33; 43-б.].

Демограф М.Бўриева демографияга қуйидагича таъриф берган “Демография - аҳолининг такрор барпо бўлиш қонуниятлари ҳақидаги фан бўлиб, бу жараёни

ижтимоий-тарихий шарт-шароитларга боғлиқ ҳолда ўрганади, омилларини, муаммоларини аниқлаб, истикболини белгилаб беради” [27; 8-б.].

Ўзбекистон миллий энциклопедиясида демографияга қуйидагича таъриф берилган: “Демография – ҳар йили турли сабабларга кўра вафот этган аҳоли ўрнини янгидан дунёга келган авлод ҳисобига тўлдириб борилиши қонуниятларини ижтимоий-тарихий шароитларга боғлиқ ҳолда ўрганадиган фан” [123; 248-б.].

Юқоридаги фикрларни умумлаштирган ҳолда шуни таъкидлаш лозимки, демография - вафот этган аҳолининг ўрнини туғилганлар ҳисобига тўлдириб борилиши ва унинг қонуниятларини ўрганувчи фандир. Бу эса аҳолининг такрор барпо бўлиш жараёнини билдиради. Аҳолининг такрор барпо бўлиши натижасида аҳолининг сони, ёш ва жинсий таркиби доимий ўзгариб туради. Демографиянинг асосий ўрганиш предмети ҳам аҳолининг такрор барпо бўлиш қонуниятларини ўрганиш ҳисобланади.

Аҳоли такрор барпо бўлишдаги асосий жараёнлар туғилиш ва ўлимни ўрганишда XVII асрнинг иккинчи ярмида яшаган, инглиз олими Д. Граунт тадқиқотлари алоҳида аҳамиятга эга. Д. Граунт Лондон шаҳрида аҳоли ўлими ҳақидаги 80 йиллик статистик маълумотларни ўрганиб чиқиб, 1662 йилда 90 бетдан иборат “Ўлим ҳақидаги бюллетенлар асосида олиб борилган ва мундарижада илова этилган табиий ва сиёсий кузатишлар натижалари кўрсатилган шаҳарнинг бошқаруви, дини, савдоси, ҳавоси, аҳоли ўсиши ва бошқа ўзгаришлар хусусида Лондон фуқароси Джон Граунтнинг асари” китобини ёзди. Муаллиф статистик кузатиш асосида аҳолининг ўлим ҳолати ва ўлимнинг ёш гуруҳлари бўйича алоҳида ўрганган ҳамда ўлим жадвалини ишлаб чиққан. Туғилишнинг қишлоқ ва шаҳардаги фарқлари, аҳоли миграциясини ҳам таҳлил этган [27; 13-б.].

Аҳолининг такрор барпо бўлиши жамият давомийлигини таъминловчи асосий жараён бўлиб, туғилиш ва ўлим жараёнлари натижасида, инсон авлодининг мунтазам янгилашиб туришидир ёки бир авлод вакиллариининг ўрнига иккинчи бир авлод вакиллариининг келиши, авлодлар алмашилишидир.

Авлодлар алмашилиши давомида (аҳолининг такрор барпо бўлиши) унинг сони, ёш ва жинсий таркиби ўзгаради. Авлодлар алмашилгани аҳоли табиий ўсиши ҳажмини аниқлаш, ҳар бир авлод ўртача умр кўриши, туғилиш ва ўлим жараёнлари йиғиндиси аҳолининг табиий ҳаракати ёки такрор барпо бўлиши дейилади. Аҳолининг такрор барпо этилиши бевосита ва билвосита аҳолининг туғилиши, ўлими ва табиий ўсишига боғлиқ. Жамиятда авлодлар алмашинади, аҳоли такрор барпо бўлади, натижада, аҳоли сони ўсади.

Аҳоли такрор барпо бўлишида табиий-биологик омил муҳим ўрин тутаети. Ер юзи аҳолиси турли табиий шароитда яшайди, туғилади ва вафот этади. Инсоннинг туғилиши ва ўлиши каби биологик ҳодиса экан, у табиий шароит билан узвий боғланган бўлади.

Жамият давомийлигини таъминловчи инсон ижтимоий-иқтисодий, ижтимоий, маданий ва психологик омиллар таъсирида шаклланади ва ривожланади. Аҳоли табиий ўсишида унинг ёш-жинсий таркиби, никоҳ ва ажралиш жараёнлари ҳам муҳим ўрин тутди. Буларнинг барчаси демографик омиллар сирасига киради. Маълумки, туғилиш қанчалик кўп бўлса, аҳоли сони ҳам шунчалик тез ўсиб боради, аҳоли таркибида болалар ва ёшлар миқдори ортади. Аксинча, туғилиш камайса, аҳолининг ёш ва жинсий таркибидаги ўзгаришлар рўй беради ва қариялар миқдори ортиб боради.

Юқоридаги омиллар аҳоли такрор барпо бўлишига турлича таъсир кўрсатади. Улар орасида ижтимоий-иқтисодий омил аҳоли табиий ҳаракатида муҳим рол ўйнайди. Аҳолининг яшаш шароити, тиббиётнинг ривожланиш ҳолати, аёлларнинг жамиятда тутган ўрни, аҳолининг маълумотлилиқ даражаси ва бошқа омиллар аҳоли табиий ҳаракати даражасини белгилаб беради. Ўз навбатида ушбу омилнинг туғилиш ва ўлимга акс таъсири ҳам бўлиши мумкин. Аҳолининг яшаш шароити, турмуш тарзи яхшиланиши, тиббий хизмат каби соҳаларнинг ривожланиши ўлим кўрсаткичини пасайтиради, аҳоли ўртача умр кўриш даражасини ортишига олиб келади. Натижада, аҳоли таркибида қариялар салмоғи ортади ва ўз-ўзидан ўлим кўрсаткичи кўпая бошлайди.

Инсонлар ўз ҳаётлари давомида бошқа инсонларни дунёга келишига омил бўлади. Аҳолининг такрор барпо бўлиши ижтимоий муҳит учун ҳам муҳим омил саналади. Айни вақтда, инсонлар ўз ҳаётлари учун зарур нарсаларни (озик-овқат, турар-жой ва кийим-кечак ва бошқ.) яратиш, ишлаб чиқаришни ривожлантиради. Бу жараёнда инсоннинг билим даражаси, малакаси, ҳаётга, узоқ умр кўришга бўлган интилиши, ҳаракати кучайиб боради. Бинобарин, дунёга келган инсон жамиятда яшаши билан унинг сифатий хусусиятлари ҳам ривожланади.

Моддий жиҳатдан яхши таъминланган оилаларда фарзандлар сони кам бўлади, – деб Б.С.Урланис, – демографик омилга иқтисодий омилнинг кўрсатаётган таъсирини ифодалаб берди [88; 121-б.]. Шунингдек, у моддий омил билан маънавий омилнинг авлодлар алмашинувида ҳамма бир хил таъсир этмаслигини ҳам айтиб ўтади.

Демографик жараёнлар, аҳолининг табиий кўпайиши нафақат объектив омилларга, балки *никоҳ-оила* муносабатлари, ўзларининг хоҳиш-истакларига ҳам боғлиқдир. Бугунги кунда ёшларнинг ўз оилаларини онгли равишда режалаштираётганлигини келтириш мумкин. Бундан ташқари, туғилиш даражасига никоҳ ва ажралишлар миқдорининг ўзгариши ҳам катта таъсир қилади. Ёш оилаларда уй-жой муаммоси, яшаш жойини ўзгартириши, шунингдек, *аёлларнинг ижтимоий ишлаб чиқаришига кенг жалб қилинганлиги* туғилиш даражасининг камайишига олиб келувчи асосий омиллардан биридир. Бундай муаммо ва жараёнлар кўп ҳолларда шаҳарларга хосдир.

Аҳолининг миллий ва этник таркиби ҳамда урф-одатларининг ўзига хос хусусиятлари туғилиш ва аҳолининг такрор барпо бўлишида муҳим аҳамиятга

эга. Масалан, кўплаб халқларда таркиб топган урф-одатларига кўра кўп фарзанд кўриш хунузгача сақланиб келмоқда. Ушбу ҳолат яқин йилларгача мамлакатимизда маҳаллий, айниқса қишлоқ жойлари аҳолиси учун хос бўлиб келган. Лекин, юқорида келтириб ўтилган омиллар натижасида аҳолининг ўсиш суръати анча камайиб кетди.

Аҳоли такрор барпо бўлишида *миграция*, айниқса ташқи миграциянинг аҳамияти катта. Аҳоли миграцияси нафақат аҳоли сонининг ўсиши ёки табиий кўпайишига, балки унинг ҳудудий тақсимланиши, жойланишига, аҳолининг ёш-жинс, миллий ва ижтимоий таркибининг ўзгаришига ҳам олиб келади. Ўз навбатида, ушбу жараённинг содир бўлишига у ёки бу ҳудудда ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ва экологик омиллар сабаб бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Абдурахмонов Қ., Абдураманов Х. *Демография*. –Т.: Ношир, 2011. –296 б.
2. Алиакберова Н.М, Гольдфарб Б.Я., Эргашев А. *Размещение населения Ферганской долины*. Т.: Фан, 1990. -100 с.
3. Асанов Г. *Социал иқтисодий география // термин ва тушунчалар изоҳли лугати*. –Т.: Ўқитувчи, 1990. –Б. 7-8.
4. Асанов Г., Набихонов М., Сафаров И. *Ўзбекистоннинг иқтисодий ва ижтимоий жўгрофияси*. –Т.: Ўқитувчи, 1994. –209 б.
5. Ата-Мирзаев О.Б. *Региональное прогнозирование расселения и управление процессом урбанизации*. – Т.: Фан, 1979. – 92 с.
6. Ата-Мирзаев О.Б., Қаямов А.А. *Народанаселения Узбекистана: демографическая ситуация, политика, экология // Экономика и статистика*. 1996. №5
7. Ата-Мирзаев О.Б., Қаямов А.А. *Оилани режалаштириши нима // Шарқ юлдузи*, 1990. №12. –Б 168-173.
8. Аҳмадалиев Ю. *Ер ресурсларидан фойдаланиш геоэкологияси*. –Т.: *Fan va texnologiya*, 2014. –340 б

Gulnoza Nuraliyeva Abduqodir qizi,
O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi
Islomshunoslik yo'nalishi talabasi

XOTIN-QIZLARNING IQTISODIY MUSTAQILLIKKA ERISHISH YO'LLARI VA USULLARI

Annotatsiya. Hozirgi kunda ayollarni iqtisodiy jihatdan mustaqil qilishning turli yo'llari shaklanib kelmoqda va bundan tashqari xotin-qizlar o'z mulklarini mustaqil boshqarishlari ham asosiy masalalardan biriga aylanib bormoqda. Maqolada ayollarni iqtisodiy jihatdan mustaqil qilishning turli yo'llari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy mustaqillik, mahr, nafaqa, ribo, psixologik trening.

Abstract. Currently, various ways of making women economically independent are emerging, and besides, women's independent management of their property is becoming one of the main issues. The article shows various ways to make women economically independent.

Keywords. Economic independence, dowry, allowance, ribo, psychological training.

Kirish. Insonning iqtisodiy mustaqilligi deganda uning yashashi va xo'jalik faoliyatini yuritish uchun zarur bo'lgan huquqlari majmuyi tushuniladi, ya'ni har bir insonda mehnat qilish, shaxsiy mulkni tasarruf qilish, o'z manfaatlarini himoya qiluvchi birlashma va tashkilotlarga a'zo bo'lish va shu kabi bir qancha boshqa huquqlar bor. Bundan tashqari O'zbekiston aholisining katta qismi e'tiqod qiladigan islom dinida ham ayollarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash muhim o'rin egallaydi. Islom dinida ayollar o'zlarining mol-mulkini erkin tasarruf qilish huquqiga ega. Ularning mol-mulkari asosan mahr, nafaqa bundan tashqari o'z mehnatlari evaziga keladigan moddiyatlardir. Alloh taolo Qur'oni Karimda “Erkaklar ham o'z kasblaridan ulush olurlar, ayollar ham o'z kasblaridan ulush olurlar²⁰”(Niso surasi. 32-oyat) degan mazmunidagi oyatni nozil qilgan. Bundan ham ayol kishining oiladagi boshqa munosabatlar qatori mulkiy munosabatlarda ham mustaqilligini ko'rish mumkin.

Asosiy qism. Islom dini tarixiga nazar tashlasak, din ilk paydo bo'lgan davrlardan boshlab ayollar ijtimoiy hayotda asosiy o'rinni egallab kelgan. Islomda ayolni tug'ilganidan to umrining oxirigacha kerakli narsalar bilan ta'minlash erkaklar zimmasida ekanligi belgilangan. Og'ir mehnatlarni bajarish ham erkaklar zimmasida ekanligi belgilangan. Islom dini qoidalari ayolni hurmatlab, zarurat bo'lmasa, ishlamasliklariga izn beradi. Shundan ham ko'rinadiki, islomda ayol kishining ishlashi man qilinmagan, balki bu masala ayolning o'zi, jamiyat va oilasi tomonidan kelib chiqib hal qilinadi.

Ulug' sahoba Abu Bakr (r.a)ning qizi Asmo ham tirikchilik qilishda eriga yordam berish uchun ko'chaga chiqqanda, unga Rasululloh (s.a.v) e'tiroz bildirmaganliklari

²⁰ Qur'oni karim: ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: A. Mansur. – Toshkent: TIU, 2009 (Bundan keyin: Qur'oni karim). – 83b.



tarixdan ma’lum. Shundan ham ko‘rinadiki, islom ayollarning hurmat-ehtiromini joyiga qo‘yib, ayollik jozibalarini saqlab qolishlari uchun, ayollik vazifalarini to‘liq ado etishlari orqali o‘z jamiyatlariga, vatanlariga, dinlariga kerakli xizmatni ado etishlari uchun kerakli barcha sharoitni yaratib bergan²¹.

Muslima ayollarning ishlashlari, ta’lim olishlari va janglarda hamshira bo‘lganliklari haqida Imom Buxoriyning “Hadis”lar to‘plamida juda ko‘p misollar keltirilgan²².

Bundan tashqari oyatlarda Alloh taolo erkak va ayolning mulkini alohida qilib ajratib bergani ham aytiladi. Erkak kishi ayolning mulkini tasarruf qilishi mumkin emas. Ayol kishi o‘z mulkini erkin tasarruf etishi, unga egalik qilishi, moliyaviy shartnomalar tuzishi mumkin va bunda u hech qanday vasiylikka muhtoj emas. Chunki u sog‘lom aql egasi hisoblanadi. Bu borada ayollar erkaklar bilan bir xil darajadadirlar. Masalan, islom dinida ayollarni iqtisodiy jihatdan mustaqil qiladigan sohalardan biri sifatida savdo-sotiq faoliyati ko‘rsatiladi. Ayol kishilar savdo qilishlari uchun istalgan iqtisodiyot bilan bog‘liq munosabatlarga kirishishi mumkin²³. Hozirgi kunga kelib islom fiqhi olimlari tomonidan ayollarning savdo bilan shug‘ullanishida bir nechta tamoyillar belgilab berilgan.

1. Savdo jarayonida faqat halol narsalar bilan savdo qilish: ayol kishi savdo qilish jarayonida islomda halol hisoblangan mahsulotlarni sotishi kerak. Masalan, oziq-ovqat, kitoblar, kiyim-kechaklar va shu kabi boshqa mahsulotlar;

2. Iqtisodiy jihatdan tenglik: ayollar savdo jarayonida erkaklar bilan tengdir; bu tamoyilga amal qilish ayollarning iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga yordam beradi. Ayni paytda islomda ribo(foiz) olish taqiqlanadi²⁴.

Ayollarning iqtisodiy jihatdan mustaqil bo‘lishining faqat diniy emas dunyoviy jihatlari ham bor. Hozirgi kunga kelib ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash, ularni ish bilan band qilish davlat darjasida rivojlanib borayotgan asosiy masalalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznes faoliyati bilan shug‘ullanishini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan: “Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmi – 17 millioni xotin-qizlardir. Ularning manfaatlarini ta’minlash, jamiyat hayotidagi o‘rnini mustahkamlash davlatimiz ijtimoiy siyosatining muhim yo‘nalishi”, – deb ta’kidlanishi ham buning yaqqol isbotidir²⁵.

Ta’kidlash joizki, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining 69-maqsadida xotin-qizlarning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorligini qo‘llab-

²¹ Al-Butiy Muhammad sa’id Ramadan. Al-mar’a bayna tug‘yon al-nizom al-G‘arbiy va latoif al-tashri’ al- rabboniy – B. 154-155; Mahmud Hasan al-Labsiy. Hijob va ayolning ishlashi // Bayon lin-nos. T.2. – Qohira, 1994. – B 41.

²² Imom Buxoriy. T.2. – B.256.

²³ N.J.Yusupova, B.B. Mamadiyev, M.M. Xaydarov.Islomda gender tenglikning o‘ziga xos tamoyillari: qo‘llanma/ tuzuvchilar - Toshkent: Baktria press, 2022. -B 142

²⁴ Yusupova J.N ‘‘Islomda ayol huquqlari’’- T: “Akademiya” noshirlik markazi, 2006.- 115b.

²⁵ <https://president.uz/oz/lists/view/4186>



quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to’g’ri yo’naltirish yuzasidan 85-maqсадida ayollar orasidagi ishsizlik darajasini 2 baravar kamaytirish, 700 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizlarni davlat hisobidan kasb-hunarga o’qitish, ish bilan band bo’lmagan xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish va o’zini o’zi band qilish bo’yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish bo’yicha bir qancha vazifalar belgilangan²⁶.

Hozirgi kunda ayollarni iqtisodiy jihatdan mustaqil bo’lishlarini ta’minlash uchun ularga yo’l ko’rsatish ham asosiy masalalardan biri bo’lib qolmoqda. Shu o’rinda “Qanday qilib ayollarning ishlashlariga yoki, umuman, ularning moliyaviy jihatdan mustaqil bo’lishlariga ko’mak ko’rsatilishi mumkin?” degan savol tug’ilishi mumkin. Bu savolga javoban bir nechta echimlarni keltirish mumkin.

Birinchi o’rinda, ayollar uchun o’zlari kabi xotin-qizlar va ularning ishlayotgan sohalari, erishayotgan yutuqlari, orttirgan tajribalari, muvaffaqiyat sirlari, oila va ish faoliyatini qanday shaklda muvozanatda olib borayotganlarini va ularning bu darajagacha qanday qiyinchiliklarni engib etib kelganini yoritib beruvchi turli ko’rsatuv va filmlar tayyorlanishi kerak. Bundan tashqari, ayollarga ularning iqtisodiy jihatdan mustaqil bo’lishlarining ahamiyatini tushuntiruvchi va ularni buning uchun harakatga undovchi turli psixologik treninglar tashkil etilishi zarur. Bunday treninglarni tashkil etishda asosiy e’tibor ayollarning ish bilan band bo’lmagan qatlamiga qaratilishi kerak. Bu kabi treninglar keng ko’lamda ish berishi uchun davlat tomonidan tayinlangan psixologlar tomonidan butun mamlakat miqyosida eng chekka hududlarni ham unutmagan holda, har bir hududdagi xotin-qizlarni qamrab olgan holda ish olib borilishi kerak.

Ikkinchidan, hozirgi kunda yurtimizda faoliyat yuritayotgan ta’lim muassasalarining asosiy qismida ayollar faoliyat yuritib kelayotganini hisobga olgan holda maktabgacha ta’lim muassasalari, maktablar, o’rta va oliy ta’lim muassasalarida oylik maoshlarni oshirish kerak. Xotin-qizlarning aynan mana shu sohalarda faoliyat yuritishining asosiy sababi ham erkak kishi oilaning asosiy boquvchisi hisoblanishi va ayollarning bu sohalar ortidan ishlab topayotgan daromadlari erkaklarning daromadidan ancha kamligi va shu sabab ham ayollarning bu tarmoqlarda ishlab topayotgan pullariga asosiy daromad manbayi sifatida qaralmasligidir. Shuning uchun ham bu kabi tarmoqlarda ayollar faoliyatini yanada qo’llab-quvvatlash va bu orqali iqtisodiy mustaqilliklarini rivojlantirish uchun ularning mehnatiga oladigan haqlarini oshirish uchun zarur choralar ko’rilishi lozim.

Uchinchidan, aynan O’rta Osiyo mintaqasida asrlar davomida shakllangan “ayollar ishlashi kerak emas” degan stereotiplar ustida ishlanishi kerak. Chunki bu ham ishlash uchun turmush o’rtoqlaridan ruxsat ololmagan ayollarning iqtisodiy mustaqil bo’lishiga to’sqinlik qiluvchi omil hisoblanadi. Buning oldini olish uchun

²⁶ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

erkak kishilardagi shu stereotipik fikrlarni o’zgartirish zarur. Buni amalga oshirishda yurtimizda faoliyat yuritayotgan O‘zbekiston Musulmonlar idorasi juma nomozlaridan so‘ng bo‘ladigan ma‘ruzalar safiga shu kabi masalalarni qo‘shish orqali faol qatnashishi lozim. Va oilada erkaklar ayollarning ishlashini qo‘llab-quvvatlashi, bu borada ularga yordam berishi kerak. Bundan tashqari, ayollarni bunday qo‘llab-quvvatlash faqat oilada emas, balki ular faoliyat olib boradigan tashkilotlarda ham bo‘lishi zarur. Ya’ni ish jaroyonida ishchilar ayollar va erkaklar toifasiga ajratilmasligi va ishlar gender tengligiga e’tibor qaratilgan holda olib borilishi lozim. Ish jarayonlarida bo‘ladigan turli yig‘ilishlarda ham ayol va erkak ishchilarning o‘zaro teng shaklda va bir-birlari bilan fikr almashgan holda qatnashishlarini ta’minlash kerak.

To‘rtinchidan, aholi, ayniqsa, ayollar orasida moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan turli tadbir, seminar va sohaning professionallari bilan uchrashuvlar tashkil etilishi kerak. Ular faqat shahar va shaharchalar bilan cheklanib qolmay mamalakatimizning chekka hududlarini ham qamrab olishi zarur. Ish bilan band bo‘lmagan aholining mehnat bozoridagi qobiliyatlarini aniqlash borasida ham o‘rganishlar olib borilishi va o‘rganishlar natijasi amaliyotga tadbiriq etilishi zarur. Bundan tashqari, hududlarda ayollarni kasb-hunarga o‘qitish uchun ochiq dars va turli kurslar ham tashkil etilishi kerak. Birgina tikuvchilikni misol tariqasida oladigan bo‘lsak, bu ayollar tomonidan eng oson shaklda va tezlik bilan o‘zlashtiriladigan hunar hisoblanadi va bu orqali ular daromadga erishishlari mumkin. Hozirgi kunda yurtimizda shu soha bo‘yicha o‘z tadbirkorlik faoliyatini yuritayotgan, hatto chet el bozoriga o‘z korxonasida ishlab chiqargan mahsulotlarini eksport qilayotgan tadbirkor ayollar ham yo‘q emas. Tashkil etiladigan turli xil uchrashuv va konferensiyalarga mana shunday o‘z sohasida yutuqlarga erishgan ayollarni taklif etish va ular tomonidan turli darslarni tashkil etish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Beshinchidan, hozirgi kundagi eng dolzarb masalardan biri bu tejamkorlikning kamayib borayotganligi hisoblanadi. Tejamkorlikning muhimligi haqida Quro‘ni karim oyatlari va Payg‘ambarimizdan kelgan hadislarda ham ko‘plab ishoratlarni ko‘rishimiz mumkin. Payg‘ambarimiz Muhammad (S.A.V) muborak hadislarida: “Xoh boylikda, xoh faqirlikda, xoh ibodatda bo‘lsin, o‘rtahol bo‘lish qanday ham chiroyli²⁷”, deydilar. Boshqa bir hadisda esa “Tadbirkorlik tirikchilikning yarim ilmiga tengdir”, deganlar. Ikkinchi hadisda “tadbirkorlik” deyilganda tejamkorlik nazarda tutilmoqda. Ya’ni, inson qanchalik tejamkor bo‘lsa, u ishidan oladigan daromadini bir yarim baravarga oshirishiga ishora qilinmoqda. Ayollarning tejamkor bo‘lishini oiladan boshlash kerak hisoblanadi. Lekin hozirgi kunda rivojlanib borayotgan zamonda yashayotganimiz uchun ham yoshlar ta’lim va tarbiyani oiladan emas turli ta’lim muassasalaridan olishmoqda. Shu sababli bunday ta’lim muassasalaridagi ta’limni tarbiya bilan integratsiyalashtirilgan holda olib borish va tarbiyadagi asosiy e’tiborni tejamkorlikka ham qaratish lozim. Bundan tashqari, tejamkorlikka targ‘ib

²⁷ <https://mirarab.uz/ruknlar/261>

qiluvchi turli ko‘rsatuvlarni televideniya namoyish qilish ham muhim yordamchi choralardan biri sifatida xizmat qilishi mumkin.

Xulosa. Hayotda har bir kishi o‘z o‘rni va faoliyat sohasida mustaqil bo‘lishni istaydi va hamisha shunga harakat qiladi. Hozirgi kunga kelib xotin-qizlar erkaklar bilan bir qatorda davlatning asosiy ishchi kuchlaridan hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda, yurtimizda gender tengligini mustahkamlash va ayollar huquqlarini himoya qilish borasida juda ko‘plab qonunlar chiqarilmoqda, ularning tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishlari va boshqa sohalarda ishlashlari har tomonlama qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini yanada oshirish uchun juda muhim deb hisoblangan tamoyillar va ularni amalda joriy qilish uchun davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

1. Ta’lim sohasida ayollarning rolini oshirish: Xotin-qizlarning ta’lim olishlari, malakalarini rivojlantirishlari, o‘z sohasida yuqori ko‘nikmaga ega bo‘lishlari, kasb-hunar ko‘nikmalarini o‘rganishlari, yaratuvchanlikni rivojlantirishlari va olgan bilimlarini kelajak avlodga berishlarini ta’minlash orqali ularni iqtisodiy jihatdan mustaqil qilish mumkin. Bu borada davlatimiz tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi: ayollarning oliy ta’lim olishlarini qo‘llab-quvvatlash uchun oliy ta’lim muassasalarida alohida kvotalar ajratildi, xotin-qizlar uchun foizsiz ta’lim kreditlari joriy qilindi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, hozirgi kunda xalq ta’limidagi pedagoglarning qariyb 70 foizini ayol o‘qituvchilar tashkil etmoqda²⁸. Bularning barchasi ayollarning bilim olib, kelgusida o‘z sohasida etuk kadr bo‘lishlari uchun qilingan sa’y- harakatlar namunasidir.

2. Kasb-hunarga o‘rgatish va uni rivojlantirish: xotin-qizlar o‘zlarining qiziqish va salohiyatlari bo‘yicha kasb-hunar tanlashlari, shu soha bo‘yicha rivojlanishlari va o‘zlari tanlagan kasb bo‘yicha ishlash yoki o‘z tadbirkorlik faoliyatlarini boshlash orqali iqtisodiy mustaqillikka erishishlari mumkin. Yaqin kelajakda yo‘qolib ketmaydigan kasb-hunar tanlash, shuni o‘rganish va unga kreativlik qo‘shish ularga o‘zlarining iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga yordam bera oladi.

3. O‘zini o‘zi ta’minlovchi tadbirkorlik loyihalarini yaratish: xotin-qizlar o‘zlariga mo‘ljallangan sohada tadbirkorlik faoliyatlarini boshlash orqali iqtisodiy mustaqillikka erishishlari mumkin. Hozirgi kunda yurtimizda ayollarni ish bilan ta’minlashning aynan shu usuliga katta e’tibor qaratilmoqda. Birgina misolni oladigan bo‘lsak, 2021-yilda faoliyat ko‘rsatgan tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 36 475 tani (yoki jamiga nisbatan 11,3%) tashkil etdi. Hududlar bo‘yicha eng ko‘pi Toshkent shahri (9 764 ta), Toshkent viloyati (4 760 ta), Samarqand viloyati (2 974 ta) va Navoiy viloyati (2 544 ta) hissalariga to‘g‘ri kelmoqda²⁹.

²⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan

²⁹ <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/24153-tadbirkor-ayollar-qaysi-hududda-ko-proq-faoliyat-olib-borishini-bilasizmi>



Ushbu ko‘rsatkichlar orqali ayollarning tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash qanchalik xotin-qizlarni iqtisodiy mustaqil qilishini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari qishloq hududlarida istiqomat qilib kelayotgan ayollar to‘qimchilik va oziq-ovqat sanoatida mehnat qilishlari, o‘zlari ishlab chiqargan mahsulotlarni sotishlari orqali iqtisodiy jihatdan rivojlanishlari mumkin.

4. Investitsiyalar kiritish va moliyalashtirish: xotin-qizlar o‘zlarining iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash uchun moliyalashtirish va turli sohalarga investitsiyalar kiritishni o‘rganishlari va iqtisodiy yangiliklarni kuzatish orqali moliyaning taraqqiyotiga hissa qo‘shilishlari mumkin. Bularni qanday amalga oshirish mumkinligini aytib o‘tsak. Albatta, “Alloh taolo tijoratni halol, ribo (foiz)ni xarom qildi³⁰ (Baqara surasi – 275-oyat), ammo sherikchilik bundan mustasno. Ayollar o‘zlarida bor moddiyatlarni investitsiya kiritish orqali oshirishlari mumkin. Bularning barchasi islom moliyasi bo‘yicha olib borilsa, bu ishdan ularga kelayotgan foyda ham halol yo‘l bilan kelgan hisoblanadi.

5. Ijtimoiy faoliyat va shu kabi sohalarda faoliyat yuritish: xotin-qizlar ijtimoiy faoliyat yuritish, jamiyatga foyda olib kelish, o‘z hududlarida insonlarga foyda keltirish orqali ham iqtisodiy mustaqillikka erishishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Qur’oni karim: ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: A. Mansur. – Toshkent: TIU, 2009*
2. *Al-Butiy Muhammad sa’id Ramadan. Al-mar’a bayna tug‘yon al-nizom al-g‘arbiy va latoif al-tashri’ al-rabboniy – B. 154-155; Mahmud Hasan al-Labsiy. Hijob va ayolning ishlashi // Bayon lin-nos. T.2. – Qohira, 1994. – B 41.*
3. *Imom Buxoriy. T.2. – B.256.*
4. *N.J.Yusupova, B.B. Mamadiyev, M.M. Xaydarov. Islomda gender tenglikning o‘ziga xos tamoyillari: qo‘llanma/ tuzuvchilar - Toshkent: Baktria press, 2022. -B 142*
5. *Yusupova J.N “Islomda ayol huquqlari”- T: “Akademiya” noshirlik markazi, 2006.- 115b.*
6. <https://president.uz/oz/lists/view/4186>
7. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>*
8. <https://mirarab.uz/ruknlar/261>
9. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/24153-tadbirkor-ayollar-qaysi-hududda-ko-proq-faoliyat-olib-borishini-bilasizmi>*
10. *“Baqara” surasi – 275-oyat.*

³⁰ Qur’oni karim: ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: A. Mansur. – Toshkent: TIU, 2009 (Bundan keyin: Qur’oni karim). – 47 b..



Raxmatullayeva Xadichabegim Baxodirovna,
Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi,
Psixologiya yo'nalishi talabasi³¹

OILADA ER-XOTIN MUNOSABATIDA ROLLAR TAQSIMOTI DINAMIKASINING OBYEKTIV VA SUBYEKTIV KONTEKSTI

Annotatsiya. Oila qurish masalasi har bir inson hayotida jiddiy, mas'uliyatli qadam. Bu masala shaxsiy, xususiy doiradan chiqib, ijtimoiy ahamiyat kasb etishini, nikohdagi gender rollar va ularning vazifalari haqida ma'lumotlarni oila qurish ostonasida turgan yoshlarga etkazish, voyaga etayotgan bolalar, avvalambor qizlarimiz ongida onalik mas'uliyati, o'g'illarimizda esa ota bo'lish mas'uliyatini shakllantirish jamiyat va davlat oldidagi muhim vazifa bo'lib qoladi.

Kalit so'zlar: oila, patriarxal oila, matriarxal oila, tenglik va demokratik oila, oiladagi rol, nikoh.

Abstract. Creating a family is a serious and important step in the life of every person. It is important for society and the state that this issue leaves the personal and private sphere and acquires social significance, conveys information about gender roles and their responsibilities in marriage to young people who are on the verge of starting a family, and forms the responsibility of motherhood in the minds of growing children, especially our daughters, and the responsibility of fatherhood in the minds of our sons.

Keywords: family, patriarchal family, matriarchal family, equality and democratic family, role in the family, marriage.

Oiladagi rol munosabatlarning o'zgarishi oila va nikoh munosabatlarini zamonaviy qayta qurishning eng muhim bosqichidir. Hozirgi vaqtda nikoh va oilaviy munosabatlarni, shu jumladan rol munosabatlarini tartibga soluvchi normalarning noaniqligi zamonaviy oila uchun bir qator ijtimoiy-psixologik va pedagogik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ulardan eng muhimi tashqi rolli o'zaro ta'sirning har bir tomonini tanlash va erkakning oiladagi rol xatti-harakatlarining turli jihatlariga munosabatini shakllantirishdir.

Rol tuzilmasining paydo bo'lish jarayoni uning oilada ijtimoiy-psixologik jamoa sifatida shakllanishi, turmush o'rtoqlarning bir-biriga moslashishi va oilaviy hayot tarzi rivojlanishining asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Rol xulq-atvorining turli me'yorlari va shakllari mavjudligini hisobga olgan holda bu jarayon turmush o'rtoqlarning shaxslararo munosabatlari bilan chambarchas bog'liq.

Oilada muayyan rolni tanlash va qabul qilish muammosi oila a'zolarining ushbu obrazga, ularning oiladagi rolga va boshqa oila a'zolarining rollarini bajarishga munosabatini shakllantirish bilan ajralmasdir. Zamonaviy oilada otaning bolalarni tarbiyalashda onaning sherigi sifatidagi ulushi ularga nisbatan g'amxo'rlikning ortib borayotganida ko'rinadi. Oilada onaning roli ham o'zgarmoqda – bolalar bilan

³¹ Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi Yunusxodjayev Zoir Shokirovich

muloqotda ayol xulq-atvorining “emansipator erkaklashuvi” sodir bo‘layapti, buning natijasida ayollar odatda eri va bolalari ustidan hukmronlik qilishga intiladi.

Oilada rolli xulq-atvor va rol munosabatlari qoidalari oilaviy hayot jarayonida, shaxslararo munosabatlar va oila a‘zolari o‘rtasidagi muloqot bilan chambarchas bog‘liq holda ta‘minlanadi. Zamonaviy me‘yorlar oilada butun jamiyat uchun funksional rol guruhlarini qurishning bir xil bo‘lmagan, turli oilalar uchun ajratilgan, har bir oila a‘zosining vazifalarini oldindan belgilangan namunalar bo‘yicha qat‘iy bo‘lgan taqsimlashni rad etgan holda moslashuvchan cheklovlarni nazarda tutadigan usullarni taklif etadi. Oiladagi rol va oilaviy munosabatlar oilaviy tajribaga asoslanadi, masalan, shaxsiy moyillik va qobiliyatlar, tajriba, xohish, ixtiyoriy rozilik, ishlab chiqarish sohasidagi bandlik darajasi va boshqalar.

Fanda ijtimoiy rol xususiyatlari va etakchilik mezonlari asosida oilalar quyidagicha tasniflanadi: patriarxal, matriarxal, tenglik va demokratik oila.

Patriarxal oila. Bunday oilada er uning so‘zsiz boshliq, xotinning eriga, bolalarning ota-onasiga qaramligi aniq ifodalangan. Erkak kishiga “xo‘jayin”, “ta‘minotchi”, “boquvchi” rollari beriladi. Erkak hokimiyati shubhasiz tan olinadi yoki bosim ostida qabul qilinadi. Boshqa oila a‘zolarining hokimiyati ularning jinsi va yoshiga bog‘liq: keksa odamlar eng hurmatga sazovor, erkaklar ayollarga qaraganda ko‘proq huquqlarga ega. Guruh manfaatlari shaxsiy manfaatlardan ustun turadi. Shuning uchun bu turdagi oila avtoritar-patriarxal deb ataladi.

Matriarxal oila. Ushbu turdagi oilada shaxsiy ustunlik ayolga tegishli. Ba‘zi oilalarda, erkakning rasmiy rahbarligi bilan, aslida hukmron mavqeni ayol egallaydi. U uy bekasi yoki juda kam maosh oladi. Oddiy hayot va iste‘molni tashkil etish uning elkasiga tushadi va u uy xo‘jaligini namunali olib borishi, uyda qulay va sokin muhit yaratishi talab etiladi. Uning vazifalariga bolalarga qarash va tarbiya ham kiradi. Har doim ona oilaviy rishtalarni saqlashda alohida rol o‘ynagan. Ayolning shaxslararo munosabatlarni tartibga solish va boshqalarga ta‘sir qilishning bilvosita usullarini qo‘llash qobiliyati unga etakchilik uchun kurashda g‘alaba qozonishga yordam beradi.

Egalitar (fransuzcha egalitaire — tenglik) oila. Bu amorf, shakllanmagan rol tuzilishiga ega, etakchiliksiz va rollar mas‘uliyatlarining aniq taqsimlangan oilasi. U teng, ekvivalent deb ham ataladi. Zamonaviy yadro oilasi aynan shunday bo‘lib bormoqda, uni teng huquqli ittifoq deb hisoblash mumkin, ya‘ni uning barcha voyaga etgan a‘zolari huquq va majburiyatlarida teng ulushga, bolalar uchun etarlicha mustaqil pozitsiyaga ega. Biroq, oila shakllarining xilma-xilligi va sheriklarning oilaviy baxtning tarkibiy qismlari to‘g‘risidagi qarashlari, nikoh va oilaviy g‘oyalaridagi sezilarli tafovut tufayli tenglik ittifoqini yaratish hozirgi kunda tobora qiyinlashib borayotgan masaladir.

Demokratik oila oila a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro hurmatga, oilaviy rollarni muayyan vaziyat ehtiyojlariga muvofiq taqsimlashga, er-xotinning shaxsiy fazilatlarini va qobiliyatlariga, ularning har birining barcha masalalarda teng ishtirok etishiga, barcha muhim qarorlarni birgalikda qabul qilishiga asoslanadi. Demokratik oilada,

qoida tariqasida, “rasmiiy” boshliq yo‘q, lekin rahbar, obro‘li shaxs mavjud. Bundan tashqari, er ba‘zi munosabatlarda, xotin esa boshqalarida etakchi bo‘lishi mumkin. Ba‘zi hayotiy vaziyatlarda ulg‘ayib borayotgan bolalar ham etakchiga aylanishi mumkin.

Nikoh rollarini uchta asosiy turga ajratish mumkin: an‘anaviy, do‘stona o‘rtoqlik va hamkorlik rollari. Asosiy rolga moslashish, albatta, oilaviy majburiyatlarining tabiati va taqsimoti haqidagi g‘oyalarni muvofiqlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Moslashuvning birinchi xususiyati bu turmush o‘rtoqlar bir xil turdagi rolni tanlashi. Ikkinchisi, bu rol uchun zarur bo‘lgan oila ichidagi va oiladan tashqari xatti-harakatlarning asosiy tarkibiy qismlarining har biri er va xotingga mos kelishidir.

An‘anaviy rollar xotinning farzand ko‘rishi va uni tarbiyasi bilan shug‘ullanish, vafodorlikni saqlash, oilaga xizmat qilish, o‘z manfaatlarini erining manfaatlariga sodiqlik bilan bo‘ysundirish, turmush o‘rtog‘iga va uning oila a‘zolariga bo‘ysunishga moslashish va faoliyat doirasining cheklanganligiga toqat qilishni o‘z ichiga oladi.

Bu holatda oilaviy munosabatlarning uyg‘unligini saqlab qolish uchun er tomonidan quyidagilar zarur: farzandlarining onasiga sadoqat, oilaning iqtisodiy xavfsizligi va himoyasi, oilaviy hokimiyat va nazoratni saqlab turish, oilada asosiy qarorlarni qabul qilish, ajralishda alimentni ta‘minlash.

Erning roli o‘z xotiniga his-tuyg‘ularini baxshida etishni va unga nisbatan jasoratli munosabatni, o‘zaro mehr – muhabbat va muloyimlikni, kiyim-kechak sotib olish, o‘yin-kulgi, ijtimoiy aloqalarni saqlash, xotini bilan bo‘sh vaqtini o‘tkazish uchun mablag‘ bilan ta‘minlashni talab qiladi.

Yosh oilalarda barqarorlikni ta‘minlovchi omillar turlicha. Yosh turmush o‘rtoqlar oilada xotin o‘zini qay darajada kasbiy faoliyatga bag‘ishlashi, oilaviy mas‘uliyatni qay darajada ado etishi haqida kelishib olishi, bo‘sh vaqtni sarflashda turmush o‘rtoqlarning fikrlari izchilligi, erkakning oiladan tashqari va xuddi shuningdek, ayolning ham oiladan tashqari masalan, dugonalari bilan dam olish vaziyatlarini kelishib olishlari, oilada bolalar tarbiyasi va iqtisodiy ta‘minoti majburiyatlarini teng taqsimlanishi, shaxslararo rollarning izchilligi, nikohda va oilada bir birlarining pozitsiyalarining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, shular jumlasidandir. Afsuski, psixologik maslahat amaliyotidagi kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy yoshlar an‘anaviy va egalitar oila xususiyatlarini aralashtirib yuboradilar.

Mashhur faylasuf V.Gyugo aytganidek, “Oila jamiyatning duru gavharidir”. Shuningdek, “Oila tabiatning shoh asarlaridan biridir”. Xuddi shoh asar hisoblangan oilani o‘rganish, ilmiy jihatdan tadqiq etib borish bugungi kunning ham eng dolzarb masalalaridan bo‘lib, hozirgi davrda mustaqil O‘zbekistonda bu borada juda katta ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar olib borilmoqda. “Oila” haqida gapirar ekanmiz, avvalombor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta‘minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak avlodlar qanday inson bo‘lib etishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i ekanini deb bilamiz. Har bir oilaning kelajagi va istiqboli, uning mustahkamligiga, sog‘lom turmush tarziga bog‘liqdir. Bu o‘z navbatida xalqning, jamiyatning istiqbolini belgilaydi. Shu tufayli

oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslari mamlakat, jamiyat manfaati yo‘lida amalga oshiriladigan eng muhim masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

“Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir, hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega”, deyilgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida³². 1998 yil “Oila yili”da “Oila kodeksi” qabul qilingan va bu hujjatda “Oila” so‘zining “Nikoh” so‘ziga nisbatan kengroq ma’no anglatishi hisobga olinib, amalda qo‘llanib kelingan “Oila va nikoh” kodeksi yangilangan va to‘ldirilingan. “Oila” kodeksi 238-moddadan tarkib topgan sakkiz bo‘limdan iborat³³. “Umumiy qoidalar” deb ataluvchi bo‘limning sakkiz moddasi “oilaviy munosabatlarda mahalliy urf-odat va an‘analarining qo‘llanishi” haqida bo‘lib, jumladan, bu masala shunday ifodalangan: “Qonun hujjatlarida oilaviy munosabatlarni tartibga solishga oid tegishli normalar bo‘lmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari tamoyillariga zid bo‘lmagan mahalliy urf – odat va an‘analar qo‘llaniladi”.

Bunda o‘zbek xalqida kelin-kuyovga eskicha nikoh o‘qitish, shuningdek Respublikamizda yashovchi boshqa xalqlar, jumladan, ruslarda cherkovda nikoh o‘qitish, turklarda esa nikoh to‘yidan keyin hurmat belgisi sifatida kelin-kuyovni ma’lum muddat davomida oila a‘zolari bilan gaplashmay yurishlari singari an‘anaviy udumlar ko‘zda tutilgan. “Oila ham ijtimoiy institut, ham kichik guruh ekanligidan kelib chiqib, unga quyidagicha ta’rif berish mumkin: oila – bu uyushgan ijtimoiy guruh bo‘lib, uning a‘zolari umumiy hayot, nikoh yoki qarindoshlik munosabatlari bilan, shuningdek, jamiyatning jismoniy ehtiyojlari tufayli ma’naviy javobgarlik bilan bog‘lanadi”³⁴.

- Oilaning funksional xususiyatlari;
- Oila energetikasi;
- Oila tizimi chegarasi;

Oilaning funksional xususiyatlari – oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlarning sifatiy farqlarini tavsiflaydi. Masalan:

- Muloqot uslublari;
- Har bir oilaga xos bo‘lgan tartib-qoidalar;
- O‘zaro muloqot jarayonida kommunikativ to‘siqlarning mavjudligi;

Ochiq tartib-qoidalardan tashqari, har bir oilaning yashirin qoidalari ham mavjudki, ular ham oilaviy munosabatlarning yaxshi bo‘lishida katta rol o‘ynaydi. Odatda bunday qoidalar muayyan mavzularning oila davrasida ko‘tarilmasligi yoki ma’lum tarzda his kechinmalarining namoyon etmasligida ko‘rinadi.

Oila muhitini barkamol avlod va komil insonni tarbiyalash muommosi turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi, Avesto, shuningdek, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, tortib hozirgi zamon pedagoglarining o‘ziga xos fikr mulohazalarida bildirilgani diqqatga sazovordir. Kaykovus, S.Sheroziy, Jomiy, Alisher Navoiy, A.Fitrat, A.Avloniy kabi mutafakkirlarimizning ilmiy nazariy

³² O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2016.

³³ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent: Adolat, 2018.

³⁴ Ganieva M.X, Latipova N.M., Karamyan M. Ijtimoiy ish asoslari. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: 2010

asarlari oila munosabatlaridagi tarbiya tarixiylik nuqtai nazaridan bayon etilganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy ziddiyatlar. Afsuski, zamonaviy jamiyatda oilaviy nizolar dolzarb mavzudir. Har qanday oila o‘z hayoti davomida muommoli vaziyatlarga duch keladi. Ularni hal qilish qarama qarshi individual ehtiyojlar, motivlar, manfaatlar, sharoitida amalga oshiriladi. Oilaviy nizolar quyidagilarga bo‘linadi: er-xotinlar, ota-onalar, bolalar, er-xotinlarning ota-onasi, bobo-buvilari, va nevaralar. Oilaviy munosabatlarda asosiy rol ni nikohdagi nizolar egallaydi³⁵. Nikohdagi nizolarning paydo bo‘lishiga tashqi omillar sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘plab oilalarning moliyaviy ahvoning yomonlashuvi, turmush o‘rtog‘laridan birini yoki ikkalasining ortiqcha ish bilan bandligi, ularning birini uyda uzoq vaqt yo‘qligi, bolalarni bolalar muassasalarga yoki boshqa muassasalarga joylashtirish imkoni yo‘qligi va h.k. Kundalik hayotda eng ko‘p uchraydigan muommolardan biri ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi nizolar ham bo‘lishi mumkin. Bola ko‘pincha ota-onasidan birining yo‘qligi haqida tengdoshlarining bosimini boshdan kechiradi. Bu uning, neyroskopik holatiga ta’sir qiladi. Buning natijasida deviant xulq-atvoriga ega bo‘lgan o‘smirlar soni ortib bormoqda, jinoyatchilik ko‘paymoqda. Oiladagi janjallarni hal etishda muommolardan qochmaslik, balki ularni hal qilish kerak. G‘alaba qozonish yoki himoyalani uchun emas balki hal qilish maqsadi bilan konstruktiv va xotirjam muloqot qilish lozim. Bahsga uchinchi tomonlarni jalb qilish tavsiya etilmaydi, chunki ular majoroning yanada kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Xulosa shuki, oila jamiyatning bir bo‘g‘ini ekanligi sababli, oilalarni har tomonlama o‘rganish, ulardagi turli xildagi muommolarni hal qilish, echim qidirish, to‘g‘ri rejali ish yuritish, muammoli oilalarni bu muhitdan olib chiqish va jamiyatga qo‘shib yuborish chora-tadbirlarini o‘ylab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimova V. Mehr va muruvvat oiladan boshlanadi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Abdusamatov X. “Nikohdan tashqari munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari”. Psixol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2019.
3. Abdusamatov X. Migrant oilalarning ijtimoiy-psixologik muammolari va echimlari. Psixol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2022.
4. Niyazmetova G. O‘zbek oilalarida er-xotinlik munosabatlari dinamikasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2010.
5. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
6. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. –T.: Ma’naviyat, 2000.
7. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2016.
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi – Toshkent: Adolat, 2018.
9. Ganieva M.X, Latipova N.M., Karamyan M. Ijtimoiy ish asoslari. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: 2010
10. Технологии социальной работы с семьей и детьми. Учебное пособие. Ростов н/Д: Феникс, 2018. С.

³⁵ Технологии социальной работы с семьей и детьми. Учебное пособие. Ростов н/Д: Феникс, 2018. С. 164.

Bayjonov F.B.

*Alfraganus universiteti
“Pedagogika va psixologiya”
kafedrası p.f.f.d., (PhD)*

TALABALARDA GENDER MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Oliy ta’lim muassasalarida erkak va ayollarni gender farqlari va o‘xshashliklar ko‘rsatib o‘tilgan. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quv jarayoni samaradorligini ta’minlashga yordam beradi. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kasbiy bilim va ko‘nikmalardan tashqari, ularga muhim hayotiy ko‘nikmalarni, shu jumladan tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini, muammolarni hal qilish, shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, moslashuvchanlik shuningdek mustaqil va hamkorlikda ishlashga o‘rgatish gender kompetentlikni shakllantirish juda muhim hisoblanadi. Buning uchun oliy ta’lim tizimiga gender madaniyatni tatbiq etish va uni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi. Bu esa, talabalarda gender madaniyati sifatini tarkib toptirish maqsadida ma’naviy-ma’rifiy muhitni milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishni taqozo etadi. Gender tenglikni ta’minlashda qonuniylik, demokratiya, ochiqlik va shaffoflik, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, o‘zaro bir birini tushunish tamoyillari muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: gender, gender madaniyat, stereotiplar, institutsional, transmissiya, huquqlar, shaxs, poststrukturalistik, dekonstruksiya, transgression.

Annotation. This article shows gender differences and similarities between men and women in higher education institutions. This, in turn, helps to ensure the effectiveness of the learning process. In addition to the professional knowledge and skills of students in higher education institutions, it is very important to teach them important life skills, including analytical and critical thinking skills, problem solving, development of interpersonal communication skills, flexibility as well as independent and collaborative work to form gender competence. This requires the implementation of gender culture into the higher education system and the development of effective mechanisms for its management. This entails the development of the spiritual and educational environment on the basis of national values in order to content the quality of gender culture in students. The principles of legality, democracy, openness and transparency, equal rights of women and men, non-discrimination by gender, mutual understanding play an important role in ensuring Gender equality.

Ключевые слова: гендер, гендерная культура, стереотипы, институты, трансмиссия, права, личность, постструктуралист, деконструкция, трансгрессия.

Аннотация. В этой статье показаны гендерные различия и сходства между мужчинами и женщинами в высших учебных заведениях. Это, в свою очередь, помогает обеспечить эффективность процесса обучения. В дополнение к профессиональным знаниям и навыкам студентов высших учебных заведений, очень важно научить их важным жизненным навыкам, включая навыки аналитического и критического мышления, решения проблем, развития навыков межличностного общения, гибкости, а также самостоятельной и совместной работы для формирования гендерной компетентности. Это требует внедрения гендерной культуры в систему высшего образования и разработки эффективных механизмов управления ею. Это предполагает развитие духовно-образовательной среды на основе

национальных ценностей с целью повышения качества гендерной культуры студентов. Принципы законности, демократии, открытости и транспарентности, равноправия женщин и мужчин, недискриминации по признаку пола, взаимопонимания играют важную роль в обеспечении гендерного равенства.

Key words: *gender, gender culture, stereotypes, institutional, transmission, rights, personality, poststructuralist, deconstruction, transgression.*

Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida pedagogik muhitni yaxshilash, talabalarning gender madaniyatini shakllantirish muhim hisoblanadi. Talabalar o'rtasida gender tushunchasini rivojlantirish gender me'yorlari, rollari va o'ziga xosliklariga nisbatan ularning tushunchalari, munosabatlari va harakatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan hal qiluvchi va murakkab ishdir. Ushbu rivojlanish talabalarning o'qishi va o'sishini boshqaradigan ta'lim asoslari va o'qitish metodologiyasi bilan chambarchas bog'liq[4].

Gender (ingl. gender, lot. genus-zot, jins, kelib chiqish), biologik jins tushunchasidan farqli ravishda, jinsga oid ijtimoiy xususiyatlarini anglatadi.

Gender erkaklar va ayollarning jamiyatdagi mavqeyini belgilaydigan ijtimoiy-madaniy konstrukt, ijtimoiy rollarning jinsga bog'liq jihatlari ko'lami, jamiyat tomonidan erkak yoki ayoldan kutilgan xulq-atvor modellaridir.

Gender madaniyati – bu ma'lum bir jamiyatda faoliyat yuritadigan qarashlar, tamoyillar, xulq-atvor matritsalar va boshqalar tizimidir, bu jinsning ijtimoiy-madaniy jihatlari (gender rollari, gender munosabatlari, gender stereotiplari, oila va nikohga munosabat va boshqalar) tashkil etadi). Nazariy jihatdan, gender madaniyatining “ideal modeli” – ma'lum bir jamiyatda faoliyat yuritadigan jinsning ijtimoiy-madaniy jihatlari belgilaydigan g'oyalar, nazariyalar, me'yorlar va qoidalarning uyg'unligi deb ta'rib beradi N.I.Andreyeva.

Gender madaniyati, ya'ni gender rollari, xatti-harakatlari va kutishlarini ajratib ko'rsatadigan va ajratib turadigan jamoaviy me'yorlar, qadriyatlar va amaliyotlarga ishora qiladi. Ta'lim sohasida gender madaniyatini tarbiyalash nafaqat ushbu ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni etkazishni, balki gender nuqtai nazari va munosabatlari bo'yicha tanqidiy muloqotni va potentsial qayta shakllantirishni ham o'z ichiga oladi[6]. Ushbu maqsadlar uchun ta'lim strategiyalari va amaliyotlari gender tengligi va inklyuzivlikni rivojlantirishga qaratilgan turli xil o'rganish, sotsializatsiya va gender nazariyalari bilan ta'minlangan. Gender madaniyati ko'plab tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ta'sirlar bilan shakllanadi, bu gender rollari va o'ziga xosliklarining ijtimoiy qurilishida namoyon bo'ladi. Bu tuzilmalar ko'pincha tengsizlik va stereotiplarga olib keladi, jinsga qarab shaxslarning imkoniyatlarini cheklaydi [1-4.]. Ta'limning o'zni bu me'yorlarni o'quv rejasi, o'qitish usullari va institutsional siyosat orqali davom ettirish yoki e'tiroz bildirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning gender me'yorlarini idrok etishi va qabul qilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Gender madaniyatini o'rgatish yondashuvlari turlicha bo'lib, turli nazariy asoslar va ta'lim maqsadlarini aks ettiradi. Ularni odatda tuzatish, o'zgartirish va buzishga



bo‘lish mumkin. Transmissiya yondashuvi an‘anaviy stereotiplar va tengsizliklarni qo‘llab-quvvatlashi mumkin bo‘lgan mavjud gender me‘yorlari va qadriyatlarini ko‘pincha tanqidsiz o‘tkazadi. Aksincha, transformatsiya yondashuvi gender me‘yorlarini tanqidiy baholaydi va hukmron kuch dinamikasini yo‘q qilishga va adolatli gender qarashlarini ilgari surishga chaqiruvchi feministik va konstruktivistik nazariyalarga asoslangan gender adolatiga qaratilgan ta‘lim sa‘y-harakatlarini himoya qiladi. Transgression yondashuv an‘anaviy gender me‘yorlari va toifalariga qarshi chiqish va dekonstruksiya qilish, poststrukturalistik va queer nazariyalariga asoslanib, an‘anaviy chegaralardan tashqarida gender identifikatorlarini o‘rganish va ifodalashni rag‘batlantirishga intiladi[3].

Talabalar o‘rtasida gender tushunchasini rivojlantirish bo‘yicha samarali strategiyalarni amalga oshirish ta‘lim mazmuni davomida genderga bog‘liq mavzularni to‘qish, barcha gender o‘ziga xosliklarini hurmat qiladigan o‘qitish usullarini qo‘llash va xilma-xillik va adolatni himoya qiluvchi maktab muhitini rivojlantirishni talab qiladi [4.9]. Asosiy yondashuvlarga quyidagilar kiradi:

- O‘quv dasturlarini takomillashtirish: Gender tadqiqotlari va turli fanlarga inklyuziv nuqtai nazarlarni to‘plash talabalarga gender masalalarini chuqurroq va nozikroq tushunishga yordam beradi.

- Inklyuziv til va manbalar: gender-neytral terminologiyadan foydalanish va gender identifikatsiyalari va hikoyalarining keng doirasini ifodalovchi ta‘lim resurslarini tanlash.

- Tanqidiy faollik: munozaralar, bahs-munozaralar va reflektiv mashqlar orqali talabalarni gender normalari va stereotiplarini tanqidiy tekshirish va shubha ostiga olishga undash.

- Imkoniyatlarni kengaytirish va targ‘ibot: talabalar uchun gender tengligini targ‘ib qilish va genderga asoslangan noto‘g‘ri qarashlar va zo‘ravonlikka qarshi faoliyat yuritish uchun imkoniyatlar yaratish.

Ko‘pgina gender stereotiplari tarixiy va madaniy rivoyatlarda chuqur ildiz otganligini tan olgan holda, ta‘lim tizimi gender tengligiga ustuvor ahamiyat berish uchun rivojlanmoqda. Shunga qaramay, zamonaviy san‘at va submadaniyatlar bizning dunyo qarashimizga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadigan va an‘anaviy qadriyatlarga qarshi turadigan yangi istiqbollarni joriy qilmoqda [6]. Ushbu siljish innovatsion, genderga yo‘naltirilgan ta‘lim va tarbiya texnologiyalari zarurligini ta‘kidlaydi. Bu borada ta‘limga ilg‘or axborot texnologiyalarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizdagi ayol olimlarning sa‘y-harakatlari tobora ko‘proq ta‘lim mazmuni va etkazib berishni yaxshilash uchun IT-dan foydalanishga qaratilgan. Davlat, o‘rta va oliy ta‘lim muassasalarida internet texnologiyalari va kompyuter vositalaridan foydalanish nafaqat ta‘lim sifatini oshirish, balki tobora murakkablashib borayotgan an‘anaviy o‘qitish usullari orqali o‘quvchilarni to‘liq jalb etish muammosini ham hal etishi keng e‘tirof etilgan .

Mamlakatimizda gender qoidalar, tamoyillarini joriy etish, yoshlarda gender madaniyatni shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari va shaxs



umummadaniyatini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar N.Egamberdiyeva, X.Tojiboyeva, A.Saydullayeva, M.Abdujabborova, M.Abdullayeva va boshqalar tomonidan keng ko‘lamli tadqiqot mavzusi bo‘lib kelgan. Masalan, N.Egamberdiyeva “Ta’lim tizimida gender tengligini ta’minlash masalalari” mavzusida, X.Tojiboyeva esa “Gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitetni shakllantirishning pedagogik strategiyalari” mavzusida izlanishlar olib borgan.

Bu mavzu xalqaro tadqiqotlarda, xususan, gender tengligini ta’minlash, ijtimoiy himoya tizimlarining samaradorligi, huquq va erkinliklarni ta’minlashga doir e’tiborni tortdi. R.Connell, P. Bourdeis, J. Scott, V. Spike Peterson va O.A.Voronin kabi tadqiqotchilar konstruktiv tadqiqot metodologiyalariga e’tibor qaratib, ushbu muhokamalarga katta hissa qo’shdilar. N. Najib, E.Xelen, A. Kitchen, M. Kovalski, D. Roots va L. Work xalqaro insonparvarlik tamoyillariga amal qilgan holda, qizlarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqdi. Ularning faoliyati ayollarning roliga ta’sir etuvchi ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillarni, oiladagi zo‘ravonlik muammolarini, ayniqsa, migrant ayolla o‘rtasidagi zo‘ravonlik muammolarini, qonuniy echimlarni va zo‘ravonlik qurbonlariga psixologik ta’sirlarni o‘z ichiga oladi [1].

Fikrimizcha, oliy ta’lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etish ta’lim jarayonining barcha tarkibiy qismlari, ya’ni tarbiyaviy, ta’limiy (ta’lim mazmuni) va metodik (o‘qitish metodlari, o‘quv jarayonini tashkil etish, pedagogik hamkorlik) jihatlarini, shuningdek, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini, ta’lim tizimini boshqarishni gender masalalariga ta’sirchanligini oshirishni ko‘zda tutadi. Ta’lim ijtimoiy munosabatlarning muhim omili hisoblanadi. Ta’lim o‘g‘il va qizlarning qobiliyatlarini rivojlantirish, ayol va erkaklarga davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy xayotida ishtirok etishlari uchun imkoniyat yaratadi hamda demokratik davlatning rivojlanishi uchun poydevor bo‘ladi. Ta’lim olish orqali jamiyatda madaniy, siyosiy, etnik, diniy va gender xilma-xilliklarga bag‘rikenglik g‘oyalari shakllanadi. Ko‘pincha ta’limdagi gender tengligi to‘g‘risidagi bahslar gender paritetini muhokama qilish bilan cheklanib qolinadi: masalan, agar yigit va qizlarga oliy ma’lumot olishi uchun o‘qishga kirish imkoni berilgan bo‘lsa, demak ta’limdagi gender tenglik ta’minlandi deb hisoblanadi. Biroq, ta’limda gender tengligini ta’minlash – bu gender prioritetni ta’minlashdan ham kengroq bo‘lgan konsepsiyadir. O‘zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6012-sonli va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2021-yil 28-maydagi SQ-297-IV-son “2030 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi, 2021-yil 16-dekabrda “Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasining 2020-yil va 2021-yilning o‘tgan davridagi faoliyati to‘g‘risidagi hisoboti haqida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amaldagi ijrosiga

muayyan darajada xizmat qiladi. Qayd etilishicha, xotin-qizlarning erkaklar bilan teng darajada davlat va jamiyat boshqaruviga oid dolzarb masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki etarlicha ta'minlanmayapti, ularni hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir ishlarga jalb qilish holati sustligicha qolmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad, xotin-qizlarning ta'lim olishiga qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish, ilm-fandagi salohiyatiga e'tibor qaratish va qo'llab-quvvatlashdan iborat hisoblanadi. Ta'limdagi gender tengligini tahlil qilishda turli xil o'lchovlarni ajratib olish mumkin. YUNESKO gender tengligiga erishish bo'yicha quyidagi Doiraviy dasturni qo'llashni tavsiya qiladi (Gender Equality Framework):

- ta'lim olishda tenglik deganda yigit va qizlarga rasmiy va norasmiy ta'limga kirish uchun teng imkoniyatlar yaratish tushuniladi;

- o'quv jarayonidagi tenglik yigit va qizlar o'quv jarayonida adolatli baho va e'tibor olishi, ya'ni ular o'g'il va qiz bolalarni o'qitishning turli hil usullari bilan bog'liq bo'lgan maqbul kelishmovchiliklarni inobatga olib tuzilgan bir hil o'quv dasturlari orqali shug'ullanishini nazarda tutadi;

- ta'lim natijalaridagi tenglik yigit va qizlarning ta'lim natijalaridagi baholari ularning individual iste'dodi va say-harakatlariga asoslanadi deganidir. Muvaffaqiyatga erishishning adolatli imkoniyatlarini ta'minlash uchun ta'lim muddati, akademik malaka va diplomlari jinsiy mansublikka qarab farqlanishi mumkin emas;

- tashqi natijalardagi tenglik bu ayol va erkakning maqomi ularning tovar va resurslarni qo'lga kiritishda, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy faoliyatda ishtirok etish va foyda olishda o'z hissasini qo'shishdagi qobiliyati tengligidir. Misol uchun bu teng malaka va tajribaga ega bo'lgan ayol va erkaklarning martaba o'sishi, mehnatga bir hil haq to'lanishi tushuniladi. Gender tengsizligini namoyon bo'lishini ta'lim tizimi boshqaruvi va tuzilishini tahlil qilish, o'qituvchilarning munosabati va amaliyoti, o'quv materiallari va o'quv dasturlarining tarkibi orqali ham aniqlash mumkin. Jamiyatda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan sifatli ta'lim bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda, o'quv dasturlarida, o'quv adabiyotida, ta'lim jarayonida, talaba va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlarda gender tengsizlik masalalariga ta'sir qilish va hal qilishga qaratilgan. Genderga ta'sirchan amaliyotlarni va kamsitmaslik tamoyillarini qo'llashni ta'minlovchi malakali kadrlarni tayyorlash ta'lim tizimiga genderga oid bilimlarni kiritish orqali amalga oshiriladi[5].

O'zbekiston boshlang'ich ta'limda gender balansiga erishgan bo'lsa-da, ammo hanuzgacha oliy ta'lim sohasida tahsil olayotgan, shuningdek ilmiy tadqiqot yo'nalishlarida ayollar va erkaklar soni o'rtasida tavofut mavjud. O'zbekistonda oliy o'quv yurtiga 2020-2021-o'quv yili kunduzgi ta'lim uchun kirgan xotin-qizlar 260 ming kishini, erkaklar 311,5 ming kishini tashkil etgan.

Ushbu tavofutni bir nechta sabablar keltirib chiqarmoqda:

- xotin-qizlarning ta'lim yo'nalishi ko'pincha ota-onalar tomonidan belgilanishi;
- oilada oliy ta'lim olish imkoniyati avvalo o'g'il bolalarga berilishi (ayniqsa, to'lov asosidagi o'qish bo'lsa);

- jamiyatda saqlanib qolgan stereotiplar tufayli qizlar faqat oilaviy hayotda asqotishi mumkin bo’lgan ijtimoiy kasblarni egallashga intilishi;
- ota-onalar qizlari uydan uzoqda ta’lim olishini istamasligi;
- hududlarda oliy ta’lim muassasasilar va ilmiy tadqiqot institutlarning bir xil joylashmaganligi;
- ayollarning erkaklarga nisbatan erta turmush qurishi, farzand ko’rish va voyaga etkazish vazifasi hisoblanadi[9].

Shuning uchun prezidentimiz tashabbuslari bilan ayol va qizlarimizni bilim olishlari uchun ko’pgina qonun va qarorlar ishlab chiqilgan. Ulardan biri qizlarimizga foizsiz ta’lim kreditlarini berilishi, magstratura bosqichida ta’lim olish uchun ayol va qizlarimizga grantlar ajratilganligini misol qilsak bo’ladi. Bu esa respublikamizda ayollarni bilim olib, jamiyatda o’z o’rinlarini topishda yordam beradi. Bundan tashqari, ta’limni individual ehtiyojlarga moslashtirish, ta’lim mazmunini yangilash va o’qituvchilar malakasini oshirish va ularning bozorga chiqarilishini oshirish uchun o’qituvchilar malakasini oshirish institutlarining malakasini oshirish bo’yicha doimiy ishlar olib borilmoqda.

Talabalarda gender madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari turli xil imkoniyatlar va muammolarni taklif etadi. Bu asoslar talabalarda gender me’yorlari, rollari va o’ziga xosliklariga nisbatan tushuncha va munosabatlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, respublikamizda gender tengligini ta’minlash bo’yicha birgalikdagi sa’y-harakatlar, o’quv dasturlarini jonlantirish va o’qituvchilar malakasini oshirish tashabbuslari bilan bir qatorda, inklyuziv va teng huquqli ta’lim landshafti sari ilg’or qadam tashlanayotganidan dalolat beradi. Hukumatning o’qituvchilar va o’quvchilar farovonligini oshirishga qaratilgan sa’y-harakatlari nogiron bolalar uchun sog’liqni saqlashga yo’naltirilgan modellar va inklyuziv amaliyotlarni integratsiyalash bo’yicha aniq chora-tadbirlar bilan birgalikda ta’lim tizimini isloh qilishga yaxlit yondashuvni aks ettiradi. Ta’lim va sog’liqni saqlash infratuzilmasini mustahkamlashga qaratilgan farmon va qarorlarning qabul qilinishi teng imkoniyatlar va huquqlar muhitini ta’minlash bo’yicha milliy majburiyatni yanada mustahkamlaydi.

Shuningdek, talabalarda gender madaniyatini shakllantirishga qaratilgan pedagogik izlanish ham ajoyib imkoniyatlarni, ham muhim vazifalarni taqdim etadi. Imkoniyatlar gender tengligini targ’ib qilish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, o’quvchilarning imkoniyatlarini kengaytirish, qo’llab-quvvatlovchi muhit yaratish va talabalarni turli jamiyatga tayyorlashdan iborat. Aksincha, qiyinchiliklarga o’zgarishlarga qarshilik, o’qituvchilarning malakasini oshirish va resurslarga bo’lgan ehtiyoj, nozik munozaralarni boshqarish, inklyuzivlikni ta’minlash va o’quv dasturlari talablarini muvozanatlash kiradi. Ijtimoiy mavqe va maqomni aniqlash uchun talabalarning jinsi emas, balki ularning serharakatligi, ijodkorligi, tezkorligi, iqtidori, kengfikrliligi, mulohazakorligi, tavakkalchiligi, alohida va umumga xos xislatlari tamal vazifasini bajarishi lozim.

ADABIYOTLAR:

1. *B.K.Karimova, M.S.Oripova (2021). Milliy g'ururni shakllantirish Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ezgulik uylaridagi hadislar asosida. ACADEMICIA: Xalqaro multidisiplinar tadqiqot jurnali, 11(4), 652-665.*
2. *M.O.Karimova, A.R.Saidullayeva (2020). Bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda umuminsoniy va milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari. Palarxning Misr arxeologiyasi jurnali / Misr, 17(7), 8547-8555.*
3. *N.M.Urinova, H.M.Tojiboyeva, S.Qurbonov (2020). Demokratik-huquqiy jamiyatni rivojlantirishda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmini takomillashtirish. 7(12), 3133-3139.*
4. *A.R.Sa'dullayeva (2023). Talabalarda gender Madaniyatni rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik zarurat sifatida. Barqarorlik va kun haqida onlayn ilmiy Jurnali, 3(3), 153-154.*
5. *F.B.Bayjanov (2023) Oilada Gender madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari. p.f.f.d. avtoreferati. T.: 2023 65 b.*
6. *S.A.Raximovna (2022) Gender madaniyatini rivojlantirish. Raqamli iqtisodiyot va barqarorlik akademik jurnali. 16, 88-92.*
7. *B.Shermuhammadov (2022) Innovatsion ta'lim muhitida o'qituvchining ijodkorligi. Oliy ta'lim nazariyasi va amaliyoti jurnali, 22(12), 127 b.*
8. *N.M.Urinova, N.Abdullayeva (2021) Talabalarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirishda loyiha asosidagi o'qitish texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari. ACADEMICIA: Xalqaro multidisipliner tadqiqot jurnali, 11(3), 2344-2348.*
9. *N.M.Egamberdiyeva (2023) Ta'lim tizimida gender tengligini ta'minlash masalalari (2023) <https://doi.org/10.5281/zenodo.1011172>.*



UCHINCHI SHO‘BA

OILADA TA’LIM VA TARBIYANI TASHKIL ETISH: MUAMMOLAR, VAZIFALAR VA ISTIQBOLLAR



Сайёра Тўйчиева,

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
профессори, фалсафа фанлари доктори

ОИЛАДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР ВА АНЪАНАЛАР ҲОЛАТИ

Аннотация. Ушбу мақолада Ўзбекистонда оилавий қадриятлар ва уни ривожлантириши истиқболлари ҳақида маълумотлар ва ҳозирги даврда оилалар ҳолати таҳлил қилинган. Шунингдек, давлат статистикаси асосида бугунги оиланинг анъаналари ўрганилган. Шарқда оилага муносабатлар алломаларнинг оила билан боғлиқ фикрлари асос қилиб олинган. Демографик жараёнлар, оилани бошқариш, уй ишлари билан билан боғлиқ муаммолар ўрганилган. Юқоридаги масалалар юзасидан илмий хулоса ва тавсиялар берилган.

Калим сўзлар: оила, анъана, қадриятлар, статистика, демографик, аллома, тавсия, хулоса.

Abstract. This article provides information about family values and prospects for its development in Uzbekistan. It analyzes the current family situation and the attention given to this issue in the world. Also, on the basis of state statistics, the traditions of today's family were studied. In the East, relations to the family are based on the opinions of scholars about the family. Demographic processes, family management, problems related to housework are reviewed. Scientific conclusions and recommendations are given on the above issues.

Keywords: family, tradition, values, statistics, demographic, alloma, recommendation, conclusion.

Янги Ўзбекистонни барпо қилишда ёшлар замонавий билим асосида миллий қадриятларимиз ва аجدодларимизнинг маданий меросини ўрганишлари катта аҳамиятга эга. Айниқса, мозийдан бизгача етиб келган ёзма меросимиздаги оила билан боғлиқ бўлган қимматли маълумотлар ва уларни ўрганиш ва ҳаётга тадбиқ қилиш шахснинг маънавий баркамоллигини таъминлашда зарур аҳамият касб этади. Зеро, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек, “бизнинг мамлакатимиздагидек бой тарих, боболаримиздек буюк алломалар ҳеч қаерда йўқ. Бу меросни чуқур ўрганишимиз, халқимизга, жаҳонга етказа билишимиз керак”³⁶.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида» 2020 йил 18 февралдаги ПФ-5938-сон Фармони³⁷ ва “Ўзбекистон Республикаси Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш

³⁶ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев: мамлакатимиздаги бой тарих, боболаримиздек буюк алломалар ҳеч қаерда йўқ // “Халқ сўзи” газетаси. 2018 йил 21 декабрь сони.

³⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2020 йил 18 февралдаги ПФ-5938-сонли Фармони // www.lex.uz.

вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги 2020 йил 18 февралдаги Қарори асосида “Маҳалла ва оила” илмий-тадқиқот институти ташкил қилинди. Ушбу институтнинг вазифаларидан бири маҳаллалар ва оилаларда соғлом ва барқарор ижтимоий-маънавий муҳит ҳамда тинчлик, тотувлик ва осойишталикни таъминлаш, умуминсоний ва миллий қадриятларни, шу жумладан оилавий қадриятларни мустаҳкамлашнинг илмий асосларини ишлаб чиқиш белгиланган. Бунда албатта, оилавий масалалари ёритилган тарихий манбалардаги маълумотлар муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сонли Қароридаги берилган вазифалардан бири қадимий ёзма асарлардаги маълумотларни ҳаётдаги амалиётини ва талқинини тадбиқ қилишдан иборат³⁸

Жаҳонда жуда кўп муҳокама қилинаётган ва давлат сиёсати даражасига олиб чиқилган масалалардан бири оила ва гендер масалаларидир. Жаҳон тажрибасига кўра ҳар бир давлат бу масалани мустақил тарзда ҳал этади. Ўзбекистон Республикасида ҳам оила масаласини давлат сиёсати даражасига кўтарган ҳолда қатор ислохотлар амалга оширилмоқда. Мазкур ислохотларнинг натижаси учун албатта миллий қадриятларни ҳам инобатга олиниши лозим.


Ҳозирги даврда сўл партиялар, феминистик ташкилотлар, гей ва лезби гуруҳлар ахлоқсиз турмуш тарзини тарғиботи натижасида оила институти ва унинг қадриятлари инкирози ҳолатини бошдан кечирмоқда. Даҳшатлиси, Европа ва Америка минтақасида “шахс эркинлиги” ниқоби остида қўллаб-қувватланаётган ва оммалашган бундай ҳаёт тарзи аста секинлик билан бошқа худудларга ҳам кириб бормоқда. Баъзан, инсоният фаолиятининг бугунги ҳосиласи бўлган “ахлоқсиз ҳаёт тарзи”га қарши охири мағлубият билан тугайдиган курашдан кўра демократиянинг шахс эркинлиги ва фикр эркинлиги тамойилларига содиқ қолган маъқулдир, деб ўйлаб қолади инсон.

Оила институтининг емирилиб бораётганининг асосий индикатори сифатида ажралишлар билан боғлиқ рақамларга мурожаат этиб кўрамиз. Ўзбекистон Республикаси статистика қўмитасининг маълумотиغا кўра 2007 йилда 254202 та оила қурилган бўлса, ажралишлар сони 18201 тани, яъни 7,16% ни, 2013 йилда 298058 та оила қурилган бўлса, ажралишлар сони 24025 тани, яъни 8,06% ни ташкил этди³⁹. Ўртача ҳисобда 2007 – 2013 йиллар мобайнида, яъни 7 йил ичида ажралишлар сони йилига 0,13% га ортиб борган. 2019 йилда 310899 та никоҳ қайд этилган ва ажралишлар 11% дан ошган⁴⁰. Ҳудди шундай таҳлилни собиқ Совет иттифоқи миқёсида 1945 – 1954 йиллар учун (10 йил) кўриб чиқсак. 1945

³⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сонли Қарори // www.lex.uz.

³⁹ <https://gender.stat.uz/ru/osnovnye-pokazateli/demografiya/braki-i-razvody/209-razvody-po-obrazovaniyu-razvodyashchikhsya-v-2007-2013-gg-ru>.

⁴⁰ <https://www.gazeta.uz/ru/2019/12/29/divorce/>.



Йилда 1 106 000 оила қурилган бўлса, ажралишлар сони 6500 тани, яъни 0,58% ни, 1954 йилда 2 163 000 оила қурилган бўлса, ажралишлар сони 114 400 тани, яъни 5,2% ни ташкил этган⁴¹. Шу мавзуда “Насвидани.ру” сайтидан никоҳлар ва ажралишларга оид қуйидаги маълумотларни ўқишимиз мумкин: “Россия статистика қўмитаси маълумотиغا кўра 2010 – 2014 йиллардаёқ ажралишлар 50% дан ошиб кетган. Ажрашган оилаларнинг кўпчилигида фарзанднинг йўқ экани таъкидланган. Жаҳон миқёсида оиланинг бузилиш статистикаси борасида: “Португалияда 67%. Чехия, Венгрия ва Испанияда 65% атрофида. АҚШда тахминан 50%. Германия, Норвегия, Австралия ва Канадада 40% атрофида. ... ғарб мамлакатларида аҳоли борган сари камроқ оила қурмоқда. Баъзи жуфтлар алоҳида ва ўзаро меҳмон бўлиш амалиёти орқали яшашни маъқул кўрмоқдалар”. Энг яхши статистик кўрсаткич Ирландияда – бор йўғи 15%⁴². Бу оила тушунчасининг трансформацияга учраётгани, аниқроғи деградация – кадрсизланиб бораётганини кўрсатади. Аслида нафақат оила балки бошқа, асрлар давомида шаклланиб келган “хаё”, “номус”, “оқибат”, “сабр” каби қадриятлар ҳам унутилмоқда. Ҳаттоки аёллар ҳуқуқини ҳимоя қилиш, жамият ҳаётидаги иштирокини ошириш борасида қатор ҳуқуқий асослар яратилаётган, амалий ишлар ҳаётга жорий қилинаётган бўлишига қарамай уларнинг ҳурмати кадрсизланиб бораётгани ҳам аччиқ ҳақиқат. Бугунги кунда сўкинаётган эркакка жамоатчилик томонидан, “бу ерда аёллар бор, тилиннга эҳтиёт бўл” деган эътирозлар эшитилмай қолди.


Оила тушунчаси ҳозирги даврда ҳам маънан, ҳам шаклан ўзгариб бормоқда. Оила деганда киши ҳаёлига энг камида эр ва хотин, кўп ҳолатда фарзандлар билан бирга ўзаро боғлиқ ва шу билан бир вақтда аниқ функционал вазифалари бўлган шахслар бирлиги келади. Айнан шундай таркиб ва вазифалари бўлган оила тўлақонли оила деган тасаввурни беради. Таркиб жиҳатидан ёки белгиланган вазифасини бажаришда камчилиги бўлган оила жамиятда муаммоли оила сифатида қаралади.

Оиланинг бутунлигини сақлаб қолиш, ажралишларни камайтиришда оила аъзолари вазифаларининг тақсимланишида ўзаро келишувнинг аҳамияти катта. Гап айнан аёлларнинг жамиятда ўз ўринларини топишлари учун ҳаракатлари ҳақида кетмоқда.

XX аср оила аъзоларининг функционал вазифаларининг ўзгаришни бошлаган давр бўлди. Шу кунгача бўлган онанинг болалар ва уйни тартибда сақлаш функциясига янги мажбурият ҳам қўшилди. Энди аёллар нафақат жамиятда, давлат бошқарувида ҳам фаол бўлиш ва ўз салоҳиятларини намоён қилишни бошладилар. Германия, Молдова каби давлатларда ҳукумат тепасига аёллар келди. Бу гендер тенглигини таъминлаш борасида эришилган энг катта ютуқлардан, яъни йиллар давомида амалга оширилган машаққатли курашлар самарасидир. Бу жараён ҳали давом этаяпти. Шундай бўлса ҳам гендер тенглигини таъминлаш борасида қатор муаммолар борки, уларни ҳал этиш ниҳоятда зарур.

⁴¹ <http://istmat.info/node/18483/>.

⁴² <https://nasvidanii.ru/blog/statistika-razvodov>



Бу муаммоларнинг негизида асрлар давомида устивор бўлган вазифалар тақсмотининг ўзгариши ётибди. Аёллар эркин тарзда таълим олишмоқда, ўзлари қизиққан соҳада меҳнат фаолиятини олиб бормоқдалар ва бунинг учун барча ҳуқуқий асослар етарли. Шу билан бир қаторда фақатгина қонунлар асосида ҳал қилиб бўлмайдиган муаммолар пайдо бўлмоқда. Чунки, оила аъзоларининг вазифалари билан боғлиқ стереотип қараш хануз устувор. Аёллар таълим олгани, эркин ишлаётгани, жамият ва давлат учун катта хизмат қилаётгани билан уларнинг уй-рўзғор вазифалари, фарзандларни жаҳонга келтириш ва парвариши зиммаларидан соқит бўлгани йўқ. Оилада эса эркакни бош деб ҳисоблаш жамиятда қабул қилинган.

Бугунги кунда давлат томонидан аёлларнинг бандлиги даражасини ортириш, уларнинг касб эгаси бўлишлари, ҳамда жамият ва давлат тараққиётига ҳисса қўшишлари учун кўплаб амалий ишлар қилинмоқда. Лекин, уй-рўзғор юмушлари аёлларнинг зиммасидан соқит бўлгани йўқ. Кузатувларимиз, мутахассислар томонидан бу борада аёлларнинг юкини енгиллаштириш учун жўяли таклифлар берилмаётганини кўрсатмоқда. Бу иш тўғри ташкил этилганида оилада бўладиган кундалик можароларнинг камайишига эришилган бўлар эди.

Бугунги кунда Европа матбуотида демографик инқироз кечаётгани, бутун бошли миллатлар йўқ бўлиб кетаётгани айтилиб келинмоқда. Бунга асосий сабаб демографик жараён, яъни оилаларнинг фарзанд кўришни истамаслиқлари дидир. Ўзбекистонда бундай демографик муаммо кузатилмаётгани ижобий ҳолат. Айтилиб келинган даврада масала демографик жараённи меъёр доирасида сақлаб қолган ҳолда аёлларнинг эркин меҳнат қила олишлари, аёлларнинг бандлиги даражасини оширишда мувозанатни йўқотмаслик лозим. Демографик жараённинг ижобий сақланиши қайси ижтимоий тоифага кирувчи аёллар ҳиссасига кўпроқ тўғри келаётганини ҳам алоҳида тадқиқ этиш зарур.

Бу назаримизда, кўп тушунмовчиликка сабаб бўлган энг “оғир” масала. Айтилиб келинган масала оиланинг барқарорлигини таъминлашда асосий омилдир. Оила аъзолари бу масалада умумий тўхтамга келса кўплаб муаммоларнинг осон ҳал этилишига хизмат қилади.

Ҳар бир инсон ҳаёт давомида келажагини белгилашда, уни ўзгартириб юборадиган қарорларни қабул қилишига тўғри келади. Лекин, бу қарор ён атрофдагиларга ҳам таъсири бўлгани боис шахсий ҳаёт доирасидан чиқиб ижтимоий масалага айланади. Бу ерда гап охириги қарорни чиқарувчи “ҳакам” ҳақида кетмоқда. Оилада ҳал қилувчи ҳуқуққа эга бўлган “ҳакам”лик демократия, умуман жамият қоидаларга тўлиқ мос тушади. Асосий муаммо мазкур “ҳакам”нинг ҳакамлик қилишга қанчалик салоҳиятга эга эканида. Айтилиб келинган муаммо хотин-қизларнинг қийин жараёнга тушиб қолишларига сабаб бўлмоқда. Умуман олганда, мавжуд муаммоларнинг барчасининг асосида ҳаёт фалсафаси ётибди.

Ажралишлар Ўзбекистон Республикасида йилдан йилга ортиб борапти. Шундай бўлса ҳам мамлакатдаги жараён дунёдаги жараёнга нисбатан ҳозирча

яхши. Бу жараён халқимизнинг оилани муқаддас билгани сабаблидир. Эртага жаҳон миқёсида кузатилаётгани каби жараён изидан чиқиб кетмаслиги учун бугун миллий кадриятларимизнинг илдизини ўрганиш орқали ва замонавий ахлоқсиз таълимотларга қарши тура оладиган бўлишимиз шарт. Ён қўшнимиз Қозоғистон Республикасида ажралишлар бўйича жаҳондаги ўнталikka киргани ҳам бизга қаттиқ огоҳлантиришдир⁴³.

Ўзбекистон Республикасида ажралишлар сони кўпайиб боришини асрлар давомида шаклланган миллий кадриятларнинг нутилиб, уларнинг ўрнига янгиларининг халқ онгига сингиб бораётгани билан асослаш мумкин. Аҳолисининг 90 фоизидан ортиғи мусулмон бўлган Ўзбекистон Республикасида гендер тенглигини таъминлаш мақсадида жуда кўп ишлар амалга оширилмоқда, бу ижобий ҳолат албатта. Бу ишларнинг бари Ажралишлар эвазига ёки ноанъанавий оилаларнинг кўпайиши, демографик кризис эвазига бўлмаслиги учун танлаган йўли натижа бермаган давлатлар тажрибасига асосланмасдан, балки менталитемизга мос тушадиган меъёрларни ишлаб чиқиш зарур.

Тошкент шаҳар ҳокимлиги матбуот хизматининг маълумотиغا таяниб “Uzdeyli.uz” нашрининг 2019 йилнинг апрель ойи маълумотларига кўра январ-феврал ойида: “769 та ажралиш бўлган. Бу кўрсаткич ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 131 тага кўп. Ажралиш сабаблари турлича, судга мурожаат қилганларнинг 48% оиладаги мунтазам бўладиган жанжалларни, 16% бирга яшамаслигини, 9% оилада фарзанднинг йўқлигини, 7% миграция муаммолари қониқтирмаслигини, 6% турмуш ўртоғининг ҳиёнатини, 3% молиявий шароит қониқтирмаслигини, 2% турмуш ўртоғининг сипиртли ичимликка муккасидан кетгани ёки наркотикка боғланиб қолганини сабаб қилиб кўрсатганлар⁴⁴. Келинг айнан мана шу муаммолар сабаб оиланинг бузилишидан сақлаб қолиш учун ўтмишда қандай йўл тутилганини XIX аср бошида ёзилган асардан излаб кўрамиз.

Бугунги кунда, ҳақли равишда оиланинг келажакда мустаҳкам бўлиши, ажралиш бўлмаслиги учун турли эҳтиёт чоралари кўрилмоқда. Шунча чоратадбирлар ўтказилишига қарамай ҳар-хил сабабларга кўра уларнинг сони ортиб бормоқда. Назаримизда, бу ерда йўл қўйилаётган хато, ёшларни масъулиятини ошириш мақсадида огоҳлантиришлар натижасида, оила қуриш бу масъулият, ҳатто машаққат, деб ундан бешишларига, умуман ажралиш табиий ҳолат даражасига тушиб қолаётгани ҳам сабаб бўлаётганга ўхшайди. Оилавий ҳаётнинг афзалликлари ҳақида лом-мим дейилмаяпти. Бундай хулосага келишга рисоладаги куйидаги маълумот туртки бўлди. “Эй камбағал фарзанд ва эй, эри бўлмаган аёл, агарда аёл киши эрининг юзига назар солса, у каъбани тавоф қилганидан кўра яхшироқдир”. Диққат қилинг-а, мурожаат камбағал йигитга ва ёлғиз аёлга бўлаяптики, аёл йигитнинг камбағал бўлишига ҳам эътибор бермасдан оила курса ҳам қанча манфаат топиши айтилмоқда. Халқимизда

⁴³ https://forbes.kz/process/expertise/pochemu_kazahstantsyi_voshli_v_top-10_stran_po_urovnyu_razvodov.

⁴⁴ <https://www.uzdaily.uz/ru/post/42927>

“давлатнинг эрта-кечи бўлмади” деган ҳикматли гап бор. Ёлғиз яшамасликка тарғибнинг яна бир гўзал намунаси: “эри ундан рози бўлган ҳар аёл ўзининг жаннатдаги жойини кўрмагунича ва кавсар сувидан ичмагунича бу жаҳондан ўтмайди, ҳамда Хадича ва Фотима, у иккисидан Аллоҳ рози бўлсин, билан бирга бўлади”.

Ажралишларнинг 6% турмуш ўртоғининг хиёвати сабаб бўлиши билан боғлиқ. Хиёнат маънан соғлом киши қоралайдиган ҳислат бўлса ҳам, эр ва хотиннинг бир-биридан кўнгли қолиши бунга асосий омиллардан экани ҳақида кўп айтилган. Аксар ҳолатда хиёнат қилаётганлар оилавий ҳаётнинг илк дамларида эмас, аксинча маълум вақт бирга яшаганларидан сўнг қўл урадилар.

Юқоридаги таҳлилларни умумлаштирган ҳолда оила ва гендер сиёсати учун мутасадди давлат ташкилотларига бу масалада давлат сиёсати формасини (либерал – оила моддий жиҳатдан деярли қўллаб-қувватланмайди; консерватив – оила моддий жиҳатдан ўртача даражада қўллаб-қувватланади. Ижтимоий ҳимоя анъанавий оилаларга қаратилган бўлади; социал-демократик – универсал тарзда қўллаб-қувватланади) аниқлаштириб олишларини тавсия қилган бўлардик. Оила қурадиган ёшларга фақат масъулият ҳақида сўзламасдан, оилавий ҳаётнинг гўзал фойдалари ақида ҳам маълумот бериб туриш керак. Ярашув кенгаш вакиллари ажрашаётган томонга фақатгина сабр қилишни насиҳат қилмасдан, сабр қилганлари эвазига муносиб мукофот ҳам тақлиф этишлари кераклиги аён бўлади. Бу тақлиф бугунги ёшлар дунёқарашидан келиб чиққан ҳолда бўлиши керак.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. *Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев: Мамлакатимиздаги бой тарих, боболаримиздек буюк алломалар ҳеч қаерда йўқ // “Халқ сўзи” газетаси. 2018 йил 21 декабрь сони.*
2. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2020 йил 18 февралдаги ПФ-5938-сонли Фармони // www.lex.uz.*
3. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сонли Қарори // www.lex.uz.*
4. *Sheila Rule. Rihgts for Gay Couples in Denmark, The New York Times. Oct. 2, 1989. – Б. 8.*
5. *<https://gender.stat.uz/ru/osnovnye-pokazateli/demografiya/braki-i-razvody/209-razvody-po-obrazovaniyu-razvodyashchikhsya-v-2007-2013-gg-ru>.*
6. *<https://www.gazeta.uz/ru/2019/12/29/divorce/>.*
7. *<http://istmat.info/node/18483/>.*
8. *<https://nasvidanii.ru/blog/statistika-razvodov>*
9. *https://www.repubblica.it/vaticano/2020/10/21/news/papa_unioni_civili_gay-271344386/.*
10. *https://forbes.kz/process/expertise/pochemu_kazahstantsyi_voshli_v_top-10_stran_po_urovnyu_razvodov.*
11. *<https://www.uzdaily.uz/ru/post/42927>*

Yuldasheva Nilufar Abdullayevna,
*pedagogika fanlari doktori, professor
Toshkent amaliy fanlar universiteti*

“Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi” kafedasi mudiri

Qudratova Shaxnoza Baxtiyor qizi,
Toshkent amaliy fanlar universiteti

*“Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi” kafedasi
katta o‘qituvchisi*

JAMIYATIMIZDA OILALARNING MA'NAVY JIHATDAN RAVNAQ TOPISHIDA KONSTITUTSIYADAGI QONUNCHILIGIMIZNING AHAMIYATI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jamiyatimizda oilalarning ma'naviy jihatdan ravnaq topishida konstitutsiyadagi qonunchiligimizning ahamiyati haqida atroflicha ma'lumotlar berilgan*

Kalit so‘zlar: *konstitutsiya, oila, qonunchilik, ta'lim-tarbiya, taraqqiyot, xususiyat, tarbiya, rivojlanish*

Abstract: *This article provides detailed information about the importance of our constitutional legislation in the spiritual development of families in our society.*

Keywords: *constitution, family, legislation, education, development, character, upbringing, development*

Kirish. Hammamizga ma'lumki taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakat qudratini, millatini buyuk qiladigan kuch ham – ilm-fan, ta'lim-tarbiyadir. Ertangi kunimiz vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda ta'lim tizimi va oilalarda farzandlarimizga berayotgan bilimlarimiz, tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq" – deya ta'kidlaydi mamlakatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev.

Ushbu so'zlarni davom ettirgan holda aytish joizki mamlakatimiz rahbarining tashabbuslari bilan “Besh yillik yangi Taraqqiyot strategiya”mizni e'lon qilinganligi. Oldimizga yalpi ichki mahsulot va eksportni karra-karra oshirish, sanoatni va axborot texnologiyalarini keskin rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ulkan marralarni oldik. Bu vazifalarni kim uddalaydi? Albatta, maktabda zamonaviy bilimlarni egallagan, raqobatbardosh yoshlar” deya kuyinib gapirishlari bejizga emas.

Shu boisdan ham ushbu ishlarni amalga oshirish uchun, bizga sifatli ta'lim tizimi, zamon talablariga javob beradigan va barcha shart-sharoitlarga ega maktablar, ularda malakali pedagog-kadrlar, boshqaruvchilik va liderlik qobiliyatiga ega maktab direktorlari kerak. Taraqqiyot strategiyasida to'rtinchi ustuvor yo'nalish ham, “Inson qadri uchun – 100 ta maqsad”ning 5 ta maqsadi hamda undagi 18 ta vazifalar ham bevosita maktab ta'limi bilan bog'liqligini alohida ta'kidlash kerak.

Bundan tashqari “Har kim ta'lim olish huquqiga ega” ekanligi bosh qomusimiz Konstitutsiyada e'tirof etilganligi bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning tamal

toshidir. Zero, Konstitutsiya huquqlarimizning asosiy manbai, mamlakatimizning butun huquq tizimi uchun boshlang’ich asoslarni mujassam etgan bosh qomus hisoblanadi. Insonning eng asosiy huquq va erkinliklaridan biri bo’lgan ta’lim olish huquqining, avvalo, Konstitutsiyada mustahkamlanishi jamiyatimiz rivoji uchun beqiyos ahamiyatga ega. Zero, ta’lim olish huquqi tabiiy xususiyati shu bilan izohlanadiki, rivojlanish, ayniqsa, ma’naviy kamolotga intilish inson fitratiga xos omil, ta’limda aynan taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi oiladan boshlanishini hisobga olishimiz kerak.

Asosiy qism. Konstitutsiyamizga kiritilgan o’zgartishlar qatorida aynan ta’limga oid yangi qoidalar qo’shilishi mamlakatimizning yuksalish va taraqqiyot tomon yuzlangani, ta’limni eng muhim qadriyatlardan biri sifatida ulug’layotganining yorqin isboti hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 20-iyundagi Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvidagi nutqida “Biz oila, maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’limni hamda ilmiy-madaniy maskanlarni Uchinchi Renessansning eng muhim bo’g’inlari, to’rt uzviy halqasi deb hisoblaymiz. Shunday ekan, Yangi O’zbekiston bunyodkorlari bo’lmish o’g’il-qizlarimizning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini har tomonlama qo’llab-quvvatlashni Konstitutsiyada mustahkamlab qo’yish – dolzarb masaladir. Bosh qomusimizda bolaning manfaatlari, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to’laqonli rivojlanishi uchun barcha sharoitlarni yaratish ustuvor yo’nalishlardan biri sifatida o’z aksini topishi zarur” degan taklifni ilgari surgan edilar.

Shu davrga qadar maktabgacha ta’lim tizimi konstitutsiyaviy huquqiy nuqtai nazaridan tartibga solinmagan. Biroq mazkur masala qonun darajasida mustahkamlangan. Masalan, 2019-yil 16-dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi Qonunda har bir bola maktabgacha ta’lim va tarbiya olish huquqiga ega ekanligi kafolatlangan. Bunga ko’ra, davlat har bir bolaning umumiy o’rta ta’lim tashkilotiga o’qishga kirishidan bir yil oldin davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida umumiy o’rta ta’limga majburiy bir yillik tayyorgarlikdan o’tishga bo’lgan huquqini kafolatlaydi.

Bolaning oilada ta’lim va tarbiya olishiga doir davlat kafolatlari davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari negizida maktabgacha ta’lim va tarbiya xizmatlarini ko’rsatish, shuningdek ta’lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini tashkil etish orqali ta’minlanadi.

Bunday qo’shimchalar kiritishga xalqaro normalar, xorijiy davlatlar konstitutsiyalari, shuningdek fuqarolardan kelib tushgan taklif va tavsiyalar asos bo’ldi. Jumladan, Bola huquqlari to’g’risidagi konvensiyaning 27-moddasida davlatlar har bir bolaning jismoniy, aqliy, ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy kamol topish uchun zarur hisoblangan turmush darajasiga ega bo’lish huquqini e’tirof etishi zarurligi belgilangan.

Ushbu o’zgartirishlar orqali ilk marotaba bog’cha yoshidagi bolalarning ta’lim va tarbiyasi sohasidagi davlat kafolatining konstitutsiyaviy darajada belgilanishi ta’lim

uzviyligining samarasini orttiradi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 4-yo'nalishida ko'rsatilgan maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi maktabgacha ta'limda qamrov darajasini 80%ga etkazish hamda 7 mingdan ziyod yangi NMTTni tashkil etish kabi vazifalariga mos keladi. Bu ham o'z navbatida oilalarga berilayotgan imkoniyatlardan darak beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda bog'cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'lim yo'nalishi bilan to'liq qamrab olish uchun zarur sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu maqsadlarni ro'yobga chiqarish maqsadida 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi.

“O'zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi”ning qabul qilinishi sohadagi islohotlarni amalga oshirishda huquqiy asosni yaratdi. Maktabgacha ta'limni rivojlantirishda hududlar, shahar va qishloqlar o'rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etishga, davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy kapitalni jalb etishni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yangi bog'chalarni qurish uchun 2017–2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish Dasturi hamda 2030-yilga qadar maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini 80,8 foizga etkazish maqsad qilingan maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi.

So'nggi yillardagi davlatning qo'llab-quvvatlovi natijasida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2016-yildagi 27,7 foizdan 71,8 foizga, maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 5211 tadan 29 mingdan ziyodga etkazildi.

2022-yilda “Finance Inquirer” nashri bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilish bo'yicha eng yaxshi dinamikaga ega bo'lgan dunyodagi eng peshqadam 10 ta davlatni e'lon qildi. Unda O'zbekiston jahon reytingida birinchi o'rinni egalladi.

Xulosa. Ushbu qo'shimchalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Konstitutsiya kuni bayrami munosabati bilan yo'llangan tabrikda Konstitutsiyani isloh qilish bo'yicha ko'rsatib berilgan asosiy yo'nalishlarning to'qqizinchisi – “Uchinchi Renessansning to'rt uzviy halqasi bo'lmish bog'cha, maktab, oliy ta'lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish masalalarini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo'yish”, degan takliflaridan ham kelib chiqadi.

So'nggi yillarda yurtimizdagi 10 000 ortiq o'rta maktablar, 150 dan ortiq xususiy maktablar, 2500 dan ortiq nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, 167 oliy o'quv yurtlari, ulardan 70 tasi xorijiy OTM filiallari, 34 hususiy va boshqa shakldagi ta'lim muassasalari va tashkilotlar rivojlanishi uchun keng sharoitlar yaratilgan. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ham maktabgacha ta'limning qamrov darajasini 67%dan 80% etkazish, maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratish hamda darsliklarni yangilash uchun Davlat byudjetidan 605 mlrd. so'm ajratish, oliy ta'limga qamrov darajasini amaldagi 28% dan 50%ga etkazish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida 100 ming o'rinli talabalar turar joylarini barpo etish nazarda tutilgan.

Konstitutsiyaga kiritilgan mazkur yangi norma oiladagi ta’lim va tarbiya, davlat va nodavlat ta’lim muassasalari faoliyatini tartibga solish bo‘yicha davlat siyosatining eng asosiy mazmun-mohiyatini belgilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni
2. Mukhamedzhanovna, M. Z., Akmalovna, U. N., Abdusamatovich, K. S., Gapparovna, S. D., Arifovna, U. D., & Tashpulatovna, K. P. (2021). *Bioethics Paradigm of Humanization of Medical Education. Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 125-133.
3. Otavaliyeva U. “Bola tarbiyasida bog‘cha va oila hamkorligi” T.: 1994
4. Фатима Ташпулатовна Худайбергенова, & Дилором Арифовна Умарова (2022). ПАРАДИГМА БИОЭТИКИ В СФЕРЕ БИОЭТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Academic research in educational sciences, TSDI and TMA Conference (1)*, 196-200. doi: 10.24412/2181-1385-2022-196-200
5. Умарова, Д. А. (2021). *важные и актуальные аспекты модернизации госуправления в стратегии действий по пяти направлениям развития республики узбекистан в 2017- 2021. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(8), 421-430.
6. Мухамедов, А. Р. *законодательство узбекистана и некоторых зарубежных стран о преступлениях в сфере трансплантологии. Human dignity and human rights*, 108.
7. Мухамедов, А. Р. (2022). *Вопросы совершенствования законодательства Узбекистана о преступлениях в сфере трансплантологии с учетом зарубежного опыта. Academic research in educational sciences, (Conference)*, 92-97.
8. <https://lex.uz/docs/-6445145>

Сайёра Тўйчиева

Ўзбекистон халқаро ислом академияси
профессори, фалсафа фанлари доктори

МАРКАЗИЙ ОСИЁ АЛЛОМАЛАРИ АСАРЛАРИДА ТАОМЛАНИШ ОДОБИ ҲАҚИДА

Аннотация. Ушбу мақолада алломалардан Абу Зайд ад-Дабусий, Абу Ҳомид Ғаззолий, Али Сафий, Жалолиддин Даввонийларнинг асарларида овқатланиш одоблари ҳақида маълумотлар берилган. Ушбу тарихий манбалардаги маълумотлар кишининг кундалик турмушида зарур бўлган тартибни белгилаб беради. Шу билан бирга, илмий хулосалар ва тавсиялар берилган.

Калим сўзлар: алломалар, Дабусий, Ғаззолий, Сафий, Даввоний, мерос, таомланиш, одоб, хулоса, тавсия.

Abstract. This article provides information about eating etiquette in the works of scholars Abu Zayd al-Dabusi, Abu Hamid Ghazali, Ali Safi, Jalaliddin Davvani. The information in these historical sources dictates the routine that is necessary in a person's daily life. At the same time, scientific conclusions and recommendations are given.

Keywords: scholars, Dabusi, Ghazali, Safi, Davvani, heritage, eating, manners, conclusion, recommendation.

Ўтмишдан маълумки, ҳар қандай тараққий этган мамлакатларда ҳам олимлар ва мутафаккирларнинг ўрни ва нуфузи беқиёс бўлган. Юрт ўзининг шундай азиз ва етук фарзандлари билан доимо фахрланган ва юксак марраларни забт этган. Қадимдан аجدодларимиз ўзларининг ақл-заковати, тафаккур дунёси, юксак салоҳияти, бой илмий мероси билан жаҳон тамаддунига муносиб ҳисса қўшганлар.

Афсуслар бўлсинки, собиқ тузум даврида машҳур алломаларимизнинг илмий мероси бир томонлама ўрганилди. Уларнинг кадр-қимматини ўз мақомида бўлмади. Бу алломаларнинг асарларида инсон тарбияси, комил инсон ғояси асосида жуда ибратли панд-насихатларини ўзида жамлаган. Жумладан, инсон емаги, таомланиши билан боғлиқ пурмаъно фикрлари келажак авлоднинг кундалик турмушини яхшилашга, овқатланиш маданиятини юксалтиришга, уларнинг дунёқарашини кенгайтиришга ва маънавиятини шакллантиришга хизмат қилади.

Бу юк алломаларимиздан бири Абу Зайд ад-Дабусий (1039 йилда вафот этган) Аллоҳ инсонга берган барча неъматларига шукр қилмоғи лозим деб ёзган. Чунки “шукр қалб билан бўлади. Ҳар бир неъмат Аллоҳ таоло тарафидан келадиган марҳамат эканини билмоғинг ҳам қалб билан бўлади” [2: 53]. Шу боис, аввало, мусулмон киши ота-онаси, ўзи, аҳли аёли ва фарзандларини ҳалол ризқ билан таомлантиришга эътибор бериши зарур.

Таомланишда иккинчи одоб бу таомдан олдин қўлни ювмоқликдир. Бу ҳақда Абу Ҳомид Ғаззолий (1111 йилда вафот этган) ўзининг “Эй фарзанд” асарида шундай ёзган: “Овқатланишдан олдин икки қўлни ювиш суннат. Бунга бепарво

бўлмаслик керак”[3: 42]. Яна бир аллома Носириддин Тусий (1274 йилда вафот этган) ҳам таомдан олдин “киши дастлаб қўлини, юзини ва оғиз-бурнини ювиб кейин дастурхонга яқинига келиши лозим”, деб ёзган[4: 238].

Учинчи одоби бу дастурхон атрофида қулай ҳолатда ўтириб олиб, то туриб кетгунга қадар бир аснода, яъни ётиб олмай ёки ёнбошлаб овқатланиш каби ишларни қилмаслик. Бундай ҳолатлар нафақат беодобчилик кўриниши билан, балки соғлиққа зарар эканини бугунги даврда тиббиёт ходимлари бот-бот таъкидламоқдалар.

Масалан, япон олимлари инсон тик турган ҳолда овқатланишга ёки суюқлик ичишга одатланса, у албатта ҳаёти давомида кўричак касалини орттириб олиши аниқ деб хулоса қилишган. Чунки, инсон тик турган ҳолатида кўр ичак оғзи тепага, яъни овқат келиш йўлига қараб очилиб турса, ўтирган ҳолатда ичаклар тўпланиб, кўр ичак пастга қараб турар экан ва натижада унга ҳеч нарса тушмай, инсон у касалдан ўзини-ўзи сақлар экан. Абу Ҳомид Ғаззолийнинг ёзишича, “дастурхон ерга ёзилган бўлса, ўнг тизза тик тутилиб, чап оёққа ўтирилади”[3: 42]. Таомланишнинг тўртинчиси бу таом бўғзига етгунча тўйиб емаслик ҳисобланади. Аслида бу жуда хунук одат ҳисобланади. Шу боис, Жалолиддин Даввоний ўзининг “Ахлоқи Жалолий” асарида шундай ёзган: “ҳаммадан аввал таомга қўл узатмасинлар. Учта бармоқ билан олиб есинлар. Ва луқмани катта олмасин, тез ютмасин, оғзида кўп чайнамасин. Агар дастурхонда яхши таомлар бўлса, унга ҳарислик қилмасин”[2: 180].

Оилада ҳамма жамбул-жам бўлиб овқатланиши кўхна шарқликларнинг азалий удумидир. Бу овқатланишнинг бешинчи одоби саналади. Умуман бирор киши, агар мажбурият бўлиб қолмаса, албатта, бирор киши яъни шерик билан бирга овқатланса яхшидир, бутун оила бўлиб таомланишса, бу оилада барака бўлади дейишади қадимгилар. Айниқса, меҳмон кутганда ҳам ўзига яраша одоб анъанаси бор. Бу ҳақда Темурийлар даврида яшаб ўтган Али Сафий ўзининг “Одоб ул-асҳоб” асарида шундай ёзган:

“Зиёфат ва емак-ичмак одоби баёни”да меҳмондорчиликнинг ўнта одоби бор. Булар қуйидагилар: биринчи одоб, фақирларни меҳмон қилгайлар ва бойларни хос қилиб зиёфат қилмагайлар.

Иккинчи одоб, меҳмонни кўп икром ва эҳтиром қилгайлар. Меҳмон икромининг муддати уч кунгачадир. Тўртинчи куни кўп такаллуф қилмаса ҳам бўлади.

Учинчи одоб- уйнинг деворини махсус қилиб меҳмон учун ҳаддан ортиқ беамагай. Меҳмоннинг тагига гулдор гиламлар солиш жоиздур.

Тўртинчи одоб -таомни меҳмоннинг қошига тез келтиргай, нонни ва ўзга таомларни кўп исроф қилмагай.

Бешинчи одоб- меҳмонга таом қўйгандан кейин таом емоққа изн бергай. Таомдан олишни мезмон бошлаб бериши мустаҳабдир. Ва охири бўлиб тугатгай токи меҳмон тўхтаб қолмасин. Агар меҳмон мезбоннинг таниш ёронларидан бўлса, таомга биринчи бўлиб қўл узатмагай.

Олтинчи одоб- меҳмонни таомга хаддан ортиқ ундамагай. То уч мартагача ундагай. Ундан зиёда қилмагай.

Еттинчи одоб- меҳмонга таом емакликда мувофиғат қилмоқлик керак. Зеро у нофила рўзани ният қилган бўлса ҳам.

Саккизинчи одоб-меҳмонга лаззатлик ва тотлик таомини қўйгай. Агар таом оз бўлса ва меҳмоннинг очлигини англаса, ўзи камроқ егай. Таомдан сўнг меҳмон кетмоқчи бўлса, изн бериб уни эшиккача кузатиб қўйгай.

Тўққизинчи одоб- уйида нимаики бўлса, меҳмонга қўйгай.

Ўнинчи одоб -таом ейишда ортиқча такаллуф қилмагай, яхши ният билан қилган бўлса бўлур”[1: 45].

“Дастурхоннинг ҳамма томонига қўл чўзавермасдан таомни олдидан, луқмани кичик олиш одобдандур. Оғизда луқма бўлса, гапирмаган яхшидир. Бошқаларнинг луқмаларига қарамаслик, кўнгилни қолдирадиган ҳаракатлар қилмаслик, қаҳ-қаҳ отиб кулмаслик, оғизни чапиллатмаслик, бурун қоқмаслик керак. Булар ёмон ва гуноҳдир”[3: 63].

Халқимиз орасида қуйидаги овқатланиш одоблари бор:

- овқатланаётганда ҳеч қачон таомни ёмонламаслик;
- овқатланишда дастурхонга тўкилган нон ушоқларини териб ейиш;
- овқат ва ичимликни жуда совуқ ва жуда иссиқ ҳолда ейишдан сақланиш;
- овқатланганда оғизни тўлдириб чайнамаслик;
- овқатланишда шошилмаслик;
- оғизда луқма бўлиб гапиришдан сақланиш;
- овқатланишда ялпайиб ўтирмаслик;
- овқатланадиган пайтда хунук қилиқларни қилмаслик;
- овқатланаётганда баланд овоз гапирмаслик;
- овқатланаётганда бошқаларнинг ҳам таомланаётганларини эътиборга олиш;

- ётиб ёки тирсакка суяниб овқатланишдан тийилиш;
- овқатланишдан кейин оғиз ва тишларни тозалаш.

Таомланиш одоблари инсонлар орасида тартибли бўлиш, ўзаро муносабатларни мустаҳкамлаш, нохуш ҳолатларни олдини олиш, поклик ва ортиқча овқаш отланишдан сақланиш натижасида инсон соғлигини ҳимоя қилиш учун хизмат қилади. Зотан, инсоннинг ҳар бир яхши фазилати унга чирой берса, салбий одатлари ундан бошқаларни узоқлаштиради. Ҳар биримизнинг хулқу одатимиз ўзгаларга намуна ва ойна кабидир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. *Али Сафий. Одоб-ул-асҳоб. – Душанбе: Маориф, 1998. – Б. 42.*
2. *Буюк алломаларимиз меросида маърифий ислом. Тузувчилар Н.Насруллаев ва бошқалар. – Тошкент, 2021. – Б. 53.*
3. *Имом Абу Ҳомид Фаззолий. Эй фарзанд. Таржимон Ж. Жўраев. Тузувчи Аббос Аҳмад. – Тошкент., 2021. – Б. 42.*
4. *Кадиров М. Работа Насриддина Туси «Этика Насири» // Востоковедения, 2015. № 2. – С. 228-241.*

Шаамирова Юлдузхон Кабилджановна,
Тошкент Амалий фанлар университети
Педагогика факультети
Педагогика кафедраси профессори в/б.
педагогика фанлари номзоди, доцент

ТЎЛИҚ ОИЛА – ЖАМИЯТ ПОЙДЕВОРИ

Аннотация. Ушбу мақолада оиланинг муқаддаслиги ва шу билан бирга оила аъзоларининг масъулиятлилиги, унда нотўлиқ оиланинг пайдо бўлиши, ажралишлар сабаблари, ота-онанинг бурчлари, ҳақида сўз юритилади.

Таянч сўзлар. Оила, бурч, миграция, минталитет, орият, одоб, ахлоқ, вазифа, анъана, пойдевор.

Abstract. This article discusses the sanctity and responsibility of the family, the origin of an incomplete family, the reasons for divorce and obligation.

Keywords. Family, duty, migration, mentality, etiquette, morals, duty, tradition, foundation.

Мустақил Ўзбекистон жамиятининг халқаро миқёсдаги нуфузи нафақат моддий неъматлар мўл-кўллиги билан, балки фуқароларнинг маънавий етуклиги билан ҳам белгиланади. Миллий мустақиллик туфайли оила манфаатларини ҳар томонлама муҳофаза қилиш, унинг маънавий, тарбиявий имкониятларини юксалтириш – Ўзбекистон Республикасида давлат сиёсати даражасига кўтарилди.


Президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёев ҳам ўз оиласи ва аъзоларига бўлган муносабати ҳақида шундай дейди: “Оила мен учун муқаддас. Муқаддаслиги шуки авваламбор қаерда ишлашидан қатъий назар, ким бўлишдан қатъий назар агар оилада ҳалоллик, муносабат, тарбияга алоҳида эътибор бермаса, ҳеч қачон натижа бўлмайди. Шунинг учун мен фарзандларимнинг тарбиясига жуда катта эътибор бераман. Ҳар бир фарзандимга ҳам, набирамга ҳам алоҳида ўзимнинг муносабатим бор. Ҳар бирининг орзусини, истагини биламан.”⁴⁵ Бу сўзлар ҳар бир ота-онага масъулият юклайди. Ота-она бўлиш нафақат бахт, балки масъулият, меҳнат, зийраклик, сабр ва фидойилик демакдир.

Оилага тааллуқли бой ва сермазмун миллий анъаналарни авайлаб-асраш, уларни умумбашарий қадриятлар билан уйғунлаштириш, оила ва никоҳнинг муқаддаслигини ёш авлод онгига сингдириш, оила муаммоларини илмий ўрганиш йўлга қўйилди.

Мустақилликнинг дастлабки йилларида ажралишлар сонининг кўплигига ташқи миграциянинг таъсири катта бўлди. Маълумки, собиқ Иттифокнинг парчаланиши натижасида маҳаллий миллат бўлмаган оилаларнинг маълум қисмининг кўпчилиги ўзларининг она юртларида яшаш истагида кўчиб кетдилар. Бироқ ана шу оилаларда эр ёки хотиннинг кўчиб кетишга хоҳиши бўлмагани

⁴⁵ gazeta.uz.2018. 25 iyul

сабабли, улар орасидаги никоҳ аҳди бекор қилинган. Натижада ажралишлар сони ортиб кетди.



Демак, оилаларда фарзанд туғилмаганлиги учун кўпроқ ажралишлар содир бўлмоқда. Бироқ, фарзанди бўла туриб, ажралаётган оилалар сабабини ўрганиш кўрсатишича, оилаларнинг ажралиб кетишига кўпинча, эр-хотин дунёқараши бир-бирига тўғри келмаслигидир.

Бугунчи? Бугунги кунга келиб барча миллат вакиллари ўз хохишлари ва имкониятларидан келиб чикиб яшаш манзилларини танлаб, ўз танловларини қилиб бўлдилар. Лекин муаммо йўқолгани йўқ. Ҳозирги кунда ҳам оилаларда ажралишлар бўлиб келмоқда.

Оилаларнинг бузилиб кетишига ёшларнинг оила қуришга тайёр бўлмайдиганлиги, никоҳга киришлари, шунингдек йигитларимиз ўзлари пул топмай ота-оналари ҳисобига уйланиб, муқаддас ҳисобланган оила ва фарзанднинг қадрига етмасликлари, қизларимизнинг турмушдаги уқувсизликлари, рўзғор ишларини билмасликлари, сабр деган қиммат феъл-атворнинг йўқлиги, ота-онанинг шахсий намунада эмасликлари, оддий муомала маданиятини билмасликлари, муросасизликлари сабаб бўлмоқда.

Янги ташкил этилажак оилаларнинг пойдевори мустаҳкам ва соғлом оила бўлиши учун ёшларга оила қуришнинг назорат қилиниши мактабдан бошлаб ўргатиш лозим. Уларга ўзбек оилаларининг урф-одатлари, удумлари, анъаналари, ахлоқий маданияти, шунингдек турмушда учраб турадиган баъзи қийинчиликларга бардошли, чидамли қилиб, уларни оилавий ҳаётга тайёрламоқ лозим.

Нотўлиқ оилаларни пайдо қилувчи асосий сабаблардан бири – ажралишдир. Оила муаммоларини ўрганишга бағишланган тадқиқотларнинг деярли барчасида ўзбек оилаларида ажралиш бошқа миллатлар оилаларига нисбатан 1,5-2 марта камлиги таъкидланади. Бироқ, республикамиздаги оила аъзоларининг ўртача миқдори 5,6 кишидан иборат эканлиги, мактабгача ва мактаб ёшидаги болаларнинг сони бир неча миллиондан ортиқ эканлигини эътиборга олсак, нотўлиқ оилаларда «нотўлиқ тарбияланаётган» ўсмирлар муаммоси яққол намоён

бўлади. Шу сабабли нотўлиқ оила – маънавий тарбия муаммосига айланади. Бу эса ўз навбатида «оиланинг маънавий муҳити», «ота-она маънавиятига таъсир этувчи омиллар», «отасиз ёки онасиз ўсаётган ўсмир маънавияти», «нотўлиқ оилаларда ўсмирларни миллий-маънавий тарбиялаш», «ота маънавияти», «она маънавияти», «ўғил маънавияти», «қиз маънавияти» каби янги – миллий педагогик тушунчаларни илмий-педагогик муомалага киритишни тақозо қилади.

Оилаларнинг маънавий баркамоллиги ва маънавий баркамол фарзандларни тарбиялаб етиштиришлари – оилаларда кузатилаётган низоларни келтириб чиқарувчи сифатларни бартараф қилиш, ижобий фазилатларни махсус сингдира боришга боғлиқлиги аниқланди. Яъни оилаларда тез-тез учраши илмий тасдиқланган низолар:


- бола тарбияси;
- уй вазифалари тақсимоти;
- қудаларнинг ўзаро келишмасликлари;
- турмуш ўртоғимнинг менинг ота-онам билан келишмаслиги;
- моддий қийинчиликлар;
- дунёқарашларнинг тўғри келмаслиги;
- рашкчилигим;
- турмуш ўртоғимнинг рашкчилиги;
- турмуш ўртоғимнинг жўрабозлиги;
- ичкиликбозлиги;
- турмуш ўртоғимнинг дугонабозлиги;
- бир-бирига эътиборсизлиги;
- ота-оналар аралашуви;
- кўполлиги;
- мен билан ҳисоблашмаслиги;
- ота-онасига ҳаддан ташқари боғланиб қолганлиги;
- яшаш шароити ёмонлиги;
- бефарзандлик;
- руҳиятимни тушуна олмаслиги;
- жинсий алоқалардаги номутаносиблик;
- ўз ишига ўта берилиб кетганлиги;
- арзимаган нарсалар туфайли;
- қизларнинг жуда ҳозиржавоблиги;
- йигитларнинг масъулиятсизлиги;
- ишсизлик;
- мақсаднинг нотўғрилиги;
- кийиниш талаблари;
- ўйин-кулгуга келинларнинг ўчлиги;
- шароитдан нолишлик;
- ўз вазифсини билмаслик;
- бошқа сабаблар.

Оилаларда ота-онанинг тарбиячи сифатидаги фаолиятларидаги камчиликлар:

- ота-онанинг ўзларини болаларининг боқувчилари сифатида англаб, тарбиячи эканликларини чуқур англамасликлари;
- оилаларда учровчи ахлоқсиз турмуш тарзи;
- ота-онанинг болаларга айтган сўзлари, панд-насихатлари ва амалдаги хатти- ҳаракатлари орасидаги тафовут;
- фарзандларига қилган хизматларини миннат қилаверишлари, фарзандлар билан асосан буйруқ, ҳукм орқали гапиришлари;
- ўқувчи фарзандларининг ҳаёти, қизиқишларига эътиборсизликлари, уларга вақт ва диққат ажратмасликлари;
- ўқувчиларни оила юмушларига жалб қилмаслик (айниқса ўсмирлар ўзларига нисбатдан бепарволикдан қаттиқ изтироб чекадилар. Натижада ота-она ва - ўсмир орасида совуқ муносабатларнинг пайдо бўлишига йўл қўйилмоқда);
- рағбатлантириш ва жазолашда тарбиявий мақсаддан келиб чиқа билмаслик.
- миллий педагогик маданият даражасининг пастлиги;
- миллий-маънавий қадриятларга ҳурмат ҳиссини шакллантира билмаслик, хафсаласизлик;
- фарзандига ваъда бериб, бажармаслик;
- мактаб билан таълим-тарбиявий ҳамкорликдан «вақт йўқ» деган баҳона билан ўзини четга олиш;
- болаларини ўз аждодлари, шажаралари билан таништирмаслик ва ҳ.к.

Нотўлиқ оилаларда шаклланган ўсмирлар маънавиятида, ижтимоий ҳаётида ҳам улар ўсган муҳит акс этишини кўрсатади. Бу вояга етмаганлар билан ишловчи нозирлар ҳужжатларида «ҳеч қаерда ишламайди» деб белгиланган ҳужжатларида, вояга етмаган ўсмирлар томонидан содир қилинаётган жиноятлар статистикасида, гиёҳвандлик, ўз уйини ташлаб кетган ўсмирлар (кўча болалари) билан ўтказилган 70 дан ортиқ якка суҳбатларимизда аниқланди. Нотўлиқ оилаларда ўсмирлар ва ота-она орасида низоларнинг энг кўп учраши қайд қилинди

***Нотўлиқ оилада ўсаятган ўсмирлар билан ота-она ўртасидаги
низолар кўрсаткичлари***



1-ҳеч қачон; 2-онда-сонда; 3-кўпинча; 4-тез-тез; 5-ҳар куни

Юқоридаги тарихий манбааларидан кўриниб турибдики, инсон ҳаёти давомида нафақат ижобий, балки салбий ҳодисот, сифатлар билан ҳам тўқнаш

келади. Демак, маънавий-маърифий фаолият йўналишлари нафақат яхши, ижобий фазилатларни фарзандларга синдиришга, балки салбий, шахс, оила, миллат, давлат учун зарарли таъсирларга қарши курашишга ҳам махсус йўналтирилиши керак. Оила тарбиясида айнан шу жабҳада бўшлиқ мавжудлигини кўрсатди. Бу бўшлиқ миллий истиқлолий мафкурани шакллантиришга қаратилган амалий тарбия билан тўлдирилмоғи лозим. Зеро, «Қаерда мафкуравий бўшлиқ ҳосил бўлса, ўша ерни бегона мафкура тўлдиради», деган ўғитларини ота-оналар доимо ёдда тутишлари зарур.

Юқоридагилардан келиб чиқиб қуйидаги хулосага келамиз:

Ўсмирларда миллий-маънавий шакллантириш учун шу жараённинг педагогик-психологик хусусиятлари ва бу жараённинг нотўлиқ оилаларда намоён бўлиш қонуниятларини ўрганиш мақсадга мувофиқ.⁴⁶

– олий таълим ва профессионал таълим тизимида оилалар билан ишлайдиган махсус ижтимоий ходим ихтисослиги бўйича мутахассислар тайёрлашни йўлга қўйиш мақсадга мувофиқ бўлади;

– тўлиқсиз оилаларда қиз бола тарбиясининг ўзига хос хусусиятлари билан боғлиқ ҳолда миллий руҳда тарбиялаш борасида мавжуд илғор тажрибаларни оммалаштириш зарур;

– маҳаллалардаги кўп қаватли бинолар, ҳовлилар, коттеджлар, дала ҳовлилар, қишлоқ, овулларда тўлиқсиз оилада тарбияланаётган турли ёшдаги болалар, ота-оналар гуруҳларини шакллантириш ва уларнинг қизиқишларидан келиб чиқиб жамоат ишларига жалб этиш лозим;

Оилаларда ахлоқ-одоб қоидалари, урф-одатлари, анъаналарининг ўзига хос хусусиятлари, аجدодлари, ўзлари туғилиб ўсган ўлка тарихи, маънавияти тўғрисидаги билимларни, ўсмир маънавиятини юксалтиришга қаратилсагина, шахсий намуна кўрсатилсагина бундай оилаларда тарбияда кутилган натижага эришилади.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати

1. Мусурмонова О. *Оила-мўъжаз Ватан*// Халқ сўзи. 1999 йил 14 июль
2. Сайид Олим. *Тирик етимлар. // Оила ва жамият*// 1998 йил 14-20 сентябрь.
3. Шаамирова Ю.К. *Нотўлиқ оилаларда ўсмирларнинг миллий-маънавий тарбиялаш. Номзодлик диссертацияси. 48-бет.*
4. *gazeta.uz.2018. 25 iyul*
5. Narbaeva, T. K., & Musurmanova, A. (2021). *Priority Areas Of Spiritual, Moral And Physical Education Of Youth In The Family. Ilkogretim Online, 20(3), 1648-1656.*
6. *Ўзбекистон Республикасининг” Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида”ги Қонуни. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами.; 2010 й., 39-сон.*
7. Шаамирова, Ю. (2002). *Ўзбек оиласи маънавияти тарихига бир назар. Жамият ва бошқарув.*
8. Шаамирова Ю.К. (2023). *Маҳаллалардаги тўлиқсиз оилаларнинг ўзига хос хусусиятлари. Analysis of world scientific views International Scientific Journal, 1(4), 141-148.*

⁴⁶ Шаамирова Ю.К. *Нотўлиқ оилаларда ўсмирларнинг миллий-маънавий тарбиялаш. Номзодлик диссертацияси. 48-бет.*

Isayeva Muhabbat Rahmonaliyevna,

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi

Harbiy psixologiya va pedagogika kafedrası,

pedagogika fanlari nomzodi, psixologiya sikli dotsenti

YOSHLAR TARBIYASIDA “OILA-MAHALLA-MAKTAB” HAMKORLIGI TIZIMI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI XUSUSIDA

Annotatsiya. *Maqolada bugungi jadal islohotlar davrida “Oila-mahalla-maktab” hamkorligi tizimi va uning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni, ma’naviy va tarbiyaviy aloqalari haqida so‘z yuritiladi. Unda mahallalarda tashkil qilingan “Mahalla posboni” tuzilmasi, “Yoshlar bilan ishlash komissiyalari” ning oila va maktab bilan mushtarak aloqalari ham yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Oila, mahalla, maktab, yoshlar tarbiyasi, hamkorlik, komissiya, kitob, ma’naviyat, g‘oya, ta’lim, tarbiya, jamoatchilik, ota-ona, dastur, fuqaro.*

Abstract. *The article describes the role of the “Family-makhallya-school” system and their spiritual and educational ties. It also highlights the close contacts of such structures as the “Posbon Mahalla” and the “Youth Work Commission” with the families living in the makhalla.*

Keywords: *Family, makhalla, school, youth upbringing, cooperation, commission, book, spirituality, idea, education, upbringing, parents, program, citizens.*

Ma’lumki mustaqillik yillarida mahalda barkamol shaxsni voyaga etkazish, yoshlarda vatanga sadoqat tuyg‘ularini kuchaytirish, oilalar totuvligi hamda farovonligini ta’minlash borasida salmoqli ishlar qilindi. Shu bilan birga fuqarolar yig‘inlari huzurida “Yoshlar bilan ishlash komissiya”lari tashkil etilgan bo‘lib, olib borilayotgan tizimli siyosat natijasida bugungi kunda mahalla o‘z faoliyatini oilalarni mustahkamlash, oilaviy janjallarni tinch yo‘l bilan bartaraf etish, oilalarda ajralishlarni kamaytirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, yoshlar orasida jinoyatchilikni qisqartirish, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish, mahallada turli sport maydonchalarini qurish va boshqa tadbirlarni tashkil etishga qaratmoqda. Buning yorqin ifodasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida o‘z ifodasini topdi.

Mahallada yoshlar ongida milliy-ma’naviy qarashlarni shakllanishi ijtimoiy hayotimizning biron-bir sohasi bilan chegaralanib qolmaydi. Bunda oila, mahalla va maktab hamkorligining o‘z o‘rni bor. Bunda ayniqsa “Oila-maktab-mahalla” dasturi muhim rol o‘ynamoqda. Shunday ekan ta’lim-tarbiya ishlarini yanada takomillashtirish maqsadida 2012 yil 19 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori mustahkam huquqiy asos bo‘ldi.

Qarorda qator vazifalar qatorida oila, maktab va mahallada yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish, ularning ma'naviy dunyosini boyitish, adashib, bilib-bilmay turli oqimlar ta'siriga tushib qolgan yoshlar bilan ishlash tizimini yanada yaxshilash muhimligi ham alohida qayd etilgan. Ayniqsa Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan adashib, turli diniy oqimlar, yo'llarga kirib qolgan, ayrim ekstremistik diniy tashkilotlar, terrorchi guruhlar ishtirokchisiga aylangan fuqarolarni avf etish, ularni kechirish, yana ota onasi, oilasi va mahallasiga qaytarish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilganligi buning yaqqol dalilidir. Bu xususda davlatimiz rahbari 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida ham alohida ta'kidlagan edi.

Yot g'oyalarga qarshi ma'naviyatimiz va milliy g'oyadan maktablarda, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda, oliy o'quv yurtlarida, jamiyatimizning barcha qatlamlarida bizga mutlaqo begona bo'lgan zaharli intilishlarga, huruj va harakatlarga qarshi chiqishimiz lozim. Birinchidan, bunda eng muhim masalalardan biri odamlar o'z fikrini aytishga, erkin fikrlashga o'rganishi kerak. Ya'ni ularda fikrga qarshi fikr bo'lishi zarur. Shu bois yoshlarimizni maktab va oliy o'quv yurtlarida erkin fikrlashga, baxslashishga o'rgatish zarur.

Ikkinchidan, “O'z bolangni o'zing asra” tamoyiliga alohida ahamiyat qaratish lozim. Bu o'rinda avval sudlangan, ozodlikdan mahrum qilingan yoshlarni to'g'ri yo'lga solishda jamoatchilik, ya'ni mahalla fikriga quloq solish muhim ahamiyat kasb etadi. Darvoqe, oila, mahalla-ko'y, jamoatchilik fikri asosida ish yuritib, yoshlarni to'g'ri yo'lga solish azaldan xalqimiz milliy mentalitetining bir bo'lagi hisoblangan. Mahalla fuqarolar yig'inlari raislari, yaqin qo'shni O'zbekiston Yoshlar ittifoqi tuman va shahar kengashlari, xotin-qizlar qo'mitalari kafilligi asosida sudlanuvchilarga, ayniqsa, yoshlarga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo turlari tayinlanmoqda. Ularning to'g'ri yo'lga qaytishlari uchun yana bir bor imkoniyat berilmoqda.

Oila-mahalla-maktab tizimining birgina o'zi barcha jabhalarni qamrab olishi va ayrim muammolarni hal qilishi murakkab. Shu bois bugun mahallalarda jamoatchilik asosida faoliyat yuritayotgan komissiyalar tegishli idora va tashkilotlarga biriktirildi. Mahallalarda oilalar bilan hamkorlikda “Ota onalar unversiteti”, “Qaynonalar kengashi” va boshqa jamoatchilik tuzilmalari tuzildi.

Shuningdek o'rta maktablar, kasb hunar kollejlari, akademik litseylar va mahallalar hamkorligida yoshlarni kitob o'qishga qiziqish uyg'otish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, uyushmagan yoshlar bilan ishlash tizimini kuchaytirish uchun “Ta'lim oluvchi”, “Davomat” kabi tezkor tadbirlar, “Futbolimiz kelajagi”, “Ota onam va men-sportchilar oilasi”, “Har bir oila tadbirkor” dasturlari doirasida talay tadbirlar o'tkazildi. Ushbu masalalarni hal etishda ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida” gi farmoyishi va 2017-yil

13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida” gi qarori xalqimiz, ayniqsa yoshlar o‘rtasida kitob o‘qishni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qildi⁴⁷.

Shu maqsadda dastlab mahallalarda, so‘ngra tuman va viloyatlar miqyosida “Men sevib o‘qigan kitob”, “Eng yaxshi kitobxon” hamda Respublika “Yosh kitobxonlar” tanlovlari o‘tkazilib, Respublika bosqichi g‘olib bo‘lgan kitobsevar yoshlar “Spark” avtomobili sohibiga aylanmoqdalar. Buning uchun budjetdan tashqari mablag‘lar va xayriya mablag‘lari hisobidan ko‘plab pul mablag‘lari ajratilmoqda.

Bejiz o‘z davrida jadid ma‘rifatparvari Maxmudxo‘ja Behbudiy «Islohni maktab va madrasalardan boshlash zarur, chunki millat hayoti ta‘lim-tarbiya bilan belgilanadi»⁴⁸, demagan. Uning aytishicha, mamlakat taqdiri oilaviy munosabatlarga ham bog‘liq. «Millatning taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog‘liqdir... qaerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo‘ladi»⁴⁹.

Aholini, ayniqsa yoshlarni o‘qishga ko‘proq jalb etish zururatini tug‘dirmoqda. Qachonki fuqaro biror mutaxassislikka ega bo‘lsagina ish o‘rni haqida o‘ylashi mumkin. Shu bois mamlakatimizda so‘ngi yillarda oliy ta‘lim tizimini yanada isloh qilish borasidagi qator Prezident Farmonlari va Qarorlari qabul qilindi. Ayniqsa “2018-2019-o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta‘lim muassasalariga qabul qilish to‘g‘risida” Prezident Qarorida sirtqi va kechki ta‘lim yo‘nalishlarini ochish, ular uchun umumiy kvotaning 30 % gacha belgilanishi, bakalariat bosqicha ayrim yo‘nalishlarida 3 yillik ta‘limning joriy etilishi va magistratura ayrim yo‘nalishlarida 1 yillik ta‘limning joriy etilganligi ulkan islohotlardan biri bo‘ldi⁵⁰.

Islohotlar natijasida o‘rta umum ta‘limning 11 yillik tizimi joriy etilganligi va kasb-hunar ta‘limining mazmuni va mohiyati o‘zgarganligi hech kimga sir emas. Barchani oliy ta‘limga qamrab olish imkonsizligi bois, yurtimizda endi 9-sinfni bitirganlar kollejdagi majburiy o‘qitilmaydi, yoppasiga majburan o‘rta maxsus ta‘limga jalb etish shu paytgacha o‘zini oqlamadi. Shu bois o‘quvchi o‘rta ta‘limni o‘tagach, ixtiyoriy ravishda o‘ziga kerakli soha bo‘yicha kollejdagi o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Respublikamizda 11 yillik o‘rta ta‘limning joriy etilishi hamda oliy ta‘lim qamrovining kengayishi, yoshlarni bo‘sh yurishlariga o‘rin qoldirmaydi. Eng asosiysi o‘quvchi ota-onadan uzoqda emas, balki uning bag‘rida o‘qib, kasb hunar egallashi mumkin bo‘ladi. Bu esa mahallaning oila bilan ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xalqimizda azaldan kattaga hurmat, kichikka izzat, ko‘pchilik fikrining ustunligiga asoslanish, jamoa ayniqsa oqsoqollar tashabbusi va fikri bilan ish tutish xalqimiz milliy mentalitetining muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib kelgan. Bu borada fuqarolar

⁴⁷ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, T., 2017 yanvar, sentyabr.

⁴⁸ Behbudiy Mahmudxo‘ja. Tanlangan asarlar. -T.: Ma‘naviyat, 1999.- B. 228.

⁴⁹ Fitrat Abdurauf. Rahbari najot. -T.: Sharq, 2000. -176 b.

⁵⁰ “2018-2019 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta‘lim muassasalariga qabul qilish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori // Ma‘rifat gazetasi. T., 2018 6 iyun. №45 son.

yig’inlari huzuridagi “Yoshlar bilan ishlash komissiyasi” faoliyatini takomillashtirishga ko‘maklashish to‘g‘risida» qo‘shma qaror qabul kilingan. Ushbu qo‘shma qarorga asosan respublikamizdagi barcha fuqarolar yig’inlari tarkibidagi «Yoshlar bilan ishlash komissiyalari» tashkil etilib, ular tarkibiga asosan 60 yoshdan oshgan fuqarolarning jalb etilganligi mazkur masalaning naqadar dolzarb ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

Fuqarolar yig’inlari huzuridagi «Yoshlar bilan ishlash komissiya” sining vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

– yoshlarni Vatanimiz, xalqimiz, millatimiz, milliy kadriyatlarimiz, tarixiy-ma’naviy merosimizga hurmat va sadoqatli qilib tarbiyalash, yoshlarning jamoat ishlarida faolligini oshirish;

– yoshlarning aql-zakovatini namoyon etishiga ko‘maklashish, manaviy-axloqiy tarbiya masalalarida, ularning dunyokarashi, ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan turli illatlarning oldini olish;

– yoshlarning huquq hamda manfaatlarini himoya qilish va mustaxkamlash, ularni milliy qadriyatlarimizga, mehr-oqibat ruhida tarbiyalash va. h.k.

Shu ma’nodan mahallada yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish, ularning ma’naviy dunyosini boyitish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, kasb-hunarga ishtiyoq uyg‘otish, mehnatga yaroqli, lekin vaqtincha ish bilan ta’minlanmagan mahalla aholisini, ayniqsa yoshlarni ish bilan ta’minlash shular jumlasidandir. Biz bu borada quyidagi ayrim muammolarni bartaraf etish muhim deb o‘ylaymiz:

-yoshlarni hayotga tayyorlash masalasida ko‘proq tajribali, uvali juvali, nuroniy keksalarimiz maslahatlari asosida ish tutish;

-mahallada yosh oilalar o‘rtasidagi ajralishlarni kamaytirish, oilaviy janjallarni tinch yo‘l bilan bartaraf etish masalasida keksa avlod vakillari bilan turli uchrashuvlar tashkil etish,

-yoshlar o‘rtasida milliy mafkurani keng targ‘ib qilish, yosh oilalar totuvligi hamda farovonligini ta’minlashga erishishda tarixiy an’analarimizga tayanib ish tutish kabilar shular jumlasidandir.

Jamoatchilik tuzilmasi a’zolariga jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan tadbirlarda ixtiyoriy ravishda ishtirok etish istagini bildirgan, jismonan va ma’nan sog‘lom, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qodir, yuksak insoniy va axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan O‘zbekiston respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni yoki safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o‘tagan 18 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan O‘zbekiston respublikasi fuqarolari qabul qilindi.

Xulosa sifatida mazkur masala bo‘yicha maqolada bayon qilingan masala asosida mahallalarda yosh avlodni barkamol, har tomonlama etuk insonlar qilib tarbiyalash borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish, oila-mahalla-maktab dasturi doirasidagi ishlarni jadallashtirish borasida quyidagi taklif va mulohazalarni ilgari surish mumkin:

Birinchiidan, yosh avlodni etuk insonlar qilib tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni, yutuqlarni e’tirof etgan holda, bundan buyon sohada

amalga oshirilayotgan ishlarni tanqidiy tahlil asosida ko'rib chiqish va rivojlantirish lozim;

Ikkinchidan, mahalla raislarining ma'lumot darajasi, salohiyati, malakasiga albatta e'tibor qaratish muhim. Ularni har 3 yilda respublikaning o'quv markazlarda o'qish, malaka oshirish bo'yicha ta'sirchan tizim yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Ularni ish haqlarini oshirish choralarini ko'rish lozim;

Uchinchidan, mahallalarda ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha tasdiqlangan dasturni amalga oshirish alohida nazoratga olinishi kerak;

To'rtinchidan, uyushmagan yoshlarni yanada kengroq ijtimoiy foydali sohalarga jalb etish jumladan, sport sog'lomlashtirish, kichik biznes, maishiy xizmat turlariga jalb etish, ushbu yo'nalishlardagi mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan yoshlar bilan muloqotni yo'lga qo'yishning yangi ta'sirchan usul va mexanizmlarini tatbiq qilish yanada yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. Mahalla gazetasi. T., 2017 yil 4 fevral.*
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so'zi” T., 2018 yil 29 dekabr.*
3. *Behbudiy Mahmudxo'ja. Tanlangan asarlar. -T.: Ma'naviyat, 1999.- B. 228.*
4. *Fitrat Abdurauf. Rahbari najot. -T.: Sharq, 2000. -176 b.*
5. *“2018-2019 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish to'g'risida” O'zbekiston respublikasi Prezidentining Qarori // Ma'rifat gazetasi. T., 2018 6 iyun. №45 son.*
6. *Fuqarolar yig'inining “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi to'g'risidagi Nizom. T., 2014.*
7. *Ishqovvatov V, Tolipov F. Mahalla: o'tmishda va bugun. T., 2014*

Tojibayeva Nazokatxon Kobiljonovna,

*“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti tadqiqotchisi,
pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent*

OILA SHAROITIDA O’RNATILGAN AYOLLAR KOLLOBORATSIYASINING (HAMKORLIGINING) AFZALLIKLARI

Annotatsiya: Mazkur maqola bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qiluvchi ayol va qizlarning imkoniyatlari, oila va jamiyatdagi o‘rni, oilada o‘zaro ta’lim tarbiya va ayollarning kolloboratsiyasi (hamkorligi), ayol va qizlar uchun beradigan imkoniyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘z: Oila, kolloboratsiya, xotin-qizlar, jamiyat, iqtisodiy farovonlik, qonun-qoidalar, farmonlar, gender tenglik, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlari.

Abstract: This article talks about the family, collaboration, support, Laws and Decrees that reflect the opportunities and rights of women and girls living in the territory of the Republic of Uzbekistan today. In particular, it is devoted to the analysis of the importance of these Laws and Decrees and the opportunities they provide for women and girls.

Keywords: Family, collaboration, women, society, economic well-being, laws, decrees, gender equality, rights and opportunities of women.

Bugun hamma sohada yangicha yondashuv va usullardan foydalanish zamon talabiga aylandi. Bu mehnat unumdorligini oshirish va ijobiy natijalar berishini tajribada ko‘rib turibmiz. Shu maqsadda xotin-qizlar bilan ishlash samaradorligini oshirish uchun kolloboratsiyadan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“Kolloboratsiya” (collaboration) tushunchasi shaxslar, tashkilotlar yoki tuzilmalar o‘rtasida birgalikda ishlash va faol bo‘lishni ifodalovchi bir tavsifdir. Bu so‘z, fransuz tilidan collaboration) olingan va “birgalikda ishlash” ma’nosini anglatadi.

Kolloboratsiya – bu ayollar hayotida qo‘llab-quvvatlash, kasbiy o‘shish, bilim almashishning muhim jihati bo‘lib - bu insonlar yoki guruhlar o‘rtasida umumiy maqsad yoki ma’lum vazifani hal qilish, o‘zaro g‘oya bo‘lishish va ma’lumot almashishdir. Bu tushuncha biznes, ta’lim, ilm, tadqiqotda ham ahamiyatli jihatlari bilan alohida o‘ringa ega. Kolloboratsiya o‘z o‘rnida oila sharoitida ham o‘rnatilganda ko‘pgina ijobiy natijalarni namoyon qiladi.

Xalqaro tajribada ayollar kolloboratsiyasi, ayollar o‘rtasida hamkorlik va o‘zaro qo‘llaniladigan ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy yoki boshqa sohalarda amaliy tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Ayollar kolloboratsiyasi, ularning xizmatkorligi va qo‘shma faoliyatini ta’minlash maqsadida olib boriladigan o‘zaro fikr almashish, tajribalar almashinish va yangi yondashuvlar yaratishni o‘z ichiga oladi. Bu turi ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda ko‘pgina mavzularda bo‘lishi mumkin. Ayollar kolloboratsiyasi, biror birlashgan masala yoki loyiha bo‘yicha o‘zaro muloqotlar, seminarlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlar orqali ilmiy ta’lim va tajribani baholashda muhim ahamiyatga ega.

Bu shu sohada ko‘nglini olish, qo‘shma fikr almashish, qo‘llanma va ilmiy maqolalarni ishlab chiqish kabi amaliy faoliyatlar orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Ayollar kolleboratsiyasi aynan shu yuzdan bir nechta mamlakatlarning fuqarolarining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy rivojlanishida ham katta roli bor. Ularning o‘zaro tajribalarini almashish va bir-birlari bilan hamkorlik qilishlari, xalqaro jamoatda ko‘proq ovozga ega bo‘lishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli farmoniga muvofiq Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash. Jamiyatda gender tenglikni ta’minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish, xotin-qizlarning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish. shuningdek mahalla yettiligida “mahalla xotin-qizlar faollari asosiy vazifa va mexanizmlarini bajarish” maqsadida hududlarda kolleboratsiya bo‘yicha qator seminar treninglar, konferensiyalar hamda davra suhbatlari o‘tkazib kelinmoqdaki bu orqali xotin-qizlarning kollaborativ kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy-kommunikativ xususiyatlarini - muloqot mahorati, nizolarni hal qilish ko‘nikmalari, empatiya va madaniyatlararo sensibillik) ijtimoiy kasbiy faoliyatning mazmuniga asosiysi oila va xotin qizlarni qo‘llab-quvvatlash, xotin-qizlarga imkoniyatlarni aniqlash va kuchaytirish (Empowerment)) ayollarimizni rivojlanishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon tajribasiga ko‘ra: Turkiya, Germaniya, Finlandiya, Malaysia va Singapore davlatlaridagi tajriba olimalarimiz tomonidan o‘rganilmoqda. Bu borada Germaniya va Turkiya davlatlaridagi ayollar kolleboratsiyasini tahlil qilsak: Germaniyada ayollar kolleboratsiyasi, ayollar o‘rtasida o‘zaro ko‘rsatiladigan hamkorlik va birlashgan faoliyatni ifodalovchi bir qator tadbirlarni o‘z ichiga olgan tashkilotlar, jamoat guruhlari yoki platformalar orqali amalga oshiriladi. Bu tadbirlar, ayollar o‘rtasidagi xususiy hajmlar va talablarga javob berish, ularning yaxshi turmush tarzini ta’minlash, siyosiy va iqtisodiy huquqlarni himoya qilish, ilmiy va kasb-hunar doiralarida rivojlanish, va boshqa yondashuvlar bo‘yicha umumiy maqsadlarni o‘z ichiga oladi.

Turkiyada ayollar kolleboratsiyasi, ayollar o‘rtasidagi birgalikda ishlash va bir-birlariga qo‘llab-quvvatlashni ta’minlovchi turli tashkilotlar, guruhlar va platformalar, seminar, o‘quv kurslari orqali amalga oshiriladi. Bu tadbirlar, ayollar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, ularning huquq va imkoniyatlarini oshirish, va umumiy maqsadlarga yo‘naltirish uchun tashkil etiladi.

Yurtimizda ham ayollar kolleboratsiyasini rivojlantirish, jamoada ishlashning strategik tamoyillariga (faol muloqot qilish, jamoaviy faoliyatga ustuvorlik berish, jamoaga moslashuvchanlik, maqsadli hamkorlik, o‘zaro ishonch, o‘z ishtiroki samaradorligini ta’minlash, ma’lumot va tajriba almashish)da ustuvorlik berish asosida takomillastirish muhim vazifalarimizdan biridir. Ayolning qo‘lida hunari bo‘lsa uy

yumushkari va farzandlaridan ortib, o'qib o'rganishga imkon topa olmayapti shunday holatlarda turmush o'rtog'i va qaynonasining oila a'zolarining yordami bilan biroz vaqt ajratib, kasb-hunarga o'qitish markazlarida tahsil olishi mumkin. Bu bilan 2-3 oyda bolim va malakaga ega bo'ladi. Oila sharoitida o'rnatilgan hamkorlik kolloboratsiya tizimi muvaffaqiyatli davom ettirilsa, daromat toppish va oilasini qo'llab quvvatlash imkoniga ega bo'ladi.

Bu esa ayolning nafaqat oilada jamiyatda ham o'z o'rnini topishiga ko'mak bo'ladi. Va bu bilan ayolning kayfiyati qanchalik o'zgarib hursand bo'lishini tasavvur qilyapsizmi? Oilada ta'lim va tarbiyani tashkil etishda ham yaxshi natijalarga erishiladi. Kingadur foydasi tegayotganini, oilada o'z hissasini qo'shishi mumkinligini his etish orqali oilaga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu o'rinda ayollar o'zaro hamkorligi (kolloboratsiyasi) oilada muhim hisoblanadi. Kolloboratsiya nafaqat umumiy manfaatga erishish uchun balki bu birgalikda o'sish va jamiyat rivoji uchun ham birga harakat qilish demakdir. Ayollarni o'zaro hamkorligini rivojlantirish va oilada mamnun, ilmi va kasb-hunarli ayollarning safini kengaytirish jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.12.2023 yildagi PF-208-son.*
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.03.2022 yildagi PF-87-son*
3. <https://lex.uz>
4. <https://parliament.gov.uz>
5. Reason, M., & Herne, S. (2016). *A New Vocabulary for Collaborative Inquiry*. University of Toronto Press.
6. DilleBourg, P. (Ed.). (2013). *Collaborative Learning: Cognitive and Computational Approaches*. Elsevier
7. <https://daryo.uz/2023/10/09>
8. <https://www.replicon.com/blog/17-reasons-women-make-great-leaders/>

Suvanov Ilhom Abdixalilovich,

*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti Ilmiy kotibi,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

AXBOROT-MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA TARBIYA OMILINING O'RNI

Annotatsiya: Mazkur maqolada axborot – mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda tarbiya omilining o'rni haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, g'oyaviy tarbiya: oila, mahalla, ijtimoiy-ommaviy institutlar, ma'muriy-siyosiy tashkilotlar, mehnat jamoalarida olib borilishining zarurligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, ta'lim, ma'rifat, oila, mafkuraviy tarbiya, axborot, tahdid, targ'ibot, axborot xuruji, g'oyaviy tarbiya.

Abstract: This article discusses the role of the educational factor in the fight against information-ideological threats. Also, the necessity of conducting ideological education: in the family, neighborhood, social-mass institutions, administrative-political organizations, and labor teams is highlighted.

Keywords: education, education, enlightenment, family, ideological education, information, threat, propaganda, information attack, ideological education.

Axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda tarbiya omilini ham unutmashlik joiz. “Tarbiya” arabcha rivojlantirish, parvarish qilish, o'stirish, o'rgatish, ilm berish, degan so'zlardan olingan bo'lib; 1) insonlarga ta'lim, odob-axloq va shu kabilarni o'rgatib, singdirib, ularni voyaga etkazish, ulg'aytirish, o'stirish; 2) insonlarning kasb-hunar, mehnatga bo'lgan munosabatini shakllantirishga, rivojlantirishga, uning jamiyatda yashashi uchun kerak bo'lgan xislatlarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan ish-amallar majmui va shu yo'l bilan singdirilgan odob-axloq, xislat, fazilatlar kabilarning o'zini anglatish uchun ishlatiladi”⁵¹.

Aynan ta'lim-tarbiya va ma'rifat jamiyat barqarorligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da'vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo'lishga undaydi. Shuning uchun uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish talab etiladi. Tarbiyada tanaffus bo'lmasligi kerak. Tarbiya nafaqat ta'lim tizimida, balki, oilada, mahallarda ham yo'lga qo'yilishi kerak. Zero, “milliy ma'naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rni beqiyosdir. Xususan, biz uchun nihoyatda dolzarb bo'lgan tarix fani ham bundan mustasno emas. Milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda etkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Vatanimiz hududida mavjud bo'lgan har bir davlatchilik tuzumi, har qanday ijtimoiy jarayon – u g'alaba yoki mag'lubiyat bo'ladimi, yuksalish

⁵¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.3. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 678.

yoki tanazzul bo‘ladimi – barcha-barchasi xalqimiz bosib o‘tgan murakkab tarixiy yo‘lning uzviy va ajralmas qismidir. Shuning uchun ham biz tariximizning barcha bosqichlarini yaxlit holda qabul qilib, har tomonlama chuqur o‘rganishimiz zarur. O‘tmishdagi yutuq va g‘alabalardan kuch-quvvat olib, xato va mag‘lubiyatlardan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan xalq o‘zining taraqqiyot yo‘li va kelajagini to‘g‘ri belgilay oladi”⁵². Shunga ko‘ra, “g‘oyaviy tarbiyalash deb, ularning ongi va tafakkuri tizimida shu yo‘nalishdagi dunyoqarashni, falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy va boshqa tamoyillarni muayyan mafkura asosida maqsadli shakllantirish jarayoniga aytiladi. Mafkuraviy tarbiya esa, inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashi shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g‘oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo‘naltirilgan jarayondir. Ular bir-biridan ajralmas qismlardir. G‘oyaviy tarbiya mafkuraviy tarbiya orqali zohir bo‘ladi”⁵³.

Barkamol farzand sog‘lom oilaviy muhitda voyaga etadi. Bunga erishish uchun – birinchi navbatda, ma’naviy targ‘ibot-tashviqot ishlarini ota-onalar ongi, ularning farzandlariga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishga yo‘naltirmoq lozim. Ma’naviy targ‘ibot-tashviqotda ulug‘ ajdodlarimizning hayot yo‘li, qoldirgan merosini bir yoqlamalikka berilmay, to‘g‘ri va haqqoniy aks ettirmoq imimiz darkor. Lekin, bunda faqat o‘tmishdagi siymolar bilan cheklanib qolmay, bugungi kun qahramonlari, ilg‘or zamondoshlarimizdan o‘rnak olish ham muhim ahamiyatga ega. Toki, ular yoshlar uchun tom ma’noda ibrat namunasi bo‘lsin. Shunday ekan, hozirgi davrda yoshlarning dunyo miqyosida ma’naviy-mafkuraviy xurujlarning ob’ektiga aylanib qolishi sabablarini o‘rganish, bartaraf etish barcha davlatlar, jumladan, O‘zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, yoshlarga doir siyosat yo‘nalishi bir qancha rivojlangan davlatlarda XX asrning 60-70-yillarida mustaqil soha sifatida shakllandi. Biroq, 1985-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan “Samarali yoshlar siyosatini shakllantirishning asosiy qoidalari to‘g‘risida” rezolyusiyasi qabul qilinganidan so‘ng bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etdi. Har bir mamlakatda o‘ziga xos, davlat qurilishi va boshqaruv tizimiga mos ravishda yoshlar siyosatini yuritishning turli mexanizmlari va tizimlari qaror tora boshladi.

Ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarining ta’sirchanligini ta’minlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyat ma’naviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari hamda targ‘ibotchi-tashviqotchilar uchun tegishli tavsiya va qo‘llanmalarni tayyorlash bu boradagi muhim vazifalar tarkibiga kiradi. Ma’naviy targ‘ibot-tashviqotda keng qamrovlilik, uzluksizlik, bosqichma-bosqichlik, me’yoriylik, shaxsiy ibrat singari tashkiliy tamoyillarga amal qilingan taqdirdagina ko‘zlangan samaraga erishish mumkin.

⁵² Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 288.

⁵³ Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiev N.E. Milliy g‘oya – taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: Fan, 2017. – B. 383.

Umuman olganda g'oyaviy tarbiya: oila, mahalla, ijtimoiy-ommaviy institutlar, ma'muriy-siyosiy tashkilotlar, mehnat jamoalarida olib boriladi.

Xalq qalbi va ongiga axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash quvvatini singdirish ikki – ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot qilish usullari orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim-tarbiya usulida o'qitishda ko'rgazmalilik, uzluksizlik, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, tarixiy-mantiqiy izchillikni ta'minlash usullaridan keng foydalaniladi.

“Targ'ibot” arabcha “targ'ib – xohishni, qiziqtirishni kuchaytirish; rag'batlantirish” degan so'zdan olingan bo'lib 1) chuqur tushuntirish yo'li bilan biror g'oya, ta'limotni va shu kabilarni yoymoq, kishilarning ongiga singdirmoq; 2) tushuntirish yo'li bilan biror ishga chaqirmoq, da'vat etmoq degan ma'nolarni ifodalash uchun ishlatiladi”⁵⁴. Shunga ko'ra, g'oyaviy targ'ibot deb milliy yuksalish g'oyasini barcha aholi qatlamlarining orasida yoyishga, ular ongiga singdirishga qaratilgan ishlar, targ'ib ishlariga aytiladi.

“Tashviqot” arabcha “tashviq – qiziqish, xohishni kuchaytirish” so'zidan olingan bo'lib, “biror narsaga yo'llash, yo'naltirish, chaqirish maqsadidagi gar-so'z, hatti-harakat, undamoq, da'vat qilmoq”, degan ma'nolarni ifodalash uchun ishlatiladi”⁵⁵. Shunga ko'ra, ya'ni g'oyaviy tashviqot deb ommaga mafkuraviy yoki boshqa jihatdan ta'sir ko'rsatish maqsadida yozma va og'zaki ravishda qilinadigan ishlar, tadbirlarga aytiladi.

“Targ'ibot-tashviqot ishlari keng qamrovlilik, maqsadga yo'naltirilganlik, ishonchlilik, asoslanganlik, ilmiylik asosida olib boriladi”⁵⁶.

Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish omillari sirasiga targ'ibot-tashviqot ishlaridan tashqari axborot xavfsizligi masalasi ham kiradi. Informatsion tahdidlar insonning ijtimoiy ongini noto'g'ri shakllantirish va shu tariqa o'zligiga ega bo'lmagan olomni tarkib toptirishni ko'zlaydi. “Bugungi kunda informatsion tahdidlar asosan Internet vositasida chetdan turib uyushtirilmoqda va uning asosiy ko'rinishlari quyidagilardir: davlatning milliy siyosatini atayin tanqid qilish, soxta xabarlar tarqatish, kichik muammoni katta (yirik) muammo sifatida tasvirlash, muxoliflarni gij-gijlash, rahbarlarni zolim qilib ko'rsatish, milliy qadriyatlarni noto'g'ri talqin qilish, yoshlarni chalg'itish. Informatsion tahdidlar – ba'zida axborot xuruji deb ataladi – shaxsni ikkilantiradi, uni muammolar girdobiga tashlaydi. Natijada, fuqarolarning ijtimoiy ongi zaharlanib, jamiyatda ijtimoiy xastalik vujudga keladi”⁵⁷.

Masalaning jiddiyligi shundaki, kompyuter viruslari bilan bir qatorda insoniyatning sof madaniyati, ma'rifati, odob-axloqi uchun butunlay zid bo'lgan “ma'naviy-axloqiy”

⁵⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006. – B. 6.

⁵⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006. – B. 21.

⁵⁶ Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiev N.E. Milliy g'oya – taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: Fan, 2017. – B. 384.

⁵⁷ Jo'raev T. Milliy davlatchilik va xavfsizlik. – Toshkent: Akademiya. 2007. – B. 113.

viruslarni ham “xaker”lar orqali yoshlar ongiga uzatmoqda. Bunday g‘oyaviy mafkuraviy viruslarni tarqatuvchi “xakerlar” to‘g‘ridan to‘g‘ri inson ongini, inson qalbini, o‘zligini izdan chiqarishga yo‘naltirilgan. Maqsad – yoshlarni ruxiy ma‘naviy qashshoq qilish, mafkuraviy imunitetni yo‘qqa chiqarish, intellektual salohiyatini yo‘qqa chiqarish, shaxsni shaxs sifatida rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaslik, buning zamirida odamlar, xalqlar, millatlar o‘rtasidagi ezgulik insoniylik va o‘zaro do‘stlik, qardoshlik munosabatlari o‘rniga yovuzlik, o‘zaro dushmanlik urug‘larini sepishdan iborat”⁵⁸.

Bizningcha, bugungi kundagi ijtimoiy-gumanitar fanlarning asosiy vazifalaridan biri axborot-mafkuraviy tahdidga munosib javob berishdan iboratdir.

Bunda asosiy e‘tiborni quyidagilarga qaratish lozim:

- axboriy-mafkuraviy ta’sirlarning milliy, umuminsoniy, falsafiy, diniy huquqiy, siyosiy, sotsiologik, psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-axloqiy jihatlari, uning xalq odatlari, an‘analari va qadriyatlarni shakllantirish hamda boyitishdagi o‘rni va ahamiyati bo‘yicha targ‘ibot yo‘nalishlarini kuchaytirish;

- dunyodagi mafkuralarning uyg‘unlashishi va kurashish jarayonlarini o‘rganish, monitoring o‘tkazish, mafkura sohasida, ayniqsa, ilmiy omilni hisobga olgan holda, umuminsoniy va mintaqaviy muammolarni belgilash va ularni hal qilishga yordam berish;

- O‘zbekistonda ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlik uchun mafkuraviy tahdidga qarshi samarali kurash yo‘llari xususida ilmiy asosda tavsiyalar ishlab chiqish;

- yosh avlodni tarbiyalash jarayonlariga kuchli turtki berish uchun, birinchi navbatda, tegishli tashkiliy tuzilmalar, bolalar – yoshlar birlashmalari harakatlarini yaratish;

- milliy g‘oyani shakllantirish ma‘nosida bolalar va o‘smirlar uchun o‘quv-metodik, ilmiy ommabor va badiiy adabiyotning yangi turkumini ishlab chiqish hamda joriy etishni foaliyatning muhim yo‘nalishi deb hisoblamoq kerak. Mavjud adabiyotlarni har tomonlama ekspertiza qilish asosida xalqning boy ijtimoiy-madaniy va tarixiy tajribasiga uning rrogressiv an‘analari va urf-odatlarini, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, badiiy adabiyotlar nashr etishga erishish va hakoza.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jo‘rayev T. *Milliy davlatchilik va xavfsizlik*. – Toshkent: Akademiya. 2007.
2. Jo‘raqo‘ziev B. *Global internet tarmog‘i yoshlar ongiga ta’sir ko‘rsatuvchi vosita sifatida // Srientifir Journal Imrart Fartor (SJIF 2022=5.016). Volume 3 | ISSUE 4 | 2022. – R. 1341.*
3. Mirziyoyev Sh. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
4. *O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.
5. Yaxshilikov J.Y., Muhammadiyev N.E. *Milliy g‘oya – taraqqiyot strategiyasi*. – Toshkent: Fan, 2017.

⁵⁸ Jo‘raqo‘ziev B. *Global internet tarmog‘i yoshlar ongiga ta’sir ko‘rsatuvchi vosita sifatida // Srientifir Journal Imrart Fartor (SJIF 2022=5.016). Volume 3 | ISSUE 4 | 2022. – R. 1341.*

Qo‘ysinova Fazilat Oripovna,

Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligi

OILAVIY MUNOSABATLARNING IJTIMOIIY TALQINI

Annotatsiya: *Maqolada oilaning farzand tarbiyasida tutgan o‘rni va ta’siri tahlil qilingan. Xususan, bolaning ijtimoiylashuv jarayoniga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy omillar o‘rganilgan. Oila institutining bola sotsializatsiyasi va ijtimoiy tarbiyasidagi o‘rni asoslantirilgan.*

Kalit so‘zlar: *oila, bola, ta’lim, tarbiya, ijtimoiylashuv, ijtimoiy tarbiya, destruktiv.*

Abstract: *The article analyzes the role and influence of the family in raising children. In particular, social factors that directly and indirectly affect the child’s socialization process have been studied. The role of the family institution in child socialization and social education is substantiated.*

Key words: *family, child, education, upbringing, socialization, social education, destructive.*

Oilaning ijtimoiy maskan sifatida farzand tarbiyasida tutgan o‘rni va ta’siri masalasi hamisha dolzarb bo‘lib kelgan. Oilada inson xulq-atvor va xatti-harakatlarning bazaviy tizimini o‘zlashtirilib, insoniy qadriyatlar, ishonch, ideallar barqaror shaxsiy tavsifga aylanadi, keyingi hayotiy qadamlar shakllanadi.

Oiladagi sog‘lom ma’naviy muhit bolani jamiyatda yashashga, murosa qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, kasb-hunarli bo‘lish, odob-ahloq normalariga bo‘ysunishga o‘rgatadi. Oilaviy ijtimoiylashuvning qadri va ahamiyati shundaki, uning ta’sirida birinchidan, bola mustaqil hayotga, jumladan, oilaviy hayotga tayyorlanadi, o‘ziga yarasha sifat va fazilatlarini shakllantirib boradi, ikkinchidan, har tomonlama etuk, barkamol shaxs bo‘lib etishish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Rus sotsiolog olimi A. Antonovning ta’kidlashicha, oila ijtimoiy-psixologik yaxlitlik sifatida shaxsga shunday normativ va axborot ta’sirlarini ko‘rsatadiki, oqibatda bola eng avvalo, jamiyatdagi qonuniy normalar, xulq andozalarini egallaydi⁵⁹. Oila qanchalik inoq, uyushgan va mustahkam bo‘lsa, uning normativ ta’siri ham shunchalik ijobiy samarali bo‘ladi. Bunday oilada o‘zining qadriyatlaridan tashqari, jamiyatning qadriyatlari, qonun-qoidalar va normalari hurmat qilinadi, bola boshidan jamiyatda yashashga o‘rgatilgan bo‘ladi. Ya’ni bola tartibli, intizomli, aytilgan vazifa, berilgan topshiriqlarni mas’uliyat bilan vijdonan bajaradigan bo‘lib, jamiyatda hamisha o‘zining o‘rniga ega bo‘la oladi. Shuningdek, ularning destruktiv jarayon ta’siriga tushish darajasi past bo‘lib, natijada mustaqil fikrli, pok vijdonli inson bo‘lib etishadi.

Bolaning ijtimoiylashuv jarayoniga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy omillar mavjud. Masalan, jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar, davlatning yoshlar siyosati, ta’lim muassasalari, ta’lim va tarbiya standartlari ushbu jarayonning mazmun va mohiyatini belgilaydi. Oila muhitining o‘zi ham ayrim holatlarda bolaning

⁵⁹ Социология семьи: Учебник / Под ред. проф. А.И. Антонова. - М.: ИНФРА-М, 2005 – С. 220.

salbiy ijtimoiylashuviga sabab bo‘lishi mumkin. Olimlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili asosida ushbu omillarni to‘rt guruhga ajratamiz⁶⁰:

- ota-onalar o‘rtasida murosaning yo‘qligi, oilaviy o‘zaro munosabatlarni mustahkamlash borasida aniq belgilangan axloqiy tamoyillarning mavjud emasligi;
- ota-onalarning ruhiy nosog‘lomligi va huquqiy me‘yorlarni buzishga moyilligi;
- yashash sharoitining yaxshi emasligi, bolaning to‘laqonli o‘sishi uchun imkoniyatlarning etarli emasligi;
- maktab sharoitining talab darajasida emasligi;
- mahalla hududida oila obro‘sining yaxshi emasligi, notinch, noqobil oila maqomiga egalik;
- global axborotlashuv sharoitida turli axborot manbalari, jumladan, Internet tarmog‘i orqali turli ma’lumotlar, qadriyatlarga zid axloq namunalarining bola ongiga salbiy ta’sir etishi. Ushbu jihatlar so‘ngi yillarda bola ijtimoiylashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan ijtimoiy omillar jumlasiga kiradi.

Globalashuv davrida oila institutining bola sotsializatsiyasi va ijtimoiy tarbiyasidagi o‘rni nechog‘li yuqori ekanligini o‘z isbotini topmoqda.

Farzandlar har qanday holatda ham oilada o‘zidan kattalarga hurmat bilan qarashi kerak. Oilada bolalar ongiga singdiriladigan axloqiy qoidalar, urf-odatlar, an‘analar quruq nasihatdan iborat bo‘lib qolmasligi lozim. Aksincha, aniq hayotiy omillarni tahlil qilish orqali to‘g‘ri tushuncha va tasavvurlarni hosil qilish lozim.

Oilada mehnat taqsimotini to‘g‘ri va adolatli amalga oshirish, farzandlarda mehnatsevarlik xislatlarini vujudga keltiradi. Mehnatni bolaning jinsi, yoshiga, kuchiga, didiga, qobiliyati va qiziqishiga mos ravishda taqsimlash ularda kundalik ehtiyoj, zaruriyat hissini tug‘dirish bilan birga mas’uliyat degan odob hislatlarini ham barqarorlashtiradi.

O‘zbek oilasida bola tarbiyalashning ishontirish, tushuntirish, nasihat, ibratnamuna ko‘rsatish, yaxshi fazilatlarni mashq qilish, rag‘batlantirish, tanbeh berish, ogohlantirish, jazolash kabi usullari qo‘llaniladi.

Oilada bola tarbiyasining o‘ziga xos qoidalari mavjud bo‘lib, ota-onalar ulardan o‘rinli foydalanishlari lozim. Xususan ular⁶¹:

- oilada hissiy moslik, ruhiy xotirjamlik va samimiy muhitni yaratish;
- ota-ona obro‘sini saqlash;
- tarbiyada ota-ona, kattalar o‘rtasida talabchanlik birligi;
- bola shaxsini mehnatda tarbiyalash;
- oila maktab va jamoatchilik hamkorligi;
- bolani sevish va izzat qilish;
- oilada qat’iy tartibi o‘rnatish;

⁶⁰ Каримова В.М. Оила психологияси. Дарслик. Педагогика олийгоҳлари талабалари учун. –Т: “Fan va texnologiya”, 2008. – Б. 53.

⁶¹ Думаров М.Х. Оила психологияси. Маъруза матни // Педагогика ва психология таълим йўналиши талабалари учун. – Б.21.

- tarbiyada bolalarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish;
- bola taraqqiyotini aniqlab berish;
- bolada mustaqillik, tashabbuskorlik sifatlarini shakllantirish va boshqalar.

Tarbiyada maqsadning aniqligi muhim o'rin tutadi, chunki tarbiya jarayonni to'g'ri yo'naltirish imkonini beradi. Ota va ona bolaning birinchi murabbiysi, uni tarbiyalashda shaxsan ibrat ko'rsatuvchi ta'sirchan omil hisoblanadi. Bola tarbiyasida uchraydigan kamchiliklarni keltirib chiqaruvchi sabablar quyidagi holatlarda kuzatiladi⁶²:

- 1) bolalarga kattalar tomonidan diqqat-e'tiborning etishmasligi;
- 2) farzandlar bilan muloqotga kirishish istagining mavjud emasligi yoki xohishning yo'qligi;
- 3) ota-onalar bilan farzandlar o'rtasida o'zaro tushunishning yo'qligi va unga ikki tomonlama intilishning etishmasligi;
- 4) ota-onalarning o'g'il va qizlarga nisbatan qo'pol muomalada bo'lishlari;
- 5) ko'r-ko'rona otalik va onalik mehr-muhabbatining hukm surishligi va uning barqaror ahamiyat kasb etmasligi;
- 6) oila davrasida, muhitida doimiy janjallarning qaror topganligi va ularni kamaytirish uchun intilishning yo'qligi;
- 7) ota-onalarning beqaror his-tuyg'ulari, kayfiyatlari, ularning tartibsiz, tasodifiy xarakterga ega bo'lishligi;
- 8) ota-onalarning shaxsiy qiziqishlarining o'zaro mos tushmasligi va tubdan bir-biriga qarama-qarshiligi;
- 9) katta-kichik yoshdagi farzandlar davrasida ota-onalarning salbiy xulq-atvori;
- 10) ota va ona o'rtasidagi o'zaro tushunmovchiliklarning surunkali davom etib borishi;
- 11) oila muhitida adolatsizlik, ikkiyuzlamachilik va boshqa illatlarning namoyon bo'lishi;
- 12) oila shaxsiy manfaatdorlikka ruju qo'yilganligi;
- 13) ota-onalarning bilim saviyalari va madaniy darajasining pastligi;
- 14) oilada yaxshi an'analar, rasm-rusumlar, urf-odatlarining yo'qligi va ma'lum qolipdagi salbiy xatti-harakatlarga rioya qilinishi, ijtimoiy muhitdan tubdan ajralib qolishligi, loqaydlik kabi qator kamchiliklar va illatlar bola tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, oila institutining mustahkam bo'lishi har qanday jamiyat uchun samarali hisoblanadi. Aynan shu sababli har bir jamiyatda oila mustahkamligini ta'minlash bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshiriladi. Oila va uning sog'lom ma'naviy muhiti bolani jamiyatda yashashga, o'ziga o'xshash shaxslar bilan murosa qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, kasb-hunarli bo'lish, muomalada ahloq-odob normalariga bo'ysunishga o'rgatadi. Oiladagi sog'lom muhit asosidagi odamiylik, insonparvarlik munosabatlari farzandning ruhiy dunyosiga ijobiy ta'sir etadi.

⁶² Бурханов Э. Оилавий муносабатларнинг педагогик-психологик жиҳатлари. Тошкент, 2012. Б.15-16.

Oiladagi ruhiy iqlim, totuvlik hamisha barqaror bo‘lishi uchun qariyalar, ota-onalar o‘z farzandlarining ruhiy dunyosini bilishlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib ish tutishlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *Социология семьи: Учебник / Под ред. проф. А.И. Антонова. - М.: ИИФРА-М, 2005 – С. 220.*
2. *Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. –T: “Fan va texnologiya”, 2008. – B. 53.*
3. *Dumarov M.X. Oila psixologiyasi. Ma’ruza matni // Pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun. – B.21.*
4. *Burxanov E. Oilaviy munosabatlarning pedagogik-psixologik jihatlari. Toshkent, 2012. B.15-16.*

Xolikova Dilobarxon Maxsitovna,
Farg'ona davlat universiteti dotsenti

TARBIYA OILA MASKANIDA

Annotasiya: Oilada tarbiya insonning shaxsiyati va qadriyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqola oilaviy tarbiyaning bolalarda sog'lom munosabatlar, ko'nikmalar va qadriyatlarni rivojlantirish uchun asos sifatida ahamiyatini muhokama qiladi. Oilada bolalar o'zlarini himoyalangan, sevilgan va tushunilgan his qilishlari mumkin bo'lgan qo'llab-quvvatlovchi va mehribon muhitni yaratishga alohida e'tibor beriladi. Bolalarda hissiy intellekt, ijtimoiy ko'nikmalar va mustaqillikni rivojlantirishga yordam beradigan ta'lim usullari va yondashuvlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, bolalarda sog'lom ijtimoiy qadriyatlar va xatti-harakatlarni shakllantirishda oilaviy qadriyatlar va urf-odatlarining o'rni ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: oilaviy qadriyatlar, sevgi, qo'llab-quvvatlash, namuna, ishonch, o'rganish, hissiy aql, chegaralar, an'analar, mas'uliyat

Abstract: Family education plays a key role in shaping a person's personality and values. This abstract discusses the importance of family education as the basis for the development of healthy relationships, skills and values in children. Special attention is paid to creating a supportive and loving atmosphere in the family, where children can feel protected, loved and understood. The methods and approaches to education that contribute to the development of emotional intelligence, social skills and independence in children are analyzed. In addition, the role of family values and traditions in the formation of healthy social values and behavior in children is emphasized.

Keywords: family values, love, support, pattern, trust, learning, emotional intelligence, boundaries, traditions, responsibility

Hujjatda ta'kidlanganidek, O'zbekiston tomonidan o'tgan mustaqil rivojlanish bosqichini har tomonlama tahlil qilish, shuningdek globallashuv sharoitida o'zgarib borayotgan dunyo iqtisodiyoti «mamlakatni yanada barqaror va jadal rivojlantirish uchun tubdan yangi g'oyalar va tamoyillarni» ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qiladi [1].

Harakatlar strategiyasi besh bosqichda amalga oshiriladi, ularning har biri yilning e'lon qilingan nomiga muvofiq har yili amalga oshiriladigan alohida Davlat dasturini tasdiqlashni ko'zda tutadi. Ta'lim, madaniyat, fan, adabiyot, san'at va sportni rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish va bandlikni izchil oshirishga qaratilgan ijtimoiy sohani rivojlantirish [2].

Har tomonlama etuk va barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning o'rni beqiyos va o'zgarmasdir. Oila jamiyatning eng kichik bo'g'ini bo'lib, jamiyatning, xalqning kelajak taraqqiyoti oilalarning mustahkamligi bilan uzviy bog'langandir. Zero, tarbiyaning asosi oiladan boshlanadi. A.Avloniy ta'biri bilan aytganda: “Tarbiyani tug'ulgan kundan boshlamak, vujudimizi quvvatlandurmak, fikrimizi nurlandurmak, axloqimizi go'zallandurmak, zehnimizi ravshanlandurmak lozim ekan. Tarbiyani kimlar qilur?...

degan savol keladur. Bu savolga, “birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Ikkinchi maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir”, deb javob bersak bo‘lur...”. Darhaqiqat, tarbiya bu — insonning o‘zi va o‘z xulqi haqidagi tasavvurining to‘g‘ri va xolis bo‘lishini ta’minlovchi murakkab jarayondir. Ayni shu murakkab jarayonni amalga oshirish oilaning ustunlari — ota-ona zimmasiga yuklatilgan. Bu esa ota-onadan tarbiyani to‘g‘ri tashkil qilishni talab etadi. CHunki har qanday tarbiyaning bosh mezoni tarbiyalanuvchida o‘zi va o‘z fazilatlari haqida to‘g‘ri tasavvurlarni shakllantirishdan iborat. Tarbiya har bir davr va taraqqiyot bilan ham chambarchas bog‘langan. Ota-onalar bilishi, amal qilishi lozim bo‘lgan yana bir muhim masala farzandlariga berayotgan tarbiya davr ruhiga, zamon imkoniyatlari va ehtiyojlariga qay darajada mos kelishini yaxshi tasavvur etishdir. Demak, ota-onaning ko‘zi oldida shirin farzandlari bilan bir qatorda ularning jamiyat, millat taraqqiyoti, davr ehtiyoji bilan uzviy bog‘langan kelajagi ham turmog‘i kerak. O‘z navbatida tarbiya jarayonida asrlar davomida shakllangan an’ana va urf-odatlariga tayanilsa, muayyan natijalarga erishish mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, farzand uchun ota-onadan qoladigan eng katta va bebaho meros bu go‘zal xulq va yaxshi amallar bo‘lsa, biz barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga munosib hissa qo‘shgan bo‘lamiz. Kelajagimizning bunyodkorlari bo‘lmish yoshlarning ilk axloqiy shakllanish jarayonlari oiladan boshlangani bois davlatimizda oila va tarbiya masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Hatto davlatning oliy hujjati sanalmish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila to‘g‘risida alohida bob ajratilib, “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega...” deb belgilangani davlat tomonidan oilaga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlikning namunasidir. Oila — mahalla — ta’lim muassasasi — jamiyat — davlat uyg‘unligiga erishmoq taraqqiyotning muhim shartidir. Fitrat ta’kidlaganidek: “Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qaerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi”. Haqiqatan ham, millat va davlatning saodati, uning kelajagi va jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallashi bevosita oila va undagi tarbiyaviy muhitga aloqador. Oilada farzandning ongi, tafakkuri, dunyoqarashi shakllanishi bilan bir qatorda unda Vatanga muhabbat, qadriyatlarga to‘g‘ri munosabat tuyg‘ulari ham paydo bo‘ladi.

Eng nozik va juda mas’uliyatli jarayon tarbiya jarayonidir. Bola — beg‘ubor. Unga dunyoni oq deb o‘rgatilsa, oq deb biladi, qora deb tushuntirilsa, qora deb biladi. Tarbiya bilan bir bolani oltin etmoqlik mumkin, tuproq qilmoq ham mumkin. Yoki Olimat ul Banotning fikrlariga e’tiborni qarataylik: “Ota-onalar qo‘lida bolalar aziz omonatdirlar. SHuning uchun ham ularni go‘zal tarbiya etmoq yaxshi xulqlarga o‘rgatmoq va ko‘rkam odatlarni tushuntirmoq lozim”. Ma’lumki, sog‘lom farzandni dunyoga keltirish uchun ota-onaning o‘zi sog‘lom bo‘lishi kerak. “To‘laqonli ovqatlanish ko‘p jihatdan uning tarkibiga, iste’mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlarining insonning normal rivojlanishi va faoliyat yuritishi, uning organizmida to‘g‘ri modda

almashinuvi, salomatlikni mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish, keksayish jarayonini sekinlashtirish va umrni uzaytirish uchun zarur bo'ladigan to'yimli va sifatli moddalar bilan kerakli darajada ta'minlanishiga bog'liq". Darhaqiqat, to'g'ri ovqatlanish, inson organizmi uchun zaruriy mahsulotlarni iste'mol qilish qoidalariga amal qilish tanani sog'lom va baquvvat bo'lishiga xizmat qiladi. Atoqli fiziolog I. P. Pavlov hozirgi zamon kishisi 100 yildan kam umr ko'rmasligi kerak, bordi-yu, bu hol kuzatilmayotgan ekan, bunga asosan noto'g'ri hayot tarzi sabab bo'ladi, deb bejiz aytmagan. O'z navbatida shuni ta'kidlash joizki, hayot tarzini to'g'ri yo'lga qo'yish uchun jismoniy va ma'naviy sog'lomlik uyg'unlashmog'i kerak. Bu esa, oilada farzand tarbiyasiga alohida e'tibor berishni taqozo qiladi. Zero, tarbiyaning asosi oilada qo'yiladi. Oilada farzandga odob-axloq sirlari, jamiyatda o'zini tutish qoidalari o'rgatiladi. Ota-ona farzandini tarbiyalash bilash bir qatorda o'zi ham o'rnak bo'lishi lozim. Professor S. S.G'ulomov sog'lom bolani tarbiyalash va voyaga etkazishda quyidagi jihatlarni ajratib ko'rsatadi: "Sog'lom bola — avvalo sog'lom va ahil oilaning mevasidir. Sog'lom bolani voyaga etkazishda sog'liqni saqlash tizimining o'rni va ta'siri, shu bilan birga, mas'uliyati katta. Sog'lom bolani voyaga etkazishda ta'lim-tarbiya va sportning o'rni va ta'sirini yanada kuchaytirish lozim". SHu bois O'zbekistonda bugungi kunda sport turlarini rivojlantirish, farzandlarimizni sport bilan shug'ullanishiga imkoniyatlar va sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jismoniy tarbiya bilan bolalikdan shug'ullanishga imkon yaratish maqsadida bolalar sportini rivojlantirish borasida bir qator amaliy ishlar qilindi. Jumladan, bolalar sportini rivojlantirish, bolalarni sportga qiziqtirish uchun turli sport inshootlari barpo etilgan. Bunday amaliy harakatlarning samarasi o'laroq farzandlarimiz sportning turli jabhalarida yuqori ko'rsatkichlarga erishmoqda. O'z- o'zidan anglashiladiki, Vatan taqdiri, uning ertangi kuni bugungi kunda farzandlarimizning tarbiyasiga, ularning jismoniy va ma'naviy sog'lomligiga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Jismoniy etuklikka erishish shaxsning irodasiga bog'liq bo'lib, ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismidir. Sport va jismoniy tarbiya shaxsning aqliy kamolotiga ham katta ta'sir ko'rsatib, uning ishlash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko'rishiga yordam beradi. SHuningdek, sport qaddi-qomatni har qanday yoshda talab darajasida saqlab qolish imkonini berish bilan bir qatorda hordiq chiqarish va mehnatni almashtirib turishga yordam beradi. Sportning inson hayotidagi muhim ahamiyati va unga to'g'ri munosabatda bo'lish birinchi navbatda oilada tarbiya jarayonida shakllantiriladi. Ota-onalar farzandining qiziqishi va imkoniyatlariga qarab, sportning bir turiga qiziqtirishi kerak. Bu ham oilaviy tarbiyaning ajralmas bir qismidir. Tarbiya farzandning butun taqdiriga daxldor bo'lgan jarayon. Boshqacha aytganda, farzand bir nihol bo'lsa, ota-ona bog'bondir. Niholga qanday parvarish qilinsa, uning mevasi ham shunga bog'liq. O'z-o'zidan ma'lum bo'ladiki, farzandlar tarbiyasini to'g'ri tanlash, ularning qalbida ezgu axloqiy fazilatlarni shakllantirish har bir ota-onaning burchi. CHunki bugun tanlanayotgan tarbiya ertaga davlatning kelajagiga xizmat qiluvchi barkamol avlodni shakllantiradi. Oilani tom ma'nodagi jamiyat tayanishi mumkin bo'lgan eng

kichik bo'g'inga aylantirsak, nafaqat davlat taraqqiyotiga hissa qo'shamiz, balki farzandlarimizning turli xil yot va begona g'oyalarga qo'shilib ketishini oldini olamiz. O'z navbatida solih va go'zal axloqli farzandlarni tarbiyalab, ularning kamolini ko'rishdan bahramand bo'lamiz. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek: “Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e'tibor qilinmasa, kelajak boy beriladi”. Bu esa har birimizdan davlatimizda yaratilayotgan imkoniyatlar, oilalarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklardan to'g'ri xulosa chiqarish va ularga munosib bo'lishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. *Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash mamlakat rivoji va xalq farovonligining kafolati. Toshkent, O'zbekiston, 2017, 48 b.*
2. *2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoniga*
3. *Avloniy.A. Turkiy guliston yoxud axloq. — T.: O'qituvchi — 1992. — b.13.*
4. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston — 2012. — b.13.*
5. *Fitrat. Oila. — T.: Ma'naviyat — 1998. —b. 13.*
6. *Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi— xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. — T.: O'zbekiston. — 2000. —b. 23.*
7. *Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat — engilmas kuch. —T.: Ma'naviyat. — 2008. — b.52.*
8. *Erkin Yusupov. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. -T.: Universitet. — 1998, — B. 120.*
9. *Karimov I. A. O'zbekistonda oziq ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zaxiralari mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqdan. 06.06.2014 Valeologiya asoslari. Pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma.T. — 2010. — b.50.*
10. *Kholmatova, Z. T., & Kholikova, D. M. (2022). MODEL OF DEVELOPING AND DEVELOPING INNOVATIVE THINKING SKILLS IN STUDENTS. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(4), 190-195.*
11. *Dilobarkhon, K. (2019). The importance of modern innovation in education. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).*
12. *Kholikova, D. (2020). INTELLECTUAL ACTIVITY OF CREATIVE THINKING VERBAL TEST “UNUSUAL USE”. PEDAGOGICAL SCIENCES, 22.*
13. *Maxsitovna, K. D. (2022). Pedagogical Problems of Child Raising in the Uzbek Family. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 5, 542-546.*
14. *Xolmatova, Z. T., & Xolikova, D. M. (2022). TALABALARDA INNOVASION FIKRLASH KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MODEL. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(4), 139-144.*
15. *Xolikova, D. (2021). Vozmojnosti diagnostiki effektivnosti kompensatsionnogo podxoda v obuchenii. Obuesstvo i innovatsii, 2(9/S), 239-252.*
16. *Kholikova, D. M. (2021). THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF INCREASING INNOVATIVE THINKING IN STUDENTS. Theoretical & Applied Science, (5), 422-424. ISSN: 2776-1010 Volume 4, Issue 5, May 2023*
17. *Kholikova, D. M. (2021). DEVELOPMENT OF INNOVATIVE THINKING SKILLS IN HIGHER EDUCATION STUDENTS. Theoretical & Applied Science, (6), 549-552.*

18. Kholmatova, Z. T. (2022). *PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF GENDER ASPECTS OF EDUCATION. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW* ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(10), 60-65.
19. Kholmatova, Z. T., & Kholikova, D. M. (2022). *MODEL OF DEVELOPING AND DEVELOPING INNOVATIVE THINKING SKILLS IN STUDENTS. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(4), 190-195.
20. Xolmatova, Z. T., & Xolikova, D. M. (2022). *TALABALARDA INNOVASION FIKRLASH KO'NIKMLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MODELI. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(4), 139-144.
21. Kholmatova, Z., & Axmadaliyeva, M. (2022). *Healthy lifestyle (HLS)-The basis of valeology in kindergarten. Asian Journal Of Multidimensional Research*, 11(9), 136-139.
22. Kholmatova, Z., & Olamnazarova, F. (2022). *Problems of the communicational approach of language teaching in the primary class. Asian Journal Of Multidimensional Research*, 11(9), 140-144.
23. Tillavoldievna, K. Z. (2022). *Problems of Family Education in People's Pedagogy. Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 5, 535-541.
24. Xolmatova, Z. T. (2022). *TA'LIM JARAYONIDA GENDERLI YONDASHUV DAVR TALABI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(3), 134-140. ISSN: 2776-1010 Volume 4, Issue 5, May 2023
25. Tillavoldievna, K. Z. (2022). *Problems of Family Education in People's Pedagogy. Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 5, 535-541.

Ahrorova Shahlo O'rinboyevna,

RMMM huzuridagi Ijtimoiy-

ma'naviy tadqiqotlar instituti,

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

OILADA AYOLNING MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASHDAGI O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oila, ayol va milliy qadriyatlar, ular o'rtasidagi aloqadorlik to'g'risida so'z boradi. Ayolning oila va jamiyatdagi o'rni tahlil qilingan. Jamiyatning ayolga munosabati va uning ahamiyati o'rganilgan. Tarixda, xorijda mamlakatimizda ayollarga munosabat darajasi haqidagi ma'lumotlar yoritilgan va qiyoslangan.

Kalit so'zlar: Ayol, oila, milliy qadriyatlar, tarix, tarbiya, ta'lim, madaniyat, jamiyat, urf-odatlar, nikoh, qobiliyat, millat, yurt, ijtimoiy himoya, imtiyoz, siyosat.

Abstract. This article talks about family, women and national values, as well as the connection between them. The role of women in the family and society is analyzed. The attitude of society towards women and its significance has been studied. Historically, information has been highlighted and compared regarding the level of treatment of women in this country and abroad.

Keywords: Woman, family, national values, history, upbringing, education, culture, society, traditions, marriage, abilities, nation, country, social protection, privileges, politics.

Bobomiz Amir Temur aytganidek, yurtning qudrati qurilgan binolarda aks etsa, yurtda ma'naviy qudrat, madaniy yuksaklik ayolga bo'lgan munosabat bilan belgilanadi. Aslida ayolni qadrlash biz uchun bobomeros tuyg'u. Bu meros biz uchun yuz yillik, ming yillik emas, balki juda qadimdanoq xalqning ongu-shuuriga singib kelayotgan yuksak qadriyat hisoblanadi.

Qariyb o'ttiz besh asr muqaddam yozilgan, yurtimiz tarixini aks ettiruvchi eng qadimiy manba hisoblangan “Avesto”da ta'kidlanishicha, ajdodlar amalida ayollar ulug'langan, o't egalari ham ayollar bo'lgan va ular olovning doimiy yonishini ta'minlab turganlar. Qadimgi xalqlar tangrining qalb nuri deb sig'ingan olovni ham ayol sifatida tasavvur qilganlar va muqaddas olovni “o't ona” deb atashgan. E'tibor qilyapsizmi, o'ttiz besh asr muqaddam ham ajdodlarimiz ayol zotini Tangrining qalb nuriga qiyos etishgan![2]

Bizning urf-odatimizda qadimdan naslu-nasabini, ajdodini surishtirish orqali kelajakka qadam qo'yilgan. Kimgadir nisbat berilganda u kimning avlodi ekanligi albatta inobatga olingan. Agar shu nuqtai-nazar bilan yondashadigan bo'lsak, o'zbek qizi kim, deganda, u yurtparvar, elparvar, jondan kechsa kechadi, yurtini bermaydi, qo'liga tug' tutsang, to'g'ri yo'ldan boshqara biladi, chunki u Massaget qavmini eron podshosi Kir istilosidan mohirona asrab qolgan – To'marisning avlodidir!

Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishlarida Saroymulxonim ko'pincha birga yurganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. O'ta ziyrak, tadbirkor Saroymulxonim saltanatni boshqarishda vujudga kelgan ayrim muammolarni hal qilishda o'zining

oqilona maslahatlari bilan faol qatnashgan. Amir Temur Saroymulxonimning oqilona maslahatlariga hamisha ehtiyoj sezib turgan. Naql qilishlaricha, Amir Temur Eronga qarshi yurish boshlaganda, Isfaxonning qamali ko'pga cho'zilib, qo'shinni ozuqa bilan ta'minlashga mablag' yetmay qoladi. Amir Temur Samarqandga chopar yo'llab, Saroymulxonimga quyidagi mazmunda maktub jo'natadi: «Qo'shinning zahirasi tugadi, xazinadan zar yuboring. Saroymulxonim maktubning orqa tomoniga «Ulug' Amir, zaringiz tugagan bo'lsa, siyosatingiz ham tugadimu?» – deb yozadi va uni choparga tutqazadi.

Amir Temur maktubni olgach Saroymulxonimning kinoyali zamzamasini o'ylab-o'ylab nihoyat bir qarorga keladi: Lashkargohda so'yib yeyilgan jonliq suyaklarini yig'dirib, unga po'lat muhrni qizdirib tang'a bostiradi, hamda muvaqqat pul o'rnida muomalaga kiritishga farmon beradi. Natijada, qo'shni shahar va qishloqlarda suyak pulga qo'shin uchun oziq-ovqat sotib olinadi. Tez kunda Isfaxon shahri taslim bo'lgach, suyak pullar zar bilan almashtiriladi...

Ha, o'zbek qizi oqilaligi, davlat boshqaruvidagi odilona ishtiroki ham momomeros, chunki u – saroymulxonimlarning avlodidir! Bugun o'tkir qalami bilan dunyoga chiqayotgan qizlarimiz – Nodirabegim, Uvaysiylar avlodidir!

Biz bugun “jamiyatning madaniyat darajasi ayolga bo'lgan munosabat bilan belgilanadi”, “ayol – millat tarbiyachisi” kabi bot-bot takrorlanayotgan so'zlarning mohiyatini juda yaxshi bilamiz. Aslida, ayolning jamiyatdagi o'ni qandayligi insoniyat oldida hamisha savol bo'lib turgan. Ayniqsa bugungi texnologiyalar rivojlangan, ochiqlik, erkinlik, taraqqiyot davrida bu masala yanada chuqurroq mohiyat namoyon etmoqda.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, ayolning o'ni va holati to'g'risidagi masala dunyoda global iqtisodiy-ekologik muammolardan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Aytish mumkinki, bugungi kunning ayol ayolga xos ijodkorlikning mahsuli. U erkin, o'z hayotini o'zi rejalashtiradi: kimga turmushga chiqadi, qancha farzand dunyoga keltiradi, qayerda ishlaydi yoki o'qiydi – bu masalalarni hal qiluvchi – uning o'zi. Hatto tibbiy texnologiyalar kuchi bilan u yanada go'zallashib borayapti. Uning intellektual darajasi oshib boryapti.

Bugungi kunda ayol mavjudoti jamiyatda qanday o'rin tutmoqda, unga foliyat turlarining qaysidir biri ta'qiqlanmaganmi, bugun uning o'rnini u ayol bo'lgani uchun ham boshqa biron egallamayaptimi? Ko'p jabhalarda u erkaklar bilan tenglashib ulgurdi.

Ayol kim o'zi? Rus tadqiqotchisi S.I.Ojyogov “Ayol – nikoh munosabatlariga kirishuvchi va erkak jinsidan farqli o'laroq, farzand dunyoga keltiruvchi hamda unga ko'krak suti beruvchi jins”, deb ta'riflaydi. Bu uning faqat erkak jinsidan farqli biologik tuzilishiga ta'rif beradi xolos. Lekin XXI asr ayoliga bunday ta'rifning o'zi yetmaydi. Xo'p, bugungi tobora taraqqiy etib, shloballashuvning yaxshi-yu, yomon tomonlari bilan qorishib borayotgan bir davrda ayolning vazifalari nimadan iborat?

Birinchidan, u - yaratuvchi, u shunchaki bolani dunyoga keltirib, sut bermaydi, balki uni kiyintiradi, himoya qiladi, avaylaydi, mehrini beradi. Bu shunday mehr-ki, bola uni onasidan boshqa hech kimdan topa olmaydi!

Ikkinchidan, u – uy bekasi, uying o'chog'ini yoqadi, o'ziga xos oilaviy muhit yaratadi, turmush o'rtog'iga rag'bat beradi, uning imkoniyatlarini ochishda imkon beradi va hamkorlik qiladi.

Uchinchidan, u mehnatkash fidokor – u uyda ham, jamiyatda ham eng mayda detallarga ham e'tibor bergan holda o'zi uchun ishchi muhit yarata oladi, oila va jamiyat iqtisodi rivojiga o'z hissasini qo'shadi.

To'rtinchidan, ayol-ijodkor – u ijod qiladi, yaratadi, ilhomlantiradi. Oddiy uy jihozi-yu, bezaklarida, jamiyatda ish tutishida, rahbar bo'lsa, rahbarlik uslublarida unda takrorlanmaslikni, o'ziga xoslikni, originallikni yarata oladi.

Beshinchidan, u ayol- mafkurachi, u o'z g'oyalari ortidan butun bir avlodni ergashtirib keta oladi, sulolaga xoslikni namoyon etadi![4]

Eng muhimi, ayol ilmning muhim obyekti. Shved olimlari ayolning jamiyatdagi o'rniga an'anaviy qarashlar va tug'ilish darajasining iqtisodiy o'sishga ta'sirini 17 ta mamlakatda o'rganishadi va aniqlanishicha, ayolning o'rnini pastroq va tug'ilish darajasi past mamlakatlarda (Germaniya, Italiya, Ispaniya, Yaponiya), ayol va erkak faolligi teng darajaga ko'tarilgan va tug'ilishga nisbatan ijobiy munosabat shakllangan mamlakatlarga (AQSH, Shvetsiya, Norvegiya) nisbatan iqtisodiy o'sish darajasi past ko'rsatkichni tashkil qilgan.

Ayolning ma'rifati esa – millatning ma'rifati. U nafaqat oilasi, bolalarining dunyoqarashiga, balki uning atrofidagi ijtimoiy muhitga ham o'z bilimlari bilan ta'sir ko'rsatadi.

Demak, mamlakatimizda ayollarga berilgan imtiyozlarni biz aslida jamiyat rivoji uchun berilgan imtiyozlar, deb ayta olamiz. Masalan, birgina o'tgan yilning o'zida xotin-qizlarga 14 foizda 33 milliongacha tadbirkorlik uchun kreditlar berildi, pensiya yoshidagi ayollarni ishdan bo'shatish ta'qiqlandi. Ayrim toifadagi xotin-qizlarga OTMga kirish uchun tavsiyanomalar berildi, Ishlaydigan ayollarga bolasini ovqatlantirish uchun tanaffuslar berildi, davlat hisobidan ularga kasb-hunar o'rgatish keng yo'lga qo'yildi, “Ayollar ro'yxati”ga kirgan ayollar va ularning bolalariga imtiyozlar berildi, og'ir ijtimoiy ahvolga tushgan xotin-qizlarga uy berildi, tashabbuskor xotin-qizlarga “Mo'tabar ayol” ko'krak nishoni berildi, 12 yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarga qo'shimcha ta'til belgilandi, ayrim xotin-qizlarning kontrakt puli davlat tomonidan to'lanadigan bo'ldi, 3 yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarni ishga olishda sinov davri qo'llanilmaydigan bo'ldi, hatto ayrim hollarda 53 yoshda pensiyaga chiqishlari mumkinligi belgilandi. Rahbar lavozimdagi xotin-qizlar ulushi 35 foizga yetdi. Bunday misollarni aytaversak, juda ko'p.

Bularning hammasi yaxshi. Ammo, ayolning yana bir ulug' vazifasini o'rganish bugun ilm oldida turgan vazifa deb hisoblayman. Bu – ularning milliy qadriyatlarining estafetachisi ekanligi, ajdodlardan avlodlarga yetaklab olib o'tishidir.

Ma'lumki, bugungi globallashuv davrida milliy qadriyatlarning “yemrilib borilishi”, yoki, ularning ataylab “yeyilishiga” qaratilgan turli ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarning oshib borishi, ijtimoiy-axloqiy me'yorlarning buzilishi holatlari jamiyat barqarorligini izdan chiqaruvchi eng xatarli holatlardan biridir.

Zero, qadriyatga aylangan barcha voqelik va unsurlar, jumladan, an'anaviy urf-odat, taomil, marosim va bayramlar, milliy qadriyatlar bilan yo'g'rilgan pand-nasihatlar, tarbiyaviy choralar, yo'l-yo'riqlar azaldan millatning axloqiy-ruhiy, ma'naviy-ma'rifiy kamolotida muhim rol o'ynovchi vositalar bo'lib kelgan. Milliy qadriyatlar juda keng tushuncha. Ular xususiyatlariga ko'ra:

- 1.Zamon, vaqt (millatning o'tmishi, buguni, kelajagi) bilan bog'liq;
- 2.Makon (milliy hududning geografik joylashuvi, iqlimi) bilan bog'liq;
- 3.Millat genofondi, qon-qardoshlik rishtalari, milliy xarakterga xos;
- 4.Urf-odat, an'ana, marosim va bayramlar, o'yinlar bilan bog'liq;
- 5.Millat tili, yozuvi, shevalari, xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq;
- 6.Millat tafakkuri, g'oyasi, milliy maqsad va manfaatlar bilan bog'liq.[3]

Milliy qadriyatlarni garchi mana shu tarzda tasniflasakda, ularning hammasi avvalo oilaviy qadriyat sifatida shakllanib, keyin millat darajasiga chiqadi. O'tmishdan kelayotgan san'at turlari, (amaliy san'at, adabiyot, qo'shiqchilik, raqs, alla va hk), urf-odat va rasm-rusumlar, ko'nikmalar, bayramlar, marosimlar yoki til va shevalar, milliy tafakkur tarzi, milliy xarakter – bularning hammasini ham ayolning nafaqat ishtirokisiz, balki ijodkorligisiz, asrovchiligisiz, uzatguvchiligisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Qadriyatlarni takomillashtirish, ortiqcha dabdabozlik yoki ilmsizlikdan kelib chiqqan urflarning qadriyatlashmasligi uchun ayolning ma'rifatli bo'lishi nihoyatda katta ahamiyatga ega.

Aslida qadriyat degani juda ulug' tushuncha. [6] U alohida insonning ham, jamiyatning ham, millatning ham hayotida alohida o'rin tutadi. Milliy qadriyatga bo'lgan hujum – millatning jon tomiriga, qon tomiriga bo'lgan hujumdur. Masalan, milliy qadriyatga aylangan shunday axloqiy me'yorlar bor-kim, ular millat nufuzini, sha'nini, obro'sini ta'minlab beradi. Ammo, afsuski, “demokratiya” va “ommaviy madaniyat” niqobi ostida yigit-qiz munosabatlarida milliy axloqiy padaning ko'tarilishini qo'llab-quvvatlaydigan, oilaga xiyonatni - erk, axloqsizlikni - yoshlik gashti, ajrimni - mustaqillik, farzandsizlikni – o'zni sevish deya talqin qiladigan g'oyaviy qarashlar derazani ochganingizda toza havo bilan birga kirib keladigan chang-g'uborlar misol jamiyat ichiga sizib o'tayotir. Bu aslida nihoyatda xavfli hujum, g'oyaviy kurash, millatning o'zligiga, qadriyatlariga bo'lgan hujumdur. Hatto, yigit-qizlar oila qurishdan oldin birga yashab ko'rishi kabi kurakda turmaydigan g'oyalarni ham ilgari suradiganlarga nima deb kuyasiz? Bu xuddi “qo'lingdagi olma judayam chiroyli ekan. Sen uni margimush(og'u) suvi bilan yuvib yesang, yanada shirin bo'ladi”, - deya avraydigan yalmog'izning fitnasiga o'xshaydi. Oqibatning fojea bilan

tugashini bila turib, “mana bu – jannat”, - deya sizni jar yoqasiga yetaklab keladigan va aldab u yerga itqitib yuboradigan yovuz niyatlilarning o‘zi emasmi!

Shuning uchun ham biz milliy qadriyatlarni asrashimiz, axloqsizlik g‘oyasiga milliy axloq g‘oyasini ko‘ndalang qo‘yishimiz, millat tarbiyachisi bo‘lmish ayolning ma’naviy dunyosiga bo‘lgan hujumlarga yakdillik bilan qarshi turishimiz – jamiyat barqarorligi, millat ertasi masalasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *Sh.Mirziyoyev. (2021). Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.; O‘zbekiston.*
2. *Ashirov A. “Avesto” dan meros qolgan marosimlar. T. 2001 y.*
3. *Shahlo Ahrorova. Ma’naviyat eng ta’sirchan va qudratli qurolimizdir. “Ma’naviyat” nashr. T.-2022y.*
4. *Shahlo Ahrorova. Ayol – milliy qadriyatlar davomchisi. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2024 y, 49-son.*
5. *Jabborov I. O‘zbeklar turmush tarzi va madaniyati. –T.: O‘qituvchi, 2003.*
6. *Nazarov K. Falsafa asoslari. –T.:O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2012.*
7. *Otamurotov S. Milliy rivojlanish falsafasi. -T.: Akademiya, 2005.*
8. *Ochildiyev A. Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar. –T.: O‘zbekiston, 2004.*

Ahmadjonova Umida Tojimurodovna,
Jizzax politexnika instituti katta o'qituvchisi

OILADA ESTETIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. *Estetik savodxonlik va madaniyat, avvalo, oiladan boshlanadi. Oilada tashkil etiladigan estetik tarbiya bolalarda go'zallikni his qilish, undan zavqlanish, tabiat go'zalliklaridan bahra olish asosida his-tuyg'u, idrok, tasavvur hamda qarashlarni yuzaga keltirish, ularni hayotni sevishga o'rgatishdek vazifalarning ijobiy hal etilishini nazarda tutadi.*

Kalit so'zlar. *oila, estetika, tarbiya, axloq, go'zallik*

Abstract. *Aesthetic literacy and culture begin, first and foremost, with the family. Aesthetic education in the family involves the positive solution of such tasks as the formation of feelings, perceptions, imagination and views in children on the basis of feeling, enjoying, enjoying the beauty of nature, teaching them to love life.*

Key words. *family, aesthetics, upbringing, morality, beauty*

Oila - asrlar mobaynida xalq an'nalari, milliy rasm-rusmlar va odatlarni saqlab hamda namoyon etib kelayotgan noyob makondir. Barcha tarbiya o'chog'i bilamizki oilaga borib taqaladi. Inson doimo go'zallik uchun kurashishi va kelajak naslini ham o'sha estetik tushunchalar negizida tarbiyalamog'i darkor. Chunki ota-ona farzandiga haqiqiy husnni, insoniy fazilatlarini aynan estetik tarbiyani shakllantirish davomida bolada tarbiyalaydi. Oilada bolani estetik dunyoqarashini shakllantirish uchun eng avvalo ota-onaning o'zi estetik masuliyatli va qatiyatli bo'lmog'i lozim.

Estetik tarbiyani farzand tug'ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, fikrimizni nurlantirmoq, ahloqimizni go'zallashtirmoq, zehnimizni ravshanlantirmoq demakdir [1].

Estetik tarbiyani kim va qanday olib boradi? – degan savol paydo bo'ladi.

Birinchi - tarbiya ota-ona zimmasidadir.

Ikkinchi - bog'cha, maktab, akademik litsey hamda oliy o'quv yurtlari va mahallalarda amalga oshadi. Bola tarbiyasida u yashab turgan sharoit, muhit kishilarning faoliyati katta o'rin tutadi va bu sohada oila, maktab sharoiti ham katta e'tiborga molikdir. Estetik tarbiya ham tarbiyaning asosiy qismi bo'lib, bolaning ahloqiga, hulq-atvoriga kuchli ta'sir qiladi va ota-onalarni ularni murg'akligidan boshlab tarbiya qilishga chaqiradi. Estetik ta'lim-tarbiya va umumiy tarbiya bir-biri bilan bog'liq bir butun jarayondir.

Go'zallikni his etish ko'nikmasi shakllantirish, avvalo, oilada tashkil etiladigan estetik tarbiyaning asosiy muhim omili sanaladi. Oilada tashkil etiladigan estetik tarbiya bolalarda go'zallikni his qilish, undan zavqlanish, tabiat go'zalliklaridan bahra olish asosida his-tuyg'u, idrok, tasavvur hamda qarashlarni yuzaga keltirish, ularni hayotni sevishga o'rgatishdek vazifalarning ijobiy hal etilishini nazarda tutadi. Axloqiy va estetik qarashlar mazmuni o'zgargan bir sharoitda oilada axloqiy

va estetik tarbiyani to’g’ri va samarali tashkil etilishi ayniqsa muhimdir. Bolalar juda yoshligidanoq sohta go’zalliklar (yarim yalang’och yoki yalang’och badan, me’yoridan ortiq qo’llanilgan pardoz, urfga kirib borayotgan kosmetik operatsiyalar “mahsuli”, o’ta darajadagi yaltiroq mato yoki taqinchoqlar) go’zallikning timsoli emasligini anglab etishlari lozim. Sababi, farzand voyaga etib ijtimoiy jarayonlar bilan bo’ladigan munosabatlarida go’zallik nisbiylik xususiyatiga ega bo’lishini tushunishi zarur. Bu holat ayniqsa, go’zallikning moddiy va ma’naviy qadriyatlar tizimidagi o’rnida yaqqol ko’zga tashlanadi. Chunki, go’zallikning har qanday tahlili shaxs va jamiyat munosabatlari bilan mushohada qilingandagina uning ijtimoiy-ma’naviy xususiyatlari yanada oydinlashadi. Shu bois go’zallikning ma’naviy va moddiy qadriyatlar tizimidagi o’rniga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq[2].

Vatanimiz o’z mustaqilligini qo’lga kiritgandan so’ng, milliy-ma’naviy qadriyatlarga yangicha munosabat bildirildi, xalqona, ilg’or an’analar shakllanadi, milliy iftixorni yuksaltirishga keng jamoatchilik fikri jalb qilindi. Ana shularning natijasi o’laroq, mamlakatimizda amalga oshirilgan ezgu ishlarning ko’lami kengaydi. Endilikda bunyodkorlik g’oyasi go’zallik tushunchasi bilan hamohang olib borilganligini, bilish, anglash va tasavvur qilish qiyin emas. Zero, yoshlarda milliy qadriyatlarimizga, jumladan, oilaviy an’analar, noyob rasm-rusmlarga oid e’tiqodni shakllantirish orqali ularni oilaviy hayotga tayyorlash, oilaparvarlik xususiyatlarini tarbiyalash tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshiruvchi ta’sirchan vositalardandir.

Shuni aloxida ta’kidlash lozimki, estetik savodxonlik va madaniyat, avvalo, oiladan boshlanadi. Estetik duyongarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog’liqdir. Agar bu masala oilada to’g’ri yo’lga qo’yilmagan bo’lsa, uni maktablarda, keyingi ta’lim bosqichlarida hamda mehnat jarayonlarida qaror toptirish qiyin bo’ladi. Chunki, oila - asrlar mobaynida xalq an’nalari, milliy rasm-rusmlar va odatlarni saqlab hamda namoyon etib kelayotgan noyob makondir. Masalan, oilada bolalar estetik madaniyatining shakllanishida oila a’zolari ishtirokida xalq bayramlariga tayyorgarlik ko’rish, ularni o’tkazish bilan bog’liq bo’lgan tadbirlar ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan “Navro’z”, “Mustaqillik kuni” kabi umumxalq bayramlariga tayyorgarlik jarayonida o’tkaziladigan tadbirlar majmuiga kiruvchi obodonlashtirish, ko’kalamzorlashtirish kabi, insonda go’zal tuyg’ularni yuzaga keltiradigan ishlar ko’lamida bolalar oila a’zolari bilan birgalikda muntazam ishtirok etishi lozim. Oilada bolalarda estetik tasavvurlarni shakllanishida televideniya orqali ko’rsatilayotgan tasvirlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Go’zallikni, insoniy fazilatlarini oilada shakllanishi barchamizga ma’lum.

Ma’lumki, go’zallik haqidagi qarashlar va nazariyalar dastlab oilada vujudga keladi. Bola tarbiya markaziga “Go’zallik nima?” degan savol qo’yiladi, biroq ularning aksariyatida “Nima go’zal?” degan savolga savol bilan berilgan javobni kuzatamiz. Darvoqe, odatda, go’zallik ikki omil asosida yuzaga keladi. Bular:

inson tafakkuri va mehnatining mahsuli natijasida yaratiladigan go’zallik;

inson tafakkuridan tashqarida, insonga bog‘liq bo‘lmagan holda yuzaga keladigan go‘zallik.

Nafosat falsafasi go‘zallikni bilishning mahsuli deb biladi. Chunki voqelikdagi har qanday narsa-hodisaning go‘zalligi uning ishonchlilik, haqqoniylik va realligi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, inson go‘zallik haqidagi dastlabki ma’lumotni 5 ta sezgining eng rivojlangan turi bo‘lmish ko‘rish sezgisi orqali o‘zlashtiradi, undan so‘ng eshitish, ta‘m bilish, hid bilish va tana sezgisi natijasida go‘zallik anglanadi hamda his etiladi. Go‘zallikni his etish ko‘nikmasi shakllantirish, avvalo, oilada tashkil etiladigan estetik tarbiyaning asosiy muhim omili sanaladi. Oilada tashkil etiladigan estetik tarbiya bolalarda go‘zallikni his qilish, undan zavqlanish, tabiat go‘zalliklaridan bahra olish asosida his-tuyg‘u, idrok, tasavvur hamda qarashlarni yuzaga keltirish, ularni hayotni sevishga o‘rgatishdek vazifalarning ijobiy hal etilishini nazarda tutadi[3].

Rivojlangan fan – texnika taraqqiyoti davrida jadal sur‘atlar bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda inson va go‘zallikka intilish o‘rtasidagi muvozanatni saqlab qolish dolzarb muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu dolzarb masala mustaqil davlatimiz siyosatida ham o‘z ifodasini topib, uni har jabhada yani insonni o‘rab turgan atrof muhit va jamiyat bilan uyg‘unligini ta‘minlashni ham nazarda tutilgan.

Estetik ta‘lim muammolariga doir qator muommolar o‘rganilgan echim va yo‘l yo‘riqlari ishlab chiqilgan lekin shunga qaramay bugungu kunda go‘zallikni, ulug‘vorlikni qadriga etmaydigan, qadrlamaydigan insonlar ham mavjud. Shunga ko‘ra talabalarga yoshligidan ya‘ni oilaviy jarayonlarda shuningdek, maktabgacha ta‘lim muassasalarida, oliy o‘quv yurtlarida o‘quvchilarni go‘zallikkaga nisbatan ongli munosabatni tarbiyalash va bu borada milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta‘limga ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida yondashuvni tadqiq qilish muhim hisoblanadi. Bu harakat istiqbolga yo‘naltirilgan hamda inson bilan go‘zallik o‘rtasidagi aloqadorlikni tasdiqlaydigan ekologik madaniyat munosabatlari yotadi. Birinchi navbatda shaxsning go‘zallik bilan aloqador bo‘lgan me‘yor munosabatlarini uning qay darajada qonun–qoidalarni anglab olishga bog‘liqdir.

O‘quvchini estetik ruhda, nafosat olamida tarbiyalash oiladan boshlanadi va bu muammo davlat va ijtimoiy buyurtmaning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Barcha ta‘lim muassasalari o‘quvchi bilan nafosat olami o‘rtasida o‘zaro jonli muloqatni yo‘lga qo‘yish va buning uchun maxsus ilmiy-metodik ta‘minotning etarli darajada amalga tadbqiq etish muhim masala hisoblanadi.

Demak, oila hamma tarbiya turlarining boshlang‘ich nuqtasi. Farzand dunyoni go‘zal ko‘zlar bilan ko‘rishi uchun ota-ona o‘z farzandiga e‘tiborli munosabatda bo‘lishi, har bir narsa – hodisaning ijobiy tomonlarini ko‘rsata va singdira olishi darkor. Salbiy qarashlarning ijobiy tomonlarini ko‘ra olgan bolagina haqiqiy estetik jihatdan taraqqiy etgan, dunyoqarashga ega bo‘lib shakllana oladi. Albatta bularning asosi oilaga borib taqaladi. Farzand bamisoli loyga o‘hshaydi donishmandlarning fikricha, unga qanday tarbiya berilsa shu tarbiya bilan kamol topadi, rivojlanadi,

taraqqiy etadi. Bundan tashqari buyuk donishmandlardan biri aytgan ekan, bolani tarbiyalashdan ko`ra har qanday katta davlatni boshqarish osonroqdir deb, haqiqatdan ham farzandlar oilaning yuzi, jamiyatning ertangi kuni, ota-onaning g`ururi obro`-e`tibori farzandning kelajakdagi tolei va tarbiyasi bilan qiyoslanadi. Shunday ekan har qanday tarbiyani ham oqilona tashkil qilish, bola tarbiyasida e`tiborsizlik qilmaslik darkor aks holda bu nafaqat oila uchun balki jamiyat, davlatimiz uchun ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, shuning uchun farzandni mehr bilan, dunyoni sevish bilan, jonzotlarni asrash, odamlarga g`amhorlik qilish , yordam berish, mushkulotda yaqinlardan qochmaslik, do`stga sadoqat tuy`g`ulari bilan, kattalarga hurmat saboqlari bilan tarbiyalamoq muhimdir, o`shandagina biz kelajagi boy, ertangi kuni ravshan, estetik madaniyati shakllangan komil insonni voyaga etkazishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *K.Munavvarov “Oila pedogogikasi” Toshkent: “O`qituvchi” 1996.- 384-b*
2. *O.Xasanboyeva “Oilada ma`naviy-axloqiy tarbiya”. Toshkent: “Sharq” 1998.- 368 b*
3. *O.Xasanboyeva “Oila pedogogikasi”. Toshkent: “Aloqachi” 2007.- 312 b*

Umedjanova Malika Lukmanovna,
*Buxoro davlat pedagogika instituti
Pedagogika kafedrasida o'qituvchisi*

OILADA TA'LIM VA TARBİYANI TASHKIL ETISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch — oilada ruhiy xotir-jamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e'tibor berish va h.k.lar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *oilal, ota-ona, farzand, o'zaro munosabatlar, yosh avlod, ta'lim, tarbiya, hurmat-izzat, tartib-intizom, barkamol inson.*

Abstract: *In this article, we talk about the permanent educational and effective force in family upbringing - mental harmony in the family, sincere attitude, high parental prestige, maintaining unity between family adults in making demands on children, paying special attention to educating the child's personality to work, etc. goes*

Key words: *family, parents, child, mutual relations, young generation, education, upbringing, respect, discipline, well-rounded person.*

Oila tarbiyasi — oilada ota-ona, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash. Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch — oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llabquvvatlash va h.k. Oila qanchalik tartibli, uning a'zolari o'rtasidagi munosabat samimiy bo'lsa, Oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi. Oila tarbiyasida ota-ona obro'si, ularning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavobligi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Oila tarbiyasida tarbiya jarayoni zerikarli, quruq nasihatgo'ylikdan iborat bo'lib qolmasligi lozim. Bola hayotining ko'p qismi oilada o'tadi. Shu boisdan mavjud an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta'sirida bola asta-sekin kamol topib boradi. An'ana va marosim Oila tarbiyasining qudratli qurolidir. Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina, kutilgan natijalarga erishish mumkin. Oila tarbiyasida yutuklarga erishish ota-onalarning pedagogik bilimlarga egaligi, Oila tarbiyasi bo'yicha tajribalar almashishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg'in jalb qilishga ham bog'liqdir. Har bir ota-ona oila tarbiyasida o'zlarining burch va mas'uliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Normal oilaviy muhit, bolani kitob o'qishga, mehnat qilishga o'z vaqtida jalb etish ham oila

tarbiyasining muvaffaqiyati garovidir. Oilada ota yoki onaning yo‘qligi yoki ulardan birining ketib qolishi oila tarbiyasiga katta zarar etkazadi. Ularning bolaga beradigan tarbiyaviy ta’sir kuchi yo‘qoladi, oila tarbiyasidagi muvozanat buziladi. Bunday sharoitda bola qalbi qattiq jarohatlanadi, u tajang, serjahl, qo‘pol, dag‘al bo‘lib qoladi, kattalarga ishonmay qo‘yadi, o‘qishi pasayib ketadi. Oila tarbiyasida otaning obro‘si katta ahamiyatga ega.

Bolalarni barkamol inson qilib etishtirishda maktabni oila bilan bog‘lamasdan muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun oila tarbiyasida maktab va otanonalar o‘rtasidagi ta’limtarbiyaga oid birgalikdagi ishlari katta ahamiyatga ega. Ota-onalarning o‘qituvchilar bilan bo‘lgan uchrashuvlarida aytilgan fikrlar, ayniqsa qimmatlidir. Chunki ular o‘z farzandlari to‘g‘risida ko‘proq narsalarni bilib oladilar. Shuning uchun bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan har bir ota-ona oila bilan maktab o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi.

Bola maktabni tamomlagunga qadar ota-ona maktab bilan yaqin aloqa o‘rnatishi, farzandining darslarini o‘zlashtirishi, xulq-atvoridan xabardor bo‘lib turishi, ta’limtarbiya masalalarida o‘qituvchi, sinf rahbari bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan so‘ng nima bilan mashg‘ulligi haqida o‘qituvchi va sinf rahbarini xabardor qilib turishi lozim. O‘z navbatida o‘qituvchi va sinf rahbari ham bolaning o‘qishi, odobi, xulqi, maktabda o‘zini tuta bilishi haqidagi ma’lumotlarni ota-onaga etkazishi, zarurat tug‘ilganda paydo bo‘lgan muammolarni birgalikda hal qilishi zarur. Farzandi maktabga borgan ota-ona maktab jamoasining a’zosi bo‘lib qolishi kerak. O‘qituvchi va sinf rahbari ham o‘z o‘quvchisining oilasi bilan mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘ymog‘i lozim. Oila tarbiyasida ota-onalarning mahalla faollari, mehnat faxriylari bilan hamkorliklari ham muhim. Oila tarbiyasi farzandlarning har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratilsagina muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Oila tarbiyasida har bir oila o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi.

Oilalar tarbiya usullarini qo‘llash borasida bir-birlari tajribalaridan foydalanadilar. Shu nuqtai nazardan oilalarni shartli ravishda ikkiga bo‘lish mumkin, ya’ni “qattiqqo‘l” va “yumshoq” intizomli oilalar. Birinchi guruhga kiruvchi oilalar o‘z faoliyatlarida talabga asoslangan uslublarga, hatto, tan jazosi berish orqali tarbiyalashga asoslanadilar. Ikkinchi guruhga kiruvchi oilalar esa o‘z faoliyatlari namunasida, ishontirish, yumshoq intizom shirin, to‘g‘ri muomala orqali tarbiyalashga asoslanadilar. Agar “qattiqqo‘l” intizomli oilaning ichki munosabatlarida hukmronlik qilsa, “yumshoq” intizomlilarida esa demokratiya, tenglik munosabatlari mavjuddir. Biroq “yumshoq” oilalardagi bunday munosabatlar ota-onalarning o‘z xulqlari bo‘yicha mas’uliyatlarini kamaytirmaydi. Bunday intizomli oilalar uchun bolalarni qo‘rqitish, cho‘chitish usullari yot bo‘lib, bolaning qadrini bilish, o‘z-o‘zini hurmat qilish xislatlarini tarbiyalash asosiy hisoblanadi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, tarbiyalashda jazo, qo‘rqitish usullaridan foydalangan oilalardagi bolalar voyaga etgach, ruhiy asab faoliyatida buzilishlar sodir bo‘lgan. Munosabatda qo‘rqoqlik, aqliy faoliyatda orqada qolish holatlari kuzatilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bizning nazarimizda bolalari bilan do‘st, ularga diqqat-e‘tibor bilan qaraydigan, qayg‘ulariga hamdard, xursandchiliklarini baham ko‘ruvchi, talablarida sabrli, bolalariga doimo ma‘naviy ko‘maklashuvchi ota-onalargina haqiqiy ma‘noda namuna bo‘la oladilar. Ularning obro‘si halol mehnatlari bilan do‘stona munosabatlari, kerak bo‘lsa, hatto ayblari uchun kechirim so‘rashlari bilan mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *Munavvarov A.Q. Oila pedagogikasi. -T.:O‘qituvchi, 1994. -112-b.*
2. *Musurmonova O. Oila ma‘naviyati – milliy g‘urur. – Toshkent “Ma‘naviyat”, 2000, 47-bet (143 B).*
3. *Forobiy. “Baxt-saodatga erishuvi haqida” / M.M.Xayrullayev, Forobiy va uning falsafiy risolalari – T.: O‘z.FA Nashriyoti 1963, 252-285b.*
4. *Umedjanova M. L., Salikhov S. M., Salikhov T. M. The Role of National Education in Preparing Young People for Family Life //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 271-276.*
5. *Umedjanova, M. (2023). talabalarni aksiologik yondashuv asosida oilaviy hayotga tayyorlashning amaliyotdagi mavjud ahvoli. центр научных публикаций (buxdu.Uz), 43(43).*
6. *Umedjanova, M. (2022). oliy ta‘lim tizimida pedagogik ta‘lim klasteri. центр научных публикаций (buxdu.Uz), 8(8).*
7. *Umedjanova, M. (2022). Talabalarni milliy qadriyatlar ruhida oilaviy hayotga tayyorlash. центр научных публикаций (buxdu.Uz), 8(8).*

Axmadjonova Yorqinoy Tojimurodovna,
Jizzax politexnika instituti o'qituvchi

SHAXSNI TARBİYALASHDA OILA, TA'LIM MUASSASASI VA MAHALLANING HAMKORLIGI

Annotatsiya. Oila- shaxs uchun uning ijtimoiylashuv jarayoni ro'y beradigan, uning axloqi, dunyoqarashi asoslari tarkib topadigan dastlabki va nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan jamoadir.

Kalit so'zlar: oila, shaxs, mahalla, hamkorlik, ta'lim

Abstract. The family is the first and extremely important community for an individual, where his socialization process takes place, where the foundations of his morals and outlook are formed

Keywords: family, person, neighborhood, cooperation, education

Hozirgi kunda mamlakatimizda chuqur, keng qamrovli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat ma'naviy yuksalish va yangilanish sari yuz tutgan. Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish -davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Biz o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bilayotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq, manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak bo'lgan davrda amalga oshirilayotgan islohotlarining samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosining keng o'rganilishi, an'alarining saqlanishi madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liq.

O'zbekistonda ro'y berayotgan bunday o'zgarishlar “Oila, mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligi” yo'nalishidagi shaxs tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla, o'quv bilim yurtining asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi.

Shaxsni tarbiyalashda oila, maktab va mahallaning hamkorlik usullarining xilma-xilligini esa mavzuning dolzarbligini asoslaydi.

Ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda avvalo quyidagilarga e'tibor qaratish lozim[1]:

❖ yosh avlodga o'zligimizni, muqaddas an'alarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish;

❖ jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan hurfikrlikdan qat'iy nazar yoshlarni jipslashtiradigan, xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng yuksak maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya-milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

❖ yoshlarni baynalmilal jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda O'zbekistonga munosib hurmat uyg'otish uchun intilish ruhida tarbiyalash;

❖ yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, yuksak odamiylik va insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash;

❖ yosh avlodni ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari, ayni vaqtda jahon va zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida tarbiyalash O'zbekistonda talaba-yoshlarni tarbiyalashning eng dolzarb masalasidir.

O'zbekistonda ro'y berayotgan o'zgarishlar “Oila, mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligi” yo'nalishidagi shaxs tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla, o'quv bilim yurtining asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi.

Oila shaxs uchun uning ijtimoiylashuv jarayoni ro'y beradigan, uning axloqi, dunyoqarashi asoslari tarkib topadigan dastlabki va nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan jamoadir. Oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli pavishta odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta'sir ko'rsatishga qodirdir va odatda ta'sir ko'rsatadi. Oilada tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatiishning chuqur o'ziga xosligi bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa uni oliy darajada ta'sirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga shaxsni shakllantirish jarayonining zarur bo'g'iniga ham aylantiradi.

Oilaning yuksak tarbiyaviy imkoniyati shaxslar va ota-onalarning o'ziga xos xususiyatlari: qon-qarindoshligi, muhabbati, yaqinligi, ishonchi, burch hissi, obro'liligi va hokazolar bilan ta'minlanadi. O'z farzandining barcha zaif va kuchli tomonlarini yo'rgakdagi chog'idan biladigan, uning qalbidagi eng kichik harakatni ham sezadigan va tushunadigan, unga ta'sir etishni biladigan onadan va otadan yaxshiroq kim ham ularni ezgulikka, mehnatsevarlikka, do'stlikka, muhabbatga o'rgata oladi!

Ma'lumki, xilma-xil faoliyat sharoitida shaxsning qobiliyatlari eng samarali rivojlanadi, uning ijodiy imkoniyatlari ochiladi, shaxsni oiladan boshqa qayerda ham faoliyatning xilma-xil turlariga jalb etish mumkin. Oilaviy tarbiyaning qimmatliligi va ahamiyati yana shundaki, kichik shaxslik paytida oilada egallangan narsalar bir umr saqlanib qoladi. Xuddi shuning uchun ota-onalarning shaxslarni har tomonlama tarbiyalash majburiyati qonuniy tarzda belgilab qo'yilgan. Vaholanki, tajribaning ko'rsatishicha, ota-onalar ko'pincha o'zlarini tarbiyaviy ishga to'la tayyor deb biladilar va maxsus pedagogik bilimlarni egallashni zarur deb hisoblamaydilar. Ota-onalarning bu xususiyatini taniqli pedagog va psixolog K.D.Ushinskiy o'z davrida ta'kidlagan edi. “Tarbiya san'ati,-deb degan edi u, - shunday xususiyatga egaki, deyarli barchaga tanish va tushunarli, ba'zilarga esa juda oson ish bo'lib tuyuladi-odam bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan qanchalik kam tanish bo'lsa, unga bu shunchalik tushunarli va oson bo'lib ko'rinadi. Deyarli hamma tarbiya sabr-toqatni talab etishini e'tirof qilishadi, ayrimlar buning uchun tug'ma qobiliyat va malaka, ya'ni ko'nikma kerak, deb o'ylaydilar; lekin juda kam odam sabr-toqat, tug'ma qobiliyat va malakadan tashqari yana maxsus bilimlar kerakligi haqida ishonch hosil qilish”[2].

Bunday bilimlarning yo'qligi oilaviy tarbiyada ko'plab xatolarga olib keladi, guruh murabbiy (tyutor)lari ota-onalar bilan ishlashda buni hisobga olmay iloji yo'q. Bu

jihatdan ota-onalarning shaxslarni tarbiyalashdagi quydagi xatolarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Ota-onalarning shaxslar bilan muomalasining etishmasligi. Ular o'zlari, ishlari haqida kam so'zlab beradilar, o'quv bilim yurti o'quvchilar jamoasining hayoti, o'z shaxssining qiziqishlari, uning jamoat ishlari, bu ishga munosabati va hokazolar bilan kam qiziqadilar. Muomalaning etishmasligi shaxslarning ota-onadan uzoqlashishiga olib keladi, kattalarni shaxsga yanada faolroq ta'sir ko'rsatish imkoniyatidan mahrum etadi.

3. Ota-onalar tarbiyaviy ta'sirining izchil emasligi-onda-sonda o'qishini tekshirish, biror nojo'ya ish uchun jazolash va hokazolar axloqiy immunitet hosil bo'lishiga yordam bermaydi.

4. Ayrim ota-onalarning shaxslar ulg'ayib borishi bilan tarbiyaviy faollikni susaytirib yuborishlari, bu esa shaxslarning ota-onalardan uzoqlashuviga, o'quv bilim yurtiga qiziqishi pasayishiga va hokazolarga olib keladi.

6. Qarorlar qabul qilishda kechikish. Shaxs katta bo'lgandan keyin aqli kirib, tuzaladi deb o'ylash odatda o'zini oqlamaydi, ko'pincha qayta tarbiyalashni talab etadigan pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi.

Ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar qatoriga ota-onalarning tarbiya usullarini bilishlarini, shaxslar ulg'ayishi bilan ularni o'zgartirishni bilmaslik yoki istamaslik ota bilan onaning talablari birligining, pedagogik odob, chidamning yo'qligi, ota-onalarning turmushning ma'naviy tomoniga zid tarzda moddiy tomoniga qiziqib ketishi va boshqalarni qo'shish mumkin.

Shu sababli, talabalarni tarbiyalashda oilaning bir qancha vazifalari mavjud bo'lib ular quydagilardir[3]:

➤ oilada sog'lom muhitni yaratish, farzandlarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro g'amxo'p bo'lishni ta'minlash, istiqloq g'oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

➤ farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib etishishlarini ta'minlash. O'quv muassasasi, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to'la ado etishlari uchun oilada mas'uliyatli bo'lish;

➤ oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a'zolarining o'z huquq va burchlarini anglab etishlarini va ularga rioya qilishlarini ta'minlash;

Yosh avlodni yaxshi xulqli, davlat ramzlariga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, xarakteriga alohida ahamiyat berish lozim, chunki bularsiz tarbiyada ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligida ish olib borganda samaradorlik yanada yuqori bo'ladi.

Hamkorlikda olib borilayotgan ishlar mahalla hududidagi barcha yoshlar qamrab olishi hamda ularning qiziqish va intilishlariga mos bo'lishi lozim. Hamkorlik tadbirlarining mavzulari “Sog' tanda sog'lom aql”, “Mehr chashmasi”, “Hayot-ustoz, xalq-muallim”, “Milliy burch va mas'uliyat”, “Oila saboqlari”, “Oila etikasi”, “Oila tinch-mahalla tinch”, “Mustaqil hayot bo'sag'asida”, “Askarlik-yigitlik o'quv

muassasasi”, “Oila baxti-Vatan baxti”, kabi tadbirlardan iborat bo'lishi mumkin. Bahslar, bellashuvlar, uchrashuvlar va turli sanalarga bag'ishlangan anjuman va davra suhbatlaridan iborat bo'lishi mumkin[4].

Joriy qilingan jamoatchilik kengashi o'z faoliyati to'g'risida mahalla ahliga har chorakda bir marotaba hisobot berishini tashkil etish lozim. Zarurat tug'ilganda o'quv-tarbiya muassasalari, mahalla faollari, mahalla hududida joylashgan tashkilot, korxonalar va idoralarning ta'lim-tarbiya yuzasidan olib borilayotgan ishlari to'g'risida hisobotlarini tinglab, ularga amaliy va nazariy yordam berishi ish samarasiga va uning izchilligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator me'yoriy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va o'quv bilim yurti nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi.

Oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli ravishda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta'sir ko'rsatishga qodirdir va odatda ta'sir ko'rsatadi. Oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatishining chuqur o'ziga xosligi bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa uni oliy darajada ta'sirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga shaxsni shakllantirish jarayonining zarur bo'g'iniga ham aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Dilorom Toshmuhamedova, “Oila jamiyat va davlat himoyasida” *Xalq so'zi gazetasi*, 28 Sentyabr 2018
2. Mavlonova R., To'raeva O., Xoliqberdiev K., *Pedagogika.-T.: O'qituvchi*, 2002.
3. Yo'ldoshev J. *Zamonaviy o'zbek oilalarida o'smir bolalar shaxsining shakllanishi” nomzodlik dissertatsiyasi*, T., 2002
4. Yo'ldoshev J.G'. *O'qituvchi ma'naviyatini shakllantirish (qo'llanma)-T.: -2000*

Bovanova Umidaxon Abduvahobovna,
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti o'qituvchisi

Keldiyorova Aziza
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti
2-bosqich talabasi

TARBIYA JARAYONIDA OILANING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilada farzand tarbiyasida ota- onalarning o'rni haqida fikr yuritilgan bo'lib, tarbiya masalasi har qanday davrda va har qanday jamiyatda o'z ahamiyatini yoqotmasligi bilan dolzarb ekanligiga urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: bola tarbiyasi, ota-ona hamkorligi, ta'lim, xulq-atvor, odob-axloq namunalari, oilaviy muhit.

Abstract. This article discusses the role of parents in the upbringing of children in the family, and emphasizes that the issue of upbringing is relevant in any era and in any society and does not lose its importance.

Keywords: child upbringing, parental cooperation, education, behavior, examples of manners, family environment.

Kirish. Bolalarning murg'ak qalbiga hech bir narsa ibratdek kuchli ta'sir etmaydi va barcha ibratlar ichida ota-ona ibratidan kuchliroq va mustahkamroq o'rin oladigan ibrat yo'q. N.I.Novikov Barkamol avlod tarbiyasini tashkil etish azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi, millat ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Bu g'oya nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari boshlagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat sohasida ulkan yutuqlarga erishishga undagan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q.

Shu bois, mamlakatimizda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining ahamiyati tobora o'sib borayotganligi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashni muhim masala sifatida kun tartibiga qo'yimoqda. “Shuni unutmaslik kerakki”, - deydi Birinchi prezidentimiz I.Karimov, - “kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq”. Zero ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi yoshlarda bilim egallash bilan birga vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik, demokratik va umuminsoniylik kabi qadriyatlarni shakllanishiga yaqindan yordam beradi. Oila davlatning asosiy kurtagi sifatida bolalarning dunyoqarashi, xulqi va didiga ta'sir ko'rsatishi tabiiy holdir.

Asosiy qism. Oila a'zolarining ma'naviy birligi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning dastlabki va asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Oila farzandning

dastlabki tarbiya maktabidir. Shuni nazarda tutganda oilaning ikki sarkon — ota bilan onaning ma'naviy-ruhiy odobi, o'zlarining namunali xulq-atvorlari, yaxshi tarbiya ko'rganliklari, bolalarga tarbiya berishdagi tajriba va mahoratlari, qunt-sabotlari, sezgirlik va talabchanliklari bolalarni yoshlikdanoq boadab bo'lib o'sishida aks ettiruvchi ko'zgudek muhim o'rin tutadi. Har bir oilada bolaga tarbiya berishning o'ziga xos va mos bir qator muhim qonun-qoidalari borki, unga qat'iy amal qilish tarbiya ishining samarali bo'lishini ta'minlaydi. Shuni ham aytib o'tish lozimki, bu qonun-qoidalarni nisbiy ravishda umumiy deyish mumkin, chunki har bir bola — bir olam, ular har birining o'ziga xos shaxsiyati, ahamiyati, ruhiyati va xulq-atvori bor, shu bois shunga qarab muomala qilish darkor.

Shuning uchun tarbiyada ota-onaning mas'uliyati, mahorati, ziyrakligi, obro'e'tibori muhimdir. Har bir ota-ona bola tarbiyasining ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishiga e'tibor berib, bu kabi nazariy hamda amaliy qonun-qoidalarni o'zlashtirib, unga amal qilsa, ayni muddao bo'ladi. Negaki, oilada bola tarbiyasi g'oyat nozik va murakkab masala bo'lib, bu ota-onadan katta odob bilimini, katta tarbiyachilik 3 mahoratini talab qiladi. Bola tarbiyasi g'oyat nozik, bu narsa vaqtni qo'ldan boy bermay, doimo, muntazam shug'ullanishni talab etadi. Qulay sharoitlar yaratilsagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Oila tarbiyasi farzandlarning har tomonlama kamol topishi uchun bir necha xususiyatlarni namoyon qiladi.

O'zbek xalqi tabiatan bolajon xalq. Bolaga nisbatan bag'rikenglik, mehridaryolik, o'ta fidoyilik xalqimizga xos xususiyatlardir. Shu boisdan ota-onalarimiz farzandlarning puxta bilim olishlari, qiziqishlari bo'yicha kasb-hunar egallashlari, axloq-odob qoidalarini mukammal bilishlari va ularga amal qilishlari uchun zarur imkoniyatlarni yaratadilar. Chunki oilada bolani to'g'ri tarbiyalash — mustahkam poydevorli jamiyat barpo etilishining garovidir. Oilada farzand tarbiyasi u tug'ilmasdan boshlanmog'i zarur. Er-xotin, oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi sog'lom ma'naviy muhit, xushmuomalalik, xursandchilik bolaning bexavotir, sog'lom tug'ilishiga garov bo'ladi. Shuning uchun donishmandlarning bolani u tug'iimasdan oldin tarbiyalash xususidagi o'gitlariga amal qilmoq zarur.

Oilaviy tarbiya jarayonida shaxsning bir qator axloqiy jihatlari shakllanadi, ki, boshqa hech qaysi tarbiya obyekti oiladagidek yuqori natija bermaydi. Ularga insonparvarlik, mehr-muruvvat, rahm-shafqat, hamdardlik, muomala madaniyati, burchi va sadoqat, minnatdorchilik kabi insoniy fazilatlar kiradi. Kelajak avlodga estetik tarbiya berishda ham oilaning muhim o'rni bor. Oila davrasida qo'shiqlar kuylanishi, biror ertak yoki asarni oila davrasida o'qish, birga spektakl va kino ko'rish va tahlil qilish, kiyinish madaniyatini shakllantirish, uyda gullar parvarish qilish, rasm solish va hokazolar bolaning estetik tarbiyasini shakllantirishdagi jihatlardir. Ota-onalar voyaga etayotgan farzandlarining barkamolligiga o'ta ma'suliyat bilan qarashlari lozim. Masalan: ertalabki badantarbiya mashqlarini bolalar bilan birgalikda bajarish, to'g'ri va vitaminlashtirilgan ovqat berish, dam olishni, uyquni to'g'ri tashkil etish, vaqtida shifokor nazoratidan o'tkazishlari zarur.

Xulosa qilib shu aytish mumkin, har bir ota-ona bola tarbiyasining ijobiy yoki salbiy tomonga o‘zgarishiga e’tibor berib, tarbiya borasidagi diniy, nazariy hamda amaliy qonun-qoidalarni o‘zlashtirib, unga amal qilsa, ayni muddao bo‘ladi. Negaki, oilada bola tarbiyasi g‘oyat nozik va murakkab masala bo‘lib, bu ota-onadan katta odob bilimini, katta tarbiyachilik mahoratini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. T. “O‘zbekiston”, 2021.*
2. *Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T. “Ma’naviyat”, 2008.*
3. *Sodiqova Sh. Maktabgacha Pedagogika. Toshkent, 2003.*
4. *Qilichova M. X. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning xorij davlatlardagi ilg‘or tajribalari. Academic research in educational sciences, 2(11), 2021, P739-740.*

Mavlonov Bahodir Arzikul o‘g‘li,

Toshkent amaliy fanlar universiteti

*Pedagogika fakulteti “Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi
va metodikasi” kafedrasida katta o‘qituvchi*

Kuziyev Aziz Akramjanovich,

Toshkent amaliy fanlar universiteti

*Pedagogika fakulteti “Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi
va metodikasi” kafedrasida*

OTA-ONANING FARZANDGA TARBIYA BERISH ORQALI JAMIYATDA O‘RIN TOPISHI

Annotatsiya. Ushbu maqola farzand tarbiyasi va ota-onaning tarbiya berish orqali jamiyatda o‘rin topishi, ma‘suliyati hamda vazifasi va burchlari masalalariga bag‘ishlanadi. Shuningdek ushbu maqolada farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko‘rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o‘z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayon ekanligi ta‘kidlangan. Shu boisdan bu kichik tadqiqot tarbiyachilar, pedagoglar, psixologlar va ota-onalarning kelajagimiz farzandlariga tarbiya berishi orqali jamiyatimizda o‘rin topishning muhim ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Oila, jamiyat, ota-ona, farzand, burch, tarbiya, xulq-atvor, ma‘naviy etuklik, sog‘lom avlod, psixologiya.

Abstract. This article is devoted to the issues of child upbringing and parent’s place in society through education, responsibility, tasks and duties. Also, in this article, it is emphasized that child education is not just a collection of experience, simple instructions and knowledge, but a complex process that includes knowledge in the fields of religious and moral knowledge, medicine, ethics, psychology, and pedagogy. For this reason, this small study reflects on the importance of educators, editors, riskologists and parents to find a place in our society by educating our future children.

Keywords: Family, society, parent, child, duty, upbringing, behavior, spiritual maturity, healthy generation, psychology.

KIRISH. Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida oila qadriyatlarining tiklanishi va qarindoshlik munosabatlari, har bir oilaning iqtisodiy, madaniy, kasb-kor jihatdan ravnaq topishini anglatadi. Oila va oila muammolari hamisha davlatning diqqat e‘tibori va himoyasida bo‘lib kelmoqda. Jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi hujjat bo‘lgan Qomusimiz – Konstitutsiyamizda oila masalasiga ham alohida urg‘u berilgan. Konstitutsiyamizda: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega”, deb belgilab qo‘yilgan. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta‘kidlaganlaridek, “Avlodlar davomiyligini ta‘minlaydigan ma‘naviyat qo‘rg‘oni bu – oiladir». Bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimiz barkamol avlodni tarbiyalashdir. Shu bois ham mamlakatimizda barcha xayrli ishlar avvalo oilalarni mustahkamlash va yosh avlodning yorug‘ kelajagini ta‘minlash maqsadida amalga oshirilmoqda.

Zero, oila sog'lom ekan, jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan, mamlakat barqarordir. Bolalar tarbiasiga nafaqat oila, ta'lim-tarbiya muassasalari balki mahalla ham ma'suldir. Chunki, farzand tarbiyasi ko'p omillarga, avvalo, axloqiy-m'naviy muhitga ham bog'liq. Ta'lim-tarbiya muassasalari bilan oila hamkorligi bunda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lim to'g'risida qonun, Sh.Mirziyoyev asarlari, mavzuga doir adabiyotlar hamda internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo'llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Kishining jamiyatda tutgan mavqeiga bog'liq bo'lmagan bir kasb borki, u onalik va otalik kasbidar. Ota-onalar o'z bolalarining tarbiyasi uchun jamiyat oldida javobgardirlar.

Oila mustahkamligi, ma'naviy va jismoniy barkamol farzand jamiyat mustahkamligi va ma'naviy etuklikning garovidir.

Sohibqiron bobomiz Amir Temur ham o'g'il uylantirish, kelin tanlash, farzand tarbiyasini davlat siyosati darajasiga ko'targanligi ham bejiz emas. Davlatning qudrati sog'lom fikrli, bilimli, axloq-odobli, xalq, millat, Vatan taqdiri uchun jonini tikkan insonlar qo'lida. Bunday insonlar ilk bor oilada tarbiyalanadilar.

Bolalarning xulq atvoridagi xatolar ota-onalarning xatolaridir. Oila, oila a'zolarining, ayniqsa ota-onaning axloqiy-ma'naviy etukligi va ma'rifiy qarashlari farzand tarbiyasi va kamolida eng zarur va muhim omillaridan biri hisoblanadi. Oila bolalarni kelajakdagi er-xotinlik, shuningdek oilaviy hayotiga tayyorlovchi maktabdir.

Har bir ota-ona farzand tarbiyasida o'zlarining burch va ma'suliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsiyatini tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabuskorlik sifatlarini qo'llabquvvatlash ota-onalarning pedagogik bilimlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina, kutilgan natijalarga erishish mumkin. Bu borada ota-onalarning oilada farzand tarbiyasi va ma'naviy-axloqiy, ruhiy hamda jismoniy kamoloti uchun zarur bo'lgan ijobiy ota-onalik ko'nikmalarini o'zlashtirib borilishi katta ahamiyatga ega. Har bir ota-ona o'z farzandini dunyodagi eng toleyi baland, ma'rifatli va saodatli bo'lishini istaydi hamda bunga erishish yo'lida harakat qiladi. Shunday ekan, biz maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari, ota-onalar mahalla bilan hamkorlikda bolalar tarbiyasiga hech qachon befarq bo'lmaylik. Farzandlarimiz ta'lim-tarbiyasiga bo'lgan e'tiborni o'zligimiz va kelajakka bo'lgan e'tibor deb bilib, yosh avlodga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning sog'lom o'sishi, to'g'ri tarbiya hamda ta'lim olishini ta'minlash barchamizning burchimizdir.

Oila-jamiyatning tayanchi. Farzandlarimiz ongida el-yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo'lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o'sib-unayotgan bolalarimizga bog'liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila, o'sha mahalla gullab-yashnaydi. Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak, degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi. Ko'pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug'ullanish lozim, deb javob bergan. Oila, odob-axloq va ta'lim-tarbiaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. «Bir bolaga etti qo'shni ota-ona» degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o'zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog'lik muhim ekanini bildiradi.

Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko'chada noto'g'ri ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o'tib ketmagan, shu zahotiy oq tanbeh berib to'g'ri yo'lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go'zal xulqli bo'lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida oliyjanob fazilatlarini namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Shuning uchun uning atrofda qolganlari o'z odatlari bilan ba'zan o'zlari sezmaganda holda ularga ta'sir qiladilar. Oiladagi qo'pol munosabatlar, ko'p yolg'on gapirish, yoqimsiz xattiharakat bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog'lom muhitni keltirib chiqaradi.

Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o'rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib, kaltak eb katta bo'lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida oiladagi nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan «ma'naviy kasal» insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma'naviyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Albatta bola tarbiyasi o'ta murakkab va ma'suliyatlidir. Bu har bir ota-onadan o'z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma'lumotlardan bohabar bo'lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir. Farzand tarbiya qilganda odatda o'g'il bolalar tarbiyasi bilan ko'proq ota, qiz bola tarbiyasi bilan esa ona shug'ullanadi. Albatta bunda farzandning saviyasini inobatga olish muhim. Bolani biror-bir yutuqqa erishishida, natijani ko'rishga shoshmaslik kerak. Masalan ikki yoshgacha faqat shirin so'z bilan, erkalash orqali tarbiya qilinadi. Besh yoshgacha bola atrofni o'rganadi, asosiy ma'lumotni shu yosh oralig'ida egallaydi. Bu davrda biz ko'proq amaliy jihatdan namuna bo'lishga urinishimiz, sog'lom oilaviy muhitni yaratishimiz zarur bo'ladi.

Oilada otaning bolalariga loqayd bo'lishi oxiri xunuk oqibatlariga sabab bo'ladi. Loqaydlik yomon illat bo'lib, u bola tarbiyasining buzilishiga katta yo'l ochadi.

Keyingi davr esa bir oz talabchanlik va intizomni talab etadi. Bu davr o’smirlik payti bo’lib, bola oq-qorani ayni shu davrda ajratadi.

Yaxshilikka mukofot, yomonlikka jazo muqarrarligini shu bosqichda o’rganadi. Bu davrda farzand to’g’ri yo’lga solinsa, tarbiyali do’stlarga hamroh qilinsa, uning odobli bo’lib, yaxshi inson bo’lishi uchun muhim qadam qo’yiladi. Odatda onalar o’z bolalarining xato va kamchiliklarini otasidan yashirishga harakat qiladilar. Aytsam urishadi, bolamga qattiq tegadi deb, yo’l qo’ygan xatolari, qo’l urgan yomon ishlarini otaga aytmaydilar. Oqibatda bola o’z vaqtida tanbeh olmaganidan keyin bora-bora kattaroq jinoyatlarni ham qo’rqmasdan qilaverishi mumkin.

Mehr-muhabbat berishda ham me’yorni saqlay bilish kerak. bolaning barcha aytganlarini qilish, barcha to’g’ri-noto’g’ri xatti-harakatlarini ma’qullash yoki xatto indamaslik farzandning umuman tarbiyasiz bo’lib o’sishiga olib keladi. Ortiqcha taltaytirib erkalash bolani har jihatdan sustlashtirib qo’yadi, mehr ko’rsatish esa uni yanada faol bo’lishga undaydi. Erka o’sgan bola faqatgina shaxsiy manfaatlarini ko’zlaydigan, ma’suliyatsiz bo’lib voyaga etadi. Shuning uchun farzandning barkamol inson bo’lib etishida onaning xizmati juda zarur va muhimdir.

Bolalik chog’ida farzandning qalbi o’ta yumshoq va ta’sirga beriluvchan bo’ladi. Shu bois diniy ta’limotlarda bolalarni mehr bilan erkalash, farzandning bolalik davrini xursand o’tkazishga alohida e’tibor qaratiladi. Ayniqsa, qiz bolaning ko’ngli nozik bo’lishini hisobga olib, ularga alohida mehr ko’rsatishga chaqiriladi.

Diniy ta’limotlarda ota-ona o’z farzandlariga ta’lim-tarbiya berishi ham dolzarb vazifalardan deb qaraladi. Bu haqda Muhammad (alayhissalom): “Farzandlaringizga ta’lim bering, chunki ular sizniki bo’lmagan vaqt uchun tug’ilganlar”, deb har bir ota-onani bolaning o’z zamonasi ilm-fani, ta’limiga befarq qaramaslikka chaqirganlar.

Tarbiyada eng muhim vosita bu mehr va shirinso’zlik bilan tarbiyalashdir. Bu ikki vosita bir bo’lib, bolani shakllantiradi. Shu jumladan, ta’limni ham g’azab va jazolash bilan amalga oshirmagan ma’qul. Zero, zo’rlab berilgan ta’lim bola xotirasidan tezda o’chib ketadi. Oqibatda uning shu sohaga nisbatan qiziqishi so’nishi mumkin. Bundan ko’rinadiki, ta’limning avvali ham yaxshi tarbiyadan boshlanadi. Tarbiyadan tashqaridan bo’ladigan salbiy ta’sir bu, eng katta xatardir. Chunki farzandga oilada bu boradagi erkinlikka yo’l qo’yilmagach, u o’z qiziqish va rag’batlarini qondiradigan sabablarni tashqaridan izlay boshlaydi. Demak, ota-ona farzandining tashqi hayotiga ham katta e’tibor qaratishi talab etiladi. Ya’ni, ular farzandi maktabdan keyin qayerga borishi, nima bilan shug’ullanishini nazorat qilish lozim. Farzandiga bilim olish uchun sharoit yaratish ham ota-onaning vazifasidir. Ota-ona farzandiga vaqtni unumli o’tkazishni o’rgatishida vosita sifatida foydalanishi mumkin bo’lgan usullardan yana biri zamonaviy axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanishdir. Ushbu zamonaviy kommunikatsiya vositalari muhim aloqa vositalari bo’lishi bilan birga ba’zi ma’naviyati to’liq shakllanmagan yoshlarga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda.

Ijtimoiy tarmoq ta’siriga tushib qolgan yoshlarga ota-onalar, o’quv muassasalari bilan birgalikda aloqa vositalarining asl mohiyatini tushuntirib berishlari lozim. Ota-

ona bolada estetik tarbiya, go'zal manzaralardan zavq olish hissini shakllantirish uchun uni o'zi bilan birga tabiatdagi manzarali joylarga, muzeylarga olib borishi va shu bilan birga uning qalbida go'zallik latofatini singdirishi juda muhim.

O'zbekiston Respublikasi Oila qonunchiligida voyaga etmagan bolalarning bir qator shaxsiy nomulkiy huquqlari ko'rsatilgan, ya'ni har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ularning g'amxo'rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega. Bola o'z ota-onasi tomonidan tarbiyalanishi, o'z man'faatlari ta'minlanishi, har taraflama kamol topishi insoniy qadr-qimmatlari hurmat qilinishi huquqiga ega. Shuningdek, ota-ona o'z bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga egadirlar.

Ota-onaning bola oldidagi teng huquqlilari unga g'amho'rlik qilish, ta'lim tarbiya berish, uni parvarish qilish va boshqalardan iboratdir. Bolaning oldida o'z huquqlarini bajarish ota-ona uchun faqat axloqiy qoida bo'lib qolmay, balki konstitutsiyaviy huquq va burchlaridan biridir.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Insonlar farzandli bo'lishdek baxtga erishish bilan birga ota-onalik vazifasini va mas'uliyatini ham to'la anglab etishlari lozim deb o'ylayman. Chunki jamiyatimizning baxtli kelajagi uchun barchamiz mas'ulmiz. “Odobli bilimdon, aqlli, mehnatsevar, iymon–e'tiqodli farzand nafaqat otaonaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir”. Bolalar-oila va jamiyatning ko'z gusidir. Bolalarning yosh qalbiga hamma narsadan ko'ra o'rnak ko'rsatish kuchli ta'sir etadi, ota-onalarning ko'rsatadigan o'rnagi (ibrati) esa ularning qalbida boshqa hamma kishilarning o'rnagiga qaraganda chuqurroq va mustahkamrok iz qoldiradi.

Oilaviy tarbiya doimo mavjudligi, ko'rsatmaliligi va serjiloligi bilan ajralib turadi. Unda odobga doir tadbirlarni bolaga to'g'ri o'rgatish, maslahat berish, kattalar tajribasigina emas, balki oilaning yashash tarzi, muhiti, ota-onalarning kasb hunari, oila a'zolarining ma'naviy-ruhiy munosabatlari katta rol o'ynaydi. Shunisi quvonarliki, hozirda oilalarda ota-onalarning farzand tarbiasiga bo'lgan e'tibori kundan-kunga kuchaymoqda. Bunga sabab muhtaram yurtboshimiz tomonidan xalq manfaatlari uchun barcha sohalarga bo'lgan e'tibor, olib borilayotgan islohotlar, yaratilayotgan shart-sharoitlar, berilayotgan imkoniyatlardir. Bunday imkoniyatlardan to'laqonli foydalanib kelayotgan ota-onalar farzandlari tarbiasiga o'ta ma'suliyat bilan qaramoqdalar. Chunki, farzand Olloh tomonidan ato etilgan ulug' ne'mat bo'lishi bilan birga, u ota-onaga topshirilgan ma'suliyat hamda omonatdir.

Bolalar–kelajagimiz ekan, ularni ham jismonan, ham ruhan, ham ma'nan sog'lom bo'lib kamolga etkazish barchamizning asosiy vazifamiz bo'lib qolishi kerak.

Mustaqil yurtimiz ravnaqi uchun munosib farzandlarni tarbiyalab voyaga etkazishdek mas'uliyatli va ulkan vazifani o'z oldiga maqsad etib qo'ygan hamda undan faxrlana oladigan insonlar chinakam fidoyi ota-onalardir. Farzandlarimiz bor ekan, ana shunday fidoyi ota-ona bo'lish har birimizning burchimizdir.

Ma'naviy immunitetli, o'zining fikrlarini ravon ayta oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb

etadi. Insonlarning qalbi va ongini egallash, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy dunyosini zaharlashga qaratilgani turli xavf-xatarlar kuchayib borayotgani bugungi kunda o'zining kimligini, kimlarning vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, imon-e'tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta'sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo'ladi.

Farzanlarimizga shunday tarbiya berishimiz kerakki, ular o'z ota-bobolariga, o'z tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an'alariga sodiq barkamol inson bo'lib ulg'aymog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. *Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O'zbekiston, 2020.*
2. *Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O'zbekiston, 2017.*
3. *2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi// <https://www.lex.Uz>*
4. *2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi// <https://www.lex.Uz>*
5. *G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.*
6. *Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Путер”, 2003.*
7. *Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi. "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya va uning fakultativ protokollari". Toshkent-2009.*

Abdiyeva Qo'ysintosh Azadovna,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
“Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi”
kafedrasida katta o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNI O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISHDA OILADAGI TA'LIM VA TARBİYANI AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni o'z-o'zini rivojlantirishda oiladagi tarbiya, oilada ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlar hamda muammolar va ularni hal qilish yo'llari to'g'risida fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Oila, ota-ona va bola munosabatlari, me'yor, tabiyya, kelajak.

Abstract. In this article, thoughts on family upbringing, parent-child relations in the family, and problems and ways to solve them are highlighted in the self-development of students in primary education.

Keywords. Family, parent-child relations, norm, nature, future.

KIRISH. Barchamizga ma'lumki, qadriyatlar jamiyat rivojining negizi, millatning tarixiy taraqqiyotida erishilgan muvaffaqiyatlarini avloddan avlodga o'tkazuvchi qudratli omildir. Tarixiy taraqqiyot bosqichlariga nazar tashlar ekanmiz, har bir jamiyat, davlat o'zining milliy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib taraqqiy etmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat”, – deb e'tirof etdilar. Mamlakatimizda yoshlarning ma'naviy qiyofasini mustaqillik mafkurasi, uning insoniy tamoyillari asosida shakillantirishga bosh vazifa sifatida qaralayotgani bejiz emas. Eng quvonarlisi shundaki, davlatimiz rahbari yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga, ularning bilim va kasb mahoratini oshirish masalalariga alohida e'tibor berib kelmoqdalar. Chunki mustaqilligimizning uch tayanchi – mustaqil siyosat, iqtisodiy qudrat va xalq ma'naviyati bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning uyg'un rivoji ta'minlansagina O'zbekiston buyuk yurt sifatida jahon hamjamiyatida o'z munosib o'rnini egallay oladi. Oila - oziga xos ijtimoiy birlik. Uning asosida er-xotin ittifoqi, qarindoshlik munosabatlari, maishiy hayot birligi, axloqiy va huquqiy ma'suliyat hamda eng asosiysi ota-onalarning bolalarini tarbiyalash majburiyatlari turadi.

ASOSIY QISM. Azaldan bir ma'naviy ruhiy iqlimdan nafas olib kelgan xalqimizning, ayniqsa, bugungi mas'uliyatli davrda aql, zakovat va shijoat, dunyoviy

salohiyat va milliy g'urur talab etiladigan bir pallada yana ham yaqinroq va yana ham mehr oqibatliroq bo'lishlari lozimligini hayotning o'zi taqozo qilmoqda. Umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlardan mazmun jihatdan chuqur va keng bo'lib, umumbashariy ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy qadriyatlar jahondagi barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad va intilishlariga muvofiq keladi. Umuminsoniy qadriyatlar turkumiga insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan umumbashariy muammolar kiradi. Ulardan eng asosiylari – yer yuzida ilm fanni taraqqiy ettirish, tinchlikni saqlash, xalqaro xavfsizlikni ta'minlash, turli kasalliklarning oldini olish, tabiatni muhofaza qilish, qashshoqlik va savodsizlikka barham berish, sanoat xomashyosi, energiya manbalari va oziq ovqat bilan ta'minlash, koinot va jahon okeani resurslarini o'zlashtirish, dunyo miqyosida ahamiyatga ega bo'lgan nodir san'at asarlari, xalq amaliy san'ati, me'morchilik va musiqiy asarlarni saqlash va kelgusi avlodga yetkazish kabi muammolar kiradi. Ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan badiiy, me'morchilik va ma'naviy asarlar har qanday dur-u javohirlardan ham qimmatliroq boylikdir. Ushbu boyliklar asrlar davomida unga xizmat qilyapti. Eramizdan oldin Afina demokratiyasi inqirozga uchraganida yunon faylasuflari qadriyat masalasini ko'targan edi. Ular ijtimoiy-siyosiy, huquqiy tafakkur tarixida birinchi bor “inson – oliy qadriyat”, deb ko'rsatdilar, olamdagi barcha jihatlarni “insoniylik mezoni” bilan o'lchashni targ'ib etdi. Buyuk mutafakkir Suqrot esa “qadriyat nima?”, degan savolga “har bir insonning o'zligini anglashi”, deb javob berdi. Qadriyatlarining shakllanish makoni bo'lgan oila va unga xos bo'lgan qadriyatlar tizimi jamiyatning kelajagini belgilab beradi. Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir. Bu muqaddas zaminda yashayotgan har bir inson o'z farzandlarining baxt-u saodati, fazl-u kamolini ko'rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi. Oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf odatlarimizni sayqallaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday shaxs bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Mustaqil Respublikamiz Konstitutsiyasining XIV bobi Oilaga bag'ishlangan bo'lib, o'zbek oilasi va munosabatlariga doir barcha masalalar to'laligicha hamda asosli huquqiy himoyani o'zida mujassam etgan. Konstitutsiyada o'zbek oilasining shakllanishidan boshlab tomonlarning teng huquqliligi, nikoh tuzishdagi erkin roziliklari, ota-onalar tomonidan bolalarning ta'minoti va tarbiyasi, farzandlar tomonidan o'z ota-onalariga g'amxo'rlik qilish kabi masalalar o'z ifodasini topgan. Shuni g'urur va faxr bilan ta'kidlashimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi 66-moddasida: “Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar”, – deb ko'rsatilishi aynan milliy qadriyatimizning qonunda aks etishidir.

Bilamizki, Oila deganda ko'z oldimizga birinchi navbatda ota-ona va bolalar keladi. Oila jamiyatning bir bo'lagi hisoblanadi. Shu bilan birga oilada yurtning kelajagi ya'ni

barkamol farzandlar o'sib ulg'ayadi, kamolga yetadi. Biz oilani bir bog' deb tasavvur qiladigan bo'lsak oiladagi farzandlar – mevali daraxt, ota-onalar esa bog'bonlardir. Mana shu bog' ichidagi mevali daraxtlar doim bog'bonga muhtoj. Farzand ham xuddi shunday, ota-ona parvarishiga, ota-ona ko'magiga muhtoj. Bog'bon qachonki mevali daraxtini o'z vaqtida parvarishlasa undan mo'l hosil oladi. Ota-ona ham qachonki farzandini to'g'ri tarbiyalasa, kelajakda u ham albatta o'z mevasini beradi. Agar aksincha bo'lsa-chi? Oilada ota-ona farzandga e'tibor bermasa, farzandi u uchun ahamiyatga ega bo'lmasa, xuddi bog'dagi mevali daraxt meva bermaganidek, ota-ona bag'ridagi farzand ham o'z yutuqlarini bermaydi.

Keling, endi boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni o'z-o'zini rivojlantirishda ota-ona va bola munosabatlari, ularning tarbiyalari to'g'risida gaplashsak. Aslida tabiatdagi barcha jonzot bolasi uchun jon kuydiradi. Odamzod esa nasli davomchisi bo'lgan dilbandi uchun ulardanda ziyod qayg'uradi. Chunki ota-ona farzandi ulg'ayib, el-yurt koriga yaraydigan, yaxshi joyda ishlab, farovon hayot kechiradigan, hurmatga sazovor inson bo'lishini xoxlaydi. Bu ezgu orzular amalga oshishi uchun albatta ota-ona farzandiga to'g'ri tarbiya berolishi kerak. To'g'ri tarbiya berish uchun ham ota-ona qaysidir ma'noda ota-lik va onalik roliga tayyor bo'lishi lozim. Chunki bola dunyoga kelgan payti hamma narsani bilib tug'ilmaydi. U xuddi “top-toza qog'oz”. Bu qog'ozga sekin-asta ota-ona bergan tarbiya, muhit tarbiyasi va hayot qonuniyatlari yozilib borilaveradi. Qachonki ota-ona farzandini avaylab, e'zozlab katta qilsa u shunchalik mehr-oqibatli bo'ladi.

Azaldan sharqda oila, ota-ona tushunchalari muhim qadriyatga aylangan. Ota – padari buzrukvor. Ona – volidayi muhtarama. Bunday sifatlar faqat ulargagina munosib. Ularning oiladagi, butun jamiyatlardagi mavqeyini belgilaydi. Ota-onaning o'zaro munosabatlari oila muhitini shakllantiradi. Darhaqiqat, shu bilan birga boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'z-o'zini rivojlantirishda maktab va oila birgalikda harakatlanadi. Bu makondagi ob-havo, kayfiyat ota-onaning va maktabda sinf rahbarlarining munosabatidan kelib chiqadi. Farzand dunyoga kelib, ayni ana shu muhitda rivojlanadi, kamol topadi. Shakllangan tarbiya muhitidan oziqlanadi, havosidan nafas oladi. Insonning dunyoga kelib, odam bo'lib shakllanishida ota-onaning hamda boshlang'ich ta'limda olgan bilimlari maktab muhiti bilan bog'lanib ketgan murakkab psixologik va tarbiyaviy jarayon. Afsuski, biz ba'zan bunga e'tibor bermaymiz. Ota, asosan, moddiyat bilan shug'ullanadi. Topganini uyiga tashiydi, bolalarining rizqi butun bo'lsin, deb eladiyuguradi, xolos. Ona esa bolasini yuvib-tarab oziqlantiradi. Afsuski, bu kamlik qiladi. Bunday holatda ota ham, ona ham faqat yuzaki, yashash uchun zarur bo'lgan vazifani bajargan bo'ladi. Mehr, qalb qo'ri, yurak harorati, fikrlash imkoniyatlariga kamroq e'tibor beriladi. Mana shunday vaziyatda maktabda o'qituvchi o'quvchilarni ularni oilaviy vaziyatini tushungan holatda o'z-o'zlarini rivojlantirishda o'z yordamini ayamaydi.

XULOSA. Shunday ekan qalb uyg'onmog'i lozim, ruhiyat uyg'oq bo'lmog'i shart. Oilada ota-ona, maktab, maxalla hamkorlikda kamol topishida yosh avlodning

har tomonlama rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta’sirchan kuch — oilada ruhiy xotir-jamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro‘sining yuqori bo‘lishi, bolalarga talab qo‘yishda oila kattalari o‘rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e’tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo‘yish, oilada qat’iy rejim va kun tartibini o‘rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlari-nl hisobga olish, boladagi o‘zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo‘llabquvvatlash va h.k. Oila va maktabda ta’lim qanchalik tartibli, uning a’zolari o‘rtasidagi munosabat samimiy bo‘lsa, Oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi. Oila tarbiyasida ota-ona hamda ustozning obro‘si, ularning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavoblighi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Oila hamda maktab hamkorlikda o‘quvchilarni o‘zlarini mustahkam fikrlaydigan qilib tarbiyalashda tarbiya jarayoni zerikarli, quruq nasihatgo‘ylikdan iborat bo‘lib qolmasligi lozim. Bola hayotining ko‘p qismi oilada o‘tadi. Shu boisdan mavjud an’analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta’sirida bola asta-sekin kamol topib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiyma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-sonli farmoni.*
2. *O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 28-fevralda qabul qilingan “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida”gi qonuni.*
3. *Musurmanova O. Oila jamiyat tayanchi: Monografiya /O.Musurmanova. –Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B. 252.*
4. *Fazilatli avlod. Uzluksiz ma’naviy tarbiya trilogiyasi. 3-qism. [Matn]: 7-18 yoshli bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha qo‘llanma. /Tuzuvchi mualliflar: A.Qodirov, M.Quronov, O.Musurmanova va boshqalar. – Toshkent: “Muharrir” nashriyoti. 2019. – B. 256. (2020 yil, yanvar) “Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami 17*
5. *A.Musurmanova. Improving Mechanisms of interaction between Family institutions and Educational institutions in Devejoping Spirital Culture of Aolescents at Social and Right Risk Groups Eastern European scientific journal (ISSN 2199-7977) Ausgabe 2-2018.62-67 pp.*
6. *A. Musurmonova. Improvement of the pedagogical mechanisms of the family and educational institutions in the development of the spirital cultute of adolescents of social and legal risk groups. “Проблемы педагогики” научно-методический журнал. № 1(33) февраль. – Москва, 2018 г.*

Saparova Umida Baxromovna,

Toshkent amaliy fanlar universiteti katta o‘qituvchisi

TARBIYA FANI ASOSIDA OILADA IQTISODIY TARBIYANI SHAKILLANTIRISH METODIKASI

Annotasiya. Ushbu maqolada tarbiya fani darslarida oilada va ta’lim muassasalarida o‘quvchilarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirish metodikasi haqida so‘z boradi. Tarbiya fani asosida oilada va ta’lim muassasasida uzluksiz iqtisodiy ta’lim konsepsiyasini amalga oshirishdan ko‘zlagan asosiy maqsad xalqaro hamjamiyat tomonidan qabul qilingan ta’lim andozalariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash muammolari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Tarbiya, oila, muhit, iqtisodiy tarbiya, tejamkorlik, texnologiya.

Abstract. This article talks about the method of forming economic education of students in the family and in educational institutions in the education science classes. The main goal of the implementation of the concept of continuous economic education in the family and educational institution based on the science of education is the problems of training highly qualified personnel in accordance with the educational standards accepted by the international community.

Keywords: Education, family, environment, economic education, thrift, technology.

Kirish. Tarbiya fani asosida oilada va ta’lim muassasasida uzluksiz iqtisodiy ta’lim konsepsiyasini amalga oshirishdan ko‘zlagan asosiy maqsad xalqaro hamjamiyat tomonidan qabul qilingan ta’lim andozalariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash. Rivojlangan mamlakatlarda ta’lim tizimini isloh qilishida ta’lim texnologiyalari rivojlanishida kerakli axborotni mustaqil izlab topish, muammolarni aniqlash va ularni oqilona hal etish yo‘llarini topish, o‘zlashtirilayotgan bilimlarni tanqidiy tahlil qilish va yangi vazifalarni belgilashda ulardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan bo‘lsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan boshlab iqtisodiy tarbiya tushunchalarini shakllantirish zaruriy holatlardan biridir. Tayyor bilimlarni o‘zlashtirish va umumlashtirish asosiy maqsad emas, balki insonning intellektual rivojlanishiga ko‘maklashuvchi vositalardan biri hisoblanadi.

Har qanday ijtimoiy texnologiyaning mazmuni va vazifasi jarayonni optimallashtirish, faoliyatning ijtimoiy samaraga erishishi uchun zarur bo‘lmagan barcha turlarini undan chiqarib tashlashdan iborat. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tarbiya fani darslarida iqtisodiy tarbiya tushunchalarini shakllantirishda oila hamkorligidan foydalanish, boshqaruv xarajatlarini kamaytirish, boshqaruv faoliyatining samaradorligini oshirish imkonini beruvchi bosh xazira hisoblanadi. Rivojlanish inson nimaga ega ekanligi bilan emas, balki insonning kimligi, u o‘z ixtiyorida mavjud narsalar bilan nima qilishga qodir ekanligi bilan belgilanadi va bu borada bozor qonunlariga amal qilgan holda o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini yo‘lga qo‘yishni bilishi asosiy masala hisoblanadi. Bu insoniyatning global muammolarini hal etishda maktab, oila

hamkorligi va ta'lim-tarbiya muhim ahamiyat kasb etishi lozimligini ko'rsatadi. Ta'lim berishda oila hamkorligini ta'minlash huquqiy ma'eriylariga asoslangan ega.

⁶³O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli qonunining 18-moddasida “Oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish” masalalari, xususan oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish tartibi, shuningdek ta'lim oluvchilarning toifalari ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanishi hamda ta'lim oluvchilarning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari o'rtasidagi shartnoma asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Asosiy qism. Jamiyat rivojlanishiga qarab daromad manbai sifatida bilimlar, innovatsiyalar va ularni amalga oshirish usullari ko'proq amal qilishi, ayniqsa, kuchli iqtisodiy imkoniyatlarda namoyon bo'ladi. Iqtisodiy rivojlanishda bilim birinchi darajali ahamiyat kasb etish olishi ijtimoiy hayotda ta'lim-tarbiyaning o'zini iqtisodiy tarbiya tushunchalarini shakllantirish ularni yangilash va rivojlantirishga qarab mo'ljallanish olish sanoatlashuvdan keyingi iqtisodiyotda band bo'lgan insonlarning xususiyatlariga va iqtisodiy rivojlanishini belgilovchi muhim omilga aylanadi.

Unutmaslik kerakki, axborot va nazariy bilimlar mamlakatning strategik zaxiralari hisoblanadi va ta'limning rivojlanish darajasi bilan bir qatorda, uning suvereniteti va milliy xavfsizligini ko'p jihatdan belgilaydi. Qayd etish joizki, rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasi o'z milliy tarbiya tizimlarini isloh qilishni amalga oshirdilar, ularga ko'p miqdorda moliyaviy mablag'larni kiritdilar. Bu borada respublikamizda ham qator salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

⁶⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022— 2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risi”da Farmonida maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish ko'zda tutilgan. Shuningdek, 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyalaridan biri sifatida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, mazkur yo'nalishda uzluksiz monitoring, baholash va prognozlash mexanizmlarini yo'lga qo'yish, bola ta'lim-tarbiyasida oila, ayniqsa, ota-onaning o'rnini oshirish masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan .

Jamiyatning hozirgi rivojlanish darajasi ta'lim oluvchilarda kelajakni rejalashtirish qobiliyati, kelajak uchun javobgarlik hissi, o'ziga va o'z kasbiy qobiliyatlariga

⁶³ O'zbekiston respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni. 2020 yil 23 sentyabr, O'RQ-637-son, (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son)O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022 y., 06/22/134/0407-son

⁶⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022 y., 06/22/134/0407-son

ishonchni shakllantirishga qodir bo‘lgan yangi tarbiya tizimi – innovatsion ta’limni talab qiladi. Mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanishning globallashuvi sharoitida davlatning raqobatbardoshligi uning mavjud ilmiy-ma’rifiy va fan-texnika salohiyatidan to‘laqonli foydalanish, innovatsiyalarni tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiyotgagina emas, balki ta’lim-tarbiya sohasiga ham samarali joriy etish imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tiladi.

An’anaviy kasblar tarkibida, xodimlarning iqtisodiy xulq-atvorida, kasb tanlashda qadriyat va milliy urf-odatlar tizimi hamda mehnatni tatbiq etish sohalarida bugun jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Bu kasblarning yangicha tipi innovatsion fikrlash metodiga ega xodim paydo bo‘lganini tasdiqlaydi. Mehnat faoliyatining amaliy natijalari, ishlab chiqarishning texnik jihatdan yangilanishi, turli sohalarda innovatsiyalar, yangi mahsulot turlarining paydo bo‘lishi bilan yangi ehtiyojlarning yuzaga kelishi, kishilar hayot farovonligiga qaratilgan turli texnik vositalarning yaratilishi ilm rivojlanish darajasining yangi pog‘onalari ko‘tarilganligini ko‘rsatmoqda.

So‘nggi yillarda ziyolilik bilan birga, bilimlardan iqtisodiy ustunlik sifatida foydalana olish turli iqtisodiy tizimlarning raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omilga aylandi. Aksariyat mutaxassislarining fikriga ko‘ra, rivojlangan ta’lim tizimi raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Hozirgi sanoat, ekologik va axborot texnologiyalari tizimlari shu darajada murakkabki, biron-bir mintaqa yoki davlat ular bilan bog‘liq muammolarni mustaqil hal etishga qodir emas. Buning uchun turli davlatlar, mintaqalarning chuqur integratsiyalashuvi talab etiladi.

Aynan shu sababli davlatlar hamjamiyati har bir davlat rivojlanishida yuksak darajaga erishishidan manfaatdor. Agar hamjamiyat a’zolaridan birida texnologiyalarning rivojlanish darajasi past bo‘lsa, u butun jamiyatga tahdid soladi.

Yuksak texnologiyalar bu jarayonda ishtirok etuvchi kishilardan yuksak darajada kasbiy mahorat, tanqidiy va tahliliy fikrlash qobiliyati, to‘g‘ri qarorlar qabul qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lishni talab etadi. Ayni shu sababli bugun boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan boshlab iqtisodiy tarbiya tushunchasini shakllantirish oila hamkorligida olib borish, shu jumladan, global fikrlash salohiyatiga ega bo‘lishlari, o‘z mintaqasi, mamlakatidagina emas, balki butun dunyoda yuz berayotgan jarayonlarni bilishlari va tushunishlari lozim. Bu ta’limning mazmun mohiyatiga nisbatan butunlay yangicha yondashuv.

Darhaqiqat, har bir narsaning o‘rtasi yaxshi deganlaridek, mol-dunyo sarflashda ham me’yorni saqlashni bilish barcha uchun lozim bo‘lgan odatdir. Kimki tejamkorlik fazilatlariga ega bo‘lsa u dunyodagi eng hurmatli, fayzu-barakali va boy inson insondir deb hisoblashgan. Chunki davlatning ertangi kuni tadbirkor, tejamkor va iqtisodiy qudratga ega bo‘lgan yoshlarga bog‘liq. Shu bois o‘quvchilarga tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya berish orqali biz davlatimizni har tomonlama qudratli davlat ekanligini ko‘rsata olishimiz kerak. Shu bois iqtisodiy tarbiya – fan-texnika yutuqlaridan oqilona foydalanishga e’tiborni kuchaytirish shu kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yurtimizning har bir fuqarosi o'z yurtining tinchligi, barqarorligi va uning iqtisodiy rivojlanishi uchun o'z hissasini qo'shsa taraqqiyot o'zo'zidan olg'a siljiydi. Fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilar ongi va qalbiga iqtisodiy tarbiya tushunchasini singdirish orqali ularda iqtisodiy bilimlar shakllantiriladi. Buni amalga oshirish uchun birinchi navbatda boshlang'ich sinf o'quvchilaridan boshlab iqtisodiy bilimlarni berish va u orqali iqtisodiy muomala madaniyatini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Bu olib boirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishimiz mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Ma'lumki, azaldan ota-onalarimiz bolalarni xo'jalik ishlari bilan tanishtirib, oilaning kirim - chiqim ishlarini ularga o'rgatib kelishgan. Shu tarzda bolada oilaning moddiy ahvoli haqida tasavvur hosil bo'lishiga e'tibor berilgan. Shu ma'noda iqtisodiy tarbiya msalasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilishida, eng avvallo, o'quvchilarda iqtisodiy tejamkorlik tushunchasini shakllanirishdan boshlash lozim. Hozirgi kunda o'quv adabiyotlarida iqtisodiy tarbiyasiga to'liq e'tibor qaratilgan bo'lib, darsliklarda iqtisodiy oid mavzular dasturiga qisman kiritilgan. Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini iqtisodiy tarbiya tushunchasini shakllantirish har bir darsning nazariy asosi hisoblanadi. Texnologiya, tabiatshunoslik, o'qish, ona-tili, matematika va boshqa fanlarda bolaning iqtisodiy tarbiyalash xislatlari shakllantiriladi. Bu fanlarda o'yinchoqlarni yoki o'quv qurollarini toza saqlashdan tortib, tabiatni asrash, atrof-muhit himoya etish va mamlakatimiz resurslaridan oqilona foydalanishgacha bo'lgan malaka va ko'nikmalar o'quvchilarga yetkazib boriladi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga tarbiya fanida iqtisodiy tarbiyaga oid tushunchani shakllantirishda iqtisodiyotdagi muammolar yechimida yangicha yo'nalishlarni yuzaga keltiradi. Shunday qilib, maktablarda iqtisodiy tarbiyaning pedagogik jarayoni quyidagi sifat bosqichlariga ega bo'lishi lozim: davlatning iqtisodiy ahvolini juda yaxshi bilish; turli mulk turlari va korxonalar faoliyatining iqtisodiy asoslarini bilish; dalillarni xolisona baholash va mavjud iqtisodiy asoslarni tahlil etish uchun savodxonlik; ishlab chiqarish va xo'jalik ishlarida, iqtisodiy munosabatlarda tashabbuskorlik. Iqtisodiy tarbiya shartlari boshlang'ich sinf o'quvchilaridan turli savollar xilma xilligini talab etadi. Ularga quyidagilar kiradi: oilada va umumta'lim maktablarida iqtisodiy tushunchalarning bog'liqligi, uning maqbul bo'lishi; boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilim olishlarida didaktik tamoyillarning roli; maktabda o'quv fanlarini o'qitish jarayonida amaliy tajribalar xulosasi va shu bilan birgalikda ilmiy-texnologik taraqqiyot tezlashuvida ilm-fanning rolini tushuntirish orqali o'quvchilarni iqtisodiy tarbiyalash; davlat va xususiy mulkni ehtiyot qilish, elektr energiya, gaz, o'quv adabiyotlar, asbob-uskunalar, maktab binosi, uy jihozlari va hokazo; moddiy zaxiralardan tejab-tergab foydalanishning iqtisodiy jihatlarini tushuntirish; o'quvchilarga darsdan tashqari vaqtlarda iqtisodiy tarbiya berishni tashkil etish; umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarini oliy o'quv yurtlari va undan keyingi sharoitlar haqida ko'nikmalar hosil qilish uchun iqtisodiy fikrlashga o'rgatishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni. 2020 yil 23 sentyabr; O‘RQ-637-son, (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son)O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022 y., 06/22/134/0407-son
2. Umarova X.A. Boshlang‘ich ta’limda iqtisodiy bilimlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan modulli texnologiyalarning didaktik asoslari. *Avtoref. ped.fan.nomz – T. 2006. –S. 26*
3. Sarsenbayeva R.M., Oilada iqtisodiy ta’lim-tarbiyani shakllantirish yo‘llari. “Zamonaviy ta’lim” jurnali. 81-88-bet .-T. 2017 .5-son.
4. Sasova I.A., Amend A.F. Mehnat jarayonida o‘quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish. - *M. Prosvesheniye, 1988. –B. 192 .Saparova U.B. “O‘quvchilarida iqtisodiy tarbiya tushunchasini shakllantirishda oila hamkorligini rivojlantirish” “UzMU habarlari” jurnali 7-son 2023 yil iyun*
5. Saparova U.B. “Iqtisodiy o‘shishni ta’minlashda oilaviy biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchalarini o‘quvchilar ongida shakllantirish”, Turkiya. *International Conferece on Advence Research in Humanities Sciences and Education Turkey on July 5th Vol. 6 No. 6 (2023) Published May 17, 2023*
6. Saparova U.B. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga iqtisodiy tarbiya ko‘nikmalarinii oila hamkorligida shakllantirishninng o‘ziga xos jihatlari” *Xalq ta’lim jurnali sentabr 2023 yil*

Otamurodova Dilfuza,

Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi

Madaliyeva Farida,

Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi

OILADA TA'LIM VA TARBIYANI TASHKIL ETISHDA OTA-ONANING RAVNAQI

Annotatsiya: Ushbu maqola oilada ta'lim tarbiyani tashkil etishda ota-onani ravnaqi qanchalik muhim rol o'ynashi, juda katta ahamiyatga egalaydi oiladagi muomolari shu bilan birga vazifalari va istiqbollari. Shuningdek farzand tarbiyasi va unda ota-onaning o'rni, ma'suliyati hamda vazifa va burchlari masalalariga bag'ishlanadi. Shu bilan birga farzand ushbu maqolada tarbiya o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayon afzalliklari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ota-ona, oila muloqat, ichki va tashqi ta'sirlar, tarbiya, shakllantrish, farzand, sog'lom avlod, ma'naviy yetuklik.

Abstract: This article shows how important role the development of parents plays in the organization of education in the family, its tasks and prospects are of great importance. It is also devoted to the issues of child education and the role, responsibility, duties and responsibilities of parents in it. At the same time, this article highlights the benefits of a complex process that includes education, including religious and moral knowledge, medicine, psychology, and pedagogy.

Keywords: parents, family communication, internal and external influences, education, formation, child, healthy generation, spiritual maturity.

KIRISH. Oila - bu jamiyatning bir b o'g'inidir. Shunday ekan oilada ta'lim tarbiyani shakllantirish uchun ota-onaning ravnaqi juda katta ahamiyatga ega. Agar farzand yoshligidan to'g'ri tarbiyalansa, kelajakda jamiyat uchun munosib shaxs bo'lib yetishadi shu o'rinda ota-onaning ravnaqi va tarbiya juda muhim. Albatta bunga ota-onaning o'rni katta, o'z farzandiga bo'lgan munosabati, kattalarga bo'lgan hurmati, ota-onaning bir biriga bo'lgan hurmati oilada farzandni ma'naviy yetuk va sag'lom avlodni shu bilan birga ma'naviy yetuk shaxs voyaga yetkazib berish alohida ahamiyatga ega. Ota-onalarning pedagogik-psixologik bilimlarini yetarli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Oila tarbiyasi ota-ona farzandlarining tarbiyasiga ko'proq e'tibor berishi, ularga alohida vaqt ajratib, odob-axloqdan ta'lim berishi, ularni doimo nazorat qilib borishi, yomonlarga yaqin yo'latmasligi lozimdir. Bu borada ota-onalarning oilada farzand tarbiyasi va ma'naviy -axloqiy, ruhiy hamda jismoniy kamoloti uchun zarur bo'lgan ota-ona ro'li muhim ahamiyatga ega.

ASOSIY QISM. Oila-jamiyatning tayanchi. Ota – onaning oilada iola muloqati va ravnaqi farzandlarimiz ongida elu yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Ota-ona farzandi dunyoga kelishi bilan uni parvarish qilib, katta qiladi, kasal bo'lsa, davolaydi, yediradi, kiydiradi, uni oq yuvib, oq taraydi.

Umuman, farzandini hayotda kerakli barcha narsalar bilan ta'minlashga harakat qiladi. Hatto buning uchun o'zlari yeyish-ichish, kiyinish va shu kabi narsalardan mahrum bo'lsalar yoki kechalari uyqudan qolsalar ham. ota-ona farzandiga beradigan eng yaxshi narsasi qimmatbaho kiyim, yaxshi taom yoki ajoyib sovg'a emas, balki go'zal xulq va yaxshi tarbiyasi ekan. Go'zal xulq, yaxshi tarbiya esa farzandga umri davomida foyda beradi. Farzandlarimiz, bo'sh vaqtlarida nima bilan shug'ullanmoqda, kuni bilan vaqtini nimalarga sarflayapti, uydagi televizor yoki kompyuterda nimalarni tomosha qilayapti, siz olib bergan telefondan yana qanday ishlarda foydalanmoqda, internetda qanday ma'lumotlarni o'qib, qanday lavhalarni ko'rmoqda, ko'chada kimlar bilan do'st bo'lib, ular bilan vaqtini qanday o'tkazmoqda yoki siz berayotgan pullarni qaerlarga sarflayapti?

Bunday ishlarda farzandni nazoratsiz qoldirish mumkin emas. Ota-ona farzandlarining tarbiyasiga ko'proq e'tibor berishi, ularga alohida vaqt ajratib, odob-axloqdan ta'lim berishi, ularni doimo nazorat qilib borishi, yomonlarga yaqin yo'latmasligi lozim ekan. Ana shunda ular ota-onasi va el-yurtiga xizmat qiladigan, ularga ikki dunyoda obro' olib keladigan, yuzlarini yorug' va boshlarini yuqori qiladigan farzandlar bo'lib katta bo'lishadi shuning uchun oilada ta'lim va tarbiyani tashkil etishda ota – onaning ravnaqi juda muhim .

Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida oila qadriyatlarining tiklanishi va qarindoshlik munosabatlari, har bir oilaning iqtisodiy, madaniy, kasb-kor jihatdan ravnaq topishini anglatadi. Oila va oila muammolari hamisha davlatning diqqat-e'tibori va himoyasida bo'lib kelmoqda. Jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi hujjat bo'lgan Qomusimiz - Konstitutsiyamizda oila masalasiga ham alohida urg'u berilgan. Konstitutsiyamizda: “Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega”, deb belgilab qo'yilgan .

ADABIYOTLAR TAHLILI. Bolalarning xulq atvoridagi xatolar ota-onalarning xatolaridir. Oila, oila a'zolarining, ayniqsa ota-onaning axloqiy-ma'naviy yetukligi va ma'rifiy qarashlari farzand tarbiyasi va kamolida eng zarur va muhim omillaridan biri hisoblanadi. shuningdek oilaviy hayotiga tayyorlovchi maktabdir.

Har bir ota-ona farzand tarbiyasida o'zlarining burch va ma'suliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsiyatini tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash ota-onalarning pedagogik bilimlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tarbiyadan tashqaridan bo'ladigan salbiy ta'sir bu, eng katta xatardir. Chunki farzandga oilada bu boradagi erkinlikka yo'l qo'yilmagach, u o'z qiziqish va rag'batlarini qondiradigan sabablarni tashqaridan izlay boshlaydi. Demak, ota-ona farzandining tashqi hayotiga ham katta e'tibor qaratishi talab etiladi. Ya'ni, ular

farzandi maktabdan keyin qayerga borishi, nima bilan shug'ullanishini nazorat qilish lozim.

Bolalar- oila va jamiyatning ko'z gusidir. Bolalarning yosh qalbiga hamma narsadan ko'ra o'rnak ko'rsatish kuchli ta'sir etadi, ota-onalarning ko'rsatadigan o'rnagi (ibrati) esa ularning qalbida boshqa hamma kishilarning o'rnagiga qaraganda chuqurroq va mustahkamroq iz qoldiradi.

Shunisi quvonarliki, hozirda oilalarda ota-onalarning farzand tarbiasiga bo'lgan e'tibori kundan-kunga kuchaymoqda. Bunga sabab muhtaram yurtboshimiz tomonidan xalq manfaatlari uchun barcha sohalarga bo'lgan e'tibor, olib borilayotgan islohotlar, yaratilayotgan shart-sharoitlar, berilayotgan imkoniyatlardir. Bunday imkoniyatlardan to'laqonli foydalanib kelayotgan ota-onalar farzandlari tarbiasiga o'ta ma'suliyat bilan qaramoqdalar. Chunki, farzand Oloh tomonidan ato etilgan ulug' ne'mat bo'lishi bilan birga, u ota-onaga topshirilgan ma'suliyat hamda omonatdir. Bolalar - kelajagimiz ekan, ularni ham jismonan, ham ruhan, ham ma'nan sog'lom bo'lib kamolga etkazish barchamizning asosiy vazifamiz bo'lib qolishi kerak.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Mustaqil yurtimiz ravnaqi uchun munosib farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdek mas'uliyatli va ulkan vazifani o'z oldiga maqsad etib qo'ygan hamda undan fahrlana oladigan insonlar chinakam fidoyi ota-onalardir. Farzandlarimiz bor ekan, ana shunday fidoyi ota-ona bo'lish har birimizning burchimizdir.

Qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino fikricha, bola tarbiyasi bilan uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlamoq lozim. Oiladagi muhit ota-ona o'z mas'uliyatini his qilishi bilan barqaror bo'ladi. Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o'rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib katta bo'lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida oiladagi nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan “ma'naviy kasal” insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma'naviyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Farzand tarbiyasi o'ta murakkab va mas'uliyatli jarayon. Bu har bir ota-onadan o'z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma'lumotlardan boxabar bo'lib borishni talab etadi. “Garchi har bir inson beshikdan to qabrgacha ilm olish qobiliyatiga ega bo'lsa da, lekin uni bolalikdan tarbiyalash ta'sirliroq va juda muhimdir”, degan edi Abdurauf Fitrat. Har bir ota-ona ana shu fikrni hamisha yodda tutmog'i lozimdir.

Hozirda ayrim yoshlarning yurish-turishi, ayniqsa, kiyinishini ko'rib, o'ylanib qolasan kishi. Kiyinish madaniyati va xalqimizning qadim qadriyatlariga hurmat asosida tarbiyalash muhim vazifalardandir.

Bugun aksariyat yoshlar bo'sh vaqti bo'lguncha, qo'l telefoni bilan mashg'ul bo'lishi odatiy holga aylanib qoldi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ayniqsa, internet taraqqiyot darajamizni bir necha pog'onaga ko'tardi, uzog'imizni yaqin, ishimizni yengil qildi. Lekin yoshlarning uyali telefonga asir bo'lib qolayotgani,

internet va ijtimoiy tarmoqlardan, ulardagi ma'lumotlardan oqilona foydalanishlari borasida jiddiy o'ylab ko'rishimiz kerak bo'lgan jihatlar talaygina.

Ayniqsa, internet tarmoqlarida tarqatilayotgan diniy aqidaparastlik, terrorizm g'oyalarini yoyish, “ommaviy madaniyat” ko'rinishlarini yoshlar ongiga singdirish, ularning turmush tarziga aylantirishga bo'layotgan urinishlarga, yoshlarimizning ana shu illatlar ta'siriga tushib qolmasliklari, yuqoridagi kabi aldovlarga ko'r-ko'rona ergashmasliklari uchun eng avvalo, ularning bilim va tafakkurini boyitish, internet ma'lumotlaridan o'rinni va oqilona foydalana bilish ko'nikmasini shakllantirishimiz zarur. Yoshlarimizda yot g'oyalarga, illatlarga qarshi ma'naviy immunitet shakllanmas ekan, axborot xurujlari xavfidan, hayotimizga, mafkuramizga kirib kelayotgan illatlardan aslo qutulolmaymiz.

Taniqli pedagog A.S.Makarenko aytganidek, besh yoshgacha bo'lgan bola tarbiyasida bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Bu haqida shunday deb yozgan: „Tarbiyaning bosh asosi besh yoshigacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 % ni tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi” Ayni shu davrda ota-onaning tarbiyasidagi e'tibori, oilaviy muhitning sog'lomligi farzand kamolotida katta ahamiyat kasb etadi.

Chunki ota-ona oldida farzandiga ta'sir etish imkoniyatlari boshqalardan ko'ra eng ko'p hisoblanib, bu vazifani ado etishda ham ular o'zlaridagi bor mehrni ishga soladi. Qolaversa, barkamol ota-onaning bosh maqsadi farzandlarining ilmiy bo'lishlari uchun muhit hamda sharoit yaratib berishga qaratiladi va ular har qanday sharoitda ham vaqt ajratib, bolalarining ta'lim-tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanadilar. Shu nuqtai nazardan “Barkamol ota-ona - sifatli ta'lim, mustahkam oila” mutanosibligiga erishish har qanday sog'lom jamiyatning maqsadidir. Ammo bugun oliy ma'lumotli, komil ota-onalar soni har qancha ko'payib borayotgan bo'lishiga qaramay, dunyo pedagoglarining xavotiri ham shunchalik kuchayib bormoqda. Ishdan horib kelgan ota yoki onani hamda horish nimaligini bilmay ota-onasining ishdan kelishini intizorlik bilan kutib o'tirgan kichkintoylarni bir ko'z oldingizga keltiring-a. Bunday paytda oshxonada yumushlariga kirishib ketgan ona va televizor kanalidan biror dam olish dasturini qidirayotgan ota bolalarining ularga xalaqit bermasligini qanchalik istashsa, jajjilar esa eng yaqin do'stlari - ota-onalari bilan birgalikda dars tayyorlashni, biror qiziqarli mavzuda muloqot qilishni va o'yinlar o'ynashni shunchalik xohlashadi. Bola ko'nglidagi ana shu ma'naviy istaklar amalga oshmay qolgan kundan e'tiboran esa, eng yaqin hamkori ota-ona emas, kompyuter bo'lib qolayotgan va unga mukkasidan ketib, ipsiz bog'lanib qolayotgan va his-tuyg'ulari o'tmaslashayotgan bolakaylar ko'payishining yana bir sababi yuzaga keladi

XULOSA: Xulosa qilib aytish mumkinki, mustahkam ma'naviy immunitetli, o'zining fikrlarini ravon ayta oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. „Qush uyasida ko'rganini qiladi” degan maqol bejiz aytilmagan xalqimizda. Bolalar yana tarbiyani

atrof-muxitdan oladi, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvga o'xshaydi suv idishning shaklini olganidek bolalar ham muhitning odob-axloqini qabul qiladi. Oiladagi tarbiya bolani ruhiy olamiga hissiyotiga va tuyg'ulaiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Farzandlarimiz ta'lim-tarbiyasiga bo'lgan e'tiborni o'zligimiz va kelajakka bo'lgan e'tibor deb bilib, yosh avlodga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning sog'lom o'sishi, to'g'ri tarbiya hamda ta'lim olishini ta'minlash barchamizning burchimiz ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. *Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni.* - T.: O'zbekiston, 2020.
2. *Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun // Muallif: V.M.Karimova.* – T.2007. – 316 b.
3. *Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz.* - T.:O'zbekiston, 2017.
4. *2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi// <https://www.lex.uz>*
5. *G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.*
6. *Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi. “Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya va uning fakultativ protokollari”. Toshkent-2009.*

Xoliqov Umidjon Qo'chqarovich,
*Guliston davlat pedagogika instituti
o'qituvchisi*

SHAXMAT O'RGATISH ORQALI OILADA TA'LIM VA TARBIYANI TASHKIL ETISHDA QIZLARNING MANTIQUIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK VAZIFALARI VA ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. *Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchi qizlar, maktabgacha va oilada shaxmat o'rganish orqali mantiqiy fikrlash, shaxmat bilan shug'ullangan bolaning bo'sh vaqti, barcha fanlarni o'zlashtirishi osonlashtiradi, intellektual salohiyat yuksaladi, qobiliyatlar bag'ishlangan bo'lib, shaxmat o'yini orqali ularning diqqat, idroki, tafakkuri, xotirasi va mantiqiy fikrlashini o'stiradi va rivojlantiradi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich sinf o'quvchi qizlar, maktabgacha ta'lim, oilada, shaxmat o'yini, idroki, tafakkuri, xotirasi, mantiqiy, diqqat, qobiliyat, harakter, sog'lik, ruhiy, jismoniy tayyorgarlik.*

Abstract. *The article describes how learning the game of chess for primary school girls in the family and in the preschool period develops logical thinking and facilitates the learning of all subjects. At the same time, the intellectual potential increases and the abilities required in the game of chess grow and develop their attention, perception, thinking, memory and logical thinking.*

Keywords: *primary school students, preschool education, family, playing chess, perception, thinking, memory, logic, attention, abilities, character, health, psyche, physical fitness.*

Har bir millat o'z kelajak avlodida komillikni ko'rishni orzu qiladi. O'zbek xalqi o'z madaniyati va ma'naviyatida komil insonlar tarbiyasiga alohida e'tibor bergan va bunday komillik darg'alarini etishtirish har bir zamonda muhim sanalgan. Inson kamolotida esa jismoniy va ma'naviy go'zallik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois bugungi kunda yurtimizda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan, intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Muhtaram Prezidentimiz boshchiligida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan 5 ta tashabbusi ilgari surildi.

Shaxmat insoniyat kashf etgan eng qadimiy, qiziqarli, jozibali hamda go'zal o'yinlardan biridir. Uning asosiy xususiyati shuki, shaxmatda sport va san'at uyg'unlashib ketgan. Shaxmat qiziqarli va maroqli o'yin. U bilan shug'ullanish organizmning umumiy jismoniy rivojlanishiga, fikrlash doirasining o'sishiga, o'sib kelayotgan yosh avlod ruhiyatiga ijobiy ta'sir etadi. Bola yoshligidan shaxmatda yuzaga keladigan variantlarni hisoblay boshlaydi. Ularni solishtiradi, yaxshisini tanlaydi,

vaziyatga baho beradi, har doim band bo‘ladi. Uning bo‘sh vaqti miya uchun kerakli va foydali mashg‘ulot bilan to‘ldiriladi. Agar bola shaxmatdagi kombinatsiyalarni topa olar ekan, shaxmat darsidagi qiyin masala yechimini albatta topishga harakat qiladi.

Shaxmatning yana bir o‘ziga xos xususiyati bor. U o‘zida sport, fan va san’atni mujassamlashtirgan.

Shaxmat nazariyasini mutolaa qilish jarayonida uning yangi qirralarini kashf etish mumkin. Xar qanday yaxshi shaxmatchi esa chiroyli yurishlar-u ajoyib o‘yinlardan xuddi musiqa tinglagani, qiziqarli himoya o‘qigani kabi zavqlanadi, o‘zi ham shunday «san’at asarlari»ni yaratishga intiladi.

Barchamizga ayonki, tarbiya oiladan boshlanadi. Tarbiya ongni, xulq-tvorni, shaxsni har tomonlama rivojlantirishni aniq maqsadga yo‘naltirilgan jarayondandir. Chunki oilada beriladigan bu tarbiya jarayonida faqat bilimlar o‘zlashtirilib, malaka va ko‘nikmalar hosil qilinmaydi, o‘zbek oilasining axloqiy e’tiqodi, his-tuyg‘usi, axloqiy, irodaviy va jismoniy sifatlari, xarakter xususiyatlari tarkib toptiriladi.

Shaxmat o‘yini sporti milliy qadriyat ekanligini avvalombor, oilada xis qilib, uni mahallalarda foydalanish bilan umuminsoniy qadriyatga aylantirishga barchamiz mas’ul ekanligimizni va bu orqali o‘zbek yoshlarni dunyoga tanitish imkoniyatlari mavjudligini anglashimiz, ushbu masalaga yanada jiddiy qarash zarurligini ko‘rsatadi.

Eng asosiysi ota-onalar, xotin-qizlarni jismonan sog‘lom bo‘lishi, ma’naviy yuksalishida shaxmat o‘yini bilan shug‘ullanishning ahamiyatga katta ekanligini tushunishlari va xis qilishlari zarur.

Shuningdek, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda qizlarda shaxmat o‘yini sporti to‘g‘risida ongli munosabatini tarkib toptirish va bu orqali mahallalarda shaxmat o‘yini sportini foydalanish mumkinligini hisobga olib quyidagilarni taklif etamiz.

1. Mahalla qizlarida ularning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shaxmat o‘yiniga nisbatan tasavvurlarni shakllantirish;

2. Ota-onalar o‘rtasida milliy qadriyatimiz, milliy iftixorimiz bo‘lgan shaxmat o‘yiniga nisbatan ijobiy tassavurni shakllantirish;

3. Oila va maktabgacha ta’lim maskanlaridan boshlab shaxmat o‘yiniga qiziqishni tarbiyalash;

4. Mamlakatimizdan etishib chiqqan Jahon va Osiyo chempionlari faoliyatini keng targ‘ib etish, ularni ibrat qilib ko‘rsatish;

5. Qizlarni mahalliy sport ustalari faoliyati bilan yaqindan tanishtirish;

6. Aynan shaxmat o‘yini sporti orqali mahalla va oila hamkorligini shakllantirish.

Agar yuqoridagilarni nazarda tutgan holda maxalla hamkorligida qizlar o‘rtasida shaxmat o‘yini foydalanish yo‘lga qo‘yilsa:

1) Shaxmat o‘yiniga nisbatan ijobiy tasavvurlar kengayadi;

2) Qizlarni jismonan baquvvat, sog‘lom etib tarbiyalash imkoni oshadi;

3) Ularning bo‘sh vaqti ko‘ngilli tashkil etiladi;

4) Qizlar orasida sport bilan shug‘ullanuvchilar soni ko‘payadi;

5) Qizlar orasida tartib buzish holatlari kamayadi.

Bugun xotin-qizlar shaxmatchilari qit'a va jahon chempionatlari, jahon shaxmat olimpiadasi, Osiyo o'yinlarida muntazam yuqori o'rinlarni egallab, mamlakatimizda voyaga etayotgan yosh avlod dunyoda hech kimdan kam emasligi va kam bo'lmashligini isbotlab kelmoqda. Shaxmat bo'yicha 17-jahon chempioni Rustam Qosimjonov, o'zbek qizlari o'rtasida xalqaro grossmeyster Sarvinoz Kurbonboeva kabi shaxmatchilarimizni bugun butun dunyo biladi.

Xotin-qizlari azaldan nafaqat o'zlarining go'zalligi va nafosatlari, balki aqlu farosatlari bilan ham dunyoga ma'lumu mashhur bo'lishgan. Barchinoyu To'marislar, Nodirabegimu Uvaysiyar haqida ortiqcha ta'rifu tavsif qilishning keragi yo'q.

Sog'lom farzand esa sog'lom onadan dunyoga keladi. Shu sababdan yurtimizda sportga, ayniqsa, ayollar sportini rivojlantirishga juda katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-avgustdagi “O'zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3906 sonli qaroriga muvofiq maktab dasturlari doirasida 150 ta umum ta'lim maktablarining o'quvchi qizlarini tajriba tariqasida shaxmatga o'qitishni tashkil etish vazifasi belgilangan.

Ushbu qarorga ko'ra, umum ta'lim maktablarining boshlang'ich (2-sinf) sinfida shaxmat o'quv kursi jismoniy tarbiya fani tarkibiga singdirib o'qitilishi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi hamda Jismoniy tarbiya va sport vazirliklari, O'zbekiston shaxmat federatsiyasi bilan o'zaro kelishuvlari asosida belgilandi. Ushbu umum ta'lim maktablarining 2-sinflarida jismoniy tarbiya fani odobnoma fanini 0,5 soatga qisqartirish hisobiga, haftasiga 2,5 soatdan o'qitiladi.

Umum ta'lim muassasalarida shaxmat kursini o'qitishdan maqsadi – o'quvchi qizlarning shaxsiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish xamda ularda umumiy madaniyat, mantiqiy, mustaqil, sog'lom fikrlay olish qobiliyatini shakllantirishdan iborat.

Shaxmat – umumiy va intellektual qobiliyatlarni rivojlantiruvchi ta'limning bir turi hisoblanib, psixologik jarayonlarini rivojlantiruvchi, insonni aqliy, ijodiy va tarbiyaviy komolotga erishishiga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. Shaxmat o'quvchi qizlarni yanada ma'nan etu qilik qilib tarbiyalashda qo'shimcha tarbiya vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shaxmat sport o'yiniga bo'lib qolmay, balki inson xarakteri va shaxsining shakllanishiga faol ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida, insonlarni tafakkur qilishga, mantiqiy fikrlashga, mas'uliyatli bo'lishga o'rgatadi. Shaxmatning inson hayotidagi ahamiyati to'g'risida ko'agina ilmiy tadqiqotlar (M.Muhiddinov, R.Evqae, A.Toshxo'jaev) olib borilgan. Shuningdek, buyuk tarixiy shaxslar (Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va b.) o'z faoliyatlarida shaxmat (shatranj) o'yinlaridan foydalanganliklari, uning ijobiy ahamiyati haqida tarixiy manbalar guvohlik beradi.

Haqiqatdan ham, davlatimiz mustaqillik sharoitida ta'lim sohasida, jumladan, umumiy o'rta ta'lim yo'nalishida o'qitishni mantiqiy fikrlash asosida tashkil etish

hozirgi kun jamiyat taraqqiyotining talabidan kelib chiqmoqda. Hozirgi paytda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchi qizlarini mantiqiy fikrlashga o'rgatish jarayonida shaxmat mashg'ulotlariga e'tibor qaratish ijobiy natija beradi. Shaxmat faqat sport o'yiniga bo'lib qolmay, balki inson характери va shaxsining shakllanishiga faol ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida ham insonlarni tafakkur qilishga, mantiqiy fikrlashga, mas'uliyatli bo'lish va yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga o'rgatadi. Shaxmat bola uchun ermak, quvonch manbai bo'libgina qolmay, uning diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini o'stirishga ham xizmat qiladigan vositadir. Shaxmat o'yini jarayonida bolalar yangi bilim, malakalarni egallaydilar, qobiliyatlarini o'stiradilar.

Shaxmat o'yini ruhiyatini tetiklashtirishga yordam beradi. Shu sababli men 2-sinf o'quvchi qizlar uchun shaxmat alifbo kitobni yaratmoqda. Bu kitobning ayrim qismlari bilan tanishtirib o'taman.

Shaxmat «Alifbo»si alifbe uslubida qurilgan (yaratilgan) shuning uchun bu kitobdan foydalanish mumkin deb emas, balki kichkintoylarni uni nafaqat maktabda, balki uyda ham parallel ravishda o'rgatib borish kerak. Bu bolaga grammatik hisob-kitob va amallarni tezroq o'rganishida yordam beradi.

Agar sizning o'g'lingiz yoki qizingiz ham maktabga bormagan bo'lsa o'rganish, unda «Alifbo» bilan ularni o'qish raqamlarni ishlatishni o'rgatishga zo'r bahonadir.” Alifbo” –alfavit tartibida qurilgan, biroq kitob bilan ishlaganda bunga qat'iy turib olish shart emas. Ushbu kitobni farzandi bilan birga o'qib borayotgan ota-ona ushbu qadimiy o'yinning ilk boshlanishi, mittelshpil (o'yin markazi yoki o'rtasi) endshpil (o'yin nihoyasi) gambit (shaxmat o'yinining boshlanishi) ekanini va sababi bu erdagi har bir satr- alohida ma'no bo'lib, ularning shakllarini kattalar tushuntirishlari shart. Shuning uchun ushbu shaxmat alifbosini o'qib borayotganda bola bilan suhbat olib borib, qanday so'zlar unga notanishligini bilish, ularni tushuntirish metafora va tenglamalarni solishtirish ma'nolarni shaxmat qoidalariga ulagan holda o'rgatish tavsiya etiladi. Boladagi ushbu o'yin haqida paydo bo'lgan tasavvurlarni so'rab tushuntirish kerak bo'ladi. Shaxmat “Alifbo”si dagi shaxmat o'yinining mazmunini ko'rib chiqayotganda albatta shaxmat o'yiniga bevosita murojaat qilish, shaxmat taxtasidagi deyarli barcha she'rlarni ko'rsatib berish mumkin. Ozroq faol fikrlab, tasavvur qilsangiz bas va buni qilish oson bo'lib qoladi.

Shaxmat o'yini boshlang'ich sinf o'quvchi qizlarning xotirasini kuchaytirishda, fikrlashdagi parishonxotirlikni yo'qotishda muhim omil vazifasini bajaradi. Yuqorida bildirilgan fikrlar boshlang'ich sinf o'quvchi qizlarni ijtimoiy taraqqiyotga mos holda tarbiyalash, ularning ongi, tafakkuri va dunyoqarashini zamon talablari darajasida shakllantirish borasida bir qancha olimlar o'z tadqiqot ishlarida ilmiy asoslangan fikrlarini bayon qilishgan. Ularga tayangan holda, biz umumiy o'rta ta'lim maktablarida shaxmat o'yinlarini tashkil qilish yuzasidan quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

– shaxmat o'yinlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchi qizlarning mantiqiy fikrlash, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimini ishlab chiqishda milliy metodologik, tarixiy va mantiqiy ilmlarga tayanish;

– boshlang‘ich sinf o‘quvchi qizlarda shaxmat o‘yinlaridan foydalanish asosida mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda nisbatan yangicha yondashishni qaror toptirish;

– amaliy va nazariy mashg‘ulotlarda shaxmat o‘yinlarining o‘rni va mavqeini belgilash;

– boshlang‘ich sinf o‘quvchi qizlarda shaxmat o‘yinlaridan foydalanish asosida mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy shakllari va tamoyillarini ishlab chiqish;

– o‘rta maktab tizimidagi fakultativ darslar rejasiga shaxmat o‘yini kursini kiritish;

– maktab yoshlari orasida har yili shaxmat bo‘yicha maktab, tuman, viloyat, respublika an‘anaviy musobaqalarini o‘tkazish;

– iqtidorli, mantiqiy fikrlaydigan bolalar orasidan respublika shaxmat maktabi tashkil etish chora va tavsiyalarini bildirmoqchimiz.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, shaxmat o‘yini boshlang‘ich sinf o‘quvchi qizlarning aqlini o‘stirish barobarida, mustaqil, har tomonlama to‘g‘ri, mantiqiy fikrlashga o‘rgatishda ulkan imkoniyalarga ega deb hisoblaymiz. Shaxmat boshlang‘ich sinf o‘quvchi qizlarni axloqiy, ruhiy, ma‘naviy jihatdan sog‘ligini ta‘minlaydi. Shaxmat o‘quvchi-yoshlarning fanlarni a‘lo darajada o‘zlashtirishga yo‘l ochib beradi. Shaxmat o‘ynash qobiliyati shakllangan bola hech qachon yomon yo‘lga kirmaydi, shundan komillikka intilib yashashga o‘rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Besh muhim tashabbus*
2. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3906 sonli qarori*
3. *Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz T, O‘zbekiston- 2016*
4. *Mirziyoyev Sh ,Qonun ustuvorligi va inson manaatlarini ta‘minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T O‘zbekiston- 2016*
5. *O‘zbekiston Prezidentining 2017—2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakat strategiyasi. 7 yanvar 2017 yil.*
6. *Nosir Muhammad “Shaxmat mo‘jizasi” T 2014-y [5-9 bet]*
7. *Muhiddinov M. Katalarda yashiringan olam. -T.: O‘zbekiston, 1976. [66 bet.]*
8. *Xaylayev, Mamatqul “SHaxmat alifbosi”. Uslubiy qo‘llanma “Tafakkur”, 2015. [12 b.]*
9. *“Ma‘rifat” gazetasi. 2016-yil 27-fevral № 17-son [15 bet.]*
10. *Muhiddinov M. Katalarda yashiringan olam. -T.: O‘zbekiston, 1976.*

Xudoyberdiyev Eshbo'ri,

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Markazi

Toshkent shahar bo'limi,

Chilonzor tumani yetakchi mutaxassisi

OILADA VATANPARVARLIK TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVIYATNING O'RNI

Annotatsiya. Aholi va yoshlar o'rtasida ijtimoiy ma'naviy muhitni yaxshilash, milliy g'urur, milliy iftixor, daxldorlik tuyg'usini yanada kuchaytirishda Oila ma'naviyatning o'rni.

Kalit so'zlar: milliy g'urur, milliy iftixor, daxldorlik tuyg'usini, oila, ijtimoiy ma'naviy muhit

Abstract. The role of family spirituality in improving the social and spiritual environment among the population and young people, strengthening the sense of national pride, national pride, belonging.

Keywords: national pride, national pride, sense of belonging, family, social and spiritual environment

Dunyodagi barcha illat, jinoyat, urush va ijtimoiy-siyosiy, ekologik inqirozlarning ildizini shaxs ma'naviyatidan qidirish, barcha muammolarning yechimi ana shunda mujassamligi e'tibordan chetda qoldi. Shaxsning ma'naviy dunyosi uning iqtisodiy va moliyaviy o'p'qoniga tushib ketdi. Yangi asr kishisi butun borlig'i bilan to'laligicha global iqtisodiyot hamda insoniyat uchun yagona hukmdor bo'lgan bozorning quliga aylanib bo'ldi.

Bu — davrimizdagi eng og'riqli va xavotirli global muammodir.

Shubhasiz, bundan ruhlangan xalqimiz davlatimizning har qarich yerida yuksalish davri bo'lishi uchun azmu qaror qilmoqdalar. “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan ustuvor g'oya asosiy dasturilamalimizdir.

Xalqimizda: “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona”, degan gap bejiz aytilmagan. Farzandlarimizning ma'naviy barkamol insonlar bo'lib voyaga yetishi, yosh oilalarning mustahkam oyoqqa turib olishida keksalarimizning pandu nasihatlarini, ibratli hayot yo'llari muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayonda Birinchi Prezidentimizning “Agar jamiyat tanasi iqtisod bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga kirishar ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat”, degan purma'no fikrlari soha rivojiga qaratilgan katta e'tibordir.

Aholi o'rtasida ijtimoiy ma'naviy muhitni yaxshilash, milliy g'urur, milliy iftixor, daxldorlik tuyg'usini yanada kuchaytirish uchun Yurtboshimizning “Bir ziyoli – bir mahallaga ma'naviy homiy” g'oyasi muhim o'rin tutadi. Bu ma'naviy tarbiyani mahallalardan boshlash, mahalla fuqarolarini jahon maydonidagi siyosiy voqelikdan

xabardor qilib borish, xalqimizga xos milliy urf-odatlar, qadriyatlarni singdirish asosida ajdodlar merosini o'zlashtirish hamda milliy g'oya va ma'naviyat sohasidagi bilimlarni o'rganishga berilayotgan katta e'tibordir.

Shu sababli Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi mavjud 55 ta mahallaga “Bir ziyoli – bir mahallaga ma'naviy homiy” tamoyili asosida 55 nafar professor-o'qituvchilar va ziyolilar biriktirildi. Ushbu yo'nalishda bugungi kunda amaliy ishlarga o'tilgan.

Hududlardagi mahallalarda aholi o'rtasida vatanga muhabbat, shukronalik, tinchlik, mamlakatda amalga oshirilayotgan tub islohatlarni yetkazish, mahallalarda diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlikni ta'minlash maqsadida “Jaholatga qarshi ma'rifat” va “Ma'naviyatga tahdid – o'zligimiz va kelajagimizga tahdid” g'oyalari asosida 500 dan ziyod targ'ibot tadbirlari tashkil etildi.

Shuningdek, “Har bir nuroniy – besh nafar yoshga murabbiy” tamoyili asosida tumandagi 55 ta mahallalardagi keksa yoshdagi, xalq orasida obro'-e'tibor qozongan nuroniylarning har biriga 5 nafardan tarbiyasi og'ir, ma'naviy ko'makka muhtoj, uyushmagan, ishsiz yoshlar biriktirilib, ular bilan ishlash bo'yicha yangi tizim joriy etilmoqda.

Marralar qanchalik baland olinmasin, loyihalar nechog'li istiqbolli bo'lmasin, Vatanni sevadigan, chin yurakdan mehnat qiladigan fidoyi insonlarsiz ularni amalga oshirish imkonsiz.

Bugun odamlar ko'ngliga yo'l topish, ularning dardu tashvishlariga quloq tutish, muammolariga yechim izlashga qaratilgan ulug'vor ishlar haqida ko'p gapirish mumkin. Xo'sh, ana shu ezguliklar, xayrli tashabbuslar qayerdan quvvat olmoqda? Albatta, ko'ngildan! Vatanga, xalqqa daxldorlik hissidan! “Elga qo'shulg'on esh topti”, deb bejiz aytmagan Hazrat Navoiy.

Loqaydlik — illat. Hamjihatlikda esa hikmat ko'p. Xo'sh, odamlarni nima birlashtiradi? Ezgu maqsad! Umummanfaat! Bugun Vatanni obod qilish yo'lidagi chaqiriqlarga yurtdoshlarimiz nima uchun bir ovozdan “Labbay” deb javob qaytarishmoqda? Chunki yurtning buguni, kelajagiga hamma daxldor!

O'zbek tilining izohli lug'atida: Vatan — kishining tug'ilib o'sgan o'lkasi, shahri, ona yurti, diyori, har bir fuqaro uchun mamlakat, turar joy, boshpana, maskan, uy ma'nolarini ifodalashi ko'rsatilgan.

Inson ulg'aygan sari uning Vatan haqidagi tushunchalari ham kengaya boradi. Yurtimizda tug'ilib-o'sgan har bir inson “Vatanim” deganida o'z uyini, qishlog'ini yoki shahrini emas, balki O'zbekiston Respublikasini nazarda tutadi. Bu esa Vatan tuyg'usining, vatanparvarlikning xalqimiz qalbidagi ifodasidir.

Vatan tuyg'usi — bu aziz va go'zal yurtimizga hurmat va sadoqatli bo'lish. Vatan tuyg'usi — bu Turon, Movarounnahr, Turkiston va hozirda O'zbekiston deya atalgan zaminda yashab kelayotgan xalqimizning oltin merosini, uning tarixini o'rganishga intilishdir.

Vatan ozodligi uchun jonini fido qilgan To'maris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik singari xalqimizning mard va jasur

farzandlari biz uchun, o'sib kelayotgan yosh avlod uchun o'rnak-namuna timsolidir. Masalan, bobomiz Najmiddin Kubroning o'chmas jasoratini eslaylik. Bu jasorat zamirida ona Vatanga cheksiz muhabbat va sadoqat tuyg'usi yotadi.

O'z davrida “Yurtim, Turonim, sendan ayrilmoq — mening o'limim, sening uchun o'lmoq — mening tirikligimdur”, deb yozgan edi Fitrat. Bu so'zlarda vatanparvar insonning qalb nolalari ifodasini topgan

O'sib kelayotgan yoshlarni, ya'ni Vatanimizning bo'lg'usi himoyachilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash — davr talabi. Vatanparvarlik insonning o'z oilasiga, avlod-ajdodlarining or-nomusiga chuqur ehtiromi, vijdoniga, burchiga va o'z so'ziga sodiqligidir. Agar insonni bolalik chog'idan o'z xalqiga, uning an'alariga, tili va madaniyatiga muhabbat hamda hurmat ruhida tarbiya qilmasak, unda vatanparvarlik hissi bo'lmaydi.

Vatan ravnaqi — milliy g'oyamizning yuksak tushunchalaridan biri bo'lib, u fuqarolarimizning bilimi va kamoliga bog'liq. Har bir yurtdoshimiz, qaysi sohada xizmat qilishidan qat'i nazar, bu haqiqatni to'liq anglagan holda, o'zining ma'naviy kamoloti uchun mas'uliyatni his etishi, shaxsiy manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib yashashi va o'sib kelayotgan yosh avlodni komil inson etib tarbiyalashi lozim. Shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi”, deya bu jarayonga yuksak baho bergan edi.

Zero, ma'naviyat – ochlik, yo'qchilikka go'zal sabrni, jahlu nafsni tiyish va yengishni, xullas barcha illatlarga qarshi tura olishni ko'rsatadi va o'rgatadi.

Zamonaviy O'zbekistonning yangi davrini ham ana shunday xislatu fazilatlar sohiblari — fidoyi va vatanparvar yurtdoshlarimiz yaratmoqda. Binobarin, barchamizning dilimizdagi maqsadu muddao mushtarak — O'zbekistonimiz eng baxtiyor insonlar mamlakatiga aylansin!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. «Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz». Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent O'zbekiston, 2016.
2. «Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz» Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent O'zbekiston, 2017.
3. «Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir» Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent O'zbekiston, 2018.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida 2021 yil 19 yanvar kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining majlisida so'zlagan nutqi. – Toshkent, 2021.
5. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg'unligi. – Toshkent: Universitet, 2009
6. Bizni birlashtirgan g'oya M. Quronov, A. Mavrulov – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2016
7. Internet ma'lumotlari
www.ziyo.net
www.ma'naviy/milliyg'oya.uz

Abduganiyeva Diyora Abdurashid qizi,
International Islamic Academy of Uzbekistan
doctoral student in psychology of religion

THE IMPACT OF PARENTING STYLES ON THE EMOTIONAL HEALTH OF THE PERSONALITY

Annotatsiya: *Emotsiyalar shaxsga butun umri davomida hamroh bo'ladi. Shaxsning psixologik salomatligi to'g'ridan-to'g'ri bolani oilada tarbiyalash paytida unga hamroh bo'lgan psixo-emotsional farovonlik darajasiga bog'liq. Salbiy emotsiyalarni keltirib chiqaradigan vaziyatlarda ota-onalar bolaga qanday hamroh bo'lganlari, ularning o'zlari qanday munosabatda bo'lganlari va bu bilimlarni o'z tarbiyasida qanday qo'llaganlari bevosita shaxsning keyinchalik salbiy tajribalarni mustaqil ravishda qanday yengishi bilan bevosita bog'liq bo'lishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *Emotsiyalar, emotsional holatlar, oila, tarbiya uslublari, emotsional salomatlik.*

Abstract: *Emotions accompany a person throughout his or her life. Psychological health of an individual is directly related to the level of psycho-emotional well-being that accompanied the child during his upbringing in the family. The way parents accompanied the child in situations causing negative emotions, how they reacted themselves, how they implemented this knowledge in upbringing, can be directly related to how the personality will later independently cope with negative experiences.*

Keywords: *Emotions, emotional states, family, parenting styles, emotional health.*

According to the definition of E.I. Artamonova, the style of family upbringing is a complex organisation of intra-family communication, which is formed and developed simultaneously with the growth and development of children in the family [1]. The concept of organisation in the context of family upbringing style includes parental roles, styles of upbringing, educational methods and characteristics of communication that exists between parent and child.

According to the dictionary of psychological terms, “parenting style is a set of behavioural strategies and attitudes on the parent’s influence on the child, setting the main tone of educational activities in the family, family atmosphere, as well as having a direct impact on the formation of the child’s personality in the family” [2]. O.A. Karabanova defines parenting style as “parental position”, or “an integrative characteristic that affects and determines the degree of emotional acceptance of the child, as well as the main styles and values of upbringing, the nature of their own image and the image of the child in the parents, the strategy of parental behaviour and the degree of satisfaction with their own parental position” [3].

Many classifications of parenting styles proposed by family psychologists are based on the parameter of emotional acceptance of the child by the parent, as A.S. Potapov writes about it [4]. T.A. Kulikova focuses on two polarities when identifying and classifying parenting styles in the family: love and control [5].

The first polarity is characterised by the degree and quality of the parent's emotional attitude towards the child, his/her general parental view of his/her role and the image of his/her own child. A loving parent tolerates any psycho-physical peculiarities of their child, and happily encourages and helps the child to develop autonomy and initiative.

The second controlling polarity also has two extremes: autonomy and control. If in the first case excessive autonomy provided by parents borders on neglect, then excessive strict control limits any impulses of the child's personality to harmonious development, suppresses initiative and distorts all the child's features, directing them in a negative direction. Thus, in the opinion of this researcher, the style of upbringing chosen in the family circle should find a mediating position both in the first polarity and in the second.

N.I. Belyaeva put forward a number of negative styles of family upbringing that should be refrained from and avoided [6]. Among these roles stand out such as:

- Type A Corrective Parent. Any undesirable behavioural manifestations of the child are severely suppressed by the parents;
- Type B “Hypersocialising parent”. The parent is overly focused on the child's health, relationships with peers, sets high goals and demands from the child exaggerated and unrealistic success in school or future professional activity;
- Type B “Egocentric Parent”. The parent assumes a subservient, pandering role, while combining controlling, aggressive behaviours and reactions in situations where the child seeks to express his or her individuality.

Even E.G. Eidemiller and V.Iustitskis pointed out the importance of the chosen style of upbringing for children of any age. Traditional classification of parenting styles is also included in the system of types of upbringing, as it allows us to determine, first of all, the nature of communication, which is organised by the parent in relation to the child, as well as the selection of specific methods of upbringing to achieve the set goals in the formation of the child's personality.

Taking into account these criteria, R.D. Matveev formulates three main styles of family upbringing, which can be realised in any educational activity, regardless of whether it takes place at home or in an educational institution [7]. Each of the following styles of family upbringing allows for a certain percentage of both demandingness and acceptance.

One of the first and main styles of upbringing is the authoritarian style of upbringing, where the selected criteria are realised in the following way: high level of demanding and low level of acceptance. This style of communication is restrictive, making too many demands and not supporting feedback in case the requirements are fully met by the pupil, as R.D. Matveev characterises the authoritarian style of upbringing. Implementing this style of communication in their activities, the parent, first of all, requires that the child meets expectations to the maximum extent possible, obeys and respects the parent's position. For their part, the parent does not strive for emotional

rapprochement with the child, does not feel or understand his emotions, reactions, behaviour, remains deaf to his needs.

The realised parenting style contributes, firstly, to children's low activity in cognitive or play activities. If there are no rules for selecting partners for play and communication established by the parent, the child remains confused, does not know how to start the act of communication correctly, is afraid to make a mistake, is timid and depressed, as A.S. Potapov notes these changes in the child's behaviour [8]. However, the implemented style of upbringing is perceived by the child as the only truth, and therefore there is a high probability that, having reached maturity, the child of the authoritarian type of upbringing will begin to implement such an approach in communication not only with children, but also with his peers and the whole society.

The style that realises a high level of demandingness and acceptance is called authoritative style. The parent puts forward reasonable requirements in relation to the child, which are directly related to real life, but is ready to provide the necessary support, is able to feel and understand his experiences, listens to his needs, as characterises this type of upbringing T.A. Kulikova [9].

In many respects, it is this style of upbringing that forms social competence in children, the child quickly learns the necessary social norms of behaviour, meets the requirements of society, he is obedient, but understands the reasons for his own obedience. A high level of acceptance ensures the formation of a positive evaluation of themselves and others, empathy develops. Later, such a child will be able to control himself and others, his activities and organise a harmonious act of communication with the surrounding reality.

Liberal parenting style is characterised by a low level of control, but increased acceptance, as T.L. Kuzmishina [10] characterises this type. The parent is ready to give support to the child, he feels his mood, understands his needs, but is not able to control the child's behaviour. Children of this style of communication usually have no difficulties in building an act of communication both with peers and adults, but are prone to inordinate display of violent reactions, unable to regulate their own behaviour and the activities of others, as G.S. Korytova [11] notes this feature. They do not feel the need to fulfil all social norms and prescriptions, which are dictated to them by society and specific conditions of kindergarten or school later. Usually, such children have problems with behaviour, and later, with socialisation in general.

Indifferent parenting style is an additional type included in the traditional classification of parenting styles in the family. In other words, it is a manifestation of absolute indifference to how the child develops. It is characterised by a low level of both demandingness and acceptance. Often children with various deviations, deviations in behaviour, with difficulty in establishing harmonious relationships in society, with low cognitive, creative, communicative indicators are formed under this style of upbringing. They find a place in society with difficulty and rarely become active citizens of their state.

If the style of upbringing chosen in the family traumatises rather than develops, the child may develop erroneous ideas about life, which in the future will become the basis for the development of the complex. Moreover, negative influences will affect many aspects of the child's life: both on the formation of his social orientation, and on the ability to independently cope with difficulties and tasks for development.

Upbringing in the society is the peculiarities of control and acceptance of a child's personality, and then of an adult, existing in certain social circles and institutions: in kindergarten, school, professional education institution, at work, in shops, etc. In many respects, they also combine the features of upbringing, which were described above.

Thus, we can conclude that parenting style is a complex organised communication and management of the child's development, where the main internal components are the degree of restriction and emotional acceptance of the child by the parent, the quality and nature of the image that the parent has in the representation, as well as specific styles and methods of upbringing for the formation of specific skills in the child and the transfer of social and socio-cultural experience.

Thus the following conclusions can be drawn:

1. Emotions are the response reactions of the human psyche to stimuli coming from the surrounding reality. Emotional states by their specific characteristics can be characterised by constructiveness and destructiveness as to whether they participate in the construction of inner harmony of the personality, or on the contrary hinder it. Emotional and volitional sphere is directly represented by feelings - that is, such mental states of a person that determine his behaviour, interaction with others, as well as affect the quality and efficiency of work. Negative emotions are destructively coloured emotional manifestations related to what a person does not accept, rejects in the environment, or when his expectations diverge from reality, not satisfying his needs.

2. Negative emotions occupy an important place in the human psyche. They allow a person to avoid danger, to mobilise his/her forces for further development, to direct abilities to those spheres of activity which are still insufficiently developed in a person. Nevertheless, when negative emotions are excessively, pathologically present in a person's consciousness, they are more likely to become a source of stress, regression, degradation of personality. The most common ways of coping with negative emotions are methods of suppression, as well as processing of negative emotions. These methods are divided by their nature into constructive and destructive, by the nature of processing the situation are divided into mechanisms that allow constructive processing and transformation of negative emotion and do not allow it, by the long duration into primary and secondary, and by the nature of experience into psychological and psychosomatic. Each of these types can carry both positive changes allowing to relieve neuropsychic tension and negative ones due to distortion of objective reality.

3. Suppression of negative emotions is a mechanism that allows a person to enter and stay in the surrounding sociocultural environment, to establish and maintain business, intimate, interpersonal relations, to avoid quarrels and conflicts. Pathological and destructive impact of negative emotions have on the personality in the case when a person for a long time uses techniques of their suppression without appropriate constructive emotional discharge. In conditions of suppression and extreme degree of suppression of negative emotions the personality experiences stages from emotional exhaustion, to depersonalisation, emotional burnout, neurotisation of personality. Lack of emotional discharge can also lead to psychosomatic disorders, somatisation of emotions, etc.

4. Parenting style is a complex organised communication and management of the child's development, where the main internal components are the degree of restriction and emotional acceptance of the child by the parent, the quality and nature of the image that the parent has in the representation, as well as specific styles and methods of upbringing for the formation of specific skills in the child and the transfer of social and socio-cultural experience.

REFERENCES

1. Артамонова, Е. И., Екжанова, Е. В., Зырянова, Е. В. *Психология семейных отношений с основами семейного консультирования: учеб. пособие для студентов вузов* / Е. И. Артамонова, Е. В. Екжанова, Е. В. Зырянова. – М. : ИЦ Академия, 2011. – 192 с.
2. *Большой психологический словарь* / под ред. Б. Г. Меццержакова, В. П. Зинченко. 4–е изд. – М. : АСТ; Прайм–Еврознак, 2009. – 816 с.
3. Карбанова, О. А. *Психология семейных отношений и основы семейного консультирования: учебное пособие. переизд.* / О. А. Карбанова. – М. : Гардарика, 2004. – 319 с.
4. Потапов, А. С. *Нейропедагогическое обоснование комфортного обучения ребенка: монография* / науч. ред. В. М. Монахов. – Новосибирск: НГПУ, 2004. – 404 с.
5. Куликова, Т. А. *Семейная педагогика и домашнее воспитание* / Т. А. Куликова. – М. : Педагогика, 2000. – 326 с.
6. Беляева, Н. И. *Влияние стилей воспитания на формирование личности ребенка* / Н. И. Беляева // Научное периодическое издание «InSitu». – 2016. – №4. – С. 95–98.
7. Матвеев, Р. Д. *Стили родительского воспитания детей в семье* / Р.Д. Матвеев // Психологический журнал. – 2016. – №4. – С. 10–15. URL: <http://psichologicheskij-jurnal.ru/psichologicheskij-jurnal/psichologicheskij-jurnal-4-2016-10-15/>, свободный. Загл. с экрана.
8. Потапов, А. С. *Нейропедагогическое обоснование комфортного обучения ребенка: монография* / науч. ред. В. М. Монахов. – Новосибирск: НГПУ, 2004. – 404 с.
9. Куликова, Т. А. *Семейная педагогика и домашнее воспитание* / Т. А. Куликова. – М. : Педагогика, 2000. – 326 с.
10. Кузьмишина, Т. Л. *Стили семейного воспитания: отечественная и зарубежная классификация* / Т. Л. Кузьмишина, Е. С. Амелина, А. А. Пермякова, Е. А. Хохлова // Современная зарубежная психология, 2014. – №1. – С. 16–25.
11. Корытова, Г. С. *Психологические особенности внутрисемейных отношений и их влияние на проявления школьной дезадаптации: дис. ... канд. психол. наук : 19.00.07* / Корытова Галина Степановна. – Улан-Удэ: Бурятский гос. ун-т, 1998. – 166 с.

Dedaxonova Moxira Oltmishboyevna,
Namangan davlat universiteti doktoranti

INTERNET MADANIYATINING OILADA BOLA TARBIYASIGA TA’SIRI

Anotatsiya. *Ushbu maqola oilada internet madaniyatining bola tarbiyasidagi va ta’lim samaradorligiga tasirini hamda ota-onalarning oiladagi ta’limni shakllantirishda o’rni qanchalar muhim ekanligini o’rganadi.*

Kalit so’zlar: *Internet madaniyati, ta’lim resurslari, raqamli savodxonlik, ta’lim platformalari, onlayn forumlar, onlayn xafsizlik, raqamli giyohvandlik.*

Abstract. *This article examines the impact of the Internet culture in the family on the child’s upbringing and educational efficiency, and how important the role of parents is in the formation of education in the family.*

Keywords: *Internet culture, educational resources, digital literacy, educational platforms, online forums, online safety, digital addiction.*

Kirish: Bugungi raqamli asrda internet hayotimizning turli jabhalarini, jumladan, oiladagi ta’limni shakllantirishda tobora muhim rol o’ynamoqda. Internetdan foydalanish madaniyati bolalarning oilaviy muhitda qanday o’rganishi va rivojlanishiga sezilarli darajada ta’sir qiladi. Ta’lim resurslariga kirishdan tortib, ijtimoiy aloqalar va raqamli savodxonlikgacha, oila ichidagi internet madaniyati bolaning ta’lim sayohatiga chuqur ta’sir qilishi mumkin.

Asosiy qism: Internet madaniyatining oilada farzand tarbiyasiga ta’siri katta bo‘lib, ota-onalarning madaniy o‘lchovlari ularning o‘zaro munosabatlari va farzandlarining onlayn xulq-atvoriga munosabatini shakllantiradi[1]. Anglo-amerikalik va kanadalik kabi individualistik madaniyatga mansub ota-onalar yoshligidanoq to‘g‘ri xulq-atvorni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga moyildirlar, afro-amerikalik va ispan kabi kollektivistik madaniyatdagi ota-onalar esa o‘rta bolalik davrigacha o‘z farzandlarining muhiti va xatti-harakatlarini ko‘proq nazorat qiladilar. Bolalarning internetdan foydalanishida ota-onalar vositachiligi turli madaniyatlarda sezilarli darajada farq qiladi, xitoylik ota-onalar cheklovlar orqali himoya qilishni afzal ko‘radilar, G‘arb ota-onalari esa vositachilikni ma’qul ko‘rishadi[1].

Ta’lim manbalariga kirish:

Internet madaniyatining bolalar ta’limiga qo‘shgan eng muhim hissalaridan biri bu internetda mavjud bo‘lgan juda ko‘p ta’lim resurslaridir. Interfaol ta’lim platformalaridan tortib o‘quv videolari, elektron kitoblar va virtual sinf xonalarigacha internet bilim va ma’lumotlarga misli ko‘rilmagan kirish imkonini beradi. Ushbu onlayn ta’lim madaniyatini qabul qilgan oilalar an’anaviy ta’limni o‘z farzandlarining qiziqishlari, o‘rganish uslubi va tezligiga mos keladigan moslashtirilgan resurslar bilan to‘ldirishlari mumkin.

Raqamli savodxonlik va ko'nikmalarni rivojlantirish:

Internet madaniyati raqamli savodxonlik va zamonaviy dunyoda tobora dolzarb bo'lib borayotgan muhim ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Onlayn ta'limni qadrlaydigan oilalarda o'sayotgan bolalar ko'pincha yoshligidan texnologiyaga duchor bo'lishadi, raqamli platformalarda navigatsiya qilish, noto'g'ri ma'lumotlardan ishonchli ma'lumotlarni ajratib olish va o'rganish va muloqot qilish uchun raqamli vositalardan foydalanishda mohir bo'lishadi. Ushbu raqamli ko'nikmalar raqamli asrda muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir va bolalarga butun umr davomida o'rganuvchilar va jamiyatga hissa qo'shuvchilar bo'lish imkoniyatini beradi.

Hamkorlikda o'rganish va ijtimoiy o'zaro ta'sir:

Bundan tashqari, internet hatto oilaviy muhitda ham hamkorlikda o'rganish va ijtimoiy o'zaro ta'sir o'tkazish imkonini beradi. Onlayn forumlar, virtual o'quv guruhlari va ta'lim o'yinlari tengdoshga o'rganish va ishtirok etishni osonlashtiradi, bu bolalarga o'z tengdoshlari bilan muloqot qilish, bilim almashish va geografik chegaralardan qat'iy nazar loyihalarda hamkorlik qilish imkonini beradi. Onlayn hamkorlik madaniyatini tarbiyalash orqali oilalar farzandlarida muhim ijtimoiy va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirib, ularni kelajakdagi akademik va kasbiy faoliyatga tayyorlashlari mumkin.

Ota-onalar ishtiroki va ko'rsatmalari:

Biroq, internet madaniyatining oilada bola ta'limiga ijobiy ta'siri ota-onalarning mas'uliyatli ishtiroki va yo'l-yo'riqlariga bog'liq. Ota-onalar farzandlarining onlayn tajribasini shakllantirishda, chegaralarni belgilash va ekran vaqtini kuzatishdan tortib, mazmunli ta'lim o'zaro ta'sirlari va muhokamalarini osonlashtirishgacha hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ota-onalar farzandining onlayn ta'lim sayohatida faol ishtirok etish orqali Internet chalg'itish yoki potentsial xavf emas, balki qimmatli ta'lim vositasi bo'lib xizmat qilishiga ishonch hosil qilishlari mumkin.

Internetdan oilaviy kontekstda foydalanish oilaviy munosabatlarga va ota-onalar vositachiligiga ta'sir qiladi, ota-onalarning xatti-harakatlari va tarbiya uslubining assotsiatsiyasi bo'yicha keng qamrovli tahlillar hali ham mavjud emas[2]. Qo'llab-quvvatlovchi ota-ona profili bolalarning ota-onalari bilan yaxshi munosabatda bo'lishlari, ota-onalarning maslahatlarini tinglashga tayyor bo'lishlari va ularning ommaviy axborot vositalari bilan bog'liq ko'rsatmalariga rioya qilishlari bilan bog'liq [2]. Bolalarning YouTube platformasi kabi yangi ommaviy axborot vositalariga ta'siri ularning ijtimoiylashuvi va hayotdan qoniqishiga ta'sir qiladi, oilaviy kanallarni tomosha qilish natijasida olingan turli xil qadriyatlar va xatti-harakatlar[3]. Ota-onalarning madaniy kelib chiqishi va Internetga bo'lgan munosabati individualistik va kollektivistik madaniyatlarda ham farq qiladi, bu ularning bolalarning internetdan foydalanishidagi vositachiligiga ta'sir qiladi[1].

Qiyinchiliklar va xavflarni hal qilish:

Ko'p afzalliklariga qaramay, Internet madaniyati oilalar ehtiyotkorlik bilan harakat qilishlari kerak bo'lgan muammolar va xavflarni ham taqdim etadi. Bularga

onlayn xavfsizlik, raqamli giyohvandlik, axborotning haddan tashqari yuklanishi va noto‘g‘ri ma’lumotlarning tarqalishi kabi muammolar kiradi. Ota-onalar o‘zlarini va farzandlarini ushbu xavflar haqida o‘rgatishlari va oilada Internetdan xavfsiz va mas’uliyatli foydalanish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalarni ishlab chiqishlari juda muhimdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, internetdan foydalanish madaniyati oilada bola tarbiyasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Onlayn resurslardan foydalanish, raqamli savodxonlikni rivojlantirish, hamkorlikda o‘rganishni rag‘batlantirish va mas’uliyatli rahbarlikni ta’minlash orqali oilalar o‘z farzandlarining ta’lim tajribasini oshirish va ularni raqamli asrda muvaffaqiyatga tayyorlash uchun Internet kuchidan foydalanishlari mumkin. Biroq, ota-onalar o‘z farzandlari uchun xavfsiz va boy ta’lim muhitini ta’minlash uchun Internet madaniyati bilan bog‘liq muammolar va xavflarni hal qilishda hushyor va faol bo‘lishlari juda muhimdir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. *Ota-onalarning bolalarning onlayn xulq-atvorini idrok etishi: Tadqiqot ... - NCBI <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC10094172/>*
2. *Ota-onalar vositachiligi va o‘smirlarning Internetdan foydalanishi: Moderatsiya roli ... <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC8978487/>*
3. *Bolalarning YouTube platformasi Moshayaga ta’siri ... <https://www.degruyter.com/document/doi/10.1515/omgc-2022-0043/html?lang=en>*
4. *Rivojlanish tajribalarining bolalarga ta’siri - Verywell Mind <https://www.verywellmind.com/experience-and-development-2795113>*
5. *[PDF] Ulashish: Ijtimoiy media asrida bolalar shaxsiy hayoti <https://scholarship.law.ufl.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1796&context=facultypub>*

G'ulomqodirov Eldorjon Axmadjon o'g'li,
*“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti*

OILAVIY ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN BOLALARNING PSIXOLOGIK PROFILI

Annotatsiya. Oilaviy zo'ravonlik va uning turlari, bolalarning kognitiv, emotsional va akademik qobiliyatlariga ta'sirini o'rganish muammoni ko'lamini anglashga olib keladi. Ushbu maqolada oilaviy zo'ravonlikning bolalarga nisbatan ta'sirini tadqiq etishga qaratilgan qiyosiy adabiyotlar tahlili va muallifning fikrlari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: zo'ravonlik, zo'ravonlik turlari va oqibatlari, akademik salohiyat, o'z-o'zini anglash, zo'ravonlik hissi

Abstract. Studying family violence and its types and its impact on children's cognitive, emotional and academic abilities leads to an understanding of the scope of the problem. In this article, the analysis of comparative literature aimed at researching the impact of family violence on children and the author's opinions are presented.

Keywords: violence, types and consequences of violence, academic potential, self-awareness, sense of violence

Kirish. Hozirda jamiyatning kichik bo'g'ini sifatida oila va undagi shaxslararo munosabatlarni tadqiq etish va mustahkamlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Zero, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxs xususiyatlarining shakllanishi va rivojlanishi, bolaning ijtimoiylashuvi oiladagi farzand va ota-ona munosabatlarning holati bilan belgilanadi. Bolalar uchun uyda bo'lish o'zlarini xavfsiz his qilish imkonini beradi. Bolalarga nisbatan zo'ravonlikni oldini olish va ularning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan Childfund Allience tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda “oila davrasida bo'lish” bolalarni baxtli va xavfsiz his qilishga yordam berishi aniqlangan.⁶⁵ Bir vaqtning o'zida bolalar oila a'zolari tomonidan oilaviy zo'ravonlikning qurboni bo'lishi oila muammolarini zamonaviy jamiyatning asosiy muammolaridan biriga aylantirmoqda. Birlashgan millatlar tashkiloti bolalar fondining hisob-kitoblariga ko'ra dunyo bo'ylab 275 mln bola (har 7 tadan biri) oilaviy zo'ravonlikning ishtirokchisi bo'lgan.⁶⁶

Bolalarga nisbatan oilaviy zo'ravonlik sabablari - zo'ravonlik ko'rinishi, jamiyat va shaxs jihatidan bir-biridan farq qiladi. Bolalarga nisbatan jismoniy zo'ravonlikka ota-onaning kutilmalari, umidlari va bolaning xatti-harakatlari o'rtasidagi nomuvofiqlik, ota-onaning shaxsiy xususiyatlari, oiladagi psixologik muhit, bolaning individual-psixologik xususiyatlari sabab bo'lishi mumkin. Bolalarga nisbatan oilaviy zo'ravonlik

⁶⁵ ChildFund Alliance (2013), Small Voices, Big Dreams 2013: A global survey of children's views on peace, violence, heroes and happiness. Richmond VA: Child Fund, available at https://www.childfund.org/uploadedFiles/public_site/news/current/2013/SmallVoices2013ALLIANCE%2016%20Oct%202013.pdf

⁶⁶ United Nations Children's Fund (2006), op cit.

mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar diqqat markazidagi dolzarb ijtimoiy muammolar qatorida bo'lib turibdi. 1962-yilda Genri Kempe “kaltaklangan bola” sindromini kashf etishi hukumat va jamoatchilikda bolalarga nisbatan zo'rvonlik- jiddiy ijtimoiy muammo sifatida talqin qilishga sabab bo'ldi. Bola shaxsining shakllanishida oiladagi zo'rvonlikning ta'siri va oqibatlarini aniqlashda qiyinchiliklar mavjud.⁶⁷ Chunki oilaviy zo'rvonlikning natijalarini bolalar duch kelishi mumkin bo'lgan boshqa stress va travma holatlaridan alohida ilmiy jihatdan baholashning imkoni yo'q. E.E.Lupanova bolalarda oilaviy zo'rvonlikning oqibatlari butun hayotiga ta'sir qiladi deb hisoblaydi.⁶⁸ I.A.Furmanova bolalar uchun turli xil alomatlariga ega bo'lgan zo'rvonlikning oqibatlari haqida aytadi. Bular stressli reaksiyalar, ishonchni yo'qotish, suitsid xavfi, o'z-o'ziga bo'lgan baho va o'quv motivatsiyasining tushishi, depressiv holatlar bo'lishi mumkin.⁶⁹

Asosiy qism. Bolalarni zo'rvonlikning har qanday turlaridan himoya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunida zo'rvonlikka bolaning asosiy ehtiyojlari va ustun manfaatlariga zid bo'lgan, uning hayoti, sog'lig'i, jinsiy dahlsizligi, sha'ni, qadr-qimmatini va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qilinadigan, shu jumladan jismoniy yoki ruhiy azob yetkazayotgan yohud yetkazishi mumkin bo'lgan qasddan sodir etilgan har qanday harakat(harakatsizlik) deya ta'rif beriladi. Bolalarga nisbatan zo'rvonlik jinsiy, jismoniy, ruhiy zo'rvonlik, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik, ekspluatatsiya, bulling ko'rinishida oilada, ta'lim tashkilotlari va ko'chada kuzatilishi mumkin. Zo'rvonlik ijrochilari ota-ona, tengqurlar va begona insonlar bo'ladi. Quyida zo'rvonlikning turlari va bolalar misolida ularning oqibatlari bilan tanishib chiqamiz.

Jismoniy zo'rvonlik – insonlarga nisbatan tan jarohatlari yetkazish, zo'rvonlik xususiyatiga ega boshqa harakatlarni sodir etish, sog'lig'iga tajovuz qiladigan harakat (harakatsizlik). Odatda jismoniy zo'rvonlikka uchragan bolalar dunyoni o'zlari uchun xavfli va atrofdagi insonlarni dushman deb biladi. Insonlar bilan munosabat o'rnatishda va borliqni idrok etishda qiyinchilikka uchraydi, depressiya va bezovtalik kuzatiladi. Bolalarda jismoniy zo'rvonlik oqibatidagi jarohatlar uning jismoniy va psixik rivojlanishida jiddiy buzilishlarga, rivojlanishda ortda qolish hatto o'limga olib kelishi mumkin. Ko'p holatlarda ota-onalar tomonidan jismoniy zo'rvonlik bolani tarbiya qilish jarayonida jazo sifatida talqin etiladi. Jon Lok istalgan natija bermasligi sababidan bolaga jismoniy jazo qo'llashga qarshi bo'lgan.⁷⁰ Bola teskari

⁶⁷ Кучина Т.И. Детско-родительские отношения и психологическое благополучие подростков / Т.И. Кучина, Т.С. Мороз. – М.; Берлин: Директ-Медиа,2019. – 110 с.: табл.,

⁶⁸ Лупанова Е.Е. Технология групповой работы с детьми, испытавшими жестокое обращение / Е.Е. Лупанова // Новая наука: проблемы и перспективы. –2016. – №2(67). – С. 117–119

⁶⁹ Фурманов И.А. Особенности агрессии подростков, переживающих насилие со стороны сверстников / И.А. Фурманов, В.Е. Купченко // Журнал Белорусского государственного университета. Серия: Философия. Психология =Journal of the Belarusian State University. Philosophy and Psychology. – 2017. –№2. – С. 73–79

⁷⁰ Theories of Development Concepts and Applications William Crain Sixth Edition. P.7



reaksiya berishi va natijada uning xulq-atvori yomonlashishi mumkin. Bolada qasos tuyg'usi paydo bo'ladi, jismoniy jazoga o'rganib qoladi va endi unga munosabat bildirmaydi. Xafagarchilik, g'azab, qo'rqoqlik tuyg'ularini keltirib chiqaradi. Jismoniy zo'ravonlikka uchragan bolada o'zini aybdor his qilish, xulq-atvorning ekstremal ko'rinishi, ota-otadan va uydan qo'rqish, kattalar bilan muloqotda o'zini tashvishli tutish, o'zini past baholash, uydan qochish, xulq-atvoridagi tushunarsiz o'zgarishlar kabi emotsional va xulq-atvor reaksiyalari paydo bo'ladi. S.Salzinger, R.S.Feldman, M.Hammer, M.Rosarioning tadqiqotlariga ko'ra, oilada jismoniy zo'ravonlikka uchragan bolalar tengdoshlari orasida quyi sotsiometrik statusga ega bo'lishi, sinfdoshlari do'st sifatida tanlash ehtimoli past, agressiv ekanligi aniqlangan.⁷¹

Jinsiy zo'ravonlik – bolalarga nisbatan shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish orqali ularning jinsiy daxlsizligi va jinsiy erkinligiga tajovuz qilish. Zo'ravon har doim zo'ravonlik faktini rad etishi va bola bu haqida gapirishni istamasligi jinsiy zo'ravonlikning aniqlashni qiyinlashtiradi. Bolaning tahqirlanishi, gapirishdan uyalishi, o'zini aybdor deb his qilishi sabab bola jinsiy zo'ravonlik haqida aytishni istamaydi. Jinsiy zo'ravonlik turli yosh davridagi bolalar psixikasi va xulq-atvorida turlicha xususiyatlarni keltirib chiqaradi.

-maktabgacha yosh davridagi bolalarda uyqu buzilishi, xavotir, qo'rquv, yoshga xos bo'lmagan xarakterlar, biror kishi bilan yolg'iz qolishdan qo'rqish holatlari kuzatilishi mumkin;

-boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda akademik faoliyatning yomonlashishi, stress buzilishi, diqqatni jamlay olmaslik, g'azab va tajovuzkor xatti-harakatlar, atrofdagilar bilan munosabatlarning yomonlashuvi kuzatilishi mumkin;

-o'smirlarda depressiya, o'ziga past baho berish, agressiv va antisotsial xatti-harakatlar, ijtimoiy izolatsiya, maktabdagi muammolar, gender identifikatori bilan bog'liq muammolar, suitsidial urinishlar, fohishalik, zo'ravonlik va g'uyohvandlikka olib kelishi mumkin.

Ruhiy zo'ravonlik – bolalarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha'nini, qadr-qimmatini kamsitish, eng ustun manfaatlariga zid ravishda ajratib qo'yish yoki ortiqcha nazorat qilishga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalanadigan har qanday harakat (harakatsizlik). Ruhiiy zo'ravonlik doimiy, uzoq davom etadigan va keng tarqalgan zo'ravonlik ko'rinishlaridan biridir. Ruhiiy zo'ravonlikka uchragan bolalar, odatda, ota-onalari yoki yaqinlari tomonidan hech qanday ijobiy baho va qo'llab-quvvatlash olmaydilar. Bolaning maqtovga loyiq barcha xatti-harakatlari kattalar tomonidan e'tiborga olinmaydi. Aksincha no'g'ri xatti-harakatlariga qattiq jazo va haqorat bilan munosabat bildiriladi. Oqibatda, bolaning his-tuyg'ulari bir tomonlama rivojlanadi. O'zini-o'zi past baholaydi, o'zining va boshqalarning his-tuyg'ularini tushuna olmaydi, adekvat munosabatlarni rivojlantira olmaydi. Ota-ona bilan kechadugan har qadaiy munosabat emotsional taranglik, qo'rquv va tashvish bilan

⁷¹ Bachar E., Canetti L., Bonne O. et al. Physical punishment and signs of mental distress in normal adolescents // Adolescents.1997. Vol. 32. P. 12–22



birga kechadi. Jismoniy zo‘ravonlik natijasidagi jarohatlar bitadi, jinsiy zo‘ravonlik oqibatidagi kasalliklar davolanadi. Lekin ruhiy zo‘ravonlikning oqibatlari insonning butun hayoti davomida unga hamrohlik qiladi. Bu turdagi zo‘ravonlikka uchragan bolalar o‘ziga past baho beradi, o‘z-o‘zini hurmat qilish darajasi past, agressiv yoki befarq, yolg‘izlik hissi, do‘stlarning yetishmasligi kabi shaxs xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Qoida tariqasida, bu turdagi zo‘ravonlik tajribasiga ega bo‘lgan insonlar kelajakda bolalari bilan ham xuddi shunday yo‘l tutishadi.

G‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik – ota-onalar (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar) zarur imkoniyatlar, bilim va ko‘nikmalar, shuningdek tegishli xizmatlardan (davlat, tibbiy, ta’lim, ijtimoiy va boshqalar) foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishiga qaramay qarmog‘idagi bolaning sog‘lig‘i, jismoniy, aqliy, ma’naviy va axloqiy rivojlanishining jiddiy buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan jismoniy, moddiy, psixologik, ijtimoiy va boshqa ehtiyojlarini qondirmaslikdan iborat zo‘ravonlik ko‘rinishidir. Bolaning jismoniy ehtiyojlarini e‘tiborsiz qoldirish tufayli bolalar juda semiz yoki juda ozg‘in, rangpar, kamqon, ochko‘zlik kabi belgilar namoyon bo‘ladi. Bolaning hissiy ehtiyojlariga e‘tiborsiz bo‘lish natijasida bola ota-onasidan mustaqil tashabbus qila olamaydi, kattalarning e‘tiborini jalb qilishga harakat qiladi, yolg‘izlik, ota-ona xulq-atvoriga taqlid qilish natijasida shafqatsiz bolaga aylanadi. Bolaning ta’limini e‘tiborsiz qoldirish natijasida bola aqliy rivojlanishi va nutqi kechikadi, maktabdan qo‘rqish, o‘zlashtirishda tengdoshlaridan ortda qolishga olib keladi.

Ekspluatatsiya – amalga oshirish yoki oshirmaslik huquqi bo‘lgan harakatni sodir etishga (sodir etmaslikka) jismoniy yoki ruhiy kuch ishlatish orqali majburlash, shu jumladan uning ta’lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakldagi mehnatga majburlash holatidir. Bolalarni ekspluatatsiya qilmaslikni butunlay ularni mehnat faoliyatidan ajratib olish deb tushunmaslik kerak. Bolalarning sog‘ligi va fiziologik rivojlanishiga zarar bermaydigan uy ishlarida cheklangan soatlarda ular mehnatidan foydalanish mumkin. Ekspluatatsiya zo‘ravonlikka teng hisoblanib, bolada salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Xususan, bolada agressiyaning yuqori darajasi, o‘zini past baholash, shaxslararo muammolar, psixosomatik kasalliklar rivojlanishi, qo‘rquv hissi kuzatilishi mumkin.

Bulling – bir guruh bolalar yoki bir bolaning boshqa bolaga yoki bolalarga nisbatan, xususan, zo‘ravonlik qurboniga nisbatan haqoratli laqablardan foydalanish, u bilan har qanday muloqotni cheklab qo‘yish, uning mol-mulkini qo‘lga kiritish va zarar yetkazish, uning o‘ziga xos jismoniy, psixologik yoki intellektual xususiyatlarini ommaviy muhokama qilish, sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish yoki sog‘lig‘i va hayotiga ziyon yetkazishda ifodalangan psixologik va jismoniy tajovuzkor harakat. UNICEF tadqiqotlariga ko‘ra bolalarning tahminan 25%i sinfdoshlari tomonidan zo‘ravonlikka uchraydi. Bulling zo‘ravonlik tushunchasiga sinonim tarzda bolalar o‘rtasida kiber bulling, verbal bulling, jismoniy bulling, jinsiy bulling, munosabatlardagi bulling va tarafkashlik ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Bulling natijasida bolalar emotsional va jismoniy xavfsizlik hissi va boshqalarga ishonchni yo‘qotadi, tashvish va depressiya

kuzatiladi, ovqatlanish buzilishi, suitsidial harakatlar, izolyatsiya, yolg'izlik va o'zini qadrlashni yo'qotadi.

Xulosa. Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zo'ravonlik bolalarning psixologik, mental va xulq-atvor sohasida qisqa va uzoq muddatli asoratlar qoldiradi. Zo'ravonlik turlari alohida sof holatda uchramaydi. Doimo bir zo'ravonlik turi ikkinchisiga sabab bo'ladi va zo'ravonlik qurbonlarida psixologik asorat qoldiradi. Zo'ravonlikka uchragan bolalarda ta'lim samaradorligi va ijtimoiy qobiliyatlar pasayib ketishi mumkin. Psixologik oqibatlari internallik muammolari, travmadan keying stress buzilishlar, ruhiy tushkunlik, IQ darajasining pastligi, agressiv xatti-harakatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Shu sababli bolalarga nisbatan zo'ravonlik muammosi tizimli yondashuvni talab qiladi. BMTning 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish dasturining 16.2-maqsadida “bolalarga nisbatan ekspluatatsiya, zo'ravonlik, odam savdosi va zo'ravonlikning barcha ko'rinishlariga barham berish” kiradi. Bolalarga nisbatan zo'ravonlikning har qanday ko'rinishlariga barham berish ijobiy intizom, samarali ta'lim va kelajakda farovon oilalarning garovi bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. *Bachar E., Canetti L., Bonne O. et al. Physical punishment and signs of mental distress in normal adolescents//Adolescents.1997. Vol. 32. P. 12–22*
2. *Кучина Т.И. Детско-родительские отношения и психологическое благополучие подростков / Т.И. Кучина, Т.С. Мороз. – М.; Берлин: Директ-Медиа,2019. – 110 с.:*
3. *Лупанова Е.Е. Технология групповой работы с детьми, испытавшими жестокое обращение / Е.Е. Лупанова // Новая наука: проблемы и перспективы. –2016. – №2(67). – С. 117–119*
4. *Фурманов И.А. Особенности агрессии подростков, переживающих насилие со стороны сверстников / И.А. Фурманов, В.Е. Купченко // Журнал Белорусского государственного университета. Серия: Философия. Психология =Journal of the Belarusian State University. Philosophy and Psychology.–2017.–№2. – С. 73–79*

Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna,
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti
kichik ilmiy xodimi

O'ZBEK MIGRANT OILALARDAGI ER-XOTIN EMOTSIONAL MUNOSABATLARDA O'Z-O'ZINI BAHOLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. ushbu maqolada migratsiya jarayonlarining oila mustahkamligiga ta'siri, ibratli oilaviy munosabatlarni shakllantirishda, oila barqarorligini ta'minlash, oilaning ichki psixologik muhiti, er-xotin munosabatlari muammolarini o'rganishga doir tadqiqot ishi natijalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: oila, er-xotin, emotsional munosabat, hissiy yo'nalish, psixik xususiyat, barqarorlik.

Abstract. this article analyzes the results of a research study on the impact of migration processes on family stability, the formation of exemplary family relationships, ensuring family stability, the internal psychological environment of the family, and the problems of marital relations.

Keywords: family, couple, emotional relationship, emotional direction, mental trait, stability.

Kirish. Oila – er va xotin bilan butun bo'ladigan hayotdir. O'zaro muloqot qilish esa, baxtli va mustahkam hayotga olib boradigan ko'prik vazifasini o'taydi. Oilada er-xotinlarning sevgini ardoqlash hamda sevgi tuyg'usining ijobiy hissiyotlari bilan o'zaro emotsional tarafdin qo'llab-quvvatlash istagi mavjud bo'lgan munosabatlarida, oiladagi munosabatlarni asrab qolishi hamda mustahkamlash imkoni kengayadi. Emotsional rag'batlantirish hamda oilaviy turmushga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillar orasida aloqadorlik yuzaga keladi.

Turmush o'rtoqlardan birining mehnat migratsiyasi sababli o'z uyidan ketishi, odatda oila a'zolarining bir-biridan uzoq ajralish bilan birga, oilaviy stressni keltirib chiqaradigan hodisa sifatida ko'rishimiz mumkin. Odatda oiladagi nikoh munosabatlarining ziddiylashishiga, turmush o'rtoqlarda, shu jumladan, uyda qolgan turmush o'rtog'ida bir qancha salbiy hissiy holatlarni yuzaga chiqaradi: qo'rquv, xotirjamsizlik, baparvolik, agressiya, depressiya hamda o'ziga bo'lgan ishonchsizlik.

Ko'pincha migrantlar boshqa bir mamlakatga kelganda duch keladigan keladigan eng qiyin narsa oila va yaqinlaridan uzoqda bo'lishidir. Bu yaqinlariga nisbatan sog'inchi hissini boshqa bir narsa bilan to'ldirish qiyin bo'ladi bu tushkunlik va o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytirib yuboradi. Oilalarda, odatda, o'zi hohlamagan ammo, iqtisodiy tomondan ketishga majbur bo'lgan migrantlarda bu tuyg'u kuchliroq his qilishadi va hayotlaridagi majburlik hissi ularning qayg'usini kuchaytirishi mumkin. Yaqinlari bilan uyali telefon orqali qo'ng'iroqlashishlari yoki internet orqali suhbalashishlari sog'inchi hissini yengillashtirishi mumkin, ammo bular yaqinlariga teginish va hidini tuyishni takror olmaydi.

Bularning barchasi yangi migrantlar va ularning oilalariga zarar yetkazishi mumkin, bu esa depressiya, tashvish, tushkunlik, xavotir, stress yoki boshqa ruhiy

salomatlik muammolari alomatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Agar oilada er-xotindan birining psixologik muammolarga duch kelsa, ularning muammolari butun oilaga ta’sir qilishi mumkin.

Asosiy qism. Quyida biz tomonimizdan o‘tkazilgan tadqiqot natijalarining migrant va migrant bo‘lmagan oila vakillarining er-xotinlarini emotsional holatlarda o‘z-o‘zini baholashi turlichaligi misolida keltiriladi. Tadqiqot natijasida chiqqan natijalarni javallar asosida ko‘rsatib o‘tamiz.

1-jadval

“Shaxsning umumiy-hissiy yo‘nalishini aniqlash” metodikasining migrant hamda migrant bo‘lmagan oilalar kesimidagi tafovutlari (n=301)

Shkalalar	O‘rtacha rang		Statistik qiymat	
	Migrant bo‘lmagan oilalar (n=148)	Migrant oilalar (n=162)	U	p
Glorik hislar	160,92	141,41	9854	0,050*
Praksik hislar	140,46	161,20	9761,5	0,033*
Gnostik hislar	137,99	163,59	9396	0,010**
Estetik hislar	139,72	161,92	9652	0,026*

*Izoh: *- p<0,05, **- p<0,01.*

Emotsiya insonning axloqiy yo‘nalishini shakllantirish, mustahkamlash hamda samarali amalga oshirishda asosiy rol o‘ynaydi. Shaxsning umumiy hissiy yo‘nalishi eng avvalo, uning yo‘nalishiga mos keladigan faoliyat sohasini tanlashga imkon beradi. Shulardan kelib chiqib mehnat migrantlari hamda migrant bo‘lmagan oilalarda shaxsning umumiy hissiy yo‘nalishidagi emotsiyalar o‘rtasida ijobiy ishonchli farqlar aniqlandi. Glorik emotsiya bo‘yicha migrant bo‘lmagan oilalarning o‘rtacha rang ko‘ratgichi 160,92 ni, migrant oila rang ko‘rsatgichi 141,41 ni tashkil etdi (U=9854; p<0,05). Bu emotsiyalar asosan boshqa shaxslar oldida muvaffaqiyatga erishishga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqadi. Mehnat migrantlarining asosiy maqsadlari boshqa davlatga ishlashga ketishida asosan iqtisodiy tomondan muvaffaqiyatga erishish bo‘lsa, migrant bo‘lmagan oilala vakillari o‘zining muvaffaqiyatga erishishni ishdagi tajribasi va mashhurlikka bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqadi.

Praksik emotsiyalar asosan faoliyatga qaratilgan bo‘lib migrant oilalarda o‘rtacha rang qiymatlari 161,20 ni, migrant bo‘lmagan oilalarda esa 140,46 ni tashkil etdi (U=9761,5; p<0,05). Mehnat migrantlarida faol harakat qilish, maqsadga erishishda kuchli irodaviy hamda hissiy zo‘riqish, haddan ortiq jismoniy va aqliy qobiliyatlarni safarbar qilishga qaramay mehnat natijalari va unumdorligidan qoniqish ularda yoqimli charachoq hissini uyg‘otadi. Migrant bo‘lmagan oila vakillarida esa ko‘p harakatlanish bilan birga dam olish ehtiyoji ham bo‘ladi.

Gnostik emotsiyalar migrant oilalarda 163,59 ni tashkil etgan bo‘lsa, migrant bo‘lmagan oilalarda esa 137,99 ni tashkil etdi (U=9396; p<0,05). Mehnat migrantlarning o‘zalari uchun yangi bir davlatga kelishlar ularda o‘sha davlat madaniyati, tili, odatlari, an’analarini o‘rganish ular haqida ma’lumot olishga qiziqish ehtiyoji ortadi. Gnostik

emotsiyalar ularda yangi ma’lumot olish zarurati keyinchalik ularga o’sha davlatga moslashish jarayonini yengillashtiradi, tub aholi vakillari bilan kommunikatsiya o’rnatishda yordam beradi.

Estetik emotsiyalarning o’rtacha rang qiymatlari migrant bo’lmagan oilalarda 139,72 ni, migrant oilalarda 161,92 ni tashkil etdi ($U=9652$; $p<0,05$). Migrantlarning qarashlariga ko’ra, estetik tuyg’u insonning atrof-muhit bilan uyg’unlikka bo’lgan ehtiyojini aks ettiradi, bu shaxs hamda obyektlar o’lchovlarining mos kelishi hissida namoyon bo’ladi.

2-jadval

“Shaxsning umumiy-hissiy yo’nalishini aniqlash” metodikasining jins tafovutlari (migrant oilalar misolida) (n=162)

Shkalalar	O’rtacha rang		Statistik qiymat	
	Erkaklar (n=75)	Ayollar (n=87)	U	p
Kommunikativ hislar	66,96	85,25	2205	0,011*
Glorik hislar	90,67	65,77	1955	0,001**
Praksik hislar	56,73	93,65	1499,5	0,000**
Romantik hislar	89,25	66,93	2052,5	0,002**
Estetik hislar	67,22	85,03	2223,5	0,013*
Akziv hislar	66,59	85,55	2179,5	0,008**

*Izoh: *- $p<0,05$, **- $p<0,01$.*

Navbatdagi biz tarafimizdan tanlab olingan mehnat migranti oilalardagi shaxsning umumiy hissiy yo’nalishida kommunikativ emotsiyalar ayollarda yuqori bo’lishi bilan ajralib turibdi (82,25). Erkaklarda bu ko’rsatgichni pastligi (66,96) boshqa davlatda shaxslararo munosabatlarga kirishishlarida o’zgalarning huquq hamda manfaatlarini inobatga olish, ayniqsa tilni bilmaslik natijasida shahslarda shahslararo muloqotga bo’lgan ehtiyojni yuzaga chiqartiradi. Bundan tashqar ularning e’tibori asosan pul topishga qaratilgan bo’lib, faoliyat borasidagi ehtiyojdan kelib chiqib ularda muloqat bo’lgan ehtiyoji bo’lmaydi. Boshqa insonlar bilan muloqot qilish, fikr va tajriba almashish istagi, hamdardlik, mehr, kimgadir hurmat, minnatdorchilik hissi ortishi natijasida kommunikativ emotsiyalarda o’zgarishlar kelib chiqadi ($U=2205$; $p<0,05$).

Glorik emotsiyalarda erkaklarda o’rtacha rang qiymati 90,67 ni, ayollarda esa 65,77 ni tashkil etdi ($U=2205$; $p<0,01$). Erkaklarda ushbu ko’rsatgichning yuqori bo’lishi mehnat migratsiyaga ketishida oilasi hamda ayoli yonida moddiy tomondan pul topishda muvaffaqiyatga erishishga bo’lgan ehtiyoji yuqori bo’ladi. Aynan shu orqali begona davlatga ketishi orqali migratsiyaga kelgan shaxs yangi muhitda o’z o’rnini topa olish istagi, begona yurtda o’z shaxsiyatini qadrlash hissi ortib boradi.

Uyda erkak boshqa davlatga ishlashga ketganida uydagi barcha ma’suliyat ayolning yelkasiga tushadi. End unda ayollik ma’suliyati bilan bir qatorda erkaklik ma’suliyati ham yuklanadi. Bunda ayollarning uyda hamda ishdagi harakatlari oshishi natijasida asosiy e’tiborlarini faol harakat qilish hamda natijaga erishish ehtiyoji yotadi. Buni biz yuqorida jadvalda ko’rsatilgan ko’rsatgichlardan ham anglab olsak bo’ladi, ayollar bu natija 93,65 ni, erkaklarda esa 56,73 ni tashkil etdi ($U=1499,5$; $p<0,001$).

Romantik emotsiyalarda ham erkaklarda rang ko‘rsatkichlari yuqori natijani tashkil etgan bo‘lib (89,25), ayollarda o‘rtacha rang ko‘rsatkichi esa (56,73) past natijaga ega bo‘ldi ($U=2052,5$; $p<0,01$). Bu natijada ayollarda sevgiga bo‘lgan munosabat erkaklarga qaraganda quyi natigani tashkil etdi, ushbu hodisa migrantlarning bir-biridan yiroqda bo‘lishi, hayotning turli qiyinchiliklari, past-balandliklarini boshdan kechirish ko‘lami yuqori bo‘lgani sababli ular orasida ma’lim hissiyotlarni so‘nishiga olib keladi.

Ayollarda chiroyga bo‘lgan ishtiyoqi, estetik idrok natijasida yuzaga keladigan his-tuyg‘ular san’at va tabiat asarlaridan ilhomlanishi uning tabiatiga hos bo‘lgan narsadir. Shundan kelib chiqib ayollarda estetik emotsiyaga bo‘lgan ehtiyojning balandligini rang ko‘rstgichlaridan bilsak bo‘ladi (85,03) ($U=2223,5$; $p<0,05$).

Akziv emotsiyalarning ayollarda yuqori bo‘lishi (85,55) o‘zbek oilalaridagi ayollarga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri sandiqni bola kichikligidan unga sarpo to‘plash, tilla buyularini hamda xonadonida turli xil gul navlari yig‘ishga qiziqish va amaliy ehtiyojlaridan tashqariga chiqadigan narsalarni yig‘ish bilan bog‘liq his-tuyg‘ulardan kelib chiqadi ($U=2179,5$; $p<0,01$).

Xulosa. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda mehnat migratsiyasi tufayli shaxsda ijtimoiy-psixologik hamda qadriyatlar tizimining o‘zgarish kabi oqibatlarni namoyon etmoqda. Bunday salbiy oqibatlar sirasiga oilaning inqirozi, shaxsdagi psixologik o‘zgarishlar, emotsional fondagi o‘zgarishlar, buning natijasida shaxsning hayotida ko‘plab muammolar kirib kelishini ko‘rsatishimiz mumkin. Boshqa tomondan qaraganda, bu hamma oilalarda ham bog‘liq bo‘lmaydi va uning yechimi zarur bo‘lgan vazifalar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *Мамайчук И.И. Основные направления психологической помощи эмигрантам / И.И. Мамайчук, В. Хармз // Психологические проблемы русских эмигрантов в Германии: Сб. трудов / Отв. ред. А.А. Крылов. – СПб.: Изд-во СПбГУ, 2001. – С. 275-280*
2. *Солдатовой. Г.У. Психологическая помощь мигрантам: травма, смена культуры, кризис идентичности / – М.: Смысл, 2002. – 479 с.*
3. *Стефаненко Т.Г. Этнопсихология: практикум / Т.Г. Стефаненко. – М.: Аспект Пресс, 2006. – 208 с.*
4. *Целуйко.В.М. Психология современной семьи. М.: ГИС «ВЛАДОС», 2004.*

Rahimova Matluba,
“Family and gender” Research Institute
Doctoral student

THE ROLE OF THE FAMILY IN THE UPBRINGING OF GIRLS

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘sib kelayotgan qizlarning tarbiyasida oilaning o‘rni va farzandlarga oilada ta’lim va tarbiya berishda nimalarga e’tibor berish kerak ekanligi yoritilgan. Bolalarni voyaga yetkazishda uchraydigan muammolar va yechimlar ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: oila, ta’lim, tarbiya, farzand, bolalar, otay-ona, qiz bolalar, madaniyat.

Abstract. This article covers the role of the family in the upbringing of growing girls and what to pay attention to when educating and educating children in the family. Problems and solutions found in raising children are shown.

Keywords: family, education, upbringing, child, children, parent, daughter, culture.

The family plays a crucial role in the upbringing of girls. Some key aspects include: The family is often the primary source of emotional support for girls, helping them feel valued and secure. Families help shape the values, beliefs, and expectations that guide a girl’s behavior and choices. Families play a key role in supporting girls’ education and skill development, helping them reach their full potential. Families can empower girls to be independent, confident individuals who can make their own decisions. Girls learn about relationships from observing their family members, so it is important for families to model healthy communication, respect, and equality. Overall, the family is a critical influence in shaping the identity, values, and capabilities of girls as they grow up.

Education and upbringing in the family are essential aspects of a child’s development. The organization of education and upbringing in the family can vary depending on cultural, social, and individual factors. However, there are some general principles that can help guide parents in providing a nurturing and supportive environment for their children:

1. Setting clear expectations: Parents should communicate their values and expectations to their children so they understand what is expected of them in terms of behavior, academic performance, and responsibilities.

2. Providing structure: Establishing routines and rules can help create a sense of stability and predictability for children. This includes having consistent mealtimes, bedtimes, study times, and chores.

3. Encouraging communication: Parents should create an open and supportive atmosphere where children feel comfortable sharing their thoughts, feelings, and concerns. This can help strengthen the parent-child relationship and build trust.

4. Modeling positive behavior: Children learn by observing their parents’ actions, so it is important for parents to model positive behavior such as respect, kindness, empathy, responsibility, and resilience.

5. Promoting independence: Parents should gradually encourage their children to take on age-appropriate responsibilities and make decisions for themselves. This helps build self-confidence and self-reliance.

6. Providing opportunities for learning: Parents can support their children’s education by engaging them in activities that stimulate curiosity, creativity, critical thinking, problem-solving skills, and a love of learning.

7. Offering emotional support: It is important for parents to provide emotional support to their children by listening to them attentively, offering comfort during difficult times, validating their emotions, and helping them develop coping strategies.

A key aspect of being organized is to establish routines that work for you and your family. Sit down at family meetings and write a list of things that need to be completed every morning and night, daily, weekly, fortnightly and monthly. Once everyone is on the same page, you can start working on your new routines.

Once kids know all the steps involved with a particular task, help them add it to an overall to-do list. Include regular homework and chores on the list. Encourage kids to keep the list in a place where they’ll see it often and can check off accomplishments as they go.

Parenting can be hard. And balancing work with taking care of your kids can be complicated things more. No matter where you are, you feel like you should be somewhere else. And you’re desperate to find a balance that would allow you to actually enjoy both aspects of your life.

As it turns out, the key might be some easily implemented organizational strategies. At first glance, that sounds overly simplified. But it really might be as simple as prioritizing tasks, asking for help, and setting clear boundaries.

Some common problems that may arise in raising a child in a family include: Lack of effective communication between parents and children can lead to misunderstandings and conflict. Children may exhibit challenging behaviors such as disobedience, aggression, or defiance. Parents may have different approaches to discipline and parenting, leading to disagreements and inconsistency in rules. Competition and jealousy among siblings can create tension within the family. Raising a child can be expensive, leading to financial strain and worry for parents.

Some potential solutions to these problems include:

1. Open communication: Encourage open and honest communication between parents and children to address concerns and resolve conflicts.

2. Consistent discipline: Establish clear rules and consequences for behavior, and ensure that both parents are on the same page with discipline strategies.

3. Parenting support: Seek out resources such as parenting classes or counseling to improve parenting skills and learn effective techniques for managing challenging behaviors.

4. Sibling bonding activities: Encourage siblings to spend quality time together and participate in activities that promote bonding and cooperation.

5. Financial planning: Create a budget and savings plan to manage expenses related to raising a child, and seek out financial assistance or support if needed.

Overall, the organization of education and upbringing in the family should prioritize the holistic development of the child – including cognitive, social-emotional, physical health – while fostering a strong bond between parent and child based on mutual respect and understanding.

REFERENCES

1. Алешина Т.Ю. Социально- психологические методы исследования супружеских отношений // *Семья в новых социально-экономических условиях / Под ред. А.Х. Саралиевой. Н. Новгород: Нижегород. гос. ун-т, 1998.*
2. <https://familienportal.nrw/en/1-bis-3-jahre/beruf-familie/organization-everyday-family-life>
3. <https://www.understood.org/en/articles/10-tips-to-help-get-your-child-organized>

Rayimov Nursulton Murodilovich,
*“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti*

OILAVIY MUNOSABATLARDA ZO‘RAVONLIK HISSI VUJUDGA KELISHI HAQIDAGI PSIXOLOGIK QARASHLAR

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘smirlar o‘rtasida hozirgi paytda keng tarqalayotgan zo‘ravonlik hissi haqida huquqiy hujjatlar, zo‘ravonlik kelib chiqish sabablari, psixolog olimlarning zo‘ravonlik haqidagi olib borgan ilmiy ishlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: zo‘ravonlik, zo‘ravonlik turlari va oqibatlari, bullying, oilaviy munosabatlar.

Abstract: This article presents legal documents about the currently widespread feeling of violence among adolescents, the reasons for the origin of violence, the scientific work of psychologist scientists about violence.

Keywords: violence, types and consequences of violence, bullying, family relationships.

Kirish. Kishilik jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o‘zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo‘ladigan munosabatlari ham, ayniqsa, shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo‘lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o‘ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Xususan, axborot texnologiyalari shiddat bilan bilan rivojlanib, o‘ziga borayotgan bir paytda yosh avlodni tarbiyalash, ularda ijobiy fazilatlarni shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi, Zero, internet orqali butun dunyo bo‘ylab turli axborotlar almashinuvi o‘smirlar ongiga, dunyoqarashiga turli tomonlama (salbiy va ijobiy jihatdan) ta’sir etayotgani hech birimizga sir emas. Jahonda bo‘layotgan ijtimoiy o‘zgarishlar o‘smirlar orasida ham bir qator salbiy holatlarni vujudga keltirmoqda. Ya’ni bu davrda zo‘ravonlik, bullying, ijtimoiy izolatsiya, jamiyatga moslasha olmaslik kabi ko‘plab holatlarning ko‘payishi oqibatida bolalar shaxsida o‘z imkoniyatlari va qobiliyatlarini adekvat baholay olmaslik, jamiyat hayotida o‘z o‘rnini topa olmaslik, jamiyatdan uzoqlashish kabi salbiy holatlar ortib bormoqda. Bunday holatlarning oldini olish maqsadida 2019 yil UNESCOga a’zo davlatlar ishtirok etgan yig‘ilishda noyabr oyining birinchi payshanbasi “maktabda va internetda xalqaro zo‘ravonlikka qarshi kurash kuni” sifatida nishonlash haqidagi qaror qabul qilingan⁷² bo‘lib, 2020 yildan bu har yili o‘tkazilishi belgilangan. 2021 yilda esa xalqaro kunning asosiy mavzusi kiberbullying va onlayn zo‘ravonlikka qarshi kurash masalasi dolzarb etib qayd etilgan.

O‘smirlar orasida zo‘ravonlik holatlari sonining ortib borayotgani hammani irdek xavotirga olayotganini chiqarilayotgan qarorlardan ham ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, “...Ta’lim-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga nisbatan jismoniy

⁷² Международный день против насилия и буллинга и региональные инициативы//Институт ЮНЕСКО по информационным технологиям в образовании URL: <https://iite.unesco.org/ru/news/den-protiv-nasiliya-kiberbullying-unesco-vk>

va (yoki) ruhiy zo'ravonlik ishlatmaslik va ularning o'z majburiyatlarini bajaraishga to'sqinlik qilmaslik...”⁷³ ta'lim oluvchilarning majburiyatlari qatorida zo'ravonlik qilmaslik haqida keltirilganidan hozirgi kunda zo'ravonlikka aqanchalik e'tibor berilayotganini ko'rishimiz mumkin.

Asosiy qism. Zamonaviy psixologiyada zo'ravonlik muammosini L.S.Alekseyeva, I.A.Bayeva, E.V.Burminstova, N.F.Mixaylova, N.O.Zinovyeva kabi tadqiqotchilar o'rganib borishmoqda. Chet el mutaxassislari orasida ta'lim muhitida shaxsga nisbatan zo'ravonlik vaziyatiga bulling deb ta'rif berilgan. Bulling muammolariga bag'ishlangan qarashlari zamonaviy xorijiy va Rossiya tadqiqotlarida ko'plab kuzatish mumkin, biroq aynan bulling muammosiga doir tadqiqotlar yetarlicha tahlil qilinmaganligini kuzatish mumkin.

Bulling (inglizcha - byulling) tushunchasi bezorilik, zo'ravonlik qilish, qo'rqitish, shuningdek, bir jamoa a'zosining boshqa a'zolar yoki muayyan bir a'zo tomonidan agressiv ravishda ta'qib qilishini bildiradi. Ta'qib qilish jarayonida qurbon o'ziga nisbatan amalga oshirilgan zo'ravonlikka nisbatan hech qanday javob qaytara olmasligi mumkin.

Zo'ravonlik boshqa odamga hukmronlik qilish uchun tajovuzkor xatti-harakatni anglatadi. Bu bir shaxs boshqalarga hukmronlik qilishi uchun boshqalar ustidan hokimiyatni majburlashni anglatadi. Bu bir marta emas, balki tez-tez takrorlanadigan harakatdir. Boshqalarni haqorat qiladigan odamni bir necha sabablarga ko'ra boshqalarni masxara qiladigan zo'ravonlar deb atash mumkin. Zo'ravonlik-bu kimningdir hokimiyat nomutanosibligini idrok etishining natijasidir.

Zo'ravonlikning har xil turlari bo'lishi mumkin, masalan:

Jismoniy zo'ravonlik: zo'ravonlar kimnidir jismonan xafa qilmoqchi yoki qiynoqqa solmoqchi bo'lsa yoki hatto uning roziligisiz kimgadir tegsa, uni jismoniy zo'ravonlik deb atash mumkin.

Og'zaki zo'ravonlik: bu odam boshqa odamni masxara qilganda.

Psixologik zo'ravonlik: biror kishi yoki shaxslar guruhi boshqa odam haqida g'iybat qilsa yoki ularni guruh tarkibiga kiritmasa, psixologik zo'ravonlik deb atash mumkin.

Kiber zo'ravonlik: zo'ravonlar ijtimoiy tarmoqlardan kimnidir haqorat qilish yoki xafa qilish uchun foydalanganda. Ular jamoat forumidagi odamga yomon va kamsituvchi sharhlar berishlari va shu sababli boshqa odamni xijolat qilishlari mumkin. Zo'ravonlar, shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarini, rasmlarini yoki videolarini ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirishi mumkin.

Zo'ravonlik hayotning har qanday bosqichida sodir bo'lishi mumkin, masalan, maktabdagi zo'ravonlik, kollej zo'ravonligi, ish joyidagi zo'ravonlik, jamoat joyidagi zo'ravonlik va boshqalar. Ko'p marta nafaqat boshqa shaxslar, balki oila a'zolari yoki ota-onalar ham bilmagan holda doimiy tushkunlikka soluvchi mulohazalar qilish orqali

⁷³ O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020 y. O'PQ-637-son “Ta'lim to'g'risidagi”gi Qonuni//Lex.uz online

shaxsni zo'rvon qilishadi. Shuning uchun jabrlanuvchi asta-sekin o'z qadr-qimmatini yo'qotishni boshlaydi va psixologik kasalliklardan ham aziyat chekishi mumkin.

UNESCO hisobotida aytilishicha, o'quvchilarning 32% dunyo bo'ylab maktablarda tahqirlanadi. Zo'rvonlik dunyo bo'ylab asosiy muammo bo'lib kelmoqda. Ta'kidlanishicha, jismoniy zo'rvonlik o'g'il bolalar orasida, psixologik zo'rvonlik qizlar orasida keng tarqalgan.

Oldini olish strategiyalari:

Maktabda bezorilik holatida ota-onalar va o'qituvchilar muhim rol o'ynashi mumkin. Ular bolalar talabalarning xulq-atvor o'zgarishi, o'z-o'zini hurmat qilmaslik, kontsentratsiya etishmasligi va hokazo kabi dastlabki alomatlarini sinab ko'rishlari kerak. Simptomlarni erta aniqlash, tezkor harakatlar va o'z vaqtida maslahat berish jabrlanuvchiga bezorilikning keyingi ta'sirini kamaytirishi mumkin.

Xulosa. O'rganilgan nazariy ma'lumotlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, o'smirlar orasida zo'rvonlarning psixologik tavsifi haqida ma'lumotlar juda kam ekanligi aniqlandi. O'smirlar o'rtasida zo'rvonlik hissi paydo bo'lishini oldini olish bo'yicha ota-onalar, maktabda pedagoglar bosqichma-bosqich ishlar olib borishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu to'g'risida O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” farmonida ham bu sohaga alohida e'tibor berilishi muhimligi haqida alohida bandlarda to'xtalib o'tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. *O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” Farmoni* // <https://lex.uz/docs/5841063>
2. *O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020 y. O'PQ-637-son “Ta'lim to'g'risidagi”gi Qonuni//Lex.uz online*
3. *Elov Z.S. O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalar-ning psixologik ta'siri.*
4. *science and education scientific journal volume 3, issue 3 march. 2022 442-447*
5. *Международный день против насилия и буллинга и региональные инициативы// Институт ЮНЕСКО по информационным технологиям в образовании URL: <https://iite.unesco.org/ru/news/den-protiv-nasiliya-kiberbulling-unesco-vk>*
6. *Sharafutdinova X.G. O'smir psixologiyasi: Diagnostika. Psixokorreksiya. - Termiz, 2017. - 82-b*
7. *Агрессия в подростковом возрасте. – Санкт-Петербург, «Питер», 2007.*

Xudoyberdiyeva Marhabo Abduqahhorovna,
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti

TANLOVLARNI TASHKIL QILISH ORQALI O'SMIRLARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'smir yoshdagi bolalarning kitob mutolaasida to'sqinlik qiluvchi omillar keltirilgan bo'lib, ularni tanlovlarda ishtirok etish orqali kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish va bunda mahalla, maktab va ota-ona hamkorligini ta'minlash masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kitobxonlik, o'smir-yoshlar, mustaqil fikrlash, so'z boyligi, ota-onalar, o'qituvchilar, mahalla, tanlov va musobaqalar, kitobxonlik ko'rsatkichi.

Abstract. This article presents the factors that prevent teenage children from reading books, and highlights the issues of developing their interest in reading through participation in competitions and ensuring the cooperation of the neighborhood, school and parents.

Keywords: reading, teenagers, independent thinking, vocabulary, parents, teachers, neighborhood, contests and competitions, reading index.

Dunyoda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va uni qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqish, infratuzilma va o'quv tizimi, kitobxonlik bilan bog'liq muammolarga samarali yechimlar topish hamisha dolzarb bo'lib kelgan. Ayniqsa, bugungi kunda o'smir-yoshlarning kitob mutolaasiga bo'lgan qiziqishi anchayin kamayib ketganligini ko'rishimiz mumkin. Bunga bir necha omillar ta'sir ko'rsatadi.

Birinchiidan, farzandlari o'smir yoshga yetgan ota-onalarning bog'cha yoki boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga qaraganda mustaqil o'qish ko'nikmasi shakllanganligi sababli, bolam mustaqil o'qiy oladi deb o'ylab, ota-onalar farzandlarining o'qishga bo'lgan e'tiborini nazoratsiz qoldirishadi.

Ikkinchiidan, ota-onalar va o'qituvchilarning o'smir yoshdagi bolalarga nisbatan o'qishini rag'batlantirish pasayadi. Bu esa o'smir-yoshlarning o'qishidagi motivatsiyaning susayishiga olib keladi.

Uchinchiidan, rivojlangan axborot texnologiyalari sharoitida o'smir-yoshlarning bo'sh vaqtlari ijtimoiy tarmoq (You Tube, Telegram, Instagram kabi) saytlarga sarflanilib, ularning kitob mutolaa qilishida vaqt cheklovi yuzaga keladi.

O'smir-yoshlarda kitob o'qish va mutolaa qilishga qiziqishini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda “2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi 781-sonli qarori qabul qilinib, unda “*Aholi, ayniqsa, yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, ular orasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, kitobxonlik madaniyatini rivojlangan davlatlar bilan taqqoslanadigan darajaga ko'tarish hamda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirishga, ularning madaniy savodxonligi o'sishi orqali*



inson kapitali sifatini yaxshilashga erishiladi”[1] – degan fikrlar ilgari surilgan.

Statistik tadqiqotlarga ko‘ra, eng ko‘p kitob o‘qiydigan davlatlar o‘ntaligida Hindiston xalqi haftasiga qariyb 11 soat (10,7soat) kitob o‘qishi bilan davlatlar orasida birinchi o‘rinda turadi. Quyida dunyo bo‘yicha kitobxon davlatlarning kunlik kitob o‘qishi soatlarda ko‘rsatilgan.



O‘zbekistonda o‘tkazilgan so‘rovlarda qatnashgan respondentlarning 50% dan ortig‘i yiliga 3-5 ta kitob o‘qishini bildirgan[5].

Avvalo, shuni ta’kidlab o‘tish joizki, O‘zbekistonda oilaviy kitobxonlik an‘analarini saqlab qolish va uni yuksaltirish milliy ahamiyatga ega vazifa sifatida qaralmoqda. So‘nggi yillarda xalqimiz, ayniqsa, yoshlarning ma’naviy va intellektual salohiyatini rivojlantirishda hamda dunyoqarashini yuksaltirishda kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Bugungi kunda mahallalar soni **9442 tani** tashkil qilsa, shulardan **4 500 ga yaqin** mahalla binolarida kutubxonalar tashkil etilgan[4]. Bu ko‘rsatkich respublikamizning salkam 50% mahallalarida kutubxonalar mavjudligini anglatadi. Aytish joiz bo‘lsa, mahallalarni kitob bilan ta’minlashda bir necha tashkilotlar o‘z tashabbuskorliklarini ko‘rsatib shahar va tumandagi mahallalarda adabiyotlar taqdim etib kelmoqdalar. Xususan, “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan Toshkent shahri va O‘zbekistonning barcha viloyatlariga “Yangi O‘zbekiston mahallalariga yangi kitoblar tuhfa qilamiz” shiori ostida **9 turdagi** adabiyotlarni taqdim etdilar. Bu adabiyotlar aholining ijtimoiy hayot tarzi, yaxshilanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qambarova S.I. ham o‘zining tadqiqot ishida o‘quvchilarning mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida quyidagilarni sanab o‘tadi:

1. Oila (an‘ana, ibrat va namuna)
2. Ta’lim tarbiya muassasalari



3. Mahalla, keng jamoatchilik

4. Ommaviy axborot vositalari, internet imkoniyatlari[2,126].

Yurtimizda kitobxonlikni rivojlantirish bo‘yicha bir qator loyihalar mavjud bo‘lib, bu loyihalar yoshlarning kitobga bo‘lgan qiziqishini oshirishga va kitob mutolaa qilishga undaydi. Yoshlarda kitobxonlik ko‘nikmasini shakllantirishda mahalla, oila hamda ta’lim muassasasi hamkorlikda ish olib borsa, yoshlarni kitob mutolaasiga qiziqtirish samaradorligi bo‘yicha yuqori natijaga erishish mumkin. Quyida mahalla, maktab va ota-onalar hamkorligida tanlov loyihasini keltirilgan.

Ushbu tanlovning dastlabki bosqichida sinf jamoasining barcha o‘quvchilari ishtirok etishi mumkin. O‘quvchilarga hafta davomida eng yaxshi taassurot qoldirgan asarni tanlab tayyorlanishlari uchun vaqt ajratiladi. Tanlov tanlangan asar mazmuni va uni o‘quvchi tomonidan nutqiy ko‘nikmalarga tayangan holda mahorat bilan ijro etilganligiga qarab baholanadi. Bu bosqichda 3 nafar g‘olib hakamlar hay’ati tomonidan aniqlanadi.

2-bosqich sinflar kesimida o‘tkaziladi. O‘quvchilar o‘zlarining tengdosh sinf o‘rtoqlari bilan bellashadilar. Ikkinchi bosqich 2ta shartga asoslanadi.

1-shart. Asar mazmunini nutqiy ko‘nikmalarga tayangan holda mahorat bilan ijro etish.

2-shart. Konvert ichida o‘zaro bo‘g‘lanmagan 20 ta so‘z berilgan. Berilgan so‘zlardan ishtirokida voqelikka asoslangan hikoya tuzish va unga sarlavha qo‘yish. Hikoya g‘oyasi, mazmunining o‘zaro bog‘langanligi va imloviy savodxonlikdan kelib chiqib baholanadi. Mazkur shartni bajarishda 10 daqiqa vaqt ajratiladi.

Ikkinchi bosqichda 3 nafar g‘olib hakamlar hay’ati tomonidan aniqlanadi.

3-bosqichda maktab miqyosidagi 5-sinfdan 8-sinfgacha bo‘lgan o‘smir yoshdagi o‘quvchilar ishtirok etishadi. Bunda har bir sinfdan 1nafardan g‘olib aniqlanadi va ushbu g‘oliblar mahalla bosqichida ishtirok etishadi.

1-shart. Asar mazmunini nutqiy ko‘nikmalarga tayangan holda mahorat bilan ijro etish.

2-shart. Bahri bayt aytish. Bunda o‘zbek she’riyatidan foydalangan holda navbatma-navbat she’r aytib musobaqalashishadi.

Eng yuqori ball to‘plagan 3 nafar ishtirokchi keyingi bosqichda ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritadi.

4-bosqich mahalla bosqichi. Ushbu bosqich mahallalarda maktablararo o‘tkazilib, g‘olib ishtirokchi, uning oila a‘zolari hamda sinf rahbari ishtirok etadi. Mahalla bosqichi quyidagi shartlardan iborat:

1-shart. Tanishtiruv sharti. Tanishtiruv milliy urf-odatlarimizni o‘zida aks ettirgan holda she’riy, sahna ko‘rinishi yoki videorolik tarzida namoyish etilishi mumkin. Tanishtiruv uchun 3daqiqa vaqt ajratiladi.

2-shart. Ushbu shartda biror asardagi syujetga oid epizod o‘qib eshittiriladi. Ishtirokchilardan tashkil topgan jamoa (o‘qituvchi, o‘quvchi va ota-ona) shu asar mohiyatini ochib beruvchi rasm ishlab uni hakamlar hay’atiga taqdim etishadi.

3-shart. “Men sevgan asar” mavzusida oila a’zolari bilan eng yaxshi taassurot qoldirgan asar va uning syujetini sahna ko‘rinishi sifatida namoyish etishadi. Sahna ko‘rinishi uchun 5daqqa vaqt beriladi.

Ushbu tanlovni o‘tkazishda o‘quvchi birinchi navbatda eng yaxshi asarni tanlash uchun izlanadi, izlanish davomida oila a’zolari hamda o‘qituvchilardan maslahat olib, ota-onalar va maktab o‘qituvchilarining ham ishtiroki ta’minlanadi. Asarni ijro etishga tayyorlanish jarayonida nutq va so‘z boyligi, adabiyotga oshnoligi ortadi. Asar matnini tushunish jarayonida ravon va ifodali o‘qish malakalari, asar g‘oyasini tahlil qilish qobiliyati rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantish, ilm nuri hisoblanmish kitobga muhabbat, kitob mutolaasiga qiziqishini oshirishimiz bugungi kunning davr talabi hisoblanadi. Kitobxonlik orqali insonda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, yurtga sadoqat, bir-biriga nisbatan hurmat kabi insoniy fazilatlar shakllanadi. Insonning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortib, teran va aniq fikrga ega bo‘lgan mustaqil shaxs bo‘lib shakllanadi.

Tanlov va musobaqalarni tashkil etish esa o‘smir-yoshlarni oila a’zolari, do‘stlari va jamoa bilan muloqot qilish jarayonini yengillashtiradi. Kitob mutolaasiga qiziqishini oshirish orqali ularning mustaqil fikrlarini bayon etish, nutqiy ravonlik, ma’naviy dunyoqarash va tasavvur qilish qobiliyati rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda*gi “2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 781-sonli qarori (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.12.2020 y., 09/20/781/1619-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022 y., 09/22/153/0266-son).
2. *Qambarova S.A. Ped.f.f.d. diss.” Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish texnologiyasi. Samarqand: - 2019.196*
3. *В.Н.Горенинцева, А.Н.Губайдуллина, Т.Д.Подкладова. Семейное чтение как помогающая практика в условиях социальнокультурных трансформаций Томск: Издателский Дом ТГУ, 2019. - 208 с.*
4. <https://41.gov.uz/bv/news/view/2189/>
5. <https://yuz.uz/uz/news/eng-kop-va-eng-kam-kitob-oqiladigan-davlatlarni-bilasizmi>.

Atajanova Rabbina Raximovna,
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti

OILADA ESTETIK TARBIYANING MOHIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada estetik tarbiya, kishilarda san'at asarlari, badiiy ijod namunalari nafaqat faol o'zlashtirish balki, ularning estetik mohiyatini anglash va baholash qobiliyatini takomillashtirish kabi tushunchalar yoritib beriladi. Bundan tashqari maqolada san'atga nisbatan mehr va muhabbat, qadrlash va e'zozlash, go'zallikni ko'ra olish va his qilishni o'rganish, avloddan avlodga yetkazish haqida so'z boradi. Estetik tarbiya ham tarbiyaning asosiy qismi bo'lib, o'quvchining ahloqiga, hulq-atvoriga kuchli ta'sir qiladi va ota-onalarni ularni murg'aklikdan boshlab tarbiya qilishga chaqiradi.

Kalit so'zlar: Estetika, estetik qobiliyat, oila, ota-ona, farzandlar, pedagogika, oila pedagogikasi, oila tarbiyasi, oila an'analari, oila tarbiyasi.

Abstract. In this article, concepts such as aesthetic education, not only active assimilation of works of art, works of art in people, but also improvement of the ability to understand and evaluate their aesthetic essence, are highlighted. In addition, the article talks about kindness and love for art, appreciation and respect, learning to see and feel beauty, passing it on from generation to generation. Aesthetic education is also the main part of education, it has a strong influence on the student's morals and behavior and calls on parents to educate them from childhood.

Keywords: Aesthetics, aesthetic ability, family, parents, children, pedagogy, family pedagogy, family education, family traditions, family education.

Bolalarda haqiqiy go'zallikni his etish tuyg'usi tabiat bag'rida, muzey, ko'rgazma, kino va teatrlarda bo'lish tufayli shakllanadi. Tarbiya jarayoniga mas'ul insonlar ya'ni farzandning ota-onasi uning qanday musiqa tinglashi, qanday film yoki multfilmlarni tomosha qilishi, qanday o'yinchoq o'ynashlarida befarq, loqayd bo'lmasliklari lozim. Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, estetik savodxonlik va madaniyat, avvalo, oiladan boshlanadi. Estetik duyong qarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog'liqdir. Agar bu masala oilada to'g'ri yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, uni maktablarda, keyingi ta'lim bosqichlarida hamda mehnat jarayonlarida qaror toptirish qiyin bo'ladi. Umuman tarbiya jarayonining psixologik mohiyati to'g'risida professor V. Karimova shunday yozadi:

«Tarbiya» tushunchasining tub ma'nosiga e'tibor beradigan bo'lsak, bu - insonning o'zi va o'z xulqi haqidagi tasavvurining to'g'ri, xolis va ob'ektiv bo'lishiga olib keluvchi murakkab jarayondir». ⁷⁴Oilada tashkil etiladigan estetik tarbiya bolalarda go'zallikni his qilish, undan zavqlanish, tabiat go'zalliklaridan bahra olish asosida his-tuyg'u, idrok, tasavvur hamda qarashlarni yuzaga keltirish, ularni hayotni sevishga o'rgatishdek vazifalarning ijobiy hal etilishini nazarda tutadi.

⁷⁴ B. X. Xodjayev Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti, Toshkent-2017.

Estetik tarbiya – jamiyatda ma'naviy muhitni paydo qilishga ko'mak beruvchi muhim unsur bo'lib, u inson didini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda ana shu orqali insonni jamiyat munosabatlariga yaqinlashtiruvchi kuchdir. Hozirda estetik tarbiyaning ko'lami tobora kengaymoqda. Shunga ko'ra, u o'z oldiga talaygina muhim vazifalarni qo'ygan.⁷⁵ Bular:

- kishilarda san'at asarlari, badiiy ijod namunalari nafaqat faol o'zlashtirish balki, ularning estetik mohiyatini anglash va baholash qobiliyatini takomillashtirish;
- jamiyat a'zolarining ijodiy imkoniyatlarini namoyon qildirish va ulardan foydalana bilishga ishonch tuyg'usini uyg'otish;
- tabiat hamda jamiyat ijtimoiy jarayonlariga sof tuyg'u bilan munosabatda bo'lishga va ularni ravnaq toptirish yo'lida astoydil faoliyat olib borish ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'tmish ma'naviy merosimizga hurmat hissini uyg'otish, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish uchun zamin yaratish;
- ijodning barcha turlarini taraqqiy ettirib jahonga yuz tutish va ularni millat manfaatlari uchun naf keltiradigan tomonlarini targ'ib qilishga undashdir.

Estetik tarbiyaning asosiy vositalari tarkibiga - san'at, information texnologiyalar, tabiat, mehnat, sport kabi sohalarni kiritish mumkin.⁷⁶

San'at - estetik tarbiyaning muhim vositasi. Bugungi kunda jamiyatimizda inson faoliyatini boshqarib borishdan ko'ra, ushbu jarayonni insonning o'zi tashkil etishi kerakligi bot-bot uqtirilmoqda. Bu jarayonda san'at mohiyatan shaxsning his tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim vosita sifatida insonni doimo o'ziga jalb etib kelgan. San'at insonning ehtiroslar va tuyg'ular olamiga singib borib ularni yig'latadi, kuldiradi, o'ylashga majbur qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak san'at barcha davrlarda insonga hamroh bo'lib kelgan.⁷⁷

San'atning estetik tasavvurlarni shakllantirilishi to'g'risida gapirganimizda shuni aytish lozimki, u o'zida bir davrning o'zida mavjud va o'tmishdan qolgan an'analarni aks ettiruvchi va kelajak uchun etkazuvchi vosita vazifasini o'taydi. San'atni idrok etish orqali shaxsning, jamiyatning, estetik ongi tarkib topadi. U san'atni angelaydigan va undan estetik zavq oladigan bo'ladi estetik ong shaxsda estetik qadriyatlarni yaratishga undaydi.

San'atning shaxs kamolida, ayniqsa maktabgacha yoshidagi bolalarda olam haqidagi real tasavvurlarni shakllantirishdagi o'rni beqiyos chunki san'at tabiatdagi hodisa va jarayonlarni, ular orqali olam tasvirini, insonlar faoliyatini bilish imkonini beradi. San'at ma'rifiy xarakter kasb etadi.

Estetik tasavvurlarning o'ziga xosligi shundaki, idrokning boshqa turlariga qaraganda narsalarni xis qilish shakli –«ko'rinadigan» va «eshtiladigan» narsalar

⁷⁵ Rasulova M., Abdullayeva D., Oxunjonova S. Bolalarning maktabga psixologik tayyorligi. – Toshkent. – 2003.

⁷⁶ I.J. Xasanboyev va boshqalar, Pedagogika nazariyasi va tarixi, Toshkent – 2021.

⁷⁷ Tojiboyev Jahongir Umidjon o'g'li. (2023). “Oila – estetik tarbiyani amalga oshirishning asosiy bo'g'ini”. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar vailmiy tadqiqotlar jurnali.

butunlay boshqa mazmun kasb etadi. Oddiy idrok qilishda narsalarning ko‘rinishi, ohangdorligi unchalik muhim bo‘lmaydi, balki uning ahamiyati muhimdir. Estetik idrok qilishda esa eng muhimi - idrok qilinayotgan narsaning obrazi, uning ifodali tomonlarini, nozik ranglarni ko‘ra bilish talab qilinadi. Shuning uchun estetik tarbiya yuqori darajadagi sensor madaniyatni kuzatuvchanlikning rivojlangan bo‘lishini talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, bolalarni har tamonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalashda, bolalarni dunyoqarashini shakillantirishda va tasavvurlarini rivojlanirishda estetik tarbiyaning o‘rni beqiyosdir. Kelajakda farzandlarimiz bilimli, aqilli, yod g‘oyalardan yiroqda shu bilan birga madaniyatli bo‘lib rivojlanishida nafaqat ta’lim muasassalari balki oilaning ya’ni, ota-onaning bergan ta’lim tarbiyasiga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *B. X. Xodjayev Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti, Toshkent-2017.*
2. *I.J. Xasanboyev va boshqalar, Pedagogika nazariyasi va tarixi, Toshkent – 2021.*
3. *Rasulova M., Abdullayeva D., Oxunjonova S. Bolalarning maktabga psixologik tayyorligi. – Toshkent. – 2003.*
4. *Tojiboyev Jahongir Umidjon o‘g‘li. (2023). “Oila – estetik tarbiyani amalga oshirishning asosiy bo‘g‘ini”. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar vailmiy tadqiqotlar jurnali.*

Уразметова Қурбанбика Гулматовна,
ЎзДХА Урганч филиали
“Лазги” бўлими бош мутахассиси

ОИЛА – БАХТ ВА ҚУВОНЧ ҚЎРҒОНИ

Аннотация. Ушбу мақолада оилада фарзанд тарбиясида эътибор қилиниши лозим бўлган жиҳатлар, фарзанд тарбиясида оиладагиларнинг ўрни, келажак авлодни тарбиялашда уларни жисмонан соғлом, ақлли, етук, маънан бой қилиб вояга етказиши усуллари бадиий асарлар, ривоят ва афсоналар, ҳаётий мисоллар орқали ёритилган. Мақолада оилада фарзанд тарбиясидаги муаммолар ечими ва вазифалари, истиқболлари илмий, амалий жиҳатдан баён қилинган.

Калим сўзлар: Оила, жамият, тарбия, баркамол, маънавий, келажак, авлод, меҳнатсеварлик, меҳр, ҳурмат, оқибат.

Abstract. In this article, the aspects that should be taken into account in the upbringing of children in the family, the role of family members in the upbringing of children, the methods of bringing them up physically healthy, intelligent, mature, rich in meaning in the upbringing of the next generation are highlighted through works of art, narratives and legends, and life examples. In the article, the solutions and tasks and perspectives of the problems of raising children in the family are described scientifically and practically.

Keywords: Family, society, education, perfect, spiritual, future, generation, hard work, love, respect, consequence.

Инсоннинг ҳақиқий бахти ва қувончи оиласида топган бахти ва қувончидадир.

Қуйидаги сўзларнинг исботи сифатида бир ривоятни келтириб ўтмоқчиман. Қадимда бир киши донишманднинг олдига бориб, “Менга бахтнинг сири, калити нимада эканлигини айтсангиз” деб сўрабди. Шунда донишманд бир неча варақни олдига қўйиб ёза бошлади. Донишманд биринчи, иккинчи, учинчи ... ва ҳақозо қоғозларни тўлдириб нимадир ёзаверибди. Сабри тугаган ўша киши донишмандга “Бахтнинг сири ва калити шунчалик кўпми?” деб савол берибди. Шунда донишманд ўша кишининг сабрсизлигини синаб бош чайқаб қўлига ўша варақларни бериб чиқиб кетибди. Ўша киши варақларни ўқиб кўрса ҳаммасида “Сабр, сабр, сабр... сўзлари ёзилган экан. Шунинг учун оилада бахт топмокни, фарзандлар камолини кўришни истаган ҳар бир инсон ҳаётда сабрли ва шукурли бўлмоғи лозим. Бугунги кунда ҳукуматимиз оилаларнинг тинчлиги ва фаровонлиги учун жуда эътиборли бўлиб фарзандларимиз келажаги учун барча шарт-шароитларни яратиб бермоқда.

Халқаро Оила куни байрами БМТ бош Ассамблеяси томонидан 1993 йил 20 сентябрдаги “Халқаро оила йили тўғрисида”ги резолюциясига мувофиқ 1994 йил 15 майдан буён мунтазам нишонланиб келинмоқда.

Оилага куйидагича тарифлар берилган. Оила – муқаддас маскан. Оила – табиатнинг шоҳ асаридир. Оила – бу бахт фабрикаси. Оила – жамиятнинг ажралмас қисми. Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти И.Каримов “Оила – жамият негизи” деб таъриф берган. Оила меҳр-муҳаббат, вафо асосига қурилган олтин қўғондир.

Оила ҳар бир халқнинг миллатнинг давомийлигини сақлайдиган, миллий қадриятларнинг ривожини таъминлайдиган, янги авлодни дунёга келтириб, маънавий ва жисмоний баркамол қилиб тарбиялайдиган, жамиятнинг асосий негизи ҳисобланувчи муқаддас маскандир. Оила кичик бир жамият бўлиб, у катта бир жамиятнинг барпо бўлиши учун асосдир. Фарзанд эса оиланинг чексиз қувончи ва бахти ҳисобланади.

Фарзанднинг ақлий, ахлоқий, эстетик, экологик, жисмоний, маънавий, гигиеник, жинсий тарбиясида оила асосий омил ҳисобланади.

Ҳадису шарифларда “Ота-оналарнинг фарзандларига қолдирадиган энг катта мероси уларга берган тарбиясидир” деб ёзилган. Чунки фарзанд тарбияси бу мураккаб жараёни бўлиб, она ҳомиладор бўлгандан бошлаб она фарзандини соғлом дунёга келиши учун витаминга бой маҳсулотларни истеъмол қилиши, доимо яхши кайфиятда бўлиши, кўпроқ табиат қўйнида сайр қилиши, ёқимли мусиқалар тинглаши, яхши инсонлар билан гўзал суҳбат қуриши лозимдир.

Биз фарзанд тарбиясида бобо ва момоларимиз ўғитларига амал қилиб фарзанд тарбиясига ниҳоятда эҳтиёткорона ёндошишимиз керакдир.

Биз оилада фарзанд тарбиясини амалга оширишимизда буюк алломаларимизнинг тарбия ҳақидаги асарларини ўқиб маънавий озуқа олишимиз лозим.

Мен Фитратнинг “Оила” китобини ўқир эканман, куйидаги мисралар менинг қалбимни жунбушга келтирди.

“Халқнинг ҳаракат қилиши, давлатманд бўлиши, бахтли бўлиб иззат-ҳурмат топиши, жаҳонгир бўлиши, заиф бўлиб хорликка тушиши, фақирлик жомасини кийиб, бахтсизлик юкини тортиб эътибордан қолиши, ўзгаларга тобе, қул ва асир бўлиши болалиқдан ўз ота-оналаридан олган тарбиясига боғлиқ...”

Фитрат бобомиз таъкидлаганларидек, оилада фарзандни тўла қонли камол топтириш учун унга жисмоний, ақлий, маънавий тарбия бериш лозимдир.

Агар фарзанд тарбиясида ана шу учликдан биттаси камроқ тўла қонли бўлмаса фарзандимизнинг таълим ва тарбиясидаги узвийлик сезилиб қолиши табиийдир.

Бундан ташқари Фитрат боланинг бадан тарбияси ҳақида керакли маълумотларни ёзган.

Бола оламга келган заҳотиёқ киндик кесилади. Ундан кейин бола тоза тоғорада қайнаган иссиқ сувда майин совун билан ювилади. Бола чўмилиб бўлгач жуда ҳам майин, патли сочиқ билан баданини артадилар. Болани қайнамаган сувда чўмилтириш мумкин эмас. Чунки қайнамаган сувда чўмилтириш мумкин эмас.

чунки қайнамаган сув тоза эмас. Қуйидаги тавсияларни ўқир эканмиз, бу ҳолатлар бугунги тиббиётимиздаги соғлом турмуш тарзининг асосий омилларидан бири шахсий гигиена масалаларига тўғри келишини англаймиз. Бу болани жисмоний тарбиясининг бошланиши ҳисобланади.

Фитратнинг “Оила” асари унинг оила тўғрисидаги ўз билимларини Шарк ва Ғарб олимларининг кўпроқ илмий тадқиқотлари билан танишиб чиқиш жараёнида мустаҳкамлаб ёзилган асардир.

Фитрат бола тарбиясида меҳнатсеварлик ва билим олиш тарбиясига алоҳида эътибор беради. Фарзандларнинг келажакда қандай шахс бўлиб етишишлари, уларга оналари нима бера олганликларига боғлиқ бўлади. Фитратнинг бу нуқтаи назари бугунги кунда ҳам жуда ўринлидир. Чунки оилада она меҳрибон, илмли, меҳнатсевар, мулойим, сабрли, шукурли бўлса бундай она тарбиялаган фарзанд оқил, дона, илмли бўлиб вояга етиши шубҳасиз.

Бугунги кунда мамлакатимизда қизларни, оналаримизни ўқиб илм олишлари учун барча шарт-шароитлар муҳайё қилинган. Қизларимизни фарзандли аёлларимизни магистратура босқичида илм олишлари учун иқтисодий, маънавий жиҳатдан ҳам яқиндан кўмак бериб келинмоқда. Шунинг учун ҳам Ўзбекистонда зиёли олима аёллар сони йилдан-йилга ошиб бормоқда. Буларнинг туб замирида ўқимишли оналар тарбиялаган фарзандлар келгусида жамият таянчи бўлишига ишончимиз комил бўлади деган эзгу ният бор. Чунки, оилада она илм билан шуғулланса фарзандига яхши тарбия беради. Фарзанд тарбиясида ҳеч қандай бўшлиқ пайдо бўлмайди. Бу ҳолат бола тарбиясида муаммолар келиб чиқишига йўл қўймайди. Ҳар оининг 17 санасида кутубхоналарда ўтказиладиган “Китобхон оналар” лойиҳаси остида ўтказиладиган тадбир ҳам оналаримизни, фарзандларимизни китобга ошна қилишга қўйилган давомли эзгу ишлардан биридир. Чунки китобни севган инсондан ёмонлик чиқмайди. Халқимизда “Қуш уясида кўрганини қилади” деган нақл бор.

Оилада фарзанднинг таълим олишига катта эътибор қаратилиши, келгусида фарзандлар учун ва жамият учун ҳам кони фойда. Замонамиз шиддат билан ривожланаётган бир даврда ўзбек оилаларидан етишиб чиққан фарзандларимиз дунёнинг нуфузли мамлакатлари ҳисобланган Япония, Карея, Америка ва Европанинг олий таълим муасасаларида таълим олмақдалар. Ўзбекистонлик ёшлар жаҳон фан олимпиадаларида доимо олтин, кумуш, бронза медалларни қўлга киритиб келмақдалар. Бундай муваффақиятларни қўлга киритилишида албатта ота-оналарнинг фарзандларини таълим ва тарбиясига қаратилган эътибори десак янглишмаймиз.

Жорий ўқув йилида фан олимпиадаларидаги ғолиблик учун 2 млрд 686 миллион сўм пул мукофоти берилди. 2023 йилги ўқув йилида халқаро олимпиадаларда 2 та олтин, 1 та кумуш, 10 та бронза, жами 13 та медал қўлга киритилган.

Фарзанд тарбиясида албатта халқ оғзаки ижодининг ўрни ниҳоятда каттадир. Агар алла ҳақида сўз кетса алла оналарнинг қалб тўридан меҳр ришталари билан оҳангларга йўғрилган илоҳий қўшиқдир. Алла эшитиб вояга етган бола вужудига яхшилик, меҳр-оқибат туйғулари сингани учун ҳам у ота онага меҳрли, ватанга, яқинларига садоқатли бўлиб камол топади. Бугунги техника ривожланган бир даврда ёш оналаримиз фарзандларига телефон орқали алла эшиттирадилар. Бу ҳолат бизнинг қадриятларимизга умуман тўғри келмайди. Фарзандингизни бағрингизга босиб сочларини силаб алла айтсангиз фарзандингиз ором топади, бу ҳол албатта, фарзандларимиз тарбиясига ижобий таъсир кўрсатади. Фарзандларимизга эртақлар айтиб берамизми? Ёш оналар фарзандларига нега алла айтмаяпти? Бу сўзлар кимларгадир оддий сўздай туюлиши турган гап. Лекин ёш оналар ўртасида ҳар йили “Алла” кўрик-танловлари ўтказилса, “Ёш оналар” мактаби амалда иш фаолиятини олиб борса нур устига аъло нур бўлар эди.

Фарзандларимизни оиладаги таълим тарбиясини ҳаётимизнинг асосий мақсади деб қарамоғимиз керак. Чунки, мактабларимизда камида ҳар бир синфда 25-30 ўқувчи ўқийди. Албатта ҳар бир ўқувчи билан шуғулланишига ўқитувчининг вақти етмайди. Шунинг учун болаларимизнинг оиладаги таълимига ниҳоятда эътибор бериб дарсларини тайёрлашга ёрдам бермоғимиз, уларни бўш пайтини ўзи қизиққан соҳалар бўйича тўғарак машғулотларига қатнашишларига шароит яратмоғимиз лозимдир.

Фарзандларимизни комил инсон қилиб тарбиялашда маҳалланинг ўрни беқиёсдир. Чунки, халқимизда “Битта болага етти маҳалла ҳам ота, ҳам она” деган ибратли сўзлар бор. Таълим-тарбия жараёни сифатини яхшилашда мактаб, оила, маҳалла ҳамкорлиги яхши йўлга қўйилган. Агарда оилада ана шу учлик занжир мустаҳкам бўлса жамиятимизда фарзандларимиз ўртасида нохуш ҳолатлар рўй бермайди. Фарзандларимиз тарбиясидаги яна битта муаммолардан бири уларни уяли алоқа воситалари билан вақтларини беҳуда ўтказишлари ва дарс жараёнларига беетибор бўлиб бораётганлигидир. Юртбошимиз Шавкат Мирзиёев ўз нутқларида бу ҳақда қуёниб гапиришларидан барча ота-оналар тўғри хулоса чиқариб фарзандларининг қимматли вақтларини беҳудага сарфлашларига йўл қўймай уларни дарсларини мунтазам текшириб боришлари ўринли бўлар эди.

Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти И.А.Каримов ўз нутқида “Боланинг бегонаси бўлмайди” – деб тўғри таъкидлаганлар.

Оилада бола тарбиясида баъзан муаммолар ҳам рўй бериб туради. Айниқса, болаларнинг балоғат ёши ўтиш даврида улар руҳиятида ва организмда ўзгаришлар рўй бериб баъзан улар асабий, ўжар бўлиб қолади. Ана шу даврдан чиқишларида ота-оналар, мактаб психологлари ва синф раҳбарлари ўғил ва қизларимиз билан ниҳоятда хушмуомулада мулоқот қилишлари зарур деб ўйлаймиз.

Бугунги кунда фарзандларимиз тарбиясидаги муаммоларнинг асл сабабларидан бири оилавий ажримлардир. Ота бошқа аёлга уйланади, она бошқасига турмушга чиқиб кетади. Лекин айбсиз жафо чекувчилар кўнглини дунё бойлиги билан тўлдириб бўлмайдиган фарзандлар тақдири ҳақида қайғуриш кимнинг зиммасига тушади? Шунинг учун ҳар иккала тарафнинг ота-онаси, маҳалла фаоллари, яқин қариндошлар оилавий ажримларни олдини олишимиз савоб ишлардан бири саналса керак. Ҳадису шарифларда ҳам “Битта никоҳ бузилса арши аъло титраб кетади” дейилиши бежизга эмас.

Халқимизда “Аёл – оила чароғбони” деган чиройли ибора бор. Чунки фарзанд тарбиясида она оилада асосий вазифани бажарувчи шахсдир. Мана шу сўзларни исботи сифатида битта мисолни келтириб ўтмоқчиман. Электр лампа ихтирочиси Эдиссон ёшлигида жуда шўх, масъулиятсиз бола бўлган экан. Бир куни мактаб директори Эдиссонга хат бериб “Бу хатни онанга бериб кўй” деб таъкидлабди. Эдиссон хатни онасига берибди ва “Онажон, хатда нима ёзилган экан? деб сўраса онаси “Ўғлингиз жуда иқтидорли бола, у келгусида дунё танийдиган инсон бўлиб етишади” деган экан. Орадан йиллар ўтиб Эдиссон электр лампани кашф этиб, уни дунё таниди. Бир куни Эдиссон эски китобларни варақлаётганида мактаб директорининг унинг онасига бериб юборган хатни ўқиб кўради. Хатда “Сизнинг ўғлингиз бу мактабда ўқишга мутлақо лойиқ эмас, иложи бўлса уни бошқа мактабга ўтказинг” деб ёзилган эди. Шунда Эдиссон “Эй, онажоним мени дунёга танитган сизнинг меҳрингиз, яхши тарбиянгиз ва ишончингиз эди” деб хатни кўзларига суртиб йиғлаган экан. Бундай сабрли, меҳрли зотларга фақат, фақат таъзим қилиб уларни эъзозламоғимиз керак.

Оилада болани тўғри тарбиялаш – мустаҳкам пойдеворли жамият барпо этилишнинг гарови. Оила аҳиллиги, баркамол фарзандлар жамият мустаҳкамлиги ва маънавият етуклигининг гаровидир.

Хулоса ўрнида шуни айтишни лозим деб ўйлайманки, Оллоҳ берган бебаҳо неъматимиз фарзандларимиз доимо соғлом, оқил, ахлоқли, илм-зиёли, меҳнатсевар, ҳалол бўлиб камолга етсинлар. Оилаларимизнинг тинч-тобувлиги, фаровонлиги албатта жамиятимиз учун ниҳоятда зарурдир. Қаердаки, оилаларимиз тўкин-сочин, иноқ бўлиб яшар эканлар, ўша ерда қут-барака, файз аримайди. Зеро, ахилликда, ҳалолликда гап кўп дейди халқимиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. *Миллий истиқлол гоҳиси ва маънавият асослари 9 с. Дарслик*
2. *Абдурауф фитрат “Оила” Тошкент “Маънавият” 2000*
3. *Ф. Акромованинг оила психологияси бўйича ёзган қўлланмалари.*
4. *Аҳмад Лутфий Қозончи “Қайнона” романи.*
5. *Кайковус. Қобуснома. Тошкент “Ўқитувчи”, 1986, 57-61 бетлар.*
6. *Ризоуддин Ибн Фахриддин “Насиҳат”. Тошкент, “Чўлпон” 1993 йил.*

Axrorova Sevara Suloymon qizi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Informatika va raqamli ta’lim texnologiyalari
kafedrasi stajyor o’qituvchisi

OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASHNING DOLZARB MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqola, zamonaviy O‘zbekistonda gender modernizatsiyasi mavzusiga bag‘ishlangan. Unda, oila institutining ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlari, shuningdek, mamlakatning madaniy hayoti bilan ham bog‘liq ta’lim sohasiga e’tibor qaratilgan. Muallifning fikriga ko‘ra, O‘zbekistonda gender modernizatsiyasining biri nikohning tomonlar tengligi asosida qurilishiga oiddir. Bu joyda, g‘arbiy feminizmning odatiy oila instituti bo‘yicha ta’siri ham e’tiborga olinishi lozim. Nikohdan oldin qizlarning shaxsiy fikrini eshitish, oilada iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, oila institutini ma’naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflarda bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: gender tadqiqotlari, feminizm, modernizatsiya, oila, O‘zbekiston.

Abstract. This article is about gender modernization in modern Uzbekistan. devoted. It contains socio-economic changes in the institution of family, as well as attention is paid to the field of education, which is also connected with the cultural life of the country. According to the author, one of the gender modernizations in Uzbekistan is marriage. associated with construction on the basis of equality of parties. This is typical of Western feminism. The impact on the family institution should also be taken into account. Girls before marriage listen to personal opinion, ensure economic stability in the family, the institution of family there were practical proposals for spiritual and moral development.

Keywords: gender studies, feminism, modernization, family, Uzbekistan.

KIRISH. Iqtisodiy noqulaylik ijtimoiy og‘ishlarning paydo bo‘lishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Birinchidan, ayollar o‘rtasida ishsizlik darajasi yuqoriligi sababli ko‘p muammolarga olib kelishi mumkin. Ayol o‘ziga va farzandlarining kelajagiga ishonadigan mustahkam oilani yaratish yo‘lidagi asosiy to‘siqlardan biri bu yuqori ishsizlik bilan bog‘liq moliyaviy ishonchsizlikdir. Bu muammo allaqachon davlat idoralarining diqqat markazida bo‘lib, asosan to‘qimachilik korxonalarini tashkil etish orqali bosqichma-bosqich hal etilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Gender modernizatsiyasining dastlabki bosqichida kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ushbu strategiya ayollarning ishsizlik darajasini pasaytirishda samarali bo‘lmoqda. Shuningdek, ayollarga faoliyat turini o‘zgartirishga va shunga mos ravishda daromadlarini oshirishga yordam beradigan bepul davlat o‘quv kurslarini tashkil etish muhimdir. Shu bilan birga, erkaklar va ayollar o‘rtasida bir xil ish uchun teng haq to‘lash bo‘yicha mehnat qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish.

Biroq, mening fikrimcha, ajralishlar va oila institutining buzilishining asosiy sabablaridan biri bu oilada bir birini tushunmaslikdir. Shuningdek yana migratsiya muammosini hal qilish hozirda ko‘p sabablarga ko‘ra qiyin va shuni hisobga olish

kerakki, bu yerda davlat manfaatlari va oilalar farovonligi o'rtasida paydo bo'ladi. Ayollar va erkaklar uchun qulay iqtisodiy sharoitlar yaratish mehnat migratsiyasiga bo'lgan ehtiyojni bartaraf etishga va oila institutini buzilishdan himoya qilishga yordam beradi.

Oila hayotimizning eng asosiy birliklari bo'lib, insonlar uchun birga tashkil etilgan jamiyatning asosiy qismi hisoblanadi. Oilalarning o'zaro munosabatlari, ta'lim-tarbiyasi, mehnat faoliyati, ijtimoiy qatnashchiligi, vaqt o'tkazish shakllari jamiyatning taraqqiyotida katta ahamiyatga ega. Bularning barchasi o'zaro bog'liq va farqli asoslar asosida shakllanadi.

O'z oilasining taqdirini shakllantirish odamning o'zini yanada kuchli qiladi. Bu, insonning shaxsiy rivojlanishi, mehnat faoliyati yoki yutuqlari, ijtimoiy qatnashchiligi, vaqt o'tkazish shakllari bilan bog'liqdir. Agar oilada tartib-intizom bo'lsa, uning a'zolari shu xislatlarini xizmat jarayoniga ko'chiradi va ijtimoiy mehnat faoliyatlarida qo'llaydilar. Bu esa, ularning o'z xizmat vazifalarini yuksak darajada bajarishlariga sabab bo'ladi.

Oila, odobli, xushmuomlalik, mehnatsevarlik asosida qurilgan bo'lishi, insonlar o'rtasidagi munosabat va muloqotlarda o'ta muhim va shaxsning fe'l-atvori, yurish-turishida alohida ahamiyat kasb etadi. Agar oila o'z farzandini Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalasa, bu his-tuyg'u unga butun hayoti davomida hamroh bo'ladi.

A.Fitratning “Oila” asarida farzand tarbiyasida aqliy, badan, va axloqiy tarbiyaning o'rnini muhimlik bilan ta'kidlanadi. Aqliy tarbiya bilan birga, insonning fikr-mulohazalarni rivojlantirishi, nazariy bilimlarga ega bo'lishi kutiladi. Badan tarbiyasi, uning jismoniy sog'lomligi va quvvati uchun muhimdir. Axloqiy tarbiya esa odamni axloqiy bozorda mavjud bo'lgan g'oyalar, xilma-xil holatlarga bo'ysunishda yordam beradi.

Axloqiy tarbiya – odam axloqini kamolga yetkazish demakdir, ya'ni odamni shunday tarbiya qilish kerakki, fe'li va amali o'ziga ham, boshqalarga ham foydali va manfaat keltiradigan bo'lsin. Boshqacha aytganda, odamning fe'li va harakatida yaxshi fazilatlarni tarbiyalash demakdir.

A.Fitratning ma'naviy-axloqiy fazilatlar haqida ko'rsatgichlari odamlarni kashfiyotga boshlashda muhim ahamiyatga ega. Shijoat, halimlik, sadoqat, sabotlilik, va ulug' maqsadga yetishish fazilatlarini insoniylikning sharafini bildiradi va insonni yaxshi yo'nalishga olib keladi.

Jamiyatning ma'naviy-axloqiy muhiti esa oilalarning birinchi maktabi bo'lib, insonlarga ulug' niyatli bo'lishni, yaxshilik qilishni, va jamiyatga foyda ko'rsatishni o'rgatadi. Bu muhit oilalarning o'zaro munosabatlarini, farzandlarni tarbiyalashni, va ijtimoiy faoliyatlarida qatnashishini ta'minlaydi.

Xotin-qizlarni oliy ma'lumot olishda qo'llab-quvvatlash uchun universitetlarda bepul kvotalar siyosatini amalga oshirish va ayollar uchun ta'lim dasturlari mavjudligini ta'minlash zarur. Ommaviy axborot vositalarida ta'limning ahamiyatini targ'ib etish

ham oliy ma’lumotga intilayotgan xotin-qizlarning ko‘payishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, ushbu chora-tadbirlar O‘zbekistonda har bir oila a’zosi o‘z salohiyatini rivojlantirish va ro‘yobga chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lgan yanada teng huquqli va xabardor jamiyatni yaratishga yordam beradi.

XULOSA. Oila institutini modernizatsiya qilishga oilalarning iqtisodiy farovonligini oshirish orqali erishish mumkin, degan fikringizni qo‘llab-quvvatlayman. Ayollar o‘zini va farzandlarini ta’minlay olsa, bu yanada barqaror va sog‘lom oilaviy munosabatlarni yaratadi.

Bu jarayonda xotin-qizlarning o‘z-o‘zini anglashi va moliyaviy mustaqilligi uchun qo‘shimcha resurslar bilan ta’minlangan oliy ta’lim muhim o‘rin tutadi. Sog‘lom oilaviy qadriyatlarni targ‘ib qilish va oiladagi zo‘ravonlikka qarshi kurashish maqsadida ommaviy axborot vositalari va reklama kampaniyalaridan foydalanish oila farovonligi uchun qo‘llab-quvvatlovchi va tarbiyalovchi muhitni yaratishda muhim qadamdir.

Bunday chora-tadbirlar iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish, bandlikka ko‘maklashish, ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishni ta’minlashga qaratilgan oilalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ijtimoiy dasturlar bilan birga olib borilishi kerak. Qolaversa, oilaning ahamiyati, uning sog‘lom jamiyat barpo etishdagi o‘rni haqida jamoatchilik muhokamasi va keng tushuntirish ishlari ham katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *Брайсон В. Политическая теория феминизма / пер. с англ. О. Липовской, Т. Липовской. – М.: Идея-пресс, 2001. – 304 с.*
2. *Вульф Н. Миф о красоте. Стереотипы против женщин / пер. с англ. А. Графовой, Т. Графовой. – М.: Альпина нон-фикшн, 2021. – 576 с.*
3. *Каримова Д.М. Гендерное равноправие в семье: стереотипы и факты // Общество, гендер и семья в Центральной Азии. №3. 2020. – С. 53–65.*
4. *Сафарова Н.Н. Оценка влияния социально-экономических факторов на уровень разводов в Узбекистане // Общество, гендер и семья в Центральной Азии. №2, 2020. – С. 23–35.*
5. *Ташмухамедова Д., Каримова Д., Мавлонов Б. Современная семья в Узбекистане (по результатам социологических исследований). – Ташкент: Yurist-media markazi, 2019. – 127 с*

Qoryog‘diyev Sherzod Shuxrat o‘g‘li,
*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti magistranti*

OILADAGI FARZANDLARNING EHTIYOJLARI TIZIMIDA KASBIY YO‘NALGANLIK SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. *Oila - nafaqat bir yurt, balki umuminsoniyat miqyosidagi katta ijtimoiy institutdir. Shuning uchun ham dunyoda turli xil xalq, turli xil millat, turli xil mamlakat bo‘lsa, ular yaratgan adabiyotlar ichida oila, oilaviy munosabatlar, oilaning jamiyatdagi tutgan o‘rnini alohida ta’kidlash lozim. Oilaning barqaror va baxtli hayoti - shu mamlakatning yuzi, obro‘si hisoblanadi. Oilada ota-ona farzandlari kelajagi uchun qayg‘urishi, tug‘ilgandan jismonan sog‘lom va ruhan tetikligini ta’minlashi bolaning o‘z me’yorida o‘shishiga zamin yaratadi.*

Kalit so‘zlar: *oila, kasbiy yo‘nalganlik, ehtiyoj, motivatsiya, shaxs, ta’lim, tarbiya, ijtimoiy muhit.*

Abstract. *The family is not only a country, but a large social institution of the whole humanity. Therefore, if there are different peoples, different nationalities, different countries in the world, it is necessary to highlight the family, family relations, and the role of the family in the society in the literature created by them. Stable and happy family life is the face and reputation of this country. In the family, parents care for their children’s future, ensure that they are physically healthy and mentally fresh from birth, which creates the ground for the child’s normal growth.*

Keywords: *family, professional orientation, need, motivation, personality, education, upbringing, social environment.*

Kirish. *Yoshlarning kasb tanlashi va o‘z kuchini qo‘llash joyi obyektiv sharoitlar va subyektiv omillarning butun tizimi ta’siri ostida shakllanadi. Bugungi kun yoshlarining ijtimoiy-kasbiy yo‘nalishini belgilovchi omillarning umumiyliги ichida oila eng katta qiziqish uyg‘otadi. Bu qiziqish, birinchi navbatda, uning ta’sir obyektiga yaqinligi, u bilan ikki faol komponent o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi maxsus «oila-yosh» tizimida uzviy bog‘liqligi bilan bog‘liq. Bu erda oila ham rivojlanishga qaratilgan faoliyat subyektı sifatida, ham yoshlarning ijtimoiy va kasbiy yo‘nalishi va sharti sifatida shaxsning muhim kuchlarini shakllantirish muhiti bo‘lib ishlaydi. Garchi oilaning yoshlarning hayot rejalarini shakllantirishga ta’siri noaniq va qarama-qarshi bo‘lsa-da, ba’zida kasblarga, mehnatga salbiy munosabatni ochib bersa ham, oila omili chuqur va har tomonlama tadqiqotni talab qiladi.*

Metodlar. *Ta’limni optimallashtirish uchun innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish dolzarb bo‘lib qoladi. Innovatsiyaning asosiy ko‘rsatkichi maktab yoki universitet rivojlanishining o‘rnatilgan an’analar va ommaviy amaliyotga nisbatan progressiv boshlanishidir. Shuning uchun ta’lim tizimidagi innovatsiyalar maqsadlar, mazmun, uslub va texnologiyalar, ta’limni tashkil etish shakllari va boshqaruv tizimi, pedagogik faoliyat uslubi, ta’lim va kognitiv jarayonni tashkil etish, ta’lim darajasini monitoring qilish va baholash tizimi, moliyalashtirish tizimi, o‘quv-uslubiy ta’minot,*

tarbiyaviy ishlar tizimi, o‘quv rejasi va o‘quv dasturlari, o‘qituvchilar va talabalar faoliyatidagi o‘zgarishlar bevosita bilan bog‘liq [1].

Yo‘nalganlik nafaqat shaxs tuzilishining tarkibiy qismlariga (masalan, temperamentning namoyon bo‘lishiga yoki qobiliyatlarning rivojlanishiga), balki intellektual holatlarga (masalan, stressni yengish) ham ta’sir ko‘rsatadi. Yo‘nalganlik turli ko‘rinishlarda - qadriyat yo‘nalishlari, yoqtirish yoki yoqtirmaslik, didlar, moyilliklar, bog‘lanishlar bilan ifodalanadi va inson hayotining turli sohalarida: kasbiy, oilaviy, siyosiy va hokazolarda namoyon bo‘ladi. Aynan shu yo‘nalishda inson nomidan harakat qiladigan maqsadlar, uning motivlari, voqelikning turli tomonlariga subyektiv munosabatlari, ya’ni xususiyatlarning butun tizimi ifodalanadi. Umuman olganda, psixologiyada shaxsning yo‘nalishi barqaror ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar tizimi sifatida belgilanadi. Yo‘nalganlik xatti-harakatlarning asosiy tendensiyalarini belgilaydi. Aniq ijobiy yo‘nalishga ega bo‘lgan shaxs mehnatsevar, maqsadli va yuqori ijtimoiy faol hisoblanadi [2].

Natijalar. Shaxsni talqin qilishdagi farqlarga qaramay, barcha yondashuvlar uning yo‘nalganligini yetakchi xususiyat sifatida ta’kidlaydi. Turli xil tushunchalarda bu xususiyat turli yo‘llar bilan namoyon bo‘ladi: “dinamik tendensiya” (S.L.Rubinshteyn), “ma’no yaratuvchi motiv” (A.N.Leontev), “hukmron munosabat” (V.N.Myasishev), “asosiy hayot yo‘nalishi” (B.G.Ananyev), “inson muhim kuchlarining dinamik birlashmasi” (A.S.Prangishvili). Shunday qilib, yo‘nalganlik shaxsning umumiy xususiyati bo‘lib, uning psixologik tuzilishini belgilaydi. Shaxs faoliyatini boshqaradigan va berilgan vaziyatlardan nisbatan mustaqil bo‘lgan barqaror motivlar majmui shaxsning yo‘nalganligi deb ataladi. U doimo ijtimoiy jihatdan shartlanadi va ta’lim orqali shakllanadi [3].

Muhokama. Zamonaviy fanda “shaxs yo‘nalganligi” mavzusiga bo‘lgan katta qiziqish, mazkur muammoning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog‘liq. Shaxs yo‘nalganligi sohasi shaxsning barcha namoyon bo‘lishining universal asosi bo‘lgan va insonning butun hayoti va faoliyatini yo‘naltiruvchi yetakchi shaxsiy tuzilma sifatida qaraladi. Shaxs yo‘nalganligining xususiyatlari orqali uning barcha xossalari va fazilatlarini sinadi, ularni “sof ko‘rinishida”, ya’ni ularning orientatsiya ta’sirida o‘zgarishini hisobga olmasdan o‘rganish yoki o‘lchash deyarli mumkin emas. Shuning uchun shaxs orientatsiyasi va uning alohida komponentlarini o‘rganish ham amaliy, ham nazariy jihatdan psixologiyaning dolzarb muammosidir.

Birinchi marta “shaxs yo‘nalganligi” tushunchasi ilmiy foydalanishga S.L.Rubinshteyn tomonidan insonning asosiy qiziqishlari, ehtiyojlari, moyilliklari va intilishlarining Xarakteristikasi sifatida kiritilgan [4]. Uning ta’kidlashicha, “yo‘nalganlik muammosi, birinchi navbatda, motiv sifatida inson faoliyatini belgilaydigan, o‘z navbatida, uning maqsad va vazifalari bilan belgilanadigan dinamik tendensiyalar masalasidir”.

A.N.Leontev shaxsning yo‘nalganligini “ma’no yaratuvchi motiv” orqali ochib beradi [5] Yo‘nalganlik shaxsiy xususiyat sifatida B.G.Ananyev tomonidan ko‘rib

chiqiladi. Uning fikriga ko'ra, “shaxsning ma'lum qadriyatlarga e'tibor qaratilishi uning qadriyatlar to'plami yoki shaxsning jamiyatga, mehnatga va o'ziga ongli munosabatlar tizimi sifatida xizmat qiladigan qiymat yo'nalishlarini tashkil qiladi” [7]. Qadriyat yo'nalishlari shaxsning muayyan me'yor va qadriyatlarga yo'naltirilganligini ifodalaydi. Bu fokus kognitiv, hissiy va xulq-atvor komponentlari bilan tavsiflanadi.

B.M.Teplov asarlarida shaxsning yo'nalganligi shaxs psixologiyasining muhim xususiyati sifatida qaraladi, bu shaxsning muayyan faoliyatga moyilligida namoyon bo'ladi [6]. Xorijiy tadqiqotlarda “yo'nalganlik” tushunchasining mazmuni tadqiqotchining ma'lum bir psixologik maktabga mansubligiga qarab izohlanadi. Shunday qilib, Z.Freydning psixodinamik konsepsiyasida yo'nalganlikni dinamik tendensiyalar orqali ongsiz harakatlar sifatida aniqlash mumkin, uning yo'nalishi boshidanoq inson tanasiga xosdir. K.Yungning analitik an'anasida shaxs yo'nalganligi introversiya-ekstroversiya tushunchalari bilan bog'liq. Alfred Adlarning individual psixologiyasida yo'nalganlikni “hayot maqsadlari” tushunchasi yordamida erta bolalikdan boshlanadigan maqsad sozlamalarini aniqlash mumkin. Shu bilan birga, hayotiy maqsadlar har doim ham ongli bo'lmaydi, lekin ular inson faoliyati uchun yo'nalish va maqsadlarni rag'batlantiradi va ta'minlaydi. A.Maslou, K.Rojers va boshqalar tomonidan taqdim etilgan gumanistik psixologiyada shaxsning yo'nalganligi “o'z-o'zini namoyon qilish” toifasi bilan bog'liq. Shaxsning yo'nalganligi o'zini o'zi anglash istagi sifatida qaraladi.

Oila ijtimoiy faoliyat omili sifatida, tarixning obyektiv kursiga ko'ra, global ijtimoiy tizimga bog'liq munosabatlarga joylashtirilgan. Oila dastlab yagona ijtimoiy munosabatlar bo'lib, keyinchalik ortgan ehtiyojlar yangi ijtimoiy munosabatlarni keltirib chiqarganda va ko'paygan aholi - yangi ehtiyojlar bo'ysunuvchi munosabatlarga aylanadi. Demak, mavjudlik ijtimoiy organizmga mustahkam o'rnatilgan oila o'z harakatlari va ehtiyojlarini jamiyatning harakatlari va ehtiyojlari bilan ijtimoiy manfaatlar va ehtiyojlar bilan kasbiy yo'nalganlikni muvofiqlashtiradi.

Xulosa. Ota-onalar farzandlaridagi qiziqishlarini ertaroq aniqlashlari va shu qiziqishlari bo'yicha amaliy yordam berishlari zarur. Masalan, qiziqishlarga ega bo'lgan farzandlarda o'ziga ko'proq yoqqan sohani, to'garakni tanlashga yordam berish. Shuningdek, ota-onalar farzandlari tanlagan kasbi haqida yetarlicha kasbiy ma'lumotlarni ham berib borishlari zarurdir. Bugungi kunda kasb tanlash masalalarining to'la va oqilona hal qilinishi ota- onalarning maktab bilan hamkorligi qay darajada ekanligiga ham bog'liqdir. Ota- onalar maktab bilan mustahkam aloqa bog'lasalar, o'z bolalari qalbida biron- bir kasbga qiziqish uyg'otib, uni maktabdagi kasb tanlashi bilan bog'lay olsalar, uni ta'lim jarayoni, darsda fan asoslarini chuqur o'rganish, amaliy mashg'ulotlarni muvaffaqiyatli tashkil qilish va o'tkazish bilan uyg'unlashtira olsalar maqsadga muvofiq bo'lar edi. Maktab ota- onalar bilan birgalikda xalq xo'jaligida namunali mehnat qilib, hurmat orttirgan va mehnatdan baxt topgan qariyalar bilan o'quvchilarning uchrashuvini uyushtirib tursalar, o'quvchilarning o'zlari qiziqqan kasbga mehri yanada ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Рубинштейн С.Л. *Основы общей психологии*. СПб. : Питер, 1999. 125 с
2. Ильин Е.П. *Мотивация и мотивы*. СПб. : Питер. 2003. 509 с.
3. Никиреев Е.М. *Психологические особенности направленности личности*. М.: Московский психолого-социальный институт. 2007. 72 с.
4. Фетискин Н. П., Козлов В. В., Мануйлов Г. М. *Социально-психологическая диагностика развития личности и малых групп*. М. : Изд-во Института Психотерапии, 2002. 38 с.
5. Узнадзе Д.Н. *Общая психология*. М.: Смысл, 2004. 412 с.
6. Нагорнов И.В. *Особенности профессиональной направленности учителя Ярославских школ*.
7. Чиркова Г.П. *Педагогическое призвание и профессиональная пригодность к работе учителем студентов национального педфакультета // Педагогические науки*. 2006. № 3. С. 143-145.

Муртазин Эмиль Рустамович,

Ассистент Джизакский политехнический институт

Касимов Анвар Мусурманович,

Студент Джизакского политехнического института

АДАПТАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ МЕТОДИК ДЛЯ ДОМАШНЕГО ОБУЧЕНИЯ: ОПЫТ УСПЕШНЫХ СЕМЕЙ

Аннотация: Данная статья рассматривает опыт успешных семей в адаптации образовательных методик для домашнего обучения. Принципы индивидуального подхода, гибкости, использования технологий, регулярной оценки прогресса и родительской вовлеченности являются основой успешного образовательного процесса дома. Путем изучения опыта этих семей можно выявить ключевые стратегии для эффективного домашнего обучения.

Ключевые слова: домашнее обучение, адаптация методик, успешные семьи, индивидуальный подход, гибкость, технологии в обучении, оценка прогресса, родительская вовлеченность.

Abstract: This article examines the experience of successful families in adapting educational methods for homeschooling. The principles of individualized attention, flexibility, use of technology, regular assessment of progress and parental involvement are the basis of a successful educational process at home. By examining the experiences of these families, key strategies for effective home education can be identified.

Keywords: homeschooling, adaptation of methods, successful families, individual approach, flexibility, technology in education, assessment of progress, parental involvement.

Домашнее обучение становится все более привлекательным выбором для многих семей в современном мире. Развитие информационных технологий, возможность доступа к обширным образовательным ресурсам и потребность в гибком расписании обучения делают домашнее обучение жизнеспособной альтернативой традиционной школьной системе. Однако, эффективное домашнее обучение требует не только доступа к ресурсам, но и адаптации образовательных методик к новым условиям.

В данной статье мы рассмотрим опыт успешных семей, которые добиваются успеха в образовании своих детей дома. Мы обсудим ключевые принципы, которые лежат в основе их подхода к обучению, такие как индивидуальный подход к каждому ребенку, гибкость в выборе методик, использование современных технологий, регулярная оценка прогресса и активная вовлеченность родителей в образовательный процесс [1].

Изучение опыта этих семей позволит нам выявить ключевые стратегии и подходы, которые могут быть полезны для всех родителей, стремящихся обеспечить своим детям качественное образование в домашних условиях.

Индивидуальный подход

Одним из ключевых принципов домашнего обучения является индивидуальный подход к каждому ребенку. Успешные семьи учитывают особенности своих детей при выборе образовательных методик. Это может означать использование различных учебных материалов, подходящих индивидуальному темпу обучения и стилю усвоения информации ребенка.

Гибкость и разнообразие

Домашнее обучение предоставляет семьям возможность экспериментировать с различными методиками и подходами к обучению. Успешные семьи активно ищут новые методики и подстраиваются под потребности своих детей [2]. Это может включать в себя использование интерактивных онлайн-курсов, образовательных игр, практических занятий и общение с другими домашними обучающимися.

Использование технологий

Современные технологии играют важную роль в домашнем обучении. Успешные семьи осознают потенциал технологий и активно используют их в образовательном процессе. Это может быть веб-сайты с учебными ресурсами, онлайн-платформы для обучения, приложения для мобильных устройств и т. д. Технологии делают обучение более интерактивным, доступным и увлекательным.

Регулярная оценка прогресса

Оценка прогресса играет важную роль в домашнем обучении. Успешные семьи регулярно отслеживают успехи своих детей и корректируют образовательный процесс в соответствии с их потребностями [3]. Это может включать в себя проведение тестов, оценку выполненных заданий, обсуждение достижений и постановку новых целей.


Вовлеченность родителей

Родительская вовлеченность играет решающую роль в успехе домашнего обучения. Успешные семьи активно участвуют в образовательном процессе своих детей, оказывая поддержку, мотивацию и помощь в учебе. Родители выступают в качестве наставников и наставников, создавая поддерживающую обучающую среду дома [4].

В целом, успешное домашнее обучение требует от семей гибкости, творчества и постоянного стремления к улучшению [5]. Адаптация образовательных методик к домашним условиям позволяет семьям обеспечить своим детям качественное образование, соответствующее их потребностям и способностям.

Домашнее обучение, основанное на адаптации образовательных методик, играет важную роль в современном образовании. Опыт успешных семей подтверждает, что индивидуальный подход, гибкость, использование технологий, регулярная оценка прогресса и родительская вовлеченность являются ключевыми элементами успешного образовательного процесса дома [6-7].

Однако, следует отметить, что домашнее обучение не является универсальным



решением для всех семей. Каждая семья имеет свои особенности, и подход к обучению должен быть адаптирован под индивидуальные потребности и возможности. Кроме того, важно помнить о необходимости социализации и общения ребенка с окружающим миром, что также играет важную роль в его развитии.

В целом, домашнее обучение представляет собой ценную альтернативу традиционной школьной системе, которая может быть эффективной при правильном подходе и внимательной поддержке со стороны родителей [8-9]. Изучение опыта успешных семей может помочь другим семьям развить свои собственные стратегии и подходы к образованию в домашних условиях, обеспечивая тем самым качественное образование и благополучное развитие своих детей.

Список использованной литературы

1. Муртазина, Д. Р. (2023). Методики преподавания и изучения английского. *Science and innovation*, 2(Special Issue 14), 139-145.
2. Шакирова, Л. Ф., & Муртазина, Д. Р. Применение аудирования в обучении. *учёный XXI века*, 77.
3. Kuziev, B. N., Murtazin, E. R., & Kholmuminova, D. A. (2016). Introduction information technologies to educational process. *Ученый XXI века*, (3-1 (16)), 26-28.
4. Каршибоев, Ш. А., & Муртазин, Э. Р. (2021). Изменения в цифровой коммуникации во время глобальной пандемии COVID-19. *Молодой ученый*, (21), 90-92.
5. Кузиев, Б. (2023). Искусственный интеллект в образовании. *Mexatronika va robototexnika: tiammolar va rivojlantirish istiqbollari*, 1(1), 14-17.
6. Кузиев, Б. Н., & Муртазин, Э. Р. (2023). Образование и искусственный интеллект. *Экономика и социум*, (5-2 (108)), 786-789.
7. Кузиев, Б. Н., Холмуминова, Д. А., & Муртазин, Э. Р. Электронное обучение как часть образовательного процесса. *Ученый XXI века*, 1, 43.
8. Эмиль, М. (2023). Области знаний для робототехнического проектирования. *Mexatronika va robototexnika: tiammolar va rivojlantirish istiqbollari*, 1(1), 18-20.
9. Муртазина, Д. Р., & Муртазин, Э. Р. (2024). Методика преподавания в игровой форме: путь к эффективному обучению. *Экономика и социум*, (2-1 (117)), 1609-1611.



Нормурадова Дилбар Абдикасимовна,
Преподаватель узбекского языка и литературы
Средней школы №11 города Термеза

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация: В данной статье подробно освещается Педагогико-психологическое значение подготовки студенческой молодежи к семейной жизни. Семья - святое, чтобы сохранить ее прежде всего, приводится информация о повышении грамотности молодежи о семье.

Ключевые слова: семья, личность, социально-психологический, развитие, общение, воображение, мышление, образование, воспитание.

Abstract: this article covers the pedagogical and psychological importance of preparing student youth for family life in detail. Family-holiness, in order to preserve it, above all, information is presented on increasing the literacy of young people about the family.

Keywords: family, personality, social psychological, development, communication, imagination, thinking, education, upbringing.

Как отметил Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев в «Стратегии действий» по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан на 2017-2021 годы, «Люди должны знать, что семья-это святое место для нас. Когда мы не сохраняем семью, мы теряем свою идентичность. Сегодня времена стремительно меняются. Кто больше всех чувствует эти изменения – молодежь. Пусть молодежь будет в гармонии с требованиями современности, но в то же время не забывает свою личность.... За счет чего мы этого добьемся? Воспитание, воспитание и только за счет воспитания». Следовательно, научный подход к вопросам семейного воспитания является одним из важнейших направлений стратегии действий, определивших развитие нашей страны, и определение его условий входит в число важнейших задач. Молодые семьи являются важными субъектами социально-политического, экономического, культурно-духовного обновления и подъема общества и играют важную роль в его влиянии на сложные процессы, происходящие в общественной жизни, и в движущей силе прогресса.

Как известно, с незапамятных времен в сознании народов восточной страны формировалась святость семьи, непревзойденная роль семьи в воспитании детей. По отношению к семье он рассматривается как хранитель и продолжатель традиций и обычаев нации. Соответственно, усиленно занимался укреплением семьи и уделял серьезное внимание сохранению чистоты своего потомства, воспитательной работе. Для этого важно подготовить студенческую молодежь к семейной жизни.

Великий русский психолог А.Н.Леонтьев, исследуя значение межпоколенческого общения для развития общества, в одной из своих ранних работ утверждал, что если бы такого общения не было, сам прогресс не был бы

абсолютным. Большую роль в выполнении этой задачи играет семья, которая является важной частью общества. Таким образом, семья как социальный институт выполняет, прежде всего, функцию неуклонного роста населения на определенную величину за счет рождения, миграции между людьми, то есть перемещения с места на место, или восполнения уменьшающейся величины за счет смертности. Потому что и общество, и люди заинтересованы в обновлении трудовых ресурсов и рабочей силы для социального и экономического развития.

Любые изменения, наблюдаемые в институте семьи, обычно объясняются, прежде всего, изменением статуса женщины: повышением их квалификации и развитием стремления не отставать от мужчин в профессии и на должностях. Отмеченное состояние является непосредственной причиной различных изменений, происходящих в жизни семьи, как негативных, так и позитивных явлений.

Психологическая подготовка молодежи к семейной жизни и эффективная организация деятельности оказывают свое влияние на позитивное решение ряда социальных проблем:

- Обеспечивает социально-духовное развитие общества;
- Играет важную роль в подъеме социально-экономического развития общества на более высокий уровень;
- Готовит фундамент для формирования крепких семей, создания в них здорового психологического климата, эффективной организации семейного воспитания, достижения определенных успехов в воспитании детей, предотвращения семейных конфликтов и разногласий.

У большинства молодых людей семейная жизнь начинается еще в студенческие годы, что особенно обременительно для девочек и имеет негативные последствия. При подготовке молодежи к семейной жизни внимание уделяется только девушкам, а парни остаются вне поля зрения. Если парень тоже не готов к семейной жизни – семья, которую они построили, не будет крепкой. Так что особенно важно следить за здоровьем молодых людей, при этом быть морально хорошо подготовленными, иметь широкий круг мыслей, быть вежливыми. Наблюдение за здоровьем юношей и девушек до вступления в брак может помочь предотвратить факторы, способствующие будущему распаду семьи, которую они создали. Например, если инфекционные или хронические заболевания обоих выявляются как психические заболевания или умственная отсталость, их брак запрещается. При создании семьи нельзя допускать браков даже между близкими родственниками. В результате таких браков рождаются дети-инвалиды, умственно отсталые дети, в результате чего семейное счастье и взаимопонимание заменяется на постоянные разногласия и ссоры.

Большое значение имеет и совместимость семей юношей и девушек, вступающих в брак, достигших совершеннолетия, то есть равенство между семьями заключается в том, что они совместимы друг с другом по родословной, социальному положению, знаниям и уровню, вкусам, убеждениям, иначе после

такого брака, конечно, в семье возникнет много разногласий. Последствия также могут закончиться разводом или привести к неверности с одной стороны. Семья будет крепкой и гармоничной, если молодые люди будут духовно-нравственно, психолого-педагогически готовы к семейной жизни до создания семьи, а для этого необходимо подготовить молодежь к семейной жизни, прежде всего сформировать представления о ней.

Изучая специфические проявления у разных возрастов и полов, образ жизни, образование, опыт, профессиональную принадлежность индивидов и групп, исследуя социально-психологическое положение женщины и мужчины в семье, влияние супружеской пары на воспитание детей в семье сформировать у молодежи семейно-социальные представлений и психологические факторы. В то же время брак и семья связаны с формированием представлений о возрасте вступления в брак, национальных ценностях узбекских семей, личностных качествах, обеспечивающих прочность семьи, качествах обоих полов и условиях их проявления, статусе мужчины и женщины в семье, количестве детей, способах их всестороннего воспитания и вовлечения в семейные дела. Но научно-практически обосновано, что формирование этих представлений зависит от изменений в обществе, социальной среды и принятой в этой среде картины-образа, обычаев и традиций, специфики взаимоотношений в каждой семье, количества детей в семье, уровня образования родителей, их авторитета и положения в семье.

Подводя итог, можно сказать, что в подготовке учащейся молодежи к семейной жизни основное внимание уделяется вопросам любви, семьи, ее особенностям, семейным проблемам, особенно разводам, гибели детей, причинам бездетности, невозможности вести хозяйственную деятельность, проблемам воспитания в семье, коммуникативным обязанностям членов семьи, неумению правильно пользоваться досугом, биологическим и социальным аспектам жизни супругов в семье. Психологическая, социально-бытовая, морально-психологическая среда и факторы, влияющие на нее, взаимоотношения между членами семьи и их закономерности, о влиянии полового воспитания. По этой причине социальному движению молодежи также необходимо уделять больше внимания в высших учебных заведениях, так как сегодняшний студент завтра станет главой семьи или ее членом.

Список использованной литературы

1. Karimova V. *Oila psixologiyasi*. T. 2007-y.
2. Musurmonova O. *Oila - jamiyat tayanchi*. – T. *Yoshlar nashriyot uyi*, 2019
3. Abdusamatova Sh.S. *Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik xususiyatlari- “BILIG – ILMIY FAOLIYAT” nashri* <http://bilig.academiascience.or>
4. Ishanova M.M. *Talaba-yoshlarning ijtimoiy oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari maqolasi*. “*Science and innovation*” xalqaro jurnali
5. Abdusamatov X.U. *Oila institutga nikohdan tashqari munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Monografiya*. – T., “*Fan*” nashriyoti. 2021 y.

Rustamova Lobarxon Ibragimovna,
*Namangan viloyati To'raqo'rg'on tuman
XTBga qarashli 1-sonli maktab
ona tili va adabiyot fan o'qituvchisi*

NAVOIYNING OILAGA MUNOSABATI

Annotatsiya. *Maqolada Navoiyning oilaga bo'lgan munosabati, jumladan, ayolning oiladagi o'rniga alohida kuzatuvchanlik bilan e'tibori tilga olinadi.*

Kalit so'zlar: *ishq, so'fiy, tasavvuf, ilohiy ishq, vafo ahli, malak.*

Abstract. *The article focuses on Navoi's attitude to the family, including the role of women in the family.*

Key words: *love, mysticism, mysticism, divine love, loyal people, malak.*

Garchi Navoiy yolg'iz o'tgan bo'lsa ham, lekin oilaviy hayotga munosabati ijobiy bo'lgan. Jumladan, ayolning oiladagi o'rniga oid muhim fikrlarni “Mahbubul qulub” asarida bayon etgan: Er bilan ayol bir-biriga mos tushsa, o'rtada boylik va saranjomlik bo'lur. Uy bezagi er-xotinning tinchligidan. Husni bo'lsa, ko'ngilga yoqimli bo'lar, odobli bo'lsa, jon ozig'idir. Aqlli bo'lsa, turmush intizomli, ro'zg'or tartibli va saranjom bo'lur. Kishi bu xildagi juftga erishsa, balki bunday baxt qo'lga tushsa yashirin baxt va kulfatda sirdosh va hamdam bo'lar. Turmushdan har jaf o'yetsa, hasratdoshing ul va aylanuvchi osmondan har balo kelsa, ko'makdoshing ul. Ko'ngling g'amidin u g'am chekadi, badaning zaifligi va horg'inligidan u qiynaladi. Nosoz juft uy uchun ham ochiq, ham yashirin qo'rqinchli kasallikdir. Uyatsiz bo'lsa, ko'ngling undan ozorlanad, yaramas bo'lsa, erning ko'ngli yaralanadi, yomon ishlik bo'lsa, eriga yuzqoralik qiladi. Agar er mayxo'r bo'lsa, uy obodligi yo'qoladi. . . ”

Ko'rinib turibdiki, ayolning oilada tutgan o'rniga tajribasi bor kishidek kuzatuvchanlik va chuqur mulohaza bilan yondashgan. Navoiyning bu fikrlari Yusuf Xos Hojibning qarashlariga yaqindir. ”Qutadg'u bilik”da erkak kishi to'rt xil toifadagi ayolga uylanishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi: boy, chiroyli, nasl-nasabl, farosatli. Shu bilan bir-biriga Yusuf Xos Hojib bu toifadan eng asosiysini aqillilik deb biladi va oqila ayolni boy, chiroyli, nasl-nasablilardan afzal deb biladi.

Demak, ulug' donishmandlar ayolning ma'naviy qiyofasiga asosiy e'tiborni qaratganlar. Navoiyning esa ayolga, muhabbatga munosabati birmuncha kengroq bo'lgan. Ma'lumki, Navoiy tasavvuf ilmining naqshbandiya tariqatiga moyil bo'lgan. Bu falsafa ta'limotiga ko'ra, xudo borliqda, uning hamma mavjudotlarda, jumladan, insonda zuhur etadi. So'fiylar ma'shuqalarida yaratganning jamolini ko'rganlar va sevikli yor timsolida unga intilganlar. Navoiy dostonlarining qahramonlari-Shirin va Laylida boqiy husn madh etilgan.

Navoiy “Farhod va Shirin” dostonining debochasida bir qizga shaydo bo'lgani, lekin u shoir yoqtirmagan kishilar bilan yaqin bo'lib, unga e'tibor bermaganini ta'kidlaydi:

Yana bois bukim, ishq i balo sho'r,

Bir o'tdin aylab erdi jonimga zo'r. Ma'nosi quyidagicha: Yana bir sabab menga baloday yopishgan sevgi edi, o'sha olov mening jonimga zo'rlik qilib turar edi.

Vafosiz, ta'bsiz, noahl anga xush,

Vafo ahli bila bitta'b noxush. (Sevgilimga vafosiz, tabiati yo'q, noahllar xush ko'rinar edi, vafo ahlini tabiatidan chiqarib sevmas, yoqtirmas edi).

Malak hayli esa ashkim uchun rashk,

To'kibon ul pari har dev uchun ashk.

(Ko'z yoshlarim uning ishqida gavharday holda u yaramas kishilarga moyil).

Bir oykim bo'lg'ay ul solib manga dard,

Jahon paymou har joyu shavgard. (Menga qayg'u yuklagan ul oy, jahonni kezugvchi, har joyda bo'lguchi, kecha aylanguchi).

Manga aylab g'amu mehnatni munis,

O'zi har qayda bo'lg'ay sha'm majlis. (U go'zal menga qayg'u va mehnatni esh qilib, o'zi har joyda majlislarning sha'mi bo'lib yurar edi).

Men Navoiyning dunyodan yolg'iz o'tganiga ana shu “go'zal” sababchi, degan fikrdan yiroqman. Bu masala ulug' shoirning o'ta shaxsiy ishi va e'tiqodi bilan bog'liq nozik mavzudir. Nima bo'lganda ham Navoiy oila masalasiga juda jiddiy qaragan, ayolni oilaning asosiy ustunlaridan biri deb bilgan. Balki, Navoiy ulug' mutafakkir sifatida bunday hilqatni uchratmagani sabab muhabbat dostonlarida pok va go'zal ishqni kuylab o'tgandir? Har holda Layli va Shirin timsoli shoirning yuksak tuyg'ularini, orzularini ifodalagan. Navoiy muhabbat deganda ana shunday ayolni tushungan.

Sanoqdan adashib ketadi odam: naziri yo'q mutafakkir-daho shoir, nosir, g'azal mulkingning sultini, xamsanavis, zullisonayn ijodkor, sohibi devon, novator, musavvir, mutasavvif. Davlat va jamiyat arbobi-muhrdor, vazir, hokim, murabbiy, binokor, homiy, tadbirkor, musiqashunos. Olim, tilshunos, munaqqid, etnolog, faylasuf, ruhshunos. Bir so'z bilan aytganda-Navoiy! Endi o'zingiz o'ylab ko'ring, shunday inson qanday qilib buyuk bo'lmasin!

Din, tarix, san'at, siyosat, mantiq, falsafa, astronomiya va harb ishi Navoiy nazaridan chetda qolmadi. Shoiru olim, orifu obid, oqilu noqis-kimligidan qat'iy nazar-Navoiy dunyosidan o'ziga keragini topadi; har kim holi va darajasiga yarasha tengsiz merosdan bahramandlik baxtini tuyadi.

Ulug' mutafakkir olamiga bo'ylashdan oldin tayyorgarlik ko'rish zarurligini bilamiz. Bu faqat o'qib-o'rganish bilan bitadigan ish emas, albatta. Muhimi-Navoiy “sayyora” siga safar uchun qalbni hozirlash, ruhiy tayyorgarlik. Bundan tashqari, islom asoslari, Qur'on va Hadis ilmidan yetarli darajada boxabar bo'lish kerak.

Navoiyni o'qib-tushunishga urinayotgan kishi, eng kamida, hayotga balandroqdan turib qarashga, ko'zimiz o'rganib qolgan dunyoga boshqacharoq nazar solishga o'rganadi. Bora-bora inson umri mag'zi, shunchaki ko'ngil ishiday tuyulgan ijodning asl mohiyatini anglay boshlaydi. Afsuski, aksariyatimiz hali-hanuz bu baxtdan

benasibmiz. Ammo hali ham kech emas. Navoiy ijodini bir katta qasr desak, hali biz o‘sha qasr atrofida aylanib yuribmiz xolos.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *Alisher Navoiyning ‘‘Farhod va Shirin’’asari 1956-yil*
2. *A. Navoiy «Xamsa». «Yangi asr avlodi», 2015- yil.*
3. *A. Navoiy»Mahbub-ul qulub» asari.*
4. *Adabiyot darsligi 9-sinf «O‘zbekiston»nashriyoti 2019-yil.*

Mirislomov Mirdavlat Miraziz o'g'li,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

OILADA EKOLOGIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya. Oilada atrof-muhit, tabiatni asrab-avaylashga qaratilgan ekologik tarbiya mazmunining hozirgi kundagi mavjud holati qoniqarli emasligini ta'kidlashimiz lozim. Bugungi davrda kishilik jamiyati oldida tabiatni muhofaza qilish va uning boyliklaridan to'g'ri, tejab-tergab, unumli foydalanish, borliqni sof holda kelajak avlodga saqlab qolishdek muhim ekologik muammoni bartaraf etish vazifasi turibdi. Shuning uchun ushbu maqolada oilada ekologik tarbiya va uning bir qator xususiyatlari ochib berilgan hamda bu boradagi holatlar tahlil qilinib, muammoni hal etishni takomillashtirishga oid bir qator ilmiy-amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Ekologik tarbiya, Oila, yer, tabiiy manbalar, tabiat, atrof-muhit, ekologik ong, ekologik muammolar.

Abstract. It should be noted that the content of ecological education aimed at preserving the environment and nature in the family is not satisfactory. Today, human society faces the task of protecting nature and using its resources correctly, sparingly and effectively, and solving the important environmental problem of preserving the existence in a pure state for future generations. Therefore, in this article, environmental education in the family and a number of its features are revealed, and the situations in this regard are analyzed, and a number of scientific and practical proposals are given to improve the solution of the problem.

Keywords: Environmental education, Family, land, natural resources, nature, environment, ecological consciousness, environmental problems.

Kirish. Mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlashda, mamlakatimiz taraqqiyotida, O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta'lim-tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish, fuqarolarni zamonaviy ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish benihoya katta ahamiyatga ega. Chunki taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk, zamonaviy bilimlar va murakkab texnologiyani egallagan, irodasi baqquvat, iymoni butun, teran fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar hal etadi. Kelajak taqdirimizda hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan asosiy omil-fan, texnika, madaniyat va ma'rifat, ta'lim-tarbiya, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar borasidagi yangilik va yutuqlarni, jahon mamlakatlari tajribalarini keng ko'lamda o'rganish va rivojlantirish hayotga joriy etishdir. Ma'lumki, hozirgi zamon fan-texnikasining jadal rivojlanishi tabiiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, murakkab ekologik muammolar kelib chiqdi. Ularni hal qilish uchun yoshlarni, ya'ni o'sib kelayotgan yosh avlodni yuqori saviyada ekologik ma'lumotli va tabiat qonunlarining bilimdoni, ekologiyaga oid muammolarni hal qila oladigan mutaxassislar qilib tayyorlashimiz zarur bo'lib qoldi.

Asosiy qism. Jamiyatning tabiatga ta'siri kundan-kunga oshib borayotgan davrda ekologiya faniga qiziquvchilar safi borgan sarikengayib bormoqda, lekin hamma ham ekolog bo'la olmaydi. Tabiiy voqealarni tushunib, ularning kelib chiqish sabablarini

aniqlab, salbiy holatlarini tuzatishga ijobiy yondashadigan, tabiat qonunlarini inobatga olibgina qolmasdan, balki ular asosida o'z hayot faoliyatlarini tuza oladigan kishilargina ekolog bo'la oladilar.

Yerdagi tabiiy manbalardan ko'proq boyliklar olish, tabiat manbalarini asrab avaylashning eng muhim yo'li o'sib kelayotgan avlodni tabiatni asrashga oid ekologik bilimlardan xabardor qilish - ularga ekologik tarbiya berishdir. Tabiat bilan yaqin munosabatda bo'lishi insonga ijobiy ta'sir qiladi, uni sofdilroq, muloyimroq, ko'ngilchan qilib, qalbida eng yaxshi his-tuyg'ulami uyg'otadi. Shuning uchun bolalar tarbiyasida ekologik tarbiyaning roli ayniqsa kattadir. Bolalami tabiat bilan, yilning turli fasllari, unda ro'y beradigan o'zgarishlar bilan tanishtirish oiladan boshlanadi.

Tabiat hodisalarini aniq tushuna bilish, jamiki tirik narsaga zavq-shavq bilan qarash singari fazilatlar bolada shakllanib boradi. Tabiatga mehr qo'yish, uni ehtiyot qilish, tirik jonivorlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish tabiatga qiziqish uyg'ota qolmay, balki bolalarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, tabiat boyliklarini ardoqlab, ko'paytirib borayotgan kattalaming mehnatiga hurmat bilan qarash singari xarakteming eng yaxshi xususiyatlarini shakllantirib borishga ham yo'l ochadi.

O'zbek xalq tarbiyashunosligida ekologik tarbiyaga alohida e'tibor berilib kelingan. Ota-bobolarimiz zilol suvni, buloqlarni, so'lim daraxtzorlarni, xosiyatli o't-o'lanlarni, gulgiyoxlarni muqaddas bilib asrashga, niyati nopok kishilardan saqlashga, toptamaslikka, oyoq osti qilmaslikka alohida e'tibor berib kelganlar. Xalq nopok kishilar haqida shunday iboralar qo'llagan: «Daraxt ko'r qilgur», «Moling sutdan qolsin», «parranda ursin (qarg'ish)». «Suvga tupurma ko'zing ko'r bo'ladi»; kabi naqlar ham bekorga aytilgan. Ota-bobolarimiz o'z farzandlarini tabiatga mexr-muhabbat ruhida tarbiya qilganlar. Beziyon bo'lgan oddiy qurt-qumursqani ham o'ldirish gunox deb ularning qulog'iga qo'yganlar. «Til zaboni yo'q, jonivorlarga ozor berma gunoh bo'ladi!»; «Sigir-oilaning bozori»; «Tovuq yetti xazinaning biri»; «Kuy bor uyda baraka bor» singari hikmatli naqlar shakllangan.

Xalq tarbiyashunosligidagi bolalarning ekologik ta'lim-tarbiyasi haqidagi g'oyalar «Avesto»da yer, suv, zamin, xona, badan, kiyimkechak, oziq-ovqatlarni toza tutish va saqlashga alohida e'tibor berilgan. Unda Go'ristonlarni shahar va qishloqlardan yiroqda tashkil etish, uni o'rab qo'yish, Inson yoki hayvon o'ligi tushgan soy, ariq, hovuz, quduqlarni bir necha marta suvga to'ldirib bo'shatish, yomqir suvi bilan yuvish, to'ldirib bo'shatish ta'kidlangan. Bolalar yosh paytidanoq daraxt ko'chati o'tqazish, uy – ro'zg'or qurollari yasash chorva bilan shug'ullanishga o'rgatilishi shart hisoblangan. Yerni iflos qilgan va uni asrash qoidalarini buzgan shaxslar «400 qamchi urish jazosi» bilan javobgarlikka tortilgan. «Inson butun umri davomida suv, tuproq, olov umuman, dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga burchlidir» – deb e'tirof etilgan g'oyasi torg'ib qilingan.

Donishmandlik durdonasi hisoblangan Muqaddas diniy kitobimiz «Qur'oni Karim» va Hadislarda ham ekologik tarbiya xususida qimmatbaho hayotiy g'oyalar bayon qilingan. Masalan: «Soyasidan xalq foydalanib turgan daraxtni kesib yuborgan

odamni tangri do‘zaxga maxkum etur», deb insonlarni qo‘rqitish orqali tabiatga zarar keltirmaslik, daraxtlarni avaylab–asrashga, parvarish qilishga, daraxt ekishga, daraxt soyasi orqali issiqlikdan, himoyalaniishi, mevasidan baxramand bo‘lib yurishlarini, insonga ma‘naviy va iqtisodiy tamondan ozuqa berishlarini e‘tirof etish e‘tirof etilgan. Yana «Dehqonchilik bilan shug‘ullaniglar, dehqonchilik muborak kasbdir. Unga qo‘riqchilarni ko‘paytiriglar» deyish bilan halol mehnat samarasini ko‘rish zarurligi o‘qtiriladi. «Qaysi bir musulmon ekin eksa yoki biror daraxt o‘tqazsa, so‘ng mevasidan qush yoki hayvon yesa uning ekinidan yeyilgan narsaning har biridan unga sadaqa savobi yoziladi» – deyilgan hadis misolida bag‘rikenglik, jonzotlarni asrash zarurligi, insonlarni mehnat qilishga, mehnat qilish orqali o‘z turmushlari to‘q, faravon, mazmunli, fayzli bo‘lishlarini etirof etilsa ikkinchi tomondan yerlardan bexuda foydalanmaslik, yomon ekanligi, dehqonchiliklarni asraydigan, muhofaza qiladigan, qadriga yetadigan, mehnat qiladigan insonlarni ko‘paytirish g‘oyasi maqsadi qilinib ularning mukofotlanishi aytilgan. «Ekmoq niyatida qo‘lingizga ko‘chat tutqazgan paytda nohosdan qiyomat qoyil bo‘lishi aniq bo‘lganda ham ulgursangiz, uni ekib qo‘yavering», «Kim suv toshqinini to‘xtatsa yoki yong‘inni o‘chirsa, unga shohidlik ajri beriladi», kabi hadislarda ekologiya va tabiat muhofazasiga oid tushunchalar bordir. Bunday hadislardan tarbiya jarayonida foydalanilsa, bolalarda milliy ekologik qadriyatlarga hurmat hissi shakllanadi.

Yuqorida bayon qilingan fikrlar shundan dalolat berib turibdiki ota – bobolarimiz azal–azaldan tabiatga yuksak mehr va ehtirom ko‘rsatishgan. Yurtni obod etishgan, ko‘chalarni, hovlilarni sarishta saqlashgan. Xalqimizning tabiatga munosabati urug‘ qadash, Qovun sayli, Suv sayli, Uzum sayli, Hosil bayrami, gul bayrami, Navro‘z bayrami, Xirmon to‘yi kabi bayramlarda ham ifodalangan. Bunday tabiat bayramlari ularning hayot tarziga aylanib an‘ana, udum va odatlarida o‘z o‘rnini topgan. Mazkur ekologiyaga oid an‘ana, urf– odat va qadriyatlarni takomillashtirish bugungi ta‘lim–tarbiya muassasalari, va keng jamoatchilikning eng asosiy vazifalaridan biridir.

Ammo hozirgi davrda atrof-muhitning buzilishi va unga bepisandlik bilan munosabatda bo‘lish ko‘plab ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bunday ekologik muammolar nafaqat insonlar hayotiga emas, balki o‘simlik, hayvonot olamiga ham katta tahdid solmoqda. Ana shu ekologik muammolarni ilmiy va amaliy hal qilishning eng to‘g‘ri yo‘li mamlakat aholisiga xususan, ta‘lim-tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bu to‘g‘rida O‘zbekiston Respublikasi konstitusiyasi 55-moddasida “Yer va yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralari umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir”¹, va yana 50-moddasida “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburlar” - deb o‘rinli ta‘kidlangan.

Oilada bolani ekologik tarbiyalashda eng asosiy narsa otaonalarning oila sharoitida bolaga ekologik mas‘uliyat va burchni shakllantirishi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bunga erishish uchun ota-ona o‘g‘liga yo qiziga oila sharoitidan kelib chiqib polizni va mevali

daraxtlarni parvarishlash hamda ularni qush, hayvonlardan muhofaza qilish to'g'risida aniq topshiriq berishi va uning ijrosini uzluksiz, doimo nazorat qilishi shart. Agar ota-onalar bunday nazoratni vaqtida tashkil qilsalar, bolada shu sohada mas'uliyat va burch tashkil topadi va mustahkamlanib, odatga aylanadi, yoki aksincha. Albatta bolada bunday ekologik mas'uliyat va burch birdaniga shakllanmaydi. Bunga muvofiq bo'lishda bolaning fe'l-atvori, tarbiyalanganligi hamda imkoniyatini inobatga olish kerak. Bu borada ota-onalar o'ta ziyrak bo'lmog'i va tadbir bilan bunga erishmog'i eng to'g'ri yo'ldir.

Oilada bolani ekologik tarbiyalashda va hayotga tayyorlashda ota-onalar quyidagi uch yo'nalishda ekologik tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirishlari ekologik tarbiyaning samaradorligini ta'minlashga amaliy yordam beradi.

Birinchidan, ota-onalar ekologik tarbiyaning mohiyati, mazmunini o'zlari ongli ravishda fikrga ega bo'lmog'i.

Ikkinchidan, o'z ongidagi ekologik ma'lumotni ya'ni fikrini ekologik ko'nikma, malaka va odatlarda mustaqil bajara olishi.

Uchinchidan, ota-onalar o'zlarida tarkib toptirgan ma'lumotga ya'ni fikrga tayanib, hosil qilgan ko'nikma, odatlarni shaxsiy va ijtimoiy turmushda qo'llay olishlari juda muhim. Ayniqsa ota-onaning ibrat-namunasi, talabchanligi va oila, ijtimoiy hayotdagi hamda kasb sohasidagi faolligi, harakatchanligi hal qiluvchi omil bo'la oladi.

Xullas, yuqoridagi fikrlar va ayrim tahlillar asosida quyidagi takliflarni bildirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

- ota-onalar tomonidan o'quvchilarga ko'proq ekologik ta'lim va tarbiya mavzularida tushuntirish ishlarini olib borishlari;
- mahallalarda ijobiy ekologik ta'lim va tarbiya olib borayotgan har bir oila tajribalarini kengroq o'rganish va OAV yoritish;
- oilada «Oila ekologiya»si, va «Yoshlar ekologiya»si haqida yoshlarga kengroq tushunchalar berib borish;
- oilada olib borilgan ekologik ta'lim va tarbiyani maktabgacha muassasalarda, maktab va litseylarda davom ettirish va uni zamon talabi asosida takomillashtirib borish;
- maktablarda o'quvchilar o'rtasida ekologik ta'lim va tarbiyani yanada kuchaytirish maqsadida, «Ekologik-huquqiy ta'lim va tarbiya»maxsus kursini o'qitish hamda boshqa tadbirlarni amalga oshirish o'ta muhimdir.

Hozirgi ekologik muammolar keskinlashib borayotgan globallashtirish sharoitida ularni hal qilish, tabiat boyliklarini kelajak avlodga bus-butun qoldirish, ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish, ekologik-huquqiy ta'lim-tarbiyani yanada kuchaytirish ustuvor vazifamiz bo'lib qolishi kerak. Bu esa, oilada har bir o'quvchi-yoshni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga va bugungi kunda oilada ekologik huquqiy tarbiyani takomillashtirishning pedagogik omili sifatida yanada rivojlanib borishiga xizmat qiladi

Shunday qilib, oilada bolani ekologik tarbiyalash, uni oila va ijtimoiy hayotga ekologik tayyorlashning, bolani shakllantirishning, oila a’zolari hayotini barqarorlashtirishning, shuningdek mamlakat hududida ekologik shart-sharoitni yaratishning zaruriy tarkibi bo‘lmog‘i darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Sh.Usanov, Sh.Axmedova, Oilada bola tarbiyasining tarkibiy qismlari. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2017.*
2. *O.Hasanboyeva, D.Xoliqov va boshqalar. Jamoa. Oila pedagogikasi. T., “Aloqachi”, 2007*
3. *Xolmo‘minova Oygul Jumayevna. “Oilada ekologik huquqii tarbiya berishning pedagogik xususiyatlari” // Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan). 2019. №10 (83). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/oilada-ekologik-u-u-ii-tarbiya-berishning-pedagogik-hususiyatlari>*
4. *Shodiyeva Nodira Normamatovna. “Oilada tabiatni asrab– avaylashga qaratilgan ekologik tarbiya pedagogik– psixologik muammo sifatida”. Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali: vol. 3 no. 12 (2023): ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali.*

Sanayeva Sevinch Sadriddin qizi,

Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi

O'ZBEKISTONDA OILA SIYOSATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kundagi oilalarda shakllanib kelayotgan tizimlar va ularning jamiyat siyosatida tutgan o'rni hamda mustahkam oilalar xalq, jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun sog'lom oilalarning jamiyat ravnaqiga qo'shgan hissasi haqida keltirilgan.

Kalit so'zlar: Oila, inson, jamiyat, taraqqiyot, davlat, ijtimoiy tizim, siyosat, oila funksiyalari, qadriyat, struktura, statistika.

Abstract. In this article, the systems that are being formed in families today and their role in society's politics, and strong families are the most important factors for the development of people, society and the state. The contribution of healthy families to the development of society is presented.

Keywords: Family, a person, society, development, state, social system, politics, family functions, value, structure, statistics.

Kirish. Oila – bu muqaddas dargoh. Oilani mustahkamlash nafaqat mamlakat, balki dunyo miqyosidagi ahamiyatli masala hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 1994-yil 20-sentyabrda 15-mayni Xalqaro oila kuni sifatida nishonlash to'g'risida qaror qabul qildi va bundagi asosiy maqsad oila mustahkamligiga erishishdir.

Har bir O'zbekistonlikning hayotida oila muhim o'rin tutadi. Tarixiy jihatdan O'zbekistonda oila har doim ham shaxsni jamiyatni xavfsizligini ta'minlash manbai bo'lib kelgan. O'zbekistonda oila eng muhim hayotiy qadriyat milliy an'ana va urf-odatlarining mujassamlashgan maskani hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda oilaning rivojlanishi Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyo strategiyasi doirasida global darajada ko'rib chiqilmoqda.

Asosiy qism. Agar jamiyat va davlatning oilaviy siyosati oilaning uzluksiz rivojlanishining asosiy sharti sifatida uning sub'yektivligini shakllantirishga, shuningdek uni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab -quvvatlashga qaratilgan bo'lsa, oilaning tashqi sharoitlarga moslashishi birmuncha oson kichadi. O'tkazilgan jamoatchilik so'rovi oila mamlakatimiz fuqarolari uchun noyob qadriyat ekanligini ko'rsatdi. O'zbekistonliklar o'zlarini oila, sevgi-muhabbat, g'amxo'rliklar, oilaviy qarindoshlik munosabatlaridan ayri his etmaydilar, chunki O'zbekistonliklar uchun birinchi o'rinda oila mustahkamligi turadi.

Oilaning asosiy vazifasi farzandni dunyoga keltirish ekanini tasdiqlagan holda, O'zbekistonliklar ota-onalarning o'z farzandlari oldidagi ma'suliyati ko'lamini anglaydilar va ota-onalarning farzandlarga ta'lim berish burchini alohida ta'kidlaydilar. Oila nafaqat individ xulq-atvorini shakllantiradi va belgilaydi, bali hayot davomida sezilarli darajada saqlanib qoladigan xulq-atvorning emotsional rejasini to'playdi.

Boladagi tarbiyaning ko‘p jihati ota-onaning axloqiga ular o‘rtasidagi munosabatlar iliqligiga va oiladagi psixologik muhitga bevosita aloqador. Xususan, joriy yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish” to‘g‘risidagi farmoni qabul qilindi. Albatta bu oilalarni mustahkamlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari aks etgan.

XXI asrda dunyo statistikasida ajralishlar sonining ko‘ayish tendensiyalari mavjud. Olingan ma‘lumotlarga qaraganda ajralish sabablari fe‘l-atvorini mos kelmasligi (42.2%) va moddiy muammolar (34.5 %) ko‘rsatayotganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. O‘zbekiston siyosatida oila qurish bir qator mezonlar asosida amalga oshiriladi, ular orasida moddiy-maishiy, psixologik omillar hisobga olinishi zarur. Oila jamiyatning ijtimoiy va ma‘naviy axloqiy tayanchi hisoblanadi. Tadqiqotchilarning fikricha, an‘anaviy oila zamonaviy oila bilan taqqoslaganda nisbatan kichikroq hisoblanadi. O‘rta asrlarda ayniqsa, industrial inqiloblar davrida oila evolyutsiyasi yirik ko‘p oiladan kichik oilagacha bo‘lgan bir yo‘nalishda kechgan.

Keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, demak diniy manbalarda ham oilaning muqaddas ekanligi erkak va ayollarning oila oldidagi burchi muqaddas qadriyat sifatida qaralgan. Har bir oila ijtimoiy tizim struktura sifatida jamiya oldida ma‘lum bir vazifalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy vazifalari haqida gapirganda bir tomondan jamiyatning oilaga ta‘sirini ikkinchi tomondan esa umumiy oilaning o‘rnini, oilaning hal qiladigan vazifalarini hisobga olish zarur. Shuni aytish joizki, hozirgi zamon oilasida emotsional va ijtimoiy psixologik jarayonlarni qondirish vazifasining ahamiyati ortib bormoqda. Qishloq oilalari esa uy-hayvonlari tomorqa yerlarining borligi evaziga shahar oilalariga qaraganda jamiyatning ishlab chiqaruvchi bo‘g‘inini saqlab kelmoqda.

Statistik ma‘umotlarga qaraganda, agar har bir oilada bittadan farzand bo‘ladigan bo‘lsa bunday xalq sakkizinchi avloddan keyin yo‘q bo‘lib etishi mumkin ekan. Har bir oilada ikkitadan farzandning bo‘lishi ham aholi sonini saqlab turishni ta‘minlay olmaydi. Demograflarning ta‘kidlashlaricha, oila o‘zining reproduktiv vazifasini bajarishi uchun har bir oilaga o‘rtacha 2.6 ta farzand to‘g‘ri kelishi kerak. Chunki, davlat siyosatida oilaning saqlanib qolishi ham ham u uchun bir vazifadir. Oiladagi tarbiya orqali shaxsga ma‘lum bir siyosiy dunyoqarash, jismoniy sifatlar singdiriladi.

Xulosa. Zamonaviy oila oldingi davr oilasidan uning emotsional psixologik funksiyalarning tubdan o‘zgarganligi bilan keskin farq qiladi. Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, O‘zbekistonda oila psixologiyasi bo‘yicha o‘ziga xos maktab yaratgan olim V.M.Karimova tadqiqotlarida o‘zbek oilasi haqidagi ijtimoiy tasavvurlarning turli guruh vakillarida namoyon bo‘lishini empirik jihatdan tadqiq etgan.

Darhaqiqat, oilaning o‘z funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarishi nafaqat uning ichki holatiga, shu bilan birga jamiyatning ijtimoiy sog‘lomligiga ham ta‘sir etadi. Shunday ekan, jamiyatni sog‘lomlashtirish uchun, eng avvalo oilaviy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, oilaning faqat ichki muammolarinigina emas, balki umumijtimoiy

muammolarni ham hal etilishiga hissa qo‘shishini ta’minlash lozim. Xulosa qilganda, oila jamiyatning bir bo‘g‘ini ekanligi sababli, oilalarni har tomonlama o‘rganish, ulardagi muammlarni hal etish jamiyatga o‘z o‘rniga ega bo‘lishda yordam ko‘rsatish chora tadbirlari yanada chuqurroq amalga oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *Xaüdapov, C (2023) Pedagogik faoliyatda o‘qituvchi o‘zida kompetentlik sifatlarini shakllantirishi .*
2. *Goziyev E.G.Mamatov M.M.va boshqalar, “O‘spirin psixologiyasi” ToShDU.1992.*
3. *Goziyev E.G.Utanov B “Xamkorlik psixologiyasi” T,ToShDU.1992 .*
4. *I.A.Karimov “O‘zbekiston o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘l”-T., “O‘zbekiston”,1992.*
5. *Bo‘riyev O, Oila va yangi an‘analar “-T. „O‘qituvchi “,1998 .*
6. *Oila psixoterapiyasi nazariyalari “Ismatova D.-2021-yil .*
7. *Oila” ensiklopediyasi -T: 2016-yil.*

Mahammaturayeva Marjona Davronbek qizi,
Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi⁷⁸

O'ZBEK OILASIDAGI O'G'IL BOLALARNI JAVONMARDLIK ASOSIDA TARBIYALASH

***Annotasiya.** Ushbu maqolada oilada bola tarbiyasini amalga oshirish xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Bola tarbiyasining milliy va ma'naviy negizlari hamda bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda milliy qadriyatlarining o'rni keng yoritilgan. O'g'il bolalarni javonmardlik asosida tarbiyalashda ota-onaning ahamiyati haqida keng mulohaza qilingan.*

***Kalit so'zlar:** oila, tarbiya, javonmardlik, mas'uliyat, xulq.*

***Abstract.** This article discusses the features of child rearing in the family. The national and spiritual foundations of child education and the role of national values in raising children in a national spirit are widely covered. The importance of parents in raising boys on the basis of youth has been widely discussed.*

***Keywords:** Family, upbringing, youth, responsibility, behavior.*

Bugungi kunda oila muammolariga tegishli qonunchilikni tubdan o'zgartirish davr talabidir. “O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi, ”Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi **“2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2022 yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son, 2019 yil 2-apreldagi “Aholi muammolari bilan ishlashda mahalla institutining mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5700-son, 2020 yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son Farmonlari hamda 2021 yil 3-dekabrda “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-31-son Qarorida ham jamiyatning barcha davlat va nodavlat tashkilotlarining turli toifa oilalar mustahkamligi va farovonligini ta’minlashning huquqiy asoslari belgilab berilgan bo‘lib, ularning ijrosini ta’minlashda ota-onalar, mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, profilaktika (katta) inspektori, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, “Oqila ayollar” harakati a’zolari hamda keng jamoatchilik oldidagi dolzarb masala hisoblanadi”⁷⁹.**

⁷⁸ Ilmiy rahbar: Shaamirova Yulduzxon Kabiljanovna - Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori v.b, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

⁷⁹ Musurmonova A., Shaamirova Y., Salayeva M.S., Mahallalarda to‘liqsiz oilalardagi muammosi mavjud farzandlar bilan ishlash mexanizmlari. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent.2023. 93 bet.

Kishilik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti tarixidan ma'lumki, bola shaxsining kamoloti oilada shakllanadi. **Oila-** jamiyat hayotining kichik bir debochasi bo'lib, har tomonlama sog'lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun ma'sul bo'lgan g'oyat muhim tarbiya o'chog'dir. Zero oila bu muqaddas dargoh, Vatan ichra kichik Vatandir.

O'zbek oilasi a'zolarining barchasini savodxon, ma'lumotli deb atasak, xato qilmagan bo'lamiz, ana shu imkoniyatlar ta'sirida o'g'il va qizlar bilimli, fikr-mulohazali, topqir, ishbilarmon, aql-zakovatli bo'lib voyaga yetmoqdalar. Albatta farzandlarimiz tarbiyasida milliy qadriyatlarimiz ham asosiy rol o'ynaydi.

Yangi tahrirdagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan. Senat tomonidan shu yili 7-avgust kuni maqullandi. O'zbekiston Prezidenti 2023-yil 20-sentabrda imzoladi.

Ushbuni qonunda quyidagi tushunchalar izohlangan:

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi.⁸⁰

Oiladagi bola tarbiyasi ikki yoqlama ahamiyat kasb etadi, ota-onalar farzandlariga ahloq-odob, ruhiyat va ma'naviyatga oid bilimlardan saboq berish bilan qanoatlanib qolmasliklari, balki o'zlari ham tarbiyaning o'ziga xos sir-sinoatlari, hususiyatlari, uning mazmun-mohiyati va ma'nosiga doir eng yangi ma'lumotlardan xabardor bo'lib turishlari kerak bo'ladi. Bundan tashqari oilada ma'naviy muhit shakllantirish ham o'z samarasini beradi.

tarbiya — aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta'lim — ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari — ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari.

Yangi tug'ilgan chaqaloq bilamizki atrof muhitni, tashqi olam hatti-harakatlarini kuzatish bilan u o'zida fikrni shakllantiradi. Narsa va voqea-hodisalarga taqlid qila boshlaydi. Shunaday ekan bolaga har jabhada sog'lom hayot shakllantirib berilishi

⁸⁰ O'zbekiston milliy ensklopediyasi, (2000-2005).

kerak, bu borada biz albatta ota-onalarga murojaat qilamiz. O‘z farzandlariga oqilona tarbiya bera olgan ota-onalar, umrlarini rohat va farog‘atda o‘tkazadilar, bolalaridan hamisha olijanoblik, mehribonlik, yaxshilik ko‘radilar, dillari aslo jaroxat azobini sezmaydi; o‘kinish hissiga duchor bo‘lmaydilar. Shu to‘g‘rida o‘zbek xalqidagi quyidagi maqol darak beradi: “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”.

Darhaqiqat, oilada ota-onaning bir-biriga bo‘lgan munosabati, etik va estetik odoblar, kiyininsh, so‘zlashish odobi va boshqalar farzand tarbiyasida o‘z ifopdasini topadi. Agar ota onaga salbiy munosabatda bo‘lsa, o‘zaro hurmat bo‘lmasa, u holda farzandlarda ham ana shunday yomon odoblar shakllanadi. Chunki tarbiyaning negizi ota-onadir. Oilaning asosiy tayanchi bo‘lgan ota, hayotning barcha mashaqqatlaridan totib ko‘radi, o‘zining bukilmaz irodasi, adolatparvarligi, hayot sinovlariga bardoshlilik bilan ajralib turuvchi buyuk shaxs sifatida gavdalanadi. Ota oilaning boshlig‘i, posbonidir. Zero, oilaning har bir ko‘z ilg‘amas nuqtalarini ilg‘ay olish, oila a‘zolariga faqat to‘g‘ri, haq yo‘lni ko‘rsatib turishdek insoniy mas‘uliyat ota zimmasida turadi. Ota oilada o‘z farzandlariga har tomonlama yurish-turishda, nutq odobida, o‘zaro muomala madaniyatida, eng muhimi amaliy ish faoliyatida to‘g‘rilik va haqqoniylik, samimiyluk va xolislik yuzasidan namuna ko‘rsatadi.

Murg‘ak tasavvurli bola ilk tarbiyani oilada oladi. Bola tarbiyasining ilk saboqlari haqida atoqli o‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobida quyidagi ibratli o‘gitni aytgan edi: “Tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvatlantirmak, zexnimizni ravshanlashtirmak lozim⁸¹”.

Inson tanish odobdan, oila tarbiyasidan boshlansa, u bilan muloqot davomida axloqiy xislatlarini bila boradi. Va’daga vafo qiladimi, do‘stga sadoqati qanday, himmati va sahovati, jur‘ati va shijoati, o‘ktamligi va oriyati — barcha axloqiy fazilatlari birma-bir ko‘z oldingizda namoyon bo‘la boradi. Bu fazilatlar majmui zamirida esa yaxlit shaxs ma‘naviyati nurlanadi. Axloq ma‘naviyatga nisbatan surat, tashqi jihat bo‘lsa, odob o‘z navbatida axloqiy fazilatlarning yuzaga chiqishidir. Shu sababli insonni anglab yetish odobdan axloqqa, axloqdan ma‘naviyatga qarab teranlashib boradi. Ushbu yuksak insoniy fazilatlar oilada tarbiyalanadi.

Ammo shu bilan birga axloq odobga nisbatan, ma‘naviyat esa axloqqa nisbatan keng qamrovli mohiyatlardir. Inson odobi uning barcha axloqiy fazilatlarini namoyon eta olmaganidek, shaxsning barcha axloqiy sifatlarini bir yerga jam etganda ham baribir, uning ma‘naviy dunyosini to‘liq qamrab olgan bo‘lmaysiz.

Allomalar inson ko‘nglini tilsim ataydilar. Ko‘ngil ko‘zgusidagi ma‘naviyat nuri tufayli har bir inson o‘zi sehrli tilsimga aylanadi, mohiyatan cheksizlik kasb etadi. Demak, inson ko‘ngli ilm, irfon xazinasini, Haq sirini o‘zida yashirgan tilsim ekan. Inson shu sababli buyukdir. Irfon Haq sirini qalb bilan anglab etish bo‘lib, unga erishish, tushunib etish oson emas. Buning uchun inson atrof-voqelik, tabiatga, oilaga, o‘zga insonlar, bashariyatga, Vatan va millatga, ota-ona, farzand, do‘stga nisbatan huquq va

⁸¹ Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq”, Toshkent, “O‘qituvchi”- 1994

burchlarini mukammal anglab etmog'i, o'zining ichki qudrati va salohiyati, ruhiyati, iroda va himmatini qalban his qilmog'i zarur. Shu o'rinda keling o'g'il bola tarbiyasiga to'xtalamiz. Chunki, jamiyatning tayanchi bu qaysidir ma'noda erkaklardir. Ular Vatanni qo'riqlaydi, ular oilasini muhofaza qiladi.

Og'il bola tarbiyasi bilan asosan ota shug'ullanadi albatta. Lekin onalarimizning ham o'rni beqiyos. Nega deganda misol uchun adabiyotga nazar tashlasak Hamid Olimjonning tarbiyasida va adabiyotga kirib kelishida ham onasining o'rni ahamiyatli bo'lgan. U shunday mashhur va el ardog'idagi shoir bo'lishiga katta tayanch vazifasini o'tagan. O'g'il bolani tarbiya qilishda psixologlarning turli fikrlari, qarashlari bor. Masalan, psixolog Dilfuza Eshmurodova o'g'il bolani tarbiya qilish jarayoni haqida o'z fikrlarini bayon etgan: “O'g'il bolaning tarbiyasi bilan ota shug'ullanishi lozim. Tug'ilishi bilanoq. Ha, aynan o'zining tug'ilishi bilan. Chunki oiladagi tarbiya – bu avvalambor nasihat emas, namunadir. O'g'il bola otasining gapiga kirmaydi, u otasining xulqi, yurish-turishi va gap-so'zidan andoza oladi.

“Haqiqiy erkak” deganda nima tushuniladi? Erkak deganda kuchli jins vakili tushuniladi. Kuchli degani esa qarorlarni qabul qilishni bilishi hamda javobgarlikni o'z bo'yniga olishni bilishi kerak, degani. Qaror qabul qilish bilan javobgarlikni bo'yniga olish – bu bir tanganing ikki tomonidir. Birini bajarsa, ikkinchisini ham eplashi kerak. Masalan, erkak kishi qaror qabul qilsa-yu, uning uchun ayol kishi javob bersa, bu onasining bolasi, hisoblanadi. Yoki bo'lmasa, erkak kishi qaror qabul qilmaydi, biroq buning uchun javob bersa, unda u ayol kishining gapidan chiqmaydigan erkak bo'lib qoladi.

Bola necha yoshidan boshlab erkak kishi hisoblana boshlaydi? Aqlini tanishi bilanoq, ya'ni uch yoshdan boshlab. Ha, ajablanmang, aynan uch yoshdan. Aynan shu yoshdan boshlab bolaga “Sen – erkak kishisan!”, deb qulog'iga quyish lozim. Ayan shu yoshdan boshlab bolaga “Sen buni uddalaysan, sen buni bajara olasan, o'zingga ishon” deb uqdirish lozim. Afsuski, atrofga nazar solganda o'zini biror narsaga majbur eta oladigan erkaklarni topish amrimahol. Axir erkak kishi hamma narsani bilishi va bajara olishi shart. Ya'ni, erkak kishi chidamli bo'lishi, o'z nafsini yenga olishi, xato qilsa, uni tuzata bilishi, mehribon bo'lishi, qattiqqo'l, qo'pol bo'lishi, so'ziga javob bera olishi lozim. Umuman erkak kishi hamma narsani bilishi va har qanday sharoitda o'zini yo'qotib qo'ymasligi lozim”. Albatta o'g'il bola tarbiyasi juda nozik masala. Ularni javonmardlik asosida tarbiyalash ham muhim masaladir.

Javonmardlik deganda nima tushiniladi? Javonmardlik (forscha javonmard – mard yigit) – X–XIII asrlarda Xuroson va Movarounnahrda keng tarqalgan ijtimoiy harakat. Javonmardlik borini yo'qlar bilan baham ko'rish, yo'g'iga shukur qilib, faqat o'z hunari evaziga kun ko'rish, o'zini do'stlar xizmatiga bag'ishlash, boshqalarga beminnat yordam ko'rsatish, hojatbarorlikni hayotning mazmuni deb bilish, do'st-birodarlar nomusi, sharafini himoya qilish, zohiran va botinan pok yurib, pok


yashashni aglatadigan tushuncha. Uning uch nishonasi bor: vafoda xilof qilmaslik, manfaat talab qilmaslik, birov so‘rashidan oldin hozir qilish. Bunday odamlar tarixda bizning xalqimiz orasida ko‘p bo‘lgan. Ularni “fatiylar”, “axiylar”, “ayyorlar” deb ham nomlaganlar. Javonmardlar bir-birlari bilan aloqa bog‘lab, birgalikda muayyan ezgu maqsadlarni amalga oshirganlar. Ularning o‘z ustozlari va nizomlari bo‘lgan. Ular haqida maxsus kitoblar yozilib, pokiza xulqlari namuna qilib ko‘rsatilgan. Javonmardlar tasavvufni o‘zlari uchun axloq kodeksi sifatida qabul qilganlar va ko‘plari tariqat peshvolariga aylanganlar.

Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Bahovuddin Naqshband javonmardlik udumlarini davom ettirgan zotlardir. Xalqimizga xos bag‘rikenglik, mehmondo‘stlik, saxovatpeshalik, himmatlilik javonmardlik an‘analarida o‘z ifodasini topganligining ma‘lumotlar orqali guvohi bo‘lamiz. Pedagogika sohasi asoschisi Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida tarbiya haqida quyidagi fikrlar bildirilgan: “Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir. Rasuli Akram nabiiyi muhtaram Sallollohu Alayhi Vasallam afandimiz: “Insonlarning karami dinidadur, muruvvati aqlindadur, hasabi axloqindadur”⁸² To‘g‘ri tarbiyalangan farzand hech qachon noqobul bo‘lmaydi. Aksi bo‘ladigan bo‘lsa bu atrofdagilarga ham qaysidir ma‘noda ziyon yetishi mumkin. Ya‘ni bir farzandning no‘to‘g‘ri tarbiyasi butun bir jamiyatni halokatga yuz tutqazishi mumkin.

Mas‘uliyat-belgilangan vazifani bajarish majburiyatidir. Bu shaxs bajarishi kerak bo‘lgan vazifa yoki xizmatdir. Mas‘uliyat shaxsning o‘ziga yuklangan faoliyatni o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bajarish majburiyatidir”. Nega? Nima uchun? Har bir shaxs tarbiyasida mas‘uliyat asosiy negiz vazifasida bo‘ladi. Faraz qilaylik sizning ukangizga tarbiya sust va mas‘uliyatsizlikda berilgan bo‘lsa deydik, u ana shunday e‘tiborsizlikda ulg‘aydi, buning natijasida nimalar sodir bo‘lishini o‘ylab ko‘ring-a, ulg‘aygan sari ota-ona va farzand o‘rtasida keskinlik yuzaga keladi. Natijada bolada ota-onam meni tushunmaydi, meni qarorlarimi hurmat qilmaydi, dadam esa nuqul qo‘shnining o‘g‘lini maqtaydi degan fikrlar, nafrat uyg‘onishi mumkin. Bu vaziyatda esa bolada hayotga nafrat, nolish ila boqadi. O‘ziga nisbatan ishonch yo‘qoladi, o‘zini keraksiz buyumdek tasavvur qiladi, o‘z qobig‘iga o‘ralib oladi. Kelajak sari intilish ishtiyoqi yo‘qoladi.

Bola oila qurish davriga yetib kelganda esa, u hayot yo‘lini tanlashga qiynaladi, tanladik ham deydik, u holda u oila qanday bo‘ladi. Ko‘rinib turibiki, bu vaziyat urug‘ otib boradi. Bunday ayanchli vaziyatni yo‘q qilish har bir insonning o‘ziga va tashqi muhitga bog‘liq. Shunday ekan hech qachon g‘aflatta qolmaslik, doimo mehr-muruvvatli bo‘lish kerak. Keling yaxshisi tarbiya jarayonida muhim omillarni yaratamiz:

⁸² Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud Axloq”, Toshkent, “O‘qituvchi”-1994.



O‘ylaymizki, mana shu omillar jamlangan shaxsda tarbiya ham samarali bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, oilada o‘g‘il bola tarbiyasining milliy, o‘ziga xos qoidalari mavjud bo‘lib, ota-onalar ulardan o‘rinli foydalanishi kerak. Oilada ma‘naviy-ruhiy hotirjamlik, o‘zaro totuvlik xukmron qilsa, bola tarbiyasining tayanch muvozanatini topa olsa, bunday muhit o‘g‘il bola tarbiyasiga ijobiy ta‘sir etadi va ular farzandlariga haqiqiy baxt hadya etadilar, bu bilan rivojlanish, jamiyatimizda olg‘a siljish bo‘ladi. Oiladagi o‘g‘il bola ehson qiluvchi, to‘g‘ri so‘zli, mard va matonatli bo‘lib ulg‘ayadi.

Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” da keltirilishicha: “ Ilk borliq o‘z zotidan juvonmard - saxiydir va uning juvonmardligi uning javhari - aslida singdirilgandir”.⁸³ Demak, bundan tushuniladiki, ota-ona farzandiga to‘g‘ri tarbiya bersa, ya‘ni e‘tiborsiz qoldirmasa, vaqtini ko‘p qismini farzandini tinglash va uni qo‘llab-quvvatlash bilan o‘tkazsa ana shundagina berilgan tarbiya o‘z samarasini beradi. Natijada o‘g‘il bola ayollarni qadrlaydigan, onalarga ehtirom ko‘rsatadigan o‘g‘lon bo‘lib yetishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *O‘zbekiston milliy ensklopediyasi, (2005).*
2. *Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq”, Toshkent-“O‘qituvchi”-1994.*
3. *Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri”, Davlat ilmiy nashryoti-2004.*
4. *9-sinf “Adabiyot”- Toshkent-2019.*

⁸³Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri”, Davlat ilmiy nashryoti-2004

Xo'jamqulova Shaxnoza Sherboy qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

OILADA TA'LIM VA TARBİYANI TASHKIL ETISH UCHUN OTA-ONA VA FARZAND MUNOSABATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oiladagi tarbiya, oilada ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlar hamda muammolar va ularni hal qilish yo'llari, oilada ta'lim va tarbiyani tashkil etishdagi vazifalari hamda istiqbollari to'g'risida ham fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: oila, gender tengligi, oila tarbiyasi, “Oila yili”, ota-ona va bola munosabatlari, me'yor, tarbiya, ta'lim, kelajak.

Abstract. In this article, the views on education in the family, relations between parents and children in the family and problems and ways to solve them, tasks and prospects in the organization of education and upbringing in the family are also covered.

Key words: family, gender equality, family education, “Year of the Family”, parent-child relations, norm, upbringing, education, future.

Kirish. Ota-ona va bola munosabatlari, ularning tarbiyalari to'g'risida fikr yuritsak. Ota-ona ya'ni oila farzand uchun eng katta zona hisoblanadi. Ta'lim va tarbiya eng avvalo bola uchun oiladan boshlanadi. Ota-bobolarimiz aytganidek: “Bola boshidan ma'lum”. Bu degani bola oilada qanday muhit, qanday tarbiya olsa, ulg'ayganida ham xuddi shu muhitni yarata oladi va o'z farzandlariga ham yaxshi tarbiya bera oladi. Aslida tabiatdagi barcha jonzot bolasi uchun jon kuydiradi. Odanzod esa nasli davomchisi bo'lgan dilbandi uchun ulardanda ziyod qayg'uradi. Chunki ota-ona farzandi ulg'ayib, el-yurt koriga yaraydigan, yaxshi joyda ishlab, farovon hayot kechiradigan, hurmatga sazovor inson bo'lishini ho'xlaydi. Bu ezgu orzular amalga oshishi uchun albatta ota-ona farzandiga to'g'ri ta'lim va tarbiya bera olishi kerak. To'g'ri tarbiya berish uchun ham ota-ona qaysidir ma'noda otalik va onalik roliga tayyor bo'lishi lozim. Chunki bola dunyoga kelgan payti hamma narsani bilib tug'ilmaydi. U xuddi “top-toza qog'oz”. Bu qog'ozga sekin-asta ota-ona bergan tarbiya, muhit tarbiyasi va hayot qonuniyatlari yozilib borilaveradi. Qachonki ota-ona farzandini avaylab, e'zozlab katta qilsa u shunchalik mehr-oqibatli bo'ladi. Farzandga tug'ilganidan boshlab mehr ko'rsatilsa, hech narsaga ongi yetmasa ham hayotga ishonch, mehr tuyg'ulari rivojlanar ekan. Agar farzandga tug'ilganidan mehr ko'rsatilmasa, farzand ulg'ayganida bemehr, ishonchsiz va maqsadsiz shaxsga aylanib qolishi hech gap emas.

Asosiy ism. Oila tarbiyasi - oilada ota-ona, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash. Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch - oilada ruhiy xotir-jamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim



va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlari-nl hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash va h.k. Oila qanchalik tartibli, uning a'zolari o'rtasidagi munosabat samimiy bo'lsa, Oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi. Oila tarbiyasida ota-ona obro'si, ularning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavoblighi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Oila tarbiyasida tarbiya jarayoni zerikarli, quruq nasihatgo'ylikdan iborat bo'lib qolmasligi lozim. Bola hayotining ko'p qismi oilada o'tadi. Shu boisdan mavjud an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta'sirida bola asta-sekin ka-mol topib boradi. An'ana va marosim Oila tarbiyasining qudratli qurolidir. Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina, kutilgan natijalarga eri-shish mumkin. Oila tarbiyasida yutuklarga erishish ota-onalarning pedagogik bilimlarga egaligi, Oila tarbiyasi bo'yicha tajribalar almashishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg'in jalb qilishga ham bog'liqdir. Har bir ota-ona oila tarbiyasida o'zlarining burch va mas'uliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Normal oilaviy muhit, bolani kitob o'qishga, mehnat qilishga o'z vaqtida jalb etish ham oila tarbiyasining muvaffaqiyati garovidir. Oilada ota yoki onaning yo'qligi yoki ulardan birining ketib qolishi oila tarbiyasiga katta zarar yetkazadi. Ularning bolaga beradigan tarbiyaviy ta'sir kuchi yo'qoladi, Oila tarbiyasidagi muvozanat buziladi. Bunday sharoitda bola qalbi qattiq jarohatlanadi, u tajang, serjaxl, qo'pol, dag'al bo'lib qoladi, kattalarga ishonmay qo'yadi, o'qishi pasayib ketadi. Oila tarbiyasida otaning obro'si katta ahamiyatga ega. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan bog'lamasdan muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun oila tarbiyasida maktab va ota-onalar o'rtasidagi ta'limtarbiyaga oid birgalikdagi ishlari katta ahamiyatga ega. Ota-onalarning o'qituvchilar bilan bo'lgan uchrashuvlarida aytilgan fikrlar, ayniqsa qimmatlidir. Chunki ular o'z farzandlari to'g'risida ko'proq narsalarni bilib oladilar. Shuning uchun bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan har bir ota-ona oila bilan maktab o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi. Bola maktabni tamomlagunga qadar otaona maktab bilan yaqin aloqa o'rnatishi, farzandining darslarini o'zlashtirishi, xulq-atvoridan xabardor bo'lib turishi, tarbiya masalalarida o'qituvchi, sinf rahbari bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan so'ng nima bilan mashg'ulligi haqida o'qituvchi va sinf rahbarini xabardor qilib turishi lozim. Uz navbatida o'qituvchi va sinf rahbari ham bolaning o'qishi, odobi, xulqi, maktabda o'zini tuta bilishi haqidagi ma'lumotlarni ota-onaga yetkazishi, zarurat tug'ilganda paydo bo'lgan muammolarni birgalikda hal qilishi zarur. Farzandi maktabga borgan ota-ona maktab jamoasining a'zosi bo'lib qolishi kerak. O'qituvchi va sinf rahbari ham o'z o'quvchisining oilasi bilan mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yimgo'i lozim. Oila tarbiyasida ota-onalarning mahalla faollari, mehnat faxriylari bilan hamkorliklari ham muhim. Oila tarbiyasi farzandlarning har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratilsagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Oila tarbiyasida har bir oila o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi.



Agar oilada farzandga to’g’ri tarbiya berilmasa, farzand bilan to’g’ri munosabat qilinmasa, u bola kelajakda barkamol shaxs bo’lib kamolga yetolmaydi. Ota-ona o’z farzandiga qanchalik e’tiborsiz bo’lsa bola ruhan eziladi, o’zini baxtli va kerakli inson deb his qilmaydi. Hayotda har bir bola baxtli yashashga haqli. Chunki ular dunyodagi eng begunoh insonlardir. Shu o’rinda psixolog olim V.I.Selivanov fikrlarini keltirib o’tsak: “Baxtli bolalik bu oiladagi quvonchni, hamjihatlikni hamda ota-onalarning bolalariga g’amxo’rlikning samarasidir”. Biz bilamizki, inson xat’o qilish xususiyatiga ega. Oilada ota-ona ham farzand tarbiyasida bir qancha xatoliklarga yo’l qo’yadi. Quyida ota-ona yo’l qo’yadigan xatolarni keltirib o’tsak. Bola tug’ilganidan boshlab ota-onasining bag’rida voyaga yetadi. Bola ulg’aygan sari taqlid qilishni, ota-onasining harakatlarini bajarishni boshlaydi. Ya’ni bola ko’radi, bola qaytaradi. Oilada ota-ona nima harakat qilsa bola o’shani bajaradi. Agar oilada ota-ona bir-birini hurmat qilsa, to’g’riso’z, xushmuomala, mehribon bo’lsa, bola ham xuddi shunday bo’ladi. Aksincha, oilada o’zaro hurmatsizlik, turli xil kelishmovchiliklar, ziddiyatlar bo’lsa, bu bolaga ta’sir qiladi. U ham ulg’ayganda turli xil zo’ravonliklarni amalga oshirishi mumkin. Agar bunday oilada ota-ona farzandiga to’g’ri yo’lda yurishni maslahat bersa, bu hol ularning o’zida mavjudligini aytib, ota-onasining gapiga quloq solmasligi mumkin. Unutmang farzandingiz maslahatlaringizdan ko’ra amallaringizni ko’proq bajaradi. Shuning uchun oilada farzandingizga o’rnak bo’lish uchun avvalo o’zingiz tarbiyalangan bo’lishingiz kerak. Farzand tarbiyasida ota-ona yo’l qo’yadigan eng katta xatolardan biri bu-bolani urish. Oilada bolaga turli xil tazyiqlar o’tkazilsa, ular ham atrofdagilarga tazyiq, ziyon yetkazishi mumkin. Bunday hollarda bolalar muammoni kuch bilan hal qilish mumkin degan fikrda bo’ladi. Ular turli xil tazyiqlar orasida o’sganligi sababli, ulg’ayib o’z oilasini qurganda ham xuddi shunday zo’ravonliklarni amalga oshiradi. Bu kabi xatoliklar avloddan-avlodga o’tib borsa, butun bir kelajak yovuzlik to’riga tushib qoladi. Shu sababli butun jamiyat aziyat chekmasligi uchun oilada turli xil munosabatlarni, muammolarni murosa yo’li bilan hal qiling. Shu bilan birga farzandingiz oldida boshqalar bilan urish qilmang, boshqa insonlar to’g’risida yomonlab gapirmang. U bu kabi holatlarni ko’rsa dunyoda yomon odamlar ko’p ekan degan xulosaga kelib qoladi.

Xulosa. Ko’rinib turibdiki, oila tarbiyasi ota-onaning shaxsiy ishi emas balki, davlat jamiyat oldidagi burchi hamdir, chunki bola qobil bo’lib o’ssa undan nafaqat ota-ona, balki butun el yurt, mahalla kuy davlat ham manfaatdor bo’ladi. Agar bola noqobil bo’lib o’ssa, undan faqat ota-ona oilagina emas, balki el, yurt, jamiyat, davlat ham aziyat chekadi. Shuning uchun ham oilaviy tarbiya muhim siyosiy ahamiyatga ega bo’lib, tarbiya tizimida asosiy markaziy o’rinni egallaydi, chunki xohlagan tarbiya turini olsak—axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, estetik tarbiya hammasi avvalo, oilada shakllanadi. Demak oila tarbiyaning dastlabki debochasidir. Shuning uchun ham yurtboshimiz oilaviy tarbiyaga alohida e’tiborni qaratib, oilani ijtimoiy muhofaza qilish, oilada yoshlar tarbiyasiga e’tiborni kuchaytirish, oilani huquqiy tamoyillarini kengaytirish kabi masalalar bo’yicha qator huqumatimiz tadbirlarini ishlab chiqdilar,

buni biz 1998 yil mamlakatimizda “Oila yili” deb e’lon qilinishi misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek: “Xalqimiz qadim-qadimdan oilani muqaddas deb bilgan, oila ahl va totuv bo‘lsa, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Oila farovonligi–milliy farovonlik asoslaridir. Shuni unutmangki, farzandlarimizni har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoit yaratishsagina oila tarbiyasi muvafaqqiyatli bo‘lishi mumkin.

Aziz ota-onalar! Farzandingizdan mehringiz va vaqtingizni qizg‘onmang. Ularning tarbiyasiga e’tiborli bo‘ling. Zero, farzandingiz tarbiyasidagi bugungi munosabat, kelajakda oyoqlarinigizda kuch qolmaganda seziladi! Farzandingizning sizga qanchalik mehrlil bo‘lishi siz ota-onalarga bog‘liq. Shuni unutmang!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. Toshkent, «Adolat», 1998.*
2. *Yo‘ldoshev J.G‘. O‘quvchi ma‘naviyatini shakllantirish (qo‘llanma)-T.:2000.*
3. *Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования: Учебное пособие. М.: Гардарики, 2005*
4. *Uzoqov H, G‘oziyev E, Tojiyev A. Oila etikasi va psixologiyasi. T: O‘qituvchi 1992. 128 b.*
5. *Xo‘jayev N. Tarbiya nazariyasi. – T.: 2003.*
5. <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8968/6296>

Sunnatova Dilfuza Sherzod qizi,
Toshkent amaliy fanlar uiversiteti talabasi⁸⁴

OILA VA UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNI LUG'AT USTIDA ISHLASHGA O'RGATISH

Annotasiya. Ushbu maqolada o'quvchilarning lug'at ustida ishlash ko'nikmasini o'stirish, turli lug'atlar bilan ishlash jarayonini yaxshilash ko'zda tutiladi. Oila va maktablarda lug'atlar bilan ishlash, o'quvchilarda fikrlash va dunyoqarashini kengaytirish, so'z boyligini boyitish yo'llari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: lug'atshunoslik, kreativlik, frazeologik birlik, kinoya, yangi so'zlar, ibora, sheva, izohli lug'at, og'zaki nutq

Abstract. This article discusses the development of students' vocabulary skills, improving the process of working with various dictionaries. It tells about working with dictionaries in the family and schools, about ways to expand students' thinking and worldview, and enrich vocabulary.

Keywords: lexicology, creativity, phraseological unit, irony, new words, phrase, dialect, explanatory dictionary, oral speech

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son “Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

Konsepsiya O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari, vazifalari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.⁸⁵

So'nggi besh yil davomida ta'lim tizimini takomillashtirishning huquqiy asoslari yaratildi. Xususan, “Ta'lim to'g'risida”gi qonunning yangi tahriri, 2020-yil 23-sentyabr kuni 637-sonli qarori qabul qilindi, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Maktab ta'limini rivojlantirish sohasida bevosita 17 ta hujjat, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 ta hujjati qabul qilindi.⁸⁶

⁸⁴ Ilmiy rahbar: Shaamirova Yulduzxon Kabiljanovna - Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori v.b, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

⁸⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son “Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori

⁸⁶ Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O'zbekiston. 2017. 27-b



Umumta'lim maktablarida o'quvchilar lug'atlar bilan ishlashda ularda kuzatuvchanlik qobiliyatini yuzaga chiqaradi, so'z boyligini orttiradi, savodli yozish malakasini takomillashtiradi. Lug'at nima ekani bugungi kunda hammaga ma'lum. Bu — so'zlarning ma'nosini tushuntirib beradigan, odatda alifbo tartibida berilgan kitob. Shuningdek, so'zning talaffuzi, tarixi yoki undan foydalanish xususiyatlari haqida ma'lumot ham bo'lishi mumkin. Bunday kitobni yaratish g'oyasi bir necha asrlar o'tib paydo bo'lgan. Lug'at so'zi birinchi marta so'zlar to'plami degan ma'noni anglatadigan uning lotincha shaklida ishlatilgan. Bu taxminan 1225-yilda yaratilgan va yodlash uchun lotincha so'zlarni o'z ichiga olgan kitobning nomi bo'lgan. Bu kitobdan faqat sinfda lotin tilini o'rganishda foydalanilgan.

XV asrda lug'atlarda inglizcha so'zlar paydo bo'la boshlagan, ammo ular faqat lotin tilini o'rganishda ko'mak sifatida ishlatilgan. Ulardan har biri lotincha ekvivalentiga ega 12 mingga yaqin inglizcha so'z paydo bo'lgan. Birinchi haqiqiy ingliz lug'ati deb hisoblangan kitob 1552-yilda nashr etilgan. Kitob hali ham lotincha nomda va uning asosiy maqsadlaridan biri, lotin tilini o'rganish bo'lgan. Shuningdek, u ingliz tilida o'qishni o'rganishni istaganlar uchun ham foydali bo'lib chiqqan. Bu lug'at hazil tuyg'usiga ega Richard Xaloet tomonidan tuzilgan. Ko'rinib turibdiki, lug'atlar biror maqsad yuzasidan yaratilmagan. Asta-sekin bunday kitoblar soni ko'paya boshlagan. Ularning ko'pchiligi muallif tomonidan faqat ma'lum bir maqsad uchun maxsus tanlangan bir necha ming so'zdan iborat bo'lgan. Masalan, bir lug'atda so'zlar alifbo tartibida emas, balki oxirgi bo'g'inlarning yozilishi yoki talaffuziga ko'ra joylashtirilgan. Bu shoirlarga yordam berish uchun ishlab chiqilgan qofiya lug'ati bo'lgan.

Dastlabki lug'at tuzuvchilar kitobga barcha so'zlarni kiritishga urinmagan. Chunki ularning maqsadi faqat qiyin so'zlarning ma'nosini izohlash bo'lgan. Bu zamonaviy lug'atlar yaratilishning boshlanishi edi va ularning ba'zilar ingliz tilidagi barcha so'zlarni o'z ichiga olgan. Ammo tarixdan bizga ma'lumki, Mahmud Qoshg'ariyning “Devoni lug'ati-turk” XI asrda yaratilgan, demak, Richard Xaloetdan oldin Mahmud Qoshg'ariy lug'at yaratgan. Lug'at turlariga to'xtaladigan bo'lsak, lug'atlar qadimdan yaratib kelingan. Masalan, Mahmud Qoshg'ariyning “Devoni lug'ati-turk” XI asrda yaratilgan yoki XVI asrda Usmonli turk tilida yaratilgan “Abushqa” lug'atlari tarixdan bizga ma'lum. Yana ma'lumot o'rnida shularni aytib o'tishimiz mumkinki, XVII-XIX asrlarda “Badoyi ul – bidoyi” o'zbekcha - forsha lug'at, “Abushqa” o'zbekcha-turkcha lug'at, “Kelurnoma” o'zbekcha-tojikcha lug'at, “Sangloh” lug'ati va o'zbek adabiy tili va lug'atlar ham yaratilgan.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilar bilan lug'at ustida ishlash predmeti og'zaki va yozma nuqtini o'stirishga, lug'atini boyitishga, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish kitobxonlik nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O'quvchilarning matnni o'qish va uni tushunish darajasini aniqlash bo'yicha Xalqaro tadqiqot metodlari ya'ni PIRLS doirasida o'qish savodxonligini rivojlantirishda mazkur fan muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O'zbek tilining boy



tarixi, undagi ro'y berayotgan o'zgarishlar, lug'at tarkibidagi yangi so'zlarning paydo bo'lishi, turlari iboralar ma'nosi, so'z etimologiyasini bilish har bir o'quvchi uchun juda qiziqarli.

Dars jarayonida lug'at ustida ishlash mashg'ulotlarini tashkil etishni to'g'ri yo'lga qo'yish har bir o'qituvchidan yuksak mahorat va izlanish talab qiladi. Darslarida izohtalab so'zlarga oid bilimlarni shakllantirishda fanning ilg'or yutuqlaridan, xususan, maktab o'qituvchisining metodik tayyorgarligi, o'quvchilarning bilish faoliyatlarini uni rejali boshqarish asosida faollashtirilishi, o'quvchilarni o'qitish metodlari, uslub va vositalarining maktab sharoitiga moslanganligi kabi ko'pgina amaliy ishlarni tashkil etish orqali erishiladi.

Maktabda lug'at ustida ishlash metodikasi to'rt asosiy yo'nalishni ko'zda tutadi:⁸⁷

1. O'quvchilar lug'atini boyitish, ya'ni yangi so'zlarni, shuningdek, bolalar lug'atida bo'lgan ayrim so'zlarning yangi ma'nolarini o'zlashtirish. Ona tilining lug'at boyligini bilib olish uchun o'quvchi o'z lug'atiga har kuni 8-10 ta yangi so'zni, shu jumladan, ona tili darslarida 4-6 so'zni qo'shishi, ya'ni shu so'zlar ma'nosini o'zlashtirishi lozim.

2. O'quvchilar lug'atiga aniqlik kiritish. Bu o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

1) o'quvchi puxta o'zlashtirmagan so'zlarning ma'nosini to'liq o'zlashtirish, ya'ni shu so'zlarni matnga kiritish, ma'nosi yaqin so'zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo'llari bilan ularning ma'nosiga aniqlik kiritish;

2) so'zning kinoyali ma'nosini, ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirish;

3) so'zlarning sinonimlarini, sinonim so'zlarning ma'no qirralarini o'zlashtirish;

4) ayrim frazeologik birliklarning ma'nosini o'zlashtirish.

3. Lug'atni faollashtirish, ya'ni o'quvchilar ma'nosini tushunadigan, ammo o'z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nafaol lug'atidagi so'zlarni faol lug'atiga o'tkazish. Buning uchun shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o'qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar faol lug'atidan nafaol lug'atiga o'tkazish. Bunday so'zlarga bolalarning nutq muhiti ta'sirida o'zlashib qolgan adabiy til me'yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so'zlashuv tilida qo'llanadigan sodda so'z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so'zlar kiradi.

Adabiy til me'yori degan tushunchani o'zlashtirgach, o'quvchilar yuqorida izohlangan so'zlar o'rniga adabiy tildagi so'zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so'zlar, so'zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so'z va iboralar o'quvchilarning faol lug'atidan chiqib keta boshlaydi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili ulkan lug'at boyligiga ega. Besh jildlik „O'zbek tilining izohli lug'ati“ da 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi berilgan bo'lib, bular umumiy

⁸⁷ Karima Qosimova, Safo Matchnov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldasheva, Sharofjon Sariyev „Lug'at ustida ishlash metodikasi“. Toshkent-2022



qo'llaniladiganlaridir. Bunga o'zbek tilida nashr etilgan turli terminologik lug'atlarda, o'zbek tili sinonimlari, antonimlari, frazeologik lug'atlarida va turli izohli lug'atlarda berilgan so'zlar qo'shilsa, lug'at boyligi yana ming-minglab oshadi. Bulardan tashqari, juda ko'p so'zlar ko'p ma'noni bildiradi. Masalan, shu izohli lug'atda bosh so'zining 40 dan ortiq asosiy va frazeologizm bilan bog'langan ma'noda ishlatilishi berilgan.

Maktabda nutq o'stirishning muhim vazifalaridan biri lug'at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash, o'quvchilar lug'atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi. O'quvchilarning lug'at boyliklarini bilish uchun ulardan ijodiy bayon, insho olish orqali bilib olishimiz mumkin. Ularning lug'atlardan foydalana olganliklari, qay darajada bunday salohiyatga ega ekanligi shular orqali bilamiz. Hozirgi kunda umumta'lim maktablarda lug'atlar bilan ishlash ko'nikmasi ancha kamayib bormoqda. Bunga sabab o'quvchilarning telefondan foydalanib, ko'p vaqtini o'tkazib yuborishi yoki kitoblar o'rnini telefonlar egallab borishi azaliy tusga aylanib bormoqda. Yoshlarning ko'p vaqti ijtimoiy tarmoqlarda o'tib, kunning qanday boshlanib, tugab qolganligini ham bilmay qolishadi, uzluksiz, bemaqsad foydalanish esa kuchli qaramlikni keltirib chiqaradi, bu holat shunday davom etaversa, o'quvchida ma'naviy ong shakllanmay, zamonaviy manqurtlikka olib kelishi ham mumkin.

Inson kitob mutolaa qilgani sari uning lug'at boyligi ham oshib boradi, yangi so'zlarni ko'rganida uning izohini topishga harakat qiladi, shu asnoda kishida asta-sekin uning lug'at boyligi beixtiyor oshadi. Bolani kitobga jalb etish orqali uning ma'naviy kamoloti ham oshirib borish mumkin, u dunyoga yangicha fikrlar, g'oyalar bilan qaray boshlaydi. Kitobga oshno kishi birov bilan suhbat qilganda ham lug'at boyligi kengligi sababli, u kishi bilan bo'lgan suhbat samarali bo'ladi. Bolada kitobxonlikni shakllantirish yoshlikdan, oila davrasidan boshlanadi. Albatta, kitobxonlik oiladan boshlanishi kerak.

Ota-onalar farzandi uchun ertaklar aytib berishi, vatanparvarlik ruhidagi doston, maqol va masallarni o'qib berishi — bolaning ongini o'stirishi bilan bir qatorda, uni kitobxonlikka tayyorlab boradi. Bu esa bevosita onalarimiz kitobxon bo'lishi lozimligini ham anglatadi. Demak, lug'at shakllanishi yoshlikdan boshlanar ekan, bola gapirgandan ham ilk lug'atdagi so'zlarni onadan o'rganadi.

Bolaning nutqi chiroyli bo'lishida nafaqat maktab, balki oilaning ham o'rnini beqiyosdir. Oiladagi so'zni to'g'ri ishlatishga bo'lgan talab, o'smirning nutqini g'ozal bo'lishi sabab bo'lishi aniq. So'zlarning qiyin imlosini mayli maktab to'g'rilasin, ammo so'zning maqsadli va chiroyli bo'lishi uchun ota-ona mas'uldir. Shevaga xos so'zlar, jargonlar, qisqa so'zlar, olifto so'zlar, ko'cha so'zlari albatta oilada payqalishi va uni to'g'rilanishiga ahamiyat berilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, bolaning ongli ravishda rivojlanishi uchun lug'atlarning o'rnini beqiyos ekan. Har bir oilada “oila kutubxonasi” tashkil qilish lozim. Uyda, oilada, qolaversa, maktabda tashkil etilgan kutubxonalar kelajakda yoshlarimizga bir zamin bo'ladi. Oilada kitobxonlikni rivojlantirish ham samarali hisoblanadi. Ota-



ona tomonidan biror bir asar mutolaa qilish bolaga vazifa qilib berildi, bola u asarni o‘qib tugatgandan keyin, asardan parcha yoki iqtibos keltirib uni tahlil qildirsak, bu faoliyat har doim davom etsa, bolaning so‘z boyligida yangi lug‘atlar kirib kelishini kuzatishimiz mumkin, bu albatta ijobiy natijani beradi.

Ijtimoiy tarmoqlardan kamroq foydalanib, ko‘proq vaqtimizni kitoblar dunyosi bilan o‘tkazsak, lug‘at boyliklarimiz ham oshib boradi. Shuningdek dars davomida lug‘atlar bilan ishlash, o‘quvchilarga so‘z ma’nosini tushintirish, o‘quvchilarning lug‘at boyligini orttiradi, duny qarashini kengaytirib, ularga ma’naviy ozuqa beradi. Lug‘at ustida ishlash darslarida reja asosida izchil olib borish zarur. Bu esa adabiy til me’yori degan tushunchani o‘zlashtirgach, o‘quvchilar yuqorida izohlangan so‘zlar o‘rniga adabiy tildagi so‘zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so‘zlar, so‘zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so‘z va iboralar o‘quvchilarning faol lug‘atidan chiqib keta boshlaydi. Natijada o‘quvchilarning ilmiy salohiyati ham borgan sari oshib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O‘zbekiston. 2017.*
2. *Abdushukurov B., “O‘zbek adabiy tili tarixi “ Toshkent-2020*
3. *Qosimova K., Safo Matchnov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldasheva, Sharofjon Sariyev “Lug‘at ustida ishlash metodikasi”. Toshkent-2022*
4. *“O‘zbek tili fanidan lug‘atlar ustida ishlash orqali talabalarning so‘z boyligini oshirish” metodik ko‘rsatmasi. Toshkent-2005*
5. *O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent: OME, 2006-2008. – 5 tomli.*
6. *Muhamedov X. O‘. va boshq. Ta’limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar. T., 2016.45 b.;*

NIKOH VA OILA

Annotatsiya: Oila jamiyatning muqaddas maskani, eng asosiy tarbiya makonidir. Oiladagi ota ibrati, ona mehri, bobo va buvilar o'g'itlari orqali milliy qadriyatlarimizga bo'lgan imon-e'tiqod, halollik, mehr-oqibat avloddan avlodga o'tadi, farzandlarimiz ongi va qalbida muhrlanib boradi. Bundan tashqari oila jamiyatning bir bo'lagi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Oila, nikoh, bola, jamiyat, oila pedagogikasi

Abstract: The family is the sacred place of society, the most important place of education. Through the father's example, mother's love, grandfather and grandmother's teachings in the family, faith in our national values, honesty, kindness are passed from generation to generation, imprinted in the minds and hearts of our children. In addition, the family is considered a unit of society.

Keywords: Family, marriage, child, society, family pedagogy

Kirish qismi: Qadim qadimda halqimizda oilaga katta etibor qaratilgan. Bundan tashqari bolani tarbiya qilish jarayonida ham, oila muqaddas ekanligi o'qitib kelingan.

Jumladan, “Oila yili” (1998 yil), “Sog'lom avlod yili” (2000 yil), “Onalar va bolalar yili” (2001 yil), “Barkamol avlod yili” (2010 yil), “Mustahkam oila yili” (2012 yil), “Sog'lom bola yili” (2014 yil) “Sog'lom ona va bola yili” (2016) “Yoshlarni qo'llab quvatlash va aholi salomatligini ta'minlash yili (2021) “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili” (2022) deb nom berishligi so'zimizning isbotidir.

Nikoh va oila tushunchasi va mohiyati.

Bu ikki o'xshash tushunchalar ko'pincha bir ma'noni anglatadi. Ular, albatta, juda yaqin, lekin nikoh va oila o'rtasidagi farqlar mavjud. Ulardan ba'zilari quyidagilardir: oila tarixda avvalroq paydo bo'lgan va nikoh davlat institutlarining rivojlanishi bilan ro'yxatga olindi;

1 Oilaning turli shakllari turli xalqlarga ma'lum va turli vaqtlarda ma'lum va nikoh odatda er-xotin munosabatlarining asoslarini anglatadi: erkaklar va ayollar;

2 Oila odatda ancha keng va barqaror davlat ta'limidir, lekin nikoh qonuniy muddat va ob'ektdir. Garchi bir hodisa yuzaga kelishi mumkin bo'lsa-da: uning oilasini qoldirib ketgan ota bolani oilaviy munosabatlarini buzgan, ammo nikohga oid huquqiy nuqtai nazardan bu munosabatlar davom etmoqda.

Oila kodeksi – oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solib, oila a'zolari (ya'ni, er-xotinlar, ota-onalar, bolalar, shuningdek, farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinuvchilar va oilaning boshqa a'zolari) o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi va mustahkamlovchi qonun hujjati. Huquqning alohida tarmog'i hisoblangan oila huquqining maxsus manbaidir. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Oila kodeksi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 30-apreldagi qarori bilan tasdiqlanib, ushbu yilning 1-sentabrdan amalga

kiritildi. E’tiborlisi, Oila kodeksi mamlakatimizda „Oila yili“ [1] deb e’lon qilingan yilda qabul qilindi. Kodeks 8 bo‘lim, 30 bob, 238 moddadan iborat. Amaldagi Oila kodeksi bir qator oilaviy huquqiy munosabatlarni yangicha hal etgan. Chunonchi, milliy negizlarga asoslanganligi (quda-andachilik, qarindoshurugchilik, bobo-buvilar va nabiralar o‘rtasidagi munosabatlarning yangicha talqini), umuminsoniy qadriyatlar aks etganligi (nikoh shartnomasi institutining kiritilishi, nikohlanuvchi shaxslarning tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishi) kabi hollar.

Asosiyqism: Nikoh (arab. نِكَاح; talaffuzi: nikah; tarjiması: „jinsiy a’loqa“) — ikki jins vakillarining o‘zaro roziligi asosida tuzilgan ittifoq. Nikoh oilaning vujudga kelishida birdan-bir asos bo‘lgani bois u faqat axloq normalari bilan emas, balki maxsus qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Nikoh, oila qurish Alloh taoloning insoniyat orasida joriy qilingan muqaddas qonunlaridan biri bo‘lib, nasl-nasabning davomiyligi, insonlar orasida qarindoshurug‘chilik, mehr-oqibatni mukammal bo‘lishi kabi insoniyat uchun manfaatli maqsadlarga xizmat qiladi.

Oila va nikohning asosiy vazifalari:

1. Reproductive. Odamlarni rivojlantirishning asosiy manbasi - yangi odamlar - oilalarda ishlab chiqariladi.

2. Iqtisodiy. Oila ishlab chiqaruvchi va iste’molchi bo‘lgan byudjetni boshqaradigan milliy iqtisodiyotning eng kichik birligidir.

3. Ta’lim. Turmush qurishni maktab deb atash mumkin, bu erda katta yoshlilar va yoshlar ijtimoiylashuvni o‘rganadilar, bu sohada o‘z tajribalarini olib, amaliyotda qo‘llashadi. Nikoh va oilaning shakllari yoki naqshlari.

Erkak va ayol birlashmasi jamiyatning progressivligiga va undagi diniy normalarning og‘irligiga qarab turli xil shakllarni olishi mumkin. Shunday qilib, oila yoki nikoh bo‘lishi mumkin:

1. An’anaviy nikoh - dunyoviy va / yoki diniy tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan, jamiyat tomonidan rag‘batlantiriladi. Eng katta darajada qonuniy ravishda o‘rnatildi.

2. Fuqarolik nikohi - an’anaviy oilada bo‘lgani kabi, barcha munosabatlar, lekin ro‘yxatdan o‘tmasdan. So‘nggi paytlarda hamkorlarning huquqiy muhofazasi masalalarida an’anaviy nikohni tobora ko‘proq yaqinlashtirmoqda.

3. Vaqtinchalik nikoh - muayyan vaqt mobaynida mahbus bo‘lib, keyinchalik u tarqatib yuboriladi. Ba’zi musulmon mamlakatlarida paydo bo‘ladi.

4. Hamjihatlikda turmush qurish sheriklar ikkitadan ko‘p bo‘lsa, bu ishning shakli hisoblanadi.

5. Mehmonlar uchun nikoh - zamonaviy taraqqiyot, nafaqat qulay tomonni tark etish, hayot kabi barcha ziddiyatli momlarni olib tashlash istagi. Hamkorlar vaqti-vaqti bilan turli hududlarda yashaydi.

6. Erkin nikoh - hamkorlar bir-biridan oiladan tashqarida shaxsiy munosabatlarga ega bo‘lish huquqini qoldirishga rozilik bildirganda.

Oila tarbiyasida bolalar hayotini to'g'ri uyushtirish ularning vaqtdan to'g'ri va unumli foydalanishning asosiy garovi ekanligini ota-onalar o'z farzandlariga uqtirishlari lozim. Oila tarbiyasi masalalari bo'yicha Abu Ali Ibn Sino maxsus “Tadbir al-manozil” nomli asarini yozgan. Unda olim ota-onaning bola tarbiyasidagi vazifalarini yoritgan. Asarda ota-onaning vazifasi va burchiga, oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniqsa, ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o'rgatish borasida muhim fikrlar bayon etadi.

Ma'rifatparvar Munavvarqorining “Oila a'zolari” nomli darsligi bo'limlarida ota-onani hurmatlash, aka-uka, qarindosh-urug'ini e'zozlash kabi g'oyalar alohida o'rin egallaydi. Kishining bor ersa ota-onasi G'animatdir unga olarning rizosi. Xudoni qoshida qabul ekandir Ota va onaning bolaga duosi.

Abdurauf Fitrat 1916 yilda «Oila» nomli falsafiy asarini yozgan bo'lib, unda oilaviy hayot islohotidan baxs yuritilgan va adib najot yo'llarini axtarib, xalqlarning umuminsoniy qardoshlik g'oyasini targ'ib etgan.

Oila boshlig'i ota – ona bola tarbiyasi haqida yetarlicha amaliy va nazariy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Agar ularda yetarlicha bilim, ko'nikma va malaka bo'lmasa, u oila a'zolari, ya'ni farzandlariga yaxshi tarbiya bera olmaydi. Oiladagi yomon tarbiya faqat oilaning o'ziga hos bo'lmasdan, balki qo'ni-qo'shni va mahalladagi tarbiyaga ham salbiy ta'sir qiladi.

Suqrot (eramizdan avvalgi 469-399 yillar) o'zining demokratik ijtimoiy kelib chiqishiga qaramay (u kambag'al hunarmand, ya'ni haykaltarosh o'g'li) konservativ zamindor aristokratlarning ideologi edi. Bu, albatta, uning falsafiy va pedagogik qarashlarida o'z aksini topdi. Suqrot dunyoning tuzilishini, buyumlarning fizik holatini bilib bo'lmaydi, odamlar faqat o'zlarinigina bilishi, axloqni kamol toptirishi lozim deb hisoblar edi.

Mamlakatimizda amalga oshirib kelinayotgan keng qamrovli ijtimoiy islohotlarning mazmun-mohiyati oila manfaatlarini himoya qilish, uning jamiyatdagi muhim ijtimoiy institut va barkamol avlodni tarbiyalash o'chog'i sifatida mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-tarbiyaviy asoslarini qo'llabquvvatlash, oilaviy tarbiya va reproduktiv salomatlik hamda bu boradagi tizimli ishlardan tarkib topadi.

Inson borki, oilada tug'iladi, voyaga etadi. Oilalardan jamiyat tashkil topadi. Baxtli va farovon oilalar ko'paysa, jamiyat rivojlanadi.

Oila – ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydigan, kelajak avlod, qadriyatlar tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan ijtimoiy makon.

Oila erkak va ayol o'rtasidagi rasmiy nikohga asoslangan, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlardan tashkil topgan, jamiyatning axloqiy me'yorlari va qoidalari qo'llab-quvvatlanadigan, insoniyat madaniyatini kelajak avlodga etkazib beradigan va uni rivojlantiradigan birlamchi ijtimoiy guruhdir.

Xozirgi kunda fanlar orasida oila pedagogikasi qo'shilgan sababi yoshlarni oilaga tayorlash sababli pedagoglarimiz oila pedagogikasi o'tishadi.

“Oila pedagogikasi” fanining predmeti oilaning ijtimoiy va etnopedagogik xususiyatlarini tashkil etadi

“Oila pedagogikasi” fanining maqsadi - oila pedagogikasiga doir eng muhim bilimlarni berish va ular asosida tegishli malakalar, ko‘nikmalarni shakllantirib, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdir.

“Oila pedagogikasi” fanining vazifalari:

- Oilali shaxsning shakllanishidagi roli haqida yoshlarda tassavur shakllantirish;
- Yoshlarni oilaviy hayotda kuzatiladigan o‘zgarishlar haqidagi ilmiy bilimlar bilan tanishtirish;
- Oilaviy hayotda bo‘ladigan muammolar, qonuniyatlar haqida ilmiy tasavvurlar bilan tarbiyalash, ularni bu jarayonlarga tayyorlash;
- Muammoli vaziyatlardan pedagogik va psixologik jihatdan oqilona chiqish malakalarini o‘rgatish;
- Yoshlarning o‘zlariga turmush o‘rtog‘ini to‘g‘ri tanlash malakalarini shakllantirish;
- Oilaviy muloqotga tayyorlash xamda oilani rejalashtirishga o‘rgatish;
- Yoshlarni jinsiy hayotga ilmiy asosda tayyorlash va oilaning mustahkamligini ta‘minlovchi bilim va malakalarni shakllantirish.

Oila pedagogikasi jamiyatning shaxs tarbiyasiga doir muhim davlat siyosatidagi ustuvor vazifalarini mukammal bajarishida xizmat qiladi, ta‘lim– tarbiyaga doir bilimlar mushtarak muolda jamlab farzand tarbiyasiga doir tartib, qoidalarning sinovdan ‘tkazuvchi va amalda tadbiiq qiluvchi ota – onaning faoliyatidir.

Shaxs tushunchasi psixologiyada eng ko‘p qo‘llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o‘rganadigan barcha fyenomyenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi. Inson ruxiy olami qonuniyatlari bilan kizikkan xar qanday olim yoki tadqiqotchi xam shaxsning ijtimoiyligi va aynan jamiyat bilan bo‘lgan aloqasi masalasini chyetlab utolmagan. SHaxs — ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning maxsuli, ongli faoliyatning sub‘yekti bo‘lmish individdir. SHaxsga taaluqli bo‘lgan eng muxim tasnif xam uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga byevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan xam ob‘yekt, xam sub‘yekt bo‘lishlikdir.

Oila pedagogikasi fanini mazmundorligini ta‘minlovchi badiiy adabiyot, san‘at asarlari, milliy meros va umumiy insoniy qadriyatlardir. Oila tarbiyasidagi bolalar xayotini to‘g‘ri uyushtirish, ularni vaqtdan to‘g‘ri va unumli foydalanishning asosiy garovi ekanligini ota-onalar o‘z farzandlariga o‘qtirishlari kerak. Oila tarbiyasi masalalari bo‘yicha maxsus Abu Ali Ibn Sino “Tadbir almanozil” nomli asarini yozgan. Mutafakkir ota-onaning bolalarni tarbiyalashdagi vazifalarini yoritgan. Asarda oilada ota-onaning vazifasi va burchiga va oila munosabatlariga to‘xtalar ekan, ayniksa ota-onalarning oilada mexnatsevarligi bilan farzandlarini xam kasb va xunarga o‘rgatish borasida muhim fikrlar bayon etadi.

Oila muqaddas dargoh xisoblanib, agar bolaga yoshligidan to‘g‘ri tarbiya berilsa oiladagi zo‘ravonlikni oldini olgan bo‘lar edik. Sababi hozirgi kumda oiladagi

zo'ravonlik avjiga olgan zamonda yashamoqdamiz. Bunga misol qilib ayta olamizki. Ko'pkina ayollar zo'ravonlik ta'sirida o'z jonlariga qasd qilish xolatigacha borib qolyapti.

Tarbiya haqida gap ketganda o'tgan asrning boshlarida xalqimizning jonkuyar ma'rifatparvari Abdulla Avloniyning bir gapi beixtiyor yodga tushadi: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”. Darhaqiqat, tarbiya sababli davrlar va xalqlarning kelajagi belgilanadi, u har bir jamiyatning jon tomiri, oliy qadriyati hisoblanadi. Kelajak avlod – farzandlarimizning biz orzu qilgandek bilimli, hunarli, el-yurtga foydasi tegadigan, oqil insonlar bo'lib yetishishi, avvalo, tarbiyaga bog'liq. Farzand Alloh taoloning insonga bergan oliy ne'matlaridan biri bo'lib, ota-ona hayotining davomchilari hisoblanadi. Har ne'matning o'z shukri bor, farzand ne'matining shukri unga chiroyli tarbiya berishdir. Bu xususda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: “Ota-ona o'z farzandiga chiroyli xulqdan ko'ra afzalroq narsani berolmaydi,” deganlar.

Yaxshi tarbiya – saodatli, yomon tarbiya esa istiqbolsiz kelajakdir. Kishi farzandi tarbiyasiga e'tiborli bo'lib, unning odob-axloqini takomillashtirib borar ekan, kelajakda hosil beradigan mevaning urug'ini yerga qadayotgandek bo'ladi. Mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni zamon talablariga mos ravishda tarbiyalash uchun tahsinga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Bu tadbirlar yosh avlodni kelajakda ham ma'nan, ham jismonan yetuk inson bo'lib, farovon, baxtli hayot kechirishlari uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qiladi.

Oiladagi zo'ravonlik juda keng mavzu bo'lib, unga yuzlab tadqiqotlar bag'ishlangan. Ko'pincha bu bolalar va ayollarga ta'sir qiladi. Tadqiqotlarga ko'ra, bu jamiyatning bunday birligi a'zolari o'rtasidagi chegaralar xiralashgan oilalar uchun xosdir. Aksariyat hollarda oilaviy zo'ravonlik jismoniy va og'zaki, ma'naviy, jinsiy zo'ravonlikning takrorlanuvchi tsikli sifatida tushuniladi, uning maqsadi nazorat qilish, qo'rquv uyg'otish, qo'rqitishdir.

Yaxshi tarbiya – saodatli, yomon tarbiya esa istiqbolsiz kelajakdir. Kishi farzandi tarbiyasiga e'tiborli bo'lib, unning odob-axloqini takomillashtirib borar ekan, kelajakda hosil beradigan mevaning urug'ini yerga qadayotgandek bo'ladi. Mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni zamon talablariga mos ravishda tarbiyalash uchun tahsinga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Bu tadbirlar yosh avlodni kelajakda ham ma'nan, ham jismonan yetuk inson bo'lib, farovon, baxtli hayot kechirishlari uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa: Oila jamiyatning bir bo'g'imi xisoblanadi. Va har bir oilaning o'ziga xos majburiyatlari bor jamiyat oldida.

Xar bir oila quruvchi inson oila qurishidan avval o'ziga “Nega oila qurishi” xaqida savol berishi, va u oilaga o'zidan nima bera olishi xaqida o'ylab ko'rishi lozim. Sababi oila vaqtinchalik emas, bir umirlik bo'lishi kerak. Agar har inson o'zini anglab oila qursa, jamiyatimizda ajrimlar soni kamayar edi.

Bundan tashqari bolani tarbiya qilishdan oldin avvalo inson o‘zini tarbiya qilishi lozim. “Tarbiyani” men andozaga o‘xshataman, sababi bola ota -onani aytganini emas, ota-onasi qilgan ishini ko‘rib ulardek qilishga xarakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila_kodeksi ISHANOVA M. Andijon-2019
2. *“Oila pedagogikasi” o‘quv qo‘llanma 9bet*
3. <https://uz.tierient.com/nikoh-va-oila-tushunchasi/>
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila_kodeksi
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Nikoh>
6. <https://uz.babymagazinclub.com/17226564-domestic-violence-phases-types-prevention>
7. <https://www.bukhari.uz/?p=24175&lang=oz>
8. <https://mu haz.org/1-shaxs-haqida-tushuncha-shaxsning-tuzilishi.html>

Farxodova Durdona Mansur qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

OILADA BOLA TA'LIM- TARBIYASI VA O'QITUVCHI HAMKORLIGI MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyatning muhim bo'g'ini bo'lgan oilada ta'lim- tarbiya masalalari, bola kamolotida oilaning o'rni hamda, oila va maktab, pedagogik jamoa hamkorligining muhim masalalari to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: oila, ota-ona, maktab, pedagogik jamoa, jamiyat, oilaviy munosabatlar, ota-onalar majlisi, ijtimoiy- ma'naviy, suhbat, maruza

Abstract. This article discusses the issues of education and upbringing in the family, which is an important link of society, the role of the family in the development of the child, and the important issues of cooperation between the family and the school, the pedagogical team.

Keywords: family, parents, school, pedagogical team, society, family relations, meeting of parents, social-spiritual, conversation, exposure

Kirish. Oila–kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi. «Jamiyat» va «oila» tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'lik. Bu bog'liqlik jamiyatning oilalarsiz mavjud bo'lmasligi hamda o'z navbatida oilaning ma'lum bir jamiyat tarkibida vujudga kelishi va yashovchanligida ko'rinadi. Oila hamda jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar ikki tomonlama aloqadorlik xususiyatiga ega. Har bir oila umumjamiyat talablari asosida faoliyat yuritadi. Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa uning bag'rida mavjud bo'lgan oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy qiyofasining shakllanganlik darajasiga bevosita bog'likdir. Chunonchi, ijtimoiy borliqning oilalar zimmasiga qo'yadigan talablari ularning manfaatlariga zid bo'lmasa, aksincha, oilalar farovonligi, tinchligini ta'minlashga yordam bersa, oilalar tomonidan ijtimoiy talablarning qo'llab-quvvatlanishi, ularning amaldagi ijrosini ta'minlash ko'rsatkichi shuncha yuqori bo'ladi. Ilmiy- pedagogik, psixologik, fiziologik hamda falsafiy asarlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy- ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi.

Asosiy qism. Oilaviy munosabatlar–ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar(buva-buvilar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlardir. Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi

kengayadi, o'zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya'ni, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini kurish holati ro'y beradi.

Shaxsning ma'naviy sifatlariga ega bo'lishi, unda ma'naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo'lishida oila tarbiyasi asosiy rol ni bajaradi. Oilada qarortopgan sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir. Sharqda azal-azaldan oila tarbiyasiga yuksak baho berib kelingan. Totalitar tuzum davrida esa oilaning shaxs tarbiyasida tutgan o'rni inkor etilib, uni ijtimoiy borlik vositasida tarbiyalashga harakat qilindi.

O'zbekiston Respublikasida, mustaqillik yillarida, fuqarolarda milliy o'zlikni anglash tuyg'usining qaror topganligi, o'tmish qadriyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortganligi oilaning shaxs kamolotida tutgan o'rni va rolini xolisona baholash imkonini berdi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bayon etadi: «Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi. Oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O'zbekistonning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilaning, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir». Davlatning oilaga nisbatan g'amxo'rliqi qabul qilinayotgan qonun va qarorlarda o'zi fodasini topmoqda. Respublikada «Oila» ilmiy-amaliy Markazi tashkil etilganligi buning yorqin dalilidir. Oila tarbiyasini tashkil etish shakl, metod va vositalari. Oila sharoitida uyushtirilayotgan suhbatlar alohida diqqatga sazovordir. Ommaviy axborot vositalari orqali aholi e'tiboriga havola etilayotgan huquqiy mavzulardagi maqolalar, ko'rsatuv, eshittirish, shuningdek, ommaviy-huquqiy adabiyotlar hamda ularda ilgari surilgan g'oyalar yuzasidan o'tkaziladigan suhbatlar bolalarda huquqiy tasavvur, idrok, savodxonlik, tafakkur, faollik, mas'ullik, e'tiqod va salohiyatni qaror topishiga olib keladi.

Shu jihatdan pedagogika fani oldiga milliy va hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda tarixan tarkib topgan oila-ta'lim muassasasi-jamoatchilik tarzidagi uchlikning ijtimoiy-ma'rifiy roli ular o'rtasidagi o'zaro birlik, aloqadorligini asoslash, bolalarda idrok va tafakkurni shakllantirishda oila va jamoatchilik imkoniyatlarini aniqlash hamda ulardan unumli foydalanish talabi o'rta qo'yilmoqda. Oila tarbiyasining farzandlarga tarbiya berish, ularda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash yuzasidan bir qator tadbirlar amalga oshiriladi. Shu borada ota-onalar bilan olib borilgan ishlar hamda o'tkaziladigan tadbirlardan ayrimlarini namuna sifatida keltiramiz:

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar:

I. Ota-onalar bilan o'tkaziladigan suhbatlar.

Suhbatlar yakka va umumiy tarzda olib boriladi. Ilk suhbat chog'ida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda ma'naviy-axloqiy madaniyat unsurlarini



qaror toptirish muvaffaqiyatini ta'minlash kafolati bo'lgan ota-onalar va farzandlarning ijtimoiy onglilik hamda faollik darajasini aniqlashga yordam beruvchi anketa so'rovlarini o'tkazish mumkin. So'rovnoma ikki turda bo'lib, ulardan birinchisi har bir o'quvchining umumiy portretini tasvirlovchi, diagnostik tavsifga ega, ikkinchi turdagi so'rovnoma esa ota-onalarning ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish, farzandlar ma'naviy madaniyatini shakllantirishga nisbatan ularning shaxsiy munosabatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi so'rovnomalardir. Dastlabki suhbat hamda ota-onalar tomonidan to'ldirilgan so'rovnoma natijalarini tahlil etish ular bilan tashkil etiladigan tadbirlar yo'nalishi va mazmunini belgilab beradi.

II. Maktabning o'quv yili davomida ota-onalar bilan olib boradigan ishlari:

1. Sinf ota-onalar majlisi. Majlis o'quv yili davomida besh marta o'tkaziladi, ya'ni, o'quv yili boshlanishi oldidan, I, II, III va IV choraklar yakunida. Majlislarda o'quv yurti ichki-tartib qoidalari, umum jamoa ijtimoiy me'yorlariga rioya etish holatlari, yuzaga kelgan ziddiyatlar tahlil etiladi, navbatdagi davr uchun belgilangan ishlarni rejalashtirish, ularni hal etish yo'llari, chora-tadbirlari belgilanadi. Maktabda ta'lim olayotgan, jamoa hayoti, shuningdek, tarbiyaviy tadbirlar faollik ko'rsatayotgan, o'qishda, mehnatda alohida o'rnatilgan bo'layotgan o'quvchilarning ota-onalariga minnatdorchilik izhor etiladi.

2. Umummaktab ota-onalar majlisi. Ota-onalarning umumiy yig'ilishida o'quv yili davomida o'quvchilar, ota-onalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning borishi va yakuni muhokama qilinadi. Ota-onalar maktab hayoti va o'quvchilarning intizomi, xulq-atvori, ijtimoiy me'yorlarga amal qilishlari, o'quvchilarni ma'naviy jihatdan tarbiyalash borasida erishayotgan natijalar bilan tanishtiriladi.

O'quv yili yakunida bo'lib o'tgan umummaktab ota-onalar majlisida ijtimoiy hayotda faol ishtirok etgan, turli fanlar bo'yicha uyushtirilgan tadbirlarda alohida ibrat ko'rsatgan, shuningdek, muayyan fanlar bo'yicha olimpiadalarda muvaffaqiyatli qatnashgan o'quvchilar va ularning ota-onalarini rahmatnomalar bilan taqdirlash maqsadga muvofiqdir.

3. Ijtimoiy-ma'naviy mazmundagi suhbat va ma'ruzalar. Bunday ma'ruza va suhbatlar ota-onalarda ijtimoiy, shuningdek, ta'lim-tarbiyaga oid bilimlarni egallash, farzand tarbiyasi ishiga jiddiy e'tibor berish, bu borada ta'lim muassasasi bilan mustahkam hamkorlik o'rnatishda muhim ahamiyatga ega.

Mustaqillik yillarida barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim-tarbiya va oila tarbiyasini tashkil etishda ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. Mavjud sharoitda oilada bolalar tarbiyasini tashkil etishda muayyan qiyinchiliklar ko'zga tashlanmoqda. Ota-onalarning bu borada quyidagilarga rioya etishlari maqsadga muvofiqdir:

- Bolalarning mashg'ulotlarga kechikishlari va uyga o'z vaqtida qaytmasliklariga yo'l qo'ymasliklari;
- Ularning dars tayyorlashlari uchun uyda qulay sharoitni yaratib berishlari;
- Bolalarda uy vazifalarini bajarishga nisbatan mas'uliyatli yondashuvni qaror toptirishlari;



- Bolalarga o'quv topshiriqlarini bajarish hayotiy zaruriyat ekanligini uqtirishlari, vazifalarni mustaqil, vijdonan bajarish ko'nikmalariga ega bo'lishlariga ko'maklashishlari;
- Bolalarning kuntartibiga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lishlariga e'tibor qaratishlari;
- bo'sh vaqtdan unumli foydalanishlarini nazorat qilib borishlari.

Xulosa. Shuningdek, ota-onalarning muayyan darajada pedagogik bilimlarga ega bo'lishlari ham ahamiyatlidir. Oila va ta'lim muassasalari o'rtasida tashkil etilgan hamkorlikning bosh g'oyasi ota-onalar uchun pedagogik yordam ko'rsatishdan iboratdir. Farzand dastlabki ma'lumot va ijtimoiy me'yorlarga amal qilish borasidagi ko'nikmalarga oilada ega bo'ladi. Chunki oilaviy ijtimoiy munosabatlar, xususan, madaniy-maishiy, iqtisodiy-moliyaviy, mulkiy muosabatlar hamda mehnat faoliyatini tashkil etishda farzandlar o'zlari sezmagani, mohiyatini tushunib yetmagan holda mazkur munosabatlar jarayonida ishtirok etadilar, demakki, ijtimoiy masalalar bilan to'qnash keladilar, natijada bu tarzidagi muloqotlarning doimiy, qisqa muddatlarda takrorlanib turishi ular uchun ota-onalar, farzandlarning huquq, burch, majburiyat va mas'uliyatlarini tushunib yetishga yordam beruvchi ijtimoiy ob'ektiv shart-sharoitlarni yaratadi. Oilada bola tarbiyasiga ijodiy yondashish, bolalarda ijobiy sifatlarni shakllantirishga erishish ularning shaxssifatida to'laqonli shakllanishlarida muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan ota-ona va ta'lim muassasalari doimo birgalikda faoliyat yuritishi, bolaning ta'lim-tarbiya jarayoniga jiddiy e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Zero, shaxs kamolotida mustahkam oilaning o'rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. *Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.* –T.:«O'zbekiston»1997.
2. Karimov I.A. *Demokratik xuquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish-farovon hayotimiz garovidir.* T.:O'zbekiston,2007.
3. A.K.Munavvar. *Oila pedagogikasi.-T.,,O'qituvchi",1994.*
4. U.Mahkamov. *Ahloq-odob saboqlari.-T.,,Fan",1994*
5. R.A.Mavlonova, N.X.Rahmonqulova, B.A.Normurodova, K.O.Matanazarova,,*Tarbiyaviy ishlar metodikasi "darslik Toshkent2014.*
6. A.Jo`rayev,,*Tarbiyaviy darslarni o'tish "T.,,O`qituvchi"1994.*
7. M.Xaydarov,,*Kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning mehnat tarbiyasida xalq an`analaridan foydalanish "T.,,Yozuvchi"1995.*

Abdurashidova Sevinch Alisher qizi,
Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi⁸⁸

O'ZBEK OILALARIDA BOLALARNI O'Z-O'ZINI BAHOLAY OLISHINING AHAMIYATI

Annotasiya. Ushbu maqolada, o'zbek oilalarida ta'lim - tarbiya jarayoni va shu jarayon asosida o'zbek farzandlarining o'zlariga bo'lgan ishonchini oshirish, takomillashtirish, o'z-o'zini boshqarish, o'zini va o'zgalarni hurmat qilish, eng muhimi, o'z-o'zini baholay olishining ahamiyati haqida keng bayon qilingan.

Kalit so'zlar: oila, ta'lim, tarbiya, o'zini o'zi boshqarish, takomillashtirish, o'z-o'zini baholash, o'z-o'ziga hurmat, ishonch, "Men" tushunchasi.

Abstract. In this article, the process of education and upbringing in Uzbek families and, on the basis of this process, the improvement of Uzbek children's self-confidence, self-management, self-respect and respect for others, Importantly, the importance of self-evaluation is widely discussed.

Keywords: family, education, upbringing, self-management, self-improvement, self-esteem, self-confidence, the the "I" feeling.

Bolani komil etib shakllantirishga zamin yaratishda oilaning o'rni va roli beqiyosdir. Oilada bolani komil inson qilib tarbiyalashga zamin yaratish ota-onalar zimmasiga tushadi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 64-moddasida "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdir"⁸⁹ va O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 73- moddasi "Ota-ona o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart. Ota-ona o'z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o'z bolalarining sog'ligi, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shart.

Ota-ona o'z bolalarining qonun hujjatlarida belgilangan zarur darajada ta'lim olishni ta'minlashi shart"⁹⁰ - deb belgilab ko'rsatilib, ota-onalarga ijtimoiy pedagogik talablar qo'yadi. Oila jamiyatimizning asosiy negizini tashkil qiladi, oila tarbiyasini to'g'ri tashkil qilmay, oilalarning barqarorligini va mustahkam bo'lishini hamda jamiyatning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash mumkin emas. Shu nuqtai nazardan yondashganda oila sharoitida ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini tashkil qilish, to'ldirib borish va takomillashtirish bag'oyat muhim oilaviy pedagogik muammolardandir.

Mazkur muammoni hal qilishida oilaning ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlari oshirish haqida muhtaram Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning "Oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllar qanday inson bo'lishiga bevosita ta'sir

⁸⁸ Ilmiy rahbar: Shaamirova Yulduzxon Kabiljanovna - Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori v.b, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

⁸⁹ O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Toshkent, «O'zbekiston», 1992 yil

⁹⁰ O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi. Toshkent, «Adolat», 2012 yil 47-bet.

ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir”⁹¹ -deb bildirgan fikri nihoyatda hayotiy. Shuning uchun ham oilada ota-onalar oilaning ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlaridan to'la-to'kis foydalanishlari shart. Agar ota-onalar oila sharoitida bunday imkoniyatlardan foydalana olmasalar hayot davom etmay, avlodlar davomligi ham davom etmaydi.

Oilada bolalarni komil inson etib shakllantirish uchun ularning aqliy tarbiyasini maqsadli tashkil etish pedagogika va psixologiya mutaxassislari, ota-onalarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Chunki, aqliy tarbiyani to'g'ri tashkil qilish tarbiyaning boshqa tarkibiy qismlarining muvaffaqiyatli ta'minlanishiga xizmat qiladi. Bolaga aqliy tarbiya bermay turib uni oila va ijtimoiy hayotga tayyorlab bo'lmaydi. Oilada bolalarning bilimli bo'lishi haqida O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 73-moddasida “Ota-onalar bolalarining bilim olishlari uchun mas'uldirlar” - deb belgilangan. Demak, oilada ota-onalar o'z farzandlarining umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim olishlari uchun g'amxo'rlik ko'rsatishlari va qulay shart-sharoit yaratib berishlari lozim. Avvalo, ota-onalar farzandlarini nimalarga qiziqishlarini aniqlab olishlari zarur bo'ladi. Har bir bolada tug'ma yoki endi shakillanayotgan qobilyatlar mavjuddir. Bu qobilyatlar ko'p hollarda yashirin bo'ladi, ana shu vaziyatda ota-onalarning ishtiroki juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-ona farzandidagi ana o'shanday qiziqish va qobilyatlaridan kelib chiqqan holda ta'lim – tarbiya bersa, farzandini doim qo'llab – quvvatlasa, o'z-o'ziga to'g'ri va holisona baho berishni o'rgatsa, maqsadga muvofiqdir.

Oilada bolalarni bilimli etib tarbiyalashda Birinchi Prezidentimizning “Komil inson deganda biz avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan, bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz”, - deb bildirgan fikri amaliy ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni 2020-yil 23-sentyabr kuni qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Mazkur hujjat 19-mayda Oliy majlis qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan qabul qilinib, 7-avgustda Senat tomonidan ma'qullangan edi. Bundan ko'zlangan maqsad esa, o'zbek oilalaridagi farzandlarning kelajagi uchun yana bir poydevor vazifasini o'rnatdi desak, adashmagan bo'lamiz.

Ta'lim-tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi, o'sib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan hamda jamiyatda o'z munosib o'rnini egallashga qodir bo'lgan - komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Xalqimizning shunday ezgu maqsadlarini ro'yobga chiqarish yo'lida mustaqillik yillarida Yurtboshimiz rahnamoligida ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini zamon talablari darajasiga ko'tarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Shunga qaramasdan, oilada va

⁹¹ O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi. Toshkent, «Adolat», 2012 yil, 9-bet.



jamiyatda farzand tarbiyasi bilan bog‘liq ayrim muammolarga duch kelamiz. Xususan, jamoatda, o‘quvchilarda “men” tushunchasining noto‘g‘ri shakllanganligi, o‘z-o‘zini baholashda adolatsizliklar yuzaga kelishi va o‘zini o‘zi tarbiyalashda noto‘g‘ri yo‘llardan borayotganligi bugungi kunning eng dolzarb masalalariga aylanib ulgurdi. Ta’limda mana shunday muammolar bor ekan, davlatimizning rivojlanishiga to‘sqinlik qilaveradi.

Mamlakatimizda milliy istiqloq g‘oyasi tufayli yosh avlodni bilim darajasiga ko‘ra jahon andozalari talablariga javob beradigan, fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo‘ladigan, mustaqil fikrlay oladigan, hayotga dadil qadamlar bilan kirisha oladigan, tadbirkorlik va ishbilarmonlik qobiliyatlariga ega boladigan, ma’naviy yetuk etib voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu esa, avvalo, pedagogika fanini, ta’lim-tarbiya tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirishni taqozo etadi. Bunda tarbiya ishi bilan maxsus tuzilgan ijtimoiy muassasalar shug‘ullanishi nazarda tutiladi. Shunga ko‘ra, “tarbiya” va “ta’lim berish” tushunchalari yozilganda turlicha yozilsalarda, ammo ma’nosiga ko‘ra bir-biriga juda yaqin turadilar. Ta’lim - tarbiya jarayoni, bir-biri bilan chambarchas bog‘liq desak ham adashmagan bo‘lamiz. Komil inson tarbiyasida o‘zidan o‘lmas meros qoldirgan ajdodlar xazinasidan foydalanish, bugungi kunning vazifalaridandir. Masalan: Muhammad ibn Muso Xorazmiy o‘z qarashlarida ta’limda bolalarning shaxsiy kuzatishlariga katta e’tibor bergan. U sezgi orqali bilish – qisman bilish, mantiqiy bilishni esa haqiqiy bilish deb hisoblagan. Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo‘shgan. U insonni aqliy kamolga yetkazishda ilm-fan va ta’lim-tarbiya birlamchi deb hisoblagan. Ayni damda, umumta’lim maktablarda o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish jarayonida ularning o‘zlariga bo‘lgan “Men”ni tog‘ri shakllantirish, adolatli ravishda o‘ziga haqqoniy baho bera olish va o‘zlariga bo‘lgan ishonchini oshirish masalalari yetakchi o‘rindadir. Bu masala yuzasidan, psixologik tadqiqotlarda yo‘l-yo‘riqning tuzilishi uchta tarkibiy qismdan iboratligidir. Bular: kishining bilib olishga va idrok etishga tayyorligidan iborat bo‘lgan kognitiv (lot.codnitio bilish) kichik tuzilishi, yo‘l-yo‘riq, obyektiga nisbatan xayrixohlik yoki xush ko‘rmaslik holatlari kompleksidan iborat hissiy baholash kichik tuzilishidan iboratdir.

Kishi o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy hisoblangan munosabatlar tizimiga kirgan, odamlar bilan o‘zaro birgalikda harakat qilgan va munosabatda bo‘lgan holda o‘zini atrof muhitdan alohida ajratib ko‘rsatadi, o‘zining jismoniy va psixik holati, harakatlari va jarayonlarining sub’ekti sifatida eks etadi, o‘zi uchun (boshqalarga) qarshi turgan va ayni chog‘da ular bilan bog‘liq bo‘lgan “Men” sifatida nomoyon bo‘ladi. Bolalarda “Men” siymosi juda erta tarkib topa boshlaydi. 2-3 yoshli bolalardayoq “Men” siymosi yaqqol ko‘rinadi. “Seniki emas-meniki”, “Men o‘zim kelaman”, “Menga besh” (I.S. Kon).⁹²

⁹² Avlayev O., Butaeva U. Shaxs kamolotining psixologik determinant. Xalq ta’limi Imiy-metodik jurnali. 2021. № 6, 87-92 betlar.



Oilada va jamiyatda bolalarni o‘zini-o‘zi baholash tartibi qanday? Bolalar bilimni tekshirish va baholash masalasi to‘g‘risidagi munozaralar ularni takomillashtirishning yangi shakllarini izlash, aksariyat hollarda noto‘g‘ri yo‘nalishda olib borilayapti. Albatta, 10 ballik baho tizimini joriy etish yoki bahodan umuman voz kechib, tekshirishning turli shakllaridan foydalanish, chunonchi sinov, test, imtihonlarni qo‘llash mumkin. Lekin o‘quvchi va uning bilish qobiliyati o‘qituvchi bahosining obyekti bo‘lib qolaveradi. Maktab bahosini takomillashtirishning eng samarali yo‘li, uni o‘quvchi bilimni baholash komponentining faol subyektiga aylantirishdadir. Zero, pedagogning bahosi o‘quvchini o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatishi lozim, yana yaxshisi, baholashning bu ikki ko‘rinishini uyg‘unlashtirish muhimdir.

Bolalarda o‘zini-o‘zi baholash ko‘nikmasini hosil qilish uchun, birinchi navbatda, ularni o‘z bilish faoliyatini baholashga jalb etish lozim. Bunda avvalo, ota-onaning va pedagog hodimlarning ro‘li katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zini-o‘zi baholash quyidagi usullar bilan vujudga keladi:

1. Boshqalar bajargan ishni o‘quvchi tomonidan, ya’ni o‘quvchilarning o‘zaro baholashi. Sinfdoshning ishi to‘g‘risida axborotning mavjudligi o‘zini- o‘zi baholash faoliyatiga ijobiy ta’sir qiladi.

2. Ishni bajargan o‘quvchi o‘zi-o‘ziga baho qo‘yadi. So‘ng uning ishi o‘qituvchi tomonidan baholanadi, ikkala baho qiyoslanib, birinchi bahoning obyektivlik darajasi aniqlanadi. Yana boshqa usulni ham taklif etish mumkin. Og‘zaki javobdan so‘ng o‘qituvchi javob berayotgan o‘quvchidan o‘ziga qanday baho qo‘yish mumkinligini so‘raydi. Keyin sinfga murojaat qilib, o‘rtoqlari javobini ballar bo‘yicha baholashni iltimos qiladi. Biroq, o‘zini-o‘zi baholashni shakllantirish uchun o‘quvchilarni baholash faoliyatiga jalb qilish kifoya qilmaydi. Ya’ni, o‘quvchilarni shunday mezonlar bilan qurollantirish kerakki, o‘quvchilar ular bilan baholash va o‘zini-o‘zi baholashni amalga oshirsinlar.

Bizning tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatdiki, ko‘plab bolalar do‘stlarini va o‘zlarini do‘st sifatida tasvirlayotganda, ta’lim xususiyatlariga urg‘u berishgan, ya’ni ijtimoiy rollarni va shunga mos ravishda kutilgan ijtimoiy natijalarni aralashtirib yuborishadi. Ba’zilar kishilarni ta’riflash yoki tanlashda qiynalishadi. O‘quvchilarning ma’lum bir qismi umuman do‘sti yo‘qligini yozishgan. O‘zlari haqida gapirganda, bolalar do‘stlarini ta’riflagandan ko‘ra kamroq ijobiy sifatlarni ajratib ko‘rsatishgan, garchi bolalarning taxminan 78% do‘st sifatida o‘zlari haqida ijobiy fikr bildirishgan (“Men yaxshi do‘stman”, “Men aqli raso dugonaman”). O‘zini do‘st sifatida ta’riflaganda, ular axloqiy-psixologik sifatlardan ko‘ra ko‘proq harakatlar haqida gapirishgan. Bu mazkur yosh davridagi yetarlicha rivojlanmagan refleksiya yoki qandaydir o‘zini tutish, o‘z-o‘ziga baho berishga bo‘lgan ishonchni ko‘rsatishi mumkin. Bolalar tomonidan ma’lum bir harakatni baholash, shuningdek, o‘ziga xos ijtimoiy roldagi xarakter xususiyatlari va o‘z-o‘ziga baho berish darajasini tashxislash uchun Dembo-Rubinshteynning mashhur “Shaxsning o‘z-o‘ziga baho berishi” metodikasi yoki o‘quvchilar tomonidan ular ega bo‘lgan yoki bo‘lishni xohlaydigan axloqiy fazilatlariga o‘zlarining baho

berish darajasini aniqlashga qaratilgan “Sifatlar do‘koni” mashqlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bolalar o‘zlarida mavjud bo‘lgan fazilatlarni belgilashlari va ular ega bo‘lishni istagan fazilatlarni tanlashlari tavsiya etiladi.

1-jadval

Barcha fazilatlar.	Siz qaysi fazilatlarga egasiz ?	Siz qaysi fazilatlarga ega emassiz ammo ega bo‘lishni xoxlaysiz?
Mehribonlik	+	
Adolatparvarlik		+
Sadoqat		
Muhabbat	+	

Jadvalning birinchi ustunida mehribonlik, adolatparvarlik, qiziquvchanlik, do‘stlik, sadoqat, muhabbat, jasorat, halollik, kamtarlik, mehnatsevarlik, vijdonlilik, rostgo‘ylik, rahmdillik, mas’uliyatlik, hozirjavoblik, maqsadga intiluvchanlik, saxiylik, tarbiyalilik, xushmuomalalik, jonkuyarlik, tashabbuskorlik kabi sifatlar sanab o‘tiladi. Ikkinchi ustunda o‘quvchi qaysi fazilatlarga ega ekanligini va ularni baham ko‘rishi mumkinligini, uchinchisida esa qanday fazilatlarga ega emasligini, ammo ega bo‘lishni xohlashini belgilab o‘tadi.⁹³

O‘z-o‘ziga hurmat insonning o‘zi haqida hissiyotlar va e‘tiqodlar majmuasi deb hisoblanadi. O‘quvchilarning o‘zini o‘zi qadrlashdagi roli nafaqat ajoyib o‘qitishda, balki o‘zini o‘zi qadrlash tuyg‘usi bo‘lgan bola muvaffaqiyatga va hayotga yo‘naltirilgan. O‘rta maktab o‘quvchilarining o‘zini o‘zi qadrlashi bolalar bog‘chasi yoshiga to‘g‘ri keladi va 6-8 yoshda. Yosh o‘quvchilarning o‘zini o‘zi qadrlashni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ushbu yoshdagi bolalar o‘z-o‘zini tanqid qilishda kam rivojlangan. Bu shuni anglatadiki, har qanday bahsda bola faqat raqibining noto‘g‘ri ekanligini ta’kidlaydi. O‘z-o‘ziga hurmatni shakllantirishga yaxshi akademik ko‘rsatkichlar ta’sir qiladi, bu sinfda obro‘-e’tiborga ega bo‘lishga yordam beradi. Jamoada muloqot qilish juda muhimdir. Ota-onalar tarbiyalash uslubi kichik maktab o‘quvchilarining o‘zini o‘zi qadrlashiga ham ta’sir qiladi.

O‘z o‘zini baholash o‘z-o‘zini tarbiyalashning muhim mezonidir. O‘z-o‘zini tarbiyalash omillari va mexanizmlariga quyidagilar kiradi:

1. o‘z-o‘zi bilan muloqot (o‘zini konkret tarbiya obyekti sifatida idrok etish va o‘zi bilan muloqotni tashkil etish sifati);
2. o‘z-o‘zini ishonirish (o‘z imkoniyatlari, kuchi va irodasiga ishonish orqali, ijobiy xulq normalariga bo‘ysundirish);
3. o‘z-o‘ziga buyruq berish (tig‘iz va ekstremal holatlarda o‘zini qo‘lga olish va maqbul yo‘lga o‘zini chorlay olish sifati);
4. o‘z-o‘ziga ta’sir yoki autosuggestiya (ijtimoiy normalardan kelib chiqqan holda o‘zida ma’qul ustanovkalarni shakllantirish);

⁹³ Usmonova A.A. Pedagogika va psixologiya. Toshkent :-2014.65,67-b.

5. ichki intizom o‘z-o‘zini boshqarishning muhim mezonini (har doim har yerda o‘zining barcha harakatlarini muntazam ravishda korrektsiya qilish va boshqarish uchun zarur sifat).

O‘z-o‘zini tarbiyalash - o‘qituvchilar ishtirokisiz va ta’lim muassasasi devorlaridan tashqarida yangi bilimlarni olish usuli. Ushbu o‘qitish usuli fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Ta’lim va o‘z-o‘zini tarbiyalash shaxsning har tomonlama rivojlanishining ajralmas qismidir. O‘z-o‘zini takomillashtirish o‘ziga ishonchni rivojlantiradi. Inson yangi bilim olishga intilishi va u yerda hech qachon to‘xtab qolmasligi kerak. Bu muvaffaqiyatli kelajak kalitidir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ta’lim-tarbiya jarayoni, odob-axloq va xulq masalalari, o‘zbek xonadonlarida yetakchi o‘rinni egallaydi. Ota-onalar farzandlariga doim e’tibor qaratishlari, farzandlariga o‘ziga bo‘lgan ishonchlarini oshirishda ko‘maklashishi lozimdir. Buning uchun avvalo, ota-onaning o‘zi ham tarbiyalangan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Xalqimiz orasida “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” – degan maqol ham bejizga ishlatilmaydi. Oila – bu juda nozik muassasa hisoblanadi. Bu farzand dunyoga kelganidan, ota-onaning bir-biriga bo‘lgan munosabatidan boshlanadi. Ota-onaning bosayotgan har bir qadami bolaning ongiga o‘rnashib qoladi.

Farzand tarbiyasida o‘qilishi kerak bo‘lgan muhim kitoblar:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining “Baxtiyor oila”, “Ruhiy tarbiya” III tomlik;
2. Hadichayi Kubro Tangarning “Baqirmaydigan bolalar”;
3. Veysi Cheri “Munosib ot-ona bo‘lmoq saodat”;
4. Zigmund Freyd “Psycho analysis”.

Shaxsning o‘zi, o‘z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeyini tasavvur qilishidan hosil bo‘lgan obraz – “Men” obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va realikka yaqinligi shaxs barkamolligining mezonlaridan hisoblanadi. “Men” obrazining ijtimoiy psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, tarbiya shaxsning o‘zi va o‘z sifatleri to‘g‘risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta’rif berish mumkin. Demak, har bir inson o‘zini, o‘zligini qanchalik aniq va to‘g‘ri bilsa, tasavvur qilolsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo‘ladi, ya’ni u tarbiyalangan bo‘ladi. Shunday qilib, o‘z-o‘ziga baho sof ijtimoiy hodisa bo‘lib, uning mazmuni va mohiyati shaxsni o‘rab turgan jamiyat normalariga, shu jamiyatda qabul qilingan va e’zozlanadigan qadriyatlarga bog‘liq bo‘ladi.

Demak, avvalo bolalarda “men” tushunchasini to‘g‘ri shakllantirishimiz, jamiyatda va oilada o‘z o‘rnini topishga ko‘maklashishimiz zarur bo‘ladi. Bunday masuliyat albatta, har doim ota-ona va pedagogning zimmasida turadi. O‘z-o‘zini baholash muloqotda namoyon bo‘ladi, shaxs va guruhlar faoliyatining universal shakli bo‘lib, ularning o‘zaro bilishi va tushunishiga, birgalikdagi faoliyatda o‘zaro sa’y-harakatlarni birlashtirishga, o‘zaro ta’sirning barcha sub’ektlari uchun umumiy



hissiy holatga erishishga qaratilgan. Shunday qilib, o‘z-o‘zini baholash ma’lum bir yoshda o‘zini o‘zi anglash namoyon bo‘lishining o‘ziga xos shakli sifatida, o‘zaro tushunish zarurati tufayli, tashqi ko‘rinishga bo‘lgan muhim sifat talablari tufayli sezilarli o‘zgarishlarga uchraydi. O‘quvchilarga o‘zlarini tarbiyalashni, o‘zlariga bo‘lgan ishonchini oshirishni, o‘zlariga va nafaqat o‘zlariga, balki, yon atrofdagilariga ham to‘g‘ri, holisona baho berishni o‘rgatishda, har bir pedagog turli xil mashq va metodlardan foydalanishi zarur bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Toshkent, «O‘zbekiston», 1992 yil.*
2. *O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi. Toshkent, «Adolat», 2012 yil 47-bet.*
3. *O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi. Toshkent, «Adolat», 2012 yil, 9-bet.*
4. *Avlayev O., Butaeva U. Shaxs kamolotining psixologik determinant. Xalq ta’limi Imiy-metodik jurnali. 2021. № 6, 87-92 betlar.*
5. *Usmonova A.A. Pedagogika va psixologiya. Toshkent :-2014.65,67-b.*
6. *G‘oziyev E.G. Umumiy psixologiya. -T. 2002.1-2 kitob.*



Mustafoyeva Feruza Xurshid qizi,
O'zbekiston Milliy universiteti
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari
va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi

OILA TARBIYASI – SHAXS SHAKLLANISHINING MUHIM MEZONI SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada farzand, umuman shaxsning shakllanishida tarbiyaning, xususan, oila tarbiyasining o'rni va ahamiyati haqida fikr-mulohazalar, xulosa va amaliy takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: oila, tarbiya, farzand, Abdulla Avloniy, muhit, Imom Buxoriy, ota-ona.

Abstract. This article presents opinions, conclusions, and practical proposals about the role and importance of education, especially family education, in the development of the child and the individual as a whole.

Keywords: family, education, child, Abdullah Avloni, environment, Imam Bukhari, parents.

Tarbiya – inson hayotidagi muhim jarayon, uni bu dunyo mohiyatidan ogoh etadigan, insoniylik tuyg'ulari bilan bezaydigan, hatto butun umrining qanday kechishini ham belgilab bera oladigan zaruriy vosita. Inson hayoti qadar davom etadigan va unga doimiy zarurat sezadigan ehtiyoj. Shu ehtiyoj asosida insoniyat butun umri davomida tarbiyalanib boradi. Shuning uchun ham tarbiya uzluksiz jarayon hisoblanadi.

Tarbiya va u bilan bog'liq bo'lgan masalalar bugun yoki kecha paydo bo'lgan emas. Insoniyat paydo bo'lganidan buyon bu masalaga jiddiy e'tibor berib keladi. O'lkamizdan yetishib chiqqan buyuk ajdodlarimiz ham o'z asarlari, bizga qoldirgan ulkan ma'naviy meroslarida tarbiya masalalariga alohida ahamiyat qaratganlar. Inson, uning tarbiyasi, komil inson bo'lib yetishishi kabi jihatlari har doim ularni o'ylantirib kelgan. Shu sababli ham shaxs shakllanishi va kamolga yetishuvida tarbiya eng muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Tarbiya – avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiladigan, oila, ta'lim muassasalari, ijtimoiy, siyosiy va boshqa tashkilotlar, OAV va boshqalar ta'siri ostida jismonan sog'lom, ma'nan barkamol insonni shakllantirish va takomillashtirish jarayonini anglatuvchi tushuncha. [1] O'z navbatida, tarbiyaning bir qancha turlari mavjud bo'lib, bular aqliy, ma'naviy, axloqiy, huquqiy, fuqarolik, iqtisodiy, jismoniy, ekologik, estetik tarbiya va boshqalardir. Ana shu tarbiya turlari qatoriga yana bir muhim tarbiyaviy jarayon elementini qo'shsak, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu – oila tarbiyasi. Oila tarbiyasini boshqa tarbiya turlaridan aslo ajratib bo'lmaydi. Bu har bir insonning shaxs bo'lib yetishuvida juda katta rol o'ynovchi tarbiyaviy jarayon elementlaridan biridir.

Bizning o'zbek xalqimizda azaldan tarbiyaga, jumladan, oila tarbiyasiga katta e'tibor qaratilgan. Oila tarbiyasining qandayligidan xalqimiz madaniyati qanchalik yuksak bo'lganligiga amin bo'lishimiz mumkin.



Oila – jamiyatimiz tayanchi, uning asosiy bo‘g‘ini. Ayniqsa, bizning millatimizda yuksak qadrlanadigan oila shaxs tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Farzand dunyoga keliboq, oilasi bag‘rida bo‘ladi. Dastlabki mehr, dastlabki his-tuyg‘ularni oilasidan qabul qiladi. Ularning ongida Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, uni qadrlash-asrash, millatini sevish kabi tushunchalar ham, avvalo, oiladan shakllanadi. Farzand uchun birinchi ibrat namunasi o‘zining oilasi bo‘ladi. Shuning uchun ham xalqimiz, “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, deb bejizga aytishmagan. Oilani kichik jamiyat deb atagan ekanmiz, katta jamiyatning rivojlanishi, tinchligi va taraqqiyoti ana shu kichik jamiyatlarda voyaga yetayotgan kelajak avlodga bevosita bog‘liq. Mashhur ma’rifatparvar ajdodimiz Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida shunday yozadi: “Emdi ochiq ma’lum bo‘ldiki, tarbiyani tug‘ulgan kundan boshlamak, vujudimizi quvvatlandurmak, fikrimizi nurlandurmak, axloqimizi go‘zallandurmak, zehnimizi ravshanlandurmak lozim ekan. Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga, birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir”. [2] Adibimiz tarbiyani birinchi kim qiladi, degan savolga “uy vazifasi” deb javob beradi. Bu o‘z-o‘zidan oila tarbiyasi bilan bog‘liq.

Inson yorug‘ dunyoga pok holda keladi. Uning kelajakda kim, qanday inson bo‘lishi tarbiyaga, birinchi navbatda, oila tarbiyasiga bog‘liq. Oiladagi muhit farzandga juda qattiq ta’sir ko‘rsatadi. Qolaversa, oiladagi har bir a’zo farzand uchun namuna hisoblanadi. U asosan ko‘rganiga qarab intiladi. O‘zi ham o‘shanday bo‘lishga intiladi. Qachonki, oila muhit va ta’lim-tarbiya jarayonlari sog‘lom yo‘lga qo‘yilsa, o‘sha jamiyatning ham millatning ham kelajagi gullab-yashnaydi.

Bugungi kunda oilada bola tarbiyasi, umuman oila tarbiyasi, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy jihatdan g‘oyat muhim masalalardan biri bo‘lib, unda milliy qadriyatlardan, umuminsoniy qadriyatlar tamoyillaridan har tomonlama foydalanish muhim vazifalardan biridir. Bu haqida muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ham “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, aholi barcha qatlamlarining axloqiy tarbiyasiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda”. [3] Bu yerda aholi barcha qatlamlarining axloqiy tarbiyasiga e’tibor qaratish lozimligi ta’kidlangan. Avvalo, oilada sog‘lom muhit, sog‘lom tarbiya jarayoniga sharoit bo‘lsagina, farzand ham sog‘lom tarbiyalana oladi. Shuning uchun davlatimiz rahbarining bu fikrlari o‘z dolzarbligini bilan katta ahamiyatga ega.

Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish-turishi, muomalamunosabati, o‘zini tutishi va boshqalarda yaxshi fazilatlarni namoyon qilishi kerak. Chunki bola tabiatan taqlidchan va kuzatuvchan bo‘ladi. Ana shunda bolaning atrofidaqilar, ayniqsa, oila a’zolari unga juda katta ta’sir ko‘rsatadilar. Oiladagi turli janjallar, nosog‘lom muhit, oila a’zolarining bir-biriga qo‘pol va yomon munosabatlari bolaning tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham oila tarbiyasi barcha tarbiyaviy jarayonning boshlang‘ichi va katta ahamiyat berilishi kerak bo‘lgan bosqichi



hisoblanadi. Zero, oila tarbiyasida yo'l qo'yilgan xatolar kelgusida farzandning kelajagini xavf ostida qoldirishi ham mumkin.

Bilamizki, shaxs tarbiyasida ijtimoiy muhit alohida rol o'ynaydi. Bunda oilaviy muhit ham alohida o'rin egallaydi. Bu muhit farzand tarbiyalashda faol ish olib borish uchun eng katta imkoniyatlar mujassamlashgan alohida muhit hisoblanadi. Bu imkoniyatlar oila farzand tarbiya oluvchi dastlabki makon ekanligi, farzand umrining asosiy qismi oilada o'tishi, muloqot va nazoratning bevositaligi, xo'jalik yuritishning umumiyliigi va boshqa bir qator shu muhitga xos bo'lgan jihatlar bilan belgilanadi. Shuningdek, farzand tarbiyasida boshqa oilaviy muhitlar ham ta'sir o'tkazadi. Bunga ijobiy jihatdan qarash lozim. Xalqimizda “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” degan naql bor. O'z navbatida, farzand tarbiyasida ana shularning ham o'rnini hisobga olish lozim.

Inson bu hayotda kimnidir o'zi uchun o'rnak, namuna sifatida biladi. Unga o'xshashga harakat qiladi. Har bir shaxs uchun asosiy o'rnak, birinchi galda, uning ota-onasi, oila a'zolari bo'lishi kerak. O'z-o'zidan oila a'zolar farzand uchun namuna bo'ladi. Ammo bu namuna ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Farzandning porloq va barkamol kelajakka ega bo'lishini xohlagan ota-ona, eng avvalo, farzandi uchun yaxshi namuna bo'lishi kerak.

Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasi, go'zal axloqning inson kamolotiga sabab bo'luvchi yuksak fazilat ekanini ta'kidlaganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning “Al-Adab al-Mufrad” hadislar to'plamida, Abu Lays Samarqandiyning “Tanbehul g'ofiliyn” asarlarida farzandlariga yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish tarannum etilgan. Ko'plab ulug' ajdodlarimiz o'z asarlarida farzand tarbiyasi haqidagi g'oyalarni ilgari surganlar.

Xulosa qilib aytganda, oila tarbiyasi – bu umumiy ijtimoiy tarbiya jarayonining bir umr davom etadigan uzluksiz jarayoni bo'lib, u insonning keyinchalik butun umri davomida oladigan ma'rifat va hayot saboqlari uchun asos, zamin, poydevor vazifasini o'taydi. Oila tarbiyasi ota-ona va farzandlar, shuningdek, bir necha avlodga mansub shaxslarning o'zaro qon-qarindoshchilik munosabatlari asosiga quriluvchi o'ziga xos betakror ma'naviy-ruhiy jarayondir. Shaxsning shakllanishida oila tarbiyasining o'rni beqiyos.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. *Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. “O'zbekiston” nashriyoti. Toshkent – 2021. 464 bet.*
2. *Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. —T., A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1992. —B. 28.*
3. *I. Alqarov, R. Mamatqulova, X. Norqulov. Shaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi. — T.: “Fan va texnologiya”. 2009, 224 bet.*
4. *www.ziyouz.com.*

Abdurahimova Sabina Abdurahim qizi,
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
Psixologiya fakulteti talabasi

OILADA TALIM VA TARBIYANING AHAMIYATI

Anotatsiya. *ushbu maqola orqali yurtimizda oila institutini mustahkamlash dolzarb masalalari hamda ko‘riyatgan chora tadbirlar haqida qisqacha bayon qilingan. Oila institutlari faoliyatlarini tashkil etish masalalar haqida yoritib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *Oila institutlari , ayollar huquqlari , farovon hayot , qadriyatlar, siyosat , milliylik , tarbiya , fan - texnika ;*

Abstract. *In this article, we have briefly described the current issues of strengthening the family institution in our country and the measures taken. Issues related to the organization of activities of family institutions will be covered.*

Keywords: *Family institutions, women’s rights, comfortable life, values, politics, nationality, education, science and technology;*

Kirish. Oila-bu so‘z qanchalik chuqur ma’no kasb etadi. Birgina shu so‘z orqasida qanchadan qancha insonlar taqdiri yotibdi. Bu so‘zning ma’nosiga nazar tashlaydigan bo‘lsak oila- bu ikki insonning hayoti bir butunga aylanishi , oila bu-yurtimizda yana bir kichik vatanning vujudga kelishi , oila bu- jamiyatda yangi bir muhitning paydo bo‘lishidir. Oila muqaddas tuyg‘u. Oila bu bir –biridan yiroq yashagan ikki insonning bir vujud bo‘lishidir

Asosiy qism. Oila o‘zi qanday tashkil etilishi kerak . Oilalarda nizoli holatlar yuzaga kelmasligi uchun qanday choralar ko‘rish kerak . Avvvalo oilalarni shakllantirishimizdan oldin biz oila qurish ostonasida turgan ikki shaxsning fikrlarini tinglashimiz lozim kerak . Ularning dunyoqarashlari bilan tanishishimiz kerak . Axir biz ularning ichki dunyosiga nazar solmasdan turib qanday ularning hayotiga yangi bir shaxsni olib kirishimiz mumkin. Ba’zi bir yoshlarimiz oila qurishdan qo‘rqishadi . Bunga sabablar juda ham ko‘p. Ana shunday sabablardan biri ularda oila tushunchasiga nisbatan noto‘g‘ri fikrlardir. Azaldan bizning mentalitetimizda qaynona , kelin tushunchalariga noto‘g‘ri ustanovkalar singdirilgan . Qaynonaga nisbatan zolim , kelinni doimo kamsitadigan inson sifatida qarashadi . Lekin jamiyatimizda hamma qaynonalar ham unday emas . Ular orasida mehribon va oqko‘ngil qaynonalar ham bor . Kelinlarga nisbatan esa ba’zi qaynonalarimizda shunday tushunchalar borki , kelinni xizmatchi o‘rnida ko‘rish , o‘g‘limni aynitadi degan fikrlarda bo‘ladi . Mana shunday eskicha yod g‘oyalarni insonlar ongidan chiqarib yuborish kerak aslida . Kelinlarimizga qizlik davridayoq oila qanday bo‘lishi lozimligi , kelinlar qanday bo‘lishi kerakligi o‘rgatilib kelinishi kerak . Ana o‘shandagina oilalarda vujudga kelayotgan ba’zi bir nizolarga yechim topishimiz mumkin.

Prezidentimiz tomonidan oilalarda ajrimlar sonini kamaytirish, sog‘lom oilaviy muhitni yaratish yuzasidan ko‘plab qonun va qarorlar qabul qilindi. Ana

shunday qonunlardan biri “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-son farmoni qabul qilindi . “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari tomonidan yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oiladagi nizoli holatlarni hal qilishning huquqiy va psixologik asoslarini o‘rgatish, ajrashishlarning oldini olish, shuningdek, oiladagi ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashga oid boshqa masalalar sohasida kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari tashkil etilishi belgilab o‘tildi . Oila institutini mustahkamlash sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari tashkil etish to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Quyidagilar maxsus o‘quv kurslarining asosiy vazifalari etib belgilansin: Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oiladagi nizoli holatlarni hal qilishning huquqiy va psixologik asoslarini o‘rgatish, ajrashishlarning oldini olish hamda oiladagi ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish. Oila institutini mustahkamlash, oilaning reproduktiv salomatligi va demografik rivojlanishi, uning farovonligi va xotirjamligini oshirish;er-xotin, ota-ona va farzandlar, er-xotin va ularning ota-onalari o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek zamonaviy oilaning namunali shaklini hamda “Oila jamiyat va davlat himoyasida” konstitutsiyaviy prinsipini keng targ‘ib etish va jamiyatga singdirish;zamonaviy namunali oilaning mezonlarini belgilashda ishtirok etish, zamonaviy oilani rivojlantirish muammolari, oilaning ichki munosabatlari, shaxslararo munosabatlarni, boy madaniy tarixiy meros va an’anaviy oilaviy qadriyatlarni o‘rganish;oila-nikoh munosabatlari sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro tajribani o‘rganish;oila institutini rivojlantirish va uning zamonaviy shaklini joriy etish belgilangan Maxsus o‘quv kurslari o‘tkazish bo‘yicha o‘quv-uslubiy rahbarlik va monitoring O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi (keyingi o‘rinlarda “Oila” markazi deb ataladi) tomonidan amalga oshiriladi; maxsus o‘quv kurslari “Oila” markazi, xotin-qizlar qo‘mtalari, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga yo‘naltiriladi, shuningdek, oila institutini mustahkamlash sohasida faoliyat yuritayotgan boshqa tashkilotlar xodimlarining malakasi oshiriladi;maxsus o‘quv kurslari tinglovchilari tarkibini shakllantirish hamda qayta tayyorlash va malaka oshirish reja-jadvalini tuzish “Oila” markazining boshqarmalari tomonidan “Oila” markazi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi;maxsus o‘quv kurslarida o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun soatbay haq to‘lash sharti bilan yetakchi ta’lim, tadqiqot va ilmiy muassasalarning xodimlari, shuningdek amaliyotchi mutaxassislar jalb etiladi;qayta tayyorlash va malaka oshirishning tasdiqlangan rejasiga kiritilgan va maxsus o‘quv kurslariga o‘qishga yo‘llangan tinglovchilarning asosiy ish joyi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi o‘qish davrida saqlanib qoladi;malaka oshirish uchun



maxsus o‘quv kurslariga yuborilgan boshqa shaharlik tinglovchilarga to‘lanadigan sutkalik pul va ta’lim olish joyiga bir marta borib kelish bo‘yicha sarflangan xarajatlar ularni yuborayotgan tomon hisobidan belgilangan tartibda qoplanadi; maxsus o‘quv kurslarini tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlarni, shu jumladan o‘quv mashg‘ulotlariga jalb etiladigan mutaxassislar mehnatiga haq to‘lash, kurslar tinglovchilari uchun o‘quv, tarqatma materiallar va kanselyariya anjomlarini xarid qilish xarajatlarini moliyalashtirish Xotin-qizlarni va oilani qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mablag‘lari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi; maxsus o‘quv kurslari tashkil etish uchun “Oila” markazining boshqarmalariga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi tibbiyot kasb-hunar kollejlari bilan ijara to‘lovining “nol” qiymati bo‘yicha, tegishli kommunal va foydalanish xarajatlarini qoplash shartisiz o‘quv xonalari ajratiladi. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda 2018-yil 1-maygacha “Oila” markazi boshqarmalarining buyurtmalariga asosan tibbiyot kasb-hunar kollejlari bilan maxsus o‘quv kurslarini tashkil etish va o‘tkazish uchun zarur xonalar ajratilishini ta’minlasin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari “Oila” markazi boshqarmalarining buyurtmalariga asosan: maxsus o‘quv kurslarini tashkil etish uchun ajratiladigan xona va auditoriyalarda, zarur hollarda, ta’mirlash-tiklash ishlarini bajarsin, shuningdek, Xotin-qizlarni va oilani qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mablag‘lari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan ularni zarur mebel va jihozlar, kompyuter texnikasi va o‘quv texnikasi vositalari bilan jihozlasin; maxsus o‘quv kurslariga yuborilgan tinglovchilarga ta’lim muassasalarining talabalar uylaridan joy ajratilishini ta’minlasin. “Oila” markazi: bir oy muddatda O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda — qayta tayyorlash va malaka oshirish bo‘yicha o‘quv rejaları va dasturlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin, ularning muntazam yangilab borilishini ta’minlasin;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda — maxsus o‘quv kurslarida o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun oliy ta’lim muassasalarining yuqori malakali professor-o‘qituvchilar tarkibi jalb etilishini ta’minlasin;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda — o‘quv jarayoni o‘qitishning zamonaviy shakl va usullari, ilg‘or pedagogik, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etilishini ta’minlasin.

Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi raisi T.K. Narbayeva, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vaziri A.Q. Shadmanov va “Oila” markazi direktori zimmasiga yuklansin. Shu kabi ko‘plab vazifalar belgilab qo‘yildi. Bunday



institutlar yoshlarimizni oilaga to’g’ri tayyorlash uchun . Ammo oila o’zi qanday bo’lishi uning qadriyatlari haqidagi tushunchalarni o’z oilasidan o’rganishi kerak . Axir bejizga aytishmagan tarbiya oiladan boshlanadi. Oilaviy qadriyatlarni oilada o’rganib borish muhim masaladir . Oilada sog’lom muhitni tashkil etish kerakdir

Xulosa. Oilani asrab avaylash barchamizning burchimizdir . Har bir oila bu muqaddas bir dargoh . Unda yangi bir jamiyat shakllanadi .Oilani bir ko’chat deb oladigan bo’lsak uning ustuni bu jamiyatdir . Uni himoya qiluvchilar esa siz va biz kabi insonlardir .Oiladagi har bir a’zoning o’rni o’zgacha desak aslo adashmaymiz. Shuning uchun oilada insonlar bir- birini tushunib xato va kamchiliklarini kechirib yashashlari kerak . Endigina oila qurish ostonasidagi yoshlarimizga esa to’g’ri tushunchalar berish lozim . Oila institutlarining asosiy vazifasi ham shudir. Oila institutlari nafaqat qizlarimizni balki yosh yigitlarimizni ham yangi hayot ostonasiga qadam qo’yishga tayyorlaydi . Oilada kelinlarning qanday vazifalar bajarishi kerakligi singdirilib kelinadi . Ammo oilada yigitlarimizning ham o’z mas’uliyatlari borligini sedan chiqarmasligimiz kerak .

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Инглхарт Р. *Культурная эволюция: как изменяются человеческие мотивации и как это меняет мир.* – Москва: Мысль, 2018. – С. 19.
2. Кенжаев Д.М. *Исламские ценности в воззрение джадидов и их концепция духовного реформирования общества. Дисс. ... канд. истор. наук.* – Тошкент, 2008. – 154 с.
3. Моджина Н.В. *Роль права как ценностного феномена в формировании личности: Монография / Моджина Н. В.* – Уфа: РИЦ БашГУ, 2009. – С. 50.
4. Муртабаева А.Ж. *“Нравственные ценности народа и их значение в духовном возрождении Узбекистана”.* Дисс. ... канд. филос. наук. – Нукус, 2000. – 131 с.

Abdusamatova Odinaxon Abdusalom qizi,
*Farg'ona davlat universiteti
Tarix fakulteti talabasi*

OILAVIY MUAMMOLARNI HAL ETISHDA MA'NAVIY MUHITNING DOLZARB MASALALARI

Annotatsiya. Jamiyatning ijtimoiy -siyosiy , madaniy hayotini oila institutisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Mazkur maqolada oila institutini mustahkamlash , jamiyat hayotida uning nufuzini orttirish hamda oilaviy muammolarning kelib chiqish sabablari haqida ma'lumotlar bayon etilgan. Zero, oiladagi muammolarga samarali yechim topish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar. Oila, davlat, jamiyat , sotsial munosabatlar, ijtimoiy siyosat, oilaviy muammolar, oilaviy zo'ravonlik, ajrimlar.

Abstract. The socio-political and cultural life of society cannot be imagined without the institution of the family. This article provides information about the strengthening of the family institution, increasing its influence in the life of society, and the causes of family problems. After all, it is important to find effective solutions to family problems and develop practical recommendations.

Keywords. Family, state, society, social relations, social policy, family problems, family violence, decisions.

Kirish. Davlatning davlat bo'lib shakllanishida uning fuqarolarining roli muhim ahamiyatga ega. Chunki mustahkam davlat tashkil etish uchun jamiyat a'zolarining o'zaro ijtimoiy munosabatlari yaxshi shakllangan bo'lishi, jamiyat poydevori bo'lmish oilalar farovonligiga ham alohida e'tibor qaratish zarur.

Globalashuv jarayonining dolzarb muammolari qatoriga oilaning instituti sifatidagi darajasining pasayishi yoki yo'q bo'lib ketayotganligini kiritishimiz mumkinligi, o'ylaymanki, barchamiz uchun achinarli hol. Bu darajaga yetib kelishi sabab va omillari nimalardan iborat? Oila institutini mustahkamlash uchun nimalar qilishimiz kerak? Afsuski, bu muammo bizning yurtimizni ham chetlab o'tmagan.

Asosiy qism. Yurtboshimizning mazkur muammo yuzasidan mas'ullarga alohida vazifalar berayotganligi , ko'plab qonun va farmoyishlarni imzolayotganliklari masalaning ijtimoiy -siyosiy tendensiyasining qay darajada ahamiyat kasb etayotganligi guvohi bo'lishimiz mumkin.

“ Odamlarimiz bilishi kerak, oila muqaddas biz uchun . Oilani saqlab qolmasak, biz o'zligimizni yo'qotamiz” .⁹⁴

Oilaviy muammolarni o'rganishda , avvalo, oilaning ijtimoiy-ma'naviy muhitini tashkil etish o'rinlidir. Buni ta'lim va tarbiya bilan bog'lab ko'rib chiqishimiz mumkin.

- Oila a'zolari o'rtasida muloqotning yetishmasligi:

⁹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2018-yil 7-fevralda xotin-qizlarni qo'llab -quvvatlash va oila institutini mustahkamlash masalalariga bag'ishlangan yig'ilishida so'zlagan nutqidan

Ota-onalar va bolalar o‘rtasida aloqaning buzilishi tushunmovchiliklarga, nizolarga va ta‘lim maqsadlarini qo‘llab quvvatlamaslikka olib keladi. Agar oila a‘zolari bir-birlarini tinglamas ekan, bir-birining istaklarini anglamas ekan, bunday oila inqirozga yuz tutishi hech gap emas.

- Cheklovlar:

Ota-onalar yoki oilaning boshqa a‘zolari o‘rtasida cheklovlarning qo‘yilishi ijtimoiy muhitda ishonchsizlik, qo‘rquv va xulq-atvor normalarining buzilishi muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Chunki har bir inson erkinlikka intiladi, mustaqil bo‘lishi uchun harakat qiladi. Cheklovlar esa uni “ma‘lum bir qolip” asosida shakllanishga majbur qiladi. Bunga misol sifatida oilada erkaklarning ota-onasi so‘zidan chiqq olmasliklari, ayollarning boshqalar fikri bilan ish yuritishlarini keltirib o‘tsak, o‘ylaymanki xato bo‘lmaydi. Farzandlar uchun chegaralangan muhit ularning ijtimoiylashuv jarayonining sust kechishiga olib keladi. Ya‘ni bu shaxsning mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanishiga ta‘sir qiladi.

- Cheklangan resurslar:

Moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan oilalarda ham muammolar ko‘p uchraydi. Ayniqsa, farzandlar uchun oilaning bu kabi muammolari ta‘lim resurslari va imkoniyatlaridan foydalanishda qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi hech gap emas. Bunday sharoitda bevosita davlatimizning olib borayotgan ijtimoiy siyosati ko‘zga tashlanishi va imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanishga harakat qilish zarur. Mahallalarda aholining ish bilan bandlik muammosini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar mexanizmlarini takomillashtirish muhim vazifadir.

- Madaniy farqlar

Oila a‘zolari o‘rtasidagi ziddiyatlar madaniy qadriyatlar va e‘tiqodlar tarbiya jarayonida keskinlik va qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi ehtimoldan holi emas. Zamonaviy jamiyatda “ommaviy madaniyat” ning turli ta’sirlari tufayli nosog‘lom munosabatlarga ko‘pgina oilalar duch kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida insonlarning mafkuraviy immunitetlarining pasayib borayotganligini ko‘rsatadi.

- Texnologiya va qaramlik:

Barchamiz guvohi bo‘lmoqdamizki, texnologiyalar asrida barcha ulardan keng foydalanib bormoqda. Achinarlisi, fan-texnika yutuqlaridan noto‘g‘ri foydalanish, ayniqsa, telefon tufayli ko‘pgina oilalar inqirozga yuz tutmoqda. Birinchi omil sifatida telefondagi turli yozishmalar tufayli oilaning buzilib ketayotganligini keltirsak, keyingi o‘rinda yosh avlodning ijtimoiy ko‘nikmalarga, jismoniy salomatligiga va ma‘naviy muhitiga ko‘rsatayotgan ta‘sirini aytishimiz mumkin. Ko‘p insonlarning vaqti shu texnologiyalar tufayli oson, qulay ammo ba‘zi hollarda besamar o‘tmoqda. Agar ana shu vaqtni kerakli narsalarga – bilim olishga, kitob o‘qishga, farzandlar tarbiyasiga, o‘zaro muloqotga, ayollar esa tikish- bichish va hatto ovqat tayyorlashni o‘rganishga sarflashganda edi, qisman oilaviy muammolarning oldini olgan bo‘lishardi. Shu o‘rinda Yurtboshimizning: “Oilada bir nafar qiz o‘qib oliy ma‘lumotga ega bo‘lsa, xonadondagi muhit butunlay o‘zgaradi” degan fikrini keltirib o‘tishimiz o‘rinli bo‘ladi.

Hozirgi kunda oilaviy muammolar haqida so‘z yuritilsa, ajrimlar va ularning oqibatlari haqida gapirmaslikning iloji yo‘q. Ajralmoqchi bo‘lganlar o‘z turmush tarzi va dunyoqarashida turli o‘zgarishlarni boshdan kechiradi. Pol Boennen ajralishni amalga oshiruvchi o‘zaro 6ta bosqichni belgilaydi.⁹⁵

1. *Janjalli ajralish* – nikohning buzilishi mohiyatini ifodalaydi. Bunda sheriklar o‘rtasidagi sovuq munosabatlar keskin oshib, odatda nikohlarning buzilishiga olib keladi.

2. *Ochiq ajralish* – bunda nikohni bekor qilish uchun zarur asoslar mavjud bo‘ladi.

3. *Iqtisod sababli ajralish* – mol-mulkning bo‘linishi bilan bog‘liq ajralishdir.

4. *Ota-onalar ajralishi* – bolalarga vasiylik qilish va ulardan xabar olib turish huquqi bilan bog‘liq ajralish.

5. *Kommunikativ ajralish* – ajralganlarning do‘stona va boshqa ijtimoiy aloqalarining o‘zgarishi.

6. *Ruhiy ajralish* -- individ xissiy bog‘langanlik iplarini uzil -kesil uzadi va mustaqil hayot zaruriyatini sezadi.⁹⁶

Oiladagi muammolarning hozirda ko‘p uchrayotgan turlaridan biri zo‘ravonlikdir. Har qanday zo‘ravonlikning mohiyati – jabrlanuvchini, iloji boricha, kamsitish istagidir, chunki faqat shu yo‘l bilan zo‘ravonlik qilgan kishi o‘zini birmuncha vaqt “ustun” his qilishi mumkin. Oilaviy zo‘ravonlik masalasi esa tobora keskin tus olib borayotganligi bu masalaga jamoatchilik e‘tiborini qaratish zarur bo‘lgan muhim muammolar qatorida ekanligining isbotidir. Ammo mazkur muammoning ildiz otib, katta ko‘ngilsizliklarni keltirib chiqarmasligi uchun ularni bartaraf etish yo‘llarini muhokama etsak, ta‘bir joizki, jamiyat negizi bo‘lmish oilalar mustahkamligini saqlab qolgan bo‘lamiz. Binobarin, oilaviy muammolarni samarali hal etishda, avvalo, muammoning kelib chiqish sabablarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etishini unutmazlik kerak.

Xulosa. Fikri ojizimcha, har qanday oilaviy muammolarning sababi bilimsizlik, oila a‘zolarining o‘z zimmasidagi vazifalarini to‘liq anglab yetmaganligi, farzand tarbiyasidagi e‘tiborsizlik, nosog‘lom tarbiyaviy muhit hamda to‘la anglanmagan munosabatlardir. Jamiyatning va davlatning barqaror hayot pozitsiyasini saqlashida, shuningdek, sog‘lom davlat va jamiyat barpo etishda oilalarning o‘rni beqiyos. Biroq hali hanuz o‘z yechimini topmayotgan qator muammo va kamchiliklar farovonlik uchun to‘siq bo‘lmoqda. Shu sababli oila institutini mustahkamlash, oilaviy muammolarni hal etish uchun amaliy tavsiyalar va huquqiy normalar ishlab chiqish zaruriyati paydo bo‘ladi. Agar mazkur oilaviy zo‘ravonlik muammolari o‘z vaqtida bartaraf etilmasa, bunday oilalardan yetishib chiqqan yosh avlod ayrim hollarda jamiyatning nuqsoniga aylanishi mumkin.

⁹⁵ Bohannan P. The six stations of divorce. In: Bohannan P. Divorce and after. New York, 1970

⁹⁶ E. Giddens. Sotsiologiya. “Sharq” Toshkent - 2002

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2018-yil 7-fevralda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishida so‘zlagan nutqidan*
2. *Bohannon P. The six stations of divorce. In: Bohannon P. Divorce and after. New York, 1970*
3. *E. Giddens. Sotsiologiya. “Sharq” Toshkent - 2002*
4. *Epstein, J. L. (2010). Maktab, oila va jamiyat hamkorligi: o‘qituvchilarni tayyorlash va maktablarni yaxshilash. Routledge.*
5. *Guver-Dempsi, K. V. Va Sandler, H. M. (2005). Yakuniy natijalar hisoboti: Ota-onalarning bolalar ta’limidagi ishtiroki. AQSh Ta’lim Departamenti.*
6. *Xenderson, A. T. Va Mapp, K. L. (2002). Dalillarning yangi to‘lqini: maktab, oila va jamiyat aloqalarining o‘quvchilar muvaffaqiyatiga ta’siri. Oila va jamiyatning maktablar bilan aloqalari milliy markazi.*
7. *Deslandes, R. Va Bertrand, R. (2005). O‘rta maktab ta’limida ota-onalarni jalb qilish motivatsiyasi. Ta’lim tadqiqotlari jurnali, 98(3), 164-175.*
8. *Delgado-Gaytan, C. (1990). Imkoniyatlarni oshirish uchun savodxonlik: bolalarni tarbiyalashda ota-onalarning roli. Falmer Press*

Мирзасолиев Жахонгир Мирзасоипович

ОИЛАЛАРДА НИЗО МОТИВИ НАМОЁН БЎЛИШИНING ПСИХОЛОГИК ДЕТЕРМИНАНТИ СИФАТИДА

Аннотация: Ушбу мақолада оиладаги қадриятлар дифференциацияси низо мотиви намоён бўлишининг психологик детерминанти, муайян психологик факторлар сифатида таъсир этиши таҳлил қилинган.

Калим сўзлар: оила, қадриятлар тизимининг хилма-хиллиги, дифференциация, оиладаги низоларнинг маънавий муаммолари, психологик детерминант, шахс, таълим ва ҳаётий тажриба.

Abstract This article analyzes value differentiation in the family and analyzes it as a psychological determinant of the manifestation of the conflict motive, which is influenced by certain psychological factors.

Keywords: family, value system diversity, differentiation, spiritual problems of conflicts in the family, psychological determinant, person, education and life experience.

Оила муаммоси азалдан инсониятнинг диққат марказида бўлиб келган. Чунки оила мустаҳкамлиги жамият фаровонлигининг асосий негизларидан биридир⁹⁷. Давлатнинг асосий муаммоларидан бири бу оиланинг объектив ва субъектив муаммолар ва қийинчиликларни енгишга тайёрлиги ва қобилиятини белгилайдиган рухий саломатликни сақлаб қолишдир. Бу бир қатор ҳолатларга боғлиқ. Оилада турмуш ўртоқларнинг шахсий қийинчиликлари ва муаммолари оилавий ҳаёт соҳалари, оила аъзоларининг касбий фаолияти билан ўзаро боғлиқ ва умуман олганда оилавий муносабатлар даражасини белгилаб унга таъсир қилади.

Оилавий низоларни аниқлашнинг психологик омиллари сўнги йиллара содир бўлаётган иқтисодий ва ижтимоий ўзгаришлар, жамият ҳаётининг барча соҳаларига таъсир кўрсатмоқда. Оила ижтимоий институт сифатида нафақат жамият барқарорлигини таъминлайди, балки у билан бирга ривожланади, инновациялар ва ўзгаришларга мослашади.

Оиладаги муносабатларнинг сабаби кўплаб омилларга боғлиқ. Бу оиланинг ижтимоий мавқеи, унинг таркиби, оила аъзоларнинг ёши, уларнинг ҳиссиёт даражаси, ақл-идроқи ва очик мулоқот қилиш қобилиятларида кўринади.

Оилавий муносабатлар ҳолатига моддий ва иқтисодий омиллар алоҳида таъсир кўрсатади. Айрим оилаларнинг молиявий аҳволининг ёмонлашиши, оила аъзоларнинг ижтимоий мавқеидаги ўзгаришлар, жамият ва шахс қадриятлари иэрархиясининг ўзгариши ва бошқа кўплаб сабаблар, оилавий ҳаётдан қониқиш даражасининг пасайишига олиб келмоқда. Никоҳ ва оилавий муносабатлар жамият ҳолатининг ҳам ижобий ҳам салбий томонларини акс эттиради.

⁹⁷ Г.Ниязметова диссертация, “Ўзбек оилаларида эр-хотинлик муносабатлари динамикасининг ижтимоий-психологик хусусиятлари”, Т– 2010й, 4-б.

Буни маҳаллий ва хорижий психолог олимлар томонидан олиб борилган тадқиқотлар натижалари тасдиқлайди.

Бугунги кунга келиб хориж олимлари И.С.Голод, С.В.Мерзлякова, С.С.Седелников, В.А.Сйсенко, Н.М.Римашевская, Н.Г.Юркевич, Н.В.Малярова, А.Г.Шмелева, Т.Д.Дружинин, Н.В.Гришина асарларида оиладаги низоларнинг айрим масалалари, хусусан, ажралишлар, низоларнинг сабаблари, низоларнинг ўзаро таъсири шакллари ўрганилган⁹⁸.

С.В.Мерзлякова ўз тадқиқотида ёш ўсмирларнинг ижтимоий мавқеи ва диний эътиқодига қараб, оилада ўзини ўзи белгилашнинг ўзига хос хусусиятларини очиб берган. Оиланинг ўзини ўзи белгилашнинг таркибий хусусиятларини таҳлил қилиш учун Ч.Осгуд томонидан ишлаб чиқилган фарқлаш усули, Е.Б.Фанталованинг ҳаётнинг турли соҳаларида “қиймат” ва “мавжудлик” ўртасидаги боғлиқлик даражаси сўровномасидан ва аниқлашга имкон берадиган математик-статистик усуллардан фойдаланган. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, замонавий ёшларнинг ўз тақдирини ўзи белгилашда оиланинг ижтимоий мавқеига (маҳаллий ёки мигрант) боғлиқ бўлган ижтимоий-маданий шароитлар, шунингдек, замонавий ёшларга катта таъсир кўрсатадиган диний онг, мигрант талабалар ва маҳаллий аҳоли ўртасида оилавий қадриятлар ва никоҳ мотивларидаги фарқларни аниқлаган. Динлар (православлик, ислом, буддизм, атеизм) никоҳ ва оилавий муносабатлар қадриятларига таъсир қилишини исботлаган⁹⁹.

Россиялик олим И.Е.Жмурин ўзининг тадқиқот ишларида психоаналитик ёндашувга асосланиб, оиладаги зиддиятларнинг шахсий детерминантларининг хусусиятларини аниқлаш, оиладаги низоларнинг шахсий детерминантларига таъсирини экспериментал тарзда ўрганиш ишларини олиб борган¹⁰⁰.

Тадқиқотнинг илмий вазифаси никоҳ муносабатларидаги низоларнинг ўзаро таъсири психопрофилактикасининг амалий муаммоларини ҳал қилиш учун никоҳ низосининг шахсий детерминантларини аниқлашдан иборат бўлган. Тадқиқот мақсади, психоаналитик ёндашувга асосланиб, жуфтликлар ўртасидаги зиддиятларнинг шахсий детерминантларини ажратиб кўрсатиш, психоаналитик ёндашув чегараларида никоҳ муносабатлари ва оилавий ҳаёт циклининг босқичларида ер-хотин низоларининг шахсий детерминантларининг хусусиятлари, психологик таълимнинг никоҳ низосининг шахсий детерминантларига таъсирини экспериментал тарзда ўрганиш ишларини олиб борган¹⁰¹.

⁹⁸ <https://studylib.ru/doc/2633237/psihologicheskie-factory-determinacii-semejnyh-konfliktov>.

⁹⁹ <https://cyberleninka.ru/article/n/sociocultural-determinants-of-modern-youth-s-family-self-determination>.

¹⁰⁰ И.Е.Жмурин, диссертация, “Личностные детерминанты супружеского конфликта: психоаналитический подход” Москва-2012г.

¹⁰¹ <https://www.dissercat.com/content/lichnostnye-determinanty-supruzheskogo-konflikta-psikhoanaliticheskii-podkhod>

С.В.Бобришов ва В.В.Ивакиналарнинг “Оилавий муносабатлар соҳасидаги ижтимоий-психологик аспектлар” номли Ўқув қўлланмасида оилавий низоларнинг феноменологияси*¹⁰² моҳияти, детерминант*¹⁰³, хусусиятлари келтириб ўтилган.

Мутахассисларнинг таъкидлашича, иқтисодий, ҳуқуқий, сиёсий конструкцияларнинг кескин ўзгариши, оилавий ҳаётнинг мазмунини ўзгартиради.

Келинг психологик детерминант бу нима деган саволга жавоб берсак. Психологик детерминант бирор бир амал ёки ҳаракатни аниқловчи психологик ҳолат ёки муҳит, маънавий меъёрлар ва бошқа тизимлар билан таъсир этадиган омиллардир. Ушбу детерминантлар, шахснинг ҳаракатларини аниқлайдиган муҳим асосий сабаблардандир.

Психологик детерминант масалалари қуйидагиларда ўз аксини топади:

Маънавий меъёрлар: Инсоннинг маънавий меъёрлари унинг фикрларига, амалиётларига ва ишончларига таъсир этади. Маънавий меъёрлар жамиятдаги хатти-ҳаракатларни тартибга солувчи, унинг фазилатлари ва масъулиятини белгиловчи қоидалар ва тамойиллар тизимидир. Улар яхшилик ва ёмонлик, адолат ва ҳалоллик, бошқа одамларга ва атрофимиздаги дунёга ҳурмат ҳақидаги ғояларга асосланади.

Инсонда яхшиликдан ёмонликни ажратишга, ёмон ишлари учун ўзини айбдор ҳис қилишга, яхшиликлари билан фахрланишга ёрдам берувчи ички туйғу мавжуд. Жамиятда умум эътироф этилган хулқ-атвор меъёрлари, қонунлар ва анъаналар инсон ахлоқининг шаклланишига ҳам таъсир қилади.

Маънавий меъёрлар одамларда қийин вазиятлардан чиқишга, тўғри танлов қилишга ва ўз ҳаракатлари учун жавобгарлик ҳиссини уйғотади. Ахлоқий меъёрларга риоя қилиш жамиятда ишонч, ўзаро ёрдам ва хавфсизлик муҳитини яратишга ёрдам беради.

Маънавий меъёрлар шунчаки қоидалар эмас, улар адолатли, инсонпарвар ва фаровон жамият куришнинг асосидир.

Муҳит ва ҳаёт шароитлари: Инсоннинг яшаш муҳити унинг ҳаётий амалларига таъсир этади. Жамоа, шахснинг оиладаги ўрни ва бошқа омиллар шахсни уларнинг таъсирини тўлиқ ҳисобга олишда келиб чиқади.

Муҳит - бу бизни ўраб турган ҳамма нарса, жумладан: биз мулоқот қиладиган одамлар, оиламиз, дўстларимиз, ҳамкасбларимиз ва қўшниларимиз.

Ҳаёт шароитлари - бу инсоннинг ҳаёт сифатига таъсир қилувчи омиллар тўплами, масалан: овқатланиш, таълим ва соғлиқни сақлаш, яшаш шароитлари,

¹⁰² **Феноменология** (феномен ва логия) Фалсафий [фан](#); [фалсафа](#) тарихида турлича: ҳиссий билишни [танқид](#) қиладиган фан сифатида (И. Г. Ламберг, И. [Кант](#)), фалсафанинг вужудга келиши, онгни тарихий тадқиқ этиш шакллариини ўрганадиган [таълимот](#) сифатида (Г. Гегелнинг «[Рух](#) феноменологияси»), психик феноменларни [баён](#) этувчи психологиянинг бир қисми сифатида (Ф. Брентано, А. Мейнонг) [талқин](#) этилади.

¹⁰³ Детерминант бу- “Аниқловчи” тушунчаси (лотинча *determinare* - чеклаш, аниқлаш деган маъноларни билдиради.

хавфсизлик, экологик ҳолат, ҳаёт даражаси, сўз эркинлиги, сиёсий ҳаётда иштирок этиши ва ҳ.к.лар.

Шундай экан, қулай муҳит ва турмуш шароитини яратиш бутун жамиятнинг биргаликдаги саъй-ҳаракатларини талаб қиладиган вазифадир.

Психологик турлилик: Инсоннинг мантиқий, эмоционал, шахсийлик, ижтимоий ва бошқа психологик турлари унинг амалларига ва фикрларига таъсир этади. Психологик турлилик - бу турли омиллар туфайли инсоннинг фикрлари, ҳис-туйғулари ва хатти-ҳаракатларининг кенг доираси ҳисобланади. Масалан, *Шахсият:* темперамент, характер, кадриятлар, эътиқодлар, қизиқишлар каби индивидуал хусусиятлардир.

Тажриба: Шахсий тажрибалар, воқеалар, оила ва атроф-муҳитнинг таъсири.

Ҳар бир инсоннинг ўзига хослиги: Ҳар бир инсоннинг ўзига хос психологик хусусиятлари мавжуд.

Турли омилларнинг таъсири: Психологик хилма-хиллик фақат битта омилнинг натижаси эмас, у кўп омилларга боғлиқ. Ҳар хил темпераментлар: холерик, сангвиник, флегматик ва меланхолик одамлар воқеаларга турлича муносабатда бўлишади ва турли вазиятларда ўзини тутишади. Шундай қилиб инсон темпераментидан келиб чиқиб, маданиятнинг ҳис-туйғуларини очиқ ифода этишга мойил бўлса, бошқалари улардан кўпроқ эҳтиёткорона ифодаланишади. Ҳар бир инсон ўзини қулай ҳис қиладиган ва ўз салоҳиятини рўёбга чиқара оладиган муҳитни яратишга интилади.

Одамлар ўзларининг хусусиятлари туфайли нотўғри қарашларга дуч келишлари мумкин. Инсонларнинг идрок ва хатти-ҳаракатларидаги фарқлар тушунмовчилик ва низоларга олиб келиши мумкин. Низоларни олдини олишда психологик хилма-хилликни роли катта.

Психологик хилма-хиллик инсоният жамиятининг табиий ва муҳим қисмидир. Психологик хилма-хилликнинг афзалликлари турли шахсий фазилатлар, тажриба, маданий хусусиятлар ва генетик мойилликларнинг комбинатцияси натижасида юзага келади. Психологик хилма-хиллик ҳар бир инсон ўзининг хусусиятларидан қатъи назар, ўзини қулай ҳис қилиши, ўз салоҳиятини рўёбга чиқариши ва жамият ривожига ҳисса қўшиши мумкин бўлган шароитларни яратишни ўз ичига олади.

Жисмоний ва мантиқий физиология: Инсоннинг жисмоний ва мантиқий физиологияси унинг фикрлари ва амаллари билан боғлиқ. Ушбу физиологик омиллар, саломатлик ҳолатига нервлар таъсирида шахснинг амалларига таъсир этади.

Инсон шунчаки органлар ва тизимлар тўплами эмас, балки ҳамма нарса ўзаро боғлиқ бўлган ягона организмдир. Тана ва миянинг ишлашини ўрганадиган жисмоний ва мантиқий физиология биз каби шахсларни яратиш учун бир-бири билан чамбарчас боғлиқ.

Физиология: Бу бизнинг органлар ва тизимларимиз қандай ишлаши сирларини очиб беради. Биз мушакларнинг қисқаришини, нервларнинг сигналларни қандай узатишини, гормонлар жараёнларни қандай бошқаришини кўрамиз.

Жисмоний ва мантиқий физиология бизга ўзимизни тушуниш калитини беради. Биз танамиз қандай ишлашини, қандай фикр юритишимизни, турли омилларга қандай муносабатда бўлишини билиб оламиз. Бу билим бизга соғлиғимизга ғамхўрлик қилиш, иш фаолиятини яхшилаш ва янада онгли ва тўлиқ ҳаёт кечириш имконини беради.

Бундан ташқари психологик детерминантларнинг кўплаб факторлари бўлиб, улар кенг манода амалга оширилади.

Психологик детерминант айниқса психологияда амалий, маънавий ва физикавий фаолиятларни муайянлаштиришда таъсир этадиган омиллардан биридир.

Психологик детерминантлар муайян меъёрлар, муаммолар ёки амалиётларга, умуман айтганда инсоннинг амалларига таъсир этадиган асосий маънавий омилдир. Улар инсонга шахсийлиги, оммавийлиги, жамият билан ўзаро алоқаси ва бошқа омиллар орқали таъсир этади.

Масалан, кўпчилик психологлар инсоннинг ҳаётини фаолиятларида ушбу омилларни асос қилиб олган. Булар, инсоннинг ҳис туйғуларини таҳлил қилишда, иш самарадорлигини ва ўз олдига қўйган масъулиятни ҳис қилиш жараёнларида кўрсатадиган хусусиятларни шакллантиради.

Психологик детерминантлар инсонга маънавий ва физиологик ҳолати, шахсийлиги, таълим ва бошқа асосий омиллар томонидан таъсир этади.

Сўнги йилларда олиб борилган тадқиқотлар шуни тасдиқлайдики оиладаги ота-она, турмуш ўртоқ, фарзандлар ва яқин қариндошларга тиббий, ижтимоий ва психологик ёрдам кўрсатиш зарур¹⁰⁴. Бу эса оиладаги турмуш тарзини яхшилашда, оиладаги муаммоларни маълум даражада бартараф этишга хизмат қилади.

Жаҳон олимлари томонидан оилалардаги низолар тадқиқ этилганда ота-оналарнинг айрим индивидуал хусусиятлари ва оиладаги никоҳ муносабатларда юзага келаётган низолар ажрашишларнинг энг муҳим манбаи эканлиги аниқланган¹⁰⁵.

Мутахассисларнинг таъкидлашича, иқтисодий, ҳуқуқий, сиёсий конструкцияларнинг кескин ўзгариши, оилавий ҳаётнинг мазмунини ўзгартиради.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, олиб борилган тадқиқотлар шуни таъкидлашга имкон беради, ҳеч бир оила низолардан ҳоли эмас, шунга кўра,

¹⁰⁴ I.I.Prykhodko, S.V.Bielai, A.M.Hrynzovskyi, A.M.Jelaho, S.O.Hodlevskyi, S.I.Kalashchenko, Ҳарбий хизматчиларнинг экстремал шароитларда мослашуви ва хавфсизлигининг тиббий-психологик жиҳатлари, Wiad Lek . 2020;73(4): 679.

¹⁰⁵ <https://www.dissercat.com/content/spetsifika-proyavleniya-lichnostnykh-svoistv-detei-v-semyakh-professionalnykh-voennosluzhashchik>

хар қандай оиланинг ҳаётида низо фонида қийин ҳаётий вазиятларни ҳал қилиш муаммоси алоҳида ўрин тутади ва бу муаммоларни ҳал қилиш ёндашувлари тўлиқ асосли равишда касбига бўлган мажбурий қарама-қаршиликларни келтириб чиқариш билан жамоа салоҳиятига ўз таъсирини кўрсатади. Шундай экан, психологик детерминант инсоннинг бирор бир амал ёки ҳаракатини аниқловчи психологик ҳолат сифатида шахсий ҳаракатларини аниқлашда муҳим ўрин эгаллайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Г.Ниязметова диссертация, “Ўзбек оилаларида эр-хотинлик муносабатлари динамикасининг ижтимоий-психологик хусусиятлари”, Т– 2010й, 4-б.
2. I.I.Prykhodko, S.V.Bielai, A.M.Hrynzovskiy, A.M.Jelaho, S.O.Hodlevskiy, S.I.Kalashchenko, *Ҳарбий хизматчиларнинг экстремал шароитларда мослашуви ва хавфсизлигининг тиббий-психологик жиҳатлари*, *Wiad Lek* . 2020;73(4): 679.
3. И.Е.Жмурин, диссертация, “Личностные детерминанты супружеского конфликта: психоаналитический подход” Москва-2012г.
4. <https://www.dissercat.com/content/spetsifika-proyavleniya-lichnostnykh-svoistv-detei-v-semyakh-professionalnykh-voennosluzhash>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/sociocultural-determinants-of-modern-youth-s-family-self-determination>
6. <https://www.dissercat.com/content/lichnostnye-determinanty-supruzheskogo-konflikta-psikhoanaliticheskii-podkhod>

RAHBARNING BOSHQARUV FAOLIYATIDA AXBOROT- KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI OSHIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya. *Ta’lim-tarbiya jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayoni nafaqat ta’lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari va metodlarining o‘zgarishiga, balki yangi metodlarning ham shakllanishiga olib keladi. Ta’lim-tarbiya jarayonlariga axborot texnologiyalarini joriy etishni tashkil etish va amalga oshirishda faoliyat yuritish algoritmining mo‘ljallanish, amalga oshirish, nazorat qilish va tuzatish bosqichlari ketma-ketligiga amal qilinadi.*

Tayanch so‘zlar: *rahbar, kommunikativ kompetensiyasi, ta’lim muassasasi, ta’lim-tarbiya, metodlar.*

Аннотация. *Процесс использования современных информационных технологий в образовательных процессах приводит не только к изменению организационных форм и методов образования, но и к формированию новых методов. При организации и осуществлении внедрения информационных технологий в образовательный процесс соблюдается последовательность этапов планирования, реализации, контроля и коррекции алгоритма деятельности.*

Ключевые слова: *лидер, коммуникативная компетентность, образовательное учреждение, образование, методы.*

Annotation. *The process of using modern information technologies in educational processes leads not only to changes in organizational forms and methods of education, but also to the formation of new methods. When organizing and implementing the implementation of information technologies in the educational process, the sequence of stages of planning, implementation, control and correction of the activity algorithm is observed.*

Keywords: *leader, communicative competence, educational institution, education, methods.*

Bugungi kunda malakali pedagog kadrlarga bo‘lgan talab kundandun ortib, barkamol avlodni asrlar davomida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega, fanning fundamental asoslarini, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuksak hamda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikma va malakasini puxta o‘zlashtirgan ijodkor pedagoglarni tayyorlash davr talabiga aylandi.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida ro‘y berayotgan tub yangilanishlar har bir ta’lim muassasasida o‘quv jarayoni metodik ta’minotini rivojlantirishni talab etmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yaqin yillar ichida pedagogik innovatsiyalarning asosiy manbai bo‘lib qoladi.

Ayni vaqtda o‘quv jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar hamda multimedia vositalarini keng joriy etish hisobiga mamlakatimiz ta’lim muassasalarining o‘quv-laboratoriya bazasini eng

zamonaviy o‘quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash, shuningdek, o‘qituvchilar va murabbiylarning mashaqqatli mehnatini moddiy hamda ma’naviy rag‘batlantirishning samarali tizimini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, axborot-kommunikativ kompetentlikni ham uning tarkibiy qismi sifatida, ham shaxs axborot madaniyatining tarkibiy qismi sifatida baholanishi mumkin. Ahamiyatli belgilar qatoriga axborot texnologiyalari asoslarini bilish, kompyuterdan zaruriy texnik vosita sifatida foydalanish, ta’lim makoni subyektlarining faol ijtimoiy pozitsiyasi va motivatsiyasining ifodalanganligi, axborotni izlash, tahlil qilish va foydalanishga oid bilim, ko‘nikma va malakalar kiritiladi.

U.Sh. Begimkulov¹, R.X. Djurayev², R.G. Isyanov, Sh.S. Sharipov, Sh.M. Adashboyev, M.N. Soylarning “Pedagogik ta’limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot” (T.: “Fan”, 2011) nomli ilmiy-metodik asarlarida keltirilgan mualliflarning qator ishlari muayyan kompetentlikni shakllantirish muammolarini tadqiq qilishga qaratilgan bo‘lib, unda axborot-kommunikativ kompetentlikni egallaganlikning uchta darajasi farqlanadi:

– bazaviy (tayanch) daraja – kompyuter savodxonligi uchun zarur bo‘lgan tayanch bilim, ko‘nikma va malakalar shakllangan; kasbiy faoliyatni tashkil etishda axborot kommunikatsion texnologiyalar (AKT)dan minimal foydalanish (elektron ko‘rinishdagi axborotni yaratish, tahrir qilish, saqlash, nusxa ko‘chirish va ko‘chirishning umumiy usullarini egallash, taqdimot texnologiyalari vositasida axborotni taqdim qilish, internet tarmog‘ida axborotni qidirish ko‘nikmalarini egallash va h.k., tarmoqda o‘zaro hamkorlikning muammo xarakteriga tobora mos keladigan va uni tobora optimal usullar bilan hal qilish imkonini beradigan usulini (yoki ularning kombinatsiyasini) tanlash);

– texnologik daraja – AKT amaliy faoliyatning instrumentiga (quroliga) aylanadi (internet-resurslar potensialini, ularning interaktivligi va axborotlilikini maqsadi nuqtai nazaridan baholash; global kompyuter tarmog‘i resurslari va dasturiy vositalarini asosiy texnologik, iqtisodiy, ergonomik va texnik talablarni hisobga olgan holda tahlil qilish; internet global tarmog‘ida dasturiy-texnologik va axborot ta’minotni taqdim qilish sifati, vosita va shakllarini tahlil qilish);

– amaliy (professional) daraja – kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun yangi vosita larni yaratish va ulardan ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarda samarali foydalanish malakasiga ega bo‘lish.

Axborot-kommunikativ kompetentlikning uch darajali modeliga mos holda pedagogda:

¹ Begimkulov U.SH. Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida masofaviy ta’limni tashkil etish. // «Maktab va hayot» jurnali, 2006, 6-son. – B. 25–27.

² Джураев Р.Х. Ведущие тенденции образования Республики Узбекистан в XXI веке. // «Maktab ta’limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturining dastlabki yakunlari: tahlillar, xulosalar va kelgusidagi vazifalar» respublika miqyosidagi ilmiy- amaliy konferensiyasi materiallari. 2010 yil 19–20 may. – T., 2010. –87–95-b.

- bazaviy daraja – pedagogning vazifalaridan kelib chiqib AKT vositalarida ta'lim-tarbiya maqsadlariga erishish uchun zarur bilim, malaka va ko'nikmalar invarianti;
- texnologik daraja – AKTni o'zlashtirish va pedagoglik faoliyatiga ixtisoslashtirilgan, kasbiy faoliyatni amalga oshirish metodikasi va mazmuni talablariga muvofiq ishlab chiqilgan, texnologiya hamda resurslarni joriy qilishga tayyorlik;
- pedagogik (psixologik-pedagogik, metodik, ijodiy) daraja – kasbiy faoliyat maqsadlariga mos elektron vositalarini ishlab chiqish, AKT vositalaridan shaxsning ma'naviy kamolotini ta'minlash bo'yicha vazifalarni hal qilishda foydalanishni farqlash mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayoni nafaqat ta'lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari va metodlarining o'zgarishiga, balki yangi metodlarning ham shakllanishiga olib keladi. Ta'lim-tarbiya jarayonlariga axborot texnologiyalarini joriy etishni tashkil etish va amalga oshirishda faoliyat yuritish algoritmining: mo'ljal olish (ta'lim-tarbiyaviy maqsadlar to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirish); amalga oshirish (ta'lim-tarbiya metodlari, usullari va vositalarini ko'zda tutilgan ketma-ketlikda amalga oshirish); nazorat qilish va tuzatish bosqichlari ketma-ketligiga amal qilinadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonlarining samarali o'tishi va uning kutilgan natijalarni berishi bu jarayonda muayyan talab va shartlarga amal qilish lozimligini taqozo etadi. Tadbirlarni o'tkazishda har bir ta'lim-tarbiyaviy tadbirni uyushtirishdan ko'zlangan aniq maqsadni belgilash, erishiladigan natijani bashoratlash, ta'lim-tarbiyaning maqsadi, vazifalari hamda natijalarini nazariy jihatdan asoslash, kasbiy faoliyatni tashkillashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish loyihasini yaratish, foydalanishi rejalashtirilgan texnologiyalarni natijani kafolatlashga safarbar qilish, kasbiy faoliyatni intensiv asos, ya'ni maksimal ilmiy aniqlik, kam resurs sarflab samarali natijaga erishish asosida qurish, ta'lim-tarbiyaviy jarayonni boshqariluvchi jarayonga aylantirish, ta'lim-tarbiya jarayonida samarali shakl, metod va vositalardan foydalanishga alohida e'tibor berish kabi bir qancha shartlar jarayonning samarali bolishini ta'minlaydi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash tarbiya metodlarining samaradorligini oshirishga, tarbiyachilar mehnat faoliyatining o'zgarishiga, ularning ish metodlarining takomillashishiga, pedagogik tizimlarning tarkibiy o'zgarishiga olib keladi. Bu esa ma'naviy- ma'rifiy jarayonlarni axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishda o'ziga xos vazifalarni qo'yadi³.

Ta'lim-tarbiyaviy faoliyat jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, eng avvalo, pedagogik- psixologik talablarga javob berishi kerak.

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonda pedagogik va psixologik talablarga mos texnologiyalardan foydalanishni tashkil etishda quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

³ Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. – Toshkent: “Fan”, 2011)

– taqdim etilayotgan axborot resurslari ishonchli, tegishli sohaning hozirgi zamon holatiga mos, tizimli va ketma-ket, ko‘rgazmali, amaliyot bilan bog‘langan bo‘lishi;

– taqdimot materiallari ilmiyligi va qabul qilinishi osonligining o‘zaro optimal variantida berilishi;

– taqdimot materiallarining bayon etilishi shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Berilayotgan axborotlar dars mavzusining mazmuniga mos bo‘lishi bilan birga o‘quvchilarda zarur ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirishni ta‘minlovchi topshiriqlar va vazifalardan tashkil topishi, o‘zlashtirish lozim bo‘lgan axborotlar hajmini aniqlashi, ma‘lum bir mantiqiy tizimda taqdim etilishi, uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga mos kelishi, nihoyat, tizimlilik tamoyiliga javob bera olishi zarur. Shuningdek, axborotlarning o‘quvchi-yoshlar tayyorgarlik darajasiga mos bo‘lishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari muayyan amallarni ongli, muntazam, rejali amalga oshirishda o‘zlashtiriladi. Ta‘lim-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda foydalanish mumkin bo‘lgan vositalarni quyidagicha guruhlash mumkin:

– multimedia – tadbirlarda axborotning turli xil ko‘rinishlari: rangli grafika, matn va grafikda dinamik effektlar, ovozlar va sintezlangan musiqalar, animatsiya, shuningdek, to‘laqonli videokliplar, hatto videofilmlardan foydalanishni ta‘minlaydi;

– interaktiv doska – bu kompyuterdagi tasvirlarni proyektor orqali namoyish etadigan sensorli ekrandir. Maxsus dasturiy ta‘minot matn, rasm, video- va audioma‘lumotlar va obyektlar, hamda internet-resurslar bilan ishlash va ular ustiga yozuv va izohlar tushirish imkonini beradi;

– videoanjuman – masofadan turib foydalanuvchi guruhlar orasida (raqamli videoyozuv yoki oqimli video ko‘rinishida ma‘lumotlar almashinish) yig‘ilish va munozaralar o‘tkazish jarayonini ta‘minlaydi;

– audioanjuman – tarmoq texnologiyasi tizimi va telefondan foydalangan holda turli geografik nuqtalarda joylashgan bir qancha shaxslarning ma‘lumotlarni ovozli-raqamli ko‘rinishda almashinish jarayonini ta‘minlaydi.

Axborotlashgan jamiyatda ta‘lim-tarbiya mazmunida egallanishi talab etiladigan ilmiy bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalar, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy g‘oyalar tizimining tarkib topishiga quyidagi omillar ta‘sir ko‘rsatadi:

– jamiyat ehtiyojlari;

– milliy meros, buyuk allomalar va yetuk olimlarning zamonaviy metodologik qarashlari;

– umuminsoniy qadriyatlar;

– ilmiy-texnik taraqqiyot;

– ta‘lim tizimining o‘zida yuzaga keluvchi, ta‘lim sifati, zamonaviyligi hamda ommaviylikini ta‘minlashga qaratilgan ehtiyojlar.

Ta‘lim-tarbiyaviy faoliyatga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish jarayonida o‘tkazilgan tadbir sifatini tashxis qilmay turib, undagi

jarayonlarni samarali boshqarish, ta’lim-tarbiya maqsadiga erishishda bir qancha murakkabliklar vujudga keladi. Shu bois, barcha o‘quv tadbirlarni o‘tkazish jarayonlarida o‘quvchilarning ma’naviy kamoloti darajasini belgilangan mezonlar va yondashuvlar orqali aniqlashda axborot texnologiyalariga asoslangan tizimni tashkil etish, ularning ta’lim-tarbiya maqsadlariga mosligini nazorat qilish bu boradagi muammolarni yechish imkoniyatini yaratadi.

Foyadalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Begimkulov U.SH. Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida masofaviy ta’limni tashkil etish. // «Maktab va hayot» jurnali, 2006, 6-son. – B. 25–27.*
2. *Джурраев Р.Х. Ведущие тенденции образования Республики Узбекистан в XXI веке. // «Maktab ta’limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturining dastlabki yakunlari: tahlillar, xulosalar va kelgusidagi vazifalar» respublika miqyosidagi ilmiy- amaliy konferensiyasi materiallari. 2010 yil 19–20 may. – T., 2010. –87–95-b.*
3. *Pedagogik ta’limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. – Toshkent: “Fan”, 2011)*
4. *Белова Е.Н. Управленческая компетентность руководителя как фактор развития инновационной деятельности в образовательном учреждении [Текст] / Е.Н. Белова // Инновации в непрерывном образовании. — 2010. — № 1. — С. 32–39.*
5. *Берлим Л.И. Управленческая компетентность менеджера образования [Текст] / Л.И.Берлим // Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена. Выпуск 53 (22). — 2007. — С. 276.*
6. *Сторожева О.И. Развитие профессиональной компетенции руководителя образовательной организации // Образование и наука. – 2012. – №8. – С. 12–23.*

MUNDARIJA

Kirish soʻzlari

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna..... 4

Birinchi shoʻba. Oilalarning farovonligini taʼminlash – barqaror kelajak omili (milliy va xorijiy tajriba)

Allanazarov M.M. Sharq mutafakkirlari hamda Turkiston jadidlarining
oilaviy tarbiya masalalaridagi ilmiy-nazariy qarashlari..... 7

Mirashirova N.A. Nikoh va oila munosabatlarining ijtimoiy-psixologik
omillari..... 11

Инобатхон М.Х. Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш тизимининг
янги босқичи..... 16

Karimov F.T. Turli turmush stajiga ega boʻlgan oilalardagi
ajrimlarning ijtimoiy-psixologik sabablari 20

Saidvaliyeva M. Oiladagi nizolarning psixologik prevensiyasi
barqarorlik omili sifatida..... 23

Sotiboldiyeva Sh.J., Alimova D.X. Oilada taʼlim va tarbiyaning
muammolari, vazifalari va istiqbollari..... 27

Ashurmatov M.K. Oila farovonligini taʼminlashda sharq
mutafakkirlarining qarashlari..... 32

Sapayeva B.S. Farovon oila-jamiyat tayanchi 36

Hojiyev R.B. Mamlakatimizda oilani mustahkamlashning
konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari 40

Ikkinchi shoʻba. Oilalarda gender tenglik va demografik barqarorlik masalalarining milliy va umuminsoniy jihatlari

Xolmatova Z.T. Oʻzbekistonda gender tarbiya – oila mustahkamligi meʼzoni..... 44

Alimov S.K. Migratsiya fenomenining oilaviy axloqiy qadriyatlar
transformatsiyasiga taʼsiri 51

Юнусходжаев З.Ш. К вопросу о гендерных ролях в узбекской семье..... 56

Atenov J.D., Esirgapov J.A. Jamiyatda gender tengligi strategiyasida gender
byudjeti konsepsiyasining mohiyati..... 61

Xusanov S.M. Mehnat motivatsiyasining gender tenglik va demografik
barqarorlik masalalariga taʼsir xususiyatlari 66



Алламуратова У.Дж. Оилада ҳомиладор аёллар ва туғиш ёшидаги аёллар саломатлигини сақлаш бошқарувидаги кейс-менежмент	70
Qobilova N. I., Djavlanova N.X. O‘zbek oilalarida ayollarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarining psixologik asoslari.....	78
Ганиева М.Ж. Национальные и общечеловеческие аспекты вопросов гендерного равенства в семьях	81
Ishboboyeva G.R. Oila strukturasi va gender munosabatlarning psixologik ahamiyati.....	84
Raximova M.M. Gender byudjeti konsepsiyasiga siyosiy va ijtimoiy munosabatlar	88
Panjizoda H.Z. The role of gender equality in overcoming domestic violence....	92
Pardayeva Sh.Z. Oila va jamiyat.....	95
Янгибоева Д.Р. Осознанная многодетность как психологическое явление ...	99
Турғунбоева Д.А. Демографик жараёнларда оиланинг ташкил топиши	104
Gulnoza N.A. Xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqillikka erishish yo‘llari va usullari.....	108
Raxmatullayeva X.B. Oilada er-xotin munosabatida rollar taqsimoti dinamikasining obyektiv va subyektiv konteksti.....	114
Bayjonov F.B. Talabalarda gender madaniyatni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	119

**Uchinchi sho‘ba. Oilada ta’lim va tarbiyani tashkil etish:
muammolar, vazifalar va istiqbollar**

Тўйчиева С. Оилада миллий кадриятлар ва анъаналар ҳолати.....	127
Yuldasheva N.A., Qudratova Sh.B. Jamiyatimizda oilalarning ma’naviy jihatdan ravnaq topishida konstitutsiyadagi qonunchiligimizning ahamiyati.....	133
Тўйчиева С. Марказий Осиё алломалари асарларида таомланиш одоби ҳақида.....	137
Шаамирова Ю.К. Тўлиқ оила – жамият пойдевори	140
Isayeva M.R. Yoshlar tarbiyasida “oila-mahalla-maktab” hamkorligi tizimi va uni rivojlantirishning ayrim jihatlari xususida.....	145
Tojibayeva N.K. Oila sharoitida o‘rnatilgan ayollar kolloboratsiyasining (hamkorligining) afzalliklari.....	150
Suvanov I.A. Axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda tarbiya omilining o‘rni	153
Qo‘ysinova F.O. Oilaviy munosabatlarning ijtimoiy talqini	157
Xolikova D.M. Tarbiya oila maskanida	161
Ahrorova Sh.O‘. Oilada ayolning milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashdagi o‘rni	166



Ahmadjonova U.T. Oilada estetik tarbiyani shakllantirish	171
Umedjanova M.L. Oilada ta’lim va tarbiyani tashkil etish ko‘nikmasini shakllantirish	175
Axmadjonova Y.T. Shaxsni tarbiyalashda oila, ta’lim muassasasi va mahallaning hamkorligi	178
Bovanova U.A., Keldiyorova A. Tarbiya jarayonida oilaning o‘rni	182
Mavlonov B.A., Kuziyev A.A. Ota-onaning farzandga tarbiya berish orqali jamiyatda o‘rin topishi.....	185
Abdiyeva Q.A. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishda oiladagi ta’lim va tarbiyani ahamiyati.....	191
Saparova U.B. Tarbiya fani asosida oilada iqtisodiy tarbiyani shakllantirish metodikasi	195
Otamurodova D., Madaliyeva F. Oilada ta’lim va tarbiyani tashkil etishda ota-onaning ravnaqi	200
Xoliqov U.Q. Shaxmat o‘rgatish orqali oilada ta’lim va tarbiyani tashkil etishda qizlarning mantiqiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik-psixologik vazifalari va istiqbollari	205
Xudoyberdiyev E. Oilada vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda ma’naviyatning o‘rni.....	210
Abduganiyeva D.A. The impact of parenting styles on the emotional health of the personality	213
Dedaxonova M.O. Internet madaniyatining oilada bola tarbiyasiga ta’siri.....	218
G‘ulomqodirov E.A. Oilaviy zo‘ravonlikka uchragan bolalarning psixologik profili.....	221
Bo‘riyeva M.Sh. O‘zbek migrant oilalardagi er-xotin emotsional munosabatlarda o‘z-o‘zini baholashning psixologik xususiyatlari.....	226
Rahimova M. The role of the family in the upbringing of girls	230
Rayimov N.M. Oilaviy munosabatlarda zo‘ravonlik hissi vujudga kelishi haqidagi psixologik qarashlar.....	233
Xudoyberdiyeva M.A. Tanlovlarni tashkil qilish orqali o‘smirlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish.....	236
Atajanova R.R. Oilada estetik tarbiyaning mohiyati	240
Уразметова Қ.Г. Оила – бахт ва қувонч қўрғони.....	243
Axrorova S.S. Oila institutini mustahkamlashning dolzarb masalalari	248
Qoryog‘diyev Sh.Sh. Oiladagi farzandlarning ehtiyojlari tizimida kasbiy yo‘nalganlik shakllanishining psixologik omillari.....	251
Муртазин Э.Р., Касимов А.М. Адаптация образовательных методик для домашнего обучения: опыт успешных семей.....	255
Нормурадова Д.А. Педагогико-психологические основы подготовки студенческой молодежи к семейной жизни.....	258

Rustamova L.I. Navoiyning oilaga munosabati.....	261
Mirislomov M.M. Oilada ekologik tarbiyani rivojlantirish yo‘llari.....	264
Sanayeva S.S. O‘zbekistonda oila siyosati	269
Mahammaturayeva M.D. O‘zbek oilasidagi o‘g‘il bolalarni javonmardlik asosida tarbiyalash	272
Xo‘jamqulova Sh.Sh. Oilada ta‘lim va tarbiyani tashkil etish uchun ota-ona va farzand munosabatlari	278
Sunnatova D.Sh. Oila va umumta‘lim maktablarida o‘quvchilarni lug‘at ustida ishlashga o‘rgatish.....	283
Akbarova M. Nikoh va oila	287
Farxodova D.M. Oilada bola ta‘lim- tarbiyasi va o‘qituvchi hamkorligi masalalari.....	293
Abdurashidova S.A. O‘zbek oilalarida bolalarni o‘z-o‘zini baholay olishining ahamiyati.....	297
Mustafoyeva F.X. Oila tarbiyasi – shaxs shakllanishining muhim mezoni sifatida	304
Abdurahimova S.A. Oilada talim va tarbiyaning ahamiyati.....	307
Abdusamatova O.A. Oilaviy muammolarni hal etishda ma‘naviy muhitning dolzarb masalalari.....	311
Мирзасолиев Ж.М. Oilalarda низо мотиви намоён бўлишининг психологик детерминанти сифатида	315
Yunusov U. Rahbarning boshqaruv faoliyatida axborot-kommunikativ kompetentlikni oshirish yo‘llari.....	321

“OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASHNING DOLZARB MASALALARI: FAROVON HAYOT, TA'LIM VA BARQAROR KELAJAK”

*MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
MATERIALLARI TO'PLAMI*

(15-may, 2024-yil)

“Mahalla va oila” nashriyoti
Toshkent – 2024

Nashr uchun mas'ul: **B. Mavlonov**
Muharrir: **O'. Namozova**
Badiiy muharrir: **F. Sobirov**
Dizayner-sahifalovchi: **L. Abdullayev**



1940

Nashriyot ro'yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.
Bosishga ruxsat etildi: 02.03.2024.
“Times New Roman” garniturasida. Qog'oz bichimi: 60x84 ¹/₈
Nashriyot bosma tabog'i 8,1.
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
M.Ismoiliy ko'chasi 1-G uy.

«Pages Print» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, Olmazor tumani, Chimboy ko'chasi, 8-uy.